

...de la simele... de la simele...

J. A. J. JACOB



RUS O'RAMONI

Kitob shu orda ko'reatligan muddatdan
kochiktilmagan holda topshirilishi shart

ilgarigi berilmalar miqdori _____

--	--

cn





822
142

б.д.

Rus adabiyoti durdonalari

LEONID MAKSIMOVICH LEONOV



RUS O'RMONI

Romandan parchalar

T-74

TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»
2021

UO'K 821.161.1-31

KBK 84(2Ros-Rus)

L 42

Rus tilidan *Alisher Sa'dullayev* tarjiması

Yozuvchi va dramaturg Leonid Maksimovich Leonov (1899–1994)ning mazkur romanida Ikkinchi jahon urushi arafasida yosh Polya Vixrova otasi, mashhur o'rmonshunos-olim Ivan Vixrovni izlaydi. U otasi haqidagi barcha haqiqatni bilishga intiladi. Ivan Vixrov esa asossiz ayblovlar va adolatsiz tanqidlar sababli deyarli faqirona hayot kechirishga majbur bo'ladi.

Roman halollikni, do'stlikni va har qanday holatda ham insonlar o'z so'zlariga sodiq qolishlariga o'rgatadi.



ISBN 978-9945-7005-6-1

© L.M. Leonov, 2021

© A. Sa'dullayev, 2021

© «O'zbekiston» NMIU, 2021

BIRINCHI BOB

1

Poyezd aniq jadval bo'yicha yetib keldi, lekin Varya perronda yo'q edi. Polya qo'lidagi yuklari bilan olomonga turtinib-surtinib bir amallab chekkaga chiqib olgach, voqe' dunyoda o'z onasidan keyingi eng itoatkor va yoqimli bu mavjudotni odamlar orasidan nighohlari bilan uzoq vaqt izladi.

U qandaydir ofat yoxud nosog'lik tufayli ushlanib qolgani shubhasiz... ammo... yoshlikning o'zi har qanday baxtsizliklardan asraydig'an «tumor» hisoblanguvchi Sovet davlatida talaba qiz qanday ham falokatga duchor bo'lishi mumkin? Yaqindagina tumanlararo sport musobaqasida temirtoshni hammadan ko'ra uzoqroqqa irg'itgan yigirma yasharlik qizga hamla qilishga qodir biror dard bormikan o'zi? Chamasi kecha oqshomda uyg'otadigan soat qo'ng'irog'ini sozlab qo'yishni unutgun-u, endi esa yo'lida uchragan yo'lovchilarniyam, yetti yet begona «xesh-aqrabolar»niyam turtib-surtib dugonasining bag'riga shiddat bilan otilish istagida vokzal bo'ylab yugurib yurgan bo'lsa kerak... Taassufki, poyezd kelishi bilan boshlanadigan to'sto'polonlar allaqachon bosilib bo'lganiga qaramasdan, Varya baribir yo'q edi.

Polya qog'ozga yozib berilgan manzilni o'zi topib borishga qaror qildi. Avvaliga bandi uzilgan jomadonni hech qanaqasiga eplab ololmadi, buni uddalasa, bo'g'cha-tugunlarini ko'tarishga ortiqcha qo'li yo'q-da: o'zi doim shunaqa – seni to'rt kishi kuzatishga chiqib, kutib olishga esa bittayam odam kelmasa, albatta, shundoq bo'ladi. Agar xos kiyimiga komsomol nishoni qadalgan, yukchi emasligi yaqqol sczilib turgan allaqanday irkit yigit to'satdan tepasida paydo bo'lib qolmasa, qiz yuklarining yarmini yo'qotib qo'yishi hech gap emasdi. Yigit arqon bilan bir-biriga qo'shib bog'langan o'rin-boshli sakvojaj va po'stin solingen qopni shartta orqalab, jomadonni qo'ltiqladiyu, go'yo bu ishni har kuni takror-takror bajaradiganday bir al-

pozda bo‘m-bo‘sh bo‘lib qolgan perron bo‘ylab xotirjam yurib ketdi. Yengadan shu yergacha yo‘l-yo‘lakay o‘ziga hamrohlik qilayotgan kichik-kichik omadlarga ko‘nikib’ ulgurgan Polya bu galgi g‘aroyib ko‘makka ham jimgina bo‘ysunaqoldi.

Qizga juda kamdan-kam uchraydigan nihoyatda kamgap valine’mat duch kelgandiki, bu holat bir tomondan yaxshi ham edi, chunki ortiqcha izoh har qanaqa mo‘jizaning ham ta‘sirini xiralashtirib qo‘yadi; boshqa tomondan esa – bu yigit musofir odamning ismini so‘ramagan taqdirda ham, hech bo‘lmasa odob yuzasidan poytaxtga kelishidan maqsadi nima ekanligi bilan qiziqib qo‘ysa haqi ketmasdi axir. Chunki Polya keyingi yuz-ikki yuz yil uchun mo‘ljallab qo‘ygan rejalarini kim bilandir o‘rtoqlashishga shoshib, sabri chidamay turgandi. U sal oldinroqqa yugurgilab o‘tganicha, sakvoyajga qo‘shib tang‘ilgan chovgun uchun uzr so‘rab qo‘ygan bo‘ldi, chunki u sohibi saxovatning tizzasiga urilib, qopqog‘ini sharaqlatganicha, o‘zi bilgan barcha muzofot yangiliklarini shang‘illab-shang‘illab vaysab borardi. Yigit esa qadimda buvi-momolar ham Moskvaga kelishda samovarlarini qo‘ltiqlab olishni odat qilganlarini aytib, o‘zicha Polyan niinchaligida bo‘ldi. Terlab-pishgan holda ko‘chaga chiqib olganidan keyin yigit o‘zining hamrohidan: «Chamasi poytaxtdagi xolangizga sovg‘a sifatida besh-oltita sarjinlangan o‘tin yoki katta bir bo‘lak xarsangtosh olib kelyapsiz, shekilli», deya so‘radi. Uning bu surbetligidan talmovsirab qolgan Polya javob tariqasida achchiqqina kesatiqlarni siylov qilishga shaylandi-yu, afsuski ayni shu paytda trolleybus bekatiga yetib qolishdi-da.

Endi mo‘jizalar shunaqayam qaynab kela boshladiki, bittasi qayerda tugab, boshqasi qayoqdan paydo bo‘lib qolayotganini anglashga ham ulgurolmaysan kishi. Qanot misoli parvozga shay g‘ildiraklarga o‘rnashib olgan yarqiroq moviy vagon Polyaga eshiklarini lutf ila ochib qo‘yganicha uni bekatda ehtirom ila kutib turardi. Trolleybusga chiqishi bilanoq, hali chipta olishga ham ulgurmasidan, uning yuklari ichkariga «o‘z-o‘zidan» joylashib qoldi; markab yo‘lovchilarga liq to‘la ekaniga qaramasdan, jazirama boisidan oynalari tushirib qo‘yilgan deraza oldidan bo‘sh joy ham topilaqoldi. Polya yigitning xizmati uchun haq to‘lamasdan ketgisi kelmayotgan paytda, qarangi, trolleybus rahbariyati tezgina orani ochiq qilib olishga yetadigan qisqagina fursatni ham darrov taqdim eta qoldi.

— Marhamat qilib aytin-chi, sizga qancha haq to'lashim kerak, ko'rsatgan... jasoratingiz uchun? — onasi bergen eski hamyonni go'yo jiddiy bir soxta qiyofada kovlashtirgan ko'yi so'radi u.

Yigitcha ko'zlarini yuqori ko'tardi. Uning Rodionga ikki tomchi suvdek o'xshash yuzi avvaliga Polyani hayratga solib qo'ydi: uning ko'zlarini ham xuddi o'shanday qat'iyatli, yashimtir, tubida shaddodlik uchquni chaqnab turibdi. Javob berish chog'ida o'ziga moyil etguvchi, yuzingizga xuddi o'shanday to'g'ridan to'g'ri boqib turish odati. To'g'ri, bu yigit biroz yoshroq va Polyaning do'stiga qaraganda bo'yi ham pastroq edi; faqat basharasidagi qurum va egnidagi xoskiyim uni kattaroq ko'rsatib turibdi, aslida esa, buni salgina yuvib tozalasa, Polyan dan juda borsa bir yoshga kattaroq bo'lishi mumkin. Xullas – hali bolakay; faqat oliftagarchilik yuzasidan jilmayish-iljayishga barham bergen, xolos. Ammo buning Rodionga tenglashishiga yo'l bo'lsin: u qandaydir kutilmagan baxtdan o'zini yo'qtgan, chamasi ezgu istaklari ijobat bo'lish jarayonidagi notanish qizni birinchi ko'rishishdayoq kamsitishga jur'at etolmagan bo'lardi.

— Mutlaqo hech qancha! Shunchaki qiziqishdan o'lib qolgun-day holatga tushadigan odatim bor – xonachadan tashqarini kuzatib o'tirish va chorasziz falokatga uchraganlarning hammasiga yurakdan achinish... – xotirjam alpozda javob qildi valine'mat. — Men sizni Moskvaga olib kelgan bug'tortarning¹ go'laximan.

Yanayam zaharxandaroq biror jumlani o'ylab topishga ojiz qolgan Polya yigitga tezgina ortiga qaytishni maslahat berdi, aks holda vokzal firibgarlari uning notanish qizga ilakishib yorganidan foydalanib, bug'tortarchasini o'marib ketishadiki, ana undan keyin sho'rlik anqov ming yilgacha oylik maoshidan tovon to'lab yurishiga to'g'ri keladi. Yigitcha boshini yon tomoniga egib organicha, toki qizning o'zi choraszizlik va alamdan qip-qizarib ketgunicha uning qasos olishga qasd qilgandek ayanchli urinishlariga achinish bilan qarab turaverdi. Xayriyatki, trolleybus haydovchisi simdan sirpanib chiqib ketgan yoyni nihoyat joyiga o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. Mashina yo'l bo'ylab silliqqina yurib ketdi va Polya osmondagи oftobdan, qarshi tomonidan esayotgan shabbodadan, uni kelajak ufqlarida kutib turgan jozibador sarguzashtlar ko'lamidan ko'ngli yengil tortib, qu-

¹ Ruscha – parovoz.

vonib ketdi; dilida esa kun daftarchasiga shior qilib yozib qo‘yilgan: «Daryo toshni emas, xasni oqizar!», degan matal turli ohanglardagi qo‘shiq misoli takrorlanardi.

Mana, endigina Polya, yangi hamrohlarining hammalari go‘yoki mo‘l-ko‘l sochilgan shabnamlar hali qurimagan o‘rmondagi tongni uyg‘otgan qushlarning sayrashlarini tinglayotganday ochiq chehra bilan nimalargadir tabassum qilayotganlarini payqadi. Ayni holatda Polina tarafga hech kim qarayotgani yo‘q edi, lekin, demakkim, uning hech bir nuqson siz vaziyati, ezgu istaklari ularning har biriga allaqachon ma’lum ekanidan tashqari, oldinda u bilan sodir bo‘lguvchi ishlar ham havaslarini uyg‘otmoqda... Chamasi chiptachi ayoldan boshlab, ustiga yyyengilgina yopinchiq va boshiga qariyalar qalpog‘ini kiyib olgan mo‘ylovdor jiddiy amakigacha (u balki Polya o‘qishga kirmoqchi bo‘lgan ta’lim muassasasining professoridir?), hamma-hammalariga Apollinariya Vixrova kabi shunday jozibador qiz bundan buyon ularning ajoyib shaharlariga joylashishi va hamda onasining, Leninchi yoshlar ittifoqining va ularning buyuk vatani baxtiga turli foydali fanlarni o‘zlashtira boshlashi judayam manzur edi. Binobarin, Polya yarim pichirlagan ko‘yi Varya Chernetsova yashaydigan Blagoveshshensk berk ko‘chasi qayerda ekanini so‘ragan zahoti, hammalari baravariga va hattoki bir-birlari bilan ozroq janjallashgan bir holatda unga yo‘lni tushuntirishga kirishdilar; boz ustiga hammaning baxtiga shunday bo‘lib chiqdiki, Polyaga yaqin o‘tirgan ikki ayol xuddi o‘sha yangi qurilayotgan ko‘pqavatli uyg‘a borishayotgan ekan, chunki naq 8-a uyning hovlisidagi tikuvchilik ustaxonasida ishlashar ekan; professor esa qariyb mudofaa ahamiyatiga ega bo‘lgan allaqanday joyning kuzatuvchisi ekan va hatto xuddi o‘sha joyda, qiyamsiga tushgan yog‘och uyda ijarada turarkan... Xullas, o‘sha tongda deyarli har birlarining yo‘llari Polya bilan bir bo‘lib chiqdi.

To‘rtovlari bekatda tushib qolishdi va Polyaning lash-lushlarini insof bilan teng bo‘lishib olib, yo‘lning oftobli tarafidan yurib ketishdi. Moskva ko‘chalarining ulug‘vorligidan sipo tortib qolgan, xokisorlangan Polya umumxalq mulki bo‘lmish biror narsani zararlab qo‘yishdan qo‘rqan kabi zo‘rg‘a odimlaganicha o‘rtada boradi va Yengadagi onasiga kechki hisobotini jo‘natish uchun barcha tafsilatlarni eslab qolishga harakat qiladi. Yo‘lovchilar chorrahadan o‘tib olgunlariga qadar ko‘rkam militsionyer mashinalar oqimini to‘xtatib

turdi; dunyoning eng muhtasham binolari har tarafda yuksalib turi-shibdi, ular qancha ko'p bo'lmasin, hammasining lang ochilgan dera-zalaridan yagona munosib nomga ega bo'lgan bir xil – hayotga chor-lov atalmish tantanavor radioohang gumburlab turibdi. O'sha yozda boz ustiga gullar haddan tashqari ko'p bo'ldi: har bitta burchakda – ko'shkchalarda, do'konchalarda yoxud shundoqqina qo'lning o'zidan hali nami ketib ulgurmagan, tonggi soflikning xushbo'y bulutlariga chulg'angan dasta-dasta gullarni sotishmoqda... Lekin shunga qaramasdan har safar Polya hech kimga ishonib bo'lmaydigan yagona nar-sasini – kulrang qog'oz tugunchasini qizg'anchiqlik bilan ko'kragiga qattiq bosganicha, bu joylardan shosha-pisha o'tib ketishga harakat qiladi.

Guruohni chapdastlik bilan boshqarib borayotgan yopinchiqqli professor faqatgina shahar chekkalarida o'sadigan yalqov, egilib-bukilgan daraxtlar ostidagi uylardan iborat salqin, o't bosgan torko'cha tomon o'ngga burildi va yana bir marta o'ngga qayrildi. Bu yerda teraklarning momiqlari shodon pirpirab uchadi, o'sha yili kechikib kelgan yoz bo'roni va mitti mahalliy istiqomatchilar jonholatda bu sehrli yengil qorchalarni tutib olishga intiladilar, shamol esa soddagini bolalarning kaftchalaridan ularni uchirib yuboradi va go'yoki ular uchun butun hayot mazmuni – baqir-chaqir qilib qochoq momiqlar ortidan yugurib quvishda edi. Agar bolalar bo'lmasa, bu yerlar kimsasiz bo'lib qolardiki, hatto markabining ko'zguchasida akslangan qu-yosh nurlarini sochib borayotgan yolg'iz velosipedchining tor ko'cha ichiga o'tib ketishi ham bir hodisa sifatida e'tirof etilishga arzirdi. Chala bitgan sakkiz qavatlari uy bu kundalik turmush olag'ovurlari tepasida qad kerib turardi. Polya tomoning tagida uning Varyasi yashaydigan yuqoriga xavotirlanib qaradi va, yo tavba, buni qarangi, anchadan beri bekor turgan lift mo'jizaning yakuni sifatida aynan shu tongda ishlab ketibdi.

– Bo'pti, sizlarga rahmat!.. – xayrlashuv uchun kuzatuvchilariga dedi Polya va xuddi qarshisida shunchaki oddiy yo'lovchilar emas, balki mehrli va donishmand insoniyatning ishonchli vakillari turgan kabi chuqur hissiyot bilan ularga ta'zim etdi. – Bizlar endi qo'shnilarmiz, binobarin, hali yana albatta ko'rishamiz va hamma narsalar haqida suhbatlashamiz... to'g'rimi?

Xonadon qulflog‘liq emas ekan, ammo Polya ko‘ch-ko‘ronini dahlizga bitta-bittalab tashib kiritib bo‘lgunicha, uning taraq-turuqiga birov chiqib qarab qo‘yganiyam yo‘q. Qiz nafasini rostlab olgach, at-rofga qulqoq tutdi. Qayerdadir ichkarida yelvizakning bo‘g‘iq hushtagi elas-elas eshitiladi, tomchilab turgan suvning tiniq chakillashi qulqoqqa chalinmoqda. Nimqorong‘i dahlizga qaragan bir qancha eshiklarining ayrimlariga qulf osilgan. Polya chap tomonda uchragan birinchi eshikni tavakkaliga chertgan edi, ayol kishining ovozi uning kirishiga ijozat berdi.

Quyosh tarafga qaragan saranjom, bo‘shgina xona; lang ochiq devara tufayli u osmonning to‘q, deyarli kvarts tusli rangiga to‘lgan. Bolalar kursichasida o‘tirgan ayol qo‘liga kiyib olgan ipak paypoqni to‘qib-chatish bilan band. Tartibsiz to‘kib qo‘ylgan rang-barang trikotaj kalava uyumlari ayol qarshisidagi fanerdan ishlangan ish mizi¹ ustida va uning shundoqqina oyoqlari ostida sochilib yotibdi. Bu yumush tinkani quritadi, ayol ham keksayib qolgan, ammo kasbi o‘ziga yoqadi chog‘i, chunki buyurtmalari ko‘pligi unga non pulidan tashqari, ongli mavjudlik uchun zarur bo‘lgan boshqalarga keraklilik tuyg‘usini baxsh etadi. Qachonlardir u xushro‘ygina bo‘lgan; deyarli oqarib ulgurgan, eskicha ursiga ko‘ra zikh o‘rama qilib yig‘ilgan qalingina soch o‘rimi ajinsiz keng peshanasini xoshiyalab turibdi. Polyaning nazarida bu ayolni o‘ziga o‘xshagan ursparast, oqsoch qariyalar davrasida ko‘p martalab ko‘rganday edi, – qimor qartasidagi rasmlarda, shekilli.

– E-ha, esladir: to‘qilgan mardoniy nimcha... dadangizniki-a? – ishonch hosil qilish uchun qayta so‘rab oldi ayol va peshanasidagi karton soyabonchani yuqoriroq ko‘tarib, mehmonini yaxshiroq ko‘rish uchun ko‘zlarini qisib, zimdan tikildi. – Ha, uni ko‘zdan kechirganman, va fikrim haliyam avvalgiday: qismatga bitilganidan boshqasi bo‘lmaydi. Nimcha yoshini yashab bo‘lgan – chuvatib ip qilishdan boshqaga yaramaydi.

Tashxisning qat’iy xulosasi hech qanday gap-so‘zga – na savolga, na e’tirozga o‘rin qoldirmasdi va ayni paytda tushunmovchilik yuz berib turgan bo‘lsa-da, Polyaning o‘scha bechora nimchaga yuragi achishib ketdi.

¹ Miz – stol.

– Siz sal yanglishdingiz, shekilli. Men endigina keldim. Menga Varya Chernetsova kerak edi... – to'satdan quruqshab qolgan lablari bilan bazo'r tushuntirdi u.

Ayol yana ishidan uzildi:

– Ha-ya, bilaman... Siz qishloqlik o'sha qizsiz... kechirasiz, atrofdan kelgan qiz – hech kim ranjib qolmasligi maqsadida barcha fuqarolarni baravarlashtirishga kirishgan 20-asr urfiga ko'ra u so'zini to'g'rilaqan bo'ldi. – O'rtoq Chernetsova tez orada kelib qoladi, uni shoshilinch ravishda Kommunistik partiya rayon¹ komitetiga chaqirib qolishdi, – deya qo'shib qo'ydi u va bu xabar uning talaffuzida g'oyatda ta'sirli va g'ayrioddiy eshitildi. – O'tiring... agar vaqt borasida boy bo'lsangiz, albatta. Men sizga uning kalit yashiradigan joyini bir daqiqadan keyin ko'rsataman... yo'qsa paypoqning halqasi chiqib ketadi.

– O, bemalol... vaqt masalasida men davlatmandman! – sho'xlik bilan iljaydi Polya va haqiqatdan ham undan olinadigan dastlabki ta-assurot shu ediki – go'yoki qiz o'zi bilan sof muzday havo hamda bir talay bepoyonlikni hamda shaharnikidan farqlanuvchi arzon vaqni olib kelganday edi – xuddi boshqalar qishloqdan oziqlik moy yoki oqlanmagan dehqoncha kanop mato keltirganlari kabi. – Menga yuz yil ham hech narsamas!

Shunda ayol Polyaning yaqinroq kelishini so'radi.

– Hali judayam yosh ekansiz! – shunchaki so'z qistirib qo'ydi u.

– Voy, gapingizni qarang... – uyalganidan qip-qizarganicha qo'l siltadi Polya. – Shunchaki yosh ko'rinaman xolos, yaqinda o'n sak-kizga to'ladiganman.

– O'sha o'n sak-kizga qachon... to'ladigansiz? – gapini dona-dona qilib hamda qisiq ko'zlarini qizdan uzmagan ko'yi so'radi ayol.

Qarangki, uning voyaga yetishiga bor-yo'g'i ikki soat-u, to'qqiz daqiqagina qolibdi – shu payt Polya maktabni bitirganida onasi sovg'a qilgan kumush soatiga qarab yana aniqlashtirib qo'ydi – va uch soniya. U o'n sak-kiz yosh unchalik ham kichik muddat emasligini qizishib isbotlashga tushib ketdi, – «Ana, Darvin uning yoshida ma'ruzalar o'qigan, Gerostrat esa, masalan...». Polyaning ishonch bilan aytishicha, qadimgi faylasuf o'zining mashhur haqiqatini fa-

¹ Rayon – tuman (ma'muriy birlik).

qat bolalik chog‘ida, qadimiy yunon soyining mayda toshlarida oyoq yalang yurgan paytlaridagina kashf etmog‘i mumkin edi; Polyaning o‘zi esa, qalin o‘rmonning chalkash chakalaklariga ataylab qanchalik chuqr kirib sang‘imasin, baribir tuzukroq hech narsani kashf etolmadi. Bundan aniq-tiniq kelib chiqadiki, o‘z xalqining ko‘z o‘ngida sharmanda bo‘lmaslik uchun va o‘zi shama qilib o‘tganiday, jahon kapitalizmi aybi bilan bir qadar tanazzulga yuz tutgan bashariyatning madaniy xazinasiga yangilik sifatida o‘zining qandaydir hissasini qo‘shish uchun hali juda ko‘p ishlar qilishiga to‘g‘ri keladi.

– Siz chamasi Geraklitni nazarda tutyapsiz, shekilli? – qo‘lida paypoq ushlagan ayol ehtiyyotlik bilan uning xatosini tuzatib o‘tdi.

– Voy, albatta... ularni doim sal-pal adashtirib yuraman. Gapso‘zlarga qaraganda, yana bunga qo‘shimcha qandaydir Gerodot degani ham bo‘lgan ekan-a?.. o‘zi ularning qaysi biri ma’badni yondirib yuborgan? Kechirasiz, men nuql sizni ishingizdan chalg‘ityapman... – banogoh Polya xijolat tortdi va o‘zining o‘rinsiz vaysaqiligi uchun uzr so‘rashni boshladи.

– Yo‘q, bular barchasi nihoyatda qiziqarli va muhim judayam... – dedi ayol xayolga tolib va ko‘rinishidan, u ish orasidagi g‘ayriixtiyoriy tanaffusdan quvonayotgan edi. – Davom etavering, iltimos.

– Bori shu edi! – past ovozda iqror bo‘ldi Polya.

Ayol paypog‘iga darrov egilgani yo‘q; Polinaning safsatasining sodda, telba-teskari ohanglarini qayta va qayta tinglagisi kelayotgandi chog‘i.

– Mabodo men bilan zerikayotgan bo‘lsangiz, qizginam, javordan kitob olib o‘qiyqoling...

– Hechqisi yo‘q, men shunday o‘tiraveraman, men hali o‘zimning turfa xil anavi... xullas fikr va taassurotlarimni tartibga keltirib olishim kerak! – pichirladi Polya.

Ko‘chaning holsizlantiruvchi jaziramasidan keyin sakkizinch qavatning xuddi tog‘ shabadasi kabi orombaxsh muzday yelvizagi kishiga xush yoqadi. Polya oromkursining o‘rnini bosuvchi allanima ningdir chekkasiga cho‘kkach, zimdan atrofga nazar tashladi. Yog‘ tushsa yalaguday tozalangan asosiy joy bolalar xonasini uchun ajratilgan bo‘lib, u yerda yoniga qo‘ylgan javonchada suti chala ichilgan piyoladan tashqari, o‘ynalaver ganidan sayqallanib ketgan uch dona

matryoshkalar bo‘ysira qilib terilib, yonboshlatib qo‘yilibdi. Xona-ning anchagina kichikroq, o‘ng tomondagi yarmida esa, xitoyi parda ortida hayot kechirish va non topish uchun kerak bo‘lgan hamma ashqol-dashqollar uyulib yotibdi – shu jumladan ikkita o‘yma ustunchalar orasidagi qadimiyo ko‘zguda bor bo‘yi bilan aks etib turgan yog‘och oyoqdagagi maneken ham. Boshdan oyog‘igacha cho‘zilib ketgan bo‘ylama yoriq tushganidan beri u endi jihozdan ko‘ra oilaviy yodgorlik toifasidagi matohga aylanib qolgan.

Ozroq oldinga egilib, Polya yashiltob, xira tortgan oynaga qaradi va oxirgi kecha-kunduz davomidagi omadlari-yu, g‘aroyib tasodiflarning manbasi nimada ekanini tushundi. Yong‘oq yog‘ochidan tuxum-simon shaklda ishlangan romdan birvarakayiga ikki nafar o‘n besh yoshlardagi g‘alati qishloq qizlari boqib turishardi; sababsiz iljayib turgan nigoh; qizaloq Yenga oftobidan shu darajada qorayib ketganki, terisining rangi ham, egnidagi qahva tusli ko‘ylagi ham bir xilligi bo‘yicha bir-biri bilan mutlaqo barobarlashib qolgan. Shubhasiz, bunday ko‘rinishdagi mavjudot Moskva kabi bunaqa ziyrakko‘zlar shahrida e‘tiborga tushmasdan bir qadam qo‘ya olishi ham dargumon edi. Demak, o‘zлari uchun yo‘lga g‘amlab olgan yeguliklari bilan vagonda uni siylaganlar ham, qizgina poyezddan qolib ketmasin deb stansiylarda yugurib-yelib unga qaynagan suv keltirib bergenlar ham, uning yuklarini trolleybusga tortib kiritgan o‘nlab qo‘llarning egalari-yu, keyin Varyaning berk ko‘chasigacha uni kuzatib qo‘yanlar ham – barcha-barchalari o‘zlarining quvonchsiz o‘tgan shaxsiy bolaliklarida boshlaridan kechirgan achchiq damlarining alamlari taftini bosmoq uchun, oddiy odamlar boshqalarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatganlari kabi, o‘ziga xos tarzda, ranjitib qo‘ymaydigan va hattoki biroz xudbinlarcha rahmdillik qilishgan ekan.

– Moskvada ilgari ham bo‘lganmisiz? – Ishini davom yettirgan ko‘yi so‘radi ayol.

– Men shu yerda tug‘ilganman... lekin to‘rt yoshimda o‘rmonchilik xo‘jaligiga olib ketishgan.

– Otangiz o‘rmonda xizmat qilarkan-da?

– Yo‘q, dadam shu yerda, uning vazifasi... – Polya nimagadir gapidan tutilib qoldi, – xullas, o‘rmonshunoslik professori!

– Otangizdan alohida yashaysizlarmi?

– Men juda kichkina paytimda onam u bilan ajrashgan. Dadam juda taniqli odam, sohaga doir anchagina ilmiy ishlariyam bor... ammo inson sifatida yaxshi bo‘lib chiqmadi.

– Oilangiz tarixini sizga kim aytib bergen, onangizmi?

– Hech kim.

– Bo‘lmasa uni nima uchun yomon odam deb o‘ylayapsiz, qizaloq?

– Chunki... chunki oyim yaxshi – ovozini ko‘tardi Polya.

Shu bo‘yi toki yuragida qurum misoli to‘planib yotgan hamma hasratlarini aytib tugatmaguncha o‘zini gapdan to‘xtata olmadi. Xulosa har qanaqasiga bir xil bo‘lib chiqaverdi: uning shug‘ullanayotgan fani ham zerikarli, o‘zi ham bundoq olib qaraganda, professor sifatida hech narsaga arzimaydi; o‘rmonchilikka oid jurnallarda uni tinmay savalab, daraxtlar ortidagi o‘rmonni ko‘rmasligini tanqid qilishlari ham bejizga emas. Yaxshiyam Polyaning dugonalari bunaqa maqlachalarni o‘qishmaydi, aks holda uni mazahlab, bunaqa dadani qaysi yuvindixonadan topganini so‘rayverib, holi joniga qo‘yishmasdi.

– Uni Ivan Vixrov deyishadi... eshitmaganmisiz? – nihoyat uning ism-sharifini aytdi Polya, va tiniq yoshlardan namlangan ko‘zlarini zaifgina bir umid bilan yuqori ko‘tardi.

Paypoq ushlagan ayolning birdan jonlanib qolganiga qaraganda, chamasi unga bu ism tanish edi. Ha, yoshlik paytlarida Peterburgda u xuddi shunaqangi familiyali kamgapgina bir talabani uchratgan edi, uning esda qoladigan jihat – oshpaz xotinning o‘g‘li edi... Gap orasida, yonidagi suhbatdoshini judayam ranjitib yubormaslik uchun ayol shuniyam aytib o‘tdiki, o‘zining o‘sha Peterburg davralidan qolgan bir tanishidan Vixrovning o‘sha paytlardagi muvaffaqiyatsizliklari haqida ham, o‘rmonchilikda hozir juda omadi yurishib, nufuzi ko‘tarilib borayotgani haqida ham eshitgan mish... Shularni eslay turib, paypoq ushlagan ayolning yuziga qayg‘uli, yoqimsiz xotiralarning qora buluti soya solib o‘tdi. Polya bilgan Vixrovning aksi o‘laroq va o‘rmonchilik sohasidagi odamlarga nisbatan Polyaning mulohazalariga e’tiroz sifatida, bu odam, ayolning fikricha, kam uchraydigan darajada jonli, ayni paytda bir qadar alamzada aql egasi bo‘lib, shu xislati uning omma tomonidan tan olingen shafqatsiz tahlil qila olish qobiliyatiga alohida joziba baxsh etar emish. Modomiki, maxsus nashrlarda tanqidiy sharhlarni yuritishni, rahbariy mulohaza-

larni bayon qilishni, o‘z o‘rtoqlarining xilof qarashlarini va xatolarini fosh qilishni aynan shu odamga inonib topshirishgan ekan, demak, zamonning o‘zi shu kabi insonlarga muhtoj.

— Men aytgan o‘sha odam ham – professor, va agar xotiram pand bermayotgan bo‘lsa, u menga Vixrov haqida uncha-muncha narsalar ni so‘zlab bergandi. Ochig‘ini aytsam, men o‘rmonchilik ishlaridan ham, janjal-to‘polonlardan ham judayam uzoqman... – bosiqlik bilan izoh berdi ayol.

— Men bilan ochiqchasiga gaplashsangiz bo‘ladi. Men otamdan nafratlanaman... Xullas, o‘sha odam nima dedi?

Polyaning ko‘zlarida tuzalmas qayg‘u uchqunlanib turardiki, bir jihat, ota-onasining aybi uchun tovon to‘lashga majbur bo‘lgan bu yuvoshgina viloyatlik mavjudotga rahm-shafqat qilmaslik hecham mumkin emas... ammo ikkinchi tomondan, yolg‘on gapirib uning ko‘nglini vayron qilish bundan battar yovuzlik bo‘lardi.

— Men bolalarni hech qachon aldamaslik qoidasiga rioya etaman. Sizni ranjitmoqchi emasman-u, qizalog‘im, lekigin... bu maqtovga unchalik yaqin bo‘lmagan va hatto nafratomuz sifatlash edi.

— Bilaman, uning maqolalariga ham ko‘zim tushib turardi, — Otasining taniqli tanqidchisining kimligini oldindan bilgan Polya taqdirda tan berib qo‘yaqoldi.

— Sizning o‘rningizda bo‘lganimda, — rahmdillik bilan so‘zida davom etdi paypoq ushlagan ayol, — men shundayin bir tafakkur bilan o‘zimni tinchlantirgan bo‘lar edimki, birinchidan, har holda onangiz siz bilan birga yashayapti, ikkinchidan esa, modomiki otangiz shunday mashhur odamning qalamini va g‘azabini o‘ziga qarata olgan ekan, demak hayotida anchagina sezilarli mehnat qilib qo‘ygan ekan. Jonginam, bunchalik umidsizlikka tushishning hojati yo‘q: iste’dodli bo‘lish hammaga ham nasib etavermaydi, sizlarning oilaviy ahvolingizga qaraganda esa, bu Vixrov kamiga g‘alatiliklardan ham xoli emas, shekilli?..

Xuddi shu zaharli va mavhum fikrlarni Polya otasining kitoblariga nisbatan yozilgan taqrizlardagi satrlarga yashirin mulohazalar orasidan ko‘p martalab topishga muvaffaq bo‘lgandi: imzolarning turlicha ekani, ba’zan ism-shariflarning faqat bosh harfi berilishiga qaramasdan, bular barchasi aynan bitta muallifning ishi ekani qaltilslik darajasigacha kuchaytirilgan uslubida shundoqqina anglashi-

lib turardi. Vixrovning o'rmonchilik sohasidagi mavjudligini har xil tarzda izohlash mumkin edi – davrning bag'rikengligidir, yoki aksincha, uning o'rmonchilik ishlariga e'tibori kamligidir, ammo lekin bu yuzaga kelgan hukm na bekor qilina oladi, na muhokamaga doxil bo'la oladi va faqatgina soddadillik taqozosidan, tasavvur qashshoqligidan, asrimizning qat'iy shart-sharoitlaridan xabarsizlik boisidan oqlanishiga bir qadar umid qilish mumkin edi.

– Lekin... sizning o'sha tanishingiz o'rmonda ko'p vaqt yashaganmi? – shartta so'radi Polya.

– Yo'q, salomatligining zafligi va doimiy shifokor ko'rigi talab etilishi zaruratidan u shaharni deyarli tark etmaydi.

– Demak, u... o'sha kimsa... o'rmonni g'oyibona sevadigan bo'lsa... bu to'g'rida kitoblar yozsa, agar umuman... shunchalik ajoyib bilimdonmi?

Begona paypoqni ushlagan ayol bu aslida yo'q ziddiyatlarga izoh berib qo'yishi joiz edi.

– Gap shundaki, qizginam, u odam unchalik ham o'rmonchi emas... Men uni bu sohaning buyuk arbobi degan bo'lar edim. Ummum olganda – bu odam ulkan fojiaviy taqdir va turli-tuman qobiliyat sohibidir... yoshlik paytida yaqinlari unga shoirlik yoki musiqachilik istiqbolini bashorat qilishgan. O, azizam, qismatimiz bizning rejalarimizni qanchalar mazahlab tashlashini siz hali bilmaysiz-da! Yo'q, garchand bu odam bizning qo'rg'onimizga kelgan paytlarida xiyobonlarda soatlab sayr qilib yurgan bo'lsa-da, men hargiz uni o'rmonga juda bog'lanib qolgan deya olmayman... Boz ustiga qo'rg'onimiz unchalik katta ham emas edi, xullas... shunchaki ustendor ko'hnagina kulba, – darrovgina gapini to'g'rilib ketdi, Polyaning g'ashlanib, sinchkov tikilib turganini sezib. – Bundan tashqari, iste'dodli tanqidchi hamma narsani o'zi bilishi yoki uddalashi shart emas, uning ishi aslida kuzatishdan iborat. Har holda boshqalarning faoliyati haqida gapirishga uning yetarlicha ta'biyu, madaniyati bor: nimasi yaxshi, nimasi yomon degan ma'noda. Mana, uzlusiz sakkiz yildan beri har turli jamoatchilik yuklamalari tufayli ilmiy ishini hech tugata olmayapti... mavzusi esimda yo'g'-u... xullas, juda bir muhim ilmiy ish. Afsuski, bunaqa narsalarga xotiram judayam zaif, – kutilmaganda qo'shib qo'ydi u, go'yoki bunday murakkab va chigal mu-

ammolar haqida mufassal mulohaza bildirishdan o'zicha chekingan bo'lib.

– Ayting-chi, o'sha odam... mabodo sizning qarindoshingiz emasmi? – so'radi Polya xotirjam, qandaydir o'ziga xos qat'iylik bilan.

Ayol uchun bu savol mutlaqo yoqimsiz edi. Yo'q, uning o'sha odam bilan qarindoshchilik joyi yo'q: shunchaki, yoshlik paytalarida bir safar bir-birlarini chetlab o'tib ketaturib, qisqagina fursat o'zaro nigoh almashinishgan. Hatto ularning do'stliklari ham, agar o'ttiz yil avvalgi qisqagina o'tkinchi munosabatlarni shu so'z bilan atash mumkin bo'lsa, inqilobga qadar parchalanib ketgan, endilikda ular juda kam ko'rishib qolishadi, shundayam asosan ko'cha-ko'yda, holbuki masxaraboz taqdir ularni qarigan chog'larida bir uyga joylash-tirib qo'ydi, darvoqe, turli yo'laklarda va boshqa-boshqa qavatlarda. Qarangki, yillar o'ta borishi bilan barcha saqlanib qolgan fazilatlarini hisobga olmaganda, g'ayratli, dilkash yigit muomalasi sovuqqina bir odamoviga aylanib qolibdi... Polyan hayratga solgan narsa ayolning gap-so'zlaridagi tuyg'ular almashinuvi bo'ldi – gohida alam, goh zavqlanish, ba'zan o'kinchli g'ijinish – bu ayol qizning otasi faoliyatining bosh hakami haqida bildirgan mulohazalarida, go'yoki bir paytning o'zida undan nolish bilan birgalikda o'z himoyasiga olar va ayni damda qaysidir kechirib bo'lmas aybi uchun la'natlashni ham unutmasdi.

– Balki endi uning ismini aytarsiz? – yana qiziqib so'radi Polya.

– Uning kimligini bilaman dedingiz-ku... yana so'rab nima qila-siz?

– Aniqlashtirib olmoqchiman, agar sir bo'lmasa, albatta.

– Buning hech qanaqa maxfiy yeri yo'g'-a. Uni butun mamlakat biladi, – majburan va endi avvalgi g'urursiz javob qildi ayol. – Haligi, Gratsianskiy... nimaydi?

– Yo'q, hech narsa... o'zim ham fahmlagandim, – istehzosiz tarzda jilmayib qo'ydi Polya.

Ikkovlari – yoshi ham, keksasi ham bir muddat jimib qolishdi. O'tkan yillarda qalin Yenga o'rmonlarida o'zaro yuzma-yuz kelib qolgan yo'lovchilar bir-birlarining niyatlarini anglab olishga urin-gan ko'yi, xuddi mana shunday bezovtalik bilan ajralishib ketishardi. Ayni paytda paypoq ushlagan ayol Polinaning otasining ismini ilk bor qanday vaziyatlarda eshitganini hozirda xotiradan faromush bo'lib

borayotgan tafsilotlari bilan esga oldi. Ajablanarlisi, ancha muddat muqaddam, deyarli bir martagina uchratgan odamining elas-elas gavdalanayotgan xiragina qiyofaşini xayolida jonlantirishdan oldin, u avval ayniqsa yozning jaziramasida juda mazali tatiyidigan vaflili xo'jag'at muzqaymog'ini, bayramlarda odamlar bilan liq to'ladigan Peterburgdagi Kolomyaga ippodromi maydonini, uning tepasida paydo bo'lguvchi, qisqa muddatli yomg'ir manbayiga o'xshash kulfat bulutini xotirladi va davrlar o'tishi bilan xayollaridan chala erib borayotgan achchiq sog'inchdan boshqa narsani yodga ololmadi. Xuddi o'sha kuni, salgina keyinroq – soat otilarga yaqin uchuvchi Matsiyevich – rus aviatsiyasining birinchi qurboni, halokatga uchradi; shundan bir soatgina avval esa Gratsianskiy unga – o'n sakkiz yoshli qiz bo'l mish Natasha Zolotinskayaga o'zining uch nafar oshnalarini, mushketyorlarni tanishtirgan ediki, boz ustiga ulardan biri hammalari o'tirgan minbarga muzqaymoq olib keldi; chamasi aynan shunisi Vixrov edi. Uning novcha, ovozi yo'g'on o'rtog'ini nima uchundir Katta Kostroma deb atashar edi. Mana shu so'z xuddi qum donasi kabi, yoki tog'dagi shamolning esa boshlashi kabi qarilikka yuz tutgan xotiraning erigan ko'chkisini harakatga keltirdi.

Avvaliga ba'zi narsalarga ishonch hosil qilib olish lozim edi:

– Yo, xudoym, Vixrov, Vixrov!... o'sha paytda men ayni sizning yoshingizda edim. Otangiz Peterburgda o'qiganmi?

– Bilmasam. U professor bo'lganidan so'ng uylangan, men esa yanayam keyin tug'ilganman. U oqsoq...

– Bunisi esimda yo'q, o'sha uchovlonning orasida oqsog'i yo'q edi, shekilli. Lekin... u keyin qamoqqa olinib, shimolga badarg'a qilingandi, shundaymi?

– Men dadam haqida hech qachon oyimga savollar bermaganman, unga ozor berishni istamasdim. Faqat bir martagina undan gap orasida so'raganman... u esankirab, keyin shunday degandi: qachondir vaqt kelib, hammasini o'zing bilib olasan... uni ko'rganiningdan keyin o'zing tushunasan.

– Tavba, bu hol qanday yuz berganki, hamma vaqt birga yashaganingizga qaramasdan, onangiz biror marta ham bu haqda gapirmagan bo'lsa?

Yo'q, ular hecham doim birgalikda yashashgan emas: onasining shifoxonasi joylashgan Pashutin o'rmonchiligidagi, onasining oldiga

Polya faqat yozgi ta'tillardagina borar edi. Oxirgi uchta qishni u Varya Chernetsovaning xonadonida yashab o'tkazdi, uning otasi Pavel Arefyich, sobiq urallik partizan, hozirda tuman ijroiya qo'mitasida veterinar bo'lib xizmat qilyapti. Hamma gap shundaki, o'rmon xo'jaligidan unchalik ham uzoq bo'Imagan Shixan Bekatida, faqatgina yetti yillik maktab bor edi, shu bois Polya o'rta maktabni Loshkarov shaharchasida tamomladi... qaysiki, anavi tezoqar o'rmon soyi – Sklan Yengaga quyiladigan joyning yonidagi!.. Ilgari xuddi Shixan Bekati kabi bu joylar shunchaki boy-badavlat isyonchi-buzg'unchilar qishlog'i edi, ammo inqilob davrida, u yerda to'qimachilik korxonasi buniyod etilganidan keyin unga shahar maqomini berishgan va, ovozalarga qaraganda, hatto kinotasma ishlab chiqaradigan korxona ham qurmoqchi bo'lishgan ekan-u, chamasi keyinroq korxona uchun undan ko'ra munosibroq joy topishgan, shekilli. Bu shaharcha Moskvaga tenglasha olmaydi, albatta: ko'chalarini ham o't bosgan, uylari ham maydaroq... ammo-lekin havosi – yog'och xumlarga solib, xorriga sotsang arziydigan darajada sof; Yenganing narisidagi bepoyon qalin o'tloqlarni-ku, gapirmasayam bo'ladi, suvlar to'lib oqqan paytlarda ag'darilgan gumbaz misoli poyonsiz osmon ularda shunaqangi akslanadiki... gohi esa sollarni tortib borayotgan buksirchalar o'tib qoladi – ular xuddi bulutlar ustida suzayotganday ko'rinadi. O'rmonlarda esa kurakshox bug'ular, bo'rsiqlar... hatto silovsinni ko'rganlar bor emish, Polinaning jo'nab ketishidan salgina oldinroq esa Vasiliy Go'ristonidagi o'sha yerlik ayyor erlar o'rmon xo'jaligiga tirik ayiqni xodachaga bog'lab olib kelishibdi, uni daraxt kovagidan olingan yovvoyi asalari arog'i bilan siylashibdi, aroq kechasi hayvon so'qmog'iga qo'yib ketilgan ekan. «U avval qopqoqni panjasni bilan urib tushiradi, keyin irillab, yerda dumalaydi, odatiga ko'ra asalari-larni majaqlashni boshlaydi, – holbuki u yerda hech qanaqa asalarilar yo'q. – oxirida esa ziyofatga kirishadi. Mana shu yerda ayiqni uyqusiragan, mast holida ushslashadi va u bog'langan holda yotganicha, odam kabi yig'lab, o'z qismatidan nolishni boshlaydi...» uzoq qadim zamonalarda, janubdan yaqinlashib kelayotgan oqqayin o'rmonlari yo'q qilinmasidan oldin andaliblar derazadan uchib kirib, bekalarning sho'rvasiga o'zları uchib tushganlari!..ni Polyaning o'zi ham eshitgan edi. Qadimdan qolgan qariyalar esa **olis o'tmishda kemalar qurishga yaraydigan sara qarag'ay o'rmonlari baland qirsg' oqiar bo'yib**

yuz ellik chaqirimgamikin, yo to'rt yuz chaqirimgamidi, har holda sakson chaqirimdan kam bo'lman maydonda, – Dvina botqoqlariga salgina yetib kelmagan masofada, cho'zilib ketganini maqtanib gapirishadi. Va umuman hozir ham momagulduraklar gumburlagan paytlarda Yenga o'rmonlari qudratli silkinib, shamol bilan quchoqlashgan ko'yi vahshatli qarsillashlari, iyul jaziramasing qizigan havosida nobud bo'lishlari... tungi paytlarda biryo'la uch kecha davomida yostiqlardan ham yertut va ignabargli daraxtlarning shoxlari aralashmasining qaynoq damlamasi hidi ufurib turadi... Bizning Yengada tabiat ana shunaqa!

Varya hadeganda kelavermadi, hikoyani esa eng qiziqarli joyida to'xtatish nojoiz, – xuddi qo'shiqni avjida uzib bo'lman kabi: Polyaning jarangdor chug'ur-chug'urini faqat qushlarning chirqillashiga qiyoslash mumkin.

– Yo'q, biz o'zimizning Loshkaryovdan nolimaymiz... Yugurish uchun stadionimiz ham bor, ko'nchilik korxonamizga qarashli Mehnat saroyi mavjud, shahar kutubxonasida hatto Mikelanjeloning yozishmalari saqlanyapti. Biz yettinchi sinf paytimizdayoq qasamyod qabul qilganmiz: qachonki e'tiborli odamlar qatoriga qo'shilsak, shahar-chamizni yoddan chiqarmaymiz va u yerga har oyda bir donadan kitob jo'natib turamiz: bizning kommunistik yoshlar ittifoqi ahil, qattiqqo'l, o'qimishli. To'g'ri, hozircha hamma narsamiz yog'ochdan ishlangan, har holda o'rmonda yashaymiz, hatto Lenin haykalini tayyorlash uchun ham birinj topishning iloji bo'lmasdi, uning sharafiga qoyilma-qom xiyobon barpo etganmiz. Boshlarimiz ustida shiorimiz shovullab turadi: hechqisi yo'q, qachonlardir birinj o'zi keladi. Nihollarni ekkan paytimizda har bir ko'chatda nari borsa yigirmatadan barg bor edi, hozir esa... mana, biz doim kelajak haqida-yu, vatan haqida ko'p gapiramiz, go'yoki ular olis ufqlar ortida qolganday. Agar har bir inson ularni hech bo'lmasa o'z atrofidagi o'n qadamgina tevarak miyosida ko'ra olsa edi, – Polyaning ko'zлari qisilib, miyasida raqamni doira kegayining kvadratiga ko'paytirishga urina boshladи, – o'sha uch yuz o'n to'rt kvadrat metrni xuddi o'z xonasi kabi, o'zining ish joyi kabi, dasturxon ustida yeguliklar turgan miz kabi tozalab-yig'ishtirib, o'z tuprog'iga bor mehrini berib parvarishlaganday g'amxo'rlik qilsa, butun umri davomida hech bo'lmasa bir dona olcha ko'chatini ekib qo'ysa edi... Voy, yuz ming kishi bir soatda nimalar qilib yubormas

edi! Mana men butun yoshlar ittifoqiga xat bilan murojaat etmoqchiman, ular bizdan – loshkaryovlik yigit-qizlardan o’rnak olishsin. Siz nima deb, o’ylaysiz, matbuotda chop etisharmikan?.. Meni odamlar olifta-satangga chiqarib qo‘yishmasmikan? – fikr olish uchun pichirlab so‘radi u.

Turmush haqida va shu jumladan Gratsianskiyning hayoti haqida ham haddan tashqari ko‘p narsa bilgani uchunmi, paypoq ushlagan ayol Polinaning hozircha biror tashvishdan o‘ksinmagan ko‘zlariga qarashga botina olmadi. O‘z ishiga engashgan ko‘yi u hali hech qachon Rossiyada ikki yondosh avlodlarni zamon atalmish bu qadar uzun masofa hozirgiday shunchalik ajratib tashlamagani to‘g‘risida o‘ylar edi.

Bir ozgina o‘tib, u o‘zining tushunarsiz hayajonini yengishga muvaffaq bo‘ldi:

– Adashmasam, ismingiz Polya edi-a? Meni esa Natalya Sergeyevna deyishadi. Siz yaxshi, qiziqyon, kengpeshanagina qiz ekan siz... siz bilan tanishganidan xursand bo‘ldim, – gap boshladi u to‘lqinlangan holda, lekin quruqqina ohangda, Polya esa uni diqqat bilan tinglar ekan, yuzlari qip-qizarib, hech kim ikki martalab takrorlamaydigan so‘zlarni mana hozir eshitishini sezib turardi. – Hozir men sizga aytadigan gaplarni yodingizdan chiqarmang... tushunarsiz ma’nolarni esa alal-oqibat o‘zingiz anglab yetasiz. Umr so‘nggi lahzasigacha yonib tugagach, kul orasida so‘nggi bir dona oltin zarrasi qoladi. U o‘zini har tomonga uradi, so‘nadi va shundan so‘ng uning o‘rnini sovuqlik egallaydi... O‘sha zarrachada, o‘sha oxirgi uchqunchada butun o‘tgan hayot yo‘lining barcha tajribalari jamlangan. Mana sizga mening oltin zarracham... Odamlar hayotdan baxt, omad, boylik talab qilishadi, ammo odamlarning eng davlatmandlari dunyo hayotidan ko‘p narsalarni olib ulgurganlar emas, aksincha, o‘z umrini odamlarga saxiylarcha eng ko‘p sarflagan insonlardir. Mening o‘zimni misol qilib aytadigan bo‘lsak, men bu haqiqatni judayam kech angladim... – U ko‘zlarini savol nazari bilan yuqori ko‘tardi. – Chamasi, menga e’tiroz bildirmoqchisiz-a?

– Jahlingiz chiqmasin, Natalya Sergeyevna, agar hozir men indamasam... bu men tomonimdan vijdonsizlik bo‘lardi. Bu gap yaxshi aytilgan... haligi... xullas, oltin zarracha haqida!.. Ammo siz bugun taqdir so‘zini uch marta ketma-ket takrorladingiz. Biz Loshkaryovda

vaqt orttira olmayapman. Darvoqe, bugun shunaqangi telbavor kun bo‘ldiki...

– Birorta ko‘ngilsizlikmi? – tipirchilab qoldi Polya.

– Aksincha, hammasi judayam yaxshi. Hatto boshim aylanib ketyapti, shunaqangi ajoyib hayot boshlanmoqdaki! Jazirama-da uyga shunaqangi shoshildimki, terlab suv bo‘lib ketdim. Bu-yam yetmaganday, anavi mitti shumtaka fuqarochalar hech o‘tib ketishimga qo‘yishmasa-da... Bu atrofdagi hamma bola-baqralar mening o‘rtoqlarim! – Sanab o‘tgan holatlaridan cheksiz quvonib, astagina jilmayib qo‘ydi.

2

To‘g‘ri, Varya yarimta so‘zi bilan ham bolalarga o‘rtoq bo‘lib ketaverardi, uning vujudidan mehrga to‘la insoniy iliqlik muttasil tarqalib turardi. Uyidagilar hazillashib, vaqt kelib Varyaning o‘ttiz sakkiz kishidan iborat oilasi bo‘lishi, ularning hammalari sarishta ki-yintirilgan, yuvilgan-chayilgan va hamisha to‘q yurishlarini aytishar edi; bundan ko‘ra kamtarinroq tasavvurlar uning yuragidagi behudasovurib yuborish darajasidagi saxiylik bilan ham va o‘zining qiyofasi bilan ham mos tushmagan bo‘lur edi. Varya anchayin durkun, uning yirik, kuchli tanasi shunga muvofiq faollikni ham talab etardi. Ehti-mol, uning yuzi ozgina chiroyliroq, lablari salgina yassiroq va nozik-roq, ko‘zlarining oralig‘i esa jinday kengroq bo‘lganida, baxti ham allaqachon ochilaqolgan bo‘larmidi. Agar uni Boshkent pedagogika institutidan chiqarib olib, qayerlargadir, Tyan-shanning jizg‘anagi chiqqan yonbag‘irlarigami ko‘chirib, yoldor biyaga mindirib qo‘yib, qo‘liga qamchi ushlatib va oftobda qoraygan bo‘yniga bir qatorli munchoq taqib qo‘yib, kunning yarmida shamolga qarshi yeldirib yuborsangiz, ana shunda u o‘sha manzaraga anchayin mosroq ko‘ringan bo‘lur edi. Varya o‘zining bunday tashqi ko‘rinishi uchun taqdiriga ko‘ngan, o‘ziga zeb berishga harakat ham qilmasdi, sochini esa hech qanaqangi farq ochmasdan orqasiga silliq tarab olgan, ammo uning oppoq, har doim qattiq qilib kraxmallangan yoqasi ham od-migina to‘q rangli ko‘ylagida tabiatning adolatsizligini ozgina bo‘lsa ham to‘g‘rilashga urinishday bo‘lib ko‘rinar edi.

Varya yo'lchi qizni Loshkaryov to'g'risidagi minglab savollariga ko'mib yubordi: qo'shnilarini, jonajon olis o'rmonini so'radi va yana – yoshlar ittifoqida hozir kim boshliqlik qilyapti, muallima Marfa Yegorovna keksayib qolgani yo'qmi – loshkaryovliklar u tallarda minora soati yo'qligi bois vaqtini o'sha ayolning o'z kun tartibiga rioya etishiga qarab aniqlab olar edilar-ku, yodingdami; Pavel Arefyichning barcha ovchilik muvaffaqiyatlarining o'zgarmas yo'ldoshi Baluyning ahvoli yaxshimi, – xullas hamma narsa haqida, eng mayda tafsilotlarigacha ijikilab surishtirdi, chunki eng mufassal maktubingda ham bularning hammasini yozib yuborolmaysan-ku, axir.

Bularga javoban esa Polinaning rang-barang tafsilotli tez aytishlari quyilib kela boshladi. Aytishicha, Pavel Arefyich xuddi ilgarigiday charchoq nimaligini bilmasdan butun tuman bo'y lab velosipedini g'izillatib yelib yurganmish, ammo ochig'ini aytganda, xotinini, – Varyaning o'gay onasini rosayam qo'msagan ko'rindi; Chernetsovlarnidida to'rt yildan beri yashab kelayotgan qo'shnilarni Zoya Petrovna esa, o'zining suykli Varyajoniga eski xotiralarri hurmatidan Yenga asalini, uyda quritilgan qo'ziqorinlarni berib yuboribdi, poytaxtda ortiqcha sarf-xarajat qilib yurmasin degan-da; Marfa Yegorovna esa xuddi ilgarigiday, erkaklarning kalishini kiyib olib, kuzgi loygarchiliklarda shapillatganicha maktabga qatnab yuribdi, ammo uning soatchasi bir kecha-kunduzda bir-ikki daqiqaga kechikadigan bo'lib qolgan, Baluyning ahvoli esa judayam yomon, tovuqlarni tiraqaylatib qumay qo'ygan, nuqlu akşiradi-yu, o'choqqa yaqinroq yotishga intiladi...

– Mening onajonginam, muhtarama Yelena Ivanovna ham biroz o'sha tomonga og'ib qolgan, – davom etdi Polya sovg'a-salomlarni jomadonidan birma-bir chiqargan ko'yi. – Tashqi ko'rinishiga qarab-ku, biror mundayroq narsa deyish mushkul, biroz qattiqqo'lroq bo'lib qolgan desammikan... ammo yo'lga kuzatayotgan paytida meni omborxona yonidagi muyulishga chaqirib olib, yashirinchcha ko'z yosh qilib oldi... Bunday o'ylab qaralganda, endi ko'z yoshini oqizishidan nima naf? Eng asosiysi, birdaniga qandaydir jikkakkina bo'lib qoldi, nuqlu vaysaqilanib noliyvyeradi, ilgari hecham bunaqa ahvolga tushgan emasdi.

– Qayg‘uraverma, Polyajon, o‘zi azaldan shunday bo‘lib kelgan. Keksalar qarib boraveradi, yoshlik esa qadam-baqadam birinchi safga chiqib kelaveradi...

Qolgan narsalar, mayda-chuydalarini hisobga olmaganda, hammasi binoyiday ahvolda. O‘tgan qishda Oblogning Gorinka daryosi bo‘yida saqlanib qolgan qismini ham butkul kesib tashlashdi, mana endi Vasilyev qabristonidagi yangi elektr stansiyaning naynov quvuri kemaband tepasida yuksalib turgan Shabanov tog‘idan bemalol ko‘rinib turibdi. «O‘rmonsiz qandaydir poyonsiz erkinlikni hisetasan, sanoat hududi manzarasi ham keng ochildi, lekin bilasanmi, Valyajon, bundan ko‘ngilda qandaydir bo‘shlik paydo bo‘lganday...» Endi Loshkaryov shahriga yuqorida shunaqangi kuchli shamollar hamla qilyaptiki, yaqindagina bo‘lib o‘tgan bo‘ron hozirgi paytda keraksizga aylangan o‘t o‘chirish xizmati minorasining uchini yilib oldi, respublikada xizmat ko‘rsatgan shifokor Gavrilovning boshidan mashhur qora shlapasini uchirib ketdi, shlapa hammaning ko‘z oldida Yenganing o‘rtasigacha uchib borib, ko‘piklanib turgan g‘azabli to‘lqin qa‘riga g‘arq bo‘lib ketdi. Bundan tashqari, o‘rmonlar kesib olingan vaqtlardan beri tuni bilan quvurlarda shamol uvullab chiqyapti, meteorologiya sohasida savodsiz bo‘lgan kampirlar navbatlarda turgan paytlarida shivirlashib aytishlaricha, Gorinka bilan Sklan chamasi Qozog‘istonga tashqi suvlar oqizib ketgan qarag‘aylar uchun tortayotgan na’rasi ekan. Ammo bu yilgi sollar Volgaga yetib bormasdan to‘satdan sayozliklarda qolib ketdi va ularni daryo yoymasidan qo‘lda sudrashga to‘g‘ri keldi.

– Demak, «Yalanglik»ni ham yo‘q qilishibdi-da? – xafa bo‘lib so‘radi Varya.

– Yo‘q, agar eng chekkasini hisobga olmaganda, «Yalanglik» o‘zining to‘kin-sochinligi va malla go‘zalligida hozircha daxlsiz turibdi. Ammo atrofdagi kolxozi¹larda hamma odamlar xuddi aqldan ozganga o‘xshaydi: qurilish qilishyapti, to‘ylar bo‘lyapti, hammayoqda ashulabozlik. Loshkaryovning o‘zida ham Premilov kanisasining sobiq tamaddixonasida vaqtinchalik kino ochildi... ammo eski suvog‘ini kuporoslab tashlashga erinishibdi va Polinaning jo‘nashi arafasida mahalliy kampirsholar tarqatgan ovozalarga qaraganda, har bir kino

¹ Kolxozi – jamoa xo‘jaligi.

namoyishi paytida qandaydir qadimiy avliyolar o'zboshimchalik bilan ekrandagi odamlar orasida bemalol yurishganmish, hattoki klub mudiriga viloyatdan tanbeh berilibdi. Ha, aytganday, qiy-chuvda aytilish yodidan ko'tarilibdi-ya, Varyaga hammalari ta'zimlarini yuborishdi: ko'zi ojiz Praskovya Andreyevna ham, Loshkaryov shahridagi ancha xushfe'l raqqos, bu yil harbiy xizmatga ketadigan kinomexanik Petya Chmokin ham, Yermakovlarning o'n bir kishilik butun oilasi ham, o'z kuchi bilan allaqanday qazilma maxluqning ikkita tishini va umurtqasini kashf etgan O'lkashunoslik muzeyi mudiri Gvidonenko ham, Polyadan xat berib yuborgan Nina Siplenkova – uni yaqinda tug'ruqxonaga olib ketishuvdi... xullas, yoqimtoy Varyaxonni hammalari eslab yurishibdi, faqat bittasidan tashqari, aynan o'shandan Varya judayam ta'zim olishni xohlagan edi.

– Ammo salom aytib yuborishgan bo'lsa-da, kam xat yozayot-ganining uchun sendan xafa bo'lishgan, diplom olishing bilan orqaga qaytishingni, keksagina Marfa Yegorovnaning joyiga o'tirishingni kutishyapti... – so'zini tugatdi Polya, yoyib qo'yilgan sovg'alarga maroq bilan tikilganicha va birdan yuzlaridagi ifoda o'zgarib, shoshilishda esidan chiqqan, dag'al kulrang qog'ozga o'ralgan tuguncha tomon otildi.

Bir jihatdan Varya unga tug'ishgan opasiday bo'lib qolgan, ammo Polya o'z sovg'asini ocharkan, istehzoli kulgiga nishon bo'lishdan xavotirlanib turardi. Ammo Varya hammasini darhol tushundi va Polyaning kamtarona tuhfasini minnatdorlik hissi ila ko'ksiga bosdi. Bu konfet qutisining tasmasi bilan bog'langan bir bog' oddiygina dala gullari edi. Hammasidan ozgina-ozgina ja'mlangan: dasht yoronguli, hammasidan avval so'lib qoladigan o'tloq yoronguli va barglari quruqshab qolgan o'tloq mudroqguli, Moskvaga faqat ezilgan pichan holidagina yetib keladigan oddiy yo'ng'ichqa, qattiq, nochor qizil-poycha, sariq, urug'lari deyarli pishib qolgan shaqildoq o't, chayir tolador chaqamiq va ular ikkovlari bir paytlar birgalikda yurib o'tgan eng aziz o'tloqlardan bir poya-bir poya, ikki poya-ikki poyadan terib olingan, rus tabiatining shular kabi yana o'nlab yoqimli va oddiygina mavjudotlari. Bu bog'lamni vatanning muloyimgina duosiga, uning tobutgacha davom etguvchi hayotdagi sadoqatli muhabbatining garoviga o'xshatsa bo'ladi.

– Ularni endi suvgaga solib qo‘yish kerak, ammo butun yo‘l bo‘yi chovgunda asrab keldim. Bechoralar issiqdan qiynalib ketishdi! Varyajon, rosti, senga nima olib kelishni bilmadim...

Varya gullarni yuzlariga bosgan ko‘yi unga o‘zining mo‘g‘ulcha, o‘sha daqiqalarda zanona joziba kasb etgan ko‘zlarini tikkanicha jilmayib turardi. So‘linqirab qolgan bu o‘tlarda hayot iliqligi hali so‘nmagan, ko‘zao‘tlarning oltin kosachalarida hozircha bir tomchi ham gulob qurimagan, echkimiya hali barmoqqa yopishib qolyapti, momiqgul o‘zining ipakday mayin iliqligini hamon saqlab turibdi.

– Eriophorum vaginatum! – ehtirom bilan dedi Varya va haqiqatan ham Linneyona lotin tili hali hech qachon bunchalik ta‘sirli jaranglagan emasdi; o‘zlar yashaydigan tomonlarda momiqgul faqat daryoning narigi qirg‘og‘ida, botqoqlashib ketgan qayirdagina o‘sishi to‘satdan Varyaning yodiga kelib qoldi. U jasoratning ko‘lamidan dahshatga tushdi: – Tentak qiz, shuni deb Yengaga boardingmi?

– O, men uyoqqa qayiqchada borib qaytdim, tezgina!.. – va dugonasining quvonchi o‘zining yuz-ko‘zlarida akslanib, yashnab ketdi. – Bilasanmi, ular hali tirik... bularni tezroq suvgaga solish kerak, xolos!

– Sen chek-chegarasiz yoqimtoysan, – lablarini tishlab dedi Varya va deraza tomonga o‘girilib, yoshdan namlangan ko‘zlar bilan qadrdon yerining ufqlariga – mittigina, xaritalarda bazo‘r belgilangan nuqtaga tikildi.

Ayni vaqtida, dugonasiga xalal bermaslik uchun Polya bekalarcha nigoh bilan endi o‘zi yashashi kerak bo‘lgan xonani ko‘zdan kechirdi.

Aslida Varyaning derazasi yo‘q edi, ayvonning oynavand eshigi uning o‘rnini bosib turardi. Istiqomatchilar uy hali qurib bitirilmasidanoq ko‘chib kirishgani bois birdaniga ayvonning temir to‘sqliari orasidagi tirqishdan quyosh nurlariga to‘lgan pastdagagi uzun ko‘cha ko‘rinib turgan manzara ochiladi. Uning sarg‘ish, kun yarmidan keyingi akslanib turgan nuri shiftda zaif shu’lalanadi: xona g‘arb tomonga qaragan edi. U avvalgisidan anchagini tiqilinch, binobarin, yaqindagina qo‘shni ayoldan olingan, boz ustiga yostiqsiz temir kat Varyaning xonasidagi bo‘sh makonni butkul egallab olgandi. Ammo Natalya Sergeyevnaning xonasidagi sharoit butun ikir-chikirlari bilan birga eskirgan, bartaraf etib bo‘lmaydigan darajadagi murakkablik ufurib turardi, bu yerda esa o‘z oldiga oddiy va ravshan maqsad qo‘ygan sovet tolibasining hayoti osongina, izohlarsiz anglanib tu-

rardi. Mana, u yo‘lga nimalar bilan chiqmoqda: Gorkada xarrakda o‘tirgan dohiyning devorga ilingan, hoshiyalangan fotosurati, undan salgina pastroqda uning sevimli Darwinining ko‘zlar bolalarcha bo‘qib turgan kichikroq surati, burchakda kiyim javonchasi, miz ustida kitoblar taxlami, turmushda kerak bo‘lib turadigan eng oddiy buyumlar... faqat ko‘zgudan boshqa hamma narsa qo‘yilgan ko‘p qavatlari javoncha.

– Endi o‘zing haqingda gapir, – buyurdi Varya guldstani shisha idishga solib bo‘lgach. – Qayerga o‘qishga kirmoqchi ekaningni xatlarinidan baribir bila olmadim.

– Hammasini bir boshdan aytib beraman... maylimi?

– Hamma narsani har doim avvalidan boshlagan yaxshi-yu... Lekin qancha qisqa bo‘lsa shuncha tushunarliroq bo‘ladi. – Varya xuddi sinfdagi tajriba tarzida o‘tilayotgan darsni xijjalab o‘rgatgan kabi doim aniq va tushunarli gapirishga harakat qilardi. – Ammo shuni bilib qo‘y, yarim soatdan keyin men shoshilinch ish bilan yana ketishim kerak.

Qarangki, eng taniqli loshkaryovlik fuqarolar Polyaning kasb tanlashi bo‘yicha saylovda ishtirok etishibdi, ammo ularning barcha maslahatlarini o‘zaro o‘ta ziddiyatli bo‘lgani bois rad etishga to‘g‘ri kelibdi. Chunonchi, doktor Gavrilov, masalan, fizika, va hattoki astrofizikada turib olibdi, chunki tumanli Fales davridan buyon falsafa fani namoyandalari har qaysisi o‘zi xohlaganicha, oddiy odamlarga tushunarsiz tarzda ming‘irlashdan nariga o‘tolmayotgan, borliqning asosiy masalalarining javobini, uning fikricha, barcha fanlar ichida faqat shu soha yaqin yarim asr ichida topib bera olar emish...

– Umuman olganda, Varyajon, men bu fikrga qo‘shilaman. Uch ming yil davomida ular shunchalik ko‘p kuch-quvvat sarflashdi-yu, faylasuflarni aytaman-da, masalan, xo‘p... sen mendan tashqarida mavjudmisan yoki sen mening hissiyotlarim majmuimisan, kabi oddiy savolda ham bir fikrga kela olishmadi, yokigim... nisbiylik naziyasiga binoan yulduzlarning nurlari kesishuvida soxta quyoshlar qanday hosil bo‘ladi, degan masalada, – tushuntirdi Polya va buning o‘z tasavvuridagi holatini barmoqlari vositasida ko‘rsatdi, Varya esa kulib yuborishdan o‘zini arang to‘xtatib turardi: Polinaning so‘zlarida u o‘ziga tanish loshkaryovcha ovozlarni eshitib turibdi va ular orasida Polinaning tengdoshlari ichidagi eng asosiy mutafakkir bo‘lmish

Rodion Tixodumovning mulohazakor yo‘g‘on ovozi hammasidan baland bo‘lib ajralib turardi. – Faqat iljayma azizam, iltimos. Men kichkinaman, albatta, lekin men kişman, men qayerdanman va nihoyat men nima uchun mavjudman... hech narsani anglamasdan tentak g‘o‘laday shundoqqina o‘lib ketaveramanmi?!

– Rodionning turish-turmushi qanday? – astagina so‘radi Varya.

– Yuribdi, ozish bilan ovora. Ketishimdan oldin u bilan bir umrga arazlashdik, – jahl bilan qo‘sib qo‘ydi Polya.

... Boshqa tarafdan, tuman sog‘liqni saqlash bo‘limining mudiri o‘rtoq Valtasar, o‘zini tibbiyotga bag‘ishlashga va bizga eski dunyodan meros bo‘lib qolgan ijtimoiy kasalliklarni bartaraf etish jarayonini tezlashtirishga Polyani ko‘ndirmoqchi bo‘ldi. Shuningdek, kimyo, chorvashunoslik va hatto temiryo‘l markabi foydasiga ham rad etib bo‘lmas vajlar aytildi. Polyaning o‘zi esa avvaliga tog‘liklarning urf-odatlarini va ularning qadimdan qolgan mag‘rur rivoyatlarini zamonaviylik nuqtayi nazaridan ta‘rif etish orzusida adabiyot tomonga biroz yon bosgandayroq bo‘ldi-yu, lekin uni bu fikridan qaytarishdi; ilg‘or korxonalar va yirik elektr stansiyalari to‘g‘risida davrni aks etirguvch keng miqyosli asarlar chizish uchun rassom bo‘lish niyatini ham hozirgi qizg‘in zamonda oddiy manzaralarni chizib o‘tirish qandaydir noqulay ekanini anglatmoqchi bo‘liganday yo‘qqa chiqarishdi. Qolaversa, Rodion juda achchiq kinoya bilan aytishicha, texnika haqidagi asarlar matodagi bo‘yog‘i qurigunicha yashar ekan, xolos va sotsialistik ishlab chiqarish rivojlanib, kommunizmga yaqinlashib borilgani sayin ular tadrijiy ravishda xalqimizning qudrati va jasorating karikaturasiga aylanib qolar ekan. «Bu yerda o‘zgaruvchan amal bor, tushunyapsanmi? – jiddiy ishora qildi Polya. – Bu kabi asarlar ma’nан eskirib qolmasligi uchun ularni har yili biroz yangilab turish kerak bo‘laveradi».

Bundan tashqari, uning fikricha, kelgusida tasviriy san’atga bo‘lgan talab sezilarli darajada qisqaradi, chunki badiiy asarlarni tezkor ishlab chiqarishda yer kurrasida moziygochlар yetishmay qoladi va bu holda tugallab bo‘lingan xazinalarni to‘p-to‘p qilib ochiq havoda saqlashga to‘g‘ri keladi; xususiy iste’mol masalasida esa... Pavel Arefyichga uning oltmish yoshga to‘lgani munosabati bilan Magnitogorsk metallurgiya korxonasining rang-barang bo‘yoqlarda chizilgan va son-sanoqsiz quvurlar aks etgan portretini taqdim etishganida,

u shu zahotiqoq suratni yaqindagina ochilgan to‘qimachilar klubiga sovg‘a qilib yubordi, o‘z xonasidagi devorda esa, o‘sha avvalgi lo‘li qizni qoldirdi. «Tasavvur qilgin-a, bo‘yniga cho‘lpi taqqan va doira ushlagan labi do‘rdoq qiz! Holbuki u qanday zamonaviy kishi bo‘lib tuyulgan edi-ya!». Lekin hammasi yaxshilikka bo‘lyapti, tinchlantir-di Polya o‘z dugonasini: aynan o‘sanda jamiyat musavvirlar lash-karini uy-joylar, kiyim-kechak, idish-tovoqlar, eng oddiy buyumlar, har kuni va kitoblardan kam bo‘lmagan darajada mehnatkashlarning ta‘bini, madaniy talabchanligini va pirovardida axloqiy darajasini tarbiyalovchi sotsialistik turmushni ko‘rsatishga safarbar qiladi.

— Men shunga aniq ishonamanki, Varya, kommunizm azob-uqu-batlarni, yovuzlikni, yolg‘onni, ya’ni barcha xunukliklarni, shaksiz, tuban narsalarni yo‘qotishga safarbar etilgan... demak kommunizm, barcha fazilatlaridan tashqari har tomonlama mukammal go‘zallikdir, — yonida Rodion yo‘qligi uchun qandaydir mavhumroq qilib gapi-rardi Polya. Varya esa tashvish bilan, lekin zavqlangan holda ertangi kunning tobora qat’iylashib borayotgan ovozlariga qulq solardi. — So‘zlarimni yodingda saqlab qol, Varya: har qanday, hatto eng jo‘n buyumga ham, korxona tamg‘asidan tashqari, hunarmand ustaning ham tamg‘asi qo‘yiladi, binobarin, xuddi kitoblarga va spektakllarga yozilgani kabi unga taqrizlar bag‘ishlanadi. Aynan shuning uchun ham jamoat binosining ishlov berilgan ustun qoshi, ma’nolarini bos-maxona yozuvida aks yetirish oqilona va arzonroqqa tushadigan o‘nlab o‘rtamiyona asarlardan muhimroqdir. Xullas, mana shu ziddiyat uchun Rodion ikkalamiz bolalardan rosa dakki eshitdik... Endi sen koyiyqol.

— Agar bilsang, men buni darrovgina hal qila olmayman, — javob berdi Varya soatiga qarab turgan ko‘yi. — Sen shunday mulohaza yurityapsanki, go‘yo kommunizm allaqachon qurib bo‘linganday, holbuki, sening keljakka bo‘lgan huquqingni tortib olishni xohlay-digan kimsalar haligacha bor. Men sening fikringni, badiiy matoni manfaatparastlik topshiriqlari bilan zo‘riqtirishga qarshi norozililing-ni tushunib turibman, lekin... ammo rassomni buyumlarga zeb berishdan avval jamoatchilik fikrini ziynatlash ishiga taklif etishsa, bunga jahl qilish kerak emas. Oriy rost, belkurakdan ko‘ra mo‘yqalam bilan ishslash yoqimliroq, ammo belkurak ishlatish, qurolni qo‘llashga qa-raganda yaxshiroq... to‘g‘rimi? — Varya o‘zining xayoliy mitti suh-

batdoshlari har bir jumlaning mohiyatini anglab ulgurishlari uchun, o'zining nutqlarini doim to'xtalishlar bilan navbatlab turardi.

Bahs chuqurlashib, Polya e'tiroz bildirishga urina ketdi. Oxir-oqibat o'tmish san'ati ham o'z davrini g'oyaning yuzaki bayoni bilan emas, balki qo'yilgan savolning teranligi va ijro mukammalligi bilan erishgan. U ismlarni, uslublarni, alohida asarlarni sanab o'tdi, bundan esa o'zining sevimli matematikasidan tashqari, uning Rodioni qanchalik keng dunyoqarashli ekanini xulosa qilish mumkin edi. Dugonalar san'atning yuklamasi qanchalik jiddiy bo'lsa, uning sifati shunchalik yuqori bo'ladi degan fikrda to'xtadilar.

– Ochilaqolsang-chi endi... qayoqqa kirmoqchisan o'zi?

– Me'morchilikka... nimaydi? – ko'zini chaqchaytirib, quruqshagan lablarini yaladi Polya.

Varya xayolga botganicha, stoldagi kleyonkaning chekkalarini to'g'rilagan bo'ldi. U dugonasini fikridan qaytarishni xohlayotgani yo'q, ammo Polya rassomlardan mahoratni talab qila turib, toshdan yaralgan ijodlari afsuski davrning boshqa barcha yodgorliklaridan ko'ra ko'proq umr ko'radigan me'morlarning mas'uliyatlari uch karra ko'proq ekanini pisanda qilib qo'ydi, xolos. Shosha-pisha yozilgan, insofsizlik mahsuli bo'lган kitoblarni o'qimaslik mumkin, ahmoqona spektakllarga va o'rtamiyona suratlarning ko'rgazmalariga ham bormasa bo'ladi, ammo yomon binolar qurib tashlangan shahlar bo'yab yumuq ko'z bilan yurib bo'lmaydi-ku.

– Xullas, Apollinariya, agar o'zingda shunga layoqat va quvvat borligini his qilayotgan bo'lsang... O'zing ishlagan qandaydir badiiy ishlaringni olib kelganmisan? Ko'rsat-chi.

Polya ko'ylaklarini va ich kiyimlarini sochib, jomadonining tubidan kanselyariya yig'ma jildlarining kartonlariga va eski jurnallarning silliq oq muqovalariga chizilgan rasmlarni chiqardi.

– Lekin aytib qo'yay – kulmaysan... bo'ptimi? – keyin qo'rquv ichida hukmni kuta boshladi.

– Nimayam derdim, hecham yomon emas... sendan har holda ish chiqadi. – Polya unga ikkinchi va uchinchisini uzatar ekan, Varya esa eng ustida turgan birinchisini qo'lida ushlab turardi. – Bilasanmi... menga shunisini sovg'a qilgin, bo'ptimi?

– O, Varyaginam, senga bundan yaxshisini chizib beraman! – Polya birinchi sinovdan muvaffaqiyatli o'tganidan quvonib ketdi.

– Yo‘q, menga xuddi shunisi kerak, – Varyaning yuzi uyatdan bunaqa qizarishini Polya hech kutmagan edi. – Shu rasmida judayam o‘xshab chiqibdi. Ko‘zlar yumuqligini aytmasa, xuddi tirikka o‘xshaydi. Bu Kolya Bobrininmi?

– Yo‘q, bu nima deganing! – Bu axir Antinoy-ku.

– A-a... – yengil tortdi Varya. – O‘zim ham hayron bo‘luvdim, xuddi murdaga o‘xshab uning ko‘z qorachiqlari yo‘qligiga. Lekin baribir buni esdalik uchun sendan olib qo‘yaman... mashhur me’morning ilk qadamlari sifatida.

Muallifning roziligin ham kutmasdan, u rasmni mizning g‘aladoniga solib qo‘ydi, va dugonasining o‘ziga qadalgan savolomuz nigohini his etib, beparvo ohangda Rodion haqida nimanidir so‘rab qo‘ygan bo‘ldi. Bu hiyla o‘ta muvaffaqiyatl bo‘ldi, Polya bolalarcha soddalik bilan hozirgina bo‘lib o‘tgan voqeani unutdi-qo‘ydi. O, Rodion... uning oxirgi yilda qanchalik ulg‘ayganini Varya bilganida edi! Loshkaryovlik muallimlar undan darslarni so‘ramaslikka harakat qilishi, chunki u shunday mufassal javob berardiki, bu tafsilotlarni tekshirib ko‘rishga muallimlarda imkon yo‘q edi va uning o‘zi shunaqangi savollar berardiki, bu bilan ularni ruhiy muvozanatdan chiqishga majbur etardi. Darvoqe, o‘tgan asrning eng kallali matematiklari bosh qotirib, mutlaqo hal qila olmagan jumboqli bir tenglamani u yarmigacha yechib berdi. Aytganday, Polyaning yo‘lga chiqishidan ikki kun avval Rodion fizika-matematika kulliyotiga o‘qishga kirish uchun Qozonga jo‘nab ketdi.

– Sen ensangni qotirmay qo‘yaqol, iltimos Varyajon, lekin tasavvur qilgin, bu daroz bola menga o‘zining aqliligin ko‘rsatmoqchi bo‘lib...

– Mayli, oralaringdag‘i janjalning tarixini keyinroq so‘zlab berarsan, – uning so‘zini bo‘ldi Varya, o‘rnidan turib. – Bugunga qanday rejalarling bor? Balki men bilan biologiya stansiyasiga borib kelarsan?

– Ba‘zi narsalarni xarid qilishim kerak edi, – rad etdi Polya.

– Juda soz. U holda birga tushlik qilamiz. Soat oltida. Marhamat ko‘rsatib, kechikmaslikka va adashib qolmaslikka harakat qilgin. Xullas, tamaddi qilmasdan, sening kelishingni kutaman.

Suhbat ayni vaqtida to‘xtadi: miz ustidagi elektr chovgun qaynadi va taglik laganchaning chekkasidan ingichka oqim bo‘lib suv toshib chiqa boshladи.

Polya keyingi rejalarining jadvalini yo‘l-yo‘lakay tuzib qo‘ygandi, bular orasida teatrlarga, badiiy galereyalarga, me’moriy yodgorliklarga va birinchi navbatda Lenin mavzoleyiga, hali uning ham o‘z ismi yozilishi kerak bo‘lgan katta kitobning ushbu bosh sahifasiga tashrif buyurish tadbirlari bor edi. Ammo bu ro‘yxat o‘quv mashg‘ulotlari boshlangunicha bo‘lgan uzoq muddatga mo‘ljallangan va Boshkentni ko‘rikdan o‘tkazishga kirishishdan oldin, o‘zining oxirgi yarim yilda yuzaga kelgan tiyib bo‘lmas ehtiyojga aylangan bolalarcha injiqliklari amalga oshirib olishni istayotgan edi.

Kaptarxononasidan Yenganing ajoyib manzarasi ochilib turgan, butun olamdan maxfiy ravishda Polyaga o‘zining she’rlarini o‘qib bergen Rodionning chordog‘ida chang bosgan taqir-tuqurlar orasida inqilobdan oldingi haftalik nashrda Polya qandaydir koraftha munajjimning ko‘p takrorlanib kelgan bir e‘loniga ahamiyat berib qoldi. O‘sha shaxs narigi tarafdagи kurralar bilan yaqin munosabatlarda bo‘lgani sababli bir so‘m to‘qson besh tiyinlik pochta markalari evaziga keljakni aytib berarmish, mijozlarining daromadini o‘z-o‘zidan ko‘paytira olarkan, kal odamlarning boshida beqiyos sochlarni o‘stirib qo‘yarkan mish, musibatlarni, uyqusizlikni, zararli hasharotlarni, bolalarning ayb-nuqsonlarini nom-nishonsiz yo‘qotib yuborarmish va farosati g‘ovlagan kazzob och qolganida o‘ylab topshi mumkin bo‘lgan boshqa ko‘p narsalarni ham amalga oshirishini ovoza qilgan edi. E‘lonning yon tomonida chop etilgan fotosuratga qaraganda, salsa kiygan va manglayidan folbinlik chaqmoqlari otlib chiqayotgan, anchayin yosh ko‘rinayotgan kimsa hozirda oltmis yoshdan oshmagan bo‘lishi kerak, agar inqilob yillarida biror xatarli ishkalga aralashib qolmagan bo‘lsa, bugunga kelib hali ham u tirik yurgan bo‘lishi mumkin. Polya mavridi kelib qolganida aybsiz-pok mavjudot sifatida o‘zining biologiyaga va kechagi hayotning voqeligiga bo‘lgan qonuniy qiziqishini qondirish niyatida sarg‘ayib ketgan manzilnomani asrab qo‘ydi. Aynan o‘z mamlakatida umrini yashab bo‘lgan kasblarni – podshohlar va bankdorlarni, suv tashuvchilar va sovchilarni, – uchratishga tuyassar bo‘limgani munosabati bilan (anavi nayrangboz esa o‘tmishning qolgan-qutgan chiqindilari orasida nazar tashlash mumkin bo‘lgan yagona nusxa edi), Polyada

biror-bir bahonani o'ylab topib, uning eshigini taqillatib borish va ehtirom hamda qo'rquvning omixtasi bo'l mish hissiyot bilan xuddi Gvidonenkoning uyidagi paleontologiya qadimotlarini tomosha qilgani kabi, sirli ko'hna dunyoning xuddi uyqudan turgandan keyin hali yuvilmagan kabi xira ko'zlariga boqish uchun so'nggi imkon mavjud edi.

Polyanining o'sha turdag'i ikkinchi tadbiri sifatida otasining uyiga tashrif ham belgilangan edi. U dadasingning hatto fotosuratlarini ham ko'rmagan, onasi esa chamasi o'tmishning ko'ngilsiz xotiralarini tit-kilashni xohlamagani uchun qizining huzurida sobiq erini muhokama qilishdan tiyilib yurgan. Ammo maxsus nashrlardagi kam sonli tanqidiy maqolalarda berilgan ta'riflarga ko'ra u odam badqovoq, gapgako'nmas, zamonaviy o'rmon xo'jaligining vazifalarini anglashdan ancha uzoq, eskicha dunyoqarashli kimsa edi... ishqilib, matbuotda bayon qilingan yanglishishlarga va xatolarga u ongsiz ravishda yo'l qo'ygan bo'lsin-da! Agar o'ylab qaralsa, ana shu ko'ngilsizliklar uning fe'lidagi sho'rtumshuqlik xususiyati bilan qo'shilishib, oilaning buzilib ketishiga sabab bo'lgani anglashiladi. Polya o'sha jumboqli voqeanning tafsilotlariga kirib borishni istamasdan, hech bir shartsiz ravishda – onasining – tumanlararo shifoxona feldsheri, kamsuqum va hammaning hurmatiga sazovor bo'lgan mehnatchi ayolning tarafiga o'tib ketdi. Nashriy tanqidlardan tashqari, Polyanining o'z otasi haqidagi sirtqi tasavvurlari asosiga chaqmoq chaqnashining oniy yorug'ligi singari bolalikning bir qisqagina xotirasi ham o'rnashib qolgandi.

Har safar, dim havoli yozning yarim tunida bug'tortarning titroq chinqirig'ini eshitganida Polyanining tasavvurida achchiq dorilarga to'la shisha idishchalar, kattagina oltin gardishli, bo'rtma shishasi vahimali yaltirab turgan ko'zoynak va uning ortida Polyanining kat-chasi ustida engashib turgan odamning nursiz, loqayd nigohi gav-dalanaverar edi; Yelena Ivanovna Yengaga qochib ketishi arafasida Polya qizamiq bilan og'rib qolgandi. Loshkaryovliklarning hech birida bunday qimmatbaho ko'zoynak yo'q edi. Shunisi diqqatga sazovorki, aslida u shifokorga tegishli bo'lib, o'sha odamni Vixrov deb yanglish o'ylagan Polya tarbiya topgan muhit va siyosiy silsilalar epkini esa komsomol qizning ko'z o'ngida la'natga uchragan qimmatbaho metall bilan bog'liq holda bu qiyofanining ham keyingi

holatini va unchalik ham olижаноб bo'Imagan mazmunini belgilab berdi. Otasiga qarshi bo'lган xato salbiy fikrlar onasi uchun qasos olishning chidab bo'lmas darajада yurakni kuydiruvchi ehtiyojiga, otasi kabi toifadagi odamlar haqidagi o'zining komsomolcha ro'yirost ayblovini uning basharasiga aytish istagiga aylanib bordi... Hali uydalik paytidayoq Polya lazzatlanib shunday manzarani ko'p martalab, qayta-qayta xayolan yaratib qo'ygan edi: bir kun kelib, u, biri biriga ulanib ketgan, qator-qator gilamlar to'shalgan hasham-dor xonalar bo'ylab qadam bosganicha, boshlariga kraxmallangan to'rbezaklar qadab olgan cho'rilarни oralab o'tib borib, professorning eski tuzumdan qolgan qo'zg'almas mebellarga to'la, derazalariga sigaraning fahshga to'la hidi singib ketgan baxmal pardalar ilingan, qanotlari keng yoyilgan ikki boshli birinj burgut ostida yozuv anjom-lari qo'yilgan nimqorong'i koshonasiga kirib keladi... Ostonadanoq, bajoyi ta'zimsiz, o'tirmasdan, qizi kirib kelishi bilanoq o'tirgan joyidan ko'tarilgan keksa, terilari osilgan xomsemiz janobga, hech qanday sud aralashuvisiz o'n uch yil davomida qizining yeguligiga pul yuborib turgani uchun minnatdorlik bildiradi... Mana, qizingiz shuni aytgani keldiki, u endi voyaga yetdi va sizning qarshingizda turibdi, demak, onam tomonidan shu yillar davomida hech qanday tovlama-chilik bo'lGANI yo'q, masalan, qizi allaqachon o'lib ketgan bo'lishi va u jasad uchun sizdan pul undirib yurgan bo'lishi ham mumkin edi, shunday emasmi? Holbuki siz farzandingizning o'lik-tirigini bilish uchun o'n uch yilda hech bo'lmasa bir marta borib, bunga ishonch hosil qilib kelsangiz, haqqingiz ketmasdi!.. Siz endi boshingizga balo bo'lган otalik majburiyatlaridan ozodsiz, buyog'iga xohlang, bo'kib aroqxo'rlik qiling, xohlang, quvonchingizdan childirma chalib yuboring... Keyin Polya dadasini ansolning yillik ko'payishi bo'yicha zerikarli jadvallarini chizib o'tirishi uchun xoli qoldirib, uning hayotidan umrbodga chiqib ketadi. O'sha paytda qiz bolalarcha ho'ngrab yig'lavormasa bo'ldi!

Ammo muddaoси yaqinlashgani sayin Polyaning butun vujudi o'zi o'ylab qo'ygan jazoga qarshi chiqa boshladi; buning sababi qo'rkoqlik emasdi, qandaydir jirkanch narsaga bir lahzaga teginib bo'lsa ham ifloslanib qolishdan iganish xavotiri ham emas, bu – so'zlar bilan ifodalab bo'lmaydigan qandaydir boshqa narsa edi; yoki bu allaqanday kutilmagan holda ko'nglini qoldiradigan holatga duch kelishdan

xavflanishmikan. Xullas, biror soatlar o'tib, vannada cho'milib chiq-qanidan keyin zinadan tushib borarkan, Polya endi hech qayoqqa shoshmay qo'ygandi, – ko'nglining tub-tubida o'zi uchun qulay vaziyat yuzaga kelib qolib, otasi bilan uchrashishga fursat topilmay qolishiga umid qilishni boshladi. U katta ko'chaning keng sahniga chiq-qanida Blagoveshshensk ko'chasidagi terakzordan so'rilib chiqayotgan salqinlik va shahar tepasidagi bayram hali davom etayotgan edi. Polya ikki marta chapga burildi, qarshi tomondan kelayotgan harakat oqimiga tushib qoldi va o'ziga tanish bo'lgan barcha belgi-nishonlar birdaniga yo'qolib qoldi-yu, qiz o'z Loshkaryovida yashayotganida orzulagan ulkan ertak ichida adashib qolganini sezdi.

... O'n sakkiz yoshingda notanish shaharda sayron yurishdan ham ko'ra jozibador narsa yo'q bo'lsa kerak – kattalarning kuzatuvidan xoli, darsga kech qolish xavotirisiz va ayniqla eng tizginsiz istaklarining qondirishing uchun onang bergen ellik so'm pul kabi turmushning qo'shimcha quvonchlari ham bahra berib turgan bo'lsa. Polya tanlagan ko'cha o'ziga jalb etuvchi turli xil vasvasalarga to'liq edi: kitob do'koniga peshtaxtalaridan birida eng yangi rang-barang nashrlar yarim yotiqla holda terib qo'yilgan, hattoki ularning sarlav-halariga nazar tashlagandayoq o'tkinchilarining madaniy saviyasi ko'tarilib ketganday bo'ladi, boshqasida o'n olti nafar taniqli ustalar ilmiy yutuqlar vositasida o'n olti nafar o'zlarini kabi mashhur sohibjamollarning sochlarini jingalaklashmoqda, uchinchisida esa nihoyatda g'aroyib va turli o'lchamlardagi alumin idishlar xira yaltirab turibdiki, bularni ko'rganidan keyin – bashariyat shunday buyuk moddiy ne'mat kashf qilinishidan avval qanday yashay olgan ekan, kabi fikrlar og'ushiga g'arq bo'lsan. Nima uchundir endi ko'chalarda gullar yo'q edi, sotilib ketibdi, ammo barcha burchaklarda shisha idishlar terilgan sirti sirlangan aravalari chiroy ochib turibdi va har xil mutasaddi xizmatchilar arava atrofida o'z ko'ngillari ta'biga va kayfiyatlariga mos rangdagi suvlarni bardoqlardan o'ychan ho'plab turibdilar. Dahshatli bir kuch u yerga Polyani ham yetaklab bordi, chunki hali yozning kuni lovullab turibdi, ammo sumkasidan kerakli tangani izlab topgunicha, osmon rangidagi ikkita sisternalar dimiqqan, benzin isi singib ketgan jazirama havoni pastgina yomg'ir bilan salqinlatib o'tib ketdi, shu bahonada qiz ham onasining pullarini boshqa zarurroq xarajatlar uchun tejab qolishga muvaffaq bo'ldi.

U o‘z nafsining havaslarini chetlab o‘tishga jon-jahdi bilan urina boshladi, ammo ular baribir qizga yetib olishdi, ular yengishdi – cho‘p qadalgan muzqaymoq, ertaki gilos, shakar qoplangan yong‘oqlar... va yana, uning yangi ko‘ylagi tufayli shekilli, yo‘lida yaxshi odamlar uchray boshladi. Misol uchun, qandolat do‘konidagi tarozining mili ikki yuz o‘n grammni ko‘rsatdi, holbuki kassaga faqat ikki yuz gramm uchun pul to‘lagan edi, sotuvchi ayol bu masalada bahslashmaslikni ma’qul topdi. Polya «Hayoting boshlanayotgani bilan seni tabriklayman», degan mazmundagi ikkita bir xil telegrammani, bittasini Qozonga, mutlaqo maxfiy manzilga, ikkinchisini esa o‘ziga, Varyaning berkko‘chasiga, bugungi g‘aroyib kunga qo‘sishma bayramona ruh bag‘ishlash uchun jo‘natish maqsadida telegrafga kirganida, qaytimiga yap-yangi, qog‘ozlari hali shildirab turgan pullarni berishdi. Polya yana mayda-chuyda, sochilib-to‘kilayotgan tugunchalarini eplolmay qoldi, ma’yus dorixonachi esa (omadi yurishmagan alkemyogar ekanig‘irt aniq), xaridlarini bitta paket qilib bog‘lab olishni maslahat berdi... Xullas, Polya yurib borar ekan, hayot unga ertakdagi mo‘jizavor eskalartorday tuyula boshladi: bir qancha muayyan yillardan keyin nafas rostlab olish o‘yida uning birinchi zinapoyasiga chiqasan-u, qarasang, eng yuqoriga chiqib ulgurgan bo‘lasan. Haqiqatan ham, uning mamlakatida baxtli bo‘lish uchun zaruriy hamma narsa bor – turli navdagi palmalar ham, apatit ham, g‘amxo‘r inson yuraklari ham; u ketib borar ekan, qarshisida faqat quvnoq va yasangan odamlar uchrar edi (chunki bu ana shunday ko‘cha edi), endi Polyaning o‘zi ham hammaga jilmayib o‘tmoqda, hatto yog‘och dastgohini yelkasiga ilib olgan badmast holdagi pichoq charxlovchiga ham; atrofda hukmronlik qilayotgan ommaviy hayajonga uning o‘zi ham singib borardi, bunday holat chamasi oldindagi bepoyon kengliklarni va eskirib ketgan mallavoy va yirtiqvoydan boshqa (u o‘zining kiyilaverGANidan to‘zib, xizmatini o‘tab bo‘lgan ikki poy tuflisini erkalab shunday atardi), dunyodagi hamma narsaning o‘ziga chorlovchi yangiligini anglash tuyg‘usi tufayli yuz bermoqda edi. U poyabzalini eslashi bilanoq, g‘ayritabiyy darajada hashamdar uyning tokchasida go‘yoki qiltaroqlardan vujud topgan, poyabzallarga ularning yoshligini qaytarib beruvchi, qudratli va qop-qora sehrgar to‘satdan paydo bo‘ldi.

– Quvonchdan porlayapsan... Menimcha erga tegyapsan-a, sohib-jamol o‘rtoq?

– O, undan ham... ming marta yaxshiroq! – kului Polya, afsungarning harakatchan qo'llari orasidan mallarang charmning yorilib ketgan yuzi oyna kabi yaltiray boshlaganini kuzatarkan.

U endi vaqtning o'tishini ham payqamay qo'ygandi, va birdaniga, bu xarajatlari yaxshilikka emasday tuyulib ketdi. To'g'ri u miyasida hisoblab, uch soatlik bu uzlusiz rohatlar unga bir daqiqasi yigirma to'rt tiyinga tushganini bilib oldi, ammo buyog'iga qandaydir asosiy va biror burchakda yashirinib turgan vasvasani uchratishga butun vujudi bilan tayyor turmoqlik uchun sur'atni pasaytirmasa bo'lmasligini tushundi. Yaxshiyamki, metro bekati yaqinginada joylashgandi va bir platfformadan boshqasiga yugurib o'tar ekan, Polya hozircha imkonni yetgan hamma yo'nalishlar bo'yab sayr qilishni boshladi, chunki metro ham tomosha qilish va hayratda qolish ro'yxatidagi obyektlar qatoridan joy olgan edi. Yaltirab turgan poyezdlar uni qorong'i yo'laklar zulmatida uchirib boradi, va yo'l bo'yab, xuddi tushdag'i kabi moviy yoki mayin pushti rangli marmar zallar har safar birdan charaqlab ko'rinish qoladi. Aynan shu yerda Polya jamoat inshootlarining bezatilishida rassomning ishtiroki haqidagi fikrining amalga oshishini kuzatishi mumkin edi, ammo shu topda nima uchundir u o'zining ko'z oldidagi: ustida o'xshovsiz birinj siyohdon turgan, xuddi qassobning go'sht rastasiga o'xshagan ulkan yozuv mizi, – va uning narigi tarafida uni sovuq, yakkama-yakka olishuvga tayyor turgan, taqdir tomonidan unga ota etib tayinlangan odamdan boshqa hech narsani ko'rmayotgandi. Polya qayoqqadir shaharning biror qarama-qarshi tarafiga, bu yerdan uzoqroqqa ketgisi keladi, ammo u yonida turgan odamga O'rmon xo'jaligi instituti (Vixrovning koshonasi shu muassasa hududida joylashgan ekan) manzilini aytgan edi, ma'lum bo'ldiki, keyingi bekatda tushishi kerak ekan. Yo'lovchilar uning eshik tomonga o'tishi uchun eng ayovsiz haqiqat sari darrov yo'lni ochib berishdi... Bu – metroning so'nggi bekati edi, bu yerdagi eskalator ham yo'q. Odamlar oqimi Polyani tashqariga chiqarib qo'ydi.

Shu yerdagina u kunning bulutli bo'lmasa-da, qandaydir dim va omonsiz ekanini sezdi. Shahar chekkasi yo'lining asfaltidan chiqqan qaynoq taft va chang-to'zon Polyani qurshab oldi. Shahar bu yerdagi xuddi zambaraklar otishmasidan qolgan o'ydim-chuqurlarga o'xshash maydonga baqamti kelib qolgandi. Asfalt yotqizadigan

g‘altakli traktorlar tar-tarlab, changi ko‘tarilib yotgan kartoshka da-lalarini oralaganicha, tarmoqlanib ketgan yo‘lga, qizg‘ish qavatlari tuproq ustidan ko‘tarilib kelayotgan, tekis saflangan birvarakayiga o‘ndan ortiq binolar tomon tutun ufurib turgan asfaltni zichlab bor-moqda. Ushbu sanoatyurishining qora ishchilaridan biri, yuzidagi qorayib ketgan terni artaturib, Polyaga yo‘lni tushuntirdi. Ko‘hna mosk-valik bir aslzodaning shahar tashqarisidagi saroyida joylashgan, otasi ishlaydigan institut binosigacha, tajriba maydonlari va yordamchi xo‘jalikning issiqxonalari oralab, shag‘al yo‘ldan yigirma daqiqacha piyoda yurish kerak ekan. Shu yerda Polya xuddi o‘ziga o‘xshab ostobda qorayib ketgan, paykalga egilib ishlab turgan, tajriba olishga yuborilgan talabadan o‘rmonshunos professorlar qayerda yashashlarini so‘radi, unga ko‘chaning narigi betidagi, o‘qituvchi xodimlarning xonadonlari joylashgan, bir yo‘la ikkita to‘rt qavatli tosh imoratlarni ko‘rsatib yuborishdi. Salgina chetroqda uchinchisi – ko‘rimsizroq, ikki qavatli, burchagidan burchagiga tomon chirmashgan pechak gul-lab turgan, eshigining tepasi soyabonli yog‘och uy turibdi; uy oldidagi hovlichada arqonga yamoq tushgan nimalardir quritish uchun ilib qo‘yilgan. Qandaydir g‘alati tuyg‘u Polyan aynan shu tomonga yurishga undadi. U yosh bolalar hech narsaga e’tibor bermasdan zo‘r hafsala bilan sof sifatli sariq loyni oyoqlari bilan qorib o‘tirgan yerdagi suv tortish ustunchasi yonidan ikki marta o‘tdi. Bu yerdagi sharoit otasi yashaydigan hashamat to‘g‘risidagi Polyaning tasavvurlariga hecham mos kelmasdi: dushmanlik hissi hali so‘ngani yo‘g‘-u, lekin har holda bolalarcha shubhalarning yoriqlari bilan qoplama boshladи. Orqaga qaytib ketishga yetarli vaqtি bor... ammo kutilmaganda aylanma yo‘l o‘tgan daraxtzorning narisidan yordamchi bug‘tortarning xo‘roz qichqirishiga o‘xshagan ogohlantiruv chinqirig‘i eshitildi.

Shunda Polya, o‘z xotira daryosining yengib bo‘lmas kuchiga ito-at etganicha, yo‘lga terilgan toshlar orasidan o‘tlari ko‘zni qamash-tiradigan darajada yam-yashil o‘sib turgan toshko‘chani kesib o‘tib, ikkinchi qavatga ko‘tarildi va yanglishmasdan, har qanday mantiq-qa zid o‘laroq, Vixrovning ilmiy unvonlari yozilgan mis taxtachadan xoli, hatto o‘n sakkiz yil muqaddam, u, ya’ni Polya tug‘ilgan payt-da uyni isitish uchun sirtiga qoplangan kigizi uvada bo‘lib ketgan ko‘rimsizgina eshik yonidagi qo‘ng‘iroq tugmasini bosdi.

U qo'shimcha ravishda mushti bilan ham taqillatishiga to'g'ri keldi. Eshikning lo'kidoni g'iylab surildi va shiftiga xiragina chiroq ilib qo'yilgan nimqorong'i dahlizda Polya gavdasi kichikroq, yuziga qarilik nuqsi urmagan, to'g'rirog'i – umuman yoshini bilib bo'lmaydigan, boshi g'ayritabiiy ravishda yelkalariga yaqin, to'q rangli ro'molini yaqin-yaqinlargacha yengalik barcha keksa dehqon ayollar o'rab yurgan usulda eskicha e'tiqodlilar mazhabi udumiga ko'ra yelkasidan yoyib tashlab olgan ayolni – professoring xizmatchisini ko'rdi. Bu chalkash taassurotning xato ekani ham tez orada aniqlashtirilib, Polyaning kutganidan boshqa – qarama-qarshi tomonaga burilib ketdi.

– Voy, qanaqayam xushro'ygina qiz ekansan-e... Ivan Matveichga sinov topshirgani kelgandirsan hoynahoy? – xushmuomalalik bilan taxmin qildi bukrigina, qo'lidagi sovun ko'piklarini sidirib olganicha. – Bizning noma'qul professorimiz, o'zining talabalari bilan uchinchilarda Tula o'rmonlariga jo'nadi-vordi... qilib yurgan ishini qaragin-da endi! – u notanish qizga mehr bilan boqib, uning ko'rkaligigami, yoki uyalib turishlarigami, yashirinchha zavqlanib qaradi. – Seni negadir eslolmadim... yangilardansan, shekilli?

Bu vaziyat Polya uchun hatto yaxshiyam bo'ldi: keldi, qiziqishini qondiradi va o'zini tanitmasdan jo'nab qoladi; dastlab o'ylab qo'ygan rejasidan asar ham qolmadi.

– Men aynan yangilardanman... – bosh silkib qo'ydi Polya va zo'rma-zo'raki jilmaygan bo'ldi.

– Shuni aytaman-da, qarab tursam, qo'llaringam qaltirayapti. Sen unaqangi titrayvermagin, Ivan Matveich seni yeb qo'ymaydi. Anavi, talabalar unga ko'ngillarini bervorishadi-ya! Bir xilgilari, hech qanaqa ishlari bo'lmasayam, shanba kunlarida xuddi klubga kelganday xonasiga joylashvolishadi. – Bu ma'lumotlarni u soxtakorliksiz, shunday bir xalqona samimiyat bilan aytardiki, uning har bir so'ziga ishonmaslik mumkin emasdi, vijdonsizlik bo'lardi. – Qalpoqchangni yechib qo'y, narsalaringni bir chekkaga joyla, biznikida o'g'ri yo'q... Qorong'i tushmasdan qaytishni va'dalagan edi. Ko'rib turibman-ku, imtihonni keyingi safarga qoldirishdan yomon narsa yo'q. Yuraqol, qizgina, men seni yaxshi bitta joyga o'tqazib qo'yaman, ko'nikib o'tiraturasan, – qo'shib qo'ydi u eshikni tambalay turib.

U Polyanı oldinga o'tkazib yubordi va oshxonaga qarashiga ijozat bermadi: «Birovlarning yuvayotgan kir-chirini ko'rishing shart emas!» – to'g'ri professorning ish xonasiga olib bordi-da, rosa xizmat ko'rsatgan oromkursiga o'tqazib qo'ydi; oshxonaga ham shundoq eshikma-eshik o'tilarkan, shu bois Polyaga har daqiqada goh tog'oraning suvchanoqqa urilishi, goh to'kib tashlanayotgan suvning shalplashi eshitilib turibdi. Polya agar boshini o'girsa, bas – o'midan turmasdan ham Vixrov xonadonining ikkita xonasining joylashuvi va ulardagi hamma narsani bemalol kuzata olardi.

Polya uchun eng qiyini, oyoq bosilganda g'ichirlab turgan, oxra bilan bo'yalgan mana shu taxta to'shamanining har qarichida uning o'zi go'dakligida tizzachalarida emaklab yurgani to'g'risidagi fikr-ga ko'nikish edi. Shubhasizki, o'sha o'tkan yillarda yosh Vixrovlar oilasining bolalar xonasiga faqat narigi – anchagina kichik, lekin hammasidan ko'ra zavqli va yorug' xonada bo'lgan. Qarama-qarshi burchakda nima uchundir, xuddi to'plab qo'yilgan chiqitlar kabi turli xil bo'laklab tashlangan mexanizmlar uyilib yotibdi, ular orasida taglikka o'rnatilgan soatlari tokarlik dastgohi ham ko'rini turibdi. Bundan tashqari, devorga, chang tegmasligi uchun ustiga latta yopib qo'yilgan erkaklar kostumi ilingan, temir kat ustiga paxmoq choyshab tashlangan, katning tagida esa qo'njidan buklangan, saranjomgina etiklar ko'zga tashlanadi, – har holda otasiniki bo'lmasa kerak, – chunki polya Vixrovning o'rin-joyi ish xonasining o'zida, kitob javonining ortida ekanini ko'rib ulgurgan edi. Demak, bu yerda kimdir uchuinchchi odam ham paydo bo'lgan, va shu topda Polyada otasining hayotidagi uning o'rmini egallagan odamni ko'z qiri bilan bo'lsa ham bir ko'rib qo'yish istagi paydo bo'ldi.

– Yolg'iz o'zing zerikib qolmadingmi, qizgina? – ora-sira oshxonadan turib so'rab qo'yadi bukrigina.

– Hechqisi yo'q, jaa ko'ngildagiday, – uning o'ziga o'xshash lahhada javob berishga urinadi Polya.

Polyaning hamma o'ylab qo'yganlari chippakka chiqdi: xonadondagi sharoit avvaldan mo'ljallab qo'yganlariga shu darajada zid kelardiki, go'yo bunisi qashshoqlar makoniday, holbuki, bu uyda tur-mush va ish uchun kerakli hamma narsa bor, ammo birinchisi ikkinchisiga so'zsiz itoatda ekani yaqqol ko'rini turibdi. Bu yerda baxmal pardalar yo'q, umuman olganda egalari o'rmonchilik odatiga ko'ra

quyosh bilan birga yotib-turadigan xonadon uchun buning zarurati ham yo‘q edi aslida; hech qayoqda oltin buyumlar ko‘rinmayotgani u yoqda tursin, hattoki, oltin suvi yuritilgan, dushmanlarcha tasavvur ta’sirida manzarali suratlar bilan badiiy bezaklangan qadimiy foliant’lar ham, yuksakliklardan, ko‘zguli oynalar ortidan foniylashmaydi. Faqat haqiqiy olimgagina aynan mana bulardek tubi titilib ketgan, qaydlarga to‘la qistirmalar varaq oralariga tasma-tasma qilib qo‘yib tashlangan mehnatchi kitoblar kerak: ularga qaydlarni yozib-chizish, o‘chirib tashlash mumkin, safarga ketayotib, yo‘lxaltaga tashlab qo‘ysa bo‘ladi, hattoki to‘siqli jangda qo‘llashga ham mos, boz ustiga taxtalari egilib ketgan javonlarga sig‘maganlari tokchalarga uyib tashlangan, zinch qilib, hatto o‘q o‘tmaydigan darajada qalin qilib taxlangan bog‘lamlar shiftga borib taqalgan. Har doimgiday soxta xulosalarning nayrangboz mantiqi hayotning ochiq-ravshan mantiqi oldida istar-istamas chekinishga majbur bo‘ldi... va ana shu lahzalarda Polya o‘zi uchun shuni kashf etdiki, garchi buni so‘zlar vositasida ifodalab bera olmasa-da: odamlar turli mayl-istiklal tufayli haqiqatning go‘zalligini orttirib ko‘rsatishga va yovuzlikning majruhligini kuchaytirib tasvirlashga har qancha urinsalar ham, ammo voqe’ hayot har qanday uydirmalardan ko‘ra donoroq va ishonchliroqdir.

Polya o‘tirgan sarishta, ostin-ustin ikki qator oynali xonadagi uyro‘zg‘or buyumlariga qarab turib ham uning sohibining fe'l-atvori haqida muayyan xulosalarga kelish mumkin edi. Chamasi, u o‘ziga nisbatan ayovsiz odam bo‘lib, o‘z turmushini tashkillashtirishda uquvi yo‘qroq edi. O‘z vaqtiga juda xasis, o‘z ilmida haqiqatga yetishish uchun zarur bo‘ladigan kitoblardan boshqa adabiyotni tan olmaydi, ammo eng yaqin turgan javondagi kitoblarining nomiga qaraganda, ilmini oshirish uchun bilimning eng olis sohalariga safar qilishdan ham qaytmaydi. O‘zi ham Rossiya bo‘ylab juda ko‘p kezgan, Boshkentda hech qanaqa pulga topilmaydigan yigirmaga yaqin yog‘och buyumlar buni isbotlab turibdi, – shimol ip yigiruv charxining o‘ymakor suyanchig‘i, yog‘ochga o‘yilgan kichik doston, qayin po‘stlog‘idan ishlangan vologodcha qopqoqli qutichaga simob sulfidi bilan chi-

¹ Foliant – ulkan, hashamador, badiiy bezaklangan kitob.

zilgan chavandoz, qadimiy asal rangidagi bir bog'lam guldor tambov qoshiqlari, oq qayin va yong'oq daraxti yelimidan tayyorlangan o'yma kosalar, kimdir ko'r-ko'rona haqini to'lagan o'ymakor quti, sohibjamol qishloq qizi uchun tayyorlangan, yaltiroq tasmali bir juft chiptakovush va rus o'rmonida dehqon er dahosi o'zlashtirgan boshqa jo'ngina xazinalar. Hech narsa Vixrovning qandaydir shaxsiy injiqliklari yo'q ekanini ko'rsatib turardi... faqatgina... Shu payt Polya yyyengilgina ko'tarilib, qo'lyozmalar taxlami ortidagi haqiqiy oltinday tovlanib turgan, o'g'rining e'tiborini o'ziga tortadigan yagona buyumga ko'zi tushdi. Bu qimmatbaho, Vixrovning sevimli mavjudoti uchun birinj o'ymakorligida ishlangan kichik romcha edi va Polyani Vixrovning hozirdagi qiziqishlari haqida osongina bilib olish imkoniyati vasvasaga solib qo'ydi.

— Bunday qarab tursam, notanishsan... sal kattaroqlarning hammasini taniyman-ku, — yana va yana boshlaydi bukrigina, tog'orasini devorga taqillatib urib. — Sen hayotdan cho'chimagine... qismatingga nima yozilgan bo'lsa, sen bilan undan boshqasi yuz bermaydi. Imtihonlaringni ham topshirib olasan, ishgayam kirib ketasan, bolalaringni tug'asan, bir kun kelib, menga o'xshab o'choqda dimlangan olmaday bujmayasan va o'tmishingdagi g'am-tashvishlaringni ustidan kulib yurasan. Sen o'zi o'rmonchilikni topshirishga keldingmi yo o'rmon baholashdanmi?

— Yo'q, o'rmon baholashdan topshirishga, Polya o'ziga notanish so'zni beixtiyor takrorladi.

Vaqtni qisqartirish uchun, bukrigina yana nimalarnidir so'rabsurishtirdi, Polya esa mizdag'i oltin shu'ladan ko'z uzmag'an holda tavakkaliga javob qilaverdi. Uning har qanday shitir-shitiri oshxonada shubha uyg'otishi mumkin edi... demak, daryo doimo xasdan kuchli ekan. Polya shovqinsiz yurib, otasining mizi yoniga yetib oldi. Romcha og'irgina ekan, quyma birinjdan... va oynaning tagida, ko'ngilli suratkash tomonidan mohirona suratga olingan, yosh, tabiatan maf-tunkor ayolning ajoyib fotosurati turardi. Yozgi jaladan keyin u suvga bo'kkan, tanasiga chippa yopishgan ko'ylakda o'rmon hukmdoring taxtiga o'xshagan katta to'nka ustida o'tirarkan, boshini yoniga egib, tiyiqsiz kuladi, do'stlari bilan, zavqli sarguzashtlardan keyin suratga juda yosh, tashvishsiz paytida tushgan, shekilli. Bu hujjatda ortiqcha bo'lgan va surati Vixrov tomonidan qiyamasiga kesib tash-

langan kimdir, gullab turgan bodrezak butog‘ini unga uzatyapti va olachipor oftob nurlari yomg‘ir tomchilari aralash ayolning dag‘al boshmoqlari yechilib ketgan yalang‘och oyoqlariga to‘kilmoxda, u qo‘llari bilan oyog‘iga tayanib o‘tirgani bois, o‘mrov suyaklari oldinga turtib chiqib qolgan. Polya eng avval joyni tanidi – bunaqangi haybatli o‘simliklar faqat Yenga taraflarda bo‘ladi; keyin sovuqqina zavq bilan u onasini tanidi. Hujjat Yelena Ivanovnaning turushga chiqishidan avvalgi davrlarga taalluqli edi, o‘sha paytlarda uni oddiygina Lenochka deb atar edilar. Polya onasini bu qadar yengiltak, beg‘am-beparvo quvonchda ko‘rmagani uchun, fotosuratni oyna tagidan sug‘urib olib, o‘zi bilan olib ketish istagi uning vujudini yengib bo‘lmas darajada egallab oldi.

Shunday qilgan bo‘lardiyam, ammo to‘shama taxtaning g‘ijirlashi uni ortiga o‘girilishga majbur etdi. Ostonada, ko‘zлari qisilib va kafti bilan qishloqichasiga eshik kesakisiga tayangan bukrigina ayol unga jilmayib qarab turardi.

– Polyaginam... nima uchun menga darrov aytaqolmading, Pollyajon? – to‘satdan ustiga kelib qolgani qizni cho‘chitmasligi uchun muloyimlik bilan ta’na qildi ayol. – Meni tanimabsan-da, a? Men axir Taiskaman-ku, Ivan Matveichning opasiman... Taiskaman men, eslolmayapsanmi? – ismini yanayam aniqroq talaffuz qildi, nomini aytgandagi tovush ohangi Polyaning birinchi enagasiga bolalarcha minnatdorlik tuyg‘usini uyg‘otishiga umid qilgandi, ammo Polyaning chehrasida sarosima va uyalishdan boshqa hech narsa aks etmadi, amma esa ho‘l qo‘llari bilan jiyanini bag‘riga bosishga jur‘at etolmadi. – Menga bunday tuzukroq qarasang-chi, qizgina!.. U yoqda nimani qidirib topding?

– Bu yerda men o‘z oyimni topdim... – javob berdi Polya va Taiskaning yoshini aniqlashda yanglishganini tushundi: uning yuzi rostdan ham olmaga o‘xshar edi, ammo xomligicha uzib olingan, shamolda so‘ligan... lekin uning nigohida qizlikdan saqlanib qolgan nimadir uchqunlanib turardi.

– Innaykin, meni qayoqdanam eslab qolarding, qancha yillar o‘tib ketdi-ya! – so‘zida davom etdi va uning chuqur botgan ko‘zлari atrofida ajinlar taram-taram bo‘lib yig‘ildi. – Sen bilan o‘shanda hatto xayrasha olmagandik ham. Ivanni xuddi o‘sha paytda xizmat safariga yuborishgandi... Lenochka o‘shanda seni o‘zi bilan olib

ketdi. O'shanaqa qilib xonadonimizda hamma narsa achigan sutday ividi-qoldi... – Birdaniga u sarosimalanib qoldi, keyin qo'l siltab, mehmonini choy bilan siylash uchun dasturxonni yig'ishtira boshladи.

Oddiy rus ayollari odatiga ko'ra Taiska biroz ko'z yosh qilib olishni va qaytmas bo'lib ketgan o'sha yillarning kechmishtalarini bir-bir eslab, yarim tungacha jiyani bag'riga bosib o'tirishni istardi... Ammo otasi to'g'risidagi kashfiyotlaridan keyin Polya hech qayoqqa qaramasdan qochib ketadigan ahvolda edi. U otasining mizi ustidagi topilmaning qanday ma'no anglatishi haqida o'ylamaslikka harakat qilardi: shusiz ham bu yerda o'tkazayotgan ortiqcha har bir daqiqasi onasiga nisbatan xiyonat bo'lib tuyulmoqda edi.

– Men to'qman, va menga hech narsa kerakmas. Shunchaki yo'l-yo'lakay kirib o'tgandim, militsiyada yashash joyimga ro'yxatga o'tish uchun ketayotgandim... Polya o'ylab ham o'tirmasdan, kallasi-ga kelgan gapni ta'kidlayverdi.

– Sen bizni xonavayron qilmaysan, Polyajon, biz badavlat yashaymiz. Otangni uyiga ro'yxatga o'tmasdan ham kelaverishing mumkin... Ana, kimdir zinadan ko'tarilyapti, Ivan emasmiikan: mana, yonma yon tushlik qilasizlar. Qalpog'ingni ber dedim, uni mixga ilib qo'yaman! – xuddi ko'p yillar avvalgiday, itoatsiz qizga yer depsinib qo'ydi, ammo Polya hazilga javob qilmadi, ammasi esa rangi o'chganicha ortiga tislandi. – Qayerga joylashding, qizginam... Begona odamlarning uyidan qo'nim topdingmi?

– Yo'q, o'zimning eski dugonamnikida to'xtaganman... – va uning ko'zidan himoyalanganday, boshini pastga egdi.

Shunda Taiska uning qo'lidan romchani oldi va avaylab o'z joyiga qo'ydi.

– Dadangni uyida yashasang ham bo'lardi... Qandog'am katta koshona, otlar uyurini haydasayam bo'ladi, istiqomatchilar esa uch kishi, xolos! Ertalablari, xuddi o'rmondagiday ovoz berib chaqirishamiz...

– Mening hamma narsam bor, menga hech narsa kerakmas, – qaysarlik bilan takrorlaydi Polya. – O'shanichun mendan jahlingiz chiqmasin, Taisiya... Taisa...

U gapidan adashib, jim bo'ldi.

– Meni Matveyevna deyishadi, – sovuqqina qilib izoh berdi bukrigina. – Otangni ismi esa, agar bilmasang, Ivan Matveich, men uning

opasi bo'laman. Rost gapni aytding, nimayam yaxshi narsamiz bor. Ancha uzoqda yashaymiz... Agar teatrga borsang, tramvayda naq bir yarim soat yurish kerak. Nimayam derdim, qariyalar hozir judayam zerikarli bo'lib ketishdi, ularni ajal ham olmay qo'ydi...

U kampirlarcha, lablarini kaftining tashqi tarafi bilan quruq qilib artdi, xuddi qafasdag'i qushni erkinlikka chiqarib yuborishga chog'langanday, eshik oldidan chetroqqa o'tdi... ammo ko'zlarini yuqori ko'tarib yoqimtoy Polyaga qaradi va o'zining yoshligidan, uzoq o'tgan yillaridan shundoqqina tushunarli bo'lgan uning dag'al noshukrligini kechirib yubordi.

– Modomiki dadangni yeguligidan tanovul qilishni xohlamas ekansan, qizgina, yoningda shundoq borimcha o'tirishimga ijozat bersang degandim.

Taiskaning samimiylar va yuvoshgina sadoqatini yerga urmaslik uchun Polya qari ammasiga naq bir soat vaqtini in'om etish zarurati ga ko'nib qo'yaqoldi, boz ustiga ammasi uning uchun vatanidan bir mujda edi. Bukriginaning o'zi ham Yengadan edi, Loshkaryovdan sal yuqoriroqda tug'ilgan, Krasnovershyeda, odamlar orasida Shixanov Yamda ukasining Pashutin o'rmonchiligidagi uyida istiqomat qilgan, binobarin, Polya o'tgan vaqtlar davomida tuman bo'yicha yuz bergen, o'ziga ma'lum bo'lgan o'zgarishlarni bayon etib berishiga to'g'ri keldi. U institutning o'quv daraxtzoriga qaragan derazaning oldiga itoatkorona o'tirdi; yosh qarag'aylar saf-saf bo'lib terilib turishibdi, ular Yengadagi erkin hamjinslariga aslo o'xshashmaydi, go'yoki beparvoliklari uchun ishdan haydalib ketmaslik uchun, qo'rquvdan yuvosh tortib qolganga o'xshaydilar.

Polya qanchalik shoshmasin, suhbat baribir cho'zilib ketdi. Har bir mayda-chuydaga Taiska o'zining shu boradagi xotiralari bilan javob qilib turdi va o'zini tuta olmasdan, qayg'uli, ammo ortga qaytarib bo'lmaydigan holat bo'yicha nihoyat qattiq diydasidan uch tomchi ko'z yoshlari ni to'kdi. Uni tinglash qiziqarli va biroz dahshatlari ham edi, chunki har lahzada Taiska o'zining soddadilligi sabab qandaydir asosiy hodisadan so'z ochib qolishi, Vixrovlarning oilaviy sirini aytib qo'yishi mumkin ediki, bunga Polyaning butun borlig'i rashk bilan va sof bir hissiyot bilan qarshilik ko'rsatardi.

Nomatlub suhbat mavzusini chetga surib tashlash uchun, Polya ilgari, o'shanda, deraza oldida bu qarag'aylarning yosh nihollari

bo‘lmaqanligi to‘g‘risidagi taxminini ovoz chiqarib aytdi. Ma’lum bo‘ldiki, bu daraxtzor institut tashkil etilayotganidayoq barpo qilingan ekan, ammo haqiqatan ham fuqarolar urushi va vayronliklar davrida o‘ng qanotdagи o‘tin uchun yo‘q qilingan to‘rt gektar maydonga Ivan Matveich Moskvaga o‘tkazilganidan keyin o‘z qo‘li bilan ko‘chatlarni ekib chiqqan ekan.

– Ular o‘sha paytlarda ham shu joyda edi... sening bo‘ying bilan barobar edi, Polyajon. Seni u yoqqa sayrga olib chiqqanimda, sen ular bilan qo‘l berishib salomlasharding, tipratikanchalarim deb atar eding. Buni qayoqdanam eslarding: shuncha yillar o‘tdi-yu!..

Yo‘q, Polya ularni hali eslaydi, – lekin ko‘zları bilan emas, chamasi tikanlar sanchilaverib ilma-teshik bo‘lib ketgan barmoqlarining yuzasi bilan eslaydi. Taiska Ivan Matveich shu kaftdekkina qarag‘ay-zorga hayotining qancha qismini sarflaganini ta’riflashga tushib ketganida, Polya shu yerga kelganidan beri o‘zini qattiq qiyayotgan narsani ammasidan ochiqchasiga qat’iy so‘radi: agar otasi rostdanam shunaqa bo‘lsa, nega uni hadeb so‘kaverishadi?

– Qanaqasiga, qanaqasiga uni koyishmasin, axir?! – bukriginani achchiq kulgi tutdi. – O‘rmonni asrayotgani uchun urishib yotishibdi-da.

– Uni kimdan asrayapti... xalqdanmi? – birdan sergaklanib qoldi Polya va uning ovozida xuddi simtor jaranglaganday bo‘ldi, ya’ni otalarini hech kim hech qachon koyimaydigan baxtiyorlar oldidagi doimiy uyalish hissining tabiiy aks sadosi.

– Xalqdan emas, tabardan, Polyaginam. Tabarning ko‘zi yo‘q, – shu zahoti javob qildi Taiska. – U yog‘och dastaga kiydirilgan temir.

– Qiziq, uni qay tarzda muhofaza qilayotgan ekan, o‘rmonni... Qo‘lida miltiq bilan o‘rmon atrofida qo‘riqchilik qiladimi?

– Uni to‘liq aylanib bo‘larkanmi?! Mana shuning uchun ham bizda o‘rmonlar tobora kamayib borayotgani to‘g‘risida kitoblar yozyapti. O‘zing aytding-ku, Yalangligimizni kesa boshlashdi deb... Otang nima bo‘lganida ham yashirin ravishda yuragi achishib turardi, bunday olib qaraganda uning hamma kitoblari tekshiruvdan o‘tgan va boshliqlar tomonidan ijozat etilgan...

– Shoshmang-chi... – uning gapini bo‘ldi Polya, o‘ziga uza-tilgan qo‘ldan vijdon amri bilan chetlashib. – Men faqat bir narsani so‘ramoqchiman, axir u emas, xalq-ku o‘rmonning egasi? Yana

bir narsa: mamlakatda qanday bunyodkorliklar borayotganini Ivan Matveich biladimi?.. va uni nega yo'qotishyapti, o'rmonni aytamanda.

Taiska qo'liga tushib qolgan qandaydir latta bo'lagini ingicha, dehqonlarnikiga o'xshamagan barmoqlari bilan iplarga ajratib o'tirardi.

– Sen to'g'ri tushun, Polyajon... u axir o'rmonchi-ku, dadangni aytaman-da. Modomiki, u o'rmon nazoratiga tayinlangan ekan, demak uning ishi shunday. Deylik, sen betob bo'lib qolding... masalan, Lenochka uchun seni to'shakda ko'rish oson emas-ku. Ana o'shanda biror shifokor onangga yoqish uchun seni sog'lom deb shartta yolg'on gapisra. Shifokorga baribir, chunki sen unga begonasan!.. Holbuki bunaqangi alдов uchun unaqalarni yoqasidan olib uloqtirish kerak, hatto qirqta panjaralni derazalari bor davlat uyiga joylab qo'ysang ham zarar qilmaydi... shundaymasmi, axir? Mana, u ham o'zining xalqini aldashni xohlamaydi...

U boshqacha tushuntirishni bilmasdi, Polyaning savoliga Vixroving o'z javobi ham nihoyatda ko'p vaqt ni oltinbo'yda bo'ldi, afsuski bunaqa bemalol fursat Polyada ham, qizning holatidan kelib chiqqanda uning mamlakatida ham yo'q edi. Taiska xuddi aybdorday boshini egganicha, sarosimada iljayadi. U mana bu g'azabnok, birdaniga murosasizga aylangan mavjudot timsolidagi Polyaginasini tanimay qoldi, ammo boshqa tomondan Vixrovga atalgan qop-qora ayblovlar Polyaning o'ziga ham bemavrid aytilganday tuyula boshladи.

– Albatta, men bunga dabdurustdan baho berishim qiyin, – gapini to'g'riliadi u, xijolatdan yuzlari dog'-dog' bo'lib qizarib. – Men uni mutlaqo tasavvur qilolmayman.

– Bo'lmasa men bilan yur, senga o'z otangni ko'rsataman, – dedi asta bukrigina.

U Polyan qo'lidan tutib, devor tomonga boshladи; u yerda fanderan ishlangan qo'l bola romchada kattagina, taxminan oltmisskishilik, ancha ilgari, yosh o'rmonshunoslarning navbatdagi bitiruvi munosabati bilan tasvirga olingan guruhli fotosurat ilingan edi. Tantana ishtirokchilari misoli bayramona kantatani ijro etuvchi xorning sahnaga o'rinnanishi kabi pog'onador qilib joylashtirilgan edi: faqat shu farq bilanki, xo'ppozroq va jahldorroq baslar oldingi qatordag'i kursilarda keng oraliqda erkin o'tirishibdi, hatto bittasi, jirkanch

mo'ylovli hokimsifat nusxa – oromkursida yalpayib olgan; boshqalar esa yuqorida joylashishgan, eng balandda turganlar zichlashib, sqli-lishib turishibdi, bir yelkalarini oldinga chiqarib olishgan. Aspirantu-raning pog'onaga sig'magan qismi va xizmatchi xodimlar erkin bir qiyofada oldingi qamrovda chala yotgan holda joylashganlar, Vixrov esa, bu o'n besh yillar oldingi davr bo'lsa-da, o'z holicha bemalol o'tiribdi, to'g'ri – u o'ng tarafdan oxirgi joyda va obyektivning qamroviga tushish uchun birovning tizzasiga tayanib olgan. Suratda har bir kishining hissasiga bir kvadrat santimetrik tasvir to'g'ri keladi, lekin Polya otasini juda oson tanib oldi; unga hatto shunday tuyuldiki (to'g'ri bunga ishonchi judayamyam komil emas), go'yo bir safar, yaqin vaqtlar ichida u bilan nafaqat uchrashgan, hatto suhbatlashgan ham edi-yu, ammo tafsilotlarning o'zini hecham eslay olmadi.

Bu – bo'yi unchayam baland bo'limgan, qotmadan kelgan, so-qoli o'rmonchilik idorasining eski an'analariga muvofiq o'stirilgan, paxmaygan baroq qoshlari go'yoki to'satdan xayoliga kelib qolgan qandaydir fikrning portlashidan yuqoriga keskin ko'tarilib qolgan-day; sochining farqlari qiyalatib ochilgan, peshanasiga tushib turgan bir tutam sochi unga yarim ziyoli ixtisoslik ustasining tashqi ko'rinishini berib turibdi. U hech nimasi bilan o'shang – Polyaning nafratiga uchragan, to'qligidan tanasini yog' bosib ketgan Vixrovga aslo o'xshamasdi.

– Hozir mening Ivasham ancha cho'kib qolgan, kiyimdanam chi-qib qoldi... podsholikdan tushib qoldi. Yillar u yoqqa qarab ketyapti, jonginam, bu yoqqa emas!

Polya indamadi.

– Ayting-chi, u qachonlardir ko'zoynak taqqanmi... oltin ko'zoynak?

– Hech qachon. Bizning Vixrovlar hammalari oynaksiz ham o'tkir ko'zlardanmiz, nega buni so'rayapsan?

– Shunchaki, xotiralarimdan bittasi... Romni u o'zi yasaganmid? – nari boraturib so'radi Polya.

Taiska to'g'ri anglaganiday, uning savoli qiz qay darajada sarosimaga tushib qolganini ifodalab turardi. Yo'q, romni Ivan Matveichning o'g'li yasagan, Seryoja. Lenochka ketib qolganidan keyin ko'p o'tmay, u oilalarida paydo bo'lgandi. Bukriginaning ay-

tishicha, u juda ajoyib yigitcha, Polyaning yildoshi; u hozir burchak-dagi, Vixrovlarning sobiq bolalar xonasini egallagan.

Tashqi suvlar oqimi kamayib, suv toshgan joylar o'mida tanish yarimquruq orollar o'rinnegallaydigan daryo qayirlarida bahor kelishi bilan xuddi shunday bo'ladi.

Asta-sekin, qandaydir tutqich bermas belgilar bo'yicha, Polya otasining xonadonini taniy boshladi. Javonlardan birini eng yuqorisidan eng pastigacha egallagan har xil jinsli yog'och bo'laklarining bo'ylama va ko'ndalang kesmalanib silliqlangan namunalarini ham Polya kitob deb o'ylagan edi. Mohiyatan ular ham yerning tuproqlari va iqlimi haqidagi kitob deyish mumkin, faqat nihoyatda sig'imli bo'lib, uni faqat olimlar o'qiy oladilar.

Xuddi bir yarim soat avvalgiday, bug'tortarning chinqirig'i va endi quruq yog'och hidi Polyani ortga, bolaligiga qaytardi. O'tkir-lashgan ko'z nazari bilan u kanop matoga tushirilgan, sovet o'rmonlarining yergacha osilib turgan xaritasiga tikilib turarkan, uning ortida xuddi rangsiz tushdagidek boshqa – qorong'iroq va kichik-roq xonani ko'rди... va u yerda, maysadan ham ko'ra mayinroq ni-maningdir ustida u yog'och g'ishtchalandan minoralar quradi.

– Bu yerda eshik bo'lishi kerak, xaritaning ortida... u yoqqa o'tsam maylimi? – birdaniga tildan qolganday qiynalib so'radi Polya.

– To'g'ri, topding, o'zimning chaqmoqko'zim, – quvonib ketdi Taiska. – Sen bor paytingda bu yerda ularning yotoqxonasi joylashgan edi, ota-onangning... hozir u bog'bon Didyakin bilan öilasiga berib qo'yilgan. Hechqisi yo'q, to's-to'polonsiz odam, aroq ichmaydi – Ivanga o'xshab, royish. – U qo'llarini keng yoyib ro'molini to'g'riladi va xo'rsindi. – Bunday o'ylabroq qaralsa... ular ming yil birga yashashlariyam mumkin edi, payti kelib ko'zları yumilguniga qadar, qara endi, hammasi boshqacha bo'lib ketdi!

Hozir bukrigina amma xotirasining oxirgi qatlaminiyam ko'taradi va ota-onaning taqiqlangan chirishning qo'lansasi anqib turgan sirini ko'rsatadi deb o'ylash mumkin edi. Polyaning bu gaplardan ko'ngli behuzur bo'lib, dahshatga tushdi, u shlapasiga qo'l cho'zdi. Taiska uni otasi kelgunicha o'tirishga, qonuniy voris uchun o'zi tomonidan g'amxo'rlik bilan asrab qo'yilgan Lenochkaning unutib qoldirilgan buyumlarini ko'rishga ko'ndirish uchun behuda urinardi. Polya zinapoyalarni oralatib qadam qo'yanicha pastga tushib borardi; Taiska

unutib qoldirilgan tugunlarni berib yuborish uchun nafasi tiqilganicha jiyaniga ko'chada yetib oldi.

— Hech bo'lmasa bir martagina bizlardan xabar olib qo'y, qizgina, — o'tinib shivirladi xayrashayotib. — Har holda uning uchun bayram bo'ladi, qariyang uchun!

— Albatta, biroz joylashib olay, keyin yugurib kelaman... — boshini irg'adi Polya bu joyga hech qachon qaytib kelmaslikka qat'iy qaror qilgan ko'yi.

4

Polya hissiyotlari va taxminlarining shafqatsiz chalkashligini onidan chiqarib yuborish maqsadida uyiga piyoda yo'l oldi; yarim yo'lida uni holdan toygan holatida metro olib ketdi. Keyin u onasiga hali yozmagan maktubida o'zi xayolan Quvnoqlar ko'chasi deb atagan yo'lidan ketdi, ammo endi unga bu yerda faqat keksa, tashvishga botgan, ko'zлari o'ziga qadalgan odamlar uchramoqda edi. Polyaning shunchalik sillasi qurigan ekanki, hov o'sha nayrangbozni tadqiqdan o'tkazishga istagi ham, kuchi ham qolmadni.

Varyaga o'zining bolaligiga qilgan sayohati haqida biror so'z ham aytmadni, — shunchaki u bugun yo'l qo'yish mumkin bo'lgan va ertaga tanbehga uchraydigan oxirgi zumrashaliklarni sodir etgisi kelib qoldi. Tushlikdan keyin Polyaning xaridlarini muhokama etishdi va Varya yarim kungina nazoratsiz qoldirilgan singlisining g'alatiliklariga bosh chayqab qo'ysi.

— Senga qarab turib yig'lagim kelyapti, Polyajon! Yozning o'rtasida piyma sotib olishingga balo bormidi... xo'p, balki qishda ularni sotuvda topish qiyin bo'lar. Seni mana bu bolalar tovoqlari uchun ham kechirishim mumkin, — ular... juda bejirim. Ammo shuncha sovunning senga nima keragi bor edi? Va keyin... eng qimmatini sotib oladigan millioner xonimcha bo'lib qoldingmi?

— Menga-chi, bilasanmi, uning rangi yoqdi! — maftunkor jilmayib qo'ysi Polya. Qara, qanday g'aroyib rang-baranglik hosil bo'lyapti...

— Tushunishniyam xohlamayman. Marvaridgul tomchilar... mazang qochib qolganmi?

— Agar bilsang... nomi shunaqangi go'zal ekanki!

– Aqlingni yig‘ib olishing kerak, Polya... Nima bo‘lganidayam, sen endi yarim talabasan, – mulohazaragarlik bilan dakki bera boshladi Varya. – O‘zing o‘ylab ko‘r, bunaqa yengiltak mavjudotga kim ham turar joy qurilishini ishonib topshiradi! Endi hech bo‘lmasa tushuntirib ber, sotib olgan italyan tili lug‘atingni kelgusidagi faoliyatningda qay tarzda qo‘llamoqchisan?

– Topgan gapingni qara! – rosmana qizishib ketdi Polya. – Hayotning ko‘lami keng, oxir-oqibat o‘ziga nima kerak bo‘lishi mumkinligi hech kimga ma’lum emas. Mana o‘zing, yarim yildan keyin senga nima zarur bo‘lib qolishini oldindan bila olasanmi? Me’morlikni o‘rganish uchun meni to‘satdan Florensiyaga jo‘natib qolishsa-chi... til bilmasdan men u yerda nimayam qila olardim? O, albatta, bularning hammasini o‘zimizda, Loshkaryov shirkatida topish ham mumkin edi, ammo u yerda baribir moskvacha yangi sifat bo‘lmasdi, hammasidan xomteri yoki kerosin hidi anqib turgan bo‘lardi.

– Darvoqe, menga telegramma kelmadimi? – soxta beparvolik bilan so‘radi Polya.

Ular oltita ekan: bittasida Pavel Arefyichdan tashqari, barcha yaqin qo‘shnilar va oxirida ko‘ppak Baluy ham imzo chekishibdi, ikkitasi – dugonalaridan, to‘rtinchisi – o‘zidan; onasidan alohida telegramma keltirishibdi. Oltinchisi, eng bosiq norma, faqat uchta so‘zdan iborat, Qozondan kelibdi va burchagidagi raqamlarga qaraganda, ayni Polya telegraf tuynugi oldida turgan paytida jo‘natilgan ekan. Hammalari uni balog‘at yoshiga yetgani bilan tabriklashibdi va baxtiyorlikdan Polyaning ko‘zлari yumilib ketdi: o‘zing yolg‘iz bo‘limgan dunyoda yashash qanchalar ham yaxshi. Uydan jo‘nashi oldidan onasi uni Boshkent turmushining dahshatlari bilan qo‘rqitganlarini eslash judayam kulgili...

– Sho‘rlik Rodioshka arazlayapti, saxiyligi uchtagina so‘zga yetibdi!.. Har ehtimolga qarshi men unga telegramma jo‘natib, unutib qo‘ymasligi uchun tug‘ilgan kunim haqida eslatib qo‘ygan edim. Keyinchalik oqibat nima bo‘lishini bilmadim-u, ammo hozircha vaziyatni men boshqaryapman... – Va Polya dugonasini quchib, kat bilan miz o‘rtasidagi tor oraliq imkon bergenicha birgalikda gir aylana boshladi.

Bu betakror oqshom edi, uning har bir tafsiloti keyinchalik qimmatli bir tushning bo‘lagi sifatida namoyon bo‘ldi. Bunday bayram-

larni mehmonlarsiz nishonlash mumkin emasligi boisidan, Varya qo'shnisining eshigini taqillatdi va keyinroq u nabirasini uqlashga yotqizib, Polyani yangi uy bilan tabriklagani kirdi.

Uchovlashib, chiroqni yoqmasdan, ular murabbo bilan, gilos, shakarlangan yong'oqlar bilan choy ichishdi va yangi ko'ylaklarning bichimidan boshlab, G'arbiy Yevropadagi hodisalargacha hamma narsani muhokama qilib bo'lgach, Polyaning shafaq nurlaridan yolqinlanayotgan guldastasiga boqqanlaricha jum o'tirishdi.

Natalya Sergeyevna ancha kech chiqib ketdi; uyqu oldidan Varya o'z qo'shnisi haqidagi taqchil ma'lumotlarni past ovozda so'zlab berdi. Uy istiqomatchilarini xonaki suhbatlarida uni o'zaro chillik xonim deb atashar edi: boshining tepasiga o'rama qilib yig'ilgan oq sochlari bir qarashda tojga ham o'xshab ketardi. U va nabirasi misoli kattagini qartavor oilaning yagona omon qolgan oxirgi qartachalari edi. U farovon o'tgan avvalgi hayoti uchun evaz to'layotganini ko'pchilik anglab turardi, ammo hech kim shu paytgacha uning shikoyatlanganini eshitgan emas, hatto ikki oylar muqaddam o'rmonchilik ilmiy muassasalarining birida kotiba bo'lib ishlaydigan qizi ko'cha halokatida vafot etganida ham; ovozalarga qaraganda buvi bilan Zoya muassasa tegishli uydan chiqarib yuborilar ekan... Umuman olganda Varya bu ayol haqida hech narsa bilmasdiyam.

— Yoshligida u juda chiroqli bo'lgan, shekilli, — katda yotib ovoz chiqarib o'yldi Polya.

— Ha... — ovoz berdi Varya, ayvoncha eshigi ortidagi ko'k oraliqqa boqib. — Darvoqe... menga yozishlaricha, Kolya Bobrikin uylangan-mish. Shu rostmi?

— O'tgan kuzda edi! Nina Siplenkova unga ko'pdan beri yoqardi. Eng g'alatisi... ikki yillar muqaddam biz istaklar o'yinini o'ynadik, o'shanda u menga yozgan istagida zanglamaydigan po'latdan yuragi bo'lishini xohlashini bildirgandi, maqtanchoq! Amalda esa o'qishni tashladi, komsomoldan kechdi va Ninka bilan ma'badda nikohlendi. Tag'in jo'ralikka Rodionni tanlagani-chi... buning qanday surbetlik ekanini tushunyapsanmi?!

— Umuman, bilasanmi, odamlar har ko'yga tushishi mumkin, — ovoz berdi Varya va esnab qo'ysi, Polya buning soxta esnoq ekanini tushundi. — Ertaga ish ko'p, endi uxbaylik.

Ular yana ancha vaqt uxlamasdan, har kim o‘z xayoli bilan jim yotishdi. Ayvoncha ortida iliq tungi yomg‘ir shitirlaydi. Polyaning ko‘zi oldida xiralashgan yuzlar va kun hodisalari suzib o‘tmoida. Ro‘yolar paydo bo‘lishi bilanoq tarqalib ketaverardi, xotirasida-
gi hammasidan ko‘ra ko‘proq saqlanib turgani, vokzaldagi yigitcha bo‘ldi. O, qizning Boshkentga o‘sha safargi kelishi yana bir martagi-
na qaytarilsamidi, haligi irkit lo‘livachchaning so‘ralmagan homiy-
ligi uchun adabini berib qo‘ygan bo‘lardi! Polya xayolidagi yigit-
chani quvib yubordi va uning o‘rnida Rodion paydo bo‘ldi. Ikkovlari
yashirinchha chordoqqa chiqishdi va Rodion unga o‘zining Polya
jo‘nab ketganidan keyin yozgan yangi she’rlarini xuddi ashuladay qi-
lib o‘qib bera boshladи va ora-orada kimdir birov kelib qolmayoptimi-
kan deb qulqoq tutib qo‘yardi, chunki o‘zining nazmiyatga doxilligini
nafaqat riyoziyotchi uchun, balki har qanday fikrlovchi inson uchun
nomunosisib zaiflik deya hisoblardi.

... Shu tunda olmon uchoqlari uyqudagagi sovet shaharlariga birin-
chi bombalarни tashladilar.



IKKINCHI BOB

1

Polyaning ketishidan bir soatlar o'tib professor uyg'a qaytdi va opasi yarim tunga qadar qizining tashrifi haqida unga xabar qilishga botina olmadi. Taiska o'zining omadsiz turmushidagi maqsadini ukasiga g'amxo'rlik qilish va o'zi aytganiday, uning izzat nafsini tah-qirlovchi har qanday tashvishlardan himoyalash deb bilardi. Bir kuni u inisi Ivanning huzuriga o'n besh yillik ayriliqlaridan so'ng, U Pas-shutinda o'rmonchilik qilayotgan davrida Krasnovershyedagi vayron bo'lib ketgan kulbasini tezlash uchun yog'och so'ragani bordi, lekin bo'ydoqning ko'ylagiga tugmalarini qadab berish bilan yarim tungacha andarmon bo'ldi va oxir-oqibat bir umrga shu yerda yashab qoldi. Umuman olganda, ular turli onalardan tug'ilgan o'gay qardoshlar edilar va Taiskani keyinchalik inisiga ergashib Boshkentga sudralishga majbur qilgan holat qondoshlik ongi yoki uysizlik balosi emas edi.

Fe'lining itoatkorona yengilligi tufayli, tirishqoqligi, atrofda ko'ngil qo'ygan narsalari yo'qligi boisidan u hamma yerda bajon-u dil qabul qilingan bo'lardi, go'dak paytida sodir bo'lgan jismoniy baxtsizligiga esa allaqachon o'rganib ketgan, xuddi boshqalar go'zallikka va davlatmandlikka ko'nikkanlari kabi. Bundan tashqari, u Vixro-ning o'rmonlarni asrash borasidagi g'oyalarini judayam tushuna-vermasdi, shunchaki avvalboshda unga achindi – oqsoq va yolg'iz; keyin esa uning muqaddasligiga ishondi, chunki inisi boshqalarga o'xshab tezkor shon-shuhrat ortidan ham, shaxsiy g'araz etagidan ham quvmadi. Ular inoq yashab ketishdi, ayniqsa Lenochka qochib ketganidan so'ng, bir-birlarini yarim so'zdan tushuna boshlashdi va buning vajhidan uyda doimiy jimlik hukmron bo'lib qoldiki, bu holat har qanday ilmiy asarlarni yozish uchun benihoya qulay edi. Odatda oqshom zavolida Taiska ertangi tushlik taomni kelishib olish va kun voqealarini muhokama etish uchun kirar edi, baxtlariga hech qanday hodisa yuz bermaganida esa, muayyan muddatni mutlaqo jimlikda

o'tkazishardi, bu odat uyqu oldidan, qo'llarida o'chgan chubug'lari bilan kulbalarining tuproqsupasida sukul saqlab o'tirguvchi yengalik dehqonlarga qadimdan xos edi. Seryojaning asrab olinishi qaror topgan tartibni o'zgartira olmadi va ayni shu oqshomlar ularni, shunchalik bir-birlaridan farqlanuvchi uchovlonni ahil va mustahkam oilaga aylantirardi.

O'sha safar Seryoja ishxonasida ushlanib qoldi va kechki o'tirishga Taiska yolg'iz kirdi. Tungi kapalaklar tunchiroq atrofida aylanib uchishadi, Ivan Matveichning o'zi esa, pidjakchan holda, ochiq derazadan o'zining sun'iy o'rmoniga tikilib o'tiribdi, u tomonidan xuddi daryo salqini kabi nam sovuqlik esib turibdi.

– Bo'pti, nima bo'lganini gapiraqol, – dedi u bir daqiqadan keyin, ortiga ham o'girilmay.

Taiskada hech qanday arzirli yangilik yo'q ekan, faqat bittasidan tashqari, aynan – Gratsianskiy kun yarmida yugurib kelibdi, xo'jayin qayerga va nima uchun ketganini surishtiribdi, asosiysi, odatda doim shilimshiq-makkor, sovuq kulib turadigan bu kimsa xuddi tuni bilan uxlamaganday bu safar tashvishli ko'rinibdi, har doim achinish bilan qaraganday boqish odatiga xilof ravishda, aksincha, kampirning ko'ngil g'ashligini tarqatish uchun zo'raki urina boshlabdi. Rostdan ham, uning tashrifida qandaydir favqulodda bezovtalik nuqsi bor edi. Keksayib borayotganingda ko'pincha yuz berganiday, bu odam Vixrovning do'sti bo'lishlikdan allaqachon chiqib ketgan bo'lsa-da, uning eski o'rtoqlari ro'yxatida turishda davom etmoqda. Ular 1908-yilda O'rmonchilik institutiga o'qishga kirishdi, agar Vixrovning 1911-yildagi Peterburgdan ikki yillik ma'muriy surguni bo'lmasa edi, buning oqibatida u ta'limni birinchi jahon urushi arafasidagina tugata oldi, ular rus o'rmoni xizmatiga bitta yilda chiqqan bo'lur edilar. Ammo bu majburiy va oxir-oqibat arzimagan bir tafovut Gratsianskiyga ularning munosabatlarida doimiy saqlanib turgan kattalik ko'rinishini berib turardi.

Umuman olganda, ularning diplom ishlari mavzusidan kelib chiqqanda, kelgusida har qanday raqobat imkoniyati yo'qqa chiqqan bo'lsa-da, ammo ularning amaliy faoliyatları o'zaro yaqin kechmoqda edi – bu rosmana musobaqalashuv emasdi, albatta. Lekin jiddiy darajada qizg'in, ba'zida hatto to'fonli aloqadorlik sharoitida o'tmoqda ediki, atrofdagilarga bu holat ularning ilmiy dunyoqarashlarining

to‘liq nomuvofiqligi vaziyatida to‘la tabiiy tuyulardi. Bu mashhur munozarada Vixrov qudratli raqibi bilan omma qarshisida olishuvga kirishishga moyilligi bo‘limgani·bois, sustlik tamoyilini tanladi; ammo vixrovcha bu xulqni zaiflik belgisi, o‘zini o‘zi katta o‘rtoqlik lavozimiga tayinlagan kimsaning ko‘rsatmalarini takabburlarcha mensimaslik yoxud sodir etgan xatoliklarini ko‘ngilli ravishda tan olish deb hisoblashga hali erta.

Vixrov bilan Gratsianskiy o‘rtasidagi bu saboq bo‘lurli, keng sovet doiralari uchun yoritilmagan mavzu bo‘lib qolgan nifoq nimadan boshlanganini hozir hech kim eslay olmaydi ham, lekin yillar o‘tishi bilan o‘rmon jamoatchiligi Vixrovning har bir yirik ishi e‘lon qilinishi bilanoq, Gratsianskiyning zarba kuchi bo‘yicha undan ahamiyati kam bo‘limgan, hatto jazolanmaydigan ehtirosi bo‘yicha ustuvor bo‘lgan maqolasini kutishga ko‘nikib qolgan, bunga shunchalik o‘rganib qolganki, odatda Ivan Matveichning navbatdagи kitobiga taqrizlar u haqda shaxsan Aleksandr Yakovlevichning o‘zi fikr bildirmagunicha maxsus nashrlarda chop etilmas edi; o‘zaro ishonchli suhbatlarda buni Ivanning payrahasini chopib olish deb atashardi. O‘rmon tuzish sohasining zerikarli masalalaridan xabarsiz bo‘lgan nafis iboralarning muxlislari nazdida, ta’riflarning kuchi bo‘yicha mukammal, uslubi bo‘yicha ajoyib bu maqlolar xorijiy jurnallardan biri yozishicha, — Joresning nutqlari bilan, Maratning pamfletlari, Katilinaga qarshi Sitseronning filippchalari bilan maqtovli taqqoslashlarni taqozo etardi va shundan so‘ng, Aleksandr Yakovlevning o‘zining sha’niga, u hafta davomida atrofga qarab va nafaqat xijil holatda yurdi, hattoki qandaydir nomaqbul narsadan ho‘llanib ham qolganday ko‘rinardi. Eski o‘rmonchilar o‘zlarini mufassal tanqid g‘ildiragining ostiga tushib qolmaslik uchun sukut saqladilar, ammo ba’zilari yashirin suhbatlarda aytishlaricha, Gratsianskiyning kichikkina, ba’zan bir sahifadan iborat haqoratli san’at asarlari katta ilm-fanga hissa qo‘shmaydi. Haqiqatan ham, o‘quvchiga yetib borishi mulohazasi bilan, shuningdek maxfiylik mulohazasidan professor Gratsianskiy o‘z maqlolarida odatda raqamlarni ham, shaxsiy ijobiy takliflarini ham bayon etmasdi; ulardagi jozibador kamtarinlik bu ma’noda haddan tashqari ko‘zga tashlanib turardi. Ularda o‘rmonning o‘zi haqida ma’lumotlar nihoyatda oz bo‘lsa-da, vaqtı-vaqtı bilan bu tanqidlar shundoq ham chalkashib ketgan o‘rmon muammolarini kuchaytirib yuborsa-da,

Vixrovning hamfikrlari yashirin suhbatlarida o‘zlarining mufassal tanqidga murosasiz ekanlarini bayon etib shivirlashsalar-da, Gratsianskiy har safar har tomonlama, afsuski – o‘rmonning o‘zidan tash-qari, kinoyadan iborat donishmandligini namoyon etib qolardi, oxirgi yillarda esa Vixrovning xatolarining haqiqiy sabablari haqida olijjanob bir chalagaplilikni ham qo‘llab yuribdi. Xullas, Vixrovning mu-ruvvatli-xolis tanqidchilari orasida bunisi eng shafqatsiz, serfaoliyat, Vixrovning tirnog‘i ostidagi mayda-chuyda kirlardan xabardor va shu darajada omadli ham ediki, oxirgi chorak asrda Ivan Matveichning obro‘sı bir kun bo‘lsin quruq turgani yo‘q. Sanab o‘tilgan vaziyatlar ularning xususan xizmatga daxldor yig‘ilishlarda uchrashib turishlari va talabalik davridagi yaqinliklari bergan huquq asosida ora-ora mamlakat o‘rmon tuzilishining dolzarb mavzuchalari bo‘yicha janjal-lashib turishlariga monelik qilmasdi. Bunaqangi holatlarda Gratsianskiy o‘zining sobiq oshnasiga nisbatan qandaydir yorug‘, munofiqona g‘amli xo‘rsinishlar hamrohligidagi birodarlaracha bag‘rikenglikni namoyon etardi, – sen bilan men yaxshi tushunamiz-ku, birodar, o‘zaro xafagarchiliklarning bekorligini, nimayam qila olardik: yangi davr! Va nima uchundir Gratsianskiyning bunaqa damlarda ko‘zları g‘ilaylashib ketardi, bittasi suhbatdoshining qanshariga sinchkov na-zar bilan to‘ppa-to‘g‘ri tikilsa, ikkinchisi esa chetga burilib, yelkasi-dan sal tepaga, hech kim topa olmaydigan qandaydir yashirin max-fiyatga qarab turganday tuyuladi... Va nuqul bir shisha nordongina musallas ustida ko‘rishish zaruratiga shama qilar, ammo o‘z uyiga taklif etmasdi, to‘planib qolgan jahon muammolarini uzil-kesil mu-hokama etish uchun, shunchaki birgalikda Karavannayadagi yunon tamaddixonasida bitta tovoqdan no‘xatyovg‘on xo‘rillatgan baxtiyor damlarini eslash uchun aynan o‘zi Vixrovning uyiga borishga tay-yorligini bildirardi. Insof yuzasidan aytish kerak, Sankt-Peterburg di-niy akademiyasi professorining puldor oilasidan chiqqan Aleksandr Yakovlevich hech qachon tamaddixonalarda taomlanmagan va u es-latgan o‘sha yunon ham yeguliklarni faqatgina fayans taqsimchalarda berardi, ammo Gratsianskiyning talqinida bu mavzu tinglovchi uchun qulay va chiroyliroq chiqar, Ivan Matveich esa o‘zi uchun uyatli tarza va vujudida qaynab turgan yashirin qahr-g‘azabiga qaramasdan, bu shoirona, keksalik davriga kirgan odamlarda tez-tez yuz berib turadi-gan rang-barang qirralarsiz voqelikni biror marta ham inkor etmadi.

Nima bo‘lganida ham, Gratsianskiyning mustahkam, hiylagar aqli va mustahkam, to‘siqlarni parchalab tashlovchi irodasi bilan uyg‘unlikdagi benazir notiqlik iste’dodi bor bo‘lib, – buning ham bit-ta ammosi bor ediki – abadiy yosh, mijg‘aloq yuragi bilan doim ham murosada bo‘lavermasdi. Aynan u, eski do‘srlarning yagonasi sifatida, Cheredilovni hamda vaqtি asosan safarlarda o‘tguvchi Valeriy Kray-novni istisno etganda, Sasha Gratsianskiy, Vixrovning 1936-yildagi yirik ijodiy muvaffaqiyatsizligidan keyin unga pul taklif etgandi, boz ustiga juda katta miqdorda va hattoki qaytib bermaslik imkonи bilan... Uning toyib yiqilgan o‘rtog‘ining taqdiriga g‘amxo‘rlikni namoyon etgani Vixrovni maftun etib, uni o‘z raqibining ziddiyatli fe‘li haqi-da o‘ylanishga majbur etdi, goh o‘ziga ko‘rsatilmagan o‘rmonchilik ilmiga, gohi rus inqilobiy harakatiga, gohida esa nihoyat, siyosiy iqtisodiyotga jazavaga to‘la yurish qilib qoladi... u o‘z faoliyat maydonida hech qanday sezilarli yutuqlarsiz tiqilib qoldi, o‘zining salohiyati ko‘lami bilan taqqoslaganda hech narsaga arzimaydigani Vixrovning shaxsiyati borasidagi maqolachalari jamlangan bitta kichkina kitob-chasini hisobga olmaganda, albatta.

Ko‘rishgan paytlarida o‘zining haq ekanligini isbotlash umidida, Vixrov opasiga musallas g‘amlab qo‘yishni buyurdi, ammo Gratsianskiy bu safar aynan markaziy matbuotda o‘z maqolalarining eng qattolini hujumga tashladi, unda Vitrovning sotsialistik qurilishni limitlashga bo‘lgan barcha urinishlariga yakun yasadi va demakkim, modomiki Gratsianskiy hamma narsani o‘z nomi bilan atashga jazm etgan ekan, uning haqiqatni ochishga bo‘lgan intilishlari shaxsiy yurak mayllari ustidan g‘olib keldi. O‘zi satrlar orasida keksalarcha taassuf bilan o‘z tazarrusini izhor etib o‘tganidek, oradagi g‘alatiroq oshnachiliklariga qaramasdan, sobit qo‘l bilan naq qovurg‘anining tagiga berilgan o‘sha yakuniy zarba, nima uchundir, o‘sha paytning iborasi bilan aytganda – oliy partiya idoralarining aralashuvlari tufayli Vixrovga nisbatan qo‘llanishi lozim bo‘lgan tashkiliy xulosalar bilan yakunlanmadı. Ammo navbatdagi mag‘lubiyat, tabiiyki, Vixrovning hamfikrlarini bezovtalantirib qo‘ydi, Ittifoqning barcha o‘rmonlari bo‘ylab yoyilib ketgan, ikkilanishdagi ko‘plab do‘srlari va shogirdlarini undan kechishga majbur etdi, Vixrovning o‘zini esa: o‘zimga kasb tanlaganimda adashmadimmikan, deya yana bir bor mulohaza qilib ko‘rishga undadi... Ularning bir necha yillar davomida yetilib

kelgan ajralishlari shu tariqa yakun topdi va o'sha voqealar nuqtayi nazaridan qaralganda, ochiq-oshkor dushmanining uzoq tanaffusdan so'ng, xuddi hech gap bo'lmaganday qo'qqisdan tashrif buyurishi e'tiborga loyiq va sirli bir hodisa edi.

Buning yagona izohini Gratsianskiyda yuzaga kelib qolgan yarashishga bo'lган ehtiyojdan izlash lozim edi, qarilikda ba'zan shunaqasiyam bo'lib turadi, ammo sinchkov kuzatuvchi bu sababni istisno qilgan bo'lardi. Hozir endi bunday burilish Gratsianskiyning chekinuvini, taslimligini va hattoki halokatini anglatgan bo'lur edi, ammo uning nomzodi tez orada Fanlar akademiyasining muxbir a'zoligiga ko'rsatilishi borasidagi ovozalar bu taxminni ham yo'qqa chiqarardi. Asl sababni Gratsianskiyning atrof sharoitdagи barcha tebranishlarga va siyosiy o'zgarishlarga o'ta yuqori, deyarli seysmografik sezgirligidan izlash oqilona ish bo'lardi. Ivan Matveich aynan o'zining, ilg'or rus o'rmonshunoslarining vatansevar va ilmiy asoslangan orzularidan dunyoga kelgan vixrovcha g'oyalari qachonlardir kelib xalq xo'jaligi amaliyotida keng tan olinishiga doimo ishonar edi. Ammo bir yarim asrdan beri davom etib kelayotgan o'rmon uchun buyuk kurashni aynan Vixrov g'alaba bilan yakunlaydi deb o'ylash haddan tashqari o'ziga bino qo'yib yuborish bo'lur edi... Uning fikrlari chuvalashib, jum qoldi.

– Og'aynisi yugurgilab keldi-yu, endi yarashsayam bo'lardi, deb o'ylabman, ahmoqligimga borib, – o'zining taajjubini izhor qildi Taiska. – Choy olib kelish uchun oshxonaga chöpdim, bundoq qarasam, voy otagini-ey, u bo'lsa sening ish mizing atrofida aylanib, basharasini zerikkanga solganicha, har xil qog'ozlaringni titkilayapti. Sening ish mizing oldida unga balo bor ekanmi?

– Oilaviy olmoslarimizni o'g'irlab ketmoqchi bo'lgan. Xavotirlanma, men ular uchun temir quti olib kelaman, – hazillashgan bo'ldi Ivan Matveich, shubhadan ham ko'ra opasining qayg'urishlaridan ko'proq ta'sirlanib, keyin esa o'zining haligi xayollarining davomi sifatida, har ehtimolga qarshi opasi musallas sotib oldimi, yo'qmi, so'rab qo'ydi.

Taiska kagor olib kelganini aytdi; uning dehqonlarcha ongiga ko'ra, nordon musallas sotib olishga pul sarflash nomaqbul, chunki o'tkirligiyam, kayfiyam ko'ngildagiday emas.

— Sen ishingdan bo‘yin tovlama, — do‘q qilgan bo‘ldi opa. — Qash-qirdan ko‘ra men ko‘proq sening ashaddiy oshnangdan qo‘rqaman.

Umuman olganda, ukasiga bu odam yetkazayotgan musibatlar-ning ko‘lami haqida tasavvurga ham ega emas edi.

— Bo‘ridan qo‘rqqan — o‘rmonga kirolmaydi! Ilgarigi yillarda o‘rmonchiga shuning uchun ham harbiy xoskiyim kiydirishganki, u o‘rmon xazinasining qorovulidir, xuddi askar kabi... askarning esa qo‘rqishga haqqi yo‘q.

— Men ham shuni aytyapman: taslim bo‘lganining yaxshiydi, kech bo‘lmasidan ta’zim qilib borsang bo‘lardi, — dedi opasi qahrli bir to‘g‘riso‘zlik bilan. — U seni ag‘daradi, muallimingni qulatgani kabi.

— U taniqli o‘rmon nazariyotchisi Tulyakovni nazarda tutayotgan edi, Gratsianskiyning shukuhli mavqelarga ko‘tarilib borishi olim-ning toptalishidan boshlangan edi. — Asli o‘rmondan kelgansan, endi o‘rmoningga qaytaqol. Bolalar ulg‘ayib qolishdi... sen bilan menga ko‘p narsa kerak bo‘larmidi? Seni o‘rmon nazoratchisi vazifasiga qabul qilishadi, yayov aylanishga hali oyog‘ing yarab beradi. Sen bilan menga o‘rmon chekkasidan biror kulba ajratib berishadi, senga bay-ram kunlari o‘zim moroshka qo‘sib shirinkulcha pishirib beraman!

Odatda Ivan Matveich achchiqlana boshlaydi: o‘zining kuch-quvvatini yemiruvchi bunaqangi vasvasaga soluvchi eslatmalarni yoqtirmas edi.

— Bilasanmi, opa, o‘rmonning chekkasidagi daraxtlar ko‘proq yorug‘lik va oziqa olishadi, siqilmasdan o‘sishadi... shu bois ham ular chidamliroq. Mana meni ham tabiat o‘rmon yoqasidagi daraxtlarni shamol yiqitishidan ihotalaydigan qayinga o‘xshab shu vazifaga qo‘ygan. Bu yerdan qanday ketaman, axir?.. O‘z ildizimga o‘zim tabar urishimga to‘g‘ri kelar ekan-da, a?

Ammo bu safar hazil ortida mehmon bo‘lib qaytish, o‘zi chorak asr muqaddam o‘z faoliyatini boshlagan qora ishlarni kuzatish va taq-qoslash uchun Yengaga avvalroq borib kelishni hazilga olish ortida uning deyarli yetilib qolgan roziligi turardi; endi qar qanday kichik zarba Vixrovni o‘z fikrlarini amalga oshirishga majbur eta olardi. Bundan tashqari, u ko‘pdan beri o‘z qadrdon joylarini kezish va toki egilishga beli chidab berar ekan, o‘zi ilk bor hayotni ko‘rgan yashil belanchakka ta’zim etishni orzu qilayotgan edi.

Shunda ukasiga ta'sir ko'rsatishga ojiz Taiska xuddi o'rmon qu-shi kabi hurpayib oladi.

— Voy, Ivashka-yey, kulmasang bo'lardi!.. Shuncha yillardan beri shovqin qilasan, foyda topdingmi?! Ana, sening Yalangligingniyam kesa boshlashdi!.. — baqirib qo'ydi u ukasining zaif joyini bilgani uchun.

Yengadagi mashhur bir daraxtzor Yalanglik deb atalardi, u hatto Pyotrning farmonlarida ham eslatilgan; u yerda Vixrovning bolaligi kechgan tinchoqar muqaddas Sklan daryosi boshlanadi.

— Kimdir keldimi yoki maktub oldingmi?.., Yalanglik haqida kim senga vaysadi?..

Mana shu joyiga kelganda Taiska ukasidan yashirmoqchi bo'lgan narsa fosh bo'ldi. U Polinanining tashrifi haqida shunday bir quvonch-sizlik bilan xabar qildiki, og'ir tuyg'ulardan Ivan Matveichning yuragi ezildi. Qizi haqida mafassalroq so'rasayam bo'lardi, u esa qo'rqdi, chunki o'zining savollariga javob xabarning ohangida mavjud edi.

— U qanday... ulg'ayibdi?

— Qomati raso, sarishtagina qiz bo'libdi, komsomol, ahloqi-chi... Agafya kampirga tortgan ko'rindi, — va Polyadan so'rab-surishtirib ozgina bilib olganlarini ukasi bilan bo'lishdi.

— Balki biror narsaga muhtojligi bordir... manzilini qoldirdimi?

— Sarosimalik orasida shu manzilini surishtirishni unutibmanda... — Polyajon otasi kelguniga qadar u bilan birga zerikib o'tirishni xohlamagani uchun yolg'iz o'zini aybdor deb hisobladi. — Va agar bilsang, qalpoqchasi ixchamginayakan, sariq poxoldan, ko'ylagiyam bashanggina, sochilgan no'xat gulli. O'zi tikib olganini maqtandi...

U eng asosiysini aytgisi kelmayotgani aniq edi; shunda Ivan Matveich uning yoniga o'tirdi, qo'llaridan tutdi va opasini so'zmaso'z oxirigacha ochilishga majbur etdi. Birinchi bor uning xayoliga ilgari kelmagan bir fikr yuzaga chiqdi: albatta, uning shubhali va hatto go'yoki davlat uchun xatarli bo'lgan faoliyati haqidagi Gratsianskiyning fosh etuvchi hisobotlari sohaga daxldor bo'limgan matbuotda kamdan kam e'lon qilinardi, ammo aynan o'rmonchilikka tegishli nashrlar Pashutin o'rmonchiligiga shubhasiz yetib boradi va ular qizining ko'ziga tushgani aniq.

— Nimalar bo'ldi... qarg'andimi, men haqimda surishtirdimi?

Taiska Polyajonni oqlashga qanchalik urinmasin, har holda yolg'on gapistishga va o'z sirlarini saqlashga o'rganmagani uchun qizning vixrovcha g'oyalarning mohiyati haqidagi yagona savolida namoyon bo'lgan bolalarcha nafrat haqida aytib yubordi. Demak, qizi ularni o'qigan, ayblagan, otasidan voz kechgan va uning dushmanlari safini yana bittaga ko'paytirgan.

Ruhsiz, yuz ifodasi keskin o'zgargan Ivan Matveich deraza tomon yurdi va ko'z oldidagi tun qorong'iligiga tikilib qoldi.

– Nega jimb qolding, o'rmon jangchisi! Kurashni to'xtatma! – Taiska uning orqasida turib, chin yurakdan zarba berdi.

U ma'yus jimlikda edi. Mamlakatda juda kamchilik odamlar uning xato fikriga ko'ra, sof muassasaviy xususiyatga ega bo'lgan o'rmon chalkashliklarini hal etishda yetarli bilimga ega edilar. Abatta, avvalboshdanoq u yuqori o'rmon xo'jaligi siyosatiga aralashgandan ko'ra, o'zining bevosita va kamtarin o'rmonchilik vazifasi bilan shug'ullangani yaxshi edi. Shunday bo'ldiki, u o'zining birinchi kitobi bilanoq o'rmondan uzlusiz foydalanish nomini olgan va u paytlarda hali obro'sizlantirilmagan ilmiy oqimni qo'lladi va bu ish g'o'r sovet yoshlari ko'zida qanday oqibatlarga olib kelishini oldindan bilgan taqdirida ham o'sha xatosini, albatta, yana takrorlagan bo'lardi... aynan xuddi shu yoshlar uchun u o'z kasbining mashaqqatlari va muhtojliklarini o'z zimmasiga ortib olgandi. Bundan buyon birinchi bosqich talabalari uchun rus o'rmoni haqidagi kirish ma'ruzasini o'qiganida, uni avvalgiday ishonch bilan va u ko'p yillar davomida o'z boshiga orttirib olgan ayblovlar jamlangan toshday qattiq so'zni peshanasiga qabul qilib olishni kutish alamisiz irod etolmasligini ko'nglida nimadir aytib turardi.

Oldindan aytish kerakki, Ivan Matveich o'zining shaxsiy kasbi o'sha davrdagi fuqarolik e'tiroflarining ro'yxatida oxirgi o'rnlardan birini egallab turganiga allaqachon ko'nikib ketgan. Har qanday boshqasi: jarrohlik mizida ishlash, geologik qidiruvlar, suv elektr stansiyalari qurilishi, misli ko'rilmagan hosilni yo'qotishlarsiz yig'ib olish, harbiy kemalarni hujumga yo'llash, ishchi qo'llari miqdorini ko'paytiruvchi g'aroyib mashinalarni yaratish, tajriba uchog'ini sinovdan o'tkazish, minglab boshqa ixtisosliklar – xalqning fikricha, adolatli tarzda eng so'nggi sarhadlariga yetgan ruhiy zo'riqish va jasoratni talab etguvchi qahramonlik hisoblanadi. Eslab o'tilgan bar-

cha sohalarda, shuningdek xalqning farovonligi va salomatligi uchun birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lgan yangi ufqlarni izlash, ishlab chiqarish jarayonlarini jadallashtirish, buyuk kashfiyotlar uchun imkoniyatlар mavjud edi; u yerda hisob-kitoblarning to‘g‘riligi, ustuning mahorati, sarflangan mehnat miqdori oxir-oqibat umumxalq e’tirofini, hukumat mukofotlarini, mualliflik g‘ururini olib keluvchi yaxlitlangan yakuniy natija bilan tekshiruvdan o‘tkazilardi, shu bilan birga bunday buyuk ishlar natijalarni xulosalashning muqarrar soati – o‘lim yetib kelganiga qadar qayta-qayta takrorlanishi mumkin edi.

Juda uzoq yillar umr ko‘rishga safarbar etilgan va o‘simlik hujayralarini donalab to‘plash qonunlariga bo‘ysunuvchi o‘rmonchilik fakoliyati Ivan Matveichning ko‘zlarida bularning hammasidan mahrum etilgan edi. To‘g‘ri, unda haqiqiy sotsialistik estafetachilik ancha yorqin namoyon bo‘lardi, agar sayyoraning o‘zgartirilishida avlodlarning hammuallifligi nazarda tutilsa, albatta. To‘laqonli sanoatbop daraxtni voyaga yetkazish uchun ikki yoki hatto uch ijodkor avlodlar umri talab etiladi; agar daraxt navlarini almashlab ekish bo‘yicha yagona to‘g‘ri bo‘lgan ko‘p dalali tizimni tashkil etishga intilsak, asrlar kerak bo‘lardi. Ilm-fan esa besh yilda kemabop qarag‘ayni o‘stirish salohiyatiga ega emas... shu bois hozirgacha yer yuzida o‘rmonchilarining haykali yo‘q!

Zamondoshlarning tezroq tan olishiga bo‘lgan eng kam umid o‘rmonning samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega o‘rmon kesish rejasini tuzish uchun o‘rmon xo‘jaligi tadqiqotlari va texnik hisobkitoblarni o‘zlarida namoyon etuvchi o‘rmon tashkilleshtirish sohasining oddiy xodimlari hissasiga to‘g‘ri kelardi. Bunga qo‘srimcha qilib aytish mumkinki, o‘zining yoshi va fandagi tutgan mavqeiyiga ko‘ra Vixrovning o‘zi o‘rmonlarning o‘tib bo‘lmas chakalakzorlari bo‘ylab sarson bo‘lib yurishdan, shuningdek o‘zi kezib chiqqan millionlab gektarlar haqidagi hech kim o‘qimaydigan hisobotlarni yozishdan allaqachon qutulgan edi. O‘scha davrning gazetalari uzluksiz mehnat jasoratlariga qo‘ng‘iroq jarangi kabi tantanavor chorlar edi, Vixrovning kasbi esa bunday imkoniyatlarga ega emasdi: ko‘pincha unga o‘rmonchilar uzoq umr ko‘rishi bo‘yicha asalarichilar, ruhoniylar va bog‘bonlardan keyin bor-yo‘g‘i to‘rtinchi o‘rinda turishlarini pisanda qilib, tanbeh berishar edi, ularning asosiy kasalligi – odamni o‘ldirmasdan azob beruvchi bod. Mana, nima uchun ba’zida Ivan

Matveich o‘z kasb lavozimini aytar ekan, go‘yoki Katta Ayiq yulduzlar turkumining asrovchisiman yoki Qora Dengiz manzarasining nazoratchisiman deyayotganday o‘lar-darajadagi noqulaylikni his etardi. Ko‘plab shogirdlaridan kelib turgan maktublar hamda eng ovloq joylarga tarqalib ketgan va ko‘pincha faqat detektorli radio qabul qilgich vositasidagina zamonaviy tamaddun ne’matlari bilan bog‘lana oladigan noma'lum o‘rmon mehnatkashlarining katta lashkari xuddi shunday sharoitda ekanini anglash hissigina unga yupanch bo‘lib xizmat qilardi.

Vijdonning bunday talvasalarini o‘z kasbiga nisbatan nozik bir halollik bilan munosabatda bo‘lish va uning o‘zi o‘rmon ekmay qo‘ygan bo‘lsa-da, o‘zining deyarli yagona asbobini: tabarni buyuk ehtiyyotkorlik bilan qo‘llash asnosida davolash mumkin edi. Ammo mamlakat tobora o‘sib borayotgan hajmlarda yog‘och ashylarni talab etmoqda edi, o‘rmonga nisbatan bo‘lgan avvalgi hisob-kitoblar, shuningdek u xudoning o‘z-o‘zidan tiklanuvchi ne’mati degan qarashlar saqlanib qolsa, nomaqbul va o‘nglanmas oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu bois Ivan Matveichda o‘z faoliyatini o‘zida yo‘q bo‘lgan mukofotlar miqdori bilan emas, yoki yana bir haqoratlangan kitobining chop etilishidan shubhali bir ijodiy qoniqish hissi bilan emas, eng avvalo kelgusi avlodlarning farovonligida namoyon bo‘lishini taxminiy chandalab ko‘rish bilan tekshirish odati yuzaga kelgan edi.

Polya bu avlodlar silsilasida unga eng yaqini edi, shu boisdan uning mulohazalari Vixrovga farqsiz emasdi. Amalda shunday bo‘lib chiqdiki, modomiki shuncha yillik ayriliqdan so‘ng o‘z qondosh qizining bitta ta’zimiga ham arzimabdimi, demak u yarim asrdan ortiq umrini behudaga sarflabdi.

– Ha, gaping to‘g‘ri, opa... – tasdiqladi u barmog‘i bilan mizni asabiy chertar ekan. – Tez kunlarda o‘sha yoqqa, vatanimga borib kelmoqchiman. O‘zimning Yalangligimni ziyorat qilaman, yomg‘ir tagida miriqib suvga bo‘kaman, qushlar bilan mashvaratlar qilaman... maza! Endi boraver, uxla, yumushlarining qilib bo‘lding. Buyog‘ini o‘zim hal qilib olarman, – alam bilan qo‘shib qo‘ydi u va qo‘l siltadi.

Ikkinci va hatto xotini qochib ketganidan keyin bo‘lganidan ham ko‘ra o‘z-o‘zligini va asosiysi, o‘sha davrda aynan nimalar bo‘lib o‘tgani va bu hayotda uning, Vixrovning insoniy maqomi qan-

day bo‘lganini mufassalroq qayta ko‘rib chiqishi shunday boshlandi. Uning samimiyligi e’tiqodiga ko‘ra, Oktabr inqilobi nafaqat ne’matlarni adolatli taqsimlash maqsadida, asosan, birinchi navbatda inson sofligi uchun kurash bo‘lgandi. Basharti shundoq bo‘lganidagina, o‘ylardi u, ahli bashar hayotini uyog‘iga ham davom ettirishi mumkin. Va agar taraqqiyot ayni vaqtning o‘zida xulqiy majburiyatlarning ortishidan iborat bo‘lsa, u holda faqat benuqson insongina komil baxtga erisha oladi, chunki buning uchun har bir kishi farzandlari oldida, kunning qoq yarmida, dunyoning eng odamlarga to‘la maydonlarida orlanmasdan so‘zlab bera olishi uchun mukammal tarjimayi holga ega bo‘lmog‘i kerak. Valeriy Kraynovga tegishli mana shu nuqtayi nazarga ko‘ra, odamzot balo va ofatlarga duchor bo‘lish vositasida poklanishga qanchalik muhtoj ekani ko‘rgazmali tarzda alohida namoyon bo‘lib turardi.

... Valeriy Vixrovning institut bo‘yicha saboqdoshi bo‘lib, ularning qachonlardir Peterburgda qaror topgan to‘rtligidagi katta o‘rtoq va ularning yetakchisi edi. Hatto podshohlik ig‘vo-fitnalarini va jamoatchilik kuchlarining parchalanishi sodir bo‘lib turgan, endi najot yo‘qday tuyulgan davrlarda ham uning uchun yechilmaydigan tugunlar mutlaqo mavjud emasdi. U deyarli ilmiy bashoratchilik salohiyati bilan uyg‘un bo‘lgan leninchalik maktabning yorqin, ziyrak aql egasi edi va Gratsianskiy singari ruhoniylar tabaqasidan chiqqan Cheredilov o‘sha davrlarda uni hazilomuz tarzda sotsialistik odamlarning ustoziga va ajdodi deb atagandi. Valeriy o‘rmonshunoslik o‘rniga avval partiya ishiga ketdi, keyin ko‘pgina yillarni xorijda sovet elchisi vazifasida o‘tkazdi; rus do‘stlarning orasida tez-tez uchrab turganiday, Vixrov u bilan o‘n yillarda bir ko‘rishib qolardi. Yozishmalar ham amalga oshmay qolardi; zamondoshlar hayotidagi shaxsiy hodisot u paytlarda jamoat voqealari bilan birikib ketardi, ular haqida gazeta orqali tezroq xabardor bo‘lardingiz. Ammo har safar og‘ir ahvolga tushib qolganida, Ivan Matveich xayolan Kraynovni suhabatga chorlardi va shu tariqa ular voqelikning bir qadar murakkab tenglamalarini ikkovlashib hal etishardi.

Hozir ham shunday bo‘ldi:

«O‘z maqsadingni kattaroq ko‘lamda va qo‘polroq tarzda ta’riflab ber», dedi Valeriy.

«Men uni bilmayman. U mening kitoblarimda».

«Uni kelajak bilan tekshirib ko'r».

«Unga yordam berishning boshqa vositasini ko'rmayapman».

«U holda... qilgin va shunda ham maqsadga erisholmasang, unga tomon yurib borgan yo'lingni qaytadan tafakkur etib ko'r».

...Ertalab, ma'ruzalar oldidan shaxsiy ishlari uchun vaqt orttirish maqsadida Ivan Matveich uqlashga ertaroq yotardi. Bunisi ko'plab yillar davomida u oyoqda yurib o'tkazgan birinchi tun bo'ldi; har holda ertangi kun yakshanbaga to'g'ri kelgandi, 22-iyun. U xonda tinmay yurib turibdi, burchakdan burchakkacha o'n besh qadam qo'yib, o'z o'tmishining har bir tirkishiga nazar soladi. O'zgarmas tarzda, miz oldidan qayrilishda uning nazari ostiga oddiy qarag'ayning saraton kasalligi haqidagi tugallanmagan bayoni tushib qoladi. Bu ilmiy ish Vixrovning ixtisoslik doirasidan keskin tushib qolgandi va chop etishga mo'ljallanmagandi... zero qariyalarda shunday lahza-lar bo'ladiki, ular har qanday fan bo'yicha sarflanmagan tajribalarini qog'ozda mustahkamlashga intiladilar. Hozir mazkur turning ansol bilan yonma-yon o'sishining qarag'ay uchun zararli ekani haqidagi bu keng ko'lamli, mayda harflarda bayon qilingan asar Vixrovning hayotda amalga oshirishi mumkin bo'lgan va ulgurmagan ishlariga erishishi oldida unga hozir jinoyatkorona xomxayol bo'lib tuyulmoq-da edi.

2

U joyida to'xtab, qo'lyozmaning sarg'aygan varaqlariga qaradi va xuddi kuzning sokin tiniqqan suvi orqali ko'rayotgan kabi, u yerda, tublikda akslanayotgan o'zining bolalik ertagini xotirladi; achchiq ta'm uning haqiqiy ekanini tasdiqlab turardi. Har qanday bolig'lik ertakni fosh etishdan boshlanadi, bu ma'noda bolakay Ivan qiziqarli xalq qissalari payrahachiroq yorug'ida qanday oddiy qiyqimlardan tikilgani va yog'och oqizuvchilarning hur jamoasi suv toshqini oldidan ashulalar va pichoqbozliklar hamrohligida ertakov sayr qiliishi, choparlarni afsonaviy dehqoncha haqiqatni izlab topishga qandoq jo'natganlari, va ertakmonanad Rusda ayollar qanday zaifona, ko'z yoshlarisiz yig'layotganlariga juda erta guvoh bo'ldi. Lekin dehqon bolalari doimo beparvo bo'lgan yegulik tanqisligi va boshpanalari ning xarobligiga ahamiyat qaratilmasa, u holda Ivan Matveichninng

hayoti aynan ertakovor davlatmandlikda boshlandi, chunki uning uncha-buncha rosmana boyonning qurbi yetmaydigan o'yinchoqlari bor edi.

Bolalikning sultanati doirasiga kiruvchi va afsonaviy mavjudotlar istiqomat qiladigan poyonsiz makonlar sayyoraga qanday sig'ib joylasha olgani taajjublarga munosib. Gorinka ortidagi suvloqda sharobxonachi Zolotuxinning terisi mis tusli, tumshug'iga temir halqa ilin-gan buqasi kezib yurar, baland qирг'оqдаги qayrilish yaqinida oqarib ko'rinish turgan boyning qo'rg'onida, qarib-churigan boyon Sapegin har kech Vizantiya tarixining xatoliklarini mushohada etishga xala-qit berayotgan qarg'alarga o'q uzish bilan shug'ullanadi; daryoning yarim chakalakka aylangan eski o'zanida suv parilari makon topgan va yomg'ir yog'ib o'tgan yoz oqshomlarida Shabanov tog'idan qarab, ipakday mayin chaqqon barmoqlari bilan qitiqlash uchun bu oddiy sochli parilar pravoslavlarni yashirinchay poylab turganlarini ko'rish mumkin edi, va nihoyat, eng yaqin atrofdagi chakalakzor o'rmonda, Oblogda, jundor blazna – ajinaning mahalliy turi yashar edi va uning kuz kelishi bilan daraxtlarni ag'daradigan juda g'alati odati bor edi. Tun kira boshlashi bilan, olislardan tabarning chirkay bosgan daraxt tanasiga jaranglab urilgani, yiqlayotgan daraxtning yurakni ezib g'ichirlashi, daraxt uchining vidolashuv shovullashlari eshitilib turardi, ammo kichik tadqiqotchilar u yerda biror marta bo'lsin na to'nka, na payraha topa olishgan...

O'sha vaqtgagi dunyo manzarasi mana shunday ko'rinishda edi. Uning markazida, Sklan bilan Yenga qo'shilgan joyda, Krasnovershye suvning bo'yigacha yastanib boradi, tevarakda esa yashil, ko'k va moviy o'rmonlar pog'ona-pog'ona bo'lib yoyilgan. Qishloqchani boyonning qo'rg'onidan yuz ellik botmon maydonni egallagan qaraq'ayzor ajratib turibdi, uning joylashuvi nomidan ham anglashilib turardi – Zapoloski¹. Sharqiy tarafdan ponasimon shaklda u jarlik sari tushib boradi, u yerlar ham Sapeginga qarashli, ulkan Oblogning bir bo'lagi, bevosita uning ortidan esa davlatga qarashli, zabit etib bo'lmaydigan Yalangiklar ko'karib ko'rindi. U doimiy tuman orasida yashaydi, uning tepasida abadiy yomg'ir shivalab turadi, chunki bolalarning tasdiqlanmagan ovozalariga ko'ra, o'sha yerda osmon

¹ Taram-taram bo'lib turish ma'nosida.

bilan yer zich birikib ketar ekan. Bu qadimiy qarag'ayzorning Ivan tomonidan, uning eng birinchi do'sti Demidka Zolotuxin sherikligida mufassal o'ylab topilgan tarixi shundan iborat ediki, daraxtlar u yerda qanchalik uzoq vaqt o'ssa, shunchalik baland ko'tarilib boraverar ekan, ularning baroq uchlari bulutlar orasida ko'rinxmay ketarkan, buning natijasida oddiy olmaxonlar ularning eng tepasigacha chiqib borib, hilolning nurida o'tirib, yong'oq chaqib yer ekan. U yerdan esa, tubsiz tosh jarlikka qo'l uzatsang yetadi va jarlikda daryolar ham, o't-o'lan ham, yerdagi g'am-qayg'ular ham yo'q, faqat giperboreya zulmati tutunlanib yoyilib ketgan, unga hattoki eng dovyurak odamning nigohi ham dosh berolmas emish. O'sha joy dunyoning eng chekkasi edi.

Aynan Oblog, qaramdorlik huquqi bekor qilinganidan so'ng ko'p o'tmasdan boshlangan, o'z vaqtida katta shov-shuvlarni qo'zg'atgan o'rmon tortishuvlarining sababchisi bo'lgan edi. Davlatga qarashli o'rmonlar juda olisda joylashgan, yaqinroqdagilari esa, turli-tuman tarixiy nasablarning vorislariga tegishli bo'lib, hammalari biri biridan nufuzliroq edilarkim, shu bois ham erkinlikka chiqqan *mujik*'larga o'rmon maydonlarini ajratib berish imkonsiz edi. Yengadagi aholi, yog'och oqizishdan tashqari, qadim-qadimdan yog'ochga ishlov berish hunarlari bilan shug'ullanib kelgan: qoshiq yo'nish, g'ildirak yasash kabi, – Krasnovershye aholisi esa asrlar bo'yli sandiqchilar sifatida tanilgan, binobarin, barcha boy kelinlarning seplari saltanatda faqatgina sirtiga rangli zarqog'ozlar katak-katak qilib qoplangan, qulflarida jaranglaydigan yupqa po'lat tilchasi bor, rangdor Krasnovershye qutilariga sarishta qilib joylanar edi. Toki o'z naslining so'nggi vakili, ozod etish islohotlarining ma'rifatli arbobi va Vizantiya yilnomalarining rus tiliga tarjimoni Ilya Apollonovich mulk egaligini qabul qilib olmagunicha, dehqonlar Sapeginlarning amlok-laridagi jo'ka va yosh emandan bermalol foydalanib kelganlar. Dunyoviy va diniy hokimiyat tomonidan mujiklar o'z yaqinlarini, hatto u amlokror bo'lsa ham, ranjitmasliklari lozimligi haqida ko'p mar-talab ogohlantirilganlariga qaramasdan, bundan hech qanday natija

¹ «Mujik» tushunchasi rus millatiga, rus xalqiga xos noyob hodisa, milliy qadriyat obyekti sifatida boshqa xalqlarda mavjud bo'lmagani bois, asarda unga qo'yilgan yuklamani saqlab qolish maqsadida ayrim o'rnlarda tarjimasiz, o'z holida qoldirildi (tarjimon).

bo'Imadi, binobarin, ma'rifatli tarjimon tipirchilab qoldi va har yili zarar ko'rayotgan xususiy mulkini himoya qilish uchun qonunga mu-rojaat qildi. Arxiv hujjatlari mavjud emasligi tufayli Ivan Matveich nizolashuvning qayg'uli hangomasi bilan yengalik keksalarning hi-koyalaridan shundoqqina inqilob arafasida tanishishga muvaffaq bo'ldi, aynan o'shanda nizolashuvning ma'muriy chalkashliklari ora-sidan xalq rivoyatining saqlanib qolgan butun jonli tafsilotlari yuz ko'rsata boshladi.

Avvaliga go'yo omad dehqonlar tomoniga og'a boshlagan-day edi. Ko'pincha vayronkor yong'inlardan so'ng bo'ladiganiday, Krasnovershyening ko'p martalab ko'chirilishi boisidan muzofot yer tuzilishi qaydnomalarida bu qishloq o'zi ko'rsatilgan joyda umuman mavjud emas edi va binobarin, o'rmonga zarar yetkazadigan odamning o'zi yo'q edi. Bu mansabdorlarcha ko'rlik bo'lib va buni davolash uchun Sapegin Rusda sinovlardan o'tgan bitta vositani qo'lladi – ko'zлarni kredit biletlari bilan artdi, shundan so'ng bir zumda ma'lum bo'ldiki, Krasnovershye rostdan ham mavjud ekan va uning asoschisi buzg'unchi Fedos o'z butxonasini aynan shu yerda, o'tib bo'lmashignabargli chakalaklarda joylashtirdi, uni yengaliklar chan-galzorlari va o'tib bo'lmashigiga ishora sifatida zulmat qal'asi deb atashadi. Ammo vaqtlar o'tishi bilan har doimgiday odamlar bilan qo'shnichilik oqibatida o'rmon kul, tutun va payrahalardan madorsizlandi, qolgan-qutganini esa, Fedosovning avlodlari daryo bo'yab oqizishdi, binobarin, o'rmonning ularga tegishli bo'lgan ulushini to'liqligicha olishdi deyish mumkin. Ish esa shu sabab bilan o'z jo-yidan qo'zg'almadiki, mulohazakor krasnovershyeliklar xuddi shu asnoda yilda ikki marta shaharga arzon o'tin, qarqur, qo'lda to'qilgan kanop mato va boshqa ko'pgina narsalarni tashir edilar va bu usul ko'p oilali qonunchilar uchun yaxshigina ko'mak edi.

Xuddi o'sha dehqonlar ovozasiga ko'ra, Sapeginning takroriy hadyasidan keyin, muzofot hokimlari hatto shuni belgilab qo'yishdiki, qochoq Fedosning timsolida o'sha yerdagi istiqomat-chilar Sklanda hukumatning ijozatisiz joylashib olganlar, demakkim, tabiat ne'matlariga ularning hech qanday huquqlari yo'q; ammo ma'rifatchi tarjimon intilgan krasnovershyelik mujiklar mavjudligini bekor qila olmadilar, amlokdorning mol-mulkini bir yuz ellik yil davomida o'g'irlab kelganlari uchun ulardan evaz ham undira olma-

dilar. Shunda Ilya Apollonovich ishni senatga oshirdi, ammo hukmdorning boshkentiga kirmoqlik dehqonlarning choparlariga ham taqilangan emasdi. Qariyalarning so‘zlariga ko‘ra, o‘sha vaqtga kelib, dehqonlar haddan tashqari junbushga kelgan holatda edilar. Uchta yondosh qishloqlar ham jalg‘ etilgan ulug‘ Krasnovershye yig‘inida taslim bo‘lmaslikka, dunyoga mashhur sandiqlarni tayyorlashni to‘xtatmaslikka, bobolar haqiqatiga, albatta, erishishga qaror qilingan edi.

Matvey Vixrov Krasnovershyening hisob bo‘yicha uchinchi elchisi edi. Avvalgi ikkitasi arzimas tan jarohatlarini aytmaganda, hech narsasiz qaytishgan. Tanlov Matveyga tushdi, avvalgi elchilarga ish bermagan abjirligi yoki gapga chechanligi uchun emas, aksincha, haybatli tashqi ko‘rinishiga qaramasdan, fe‘li favqulodda beazorligi tu-fayli. Uning bo‘yi shu qadar baland ediki, masalan, eshik tepadoridan engashib muzofot boshqaru idorasiga kirsa, hammalari tabiatning bu savlatli hodisasini ko‘rib, ixtiyorsiz ravishda o‘rinlaridan turib ketar edilar; o‘sha paytlarda u ellik yoshdan oshgan edi. Rus dehqonining ulug‘vorligi uning xotirjam, ashula aytayotganday ohangdor so‘zlashida, ozgina oq oralagan viqorli soqolida, qadimiy qahramonliklarga munosib og‘ir qo‘llarinling bosiqligida namoyon bo‘lib turardi. Bunday pahlavonning haqirona ta’zimi qonunchilik sohasidagi eng qotib qolgan yurakka ham ta’sir etmay qo‘ymasdi; Matveyning ko‘magida krasnovershyeliklar o‘sha paytdagi Rossiya davlatining arkonlariga o‘zlarining tinch, ammo xavf-u xatarlarga ham tayyor ito-atkorliklarini yetkazib qo‘ymoqchi bo‘lgan edilar. Aynan mana shu vajhga bog‘liq yana bir sabab ham bor edi: Matveyning inisi, Afanasiy, Sankt-Peterburgda farrosh vazifasini egallagandi, raqamli to‘qa taqib yurardi, demakkim, qonun sohasidagi yashirin yo‘l-yo‘riqlarni bilar va muvaqqat boshpana ham topib bera olardi.

Bu hodisa Ivanning xotirasidan tashqarida sodir bo‘lgan va u voyaga yetganidan keyingina choparni yo‘lga kuzatishning o‘tmish odatlari to‘g‘risida opasidan eshitib bilgandi: uni butun qishloq ahli safarga tayyorlashadi va qurblari yetganicha siylov keltirishadi – besh tiyin chaqami, bir burda nonmi, oyoqni isitish uchun bir parcha dag‘al matomi; keyin esa xuddi qabristonga kuzatayotganday diydiyolar qilib, uni qo‘llaridan tutganlaricha shamolga ham, kuzning qiyalab urib turgan yomg‘iriga ham qaramasdan, qishloqning chekkasigacha

borishadi, o'rmon, odamlar – hammalari unga ta'zim qiladilar, hat-toki yo'l chetida o'sib yotgan malla tusga kirgan tikendor oq karrak ham; uyog'iga chopar yolg'iz ketadi, yelkasida po'stloq to'rva, ushatilgan bir bo'lak non, o'sha nonni ushatgan uning, Ivanning, otasi edi... Matveyga ayriliq paytida juda ko'p topshiriqlar berildi, asosiysi shundan iborat ediki, o'rmon jamiyatga xudo tarafidan ato etilgan, uni tug'ilganidan beri qo'liga tabar ushlab ko'rmagan bittagina odamning qo'liga berib qo'yish gunohi azim bo'ladi. «Va yana, – yo'tal orasida uning ortidan qichqirib qolgan bo'ldi qarib-qartayib ketgan Zot chol, – sen ularga shuni misol qilib aytginki, Matveyushko, agar ming kishi bir kishidan o'g'irlayotgan bo'lsa, haqiqiy o'g'ri kim ekani hali ma'lum emas!»

Matvey Vixrov 1892-yilning rutubatli kuzida o'zining salib yurishiga chiqib ketdi va avvaliga go'yoki izsiz yo'qolib qoldi, keyin butun Rossiyaga butunlay kutilmagan yo'nalishda ovoza bo'ldi. Oqibatda shov-shuvlar olib kelgan daraklarga ko'ra, yarim yil davomida u sidqidildan va natijasiz, o'zini taomdan va xotirjamlikdan mahrum etib, erkakona ko'z yosh bilan allaqanday chala mavqega ega shaxs bilan uchrashishga harakat qilibdi, u kimsa qog'ozdag'i ishni hal qilish emas-ku, ammo arznomani oliy maqomli davlat arboblariga yetkazish imkoniga ega ekan, ammo lekin hech tutqich bermasmishda. Matveyning o'zini esa mirshablar ham, qo'shni xonardonlarning istiqomatchilari ham uning yomg'ir-qorlarda va sovuq-izg'irinlarda zax yo'lakda turib o'sha kasni sabr bilan poylaganlari uchun e'tirof etishdi va uni itoatkorligi uchun hatto yaxshi ko'rib qolishdi, general xotinlari esa uni gilam qoqishga yoki o'tin yorib berishga chaqira boshlashdi, u o'z qismat burchini anglagan ko'yi hamma ishlarni tekinga va kansuqum oliyjanoblik bilan bajarib berardi, lekin vaqt o'tgani sayin uning ko'ngli cho'ka boshladi, nihoyatda ozib ketdi, chunki bor-budini oxirgi uvog'igacha sarflab tugatib bo'lgandi. Va kutilmaganda parvardigor mujikning qayg'u-ohiga yetganday tuyuldi: uchrashuv kechalarning birida, ayni o'sha gavjum ko'chada, chala nufuzli shaxs shoshilinch zarurat yuzasidan jo'nash uchun xotini bilan chanaga o'tirayotgan paytida sodir bo'ldi.

Hamqishloqlari buyurganlariday, tiz cho'kkani holda Matvey qog'ozni qalpoqsiz boshining tepasida tutganicha u zotning oliy qarorini kutardi, – aytish lozimki, hatto ko'pni ko'rgan, hech narsaga ta-

ajjublanmaydigan Peterburg uchun ham bu yurakni teshib o'tguvchi ta'sirga ega tomosha edi, lekin chala nufuzli shaxs to'xtamasdan o'tib ketdi, uning rafiqasi esa ko'ylagining yengi bilan xalqning bitigini Matveyning qo'lidan yerga urib tushirdi. Chananing mo'ynali oyoq-yopqichi o'rab olindi, aravakash chap tomondagi qorato'riq chav-karni tizgin bilan niqtaladi va shu lahzada Matvey ikki sakrashda chanaga yetib oldi va mahkama surishtiruv hujjatlariga qaraganda, chala nufuzli shaxsga qunduzyoqasi ustidan musht tushirish yo'li bilan hushdan ketkazuvchi tahqirli harakatni sodir etgan va shunday shafqatsizlik bilan urganki, aytib o'tilgan mazkur shaxs joyida vafot etgan. Aytilganlarga shuni ilova qilish lozimki, onasining so'zlariga ko'ra, Matvey sharobga yaqinlashmagan, cherkov xizmatlarida oxirgi ta'tiliga qadar sobit turgan, qushchalarни tortinchoqlik bilan yaxshi ko'rgan, va umuman o'zidan kuchsiz bo'lgan har qanday jonzotni ayagan, lekin, demakkim, o'sha kuni ichidagi mujiklik dard-qayg'usi qaynab-toshgan va uning uzun, zambarakday og'ir qo'llari orqali otilib chiqqan... Xulqining yuvoshligi va tabiatga mehribonligi bilan Ivan Matveich otasiga tortgan, tashqi ko'rinishi esa ko'proq kichik gavdali, nolishni bilmaydigan, dehqonlarnikiga o'xshamaydigan nozik qo'lli, xushbichim onasiga, Agafyaga o'xshaydi. Qo'shnilar unga achinishar va o'zaro Ayiqbeka deb atashar edi.

Ortga, tark etilgan oilasi bag'riga Matvey uch yillar o'tib, bolakay Ivan yetti yoshga qarab ketganida qaytdi. Hali qishdanoq Vixrovlarnikiga mirshablar qatnab qolishdi, – bir safar go'yo yuzbo-shining kulbasi bilan adashtirganday, boshqasida suv ichishga kirgan bo'lishdi... Tunda kelishganiyam mayli, tungi paytda ham odamni tashnalik tutishi bo'ladigan narsa! – ammo har ikkalasida ham kun yorishguniga qadar qorong'ilikda, xarrakdasov uquqdan qaltirab o'tirib chiqishdi, davlatning xizmatidagi qorni to'q odamni bunaqa paytda uyqu bosadi-ku axir. So'ng hammayoq jimib qoldi, va bir payt sas-sadosiz yarim tunda Matvey eshik qoqmasdan o'z kulbasida paydo bo'ldi. Shuncha qo'riqchilarning ko'zları oldidan o'zining haybatli gavdasini qanday olib o'tgani, itlarni chalg'itgani, ichkaridan qulflangan darvozani qanday ochgani noma'lumligicha qoldi, – ammo xotini shovqindan ko'ra ko'proq tashvishli qaltiroqdan uyg'onib ketganida u allaqachon miz yaqinida, o'z taqdiriga loqayd ahvolda, derazaga orqasini o'girganicha o'tirar edi. U erini hali ko'zdan kechirmasidanoq

hammasini lahzada tushundi. Oymoma shunchalik yorqin yoritib turardiki, ko‘z xuddi yumib olgundai qamashadi.

– Mana men keldim, hurmatligim... – degan bo‘ldi Matvey, shu orada yonidagi xarrakning ustidagi bo‘z matoni siypalab qo‘ydi va boshini chayqadi, Agafya uni yaxshi titmaganini o‘zi ham bilardi: cho‘pchalarini ko‘p.

Boshqa daydilardan farqli o‘laroq, top-toza, sidirg‘a qora rangli, sarishta kiyingan – balki Shixanov Yam yo‘lida kimningdir egnidan yechib olgandir desa, deparada talonchilik yuz bergani haqida biror darak eshitilgani yo‘q edi. Hozirgi ahvolda go‘yo uyiga birrovga qaytgan savdogarga o‘xshaydi-yu, lekin sovg‘a-salomlarsiz, g‘alati, indamas, odatda tushda namoyon bo‘ladigan marhumlarga o‘xhash g‘ayrioddiy. Agafya chiroqni yoqmasdan, oyoqlarini supadan pastga tushirdi va erining yangi etigiga, uning tizzalari orasiga tushirilgan oppoq qo‘llariga qarab o‘tiraverdi. U o‘zi uchun nimanidir aniqlashtirib olish maqsadida Piterda ahvol qanday ekanini so‘radi; unisi esa Piterda turmush yaxshi ekani, puflama sozlar musiqasi kun bo‘yi yangrab turgani va chiroqlar tong shafag‘iga qadar o‘chirilmasligini aytди. Uning bu ahvolda qayerdan kelayotganini so‘rash xotinning kallasiga kelib qoldi: bunga javoban aytishicha, eng sovuq o‘lkalardagi xizmatidan ruxsat olib kelgan mish, farosatli xotin esa bu so‘zlarning ma’nosini chaqib, eri go‘rni nazarda tutayotganini tushundi.

– Buni qayerdan olding, Matveyushko?.. – hayron bo‘ldi xotin, chunki bunaqa etikni hatto savdogarlarga ham ko‘rmagan edi.

Matveyning ilgari qayta savol berish odati yo‘q edi: tinmay tez-tez devor ortiga qulq solib turibdi.

– Bu etiknimi? Yashirib nima qilaman, gunoh gunohga yetaklaydi! – va ehtiyyotkorlik bilan qahrli kului, bolalarni uyg‘otib yubormaslik uchun past ovozda kului. – Yeguliklaring bormi? Yo‘lda kelayotsam, Surchalovda oyboldirgon o‘tini qaynatib yeyishayotgan ekan. Juda yomon yashashyapti! Erlar ochlikdan qo‘rroq bo‘lib ketishibdi... hatto otlari ham zaiflikdan qirilib ketibdi.

Uyning xojasi shama orqali o‘ziga yegulik so‘rayotgani aniq edi, ammo Agafya bunga jur‘at qilolmadi, o‘liklarni mazaxo‘rak qilib qo‘ymaslik uchun ularni tiriklarning ozig‘i bilan siylab bo‘lmaydi. Shunda shikoyatlanib emas, ayyorlik bilan, ovqatdan niroyatda qiyanalib qolishganini, hattoki bukrigina qizlari tilanchilikka chiqmoqchi

bo'lgani, o'zi o'gay ona bo'lsa ham bunga ijozat bermagani va qarzga non olish uchun Zolotuxinning huzuriga borganini aytdi; Matvey qaytib kelishi bilan birinchi hosildanoq g'allani qaytarishini aytibdi-yu, keliniga ro'para kelib qolibdi. «O'zing bilasan, u juda vahshiy xotin, tili otqashlag'ichdan ham battar, naq go'shtinggacha tilib oladi. U meni butun qishloqqa shundog'am bir sharmanda qilishni boshladiki, Matveyushko, hatto oyoqlarim chalishib ketdi». Shunda, baxtidan bo'lib, Zolotuxin chol o'zi chiqib qolibdi, og'zi shaloqni haydavribdi, Agafyaga bug'doy o'lchab beribdi va keyin har shanba sharoqxonanidan keyin, yertaxtalarni yuvib ketishni buyuribdi. Matvey bu gaplar aytيلاتganida toshqotib o'tirdi va gapni uzoqdan boshlab, Zolotuxinning o'z xotini o'lik-tirikligini so'radi: esida, oyoq og'rig'idan nolib yurardi. Narigi dunyodan kelgan bu odam kam-pirning yarim yil burun omonatini topshirganini bilishi kerak edi-yu... shu gaplarning orasida Taiska o'choqso'ridan tushib kelganday bo'ldi, otasi qizining boshini silab, belidagi bukrichasi og'riyaptimi, yo'qmi, so'rab qo'ydi, Taiska ingichka ovozda, beli tuzuk ekanini, og'rig'i o'tib ketganini javob qildi. Keyin o'zinig fikr xulosasi bilan otajonisi hozir qaroqchilik qilmayotganmikan, deb so'radi, Matvey esa kulib yubordi: hozirgi yosh bolalar naq baloning o'qi-ya... Keyin rangi murdaday oqarib, qo'l siltab qo'yyaqoldi. Nimaga devor soat shu tunda juda qattiq taqillayapti-ya, Agafya esa soat borliginiyam unutib yuborgandi: xotirasi ketib qolibdi. Ammo ko'rganlari ro'yo emas ekan-da: ertalab ma'lum bo'ldiki, Taiska ham xuddi o'sha tushni ko'rgan ekan.

Bolakay Ivanga dadajonisi bilan tanishish rosa bir haftadan keyin nasib qildi. Mirshablar Matveyni Oblodga tutib olishibdi, o'sha yerlik asalarichining uyida; tentak pahlavon ham o'zining ahmoqligi va uyqusirashning kasofatidan bo'lib, himoyalanishga jazm qilibdi-da: qamoqxonaning kasalxonasiga hozircha yo'l yo'q edi: suv toshqini paromni uzib oqizib ketibdi, yangisini haydar kelishgunicha kutishga, yoki qayiqda jo'natishga mahbusning salomatligi yo'l qo'ymasdi. Matvey uyiga kechasi, uchlik kunining arafasida keldi. U silkinish paytlaridagi og'riqni sal pasaytirish umidida aravaning devorchasini qattiq changallab olganidan, barmoqlari ko'karib ketgan; u go'yoki o'choqlarning quyuq tutuni, muzlagan tuproq isi va chorva haydar kelinayotganida ko'tariladigan chang-g'ubor omixtasidan tarkib top-

gan rus qishlog‘ining xonaki, shundoq bir yoqimli isiga to‘yib olish uchun shoshilayotgan kabi tez-tez nafas olardi; miltiqning hamma o‘qi bitta qolmay uning qorniga joylab qo‘yilgan ekan. Tobutni yana o‘sha Sapegin o‘rmonining o‘g‘irlangan yog‘ochidan yasashdi, ammo to‘s-to‘polonda o‘lchovni noto‘g‘ri olib qo‘yishibdi, daha politsiya bo‘linmasining boshlig‘i jasadni kafillikka topshirayotib, qochoq jinoyatchini uzoq saqlab turmaslikni buyurgani uchun Matveyni tiz-zasidan bukib, tobutga amallab sig‘dirdilar. Eskilarning urfiga ko‘ra vidolashuv yurishi jamoatining eng oldida ikonani ko‘tarib borishni Ivanga, hali gunoh bilan bulg‘anmagan farishtavor qalbga topshirishdi. Shu marosim munosabati bilan onasi unga bisot qutisidan xuddi chapani yigitlarnikiga o‘xshagan, xishtak qo‘yilgan, qo‘ltiqlariga rangdor mato parchalari qo‘shib tikilgan yangi ko‘ylakni olib berdi. Otasining dafn marosimi yetti yoshli o‘g‘ilning xotirasiga bolalikning ulug‘ bayrami sifatida muhrlanib qoldi. Masalan, shunisi yodda qolarli bo‘ldiki, bu musibatdan ko‘ngli sal yumshab turgan Zolotuxin unga yarim tanga ehson qilmoqchi bo‘ldi, lekin shu zahotiyoy fikridan qaytib, shu tanga miqdorida yalpixli shirinkulcha tortib berdi, kambag‘al nochorlar esa, hech bo‘lmasa yo‘l-yo‘lakay bolaning boshini silab erkalab qo‘yishga harakat qilishadi. Ivan Matveichning xotirasi turmushning qandaydir o‘chmas shodligi bilan yog‘dulangan shu g‘ala-g‘ovurli kundan boshlab mustaqil ishlay boshladи.

... Dunyoda hali chalg‘i tig‘ini tatib ko‘rmagan dala gullarining rangin naqshlari hammayoqda bo‘y ko‘rsatgan, kurtakdan bosh ko‘targan yaproqlar endi-endi mayin shivirlashni o‘rgana boshlagan, o‘rmon bag‘ridan giyohlarning xush isini to‘yib-to‘yib shimib olgan muzday izg‘irin hali o‘z sayrini to‘xtatmagan faslning yil bo-shidagi kengliklaridan ko‘ra rohatbaxsh chog‘lar butun dunyoda topilmasa kerak, – sarxush etuvchi bu jozibaning yakuniy maqsadi ho-zircha ma’lum emas, ammo borliqdagi hamma mavjud moddiyotga bir tomchidan hayot bolini totib ko‘rish uchun hadya etildi va oyoq ostida toptalmagan o‘t-o‘lan quyoshdan taft ola boshladи, oldinda nima kutayotganidan qat‘i nazar, uning ustida oyoqyalang yugurging keladi, oldinga, faqat oldinga, toki yurak to‘xtab qolguncha!.. O‘sha unutilmas kunda havo ertalabdan qizidi, yomg‘ir oldidan bo‘ladigan dimlik butun tiriklikni holdan toydira boshladи va agar o‘ydim-chuqr arava yo‘lining toshqotib ketgan do‘ngliklarida tebranib kelayotgan

g'ildiraklarning taqir-tuqurini hisobga olmaganda, tabiatda favquloda sokinlik hukmron edi. Ko'zlarda yosh yo'q, marhum uchun burdalangan non bo'lagi ustida ham yig'laganlar ko'rinnmaydi, Matveyni so'nggi yo'lga har kim o'zicha kuzatmoqda: qalpoqsiz yo'lovchilar yo'l chetiga chekinib turadilar, yuqorida to'rg'ay qisqagina chirillab qo'ydi, to'shama taxtalarining orasi tirkishlanib ketgan ko'prikcha ustida bir paytlar Matvey olamni hayratga solib, g'ildiragi o'sha taxtalar orasiga tushib ketgan pichan bositgan aravani yelkasi bilan ko'tarib chiqargan edi, o'sha ko'prik yog'ochlarining har biri jasad bilan alohida vidolashib qoldi.

Qabristonga hammalari bo'sh qo'l bilan borishmoqda, faqat Ivashkagina Demidka Zolotuxinning hasadini keltirganicha, ikona ko'tarib ketmoqda. U nuqul ko'maklashvorishga harakat qiladi, muqaddas buyumni o'ttiz besh qadam bo'lsayam ko'tarib borsam deydi; Ivan zavqni hamma bilan baravar baham ko'rish kerakligini bilib tursa ham, ammo oshnasi uni qaytarib bermasligini ham yaxshi tushunardi.

— Og'irmi? — har besh qadamda so'rab qo'yadi Demidka ikonaga ishora qilib.

— O'rtacha desayam bo'ladi... xullas ja unchalikmas, — mujmal bir qiyofada javobdan qochadi Ivan.

Matveyni Zolotuxinning bo'z baytali olib ketyapti, g'ashiga tegib tinch qo'ymayotgan so'nalarni dumi bilan zo'r berib haydaydi, uning yon tomonida ozg'ingina quluni yugurib ketyapti, u goh-gohida qiziqib boshini ko'tarib qo'yadi: xo'jayinning aravasida qora kiyungan mujik qayoqdan paydo bo'lib qoldiykin. Shu tarzda Demidka, otasining mulki bahonasida bu unutilmas hodisada qatnashib qoldi. Matvey ortda qolib ketgan paytda bolalar shirinkulchalarga sherik-chilik qilib, ikonani tomosha qilishdi: qora kiyim kiygan va oppoq xoch ko'targan, boshiga qanorning matosidan qalpoq kiygan, qarib-qartaygan chol erlar o'z majburiyatlarini bajarayotgan paytlarida bolalar bundan buyon to's-to' polon qilmasliklari uchun churvaqalarga qahrsizgina ikki barmog'ini o'qtalib turardi. Cherkovda so'ligan oq-qayin novdalarining isi nochorgina taralib turibdi. Rohib ota itoating foydasi va sarkashlikning ziyoni haqida tushunarsiz ming'irlab, ma'ruza qilgan bo'ldi. Ivashkaning dadasini o'ranga arqon bilan tushirishdi va tubidagi sariq qumga avaylab joylab qo'yishdi. Shu paytda

o‘z sheriklaridan kechikkan qora bulut qabristonni chetlab o‘tarkan, go‘yo havoni o‘rtasidan yormoqchi bo‘lib, yomon miltiqdan otilgan o‘q kabi zaif qarsillab qo‘ydi.

— Sen esa odamlarning oldida ko‘nglingni g‘ashlama, parvar-digoringga nola qil, dilingni bo‘shat, aqlning ovoziga qulq sol, — toshqotgan Agafyaga tamshanib gapirarkan, ho‘llanib ivib ketgan epitraxilini yechib, bevaning ko‘zidan yengillik baxsh etguvchi yosh-larni keltirishga urindi. — Endi uning ahvoli bizdan ko‘ra ancha yax-shi, tashvishlari aridi... Balki narigi dunyoga choparlikka ketgandir! Endi uning barcha to‘sqliari ortda qoldi!.. Va yomg‘irdan so‘ng pushti tusga kirgan va saroyning keng ochilgan darvozasini eslatuvchi bu-lutlarga ishora qildi, o‘sha paytdagi bola Ivanning tasavvurida xuddi keng odimlab borayotgan yo‘ichi kabi Matvey ham o‘sha yerga yo‘l olgan edi.

Shuni aytish lozimki, Ivan Matveich bu voqeani hech qachon shax-siy varaqlarida qayd etmadi, o‘z shaxsiy faoliyatini oqlash uchun otasining sarguzashtlarini havola etib maqtanyapti deb o‘ylashlarini istamasdi.

3

Demidka bilan yaqin bo‘lib qolishi shundan boshlandiki, Ivan u bilan dafn shirinkulchalarini teng bo‘lishdi; yaqin yillar davomida bu holat ajralmas do‘stlikka aylandi. Demidka undan ikki yoshlар cha-masi katta edi va ularning har ikkoslari bir xilda o‘zlaricha yashash-di, otasizlarcha. Keksa Zolotuxin o‘z oilasini tekin xizmatkor sifati-da ko‘rar, eng kenjasini esa hozircha na aravakashlikka, na idorada o‘tirib ishlashga yaragani boisidangina boylik orttirish vositasiga aylantirmayotgan edi. Bolalarning do‘stligi kun sayin mustahkamlanib bordi: Ivanning tabiatni o‘ta kuchli his etish tuyg‘usi uni qo‘li uzun, og‘zi katta Demidkaga jalb etar edi — boshqalarga jigarrang ko‘zlar, o‘z yaqiniga nisbatan shafqatsiz yurak yoki chaqqon oyoqlar beril-gani kabi, unga g‘aroyib va tug‘ma xislat berilgandi. Ivan qizilish-tonlarning odatini saatlab tomosha qilib yurishi va butun Zapoloskka tarqalib ketgan son-sanoqsiz chumolilar shaharlarining tiquilinchini kuzatib o‘tirishi mumkin edi. Hamma yerda u tanlab qo‘yan in, uya, asalarilar yashaydigan daraxt kovagi bor edi va o‘z faoliyati taqozosi

bilan zarur bo'lib qolganida u o'rmonga yo'l olar, hech adashmasdan, xuddi o'z uyidagi javonnig g'aladonida turganday, biror qush polaponini yoki g'alati qurtni topib olar edi, balki ularning o'zi bu boladan zarar yetmasligini bilib, o'zlarini unga topshirishgandir!.. Xuddi o'sha paytlarda Ivan har bir sirning ilmidan beg'araz qoniqsa, Demidka ularning birligindagi har bir ishlariga hozircha bezarar bo'lib turgan bolalarcha tijorat unsurlarini kiritib turardi. Ruhlarida tobora kuchayib borayotgan dovyuraklik, har qanday havo ra'yida ham qavmning cherkov mактабигача bo'lgan masofani har qanday yo'nalishda to'g'ri chandalash salohiyati va yangiliklarni kashf etishga bo'lgan tashnalik ularni yanayam kengroq geografik tadqiqotlarning kengliklariga olib chiqdi. Xuddi ularning yoshlariдagi insoniyat kabi, ularga o'z manzillari torlik qilib, vujudlariga sig'may qolgan kuch-quvvatlarini g'aroyib noma'lumliklarni zabit etishga sarflashga undayverar edi. Oblogning ortiga – dunyoning eng chekkasiga safar qilish g'oyasi shu asnoda uyg'ondi.

Mohiyatan, bu qaror chakalak o'rmonning va qorong'i tunning barcha qora kuchlariga qarshi chiqish azmi edi. Aynan Oblog va Yalanglik chegarasida o'ta bahodirona gavdali va turli g'alati shumliklarni o'ylab topuvchi dahshatli mavjudot, ayniqsa savdogarlar tabaqasi uchun xavfli bo'lgan qo'rqinchli Kalina Timofeyevich yashaydi. Bolalar uylaridan uzoqroqqa ketib qolmasliklari uchun ularni qo'rqitish maqsadida qadimlarda xotinlar to'qigan cho'pchak, yillar o'tib yuzaga kelgan va puxtalik bilan rivojlantirilib qayta ishlangan afsonaga ko'ra, bir kuni tong yorug'ida o'zining savobli mehnatini bajarishga chiqqan qariya Fedos daryo qirg'og'i yaqinidagi qiyalikda cho'zilib yotgan, biqiniga tig' sanchib yaralangan pahlavonni ko'rib qolibdi va emishki, o'sha odam shaxsan Razinining podshoh jallodidan qochgan yordamchisi ekan; ana o'sha kimsa Kalina edi. Biladigan kishilarning xabarlariga qaraganda, o'sha Fedos uni shudring suvi-yu, ko'ktar¹ mevasi bilan to'ydirish vositasida Kalinani ruhini qutqarishga og'dirish tomon qanchalik undamasin, u o'zining yaramas kasbini tashlamabdi. Rostdanam, inqilobdan sal oldinroq qo'ziqorin teruvchilar va ovchilar Oblogda mashhur Loshkaryov bozoriga borish yo'lida oltin tufayli jonidan ayrilgan noma'lum tijorat va sanoat arboblari-

¹ Ko'ktar – golubika.

ning suyaklarini topdilar; yengalik boyonlarning bobolari Kalinaga yo'liqib qolmaslik uchun yetti chaqirim masofani aylanma yo'llar bilan bosib o'tganlari bejizga emas. Xullas, nima bo'lganida ham, Yenganing kechalari judayam uzun, payrahachiroqdan ham kamchiliklar yo'q... bundan tashqari, kampirsholar hosildor yillarda juda gapdon bo'lib ketishadi, bolalarning qalbida esa bahodirlar o'tmishining har qanday sharpasi kuchliroq aks sado beradi.

Bu paytda bolalarning ikkovi hisob fanining to'rtta qoidasi bilan hamda chalkash, tasavvurni telba-teskari qilib yuborguvchi injiliy ilmi hay'at bilan tanishib bo'lgan edilar. Ivan anchadan beri dunyoning chekkasiga oyoq bosish va umuman olam tuzilishining turli jumboqlarini o'rganishga qasd qilgan, ammo bir o'zi borishga Kalinadan qo'rquvda edi, shu bois yaqin o'rtog'iga Yalanglikka borish bo'yicha pishib-yetilgan rejasini ma'lum qildi.

– Bitta ko'z bilan mo'ralasam bo'ldi – darrov ortga qaytamiz, bo'lmasa boshing aylanib ketadi. Voydod deyishga ham ulgurmasindan, qa'riga tortib ketadi.

– Gapini qara!.. sen bilan meni kim ham tublikka tortib ketardi? – o'ziga qattiq ishonganicha qiyshangladi Demidka.

– Girdob.

– Yana qanaqa girdob?

– Qanaqa bo'lardi, girdob-da... Cherkovda kuylashadi, eshitganimisan?

– A, umi... – masxaralab javob qildi Dëmidka va o'zining qancha payt muvozanat saqlab tura olishiga qiziqib, bir oyoqlab turib oldi. – Bunisi tortib ketolmaydi, oshna. Men seni tovoningdan ushlab turaman, bo'kib qolguningcha tomosha qilaverasan.

Qo'qqisdan u chap ko'zini qisdi va har doimgiday xayoliga tekin foyda olish kelib, lablarini yaladi.

– Senga nima bo'ldi? – bezovtalandi Ivan.

– O'ylayapman... o'zimiz bilan qop ovolamiz!

– Nimaga?

– Balki xazina toparmiz. Kalina Fedosning yoniga quruq qo'l bilan bormagandir, axir?.. o'zining g'aznasini qayoqqa yashirgan?.. Stenkada qancha boylik bo'lganini bilasanmi? Davlati ko'pligidan hatto kemaga og'irlik qiladi deb, daryoga uloqtirgan, shunaqa!

Ikkovlariyam qurbanlik uchun Volgaga tashlab yuborilgan baxtiqaro fors malikasi haqidagi qo'shiqning mazmunini emas-u, asosan xirgoyi ohangini eshitishgan edi. To'g'risini aytganda, Ivanning o'zi ham Taiska tilanchilik qilib yurmasligi uchun Stenkaning xazinasi dan bir-ikki so'm undirib qolishga qarshi emasdi: opasiga judayam rahmi keladi. Shuning mulohazasi bilan Ivanning kallasiga ikkinchi o'rtog'ini, nochorligidan qishloqda salkam yalang'och yuradigan, ammo o'ta darajada kuchli Panka Letyaginni ham olib ketish fikri kelib qoldi, ammo Demidka xazinani uch kishiga bo'lishmaslik uchun bunga qarshilik qildi, ularning munosabatlari buzilishi shu birinchi kelishmovchilikdan boshlandi.

Ular tushlik vaqtigacha qaytib kelish uchun erta tongda kun yorisha boshlashi bilan chiqib ketishga kelishishdi, ammo Zolotuxin o'g'liga yog'dan bo'shagan shishalarni yuvib qo'yishni buyurib qoldi va bolalar idishlarni daryo bo'yida qum bilan qichitqining omixtasida yuvib bo'lgunlaricha shudringlar ham qurib bo'ldi...

Ular Oblogga Loshkaryovning katta yo'li tomondan yetib borishganida quyosh tikkaga kelib turgandi. U yerlarda kuzda, katta bozorlar mavsumida ham o'zi aravalar juda kam o'tadi, hozir esa atrof butunlay vahimali va kimsasiz edi. Tosh terilgan va kapantaxta bilan do'mbaytirilgan katta yo'l o'rmon so'qmog'ining yashil zulmatiga qo'shilib ketadi va shu ondayoq turg'un zaxlik va qandaydir pistirmaning yovuz rutubati ufurib turgan pastqamlikka tushib boradi. Nima uchun yo'lovchilar Kalina yo'lkira g'aznaxonasiga uchbekat qolganidayoq Guriyaga, Samonga va Avivaga ibodat qila boshlashlari tu-shunarli bo'lib qoladi.

— Qaragin-a, o'rmonga boradigan birorta iz ham yo'q ekan... — atrofga xavotirli ko'z yogurtirib pichirladi Demidka. — Adashib qolmaslik uchun ip tortib borishning ayni vaqt.

Ivan indamadi va bir chekkada yolg'iz turgan oqqayin tomonga imo qildi; kimdir qachonlardir uning shoxining ayrisiga zanglagan taqani bekorga qistirib ketmagandir, axir... Vaqtlar o'tib taqa qoq yarmigacha daraxtning oppoq etiga botib ketibdi. Yalangliklarga bu-yuk o'tish aynan shu yerdan boshlanardi. Yuzlab yosh archalarning beshigiga aylangan yo'sin bosgan xoda — o'rmon devining qabri yo'lni shartta to'sib turibdi. U xuddi tobut qutisi kabi qarsillab, Demidkaning oyog'i ostida og'ib qoldi — u oyog'ini tortib olishga arang ulgurdi,

ammo darhol buning ortidan chirmovuqlar va yo'sin namati tagida eski so'qmoq ko'rindi. U bolalarni bajon-u dil yetaklab ketdi, lekin nima uchundir daqqa sayin qayrilib-burilib, hayvon so'qmoqlari bilan to'qnash kela-kela tobulg'i hamda valeriana qoplagan mayin, jozibador botqoqliklarga boshlab keldi. «Ayyorlik qilyapti...» – o'zining kuchliligidan g'ururlanib ishshaydi Demidka. Shu joylarda o'rmon judayam zax edi, daraxtlarning tagi suv shimb, xuddi kuydirilganday qorayib qolgan, ularning tanasidan yo'sinlar xuddi uvida kabi yergacha osilib tushgan. Chakalakzor o'zini qashshoqlikka solib, tortib olishga arziydigani hech narsasi yo'qligini ko'rsatgan bo'ladi va goh pishib yetilgan tarmevalar bilan qoplangan sayxonlikdagi xo'jag'atzor tomonga jalg etadi, bir qarasang, polaponlari ancha ulg'ayib qolgan qush uyasini muzd sifatida taklif etadi, boshqa chorasi qolmagach esa, yiqilib yotgan qora qarag'ayning il-dizidan chiqib kelganday, uzun ro'dapoga burkangan, baland uchli qalpoq kiygan taqvodor rohibga o'xshagan ulkan qora archa bilan qo'rqtimoqchi bo'ladi; o'rmonning aynan shunday oddiy hylalari yo'Ining to'g'riligidan dalolat beradi. Ivan ko'zlaricha qoldirdi boryapti, o'rmonning chalkash alifbosida birorta belgini nazardan chetda qoldirmaslikka harakat qiladi – qandag'ochning po'stidagi yaqindagina bug'u g'ajigan jarohat, qizilishton sochib ketgan bir hovuch qipiqlik yoki kutilmaganda ko'zga tashlangan adirdagi butun boshli nordono^t oilasi; va insoniyat tarixida g'aroyib qit'alarni ochgan kashshof ortidan doimo ko'zi bilan foydani chama lab borayotgan savdogar ergashib yurgani kabi, – bolakay Ivan ning ortidan ham amr farmo, tadbirkor Demidka qopini ko'targanicha jimgina odimlaydi.

Avvaliga jimgina borishayotgan edi, lekin dam olishga to'xtaganlarida qidiruvlarning uslubi to'g'risida qizg'in bahs boshlandi. Ma'lumki, Yengadagi jodulangan joylar tangador Pyotr xochining och tusli nihollaridan tanib olinadi, binobarin, odamni chal kashtirish uchun ular Yenga qarag'ayzorlarida uyum-uyum bo'lib o'sgani bois, faqat qorong'ida moviy tusda yorishib turganini tanlash kerak va darhol uchini uzish lozim, aks holda yarim chaqirim chuqurlikka yer yutib ketadi! – qadimgi xazinalarni asrash uchun qo'riqchilikka qo'yilgan jodu kuchlaridan himoyalanish borasida bo-

^t Nordono – kislitsa, kislichka.

lalarning yuragida tabiiy xavotir paydo bo‘ldi; har ehtimolga qarshi qochib ketmaslikka, eng shoxdor alvastini ko‘rganda ham arillamaslikka o‘zaro qasam ichishdi. Ziddiyatlar pullarni qanday istifoda qilish masalasida yuzaga keldi: Deniska xo‘rozqand va boshqa erka-sho‘xliklarning o‘rniga aravasi va barcha abzallari bilan, kumush egamalar-u, jarangdor qo‘ng‘iroqlari bilan uchtdan ot sotib olishni talab qildi, – ulg‘ayib olgunimizcha qoziqda bog‘loqlik turishsin!

– Senga buning nima keragi bor? – hayron bo‘ldi Ivan.

– Nega bo‘ldi, aravakashlik qilamiz! Aravakashlar uchqur ot qo‘yishlar uchun savdogarlardan qancha pul shilishlarini bilasan-mi? Bultur-chi, Gankamizga bittasi mast holida yonar ko‘zli katta uzuk bervoribdi. Otni xarob qildi-yu, ammo otasi Gankani koyib qo‘yganiyam yo‘q!

– Toshi-chi?

– Yonartosh dedim-ku!.. Qorong‘ida rostakamiga yonadi, tamaki tutatsang ham bo‘ladi.

– Qasam ich!

– O‘rnimdan turolmay qolay, o‘zim ko‘rdim. Kechalari o‘g‘rilardan yashirib, xurmachaning ichiga solib qo‘yyapti.

Vasvasa kattagina edi, Ivan o‘ylanib qoldi:

– Bor-e, o‘rgildim otlaringdan! Kechasi arava haydashga to‘g‘ri kelar ekan-ku...

– Biz Panka Letyaginni yollab olamiz, yigirma besh so‘m uchun tiriklayin ko‘mib yuborsang ham g‘iq etmaydi, shunaqa! Bundan ortig‘ini to‘lab bo‘lmaydi unga, haddidan oshib ketadi: birovning dera-zasi tagida manqalanib tilanchilik qilganidan ko‘ra ishlasin.

Ivan indamadi, lekin yuvoshgina oshnasi uchun ranjigani bularning do‘sligidagi ikkinchi darz bo‘ldi.

Yashil zulmat asta-sekin siyraklashib, erib keta boshladni, qizil o‘rmon esa qurib, endi sovib borayotgan quyoshning zarg‘aldoq nurlariga bo‘yalgan, ko‘zni quvontiruvchi oqqayinlar bo‘y cho‘zib turgan sayxonliklar bilan o‘rin almasha boshladni; sokin oqshom qo‘nmoqda. So‘qmoq bezovta tipirchilay-tipirchilay bolalarni shovullab turgan qorong‘i jarlikka qiyalab tushib boruvchi o‘tloqda tark etib jo‘navordi. Narigi tarafda, olisdanoq chirkay hidli issig‘i bilan kuydirib turgan Sirli Yalanglik yaltirab-yarqirab, bo‘rtiq-bo‘rtiq supachalar bo‘ylab tog‘ga ko‘tarilib ketgan.

O'rmon hech qanday butalarsiz va yosh nihollarsiz to'g'ridan to'g'ri boshlanib ketgan. Quchoqqa sig'maydigan, bo'yi-bo'yiga mos qarag'aylor u yerda xuddi osmonning tirkaklari kabi baland o'sib turibdi. Bu ulkan nayzazorning ortida kimning kulbasi joylashganini osongina fahmlab olish mumkin. Xo'jayin uxmlashga tayyorlanmoqda, olisdan ko'rinish turgan, asr yoshidagi sindirilgan daraxt xuddi shlagbaum singari uning mulkiga o'tish yo'lini to'sib qo'ygan. Modomiki Kalina o'zining uchar tingchi¹larini ularning qarshisidan jo'natgan ekan, demak ular xavfli odam kelyotganini xojalariga allaqachon yetkazib bo'lishibdi. Unda-bunda moviy ninachilar uchib o'tib, sokin suv yaqin orada ekanining xushxabarini beradilar; asalarilar kela solib, o'zlarini o'tgan yilgi o'tin sarjinlarini qoplab olgan qizilbarg o'tlarining yorqin alangasiga o'zlarini uradilar va baxmal chakmon kiygan amaldor to'ralar kabi tukli arilar shoshmasdan u yoq-bu yoqqa viqor bilan uchib turibdilar. Paydan tortilgan cholg'u tori yaltiroq gul changining bol iforiga to'yingan quyuq havoda past ovozda sokin kuylaydi. Va xuddi bayramga kelgan jodugar kabi, olislarda chaqmoq urib sindirgan vahimali, ko'm-ko'k uvadalarga burkangan qoraqarag'ay mung'ayib turibdi; uzunasiga tushgan yoriq bolalarni Kalinaning changalidan ogohlantirib, oxirgi marta zo'riqib ingraydi. Ammo chekinish yo'li to'silib bo'lgandi: orqa tomondan ularning izlaridan qorong'i tun bostirib kelyapti. Nonlari tugadi, tashnalik qiyaydi... ammo bolalarning xazina izlovlchilik sezgisi ularning manzilga yetib kelganlarini anglatishi uchun naq bir soat vaqt kerak bo'ldi.

– Endi uya qanday qaytamiz? – baxt shodlyonasi arafasida Demidkaning qo'rquvi kuchaya boshladi.

– Yaxshisi ovozingni o'chir, hatto pichirlashingni ham eshitib qolishi mumkin...

Issiq harorat o'zining o'rminisovuuqqa bo'shatib bera boshladi, iginabarglar esa shafaqning oltin rangiga bo'yalgan bargli daraxtlar bilan almashinmoqda. Soyalar uzayib boryapti, orqaga yo'lni yo'qotib qo'yishdi. Ammo Kolumbning omadli xatosi takrorlandi: bolalar oltin to'la yo'lxalta o'rniga yangi dunyoni izlab topishdi. Ularning ko'z oldilarida top-toza, asosiysi uzoqdan payqab bo'lmaydigan jar ko'rindi, birorta xas yoki yiqilgan daraxt, shox-shabbalarga, hozirgina

¹ Tingchi – istixborotchi, razvedkachi.

o'rilgan kabi iliq, tekis o'tloqlarda bosh ko'targan birorta chechakka ko'zinigz tushmaydi, hatto qushlar chug'uri yo'q, go'yo bu yerlarda shovqinlash ham taqiqlangan, shekilli. To'satdan tushunarsiz muzday epkin yuzlariga urdi va kashfiyotchilik hissi bolalarga bu yerda deparadagi va hattoki, butun dunyodagi eng muhim xazina qarshisida turganlarini sezdirib turardi. Kalinaning mizi ekani shubhasiz bo'lgan ulkan yassi xarsang jarlikning tubida, qadimiy jo'kalarning soyasi tagida yotibdi. Va xuddi yaqindagina g'ajilgan qurbonning qon tomchilariga o'xshab, olisdagi daraxtlarning shu'lalari cho'tir bosgan tanalarini qoplagan zamburug'larning rangidan go'yo olovlanib turganday ko'rindi. Bolalar pastga tushishdi va muqaddas ma'badning devorlari ostida sukut saqlab turgan ziyoratchilar kabi boshlarini egib sukutda qolishdi.

— Mana u... — tantanavor va tushunarsiz ohangda pichirladi Ivan.

Bu oddiy bir buloqcha edi, xolos. Toshning ostidan go'dakning kaftidan katta bo'lмаган makonda chashma suvi qaynab chiqyapti. Ba'zan u jahldor oqim bo'lib kuchayib qo'yadi, ketib qolishini bildirib tahdid qilgan bo'ladi, o'shanday paytlarda uning bir maromdag'i, to'xtovsiz urib turishida qum donachalari o'ynab turganini ko'rib turish mumkin edi. Uni tomosha qilib turishga butun bir asr ham yetmagan bo'lardi. Shu yerdan irmoqcha boshlanadi, avvaliga uni qo'l bilan ham boshqa tomonga burib yuborishi mumkin, ammo boryo'g'i ellik qadamlardan keyin suv yuvgan mayda toshchalar bo'ylab uning mustaqil jildirashi boshlanadi.

Bu — Yenganing birinchi irmog'i bo'l mish Sklanning beshigi edi, unisi esa o'z navbatida shimoliy pasttekislikni shovullagan shiddati bilan ikki qismga bo'lib turuvchi buyuk rus daryosining katta qizi hisoblanardi, binobarin mamlakatning teng yarmi shu jarlikdan qaynab chiqqan hayot suvidan baraka olmoqda.

Uningsiz bolalar dunyoga kelmaydi, non ham, qo'shiq ham bo'lmaydi, bu suvning bir qultumi ham bobolarning shuhrati ming yillarga tatiyidigan qahramonliklar ko'rsatishlari uchun yetgan bo'lardi. Yaqin atrofda tuproqtepalar ham, qal'a devorlari ham ko'rinnmaydi, ammo davlatning butun boyligi — tepasida qora bulutlar suzib yurgan, shudgorlangan bepoyon dalalar, kitob omborlari va qudratli sanoat va uning tegrasidagi o'rmonlar va tog'lar — chashmaga mustahkam va ishonchli qobiq edi. Demakkim, hech kim bu tuproqlarga yashirinch

kirib kelmasligi, harom oyog'i bilan sof oqimchani loyqalatmasligi va bulg'amasligi uchun xalq irodaning va kuch-quvvatning o'tib bo'lmas istehkomini barpo etadi, o'z sarhadlarida xo'mraygan lashkarni saqlaydi, o'zining eng qimmatli qadriyatlarni uyqusiz qo'riqchi sifatida oldingi marraga qo'yadi. Bularning barchasini Ivan o'sha kech hali bilmasdi, ammo keyinchalik hech qaysi vaziyatlarda o'zini o'shanda himoyasiz bo'lib ko'ringan chashma oldidagiday notavon his qilmasdi, hech qachon bundayin yorqin, sababsiz zavqni his etmadi.

Hayajonlari bosilgach, bolalar tizzalab o'tirib suv ichishdi va damlarini olib bo'lib, yana suv ichishdi – bir umrga yetadigan qilib ichaverishdi-ichaverishdi, chunki bu yerda ular olib ketsa bo'ladigan boshqa hech narsa yo'q edi.

– Kuchini qara, yerning tomiridan urib chiqyapti, – maqtan qo'ydi Demidka labini ko'ylagining yengiga arta turib. – Og'ziga tosh bosti-rib ketsak nima bo'larkin?

– Yerni shartta yorib tashlaydi. Buning qudratini bilsang edi!

To'satdan sokinlikni qorapat qizilishtonning qichqirig'i buzib yubordi, unga keyingi soqchi qush qo'shildi, so'ng navbatdagisi – hammalari o'zboshimcha mehmonlarning tashrifi haqida kimadir xabar bermoqda edi, – ana endi bir falokat yuz beradi-yov. Daraxtlarning uchlaridan notinch bezovtalik yugurib o'tdi. O'rmon tezlik bilan zulmatga chulg'andi; o'rmon ichkarisidan tuman o'rmalab chiqdi, bolalarning etlari junjikdi, bu qo'rquvdan edi. Ko'zlar qorong'ilikda goh ulkan burun teshiklarini ko'rib qolishadi, go'yoki u odam izlari ni iskab kelyotganday, goho esa yarmini. ko'z qovbg'i yopib turgan qorachiq ko'rindi va bolalarni chalg'itish maqsadida o'zini ulardan narilarga tikilib turganday ko'rsatmoqchi bo'ladi. Bolalar muqarrar hamlalarni kutib, bittagina qopni yopinib olganlaricha, bir-birlariga shunday qapishib oldilarki, agar keyingi yillardagi qudratli hodisalar yuz bermaganida, ularni to ajallari yetguncha hech qanday kuch ajratib yuborolmagan bo'lardi.

Qorong'ilikda allanimadir o'zlariga o'qiladigan hukmni qaltirab kutib o'tirgan bolalarni mazahlab kula boshladi.

– Ana u, uni ko'ryapsanmi? – shivirladi Ivan, Demidning tizzasini qattiq changallab.

– Qaysi tomonda?

– Ana, daraxtning tanasiga biqinib turibdi... kallasi aspona.

Demidka uni ko'rib qaltirab qoldi:

– Uuu, nazarimda emaklab kelyapti! Xullas, og'ayni, ishimiz zangladi deyaver: endi nafas olmay tur.

Ko'rgilik shundan boshlandiki, ikkita daraxt ochiqchasiga bir-biri bilan o'ren almashdi, xuddi baliqchilarning yoki ovchilarning quritisha ga qo'yilgan to'rlari kabi butalar ustiga osilib turgan oqish qorong'i lik ora-oradan teshilib-yirtilib, orasidan bemalol o'tib ketish mumkin bo'lgan tirqishlarni hosil qilgandi. Buning ortidan uzun yarimshaf-fof vujud soyning tepasida tipirchilab, oddiy odam o'lchamlarigacha kichraydi-da, bolalar tomon yurib kela boshladi. Otning bosh suyagi oddiy soqol bo'lib chiqqanini ko'rgan bolalarning yuraklari salgina tinchlandi. Bu holat shuni anglatar ediki, eng katta xo'jayin arzimas sabablar bilan o'z uyasini tark etishga erinib, Sapegin qo'rg'onidagi mashhur Averyanich kabi o'z sohibining huzurida ish boshqaruv-chilik qiladigan a'yonini yuboribdi.

O'sha vujud yaqin keldi va bolalarning tepasiga engashdi.

– Sizlar nega qo'ziqoringa o'xshab yo'l ustida o'sib turibsizlar? – muloyim ohangda so'radi yarimxo'jayin va qo'lini ko'ylagi-ning ichiga tiqib, miriqib qashinib oldi, shu turishida uni alvasti emas deb o'ylash ham mumkin edi.

– Suv ichib olish uchun keluvdik, bobojon, – bir ovozdan javob berishdi xazina izlovlchilar va alvastining rahmini keltirish uchun yalinchoq ohangda gapirishdi.

– Buni qarang-a, sizlarni qo'ziqoringa o'xshatib, qovurib yeyish uchun kelayotgandim... Ko'rsamki, ikkoving o'tiribsizlar, qo'shaloq bo'lib! – Va Ivanning yelkasining ichiga kirib ketgan boshi ustiga qo'lini qo'ydi. – Nega qaltirayapsan, bolakay?

– Zaxdan ivib ketdik, – ayanchli shikoyatlandi Ivan, – sovqotdik...

– Qani, ortimdan yuringlar, isinib olasizlar, bemalol uxlaysizlar... – U bolalarni kutarkan, dunyoda isining tengi yo'q qandaydir maxsus asal haqida ayyorona bir ohangda gapirdi, ammo negadir bolalar alvastining tovasida qovrilishni hecham istashmayotgan edi. – Nega jimb qoldinglar, ovozlaringizni yo'qotib qo'ydinglarmi?

– Ilojimiz yo'q... – ingrashadi mahkum qalblar.

– Nimaga ilojinglar yo'q?

– Kalinadan qo'rqpymiz: jahli chiqadi... – javoblari shu bo'ldi.

– Nega jahli chiqishi kerak ekan? O'sha Kalina menman, – kuldilari yarimxo'jayin va bolalar qarshilik ko'rsatish befoyda ekanini tushundilar. Suhbat paytida chol ulardan goh uzoqlashib, goh yaqin kelib turdi, shu bois uni yaxshiroq ko'rib olish mumkin bo'ldi. U xuddi odamga o'xhashish ekan, boshi kal va oyoqyalang, uzun ko'ylagiga arqon belbog' o'rab olgan; o'tloqda katta, shudringda yuvilgan odam izlari oqarib ko'rindi. Ammo o'rmon hukmdorining butun qudrati aynan shundaki, u har qanday qiyofaga kira olishga qodir – bo'ridan tortib, yomg'ir jalasiga qadar, gavdasini kichraytirib olish esa uning uchun arzimagan ish, bo'lmasa pastdan turib qancha baqirmagin, ovozing ungacha yetib borolmaydi!.. Qochish uchun joy yo'q va jutifikasi rostlab qolishga urinsang, dunyoning eng chetidagi jarga yiqilib tushish ham hech gap emas; bundan tashqari, boboy aytgan maxsus bol ularni judayam qiziqtirib qo'ygandi.

– Sen bizning kichkina ekanimizga qarama, bizlar cho'qintirilganmiz... – nayrangini ishga soldi Demidka: u bir vaqtning o'zida alvastiga tahdid qilib qo'ymoqchi va shuningdek, ularning go'dak qalblari hali g'o'r bo'lgani bois o'rmon olmasi kabi achchiq ekan va ularni yeyish zararli oqibatlarga olib kelishini anglatib qo'ymoqchi bo'ldi.

– Parvardigorga maqtovlar bo'lsin, o'zim ham o'rmondag'i to'nka emasman!.. Bo'pti, ko'tarilinglar, indamasam hamma suvimi ichib qo'yasizlar... – Va to'g'riga, so'qmoq yo'lsiz yurib ketdi.

Kalina oldinda boryapti va uning kal boshida aks etib yaltirayotgan yulduz nuri uyquni keltiradi. Asirlar ildizlari va chirmoviqlar yopishgan oyoqlarini arang sudrab, uning ortidan ergashib borishmoqda. Yaqindagina o'zlarini vahimaga solib turgan qo'rquvni chidab bo'lmas darajadagi uyqu istagi oxirgi zarrasigacha qoldirmasdan eritib yubordi... Va keyinchalik, har doim hayotida og'ir kunlarni kechirayotgan paytlarida Ivan Matveich o'z xotirasida o'sha tundagi o'rmonning yovvoyi go'zalligini va qarag'aylarning zo'rg'a tu-shunish mumkin bo'lgan suhbatlari singib ketayotgan sassiz-sadosiz sokinlik, bir ko'zni yumib turib qaralganda og'ib qolgani aniq sezilib turgan, yeriga bir quchoq poxol tashlangan kulba va uning oldida turgan, bolg'alab yasalgan temir yog'log'iga solib qo'yilgan buloq suvida yulduz maydalanib, suzib yuribdi va yana qotgan nonning chetiga surtilgan eski asal shunaqangi quyuq va to'yimli ediki, hatto hozirga

qadar o'sha Oblogdagi tungi tamaddini eslaganida Ivan Matveichning barmoqlari bir-biriga yopishib, ko'z qovoqlari yumilib ketadi.

Kalina ularni bahodirona bir uyqu bilan siyladi va uyg'onishlari uchun qandaydir sayrog'i jarangdor qushlarni tayyorlab qo'ydi, ularning oldida sening egamang tagiga ilingan qo'ng'iroqlaring nima bo'pti! Erta tongda mehmonlar uyqudan uyg'onib, xuddi suvlari muzday tezoqar daryoning eng chuqur joyidan sho'ng'ib olganday tashqariga chiqqanlarida esa sehr-jodu sinoatlaridan ham, xazina iz-lovchilik vasvasasidan ham biror asar qolmagan edi. O'rmon hukmdori kulbada yo'q edi va uning butun shohona mol-mulki shundoqqina bolalarning ko'z o'ngida turibdi: kiraverishda ilig'liq turgan dag'al matodan sochiq, mixga ilib qo'yilgan qo'y terisidan po'stin, tutun purkagich, va xarrak tagidagi tabar hamda eski asalari uyasining isi singib ketgan boshqa ro'zg'or buyumlari. Shuningdek, miz ustidagi sirlangan taypoq taqsimchadagi asal yiltiraydi, quyosh nurida uning tepasida o'rgimchak ini qoplagan derazadan qanday o'tib kelgani noma'lum bo'lган uchta asalari uchib yuribdi. Eshikda ko'mir bilan chizilgan xoch qorayib turibdi, aynan shu narsa bolalarning ko'z o'ngida Kalinaning dong'i ketgan shuhratini darz ketkazgan birinchi xonaki tafsilot edi.

Ular qorovulkxonani ko'zdan qochirmagan holda, tevarak atrofni aylanib chiqishdi. O'zi ham asalari uyasiga o'xshagan kulba xuddi igna qadab qo'yiladigan yostiqcha kabi yaltiroq sara-sara qarag'aylar orasidagi sarishta sayxonlikda joylashgan edi. Ularning orasidagi, tanasi ikki quloch keladigan eng balandi aynan Kalinaning uying yupqa taxta qoplangan tomi tepasida o'sib turibdi. Chamasi, bu keksa daraxt Kalinaning tug'ilishidan avval ham xuddi shu yerda yuksalib turgan; faqatgina uning tanasi ustidagi toji yuz yilliklarning yukidan og'irlashib, to'p-to'p shoxlari orollarday bo'linib-bo'linib, butun Yalanglikni qoplab turibdi. Hatto shunday pahlavon o'rmonda ham uning tengdoshlari yo'q edi va tabiiyki, faqat uning ildizlari orasida Fedosdan yashirin xazina berkitilgan bo'lishi mumkin edi. Kalinaning terisi silliq, kattaligi yosh silovsinday keladigan mushugi Demidkaning har bir o'g'rinchcha harakatini kuzatib turibdi. Mushuk o'zini pinakka ketganlikka solib yotar va uning taramcha tusidagi yashiltob, chala yumilgan ko'zlarida tikkaga kelgan quyoshning sariq nurlari yolqinlanardi. Demidka o'zining shubha-gumonlarini Ivanga

darhol yetkazishni kechiktirmadi, uning so‘zlaridan keyin, mushuk arazlab qoldi, shekilli, butazor tomonga chiqib ketdi va shu zahotiyoy u yerdan shaxsan Kalinaning qiyofasida chiqib keldi. Tag‘in qo‘lida qovg‘acha to‘la suv ko‘tarib oglani bolalarni hayratda qoldirdi. Ito-atkor asalarilar unga suykalishadi: uni o‘zlarining valine’matlari deb bilganlardan va xojalarining kiyimlariga asal shimalib ketganidan, shekilli. Xuddi hech narsani payqamagan kabi qariya uydan bol ko‘tarib chiqdi, ostonada non bilan piyoz kesib, mehmonlari bilan birgalikda tamaddiga tutindi.

– Mana, Marya Yelizarovna ham biz tarafga shoshyapti, – dedi u sovuq, moviy balandlikdan daraxt tanasi bo‘ylab toshday shiddat bilan tushib kelayotgan olmaxonni nazarda tutib. – O‘tir, jonivor, lekin odamlarga xalal berma, – va zinapoyaning pastki pog‘onasiga joylashib olgan mahluqchaga non tashladi. – Sizlar o‘zlarizingiz-chi, shavkatli boyonlar, qayerlardan bo‘lasizlar?

– Bizlar bu yerlik emasmiz, bobo, bizlar Krasnovershyedanmiz, – dedi Demidka, olmaxonga mahliyo bo‘lib tikilib qolganicha.

– A! Krasnovershyega anchadan beri, Matveyni o‘ldirishganidan keyin boshqa borganim yo‘q. Qadrdon do‘stim edi, xonadonimga teztez kelib turar edi...

– U axir mening dadam-ku! – Ivanning ko‘zлari chaqnab, yuzlari yorishib ketdi, chunki shu tarzda u bilan ushbu o‘rmon podshohi o‘rtasida yaqinlik o‘rnatilmoqda edi, chunki ming yoshga kirgan qariyaning endi shoshadigan joyi ham yo‘q va shunday beqiyos qudrat sohibi o‘laroq hech kimga qahr qilishga mayl-istagf ham qolmagani boisidan juda muloyim va og‘ir-bosiq edi.

– Intihoning ibtidoga bog‘lanib kelishini qara-ya! Kuchlilikda unga teng keladigani yo‘q edi... sen otangga o‘xshamabsan, onanga tortibsan... – kulib qo‘ydi Kalina, asalga cho‘kkan asalarini barmog‘i bilan chiqarib olar ekan. – Men Matveyushkani tanirdim, o‘rmonchilik qilgan paytidan bilardim. U bir paytlar Sapeginning xizmatida bo‘lgandi, dehqonlarga erk berib yuborgani uchun uni qorovullikdan haydab yuborishgan. Juda yuvosh edi boyaqish... na xudodan, na odamlardan biror narsa so‘ragan paytlari ko‘p bo‘lgan. Xuddi shu yerda mening kulbam oldida uni otib tashlashgan, – va ostonaning narisida turgan o‘choqning yonidagi bir uyum dag‘al kanop mato tashlab qo‘yilgan supaga ishora qildi. – Xullas, oyoqlari

uni Sibir surgunidan vatani sari tortib kelibdi, shu yerda uni qismati kutib turgan ekan. Agar mirshablarning miltiqlari bo‘lmanida-yu, unga bas kelolmagan bo‘lishardi... Keyin meniyam ta’zirimni bershdi. Fikin qo‘qqis menga tashlanib qoldi-ku: «Ko‘rdingmi, sen, miyasi mog‘orlagan xomkalla, sengayam xuddi shunaqa ishlov berib qo‘yishim mumkin... shunaqa boshpanadorlik qilganing uchun, ya‘nikim jinoyatchini yashirganing uchun seni nimalar qivorishimni bilib qo‘y!» O‘zi esa ko‘zlari bilan menga xuddi qilichida qiymalab tashlaguday bo‘lib olayib tikiladi. Xayriyatki, jahlidan tez tushadigan odati bor: o‘z qo‘lim bilan ozroq naqdinani uzatgandim, busiz iloji yo‘q-da, jimib qoldi, ming‘irlab-ming‘irlab bol yeishiga tutindi. Parvardigor uni sog‘-salomatlikda asrasin!

Fikin Yengada daha politsiyasining boshlig‘i edi, o‘ta shafqatsiz bo‘lib, qudrati bo‘yicha esa bolalarning nazarida podshohdan va Kalinadan keyin uchinchi o‘rinda turardi.

– Qattiq urdimi? – hozircha o‘ziga ham mavhum bo‘lgan bir amaliy qiziqish bilan so‘radi Demidka.

– Boricha-da, mo‘ylovimga ikkita musht tushirib qo‘ydi!.. Xizmat yuzasidan undan ham talab qilishadi-da, uning esa tishlari menikiga o‘xshagan siyrak emas, og‘zi to‘la tish... vazifasini bajarmasa, to‘kib tushirishadi! U haqda yomon narsa aytolmayman, juda yaxshi, xushmuomala janob.

Ivan o‘ziga noma‘lum bo‘lgan bir alam bilan bu e’tirofnı eshitar ekan, o‘zini shu fikr bilan ovuntirar ediki, agar Kalina yana yuz yilgagina yoshroq bo‘lganida edi, u Fikinni osmonlardan ham balandroqqa uloqtirib, hamma nishon-u mukofotlariga qo‘sib yerga qarsillatib urgan bo‘lardi... Ammo Kalinaning afsonaviy qaddi cho‘kib, Rossiya davlatchiligiga ko‘p asrlar davomida xizmat qilib kelgan beli bukilgan va qadimgidan ham avvalgi dovyurakligidan zaif qariyalarcha nasihatgo‘yligi qolgandi, xolos. Va shu paytda Ivanning yuragiga birinchi marta Kalinaning shunchalik beg‘araz xotirasiga nisbatan ayanchli bir taajjub sanchildi.

– Sen kimnikilardan bo‘lasan, yigitcha?

– Menmi? Zolotuxinlardanman, – xayoli parishonlik bilan javob qildi Demidka, Marya Yelizarovnani siypalay turib, olmaxon shunchalik qo‘lga o‘rgangan ekanki, darrov uning yenglarini nimadir qidirganday hidlay boshladi.

– Tushunarliii-ii, demak voris ekansan... – so‘zlarini cho‘zib dedi, hokimiyat bilan yaqinligi bor krasnovershyelik boyon haqidagi ovozalardan xabardor qariya. – Qop ko‘tarib yuribsan, savdogar bo‘lasan, umringni yolg‘izlikda o‘tkazasan: muhtojlik odamlarni birlashtiradi, boylik esa ajratadi! Qariganingda butun dunyoni omboringga joylab, temir qulf urib qo‘yging keladi... qulf o‘g‘rini qo‘rqita olmaydi, agar och qolsa tambani g‘ajib tashlaydi, zulfin – omboz egasi uchun xatarli. Men senga bir sirni ochaman, so‘zlarimni avaylab asra! Bir uyum oltinni to‘plab bo‘lishing bilan qorong‘i bir tunda albatta uni tashlab qoch! U seni qidirishni boshlaydi, chirqillaydi, uvullaydi, sen esa yashirinib ol. Butaning tagida berkinib, qulay fursatni kut, ovoz chiqarma. Shovqin ko‘taradi, hiqillaydi, keyin boylikka o‘ch boshqa ablahlarni izlab ketadi.

– Bo‘limgan gap, puling bo‘lsa sovuqda qolmaysan, – ishshaydi Demidka.

– Birovning yong‘inida isinish yanayam xush yoqadi! – dedi qariya ozorlanib boshini chayqaganicha. – Agar quyoshda hamsov qotsang, birovning yong‘inida isinasan.

Kalinaning oddiy odam ekani shu asnoda ma’lum bo‘ldi. Uning hech qanday maxfiyoti yo‘q ekan, u shunchaki podshohlikning mudatsiz xizmatidagi askar Kalina Gluxov bo‘lib chiqdi. Sapecinning lutf-u marhamati bilan u yigirmata daraxt kovagidagi asalari uyasidan tirikchilik qilib, to‘plagan asalini faqatgina Loshkaryovga, Yalanglikning boshqa tomoniga olib borib sotarkan. Shu taxlit sirli cho‘pchak fatarot topdi va dunyoning chekkasi butkul yo‘qolmagan bo‘lsa-da, bolalardan uzoqroqqa, g‘arbga qarab surildi... lekin ular dan biri bu bilan o‘zining birinchi marta bolalarcha ixlosi qaytganini his etdi, boshqasi – o‘zini cheklab turgan kishanlardan xalos bo‘ldi.

Demidkaning o‘sha tongda oyoq-qo‘llari qo‘shib bog‘lab qo‘yilgan arqoni yechib yuborilgani kabi qaddi tiklandi: uyiga o‘lja bilan qaytdi. Uning qopida nimadir tipirchilaydi, tiqir-tiqir qiladi, erkinlikka chiqarib yuborishlarini so‘rab, qopni tirnaydi... shunda Demidka qopni keskin va qattiq silkib-silkib tashladi va tipirchilash to‘xtadi. Shu tarzda Marya Yelizarovna odamlarga ortiq darajada ishonib yuborgani sababidan jazosini topibdi.

– Ko‘rsat... – so‘radi Ivan va uzoq vaqt, aybdorlarcha nigoh bilan qopning tagidagi mo‘ylovdor, tumshug‘i birozgina to‘mtoqroq,

o‘ynoqi ko‘zları yaltirab turgan basharachani ko‘rdi. – Sen qachon uni... ulgurding?

Ivanni qariya o‘zining guvullovchi salatanatini ko‘rsatish uchun asalarixonaga olib borgan paytida Demidka hayvonchani yo‘l yuzidagi daraxt kovagiga joylab, ustidan og‘irgina tupsa g‘o‘lachani bostirib qo‘ygan ekan.

– Bo‘ldi, tag‘in qochib ketvormasin, – dedi u qopni xo‘jayinlarcha tang‘ib qo‘yar ekan.

– Qo‘yvorsang bo‘lardi... bu ishing yaxshimas! – qopga mahkam yopishib olib, xuddi duduqday gapida tutilib dedi Ivan.

– Tentaklikni bas qil, yigitcha, biz buni ishga solamiz. Sen hayotga mustahkamroq boqishni o‘rgan, qarab tursam, yuraging judayam qaltiroq ekan... – dedi qo‘llaridagi yangi tishlangan yaralarini tinmay yalaganicha. – Qo‘rqma, chol o‘ziga boshqasini o‘rgatib oladi!

– Unga rahm qil, tirik-ku, axir!

Demidka birinchi marta o‘zining kattalik huquqini va kuchini ochiqdan ochiq qo‘llab, hech qanday qiyinchiliksiz uning qo‘llarini qopdan olib tashladi.

– Baliq ham tirik jonivor, lekin sen uni yeysan.

– Baliqqa ham achinaman...

Darvoqe, ular xayrlashayotgan paytlarida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, bolalar bir kun oldin kun bo‘yi behuda adashib-uloqib yurishgan ekan – Kalinaning uyigacha to‘g‘ri yurilganda ikki soatlik yo‘l bo‘lib, yugursang yanayam tezroq yetarkansan. Kecha Ivan oldinda ketgan bo‘lsa, bugun endi Demidka yelkasida o‘ljasi bilan yetovchilikda bormoqda. Yo‘lning oxiriga yetguncha uning miyasisida keyingi tijoriy reja yetilib bo‘ldi va qishloqning orqa hovlilar ko‘zga tashlanishi bilanoq Zapoloskini chetlab, qishloq yo‘liga, Sapegin qo‘rg‘oni tomonga burildi. U yerdagilar bekorchilikdan zerikib ketganlaridan, krasnovershyelik va boshqa qishloqlardan ayollar va o‘smlilar ko‘tarib kelgan hamma narsani sotib olaverishadi, hatto dala chechaklaridan tuzilgan guldstalarni ham. Demidka boyonlarining oqilona xo‘jaligida olmaxon ham biror nimaga yarab qolishiga shubha qilayotgani yo‘q edi.

Bolalar oq toshdan tiklangan to'siq devordagi tanish teshikni izlab topishdi, tilog'ochlar o'sib turgan xiyobonni kesib o'tib, uning oxiridagi tashlandiq hovuzga yetib kelishdi va to'g'riga yurib, bog' orqali chirmovuq butasi qalin qoplab olgan ayvon oldidagi maydonchaga chiqib kelishdi. Ular bevaqt kelib qolishibdi: uyda mehmon o'tirgan ekan, buyuk Knishevning shaxsan o'zi, biroq u aynan nimasi bilan ulug' ekanini Yengada hozirga qadar hech kim bilolgan emas. Aroba-xonada yurish qismlari temirdan ishlangan, gilamlar to'shalgan usti ochiq yengil aravaga qo'shilgan asov to'riq toy dumি bilan pashshalarni haydab, qirsillatib suli chaynamoqda. Bu safar bolalarni quvib haydaydigan hech kim yo'q edi, go'yoki barcha mulozimlar va itlar – hammasi Sapeginning yovuz mehmonlaridan yashirinib olganday edilar.

Oradan ko'p yillar o'tib ketgani bois Ivan Matveich o'sha kuni ularga yo'lida uchrab qolgan Pashka Letyagin ham qo'rg'onga birgalikda borganmidi yoki ayvon tagidagi xarrakda miyalari g'ovlab ketguncha o'tirib, idish-tovoqning shaqir-shuqurini va o'zlariga o'sha paytda eshitilib turgan uzuq-yuluq jumlalardan keyinchalik fahmlari yetganicha tiklab olganlari ayvondagilarning suhbatlarini faqat Demidka ikkovi tinglab o'tirishganmidi, xotirasidan butkul chiqib ketgan ekan. Ayvondagilar o'rtasida savdolashish borayotgan edi – aldovlar, go'yoki jahl bilan ketib qolmoqchi bo'lishlar, erinchoqlik bilan qilingan o'zaro tahdidlar, holbuki, jaziramadan lohas bo'lib o'tirgan ikki taraf ham kunning muvaffaqiyatli yakun topishini birday istamoqda edilar.

– Sen esa shoshmay turaqolgin, Sofya Bogdatyevna, bizning ham so'z aytishimizga izn bergin, – deydi xuddi yerto'ladan chiqayotgan kabi manqa ovoz. – Ko'rdim axir, ko'rdim o'sha o'rmondagi hovlingni, Titka ikkovimiz erta tongdan rosa aylandik. Sen bilan qanchasini sanadik, Titka?

– Sanashdayam sanoq bor-da endi! Agar rioxagarchilik minan, mayda-chuydalariga ham marhamat ko'rsatib sanalsa, narisi bilan yetti ming botmon chiqib qoladi, – loqayd g'o'ng'illab qo'ydi nari-gisi, chamasi xaridorning ish yurituvchisi bo'lishi kerak. – O'zimga

qolsa. Bunaqa o'rmanni tekingayam boshimga urmasdim... tag'in o'zingizga havola!

– Nimalar deyapsiz, janoblar... – tashvishga tushib qoldi keksa ayol, o'ziyam amlokdorlardan bo'lsa kerak. – Axir bu o'rmonga ramzli tamg'a tushirilgan vasiqalarim bor-a, o'rmon hisoblovchini yollab ishlatganman, axir. U yerda qarag'aylarning o'zi to'qqiz botmondan kam emas, yana Gorinkaning ortida ikki ming botmon ponador maydonlagan jo'kazor o'sib yotibdi.

– Yomon tomoni shundaki, sening botmonlaring mayda o'lchovda olingan, Sofya Bogdatyevna... Yevropa o'lchovida ikki ming botmonni o'ziyoq bitta sultanatday kelib qoladi. Jo'kaga esa ishqibozligim yo'q... jo'kazoringni shundog'icha o'zingga qoldiraman, faqat po'stlog'ini shilib olib ketaman. Vasiqa deding-a?.. Yo, xudo, bir og'izgina so'rab qo'ygin, senga shunaqangi qizil shahodatnomani taqdim etamanki, unda sening mo'ylovdor general Skobelev ekaning qayd etilgan bo'ladi, ana shunaqa! – Titkaning uzuq-uzuq kulgisi ostida og'zini to'ldirib dedi manqa. – Aytganlarim uchun ma'zur tutasan, bekaginiam, sen bilan shunchaki yurakdan oddiy munosabatda bo'lyapman. Voy-bo', Titka, bardam bo'l, mast bo'lib qolma, bizga yana quyib beryapti... Voy makkora! Bahslashib o'tirishimizdan naf yo'q, yana bir marta qadamlab o'lchab chiqishimiz ham mumkin. Ertalabdan shu ish bilan shug'ullangin, Titka... o'zing bilan bekaniyam olib bor, ikkovlashib aylanib kelarsizlar.

– Oyoqlarim o'zimniki, sotib olgan emasman, – ko'naqoldi ish boshqaruvchi va o'zining bu ishdan mutlaqo manfaatdor emasligini ko'rsatib qo'ymoqchi bo'lganday, chuqr esnadi. – Yana bitta sayr qilib kelaveramiz.

Yana beka gap boshladi:

– Mayli, faraz qilaylik... bor-yo'g'i sakkiz botmon bo'laqolsin, deylik. Ammo hozir mening aqchadan qiynalib turgan paytim va shuning vajhidan qo'limga naqdinani qancha olishim mumkinligini bilsam degandim. Agar bir botmonni yetmish kub deb olganimiz taqdirda ham...

– Yetmish qayoqdan kelib qoldi, muhtarama oliyalari? – Titka soxta zorlanish bilan go'yo shafqat so'rab, o'tinib yolvorganday shikoyatlangan bo'ldi. – Bizlar bir amallab, xudo barakasini bersa, juda bo'lmaganda qirq kubni umid qilib kelib edik.

– Ah, ah! – xuddi bo‘g‘izlanayotganday ingrab yubordi knishevning qurbanı. – Vijdoningiz qayoqda qoldi, janoblar? U holda men himoya so‘rab qonunga murojaat etishimga to‘g‘ri kelarkan.

– Otaxon qonunni behudaga uyg‘otib bezovta qilishning nima hojati bor? Bizlar senga shashvar bilan tashlangan bo‘lsak ham boshqa gap edi. Biz, jonginam bekam, shundoq ham qaytib ketaveramiz, sening qonuning yaxshisi uxlayversin... Sen turgan joyingda ildiz otib qoldingmi, Titka? O‘mingdan tur, eman to‘nka, non-tuz uchun ta’zim qil... ketamiz!

Joyidan siljilikayotgan jihozlarning tartibsiz taqir-tuquri, sudralgan qadam tovushlari va ayolning umidsiz xo‘rsinislari eshitildi:

– Baribir sizlardan o‘tirishingizni iltimos qilaman, afandilar... mening sharoitimiyyam tushunsanglar degandim: rohib otaga iqrorimni bildirgan kabi, sizlarga ahvolimni ochiq aytaman! Mening shoshilinch to‘lovlarim to‘planib qoldi, bank foizlariyam qiyab yuboryapti. Bundan tashqari, qo‘limda go‘dak nabiralarim bor, kuyovim ham quturgan telba... Nari turinglar, bolalar, bu gaplarni eshitmanglar. Xullas, qiyosi yo‘q jinni! – u shunaqangi ayanchli qiyofada takrorladiki, endi xaridorlar tomonidan narxni ozgina oshirmslik insofsizlik bo‘lardi. – Kelinglar, hech bo‘lmasa xomcho‘t qilib ko‘raylik. Hatto agar sizlar aytganingizday... deylik, sakkiz ming botmon, masalan, qirq kubadan bo‘lganida ham... besh so‘mdan hisoblaganimizda... mayli, uch gazi to‘rt yarim so‘mdan to‘g‘ri kelaqolsin. Qog‘ozda hisoblab ko‘r, Koko, qancha chiqarkin... Lenochkani chimchilama, uyalsang bo‘lardi: katta yigitsan-ku!

Oraga jimlik cho‘kdi va keyin hayajondan bo‘g‘ilgan bolalarcha ovoz amlok uchun to‘lanadigan million uch yuz ming qirq so‘m narxni e‘lon qilib qoldi, bu esa uning hisob ilmida zaif ekanini ko‘rsatib turardi.

– Ana, xolos!.. – tushkun ovozda dedi qo‘rg‘on bekasi va bolalar boyon-oyimning mag‘lub bo‘lganini tushunishdi.

– Bunaqangi katta pullar faqat Yevtushevskiyning masala kitoblarida bo‘ladi, muhtarama xonim, – keskin va gapdonlik bilan uning so‘zini bo‘ldi bosh xaridor. – Sen o‘zingning daromadingni emas, mening zararlarimni hisobla. Sening kuygan o‘rmonlaringning o‘zi kamida ikki ming botmon bo‘ladi, menga uning nima keragi bora-

kan... o'sha sayxonlaringda choy ichib o'tirishim uchunmi? Biz juda unaqa o'zimizni choy bilan siylaydigan ahvolda ham emasmiz!..

– Tavbangdan ketay, choyni qancha ichganing bilan kayf berar-midi! – mamnun qahqaha otdi ish boshqaruvchi.

– ... Tag'in o'rmon o'rtasidagi yalangliklar, kesib ketilgan may-donlar, yana po'stloq qurti yeb bitirgan daraxtlar-chi... o'rmon menga qo'ziqorin terish uchun emas, daraxtlardan shpal yo'nish uchun zarur, azizam, ularning ustida odamlar tashiladilar, axir. Xullas, senga rosti-ni aytSAM, u yerda rosmana o'rmonning o'ziyam yo'q.

– Mana biz Bolshada, graf Chernishevning mulkida eman ag'darganmiz, ana uni o'rmon desa bo'ladi, – shosha-pisha gap qo'shdi Titka. – Yuqoriga qarasang bormi: tuqqan onam haqqi-hur-mati, yuraging to'xtab qoladi!.. Naq ildizining ustigacha chopib ola-san, bu yerda esa...

– Jim bo'l, Titka, – uni to'xtatdi boshlig'i. – O'rmon-o'rmon deysan, o'zing o'sha daraxtzorda hech bo'lganmisan, Sofya Bogdatyevna? Rossiyada o'roq-chalg'i tortib bo'lmaydigan hamma yerni o'rmon deb atavorishadi. Uni esa, o'sha o'rmon degan narsani piterlik mansab egasi chakmonini kiyvolib, xaritada sirkul bilan hisobga olgan. Amalda esa kuygan maydon va botqoqlikni ko'rasan... cho'rtannimi-ey... yiqilib yotgan daraxt tanalari-yu, tuzukroq mahsu-lot uchun yaramaydigan chirik yog'ochlar, ba'zi daraxtzorlarga esa umuman yetib borolmaysan! U yoqlarga daraxt sudragichni yetka-zib borguningcha soqoling kindingga o'sib ulguradi, tushunarli bo'lgandir?

– Yo, xudoyim-ey, namuncha menga ikki kishilashib tashlanmasanglar... – eplaganicha o'zini himoya qiladi qo'rg'on bekasi.

– Bizni ichirib qo'ydingmi, endi chidaysan. O'rmoningni o'ziyam shu yerlik mujiklardan o'g'irlangan: mahkamadagi tortishuvlaringni eshitganmiz... o'zim ham sendan yaxshiroq emasman, o'g'irlangan narsani sotib olganimdan keyin o'zim ham o'g'ri bo'laman-da. Xudo ko'rsatmasin, Rusda agar o'rmonlarga o't qo'yishni boshlashsa, sen bilan ikkovimiz bitta arqon sirtmog'ida bekorchilikdan zerikib osilib turamiz. Ikkovimiz, sen va men, qilich tig'idan bol yalaymiz, tushuna olyapsanmi? Mana senga mening hisobim: bankdan olgan qarz-laringdan qutulishing va da'vogarlarning ovozini o'chirishing uchun qo'lingga qirq ming beraman... kuyovingdan ehtiyyotla, aks holda

hammasini ichib qo'yadi! Muzofot mahkamasining og'zini moylash sening ishing, mening ishim esa – tabarda daraxt chopish. Qolgan yuz ellik so'mni yangi yil bayramida beraman. O'ylab ko'rishing uchun ertagacha muhlat, aks holda Donga jo'nab ketaman.

– Ja unaqa saxiylik qivormasang bo'lardi, Vasil Kasyanich... savdolashaylik! – Qat'iy ovozda mazahbozlik qildi Titka.

– Bo'lar ish bo'ldi endi: uning nabiralariga achinyapman!.. Shu savdodan ko'rgan zararimiz uchun esa parvardigorning o'zi bizni mukofotlasin. Endi musallasingdan quy, bekajon, bizni tuxum bilan mehmon qilishlarini buyur, sening xonadoningda rosa och qolib ketdik...

Shu zaylda Yengadagi Oblogni tabarning tig'iga unashtirishdi. Bolalarga sehrli jannat bo'lib tuyulgan qo'rg'onning hashamdar latofati allaqachon vayronalik izlari bilan o'rin almasha boshlagan edi. Qaramdorlik qonuning bekor qilinishi aslzodalar tabaqasini tekin ishchi kuchidan mahrum qilganidan so'ng, marhum Sapegin o'z qo'rg'onini bankda garovga qo'yishga majbur bo'ldi, niyati asr urfiga aylanib borayotgan eng yangi qishloq xo'jalik boshlanmalariga mablag' kiritib, oltin to'plab olish edi, ammo oltin orttirishga muvaffaq bo'la olmadi. Nimaga erishgan bo'lsa, hammasi tanazzulga uchrab ketdi: keng tarqalgan yuqumli kasallikdan zotdor chorvasi qirildi, devorlarining chetiga o'rik daraxtlari qator ekilgan ko'chatxonasi qu lab tushdi, mehmonlar xonasining burchagidagi suvoqlari ko'chib tushib, chirigan yog'ochlari ko'rinib qoldi. Bir tup nastarin bahor kelishi bilan gurkirab, quyuq, boshni aylantiruvchi iforini taratib, gulzorlarga novda cho'zadi, yo'lkalarni qoplaydi, aslzodalar tuyasining chala tanazzulini to'sib turadi. Eski ish boshqaruvchi Averyanch, marhum Sapegining o'ng qo'li va ko'rар ko'zi, muttasil ichkilikbozlikka kirisib ketdi va shu asnoda xo'jalikni yuritish qachonlardir Pomeraniya universitetida o'qib yurgan yillaridayoq olib kelingan – hozirda qartayib burishgan, kasal, faqat kumush qoshiqlarni sanash bilan band va tunda xayolidagi talonchilar bostirib kirmasliklari uchun kechasiga eshiklarni tambalab yuradigan Sofya Bogdatyevnaning qo'liga o'tdi. Kampirning asosiy boyligi yoshini yashab bo'lgan, o'sha atroflarda hech kimga keragi yo'q o'rmonlardan iborat edi; tez orada Loshkarov orqali Vologdaga temiryo'l o'tkazilishi haqidagi ovozalar munosabati bilan uning uchun qiyinchiliklardan chiqib olishning so'nggi

imkoniyati paydo bo'ldi. Knishevni xudoning o'zi kampirning huzuriga yuborib qoldi, bitta chatog'i, kampirning sho'riga u g'irt mast edi.

Bitimni sharob bilan nishonlash lozim edi, ammo dasturxon atrofida asosan ayollar va bolalar o'tirganlari sababidan, shuningdek, Titka xizmat vazifasida bo'lgani uchun soqiylig qilishga jur'at etol-magani tufayli, mehmonning bir o'zi hamma uchun navbatil bilan ichib o'tirishga majbur bo'ldi va shunaqangi g'ilaylanib chayqalishni boshladiki, endi uni yo pichanxonaga olib chiqib yotqizib qo'yish yoki o'zlarini tashqariga, toza havoga chiqib ketishlari zarur bo'lib qoldi. Shunda Sapeginlarning hammalari gullari to'kilib bitgan chir-movuqlar bilan qoplangan yog'och zinapoyaning pog'onalariga chiqib ketishdi.

Qizil jun matodan yubka kiygan, bo'zrang, nosog'lom yuzi yaqindagina tortishga majbur bo'lgan tashvishlaridan qizil dog'lar bilan qoplangan ulkan kampir oldinda odimlab bormoqda. Ochig'ini aytganda, u o'zining umrini mutlaq yolg'izlikda qo'rg'onda o'tkazmoqda edi, – faqatgina yozgi ta'til oylarida uning qizi o'zining omadsiz nikohdan tug'ilgan o'g'llari bilan mehmonga kelar edi. Bolalarning ikkovi ham hozir buvisining yonida borishyapti, ularning sochlari olingan, ko'zlarining osti ko'kargan, puxta kanop matodan tikilgan gimnaziya kurtkalarini kiyishgan, sarishta o'g'il bolalar. Ivanning xotirasida qolgani: kattasi ermak uchun sariq so'nani somon cho-piga sanchib qo'ydi, kichigi esa parishonxayollik bilan o't chaynab ketyapti. «Bular endi uzoq umr ko'risholmaydi» – balanddan kelib ularni mazahladi Demidka.

Bosh boyonoyimga shunday fojiali damlarda, hatto yosh bolalar bo'lsalar ham, bu yerda begonalarning hozirligi yoqmadı: u yoniga kelib qolgan xizmatkor ayolga ming'irlab, Averyanichning kelgan-kelmaganini surishtirdi, yo'q, uning aytishicha, Averyanich kecha oqshomda bo'kib shishasini so'rib olganidan keyin hali paydo bo'lgani yo'qmish.

– Qani, nimalar olib keldinglar, yoqimtoy yigitchalar? – so'radi begoyim uzoqda turib.

– Mana, olmaxon, g'o'ng'illadi Demidka, boshidan qalpog'ini shoshganicha yechib, g'ijimlab oldi, bu holat darhol keksa boyonoyimga judayam ma'qul keldi.

– Senda nima bor? – Ivan tarafga qarab so‘radi u.

– Biz hammamiz birmamiz, javob berdi o‘rtoqlariga yo‘lda qo‘shilib olgan va demakki, Marya Yelizarovnaning savdosida ishtirokchi bo‘lib hisoblanishga haqli Panka Letyagin.

Sapeginlarning beshovi, xizmatkor ayolni hisoblamaganda, shu zahotiyoyot sotuvchilarni o‘rab olishdi, beshinchisi besh yoshlarda-gi, qachonlardir pushti rangda bo‘lgan eski uylik ko‘ylak kiygan, yuziga Ivan uchun tushunarsiz bo‘lgan rangli doirachalar va chiziqlar chizilgan qizcha edi. Bolalardan qay biridir bolalar bo‘yog‘ida uni hindularga o‘xshatib bo‘yab qo‘ygan edi; o‘sha mitti qizchaning ismi Lenochka ekan. Uning ham o‘rmon hayvonchasini ko‘rgisi kelardi, ammo hamma urinishlari behuda bo‘laverdi, shunda bir mahal gimnaziyachilarining kattasining oyoqlari orasidan o‘rmalab o‘tish uning xayoliga kelib qoldi. U esa qizchaning ensasiga barmog‘i bilan shaqillatib urib qoldi va bu xonadonda ikkinchi darajadagi sharoitda yashashga mahkum ekaniga ko‘niktirilgan qizcha ovozsiz-shikoyatsiz ortiga, chillaksimon o‘yin o‘ynaladigan maydonchaga emaklab qaytib chiqib ketdi.

– Olmaxoningizni ko‘rsatinglar, bolalar, – buyurdi yoshroq begoyim, uning burni shunaqangi mungli va uzun ediki, nigohing bilan uning oxiriga borguningcha, boshlanishini eslash uchun yana orqaga qaytishingga to‘g‘ri kelardi.

Demidka ko‘zini yumib oldi-da, jasurlik bilan qo‘lini xaltaga tiqdi va Marya Yelizarovnani bo‘ynidan ushlab chiqardi. Unisi qarshilik ko‘rsatmadni, chunki bu yerda har qanday tirik jonivorni silab-siypalab, erkalab o‘ldirishlarini va keyin motam ashulasini aytib, Sapeginlar bolalarining avvalgi suyukli qurbanlari ko‘milgan mittigina qabristonchaga dafn etishlarini bilmasdi.

Demidka olmaxonni qattiq ushlab olganicha, yyyengilgina siqib turardi – ammo qo‘llarini tishlab tashlagani uchun o‘ch olish qasdida emas, balki sho‘rlik jonivorni azoblardan xalos etish uchun. Shunda hammalari xudoning yaratgan maxluqiga azob yetkazmaslikni Demidkadan iltimos qila boshladilar va bu tengsiz olishuv zaiflar taslim bo‘lgunlariga qadar davom etdi. Bolalarning onasi pul yig‘adigan idishning ichidagi aqchani ishlatishga ruxsat etdi va o‘g‘illariga nemischalab gapirib, savdolashishning yo‘l-yo‘rig‘ini dehqonlardan o‘rganishlari zarurligini qo‘shib qo‘ydi.

– Narxi qancha? – shiringina ovozda so‘radi kenjası, dumi osilib, o‘zi tinchib qolgan malla mittichaga achinib qarab turarkan.

Shunda to‘ng‘ichi qo‘zlidagi so‘nani cho‘pchasi bilan birga yuqoriga uloqtirdi va u uchib ketdi, keyin jiddiylik bilan ukasini chetlatdi.

– Aytinglar-chi, bu olmaxonlaringiz yaxshimi o‘zi? – muzokara ga kirishdi u qo‘lini kamarining to‘qasiga qo‘yanicha.

– Jahldor, birinchi navli yirtqich, daraxt tanasidan zo‘rg‘a ajratib oldim. Qonlarim to‘xtamay oqdi: hayvon emas, kuporos deysan! – Va molining bahosini oshirish uchun yaralangan bo‘s sh qo‘lini yuqori ko‘tardi.

– Demak, buningiz tishlog‘ich ekan-da? – sal chekinib so‘radi kenja bola.

Demidka nafrat bilan bolaning oyog‘iga qarab turib dedi:

– E, tishlash nima ekanliginiyam bilmaydi bu. O‘zim uning tirnog‘iga qo‘limni tegizib qonatvoldim... – Yolg‘on rosa vaqtida ishlatildi, chunki olmaxonning yovuz fe‘li xaridorlarni cho‘chitib qo‘yishi mumkin edi. – U judayam yuvosh, ismiyam Marya Yelizarovna.

Qo‘rg‘on istiqomatchilarining orasida olmaxonni qayerga joylashtirish borasida bahs boshlandi va buvilari jonivorni yaqindagina ajalini topgan sa’va saqlangan qafasga solib qo‘yishni maslahat berdi, yosh avlod esa uning erkini cheklamaslik uchun bo‘yniga ingichka, bor-yo‘qligi hatto ko‘zga ko‘rimmaydigan simni bog‘lab qo‘yishni mo‘ljallab qo‘yishgandi.

– Unisovunlab yuvsa bo‘ladimi? – kattalari qizishib bahslashib turgan paytda yuvoshlik bilan so‘radi kenja.

– Sovun bilanmi? – go‘yo bilimdonlarcha qiyofada o‘ylanayotgan bo‘ldi Demidka. – Albatta, sovunlab cho‘miltirsayam bo‘ladi. Agar yemishini berib tursang, yog‘och xumdayam yashayveradi. Bodring dan tashqari hamma narsani yeydi... mayda hayvonga faqat suyak be rib bo‘lmaydi – tomog‘iga tiqilib qolmasligi uchun.

Ivan xususiy tijoratning mohiyatini tushunmagani bois, shu paytda, ko‘ngli behuzur bo‘ldi, demaymiz-u, har holda bu ishlardan o‘zini noqulay sezaboshladidi... Avvaliga tuki yulingan teridan tikilgan surtuk kiygan, aslzodalarining koshonasini tamaki bilan ifoslantirmaslik uchun tashqariga sudralib chiqqan Titka uning e’tiborini tortdi. U qotma, yuzlari ichiga botib ketgan va lablari shunaqangi bo‘rtib chiqqan kimsa ediki, basharani bu holga keltirish uchun qari tullak nimalar

qilganiga mutlaqo tushunib bo‘lmasdi. U ayvonda u yoqdan bu yoqqa yurib turar ekan, devordagi ko‘chib chiqqan bo‘yoqlarni qandaydir hasad bilan tirnog‘ida shilib olardi... Bir payt g‘alati noma‘lum-notanish bir kuch Ivanni haligi hamma tashlab ketgan, yuzida quvonch balqib chillak maydonchasida o‘tirganicha, ko‘ylagining etagidagi bir kaft g‘o‘r marjonmevani rohatlanib yeb o‘tirgan Lenochkaning yoniga yetakladi.

Ivan mulohazakorlik bilan bosh chayqab qo‘ydi:

– Yeyayotgan narsangni qara, buni yemagin, undan o‘lib qolish mumkin... sariq qumga yotqizib qo‘yishadi, – va kattalik huquqidан foydalaniб, tarmevalarni olib qo‘ydi va butazorga uloqtirib yubordi. – Sen baxtiqaroni kim bunaqangi bejab qo‘ydi?

– Akalarim... – cho‘chibgina javob berdi mitti qizcha.

– Bor. Yuvib tashla... bunaqa yurishing yaxshimas: odamlar qarashyapti! – Unga qandaydir yaqinlikni his etib, maslahat berdi Ivan. – Dunyoda hamma narsadan ko‘proq nimani yaxshi ko‘rasan?.. Ayt, o‘zim topib beraman.

– Qushchani, – jilmaydi qizaloq, maftunkor bir nigoh bilan Ivan ning yuziga boqib.

Va birgina o‘sha moviy nigoh uchun, nozik, bolalarcha hamdardlikning hali o‘zi ham anglab yetmagan og‘rig‘i uchun bu parvosizgina irkit insonchani xuddi Kalina Gluxovni chashmasi bilan yaxshi ko‘rgani kabi bir umrga yoqtirib qoldi.

– U holda senga yapaloqqush keltirib beraman... bir joyda mo‘ljallab qo‘yganim bor. Lekin bilib qo‘y, unga sichqon berib boqish kerak... hechqisi yo‘q, sichqon ovlaysan! Uni senga shundoq, tekinga olib kelaman, – qo‘shib qo‘ydi u qo‘polroq ohangda, erkaklik sha’nini yerga urib qo‘ymaslik uchun. – Ertaga shunaqa vaqtida ijozat so‘rab, hovuzning yoniga chiqqin... kelasanmi?

Yapaloqqushning yaxshisi uchradi, tirnoqdor, hali jo‘ja-yu, lekin hozirning o‘zidan qo‘rqinchli; xuddi po‘stinga o‘xshagan ulkan, oq dog‘lari bor kulrang patlari orasidan chumchuqning gavdasidekkina keladigan tanani paypaslash mumkin. Ivan hovuz bo‘yida kechgacha turdi, u yoqdan bu yoqqa yuraverGANidan o‘tlarni toptab, so‘qmoq qilib yubordi, ammo qiz uchrashuvga kelmadи. Ular faqat o‘n yetti yildan keyingina ko‘rishdilar.

O'shandan beri Demidka boyonlarning ta'minotchi xizmatkorlariiga aylandi. Tuzoqlar qo'yilgan joylardan va suvloqlardan ular uchun qushlarni tutib keladi, irmoqchalarni shox-shabba bilan to'sib, baliq-chilar to'ringin uvadasi ajratilgan joylarga tashlaydi. O'ljalarga oziqa kerak, – va u bolaligidanoq yo'qsillarning itoatkorligidan foydalanib qolishni o'rgandi, chumolilar to'dasini xirmonga tashlab qo'yadi va bu mehnatkash jonivorlar uning yoyib qo'ygan latta bo'lagi ustiga sarg'ish sara yumurtani o'zлari olib chiqib berishadi. Chumchuqlarni, ba'zi sayroqi qushlarni u andalib deb sotib yuborarkan, savdodagi aldrovlar san'ati bo'yicha tajribasini orttira borib, bu tajribasi unga qushlarni osongina tutishga sarflagan mehnati uchun to'rt baravar ko'proq foyda olishiga yordam berardi.

Hayratda qolgan gimnaziyachilarining ko'z o'ngida, badaniga zuluklar yopishib yotgan holida u sapeginlarning hovuzi loyqalarini orasidan tovonbaliqlarni paqirlab chiqarib oladi va hech qachon o'z molini nasiyaga bermaydi; agar xaridorning naqd puli yetmasa, to'lovga hamma narsani – po'lat qalamlardan boshlab, bolalar o'z bobolarining qutisidan o'g'irlab olib chiqqan antiqvavor tangalar to'plamidagi qadimiy vizantiya aqchalargacha olaveradi. Zero, ular saltanatning sharobxonalarida to'lov uchun qabul qilinmasa-da, Zolotuxin o'z farzandining tujjorona zo'ravorlik tishlari o'sib chiqayotganini ma'qullab kuzatib turardi. Raqobatlashayotgan bu ikki tabaqalar uchrashib qolganlarida ikkovlari ham bir-birlaridan nafratlanishiadi, ammo Demidka kuchliroq edi: nozik tomoqlari doim bog'langan nimjon boyvachchalarning takabburona g'o'dayishlariga u yashirin qarol nafrati bilan javob berardi.

... Ivan yozning qolgan kunlarini Kalinaning xonadonida o'tkazdi; onasi uni kechki tamaddiga chaqirmaslikka ham ko'nikib qoldi. Ularning kunlari erta tongdan, quyoshning ilk nurlari qushlarning sayrog'iga qo'shilib tuman pardasi orqali o'rmonning moviy, nam zulmatiga singib o'tishni ixtiyor etgan palladan boshlanardi. Chol va bola yangiliklarni jimgina kuzatgan ko'yi o'z mamlakatlarini ko'rikdan o'tkazishadi: bo'rsiq janoblari o'z qo'rg'onida nimalar bilan band ekani yoki bechora Marya Yelizarovnaning opasi to'rt marta – har safar bittadan go'dagini tishida ko'tarib olganicha yangi uyaga ko'chib o'tayotganini tomosha qilishadi, – xazonlarning bir necha asrlik qatlamlari inson qadamlarining tovushini yutib ketadi. Odatda yo'nalish

takrorlanadi, ammo o'rmonda, xuddi qiziqarli kitobdag'i kabi qandaydir o'qilmagan sahifa, albatta, topiladi. Bu yerda, yo'lida, Kalina o'z tarbiyalanuvchisiga shabnamga qarab havoning ra'yini aniqlashni, o'rmon giyohlarining ildiziga qarab esa bu yil hosil qanday bo'lishini aniqlashni – va xalqning minglab yillik tajribalari to'plangan o'rmon ilmining boshqa sirlarini o'rgatar edi.

Sayohat Yenganing baland qirg'og'ida yakuniga yetadi; u yerda mushukpanja o'sib yotgan ardoqli bir bo'rtiq bor. Uzoq pastliklarda, daryoning ingichka o'zanida sayozliklar va yoyiqliklar yaltirab turgan tomonda kichkina yassi kemacha rangdor bakenlarning bir to'plamini qishlovga tortib ketmoqda, uning tepasida qanotlari qon rangidagi shafaq yolqini akslanib turgan kalxat aylanib uchib yuribdi. Ertak tugab bormoqda, kuz boshlanib, atrofda hamma maydonlar tobora yalang'ochlana boshladи.

Qariyaning yoshi chollar bilan bolalarning orasidagi farq bilinmay ketadigan chegaradan allaqachonlar o'tib bo'lgan. Bu – ikkovlonning, keksaning va go'dakning kam so'zli oshnachiligi edi, ayriq qo'rquvidan xoli va ikki tomonning soxta mehr-u saxovatidan begona. Birinchi sherik itoatkor qiyofada ikkinchi sherikning qo'liga o'tayotgan hamma narsa bilan vidolashmoqda. Kalina o'zi haqida juda kam narsa aytdi, ammo gap orasida u o'zining achchiq qismat sharobini yuz burishtirmasdan ichganini fahmlab olish mumkin edi, ammo taqdir qadahining tubida bir chimdim maydalangan shisha bo'limganida buni sharafli umr deb aytish mumkin bo'lardi. Bu hikoyalarda afsonaviy Kalina tugab, yoqimli, bola uchun ikki baravar qadrliroq bo'lgan rostakam odam boshlanardi.

– Demak, siz avliyo emas ekansiz-da, bobo?.. Demak, o'lim sizni ham olib ketar ekan-da? – hafsalasizgina so'raydi Ivan.

Qariya kulib qo'ydi va vidolashuv nazari bilan shafaqning ol rangiga bo'yalgan, Yenganing narisidagi eng yaqin o'rmonlar atrofidagi hali yig'ib olinmagan g'alla bog'lamlari ko'zga tashlanib turgan dala-larga va hatto ulardan narilarga – uzoqlarga cho'zilib ketgan va nima-larga mo'ljallangani hozircha noma'lum yangi qumtepalarga hamda ufqda, o'n besh chaqirim narida xuddi zargog'oz qoplanganday derazalar yarqirab turgan Loshkaryov shahriga boqdi. Kalina sheringiga o'zining, keyinchalik Ivan Matveichning ham e'tiqodiga aylangan e'tiqodini tushuntirdi. Agar uning so'zları kitobga ko'chiriladigan

bo'lsa, shunday tushuncha hosil bo'ladiki, go'yo yerni hech qachon sovimapdigan hayot lazzati, yorqin aqlning quvonchlari va yana sariq tuproqli qabr o'rasi boshqararmish – ular bir-biriga qo'shib, umumjamiyat turmushining yanayam mukammal qadriyatiga aylanar ekan... har doimgiday, qariya navbatdag'i po'stloqdan savat to'qish bilan band, bola esa tepaga qarab yotganicha osmonga tikelib, sokin uchib borayotgan turnalarining uzoqlarga cho'zilib ketgan arg'imchog'ini tomosha qilyapti, ulardan sal oldinroqda alohi-da ajralib turgan nuqta ularning yo'lboschchisi. Yosh bolaning ongi uchun Kalinaning mulohazalari tushunarsiz edi, ammo uning mo'viy shu'lasini Ivan o'zi bilan hayotga olib ketdi va bir marta hatto shaxsning o'lmasligi haqida uyushtirilgan Peterburgdag'i bahsda uni xotirasida tiklashga ham harakat qilib ko'rgandi.

Kalina sirli dunyo kuchlari haqida ham anchagina narsalarni bilar ekan. Ko'p yillik erkin poytaxt hayoti davrida chol shuni aniq bilib olibdiki, jinlar ham ikki turli bo'lishar ekan, ularning past tabaqasi odamlar yashaydigan mazgillarda yashaydigani qo'lansa va butkul qo'tir bosgan yoqimsiz qiyofada bo'lar ekanlar. Oliy nasablari esa – xalq nazariga tushmaydiganlari – ko'pincha hatto o'ta ortiqcha darajada salobatli ekani bilan ajralib turarkanlar, hashamador koshonalarda istiqomat qilib, e'tiqodli qavmdan o'lpon qabul qilib olishar ekan: yog'liq taomlar, urush olib borish uchun askarlar, o'ynashish uchun bokiralar, hali kuch-quvvatga kirmagan iblisvachchalarini boqish uchun enagalar. Binobarin, ularni o'zlarining dong'i ketgan dumlariidan emas, nafas olganlarida chiqadigan otingugurt tutunidan ham emas, balki avomga yetkazadigan azob-uqubatlaridan tanib olish mumkin ekan... Bularning hammasi esa dahshatli qiyomatda barham topib, emgakchilar oqlanib chiqar, yovuz iblislar esa abadul abad chirib yotishga mahkum qilinar ekan. Ivanning soddalik bilan, mu-qaddas suv odamni ibislardan asraydimi, degan savoliga qariya, albatta, yaxshi ta'sir ko'rsatishini, faqat buning uchun uni suvg'a chuqurroq botirib, biror muddat sochidan ushlab, pastga bosib turish kerakligini aytdi.

– Ins-jinslarni men ham bir ko'rsam edi! – xo'rsindi Ivan, pastda, sayozlikda daryoning zaif shovullashiga qulq solib o'tirar ekan.

– Shoshilma, bolakay, hali ko'raverib hiqildog'ingga ham keladi!
Bola yovuz kuch bilan o'sha qishdayoq uchrashdi.

Oblogdag'i eng katta o'rmon tadbiri knishevchasiga keng ko'lamda o'tkazildi. O'rmon kesish boshlanishidan bir oy oldin Titko sovg'a-salom bilan atrofdagi barcha qishloqlarni izg'ib chiqdi, – hatto kampirlarga ham bir bardoqdan aroq nasiba bo'ldi. Temiryo'lchilar ta'minotchilarni shoshira boshladilar. O'sha kuzda birinchi yuk jo'natish har doimgidan ancha erta uyuştirildi va bir kuni tongda, Dimitriy kunining ertasigayoq har tomondan minglab chanalar Oblog tomonga yelib ketishdi. Kayf-safodan so'ng qirg'in boshlanishi arafasida mujiklar chana otlarining jilovlarni bo'sh qo'yganlaricha, lohaslikdan chayqalib yo'lga tushdilar: har birining boshi g'um bo'lib, belbog'iga qistirilgan tabar xira yaltiraydi. Birinchi qarag'ay tanasi qor ustiga ag'darilishni boshlagan paytda quyosh uyqusiragan holičha o'rmon tepasiga endigina ko'tarilib kelmoqda edi. Hozircha ishga kirishib keta olmay turgan daraxt kesuvchilar tamakisini tortib, bekorchilikda sandiroqlab yurishar ekan, tirishqoq sheriklari allaqa-chon o'rmon kesish uchun tayyorgarlik ko'rib, tovuq katagiday pastak kulbachalar va daraxtlarga ishlov ishlatiladigan turli qurilmalarni taxt qilish ishlarini tugatayotgan edilar.

– Nega o'chib qoldilaring, baloga yo'liqqurlar... nega taraqlatma-yapsanlar, qizilishtonlar? – ishchilarni shoshirib, do'q qiladi, yalinib-yolvorib, orada xezlanib ham qoladi ovozi butkul bo'g'ilgan Titka, u yoqdan bu yoqqa yugurib shunaqangi ko'p tipirchilardiki, hali kayfi tarqamagan mujiklarning ko'ziga to'rtta bo'lib ko'rinish ketardi. – Hali bug'tortar kelsa, sizlarni guldar chit matoga ko'mib tashlaydi... bo'kib bazm-u jamshid qilamiz, bolalarim! Ishga yopishing, qadrdonlarim... – va tabarchilar lashkarini yana aroq bilan siylashga majbur bo'ldi.

Qora xalqning shijoati alanga olishi uchun mana shunaqa uchqun yetishmay turgandi o'zi, uyog'iga ishlar qaynab ketdi, savdosi borrhidan kelib, daraxtlarni ko'tarasiga sotib yuborayotgan Zolotuxin esa mardikorlarning jiġ'ildoniga yoqilg'i quyib turish uchun Loshkaryovdagi aroqfurushlarga peshma pesh odam jo'natib turibdi.

– Miltiqlarimizning otmay turgani – tuzukroq o'qlanmagandan edi... – deydi birovi qo'lqopini kiya turib yoki sharobi no'shdan

keyin aroq to'kilgan soqolini silagan ko'yi. – Qani u, qay go'rga daf bo'ldi bizning yoldorimiz?

Ikkinci tong bilan birga Oblog bo'ylab temir jala taraqlay boshladi, osmondag'i emas, yo'q, minglab inoq tabarlarning pastdagi jalasi. Uzuq-yuluq g'ala-g'ovurlar tevarak atrofni qamrab oldi va har qanday to's-to'polonda bo'ladigani kabi qoraqush osmonga o'rlab chinqirib qoldi. Rosa ikki kun davomida o'rmon xuddi yiqitilgan daraxt o'rniga shu zahoti yangisi o'sib chiqayotgan kabi mahkam turib berdi; uchinchi kunning oxiriga kelib, artellar changalzor ichkarisiga yorib kirganlarida, Oblog titrab ketdi va hatto ortiga tislanganday ham bo'ldi; ish tezlashib, samarasি ortdi. Ag'darilgan o'rmonni shu yerning o'zidayoq tarashlab, shpalga aylantirishadi, yoki tovarbop bo'limgan yog'ochga yoxud shunchaki mayda g'o'laga kesib tashlashadi... keyin qayoqlargadir, muzday tuman bilan pardalangan ko'kish olisliklarga tashib ketishdi, ilgarilari aynan shu paytlarda bo'rivachchalarning uvullashni o'rganayotgani eshitilib qoladigan palla bo'lardi, endi esa, agar quloqlar chalg'iyotgan bo'lmasa, jimlik orasidan bug'tortarning hushtagi eshitiladi... Qarag'ayni mart oyida, chana yo'li mustahkam bo'lgan paytda tashib olib ketar edilar va Knishev may oyida jo'kaning tomirida sharbat yura boshlashi bilan ag'darib olishga ulgurish uchun hozir qattiq shoshayotgan edi.

Ivan Oblogning inqirozga uchragani haqidagi xabarni bolalariga xos bo'lgan yangilikka tashnalik ruhida, kuchli qiziqish bilan, ammo o'zining murabbiysi taqdiriga nisbatan tashvish-havotirsiz qabul qilib oldi. Chamasi, o'sha paytlardagi o'rmon istiqomatchilar ning hammalari kabi qariya o'tib bo'lmas qortepalarning ichida ular edi va agar o'rmonning yo'q qilinishi kabi kulfat Kalinani qish uyqusidan uyg'ota olsa, bu narsa notabiiy tuyulgan bo'lardi. Milod kunida qattiq bir qo'msash Ivanni o'rmon bag'riga torta boshladi. Arafa kuni kechasi qattiq sovuq bo'ldi, shox-shabba, ildizlar va xas-xashak uyumchalari to'kilgan yo'lda ertalabdan bayramona jonlanish hukmronlik qilmoqda. Qarshidan ishlov berilgan yog'ochlar ortilgan chanalar sirpanib kelmoqda, muzlagan shishaday silliq chana izlari og'ir yuk ostida ashula aytib yuboryapti. Yukini tashlab kelayotgan Pashkaning o'gay otasi yarim yo'lda Ivanni markabiga o'tqazib oldi. Uning oti juda uchqur ekan, bir zumda manzilga yetib olishdi. Oblog

xuddi yarimshaffof qog'ozga qora qalamda chizilgan manzara kabi ko'zga tashlandi. Uyog'iga Ivan yayov ketdi.

Daraxtlar kesilayotgan, tabarlar selpilib turgan, otlarga aravakashlar otlarga baqirib-chaqirib do'q urayotgan, mardikorlar sovuqning zo'ridan sakrab qor toptayotgan, bir-biriga chirmashib qolgan qarag'ay to'nkalari pishanglarda ajratilayotgan; shox-shabba uyumlarri ulkan, lekin xatarsiz gulkanlarda yondirilayotgan maydondan tutun aralash qatronning yoqimli isi ufuradi. Yupqa qor qoplagan o'rmon tong g'ira-shirasida sirli va nimpushti bo'lib yolqinlanmoqda. Daraxtlar bir maromda chuqur oh tortib yiqilayotgan paytda uning atrofidagi sharpalar nari qochayotganini tez-tez ko'rish mumkin. Oblog og'riq azobidan ko'zları qonga to'lган yirtqichning fe'lini namoyon etaroq o'zini himoya qilib panjası bilan biringa zarb urgach, ovozi abadiya o'chgan, ko'zları pirpirashdan to'xtagan soqoldorni qichqiriqlar orasida o'rmondan olib chiqib ketishmoqda.

Xuddi yelkasidan turtib yuborilganday, bolakay chap tarafga keskin burildi, u tomonda ham o'rmon bo'rtig'i ortida xuddi shunday to'da shovqinlamoqda. U yer-bu yerida yosh ko'chatlar supurgi kabi o'sib turgan, qiyalik bo'ylab jarlik tomon tushib borgan keng ko'lamlı chopilgan maydon esankiragan bolaning ko'z oldida namoyon bo'ldi. U Oblogni ham, oppoq sochlarni osmonlarda yoyib turgan ulkan qarag'ayni ham taniy olmadi, faqatgina uning tagida qorayib turgan Kalina kulbasini ko'rgachgina bu ayni o'sha qarag'ay ekanini bildi; uning atrofida olomon to'dalashib turibdi. Qandaydir asosiy hodisa ga ulgurmay qolishdan qo'rqqanday, bola kesilgan maydon bo'ylab to'g'riga yugurib ketdi va uzoq vaqt odamlar halqasi orasidan, kattalarning tirsaklari ostidan o'tolmay pitirlab turdi.

– Ey, qayoqqa hovliqyapsan, bolakay? – so'radi yuqoridan kimdir.

– Kalina bobomning oldiga, – yalinchoqlik bilan dedi Ivan va uni o'tkazib yuborishdi.

Toptalaverib qorayib ketgan qor ustida o'rmon kesuvchilar to'dalanib turibdilar. Ular o'zining isitilmagan, eshigi lang ochiq kulbasining oldida, to'nka ustida o'tirgan qariyaga boshlarini ma'yus xam qilganlaricha, shubha bilan, xuddi o'rmon mo'jizasiga qaraganday tikilib turibdilar. Kalina boshida qalpoqsiz, qandaydir toza va yasharib ketganday ko'rindi, yelkasiga qo'y terisidan po'stincha

tashlab qo'yilgan; tepasida so'nggi bor yuksalib turgan quyoshning asal tusli nuri uning kal boshida akslanadi. Chamasi, vidolashuv suhbati kechmoqda edi, ammo daraxt kesuvchilarni jalg etgan narsa buning o'zigina emasdi. Yengada tartib o'rnatish uchun kelgan qorovulkxonada shaxsan Knishev asalni va Kalinaning o'zi tuzlagan malla qo'ziqorinni yeb turardi. Bularning hammalari aslida ovoza-larga ko'ra yarim million botmon o'rmonlarni kestirib yuborgan va uchta buyuk rus daryolari atrofidagi yashil libosni sidirib olgan ulug' arbobni ko'rib qolish uchun kelgan edilar.

— Ana shunday, yaxshilarim, ongsiz bolalarim... — dedi Kalina xuddi kitob o'qiyotganday sokin va tekis ohangda. — Men shuni demoqchimanki, tuproq o'zining yashil chakmonidan mahrum bo'lsasovqotib muzlaydi va uning salomatligiga qattiq putur yetadi. Sigirlar bir dona maysani topib yeish uchun yetti chaqirim yo'l yurishga majbur bo'ladi, ilgari esa bir gaz yerdagi maysazorda to'yib o'tlab olar edi. Yoz oylarida bir parchagina bulut ko'rmaysiz, ba'zi qishlaringiz qorsiz o'tadi... va odamlar o'z quyoshlarini la'natlashni boshlaydilar! Hammomda badaningizga supurgi urib rohatlangingiz keladi, ammo uni bog'lash uchun bitta nimjon nihol ham o'smay qo'ygan bo'ladi. Agar qadim daraxtlarning to'nkasining kengligidan, uning ustida bir odam bemalol uzala tushib yota olar edi, desangiz, nabiralaringiz bu so'zlariningizga ishonmaydi. Rus o'rmonining so'nggi daraxtlarini kesib bo'lganiningizdan keyin, mening azizlarim, bir burda non ilinjida begona yurtlarga chiqib ketasizlar!..

Ko'zlarida yosh, go'yo ojizning nigohi bilan u o'z qarshisidagi yalang'ochlangan makonga boqib turarkan, qirg'inga mahkum etilgan o'rmonning eng yaqin chekkasini, dehqonlarning, shu jumladan Ivanning ham yuzlarini ko'rmsasdi, o'zining yosh do'stini hatto tanimadi ham. Oz-ozdan uning tishlarini, quvonchini, jingalak malla sochlarini tortib olgan yovuz kuch endi uning ruhini olib ketish uchun tashrif buyurgan edi. Va bu safar ham, Ivan shuni qattiq qayg'u bilan his etdiki, Kalinaning nutqida g'azab emas, shikoyat emas, bu dunyoda qolayotgan insonlarga nisbatan achinish bor edi, xolos.

— Endi bosh chayqagandan nima naf! — xuddi o'shanday vidolashuv ohangida, go'yo boshqa sohildan gapirayotganday, javob qildi Kalina murojaat etganlardan biriga. — Bir ishni boshladikmi, endi baribir oxiriga yetkazish kerak...

Shu paytda Ivan qorovulkxona oldida o‘zining doimiy mulozimlari kuzatuvidagi Knishevni ko‘rdi. Bu odam anchagina bo‘ychan janob bo‘lib, silliq ko‘k movutdan burmabel kamzul kiygan, ko‘rinishi qari emas, ayni qirchillama erkak, faqat ko‘zlari salgina solqigan, liqqa, rangsizlangan va biroz chaqchaygan – bu alomatlar shunday odamlarning uzum musallasning ashaddiy dushmanlari ekanini ko‘rsatardi; o‘z tabaqasining uslubida soqol qo‘ygan; og‘irliklarni ko‘tarishda qulaylik uchun cho‘yan shibbalagichga payvandlab qo‘yiladigan qulqchalarga o‘xshash kattakon shal pang qulqlari bo‘limganida, qaysidir tarafdan qaraganda, dostonlarda ta’riflangan shovvozlarga qiyoslash ham mumkin edi. U yaxshigina sarxush holda qorovulxonadan chiqib keldi va tishlari orasiga kirib qolgan mumkataknini jimjilog‘i bilan kovlab turib, Kalinaning nutqining oxirini diqqat bilan tingladi. Uning tevaragida gavdasini oldinga tashlagan, uzun qo‘llari tanasi bo‘ylab osilib turgan kaltaoyoq Titka, hamda daroz, xuddi o‘zini o‘zi yeb tugatayotganday qoqsuyak, kallasi kichkina, burni qushnikiga o‘xshab qayrilgan, bo‘yni uzun, bezovta o‘ynab turgan ko‘zlari vujudni teshib yuborguday qattiq tikilib turadigan Zolotuxin, – uning yoshi anchaga borib qolgan, ammo boshidagi oq sochlari kal qismidan ko‘ra ko‘proq. Kanishevning ma’lum va mashhur kuchiga itoatini namoyish etib, u boshidan qalpog‘ini yechgan holda va o‘zining og‘ir, baland uchli qalpog‘ini keng yoyilgan qo‘lida sohibidan sal nariroq tutib turibdi...

Aytish joizki, u avval boshdanoq o‘g‘illari bilan birgalikda o‘rmondan foyda chiqarishning mashhur ustasining qo‘ltig‘i tagiga kirib olishiga sabab faqatgina ish haqi emas, balki tijorat sohasida savodini orttirish maqsadi ham edi. Ularning ikkovi, Titka va Zolotuxin, maymun bilan kalxat, xo‘jayinlarining har qanday buyrug‘ini bajarish uchun yugurishga tayyor turar edilar.

– Vaysashni bas qil, boboy... Raseyaga ajalidan oldin tobut yasma. Qalpog‘ingni kiyib ol, shamollab qolasan, yaltirbosh iblis, – og‘ir-bosiq kulib qo‘ydi Knishev, zinapoyadan qaddini tik tutib tu shar ekan va to‘planganlarning hammalari uni ko‘rishlari bilanoq qaltirab, butun rus tuprog‘idan hammom uchun supurgi bog‘lash uchun novda topilmay qolishi mumkinligi to‘g‘risidagi fikrdan shubhalanib qolishdi. – O‘zingcha o‘rmonning qabri ustida vidolashuv diydiyo-

sini o‘qiyapsan-u, ammo o‘zingning hali hayotdan umiding bor... a labbay?

– Eh, bolalarim, – soddadillik bilan tazarru qildi Kalina, – umrimga yana ozgina qo‘silishi uchun dengizdag'i qum donalarini sanab chiqishga ham roziman! Oyoqlarim chalishib ketayotganiga ham qaramasdan, roppa-rosa ming yil yashashga tayyorman, menga hayot... boldan ham ko‘ra ko‘proq shirin tatiydi!

– Chamasi, sen hali ancha yashaysan! – homiyarcha lutf ko‘rsatgan bo‘ldi Zolotuxin. – Modomiki birovga tayanmasdan o‘tira olayotgan ekansan, buyam yetmaganday, odamlarni qo‘rqitishga quvvating yetayotgan ekan, demak hali unchalik keksa emas ekansan.

– Albattayam, men yoshman, faqat yillar yelkamga og‘irlik solyapti.

– Ana shundoq yashayver: mingni yashab qo‘ydingmi, ikkinchisini ham boshlayver... men to‘g‘ri aftyapmanmi, bo‘talarim?

– O‘rmonkesarlarning ma’qullagan shovqinlari orasida o‘ziga yo‘l bo‘shatib berayotgan olomonga murojaat qildi Knishev. – Qani, bunga uzat-chi, Titka!

Shu zahotiyog yapasqi kumush idishcha ish boshqaruvchining chaqqon qo‘llarida paydo bo‘ldi. U bardoqni eng tepasigacha to‘ldirib quydi, Kalina o‘ziga tanish aroqqa tikilib turdi-yu, lekin bosh chayqadi, hukmfarmolar cholni xafa qilmayotganlarini kuzatib turgan atrofdagilarning hammasi yengil nafas olishdi. Gapning mavzusini boshlab bergen Knishev jim bo‘ldi va buyog‘ini uning shotirlari davom yettirishdi.

– Ming yilda juda ko‘p narsani ko‘rib yuborgandirsan, Kalinushka?

– Sanog‘iga yetib bo‘lmaydi, azizlarim, hamma narsani ko‘rganmiz. Hattosovutdor suvoriy qo‘shindayam xizmat qilganman... qora egarli qop-qora otlar, dubulg‘alarimizga patlar qadalgan: bizga yaxshi aslahalar berillardi. Doimo oldinda surnaychilar bori-shadi! Yana qaytaraman:sovutdor qo‘shindab o‘lganman... dehqonlar ozod qilinishidan bir yil avval bizni otliq-piyodalar qo‘shiniga aylan-tirishdi...

– O‘zing ham jang qilishingga to‘g‘ri kelganmi?

– Qrimda bir ish bo‘lgandi, tagimdagi otga zambarakdan otilgan cho‘yan kurra kelib tegdi. Men yoshligminda-chi, ehh, juda abjir bo‘lganman... harbiy bo‘linmada ashulachi xizmatida edim.

– Buni qara-ya! Qoshingda chandiq bor ekan, qilichning izi, shekilli. Oqsoqlanishing ham urushdan esdalikmi?

– Yo‘o‘, bunisi keyin bo‘lgan... tagimdagи ot qoqilib yiqligan, oyog‘im esa uzangiga tiqilib qolgandi: podshohimizning, ya’ni hozirgi urf bo‘yicha aytganda otaxonimizning huzurlarida istehkom olayotgan edik. Ammo lekin aytib qo‘yayki, uni rasmlarda noto‘g‘ri tasvirlashadi: u ko‘proq mallaga moyil bo‘lgan, mo‘ylovi chakkasi-gacha borardi. – Ichkilikka o‘rganmagan Kalina tez mast bo‘lib qoldi, uning ayanchli mastlikdagi gapdonligidan ikki marta Ivanning yuragi qattiq ezilib ketdi. – Sizlarga yana o‘rmon haqida so‘zlab beraman, aziz bolalarim...

– O‘rmon haqidagi yolg‘oningni keyin vaysaysan! – uning gapini bo‘ldi Titka. – Sen bizga kulgiliroq narsalardan gapir. Sankt-Peterburgda oshpaz ayollarni qo‘ldan chiqarmagandirsan, axir? Boshkentlik xotinlar rosa ko‘hlik bo‘lishsa kerak deyman, a labbay? – mazahomuz ovozda davom etdi u, yo‘qsillarning e’tiborini qozonish maqsadida, kuniga chorak so‘m bay evaziga yollangan olomonga qiya nazar bilan qarab qo‘yarkan.

– Oyimchalardan g‘aflatda qolib bo‘larkanmi! – Kalinaning o‘rniga javob berdi Zolotuxin, mujiklarning ixtiyorsiz, suyuqqina kulgisi ostida. – Davringni surib ol, ildizigacha urib qol, deyishadi-ku, axir.

– Unaqa narsalarni unutvorganman, juda ko‘p yillar o‘tib ketdi... og‘a-inilarim haqida ko‘proq o‘ylaganman, – uning so‘zlarini tasdiqlamadi Kalina. – Men u yerda, Piterda podshohimiz buyurgan to‘sqliarni olish bilan band bo‘lganimda ularning hammalari omonatlarini topshirib bo‘lishgan ekan.

– Nima darddan o‘lishibdi?

– Yerda hosil bitmasdan qahatchilik bo‘lgani sabab qamg‘oq, ya’ni bizningcha, sho‘rak yeb kun ko‘rishgan ekan. Mayda tuyib yeyaverishgan. Shundan bo‘kib o‘lishgan, shekilli.

– Mana, badnafslik nimalarga olib keladi, – qo‘lansa gap qildi molfahm Titka va atrofdagilar birdan ma‘yuslanib qolishdi, hatto qu-yosh ham uyatdan bulutlar ortiga berkindi.

Ivan ko‘zları to‘la yosh bilan oyog‘i ostidagi qorga tikildi: u inonib yurgan ertak poyoniga yetib bormoqda edi. To‘g‘ri, Oblog-naning yarmi hali tegilmagan holicha turibdi, ammo bolaning shu-

urida o'rmon Kalinaning tomi tepasida soya tashlab turgan qudratlilignabargli kampirning halokati bilan bir vaqtda o'zining mavjudligini to'xtatgan edi. Uni shundoq qoldirishdan ma'ni yo'q: bиринчи оқбо‘рон бoshlanishi bilanoq u ag“darilib, Kalinaning hujrasini chirigan yong‘oqday ezib tashlaydi.

– Endi sekingina tarqalaveringlar, ahli qavm, – yoqimsiz ovozda dedi Knishev. – Mening ham isinib olishimga qo'yib bering!

Hamma uchun kutilmaganda u egnidagi kamzulni yechib tashladi va kumush qadama bezakli kavkazcha belbog‘ o'ralgan oppoq, ko‘pikdan ham oqroq kashtalangan ko‘ylakda qoldi. O'nlab qo'llar unga tishlari tobiga keltirib charxlangan arralarini uzatishdi; u eng yaqin turganning tabarini oldi, og‘irligini chamaladi, ma’qul keldi, sinov uchun tirnog‘i bilan tig‘ini tekshirdi, u cholg‘uning toriday jarangladi, tabarning sopida sirpanmasligi uchun mirshabboshi kaftiga tupurdi, daraxt atrofidagi xalaqit berishi mumkin bo‘lgan qorlarni bosib toptadi, – daraxtning eng uchidagi shitirlashlarga qulq tutdi va shoshmasdan, xuddi dor supasidagi kabi o‘z qurbanini boshdan oyoq nazaridan o‘tkazdi. Oblogning eng keksa onasi o‘z tarovatini hozir har doimgidan ham ko‘proq namoyon etib turibdi, qadimiyl go‘zalligi, nayza kabi tekis tik qaddi va hech qanday nuqson siz vujudi betakror edi; qorlar xuddi nimpushti tushlar kabi uning og‘irlashib qolgan shoxlarida orom olib yotibdi. Knishev hozircha bor kuchini sarflamasdan, tabarni o‘zi tomonga tortganicha, xuddi keksa qarag‘ayning jig‘iga tegmoqchi bo‘lganday selpidi va eng pastiga, tupsaning shundoq kerkigan joyiga, ildizlar xuddi qon tomirlar kabi daraxtning tanasiga singib ketgan qismiga zarb urdi, bolakay Ivan oh tortib yuborishiba sal qoldi va o'rmonfurushning qo‘liga qarag‘aydan qon sachrab ketmaganidan qattiq hayratlandi.

– Mana qanday chopish kerak, – nasihatomuz gap qotdi Zolotuxin. – O‘rganlaring!

Tabar avvaliga po‘sloq ostidagi muzlagan qattiq qatlamga urilib qaytdi, ammo temir birdaniga quturib ketdi va havoda mayda, suyak rangidagi payraha tez-tez yaltirab sochila boshladi.

Darhol, birorta ham xatosiz, tor, tekis kertik hosil bo‘ldi va endi tabar kesik orasiga tiqilib qolmasligi uchun mohirona abjirlik zarur bo‘ladi. Avvaliga jaranglab urilgan zorbalar og‘och tanasiga chuqraroq kirib borgani sayin bo‘g‘ilib bora boshladi va qizilishtonning taq-

taqi misol atrofga tarqala boshladi. Tevarakda hamma narsa sukutga cho'mdi, hatto o'rmon ham. Kampirning qishki uyqusini hozircha hech narsa buzishga qodir emasdi... ammo mana, ajal shabadasi uning ignalarini titrata boshladi, olrang qor kukuni esa Knishevning terdan ho'l bo'lib ketgan beliga to'kila boshladi. Ivan boshini ko'tarishga jur'at etolmadi, faqat yoshli ko'zlarining bir chekkasi bilan har bir zarbda Knishevning belbog'ining bir chekkasidagi kumush g'ilof sakrab, urilib turishini ko'rdi, xolos. Ammo qolganlar anchadan beri harakatsiz yotgan tanbal savdogar qo'lllarining chigilini yozishini diqqat bilan kuzatib turishibdi. Knishev bu ishni yaxshi bilishi har bir harakatidan ko'rinish turardi, yer yuzida u eplaydigan yagona narsa mana shu ish edi, xolos. Mohiyatan bu oddiygina daraxt ag'darish edi, ammo o'rmonchilarni xuddi hammalari oliftagarchilik bilan amalga oshirilayotgan qandaydir o'ta qattiq gunoh amalda, buning ustiga oqibati ajalvor bo'lgan shumlikda ishtirok etayotganday aybdorlik hissi ezib turibdi. Zero Knishev dam olmasdan ishlayotgan bo'lsa-da, hammalari tushunib turishibdi: u o'zining rohat quvonchini ataylab, qasddan cho'zyapti, jonli mavjudotni bundayin qiynagani uchun esa hatto bu bexosdan yuz bergen bo'lsa ham, oddiy odamlar eng mohir jalloqlarni ham kechirgan emaslar... Ishni yakunlash uchun savdogar daraxtning boshqa tomoniga o'tdi: yana bir-ikki zarb ursa daraxt ag'dariladi. Oxirgi zarboning ovozini hech kim eshitmadni. Knishev tabarni uloqtirib yubordi va chekkaga o'tdi; bug' uning badanidan xuddi hammomning bug'xonasidagi kabi ufurib turardi. Zolotuxin yugurgilab kelib, indamaygina uning yelkasiga burmabel kamzulni tashladi, Titka esa ichidagisi hech tugamaydigan haligi yapasqi kumush idishni jaranglatib ochdi. Qarag'ay izg'irinli quyosh shu'lasida xuddi avvalgiday viqor bilan turibdi. O'zining o'lganini u hozircha bilmasdi.

Hali hech narsa sodir bo'lgani yo'g'-u, ammo o'rmon kesuvchilar orqaga tislandilar.

— Ketyapti-i... past ovozda shivirladi kimdir Ivanning tepasida.

Qachonlardir Knishev o'zining non-tuzini tabar ishlatib topgani endi hammaga ayon bo'ldi, va buyog'iga uning mahorati qay darajada ekanini aniqlash qoldi: qarag'ay o'z to'nkasining ustidan yiqilib borayotganida sirpanib, xuddi zambarakdan otilgan o'qday Kalinaning kulbachasini uloqtirib yuborishi ham mumkin...

Shox-butoqlar orasida sezilar-sezilmas harakat jonlana boshlandi, pastda nimadir omilkorlik bilan qarsilladi va pahlavonning eng uchidagi shox-butoqlarni mayda qaltiroq tutdi. Qarag'ay egildi va hammalari yengil tin olishdi; ikkinchi kertik birinchisidan salgina yuqoriqda edi, og'och to'nkaning hademay yoriladigan qismiga tayanib, xatarsiz tarafga og'ib boryapti. Va bir lahzada daraxtning o'lim talvasasidagi tojida rosmana bo'ron boshlandi, shox-butoqlarni sindirib, qorlarni sochib-sidirib tashladi, – qortepalar daraxt qulashidan avval yerga tushib olish uchun o'zlarini pastga tashlashdi... dunyoda uning soyasida sening bolaligingning xira orzu-istiklari ongingda paydo bo'lgan daraxtning qulashiday sekin va azobli kechuvchi hodisa yo'q!

Ivan fojianing intihosini kutmasdan, butun vujudi titrab-qaqshab, yalang'ochlangan makon bo'ylab kezib kelish uchun yo'lga tushdi. U alamning xuruji pasayganida qaytib keldi; Kalina hech qayerda ko'rinxmaydi, omma tarqalib ketgan, faqat birgina bekorchi qariya, chamasi kelgusi avlodlarga xabar qoldirish uchun tanasining chopilgan joyidagi kengligi qalpog'ining uchigacha qo'shganda o'zining bor bo'yicha keladigan tabiat mo'jizasini choraklab o'lchayapti, kulbaning ostonasida esa, bu safar avra-astari mo'ynadan tikilgan qimmatbaho po'stin kiygan Knishev sigara chekib turibdi. Oradan ancha yillar o'tib ham, shunday yuvosh dehqon o'spirin o'g'lonining yuragida bunaqangi kuchli nafrat qayoqdan paydo bo'lдиykin, degan narsa tushunarsizligicha qoldi... ammo barcha keyingi hodisalarni tushunish uchun nazarda tutish lozim bo'lgan holatlar bor: insonning qismati uni yoshligidanoq o'zining tarixiy maqsadlarini amalga oshirishi uchun unda mahoratni va irodasini tarbiyalash maqsadida turmush voqeligining san'atkorona tanlangan hodisalari aro olib bora-di. Pankaning ayri cho'zmasi Ivanning qo'liga qanday mo'jiza bilan tushib qolganini, qishning o'rtasida uning qo'liga toshni kim qistirib ketganini faqat taxmin qilish mumkin, xolos.

Knishev o'zining chakkasiga Ivanning siylovi kelib tekkanida endigina tamakisining birinchi tutun bulutini puflab turgan edi. Sarosima boshlandi, eng iflos so'kinishlar alangalandi, bunga javoban ehtirosli bir ilhom bilan Ivan o'zi ixtiro qilgan va keyin butun Yengada mashhurlashib yangray boshlagan so'zni aytib baqirdi... Knishevning dahshatli kasalligi haqida uning qulog'iga kim shipshitib ketgani

ham noma'lumligicha qolaverdi. Yugurgilab kelgan Titka qor bosgan yalanglik bo'ylab o'rmon tomonga juftakni rostlab qolgan tirranching ortidan quturgan itday tashlandi. Qortepalardan oshib o'tish yosh bola uchun oson, biroq ularning birida Ivanning bir poy piymasi yechilib ketdi va u yugura turib qortepa tagida ko'rinxay turgan shoxda oyog'ini kesib oldi. Ularni nari borsa o'n qadam masofa ajratib turardi, ammo qiya og'ib turgan oqqayin unga najot bo'limganida, professor Vixrov umrining oxirigacha chinoq qulqoq bo'lib qolib ketgan bo'lardi. Bolakay yugurishdan to'xtamagan ko'yи uning yuqorisidagi ayriga tirmashib chiqib ketdi va unga xuddi egarga minib olgandek joylashib, tishlarini irg'aytirganicha, o'zining bolalarga xos bo'limgan g'azab-nafrati bilan pastga dahshatli tikildi. Titka esa yerda u yoqdan bu yoqqa yurib, uzun tili bilan kaftidagi qorni yalaydi, barmog'ini cho'zib po'pisa qiladi, shu paytda Knishevning o'zi barcha asbob-aslahalari bilan yetib keldi.

– Bu yoqqa tush, qashqirvachcha, – bo'g'iq ovozda dedi barzangi, nafasini zo'rg'a rostlab.

– Chirigan boyon! – takrorladi bolakay, o'zining benuqson salomatligi va o'zi xalq orasidan chiqqan fuqarolar naslidan ekan bilan g'ururlanib yuradigan Knishev uchun bundan ham haqoratliroq laqab yo'qligini bilganday.

– Daraxtni yiqitaman, osmondan bo'lsa ham olib tushaman... pastga tush.

– Bu yerdan ket... chirigan boyon, – bola butun vujudi bilan qal-tiray boshladi.

Endi ishga Titka aralashdi:

– Uni qo'riqlab tur, Vasil Kasyanich... biz hozir buni, murtakni, tayoq bilan urib tushiramiz!

Knishev bolaga, uning yirtiq qalpog'iga, yalang oyog'iga, qonab turgan, ozroq ko'kargan oyoq kaftiga qisiq ko'z bilan qaradi. Uning niyatida nimadir o'zgardi: uvada kiyimdag'i hayvonsimon odamchaga achingani yo'q, albatta. Uni ajablantirgan narsa, chamasi, uning o'nlab yillik yovuzona faoliyatlari davrida faqat mana shu zumrasha, butun Rossiyada, mana shu dehqon bolasi rus o'rmonini mushti bilan himoyalashga tashlangani bo'ldi.

– Yo'qol bu yerdan, ahmoq! Buyurdi Knishev Titkaga. – Yo'q, shoshma... avval buning piymasini topib ber... – Va loqayd, shubha-

gumonga o‘rin qoldirmaydigan bir ohangda qo‘shib qo‘ydi: – Bola-kayga barmog‘ingni tekkizsang – o‘ldiraman seni...

... O‘shandan beri bola Kalinaning oldiga bir martayam bormadi, go‘daklarga xos bo‘lgan musibatdan va o‘limdan ongsiz ravishda qo‘rqish hissigina emas, shunchaki bo‘laklab tashlangan beba ho o‘yinchoqning qoldiqlariga qarash vahimasi ham bunga sabab edi.

Yarasi asta-sekinlik bilan bitishni boshladi; bir safar Peterburg O‘rmon institutidagi ma’ruzalarining birida, agar Kalina Gluxovning qismati uning turmushiga aralashib qolmaganida, Oblogning qirib tashlanishi voqeasini keyinchalik eslamagan ham bo‘lishi mumkinligi professorning xayoliga kelib qoldi.

Butun dunyoda boshlang‘ich taraqqiyot yog‘och zinapoyalar bo‘ylab ko‘tarilib bordi, Ivan Matveich o‘rmon bilimlarini to‘plash bilan band bo‘lgan davrda o‘nlab Obloglar uning ko‘z o‘ngida yo‘qotib yuborildi va o‘zidan keyin hech bo‘lmasa o‘z maydonidan o‘n baravar kamroq avlodni qoldirib keta olmadi... Bu vaqtga kelib Kalinaning qiyofasi uning xotirasidan ancha o‘chib ketdi, faqat ancha yillardan keyin, Ivan Vixrovning ilk kitobi orqali u mangu bahodirlik cho‘qqisiga ko‘tarildi.

6

Mahalliy kasblarga o‘rganmagan otasining o‘limidan keyin oilada Ivandan boshqa bironta ishga yaraydigan odam qolmadi, Knishevning chorak so‘mlari ham bu xonadonga mutlaqo kirmas edi. Agafya tirishib o‘zini o‘tga-cho‘qqa ursa-urdiki, sharobxonachining huzuriga farroshlik qilishga bormadi. Cho‘qintirish kuniga yaqin, o‘sha qishning o‘rtalarida Taisiya bиринчи marta gadoy to‘rvasini bo‘yniga ilib, Vixrovlarni birov tanimaydigan uzoq qishloqlarga chi-qib ketdi, ammo tilanmaydi, ikki kaftini birlashtirib sadaqa so‘rab qo‘l cho‘zmaydi, xonadonlarning derazalari tagida yuvoshgina o‘tirib, o‘tkinchi ko‘rlardan eshitib yodlab olgan qissasini kuylaydi:

*Nochor ona ko‘zlarida yosh bilan,
Pichoq charxlar g‘adir-budur tosh bilan,
Farzandlarin bo‘yniga tig‘ tortmoqqa,
Ochlikdan alarni xalos etmoqqa...*

Ancha keyin, keksalik faslida, dilida sir saqlab yurganlari tilga chiqadigan damlarda bir marta opa o‘z ukasiga maqtanib, go‘yoki o‘sha yillarda Yengada dong‘i ketgan bir ot o‘g‘risi mast paytida Taiskaning ashulasidan ko‘zları yoshlanib ketganini aytdi. G‘ururdanmi, yoki o‘g‘lini mehnatsiz nonga o‘rgatmaslik uchunmi, Agafya Ivanni opasi bilan birga yubormas edi. Ko‘klamga qadar Taiska topib kelgan burda-surdaga qo‘shib qashshoqning doimiy rizqi – to‘pon, po‘stloq yeb kun ko‘rishdi. Shunday kunlarda Agafyaning qaynisi, akasini xuddi otasiday aziz ko‘rgan Afanasiy yordamga kelib qoldi: uylanmagan, badqovoq va taqvodor bu odam hamyurtlarining aytishlaricha, Matveydan ham dahshatliroq ko‘rinardi, ammo xushro‘ylikda akasidan ikki baravar o‘tib tusharkan. U kelinoyisiga maktub yozib, boshiga bevalik kulini sochishni bas qilishini, katta farzandini olis Baxtarmada yashaydigan yolg‘izgina xolasiga tashlab, Ivanni Piterga olib kelishni, u yerda o‘ziga yaqin joydagи novvoyxonada ish o‘rnı borligini xabar qildi: maosh to‘lanmaydi-yu, ammo bu joyning foydali jihat shunda ediki, novvoyxonadan tashqariga chiqmaydi va kundalik non nasibasi bor.

... Yevpatiyni kutib, oltovlonning barchalari uzoq vaqt qora, qatronlangan Krasnovyershye kemabandida intazorlikdan tinkalari quridi: xolasidan tashqari, Ivanning oshnalari ham ularni kuzatgani chiqishgan, Demidka Ivanni avrab, o‘zları bilan birga hali shu paytgacha bu atrofda sodir bo‘lmagan misli yo‘q yong‘inni tomosha qilish uchun borishga ko‘ndirmoqchi bo‘ladi; achchiq tutun kamida bir haftadan beri butun atrofni qoplab olgan.

– Ganka-chi, og‘ayni, Loshkaryovdan kerosin ‘olib qaytayotgan ekan... zo‘rg‘a qochib qolibdi, – zavqdan so‘zları og‘ziga tiqilib so‘zlaydi Demidka. – Olov uning ortidan quvibdi, otining qorniga ilashibdi, u esa shunaqangi yugurish qilibdiki. Yuraqol, boraylik, xabar hushtagigacha yetti martalab qaytib kelishga ulguramiz, a?

– Ularning Piterida yong‘inlar bundan ham zo‘r bo‘ladi, – e’tiroz bildirdi Letyagin va kattalardan o‘zlashtirib olgan odatiga ko‘ra labining tepasidagi mo‘ylov o‘sadigan joyni viqor bilan siypalab qo‘ydi. – Hali tomosha qilaverib zerikib ham ketadi!

Ivan Matveichning xotirasida o‘rtoqlari aynan shu qiyofada qolib ketishdi: u ulg‘aydi, o‘qidi, mamlakat bo‘ylab kezdi, ilmiy dajalar oldi, asta-sekin bukchayib bordi, yuvilaverganidan suzilib

ketgan ko'yak kiygan ikkita oyoqyalang bolalar esa, xira yashil Krasnovershye qirg'og'idagi ko'kish tutun pardasi orasida hamon bahslashib turishibdi.

– Agar muhtojlikda qolsang, to'qlichani sotib yubor. Yetimchani xo'rلامагин. Agapyevna! – kema sahnida turganicha, bug'li chinqiroq hushtagi ovozi bilan birga qichqiradi onaizor.

– I-i, Ayiqbeka, men uchun bukrigina qiz – parvardigorning inoyati. Bitta tovoqdan yovg'on ho'playmiz, – yo'g'on, g'ozning g'ag'illashiga o'xshagan ovozda javob qildi Agapyevna, xuddi o'ljasini changallaganday Taiskaning yelkasidan mahkam ushlab.

... Loshkaryovga allaqachon temiryo'l tortilgan, ammo yo'lning yarmigacha suv orqali borish arzonroqqa tushadi, u yog'iga to'g'ri Peterburg poyezdiga o'tirishadi. Vixrovlar tunuka qoplamlari pastki bo'limga, tuz solingan qoplar va mol yog'i bositgan yog'och xumlar orasiga joylashdilar. Dumalashib yotgan qashshoqlarning buruq-sagan uvadalaridan qizdirilgan moyning isi urib turibdi, yigirmanchi chaqirimdan boshlab esa ignabargli o'rmonlar yong'inining bundan beshbattar tutuni nafaslarni bo'g'adi. O'rmon yong'inlarining qizil yolqiniga burkangan Rossiya yigirmanchi asrga qadam qo'ymoqda edi.

Ikki oylik mislsiz quruqlikdan so'ng ko'kish-sharpavor, to bulutlarning ostiga qadar ustunlar daryolarni kechib o'tib, Rossiya bo'yab harakatlandilar. Arxangelsk Pomoryesi qizil zulmat bilan qoplanib turibdi va Visla o'zining pastki, sekinlashgan qismlarida kulga qoplanib oqadi. Sibir taygasi ko'z ilg'ammas bepoyonliklarda parcha-parcha bo'lib burqsib yotibdi, Smolenskning ulkan jizg'ini u yer-bu yerda Poshexon kuyindilari bilan aralashib ketgan, hatto Qrimning Cho'tirtog'ida nimalardir yonib yotibdi. Chirindi qatlamlari, pichan uyumlari, kemabandlardagi chang bosgan mahsulotlar gurullab yonmoqda... nima yonyapti, nega yonyapti, qancha miqdorda yonyapti – buni hech kim aytib berolmaydi. Gazetalardagi ko'zga tushib qolgan xabarlarda aytishicha, go'yo Vladimirda sayxonlikda yovg'on qaynatib o'tirgan daydini ko'rishgan mish, Vitebskda esa tulki ovlovchi tulkinining uyasiga o't qo'yib, tashqariga qochib chiqishga majbur qilgan mish; Saratovda o'sha yerlik bir boyon gulkanni tuzoq qilib, bedanalarni shu bilan avrab otib olibdi, Chernigov yaqinida esa o'sha yerlik o'rmonchi umum ommaviy falokatdan foydalaniib

o‘z ayblarini yashirishga urinibdi. Va butun yoz davomida amlok-dor o‘zlarining xarob ahvoldagi kubbalarining teshik-tirqishlarini yopish uchun yo‘sin to‘plashni taqiqlagani uchun o‘ch olish maqsadida uning o‘rmoniga o‘t qo‘ygan tambovlik ikki dehqonning jazoga hukm qilingani haqidagi mahkama hisoboti e’lon qilindi. Bularning hammasi, shuningdek, Ivanga Rossiya o‘rmonlarini anglash uchun ko‘rgazmali qo‘llanma bo‘lib xizmat qildi va aytish kerakki, bolaga odamzotning jinoyatkorona isrofgarchiligini bayon etib berish uchun o‘zini zarracha ayamadi.

Bahorda ayovsiz bo‘lib ketadigan Yenga odatda yozning oxiriga borib zaiflashib qoladi, ammo bu darajadagi qirg‘inga hech qachon erishgan emasdi. Bo‘shab qolgan daryo bo‘ylab kemachalar tutun pardasi orasida paypaslanib suzib boradi, kun-u tun ogohlantirish chiroqlarini yoqib, suvning chuqurligini tinmay o‘lchaydi. «Besh, to‘rt yarim, besh...» – tez-tez eshitilib turadi kema tumshug‘i tomondan va har safar to‘rt gazga yaqinlashishi bilan darg‘a iblisona ovozda jez karnayga bo‘kiradi – tezlik kamaytirilsin; parraklar sekinroq aylana boshlaydi, Yevpatiyning qorni ostida qum g‘ichirlaydi. Atrofdagi sarg‘ayib ketgan ajriqlar orasidan u yer-bu yerda ko‘kish tutunini yoyib, chirindi qatlami buruqsamoqda... Yo‘l ko‘rsatkich tog‘orani qirg‘oq tomonga yetaklay boshlashi bilan, jamoa baravariga olovning haroratidan qizib ko‘pirayotgan sahnga va ustki qavatga chelaklab suv sepgan ko‘yi ularni shu safarga yo‘llagan xo‘jayinni so‘kmagan so‘zları qolmadı... Suzuvchi alangaga aylangan tashlandiq yapaloq kemaga tegib ketguday bo‘lib o‘tib borishar ekan, daryoni kechib suzib borayotgan dumi kuygan tulkini ko‘rishdi. Bunday yong‘inzorda sayozlikka tiqilib qolish juda yomon ish bo‘lardi, o‘tgan tunda Nogatinda, yonib turgan xoda sohildan otilib uzun movut chakmon kiygan boshyalang yo‘lchini urib halok qilibdi. Undan sal oldinroq u alanganing hamlasini ko‘rib tashvishga tushib, yo‘lovchilarga xiralik qilib, ularga o‘zining mulohazalarini bayon qilib, ularning ko‘z oldilaridagi oqimtir tutun hamda uning bag‘rida sochilib turgan narsa oddiy olov emasligi, bu yong‘in aynan jahannam olovidan o‘t oldirilgani, gunohkorlar do‘zaxda bundan chandon-chandon kuchli o‘tda yonishlarini aytibdi! Va bu so‘zları parvardigorga shak keltirgan odamchalarga xuddi ruhoni yabi ko‘zları qonga to‘lib, qahr bilan aytibdi... Endi esa narigi dunyo sirlarining bilimdoni jonsiz holda

kemaning quyrug‘ida yotganicha, ko‘zi yarim ochiq holida Ivanga o‘zining chipta to‘shamasidan tikilib yotardi... Bola murdaning uzala yotishidan qo‘rqib o‘tirardi; u yonlamasiga surgalib tashqariga chiqib ketdi va dahanini sahn to‘sig‘iga qo‘yib, yong‘in qamrab olgan chap qирг‘оқдан ко‘зини узмасдан tikilib qoldi.

Mohiyatan o‘rmon o‘zining avvalgi hayoti bilan yashamoqda... mana shamol ansolning zarhal barglarini yulib ketdi, mana cho‘chib ketgan qizilpat qorayaloqlar to‘dasi havoga ko‘tarildi va ularning ortidan olovrang olmaxon alangalanib turgan keyingi shoxga sakradi. O‘sha chog‘lardayoq Ivanni hayratga solgan narsa – ofatga duchor bo‘lgan mavjudotlar falokatga qarshilik ko‘rsatmayotganlarining g‘alatiligi edi.

Albatta, uning xotirasida oddiygina manzara muhrlanib qoldi: o‘rmonlardan biridagi, nimasi bilandir Krasnovershyeni eslatuvchi tashlandiq bir mazgilning chekkasida, ikonalar ko‘targan kampirlar zanjirday tizilib turishibdi, Ivanga tengdosh bolalar esa o‘zlarini himoya qilishdan ko‘ra, o‘yinqaroqlik qilib, o‘rmalab kelgan olov qoplab olgan o‘t-o‘lanlarni qoraqarag‘ayning kesilgan shoxlari bilan urib o‘chirishadi. Bu yerda butxona rohiblarining ham hozir ekanliklari bu yerda ibodat qilinayotganini anglash mumkin edi, hammalari nimalarnidir baqirishadi, qo‘shni o‘rmondagi xuddi boshqa yong‘inlarga aloqasi yo‘qday, tinchgina bir joyda yonib turgan alanga ularning ovozlarini bosib ketyapti... Mana, jasurligi tutib ketgan bir chillashir ruhoniy muqaddas suvni xoch shaklida sachratib separ ekan, uni yong‘inga yetkazmoqchi bo‘ladi, qiyofasi esa – mana biz hozir seni, malla ofat, Bibi Maryamning inoyati bilan o‘chiramiz!.., deb turganday go‘yo. Tomchilardan biri qizil maxluqqacha yetib bordi, shekilli, chunki ayni o‘sha lahzada changalzor qa‘ridan – yiqlayotgan daraxtlarning portlagan kabi har tomonga olov otishi, yonuvchan gazlar bilan qo‘shilib – iblisona quturgan kuch hamla qilib qoldi. U xuddi olov devor kabi bostirib kelar ekan, yosh nihollarni g‘ajib o‘tadi, qирг‘оқqa yaqin suv sathida akslanadi... va ruscha qo‘l jangidagi har qanday devor singari, qurib turgan butalarni va archagullarni yamlanganicha eng avval gajirlar, alanganing zumrasha shaytonvachchalari yong‘inni boshlab beradi. Mana, yuqoriga o‘rlayotgan olov quyunida yonib kul bo‘lgan qush pastga yiqlila olmasdan o‘ramada chir aylana-di. Mana, suvning shundoqqina bo‘yidagi daroz qoraqarag‘ay shitir-

shitir qilib libosidan xalos bo‘lgan ko‘yi qizil baxmalga burkanadi va boshqa ko‘pchilik yonayotganlarning safiga qo‘shiladi.

Bundan uyog‘iga hech narsa yo‘q. Yevpatiy qo‘ltiqcha ortiga kirib ketdi. Ivanning qayg‘udan egilgan boshi tepasida kimningdir zavqlanib gapirgan so‘zлari bu shafqatsiz manzaraning yakuni bo‘lib yangradi:

— Voy, tuproqni ajabtovur tozalayapti-da o‘ziyam... bu baxtiqaro yerlarda keyingi yozda brusnika shunaqangi mo‘l hosil beradiki!

... Oldindan aytib qo‘ymog‘imiz lozimki, ikki asr orasiga jo bo‘lgan bu hodisalarни endilikda Ivan Matveich bir xil aniqlikda farqlab ololmayotgan edi. Xotirasi beixtiyor ba’zi tafsilotlarni silliqlab tashladi, ba’zilarini oldingi qatlamga olib chiqib, boshqalarini xirallashtirib qo‘ydi; o‘sha tunda u o‘tmishning sopolaklariga qon bilan yozilgan bitiklarini o‘qib tushunish uchun bir necha martalab qadimshunoslarning uslublarini qo‘llashiga to‘g‘ri keldi.

Qoq tush paytida u o‘tgan tunning hodisalari haqidagi xabarlarni radio orqali eshitib bildi.



UCHINCHI BOB

1

Dushmandan farqli ravishda, Moskva urushni maqtanchoq tahlidlarsiz va ko'cha namoyishlarisiz kutib oldi. Korxonalarda uyuştiligan namoyishlar jiddiylik va kamso'zlik bilan o'tkazildi, bamisoli gap tarixning navbatdagi, avvalgilaridan shafqatsizroq topshirig'i haqida borayotganday; zero faqatgina Boshkentning xususiy taqdiridan ko'ra ko'proq narsa endi ushbu vazifaning bajarilishiga bog'liq bo'lib qolganini hamma tushunib turgandi. Qurilishning tugallanmay qolganidan afsuslanish orqali dushmanga nisbatan nafrat yangraydi – ikki tizimning tinch musobaqlashuvidan qo'rqqan mana shu, yaqin hamda asosiy va yashirin yovga qarshi. Urush hali olisda edi, roppa-rosa uch hafta davomida eng arzimas o'zgarishlar ham Blagoveshshensk berk ko'chasidagi hayat tarziga ham ta'sir etdi.

O'quv yili boshlanguniga qadar Varya dugonasiga Moskvanı tanishtirdi. Tuynuk kovlash va havo hujumidan himoyalanish mashg'ulotlaridan bo'sh soatlarda ular Polya tuzgan ro'yxat bo'yicha shahardagi hududlarni aylanib chiqishadi. To'g'ri, himoyaning xira ranglariga bo'yangan markaziy maydonlar va peshohnalarining yuqorisigacha qum to'ldirilgan qoplar terib qo'yilgan anchayin tanqli binolar hozir noodatiy ko'rinadi; bundan tashqari, teatrlearning jarnomalari yonida donorlarga, xalq lashkari ko'ngillilariga chaqiriqlar, ayollarga esa – dastgohlar yonida erlarining o'rirlarini egallashgada vatlar paydo bo'libdi; ko'chirilmasdan o'z joyida qolgan surat namoyishgohlarida eng avval ko'zga tashlanadigan narsa, yaqin atrofdagi bombardimondan yashirinish joylarining manzili edi. Ko'zni qamashtiradigan darajadagi ko'm-ko'k osmonda quyosh har doimgidan ham ajoyibroq nur sochib turibdi, ammo buning endi hech kimga keragi yo'q edi va kamiga, hattoki u benihoya aziz, ko'pga yo'qotilgan narsalarning yodi bilan odamni azoblaydi ham. Ko'chalarda esa jazirama kunda goh shinel o'ramlarini yelkalaridan o'tkazib olgan

askarlar, gohi yelkalariga belkurak qo'ygan yoshlari, goh jimb qolgan moskvalik kichkintoylarning ko'chirilayotgan birinchi navbatni ko'zga tashlanadi. Ular Boshkentni odatdagi sho'xliklarsiz va qo'shiqlarsiz tark etmoqdalar, lekin ko'zlarida yoshsiz, yelkalaridagi yo'lxaltalarining og'irligidan bellari g'ayrioddiy tik holda borishyapti; onalari ularning yuklarini orqadan ko'tarishib kelishmoqda.

Kechki g'ira-shirada bularning hammasini vokzallar yutib yubordi va o'sha soatlarda katta yo'l bo'ylab, O'rmon xo'jaligi institutining daraxtzhori ortida boshlangan tanklar harakati tun bo'yidavom etdi. Mashinalar ketma-ket o'tib borar; tabiat temirning ko'pligidan, mexanizmlarning darang-durungidan titrab turibdi. Bunday kechalarda hammaning nigohi biron ta istisnosiz bitta tomonga qadalgan: shafaqning so'nib borayotgan hoshiyasida tobora yaqinlashib kelayotgan urushning yolqini ko'rindi.

U Moskvaga bir oy o'tibgina yetib keldi, o'shanda bir kuni tong saharda Moskva ostonasi tepasida xuddi sepib yuborilgan siyoh kabi qop-qora tutun paydo bo'ldi; birinchi havo hujumidan keyin Filidagi moyqog'oz korxonasiiga o't ketdi. Ko'p o'tmay havo zarbasi takrorlandi va bu safar ham tashqaridan qaraganda Moskvada hamma narsa o'zgarishsiz qolaverdi-yu, ammo uning har bir qadimiy tosh-g'ishtida qandaydir yangi, qat'iy, burch hissidan iborat mazmun qaror topdi. Ayni o'sha kunlarda moskvaliklarning ongida qahramonlik alangasini o't oldiruvchi birdamlik, dushmanqa nisbatan tarixiy ustunlik va yana o'sha, og'riqlarning va nadomatlarning taftini bosuvchi sukutli g'azab yetilib kela boshladi; mamlakat aynan shunga muhtojlik sezayotgan edi. Hamlalari to'satdan amalga oshirilgani sababidan kuchli bo'lib turgan olmon qo'shinlari iyulning o'talarida Smolenskni shimol tomonidan aylanib o'tib, Demidov hamda Duxovshina orqali Yartsevga bostirib kirdilar; avvalgi urushlarda ham doimo Rossiyaning ichki hududlarini sarosimaga solish uchun maxsus vaqt talab etilar edi. Buning natijasida Moskvaga parvoz yo'li uch baravarga qisqardi va endilikda har tun uning ostonalarida zenit to'plarining fashist aviatsiyasi bilan ayovsiz otishmalari shiddat bilan olib borildi.

Qorong'i tushishi bilan kumushrang aerostat guruhlari osmonni to'ldirdi, shaharning shovqinli ohanglariga esa havo hujumidan ogohlantiruv xabarlagichlarining hukmfarmo, inson quloqlari hech qachon ko'nika olmaydigan uskunalari kirib keldi. Ular hamma narsani jimb

qolishga majbur etardi, hatto barglar shivirini va bolalarning yig‘isini ham, xuddi tiriklik o‘zini sezdirib qo‘yishdan qo‘rqqanday unsiz qoladi, ko‘chalar esa shunaqangi uzunlashib ketganki, ularning oxirigacha yugurib yetib bo‘lmaydiganiday tuyuladi. Yenga sokinliklariga o‘rgangan Polya uchun ustiga bomba kelib tushishidan ham ko‘ra yomonroq nimanidir vahima ichida kutish soatlari boshlandi. O‘sha kech, ayniqsa havo ochiq paytda, unga bolaligida og‘rigan har qanday kasalliklaridan ko‘ra og‘irroq dard xuruji kelib yopishdi; bu – havoni jism sifatida his etishdan iborat bemorlik edi; so‘zлari g‘o‘ldirab chiga boshladi, hamma narsa qo‘lidan tushib ketaveradi. U hech narsadan nolib shikoyatlanmadni, toki Varyaning o‘zi bu telbalantiruvchi kasallikning dorisini tavsiya etishga qaror qilguniga qadar.

Suhbat bir kuni Varya tomdagi navbatchilikdan qaytganidan keyin bo‘lib o‘tdi. O‘sha kech har doimgidan erta bo‘lib o‘tgan hujum darhol bartaraf etilib, boshqa takrorlanmadni, chunki osmon qora bulutlar bilan qoplandi. Polya allaqachon uyda bo‘lib, shunday vaqtida bu shaharda hozir ekanligini qanday bo‘lsa ham oqlash uchun xo‘jalik ishlari bilan band edi. Yarim soatdan keyin Varya yo‘l-yo‘lakay choy ichishga taklif etib o‘tgan Natalya Sergeyevna ham kirib keldi.

– Endi uchib kelishmaydi, men nabiramni uslashga yotqizib chiqdim, – dedi u faqatgina rangi oqargan, sarosimaga tushib qolgan Polyani tinchlantirish maqsadida. – Chamasi, yomg‘ir boshlandi... siz ivib ketmadingizmi... Varya?

– Yo‘q, hechqisi yo‘q... faqat chordoqda yengimni mixga ilib oldim. Sen bu sehrli manzarani tomosha qilishga chiqmasdan bekor qilding, Polya: Moskva ustidagi yozgi yomg‘irni. – U darhol yonida paydo bo‘lib qolgan igna-ip uchun boshini silkib, Polyaga minnatdorlik bildirib qo‘ydi. – Ho‘l Moskva tomlarini tomosha qilishni rosayam yoqtiraman, ayniqsa ular ufqning kengliklariga qadar shu’ylanib turganida!

– Sening ishonching komilmi bu... yaxshi yomg‘ir bo‘lishiga? – so‘radi Polya va rostini aytganda najotkor yomg‘ir uni mutlaqo qiziqtirayotgani yo‘q edi – bu uzoq davom etarmikan yo yo‘qmi, shunchaki dugonasining javobidagi ohangga qarab, o‘zining butun vaqtini bombardan saqlanish joyida o‘tkazayotgani uchun Varyaning ovozida sovuqlik yoki nafrat bor-yo‘qligini aniqlab olmoqchi edi. – Men ham

yomg‘irni judayam sevardim... Yengada, lekin albatta, bu yerdagisi ikki baravar go‘zalroq... va asosiysi, kerakli.

– Gap chiroyda emas... va aynan Moskva tomlarini unchalik jozibador deb ham bo‘lmaydi: yamoqlar, zanglagan novlar. Umuman olganda, barcha o‘tgan yillar davomida mamlakatimiz uy-joylardan ko‘ra muhimroq ishlar bilan band bo‘lgani yuqoridan yaxshi ko‘rinadi... Darvoqe, biz nima uchun mohiyatan allaqachon yassilikdan uch o‘lchamli makonga o‘tgan bo‘lsak-da, nima uchun shaharlar ni faqat pesh tomonidangina bezatishimizni bo‘lg‘usi me’mor sifatida o‘ylab ko‘rishing lozim. Ammo yuqoridan Moskva shundayin tu-shunarli, iliq, oddiyki. Kuch-quvvatingni unga bag‘ishlash istagi paydo bo‘ladi, ozgina bo‘lsa ham... zero, *men* qanchalik kichik bo‘lsa, *biz*, bizga o‘xshaganlar shunchalik ko‘p bo‘ladi, to‘g‘rimi? – Varya so‘zidan to‘xtab, o‘zining botiniy fikri Polyagacha yetib borishini kutdi. – Uchoqlarni kutib o‘tirgan paytimda... xullas, ular boshqa uchib kelishmadi, xayolimga bir fikr kelib qoldi... kim xalqning qayg‘usiga o‘z qayg‘usiga sherik bo‘lmas ekan, shubhasiz, xalqning quvonch bayramida ham o‘zining inkor etilganini his qiladi.

– Siz doim judayam qattiqqo‘lsiz, o‘rtoq Chernetsova, hatto men o‘zim ham sizning huzuringizda o‘zimni maktab sabog‘ida o‘tirgan o‘quvchiday his etaman, – gap qo‘shdi Natalya Sergeyevna, Polyaga achingan holda. – Vaqt kelib, hammasi o‘z joyiga tushadi. Qizni o‘z holiga qo‘ying.

– Men undan so‘ramoqchi edim, xolos... men aynan sendan so‘rayapman, Polya: men bilan yuqoriga ko‘tarilish ehtiyojing bo‘larmikan... ertaga? Agar shovqindan qo‘rqsang, qulog‘ingga paxta tiqib olarsan.

– Yo‘q hali... hozir emas! – Shunaqangi vahimaga tushgan qiyofada boshini chayqadiki, yonidagilar kulib yuborishdi.

– Ha, ko‘rib turibmanki, sendan feldmarshal chiqmas ekan, – ayblovsiz yoki mazahsiz hazil qildi Varya. – Seningcha men o‘limdan sen qo‘rqanedingdan ko‘ra kamroq qo‘rqamanmi?

– Yo‘q! Buning daxli yo‘q...

– Bo‘lmasa nimaning daxli bor?

– Buni hozircha bilmayman.

– U holda balki yaxshisi Yengaga qaytib ketganining ma’quldir? Hammasi tugaganidan keyin esa...

– Senda uyat yo‘q ekan, Varka! Men o‘zim ham o‘zimni mamlakatdagi eng mas’uliyatsiz odam sifatida ayblayman, lekin ilojsizman, tushunsang-chi, hozircha ilojim yo‘q... – Keyin alamidan yig‘lab yubordi. – Shunchaki tushunmayapman, axir...

– Tushunmaydigan nima bor, Polyajon? Bu urush.

– Yo‘q, men boshqa narsani tushunmayapman: ularga hech qanday yomonlik qilganim yo‘q-ku... nima uchun ular hammani qo‘yib, faqat meni o‘ldirmoqchi bo‘lishyapti?

Savol shunaqangi ochiqchasiga berildiki, Varyada ham, bo‘lg‘usi xalq muallimi sifatidagi maqomi uning har tomonlama bilimli bo‘lishini taqozo etsa-da, bu savolga javob yo‘q edi.

... Xullas, hammasi yana o‘z holicha qoldi. Xuddi avvalgiday, ogohlantirish xabari na’ra tortishi bilan Varya havo hujumi mudofaasining boshqa a’zolari bilan birga, qo‘lqopini kiyib, kattakon uzun qisqichni ko‘targanicha tomga ko‘tariladi, Polya esa shosha-pisha yerto‘лага yugurib tushadi, u yerda rostakam, atrofdan to‘silmagan chiroq yonib turibdi, qutilarda kishini xotirjam qiluvchi muzday qumlar qo‘yilgan. Ochiq joy yo‘q, salgina zaxchil, xuddi yer yuzidagi kabi yoqimli, faqat birinchi paytlarda, ularning berk ko‘chalarida g‘ishtdan qurilgan boshqa inshootlar yo‘qligi bois, ko‘chadagi hamma odamlar shu yerga suqilib-tiqilishardi. Ularning ko‘pchiligi turli sabablar bilan Boshkentda qolib ketgan keksalar va bolali onalar edi. Hammalari jim o‘tirishadi, keyin esa uxlab yotgan bolalarning pish-pishiga to‘lib turgan jimlikni fugaslearning vishillab yorilishi buza boshlaydi. Polya ko‘zlarini yumib oladi va uning shuurini bolaligidagi tanish bezovtalik egallab oladi, u o‘sha paytlarda uplashga chog‘langan paytlarida terisi qurbaqaniki kabi sovuq va jirkanch dev hammayoqni tintib, ming‘irlaganicha, o‘zini allanimalarni topa olma-yotganlikka solardi, bundan esa Polyaning qo‘rquvi ikki baravar ortar edi. Qizcha devorga qapishib oladi, hamma istaklarini ongidan faqat bittasi siqib chiqaradi – no‘xat donasidan ham sezilmasroq bo‘lib qolish, sichqonnniki kabi biror uyaga kirib yashirinish, yoki umuman yo‘q bo‘lib ketish.

Harbiy turmush tarziga ko‘nikib borgani sayin Polyaning gapirish va eshitish qobiliyati tiklana boshladи. Binobarin, chiqish yo‘lida mudrab o‘tigan sanitarkani ko‘rib, u Natalya Sergeyevnani tanidi, keyinroq esa ozg‘in-qotma, takabburona professor qiyofali, boshiga

hech narsa kiymagan, Blagoveshshensk berk ko'chasining boshqa aholisidan ajralib turmaslik uchun rasmi ichiga qilib yopilgan shol ro'molni tizzalariga tashlab olgan cholni aniq ko'ra boshladи. Butun ogohlantirish vaqtı davomida professor bitta burchakda, chiroqning tagida qo'lida kitob bilan qimirlamay o'tirdi, kitob hoshiyasiga qandaydir qaydlarni yozib qo'yardi, ammo har bir sahifaga u qancha vaqtini sarflayotganiga va o'qigan varaqlariga qanchalik tez-tez qaytayotganiga qaraganda, u ham yashirinish joyining temir eshigi ortida voqelikdan chalg'ishni uddalay olmayotgani ko'riniib turardi. Polyanı yuragi o'sha tomonga tortardi: turmushning ayrim tushunmovchiliklarini hal qilishda faqat ugina yordam bera oladiganday tuyulardi; bir kuni u bilan yonma-yon o'tirib, Polya o'sib boruvchi muhimlik darajasiga ko'ra o'sha savollarini berishga tortinib o'tirmadi.

Masalan, u hovlida har safar havo hujumiga qarshi lahimplarni qaziganida tuproq to'kilishi natijasida yerdagi tirqish ixtiyorsiz ravishda yigirma santimetr kengroq bo'lib chiqayotgani yo'l qo'yish mumkin bo'lган holatmi... va bundan tashqari, ogohlantirish xabari yangraganida o'zini mudofaa etish yo'rinqomasida ko'rsatilganiday, oziq-ovqat mahsulotlarini vaqtinchalik bilan tabassum qilib, harbiy harakatlarning mazkur bosqichida hozircha sellofanni ayash shart emasligini, ammo muhandislik hisoblaridan har qanday chekinish esa yaxshilikka olib kelmasligini tushuntirdi.

Polya mufassal javob uchun unga qizg'in minnatdorlik bildirdi, javoblar o'z tarkibidagi ma'lumotlarning teraçekani uchungina qadrli emas, balki ko'pni ko'rgan odam bilan qilgan muloqoti uni yolg'izlikning chidab bo'lmas azoblaridan xalos etgani uchun qimmatli edi.

– Men shuning uchun ham sizni bezovta qilishga jur'at etdimki, – minnatdorlik bilan e'tirof etdi u, – o'sha la'natni sellofanni hech qachon, hech qayerdan topolmayapman!

– Hozircha e... bu qidiruvlar bilan o'zingizni qiyamasligingiz uchun barcha asoslaringiz bor, – bosiqlik bilan uni tinchlantirdi qo'shnisi, uning titrab turgan qo'llarini ushlab va o'zi e'tirof etganiday, so'zlarni ochiq qoniqish hissi bilan talaffuz etib, o'zining qiziquvchan va sezgir yoshlарimizga doimo ko'makka tayyor ekani

to‘g‘risida nimalardir dedi; keyin, ko‘zoynagini peshanasidan tushirib, u keyingi sahfani mardona tarzda yengib o‘tishga kirishdi.

Moskva atrofida havo jangi hamon davom etmoqda va bu safar portlash ovozlari eshitilmayotgan bo‘lsa-da, shahar ustida avvalgiday ixtiyorsiz jimlik muallaq turibdi. Qayerlardadir dahshatli tank janglari gumburlayapti va hali obod qilib ulgurilmagan yangi kolxoz uylari atroflarni ham qamrab yonmoqda; kechagi hisobchilar, chizmakash andazachilar, fan nomzodlari tutab turgan gimnastorkalarda o‘t ochish marrasiga emaklab bormoqdalar va Rodion ham ularning qatorlarida... ekanini tasavvur qilishning o‘zi ham g‘alati tuyulardi. Ammo lekin, Moskva meridianidan g‘arb tomonga qarab shunday qahramonliklar bilan qaror toptirilgan sovet yangiliklari butkul yonib yo‘q bo‘lishiga, po‘lat qoplangan zirhli mashinalar esa ko‘p martalab martenlarni toptab o‘tishiga, odamlar esa ko‘p ming chaqirimlarni emaklab o‘tib, ularning ko‘ylaklari sho‘r terlaridan chirib ketishiga va hozirgi o‘smirlar bu tugashidan avval askarlarga aylanishlariga hatto xayolan yo‘l qo‘yish bundan ham og‘ir.

Shunday kechalarda Polya itlarning hayvoniy dahshatlarini kuza-tish imkoniga ega bo‘ldi, birinchi xabar na’rasidayoq ular xarrak os-tiga kirib ketishardi va agar urush yana bir oyga cho‘ziladigan bo‘lsa o‘zining holi qanday kechishini o‘ylaganidayoq Polyaning yuziga qon tepar edi... Keyingi safar, o‘scha odamning yonida o‘tirib, Polya qizg‘in shivirlab, utila-utila insonlarning musibatlaridan foyda ko‘radigan kapitalist hukmdorlarning tubanliklari haqida gap boshla-di. U o‘zining bolalarcha tasavvurida kommunizm sarhadlarida sayr qilishni yoqtirardi, ammo u yerlardan yana xayoliy Dante doirasiga qaytish nihoyatda achchiq tadir edi, chunki unda hamma narsa vu-judingni ezadi – quvonchsiz, qoniqishsiz va ma’nosiz. Polyaning uchinchi, asosiy savoli bu jahannamning qanchalik uzoq davom etishi mumkinligi haqida edi.

– Kechirasiz, yaxshi eshitolmay qoldim... – dedi unga olim qo‘shnisi, qulog‘iga tiqilgan paxtani chiqarib olar ekan, o‘scha davrlarda ba‘zilar shu vosita yordamida turmushning o‘ta og‘ir taassurotlaridan himoyalanan edilar.

– Sizni mashg‘ulotingizdan chalg‘itish men uchun nihoyatda no-qulay, lekin... men so‘ramoqchi edim: bu dahshat yana qancha davom etadi, axir... bir yarim oymi, uch oymi? Nahotki yarim yildan ham o‘tsa?

O‘zi bilan yelkama-yelka o‘tirgan kamtarin va hurmatga sazovor qizning qiziqishlarini qondirishdan oldin professor jimjilog‘idagi uzun tirnog‘iga ancha vaqt tikilib o‘tirdi.

– Sizning savolингиз men uchun kutilmagan murojaat bo‘ldi, aziz bolaginam, – mulohazakorlik bilan so‘z boshladi u, qalamini panjalari orasida o‘ynatar ekan. – Biz keksalar uchun eng qiyin savollar pushti chehra, hayot vasvasalariga uchramagan yoshlar beradigan savollardir. Afsuski, sizga oshkora ayta oladigan umumiyl mulohazalarimdan boshqa hech narsani taqdim etolmayman, ularni e... siz inkor etishingiz mumkin, agar ularda mening shaxsiy tajribalarim, keksaygan, yarim-yaroqsiz odamning qayg‘uli bilimlar sandiqchasi haddan ortiq darajada namoyon bo‘lsa. Ehtimol, ularning ayrimlari, e... bizning yarqiroq voqeligmizdan ancha uzoq ko‘rinar, – mantiqsiz, hattoki qaysidir darajada xudbinlarcha va rostini aytganda, umidsizlikning nojo‘ya xuruji bo‘lib tuyular, ammo har qanday fikr-mulohaza ziddiyatlarning muqarrar manbayi bo‘lib hisoblanadi va bundan tashqari, qayerda aytilgan bo‘lsa, o‘sha joydagи vaziyat ularda aks etadi. Mazkur holatda biz siz bilan qulayliklari kam bo‘lgan g‘orda o‘tiribmiz va siz bilan bizning ustimizga e... voqelikni yashirishga urinmaylik: tomni va chordoq to‘sinlarini aytmaganda sakkiz qavatlili bino ag‘dariladigan daqiqani toliqib kutyapmiz. Bunday vaziyatda ko‘tarinki fikrlar ko‘z ochishi qiyin. Ancha keyin ulug‘vor bir yilnomachi paydo bo‘ladi va yillab davom etgan mahrumliklar, hisobsiz o‘t-olovli chaqirimlar, bir vaqtning o‘zida orttirilgan minglab qorason dardlarini bir necha qator xusnixat yozuviga sig‘drib qo‘yaqoladi... unga qadar esa... Men bir qadar silliqlab ifodalayapman, lekin... siz mulohazalarimning mag‘zini chaqa olyapsizmi?

– Men... men harakat qilyapman, – Javob berdi Polya, bunday mufassal kirish so‘zidan hayiqibroq.

– Shundan boshlaymizki, aziz bolajon, – jiddiy va qandaydir behad ohangdor ovozda so‘zini davom yettiirdi Polyaning suhabatdoshi, – urushlar shu vaqtga qadar eng zaiflar ustidan hukmronlikni o‘rnatish va ularni g‘olibning irodasiga itoat yettirish uchun qo‘llangan. Tabiiyki, shu tarzda erishilgan muvaffaqiyatlarni mustah-kam deb bo‘lmaydi, tahdid yoki zo‘ravonlik vositasida qo‘lga kiritilgan boshqa hamma narsalar kabi. Hech qanday tinchlik bitimlarining bandlari keyingi avlodlar uchun majburiy bo‘lmaydi, faqatgina agar

e... tadbir mag'lublarning hammasini qirib tashlash bilan kechgan bo'limasa. Bunga misol tariqasida Doro va Kserks, Iskandar va Sargon, Temur va Napoleon tuzgan sultanatlar ularning yaratuvchilari vafot etgach, darhol tarqalib ketganini ko'rsatish mumkin... anavi alamzada yefreytor Shiklgruber esa inchunin. Ajdodlarning liboslari keyingi avlodga doim torlik qilgan: odatda ular bu liboslarni e... qaytadan bi-chib-tikadilar! Modomiki, bukilgan gardish o'ziga tegishli bo'limagan makonni egallagan holda qayta tekislanar ekan... xullas, bir urushdan boshqa urush kelib chiqaveradi va shu bois, tan olib aytish kerakki, ba'zi bir kishilar bashariyatning bosib o'tgan tarixiy yo'lini asosli tarzda xuddi yaxlit, agar yumshatibroq gapiradigan bo'lsak, musht-larga asoslangan behuda tortishuv deb ataydilar... ba'zida keyingi to'qnashuvlar uchun badanlariga yog', xazinalariga mablag' to'plab olish maqsadida orada muayyan muddatli tinch tanaffuslar ham bo'lib turadi. Shuning vajhidan, urushlarning emas, oradagi o'sha tanaffuslarning uzoqligi haqida so'zlash to'g'riroq bo'ladi. Siz anavi... nimaydi... siyosiy saboq fanidan qanday baho olgansiz?

– To'rt... – Polya uning savolini to'g'ri tushundi, u tinglovchilar kamliqi bois to'laqonli ma'ruzaga aylanib keta olmayotgan noochiq va noaniq nutqdan asta charchay boshlagandi.

– O, kapitalizm mavjudligining mexanikasini anglash uchun shuning o'zi kifoya qiladi. Shu joyida sizni ranjitishga majburman, qizginam! Sanoatning imkoniyatlari ortishi va shunga muvofiq munosabatlarning murakkablashib borishi bilan, toki insoniyat aqlini qo'llab ish tutishni boshlamagunicha... yoki mahalliy ahamiyatga ega gaz tumanligiga aylanmagunicha oraliq tanaffuslar tobora qisqarib bora-veradi va o'shanda uning vayronkorlik salohiyati bunyodkorlik salohiyatini butkul mahv etadi. «Bu yerda bir nechta ehtiyoitsiz va jizzaki ilohlar yashashgan», – deydi zamonlar o'tib sayyoramizga qo'shni bo'lgan biror yulduzlar tizimining qandaydir ilmi hay'at dotsenti Yer kurrasi haqida. Xossatan, shuni hisobga olishingizni istardimki, odatda e... buyuk ixtiolar davr muhitiga sochilgan bo'ladi va raqiblar tomonidan deyarli bir vaqtning o'zida singdirib olinadi. Xullas, mening miyamga qaytmas bo'lib kelaveradigan manzara e... agar ta'bir joiz bo'lsa, tarixiy ehtiyojning iskanjasiga siqib qo'yilgan, titrab turgan gardishdir. Agar mazkur gardishning uzunligi, u ishlangan jismning taranglik darajasi, muhitning qarshiligi va birlamchi berilgan kuch

unsur sifatida olinsa, ishni bittagina tenglama bilan hal qilish mumkin bo'lardi, lekin afsuski, biz ko'rib o'tayotgan jarayon bir qadar murakkab. Buni qarangki, aziz qizginam, tarix voqealari inson ongi anglay oladiganidan ko'proq miqdordagi koordinatalar ustiga quriladi... va tarixchining xulosasi – to'lig'icha unga ma'lum bo'lgan mazkur davr kesimida ularning qaysi birlari mavjud ekanidan kelib chiqadi!.. Aynan qaysi birlarini u asosiy deb qabul qilishiga bog'liq bo'ladi. Har bir davrda tarixiy hodisalarining sabablariga nisbatan mustaqil qarashlar yuzaga keladi, mening o'ylashimcha, e... deylik, hatto Peloponnes urushi borasida ham eng g'aroyib kashfiyotlar qilinishi mumkinligi ehtimoli mavjud! Albatta, urushning davomiyligi zaxiralar saloxiyatinig o'zaro nisbati, qurollanish sifati, raqiblarning iqtisodiy qudrati bilan belgilanadi... yoki hozirgiday kuchlar tengligi vaziyatida lashkarboshilarining bilim darajasi, qo'shining qahrg'azabi, xalqning ma'rifiy qurollanganligi hal qiluvchi ta'sirga ega bo'ladi... ammo modomiki hech narsa, yana qaytaraman, hech narsa o'tmishning mashhur tamaddunlari halokatini to'xtatib qololmagan ekan, bu tenglamaga yana qandaydir miqdor yetishmayotganmikan, degan xavotirim bor. Menga o'sha massalarni va miqdorlarni to'liq hajmda bering va men xuddi Laplas kabi har qanday vaqt kesimi orqali ularning har qanday holatlarini bashorat qilib beraman. Ammo siz hech narsani aytmayapsiz, mening navqiron o'rtog'im, shuning boisidan oddiy tilda urush deb ataladigan ilmiy tashkil etilgan, qonli tartibsizlikning qancha davom etishi haqidagi savolningizga javob berish qiyin bo'lyapti! Polyani mudroq bosa boshladi, ammo uyqusiragan holida ham uning vujudi tashqaridan go'yoki farovonlik namoyon bo'lib turgan bo'lsa-da, vaqt-vaqt bilan shubhaning gazlangan og'usi qaynab chiqib turgan bu chuqur ma'noli chalkashlikka ixtiyor-siz ravishda qarshilik ko'rsatardi. Hayot daryosi har lahzada o'zgarib turgani bois dunyoda hech narsa yakuniga yetmasligini tasdiq etmasligi mumkin emasdi, albatta. Ammo Rodionning yordamisiz bahs yuritishga o'rganmagani sababidan, professorning mavhum shamalaliga qanday javob berishni bilmasdi.

– Demak, sizningcha urush hali uzoq vaqt davom etarkan-da? – xo'rsindi Polya.

– Nima bo'lgan taqdirda ham siz bilan mening ixtiyorimizda ko'plab bunday e... ixtiyorsiz suhabatlarimizga yetarlicha fursatimiz

bo'ladi. – Shu joyda u loqayd qiyofada ular tomonga engashib o'tirgan Natalya Sergeyevnaga sinchkov tikilgan ko'yi, yoshlar uchun hamma narsa hali oldinda ekanini, ular hali kommunizm tog'larining yarqirab turgan etaklariga yetib borishga ulgurishlarini hasadning asari sezilib turgan ohangda Polyaning o'ziga emas, balki umumiyligini qilib, murojaat etdi. U sodir bo'lgan tanishuvni mustahkamlab olishga tutindi: – Darvoqe, men ism-sharifingizni yaxshi eshitmay qoldim-a?

– Meni oddiygina Polya deyavyering... – va ishonuvchan nigoh bilan boqdi. – Siz-chi?

Shu tarzda u o'zini tanitishni taqozo etgan yoqimli zarurat holatiga tushdi. Uni Aleksandr Yakovlevich deyishar ekan, sharifi esa Gratsianskiy edi. Taqdir fursatni o'tkazmasdan Polyani o'rmonning yirik bilimdoniga, Vixrovning janjallli taniqliligi tarixiga izoh bera oladigan, otasining bosh hakami maqomini egallab olgan odam bilan ro'para qilganini o'ziga xos omad deyish mumkin edi...

Uning baxtiga nimadir Gratsianskiyning e'tiborini chekkaga tortdi va Polya yashinday shiddatli ruhiy larzadan o'ziga kelib olish uchun yetarli fursatga ega bo'ldi.

2

Shu kunga eng yaqin kechalardan birida u tizzasiga shol ro'mol tashlab olgan yangi tanishini sinchkovlik bilan nazaridan o'tkazdi. Xuddi o'tgan safargiday, u qizga nisbatan yonlamasiga o'tirardi, ayni shu holatda Polya uchun ayrim ustunliklar ham bor: ko'zoynagi xalaqit bermaydi, kitob uni begona kuzatuvchilar nigohidan to'sib qo'yuvchi g'ov vazifasini bajara olmaydi. Qariyaning yuzi uzunchoq, tarkidunyochilar kabi oriq, murosasiz buyuklik asari urgan va takabburona g'urur hissi sezilib turibdi, terisi nursiz tusda, parvarishlanmagan soqoliga ozgina oq oralagan; uning xuddi ilhom shabadasidan xurpayganday paxmoqsimon sochlari o'rtachadan sal uzunroq o'stirilgan, keng peshanasi ostidagi ajinlarida soyachalar salgina yaltirab ko'rindi. Bularning barchasi unga oliy darajadagi oliyjanob al-lanimaningdir sobit kurashchisining namunali-ko'rgazmali qiyofasini berib turardi va bu narsa ushbu shaxsga nisbatan chuqur ehtiromni uyg'otardi.

U bir tomonga salgina yuzini burganida Niva suratidan Polyaga tanish bo‘lib qolgan, Kurill orollaridan kelgan nasroniy da’vatchini eslatganday bo‘lardi, boshqa tomonlardan esa – qyinoqqa mahkum etilgan avliyoga o‘xshab ketardi... ammo bunga Aleksandr Yakovlevich Gratsianskiyning g‘alati tarzda joylashgan, odamlarda achinish hissini uyg‘otadigan ko‘zlar qaysidir ma’noda monelik qilib turardi. Vaqt-vaqt bilan hissiz ko‘tarilib-tushib turgan qovoqlar tagidagi tubliklarda tutqanoq xurujiga o‘xshab tez yugurib turgan ko‘z qorachiqlari boshlanadi va ular nafaqat xudoning so‘zlarini, balki undan past darajadagi haqiqatlarni va’z qiluvchi odamning qiyofasiga ham mos kelmas edi. Bu odamni qandaydir ajralmas xotiralar ta’qib etmoqda ediki, shu bois har chorak soatda tashvishlanishga sabablar yo‘qligiga ishonch hosil qilib olishga majbur bo‘lmoqda edi. Chamasi, hayot daryosi uni xizmatlariga munosib jamoatchilik e’tirofining qirg‘og‘iga chiqarib qo‘yguniga qadar o‘z ostonalarida qattiq silkitib kelgan, shekilli; otasiga tengqur avlodni hurmatlashga o‘rgatilgan Polya qayd etib o‘tilgan g‘alatiliklarni yashirin faoliyat yuritilgan inqilobiy yillarda yuz bergen qandaydir katta larzalarning, sinovlarning asorati sifatida qabul qildi. Bir daqiqadan keyin bu talqin uning o‘ziga juda kitobiy bo‘lib tuyuldi, izohni o‘sha tundagi vaziyatdan izlash osonroq bo‘lardi. Fojialarga to‘yingan ushbu jimjilik hamda boshqalar tom tepasiga navbatchilikka chiqqan yoki qaddini tik tutgаниcha hujumga otilayotgan – shu jumladan Rodion ham! – va nihoyat, aynan shu yerda, past qubbador yerto‘lada o‘zining vazni to‘g‘risida har lahzada eslatayotgan mana bu bor bo‘yi bilan titrab-silkinib turgan sakkiz qavatli toshlar qatlami ostidagi yerto‘lada qochoqlarcha o‘tirganini aybdorlarcha anglash hissi Polyanı ezmoqda edi. Kattalarning xulq-atvorlarini o‘zining shaxsiy tajribasi chegarasida anglash bolalarga xos xislat. To‘satdan Polya o‘zining zo‘riqishli e’tiborini Gratsianskiy qiya nazar bilan qarab fahmlab qolganini his etdi; u kitobini ko‘z oldida tutib turgan bo‘lsa-da, sahifadan yuqoriga tikilib turardi.

– Bu yerga yengil ko‘ylakda kelish g‘irt yengiltaklik. Uy hali yangi, suvoqlari qurib ulgurmagan, – dedi u ko‘zoynagini yechib, – Shol ro‘molni berib turaymi?

– Hechqisi yo‘q, men kuchliman... kech kuzda o‘g‘il bolalar bilan poyga o‘ynab daryoni suzib o‘tardim!

– Maqtovga loyiq... aynan yoshlikning beboshliklari ba'zan biz-larga keksalik yillarida qahramonlik amallari uchun mashg'ulot bo'lib xizmat qiladi, – va birdan o'z yoshi uchun noodatiy bo'lgan bir chaqqonlik bilan Polyaga o'girildi: – Endi rostini aytинг, meni qayoqdan taniysiz?

Qiz ayyorlik qilishni epladi; u yolg'onni yoqtirmas edi, lekin hozir otasi haqidagi haqiqatni bilib olish uchun bundan battariga ham o'zini urishga tayyor edi.

– O, men sizning maqolalaringizni o'qiganman... oti nimaydi? Anavi olim bor-ku, rus o'rmonini xalqdan qulflab qo'ymoqchi bo'lgan edi-ku.

Bu jumla uning o'z maqolasidan olingan edi, ammo u yerda anchayin yovuzona tarzda shama qilinishicha, shunday yashovchan kampirlar bor ekanki, ular o'n ettinchi yildan beri, har ehtimolga qarshi deb, ayrim favqulodda va siyosiy hodisalar uzoq davom etmay o'tib ketishi, keyinroq bular hammasi ortda qolib, hayot o'zining me'yordagi holatiga qaytishi orzusida sandiqlarida bug'doy yormasi va qand asrab qo'yishibdi.

– O, siz mening Vixrov bilan eski munozaramni nazarda tutyapsiz... – mammun tirjaydi u. – Sizning ko'zingizga qanday tushib qoldi mening o'sha... shoshib yozgan qo'l bola ishlarim?

U rostini aytib, ular bilan onasining oldiga borgan paytida tanish-ganini, u yerda barcha maxsus nashrlarga obuna bo'lish an'ana ekanini aytdi.

– U yerning kutubxonasi kichkina, hammasini boshdan oxiriga-chha o'qib chiqqanman. Dunyoda shuncha payt yashabman-u, o'rmon deb atalmish eng sokin hududda shunday shov-shuvli hodisalar yuza-ga kelishi mumkinligi xayolimga ham kelmagan edi.

– Kechirasiz, qaysi o'rmonchilikda... yashaydi onangiz? – qat'iy va shoshib so'radi u.

Qarshi tomonning ehtiyojkorligi Polyani qo'shni xo'jalikni, Goryanka daryosining narigi tarafidagi o'rmonchilikni aytди:

– Svatkovo, Yengada... Ovloq yerlar, o'luguay zerikarli!

– Aksincha, ajoyib joylar. Yoshlik yillarimda siz tomonlarga borganman, lekin Pashutin o'rmonchiligidagi... aynan o'sha Vixrovning xonadonida mehmon bo'lgandim, – Polyaning boshi uzra qayoqlar-gadir qiya nazarlab, yuqoriga boqqanicha mammunlik bilan xotirladi

Gratsianskiy. – Ayting-chi, mening ijodim sizning ajoyib, tirishqoq boshchangizda qanday bahoga loyiq topildi?

– Mening fikrimcha, ular... juda kuchli maqolalar. Faqat bir narsani tushuna olmadim: barcha xalqimiz butun vujudi bilan o‘zini yaratuvchan mehnatga bag‘ishlayotgan bizning davrimizda shunday odamlar qayoqdan paydo bo‘larkin, – xuddi gazetaning bosh maqolasini o‘qib berayotganday iqtibos keltirdi u. – Sovetning nonini yeypishadi-yu, o‘zlar...

Gratsianskiy uning soxtakorliksiz ehtirosini o‘ta achinish bilan qabul qildi.

– Bilasizmi, yorqin yurakli qizaloq, sinfiy kurash toki nihoyat ikki tarafning ochiq kurashiga aylanmagunicha, goho eng afsonavor shakllarni qabul qiladigan e... siljishlar va islohotlarning g‘aroyib davrida yashamoqdamiz. Shuni unutmaslik lozimki, to‘g‘ridan to‘g‘ri zarar yetkazish imkonidan mahrum etilgan, shu bilan birga bizning ulkan ijodiy hamlalarimiz sharoitida ma’nosiz bo‘lib qolgan paytda dushmanlar ko‘pincha zargarona makkorliklarga kirishadilar, ularning orasida o‘ziga xos o‘rinni odatda ilmiy tafakkurning soyasi sifatida ko‘rsatiladigan go‘yoki aybsizgina adashishlar egallaydi. O‘sha Vixrovda ham go‘yo mustaqil fikrlash deb nomlanuvchi narsaga g‘aroyib moyillik bor. Xalq faoliyatining ko‘lamni qanchalik keng bo‘lsa, yarim darajaga bo‘lsa ham g‘oyalardagi boshlang‘ich og‘ishga olib keladi... shunday emasmi, aziz do‘stim?

Otasini oqlashga bo‘lgan so‘nggi umid kechikkan pushaymonlik qayg‘usi bilan aytilgan hukm tufayli chippakka chiqdi va Polya qulash paytida duch kelgan narsaga yopishishga behuda urinayotgan edi.

– Sizning fikringizcha... – lablarini tishlaganicha so‘z boshladi Polya, ammo nafasi tomog‘iga tiqilib qoldi va gapini qaytadan boshladi. Bu hol uch marta takrorlandi. – Sizning fikringizcha, Vixrov o‘zining zararli g‘oyalari... yoyishga qasddan urinyaptimi?

Faqat yarim yil o‘tgach, ayrim vaziyatlarni o‘zaro solishtira turib, Polya, ayni shu so‘zlar aytilgan paytda Naialya Sergeyevna ko‘zlarini ochgani, Gratsianskiyga sinchiklab tikilgani va yana qaytadan o‘z mudrog‘iga berilganini esladi.

– Nimani nazarda tutayotganingizni tushundim, ammo yo‘q... bunday deb o‘ylamayman, – ikkilanuvchan-xavotirli qiyofada so‘zlarini

cho‘zib dedi Polyaning suhbatdoshi. – Ushbu toifadagi odamlarning qarshiliklari allaqachon sindirilgan... aytishim mumkinki, sotsializm qurilishining betonlari orasiga ko‘mib tashlangan. To‘g‘ri, yomon romanlarda kiyimi orasiga qo‘lchiroq yashirgan, shahar oqavasining chizmasini o‘g‘irlab, yasama tishi orasida saqlayotgan sirli kimsalar hamon uchrab turibdi, busiz bizning davrimizda haybatli va nasihatomuz voqeа yaratish qiyin, ammo... tanqidiy sharhlarga ko‘ra baho beriladigan bo‘lsa, bu uslub adabiyotda ham taqiqlangan vosita hisoblanadi. Bundan tashqari, o‘rmon mudofaa obyekti hisoblanmaydi, uyoqqa borish uchun ijozatnama olishning ham hojati yo‘q!.. Yo‘q, bu yerda o‘z umrini yashab bo‘lgan jamiyatning boshqa, zanglagan prujinalari amal qiladi... deylik, iste’dodsizlikning eski alami, omadsizning kansitilgan nafsoniyati, ba’zida esa sovet hokimiyatidan olinmay qolgan yarim so‘mni taqiqlangan chap yo‘l bilan undirib qolishning jirkanch umidi... – u fuqarolik qahr-g‘azabining ifodasi sifatida qisqa va tabiiy sukut saqlab turdi. – Albatta, Vixrov – boshqa masala. Uning qandaydir muayyan qobiliyati bor ekanini ham inkor etolmayman, taassuflarkim, biz o‘zimizning haddan tashqari umumlashtirilgan mulohazalarimizda nozik ruhiy tahlillarni nazarimizga olmaymiz!.. Ana shundan, pirovardida eng toza tarjimayi holga ega bo‘lgan mana shunday toifadagi arbob o‘zining ichak-chavoqlarini bir umr yemirib boruvchi ajalvor suvni qachon va qayerda ho‘plab olgani noma’lum bo‘lib qolaveradi. Tan olish kerakki, siz aytgan mafkura mening xayolimga kelmagan ekan, ammo... yo‘q, bunday deb o‘ylamayman! – yana ham qat’iy takrorladi u, Polya o‘zi sezmagan holda parishonxayollik bilan nazar tashlagan kitobini ixtiyorsiz ravishda yopib olar ekan. – Vixrovning ilmiy nayranglari bor – ular ongli yo‘naltirilgan irodadan ham ko‘ra ko‘proq – kasallikning namoyon bo‘lishidir.

Buni u shunchalik samimiylig bilan aytdiki, Polya yaqindagina o‘z suhbatdoshiga nisbatan tuygan, ochig‘ini aytganda, keskin va kamdan kam noto‘g‘ri chiqadigan yoshlik tuyg‘usi uyg‘otgan nafrat, hattoki to‘g‘ridan to‘g‘ri dushmanlik hissi uchun uyalib ketdi.

– Siz juda ta’sirli so‘zlayapsiz, to‘xtatmang, davom etavering! – yalinchoq shivirlash bilan iltimos qildi qiz.

– Men Vixrovni talabalik davrlarimizdan beri bilaman, – davom etdi Gratsianskiy, xotiralariga berilib, – va mening ko‘z o‘ngimda u

doim yaxshi o'rtoq bo'lgan, ozgina savdoyiroq, hattoki ta'qib vasvasiga berilgan edi... o'rmon ta'qibi desam yanayam to'g'riroq bo'lsa kerak, ammo shubhasiz, vijdonli odam edi. Uni o'z himoyamga olayotganimning sababi qachonlardir Karavannaya ko'chasidagi nochor bir tamaddixonada bitta tovoqdan loviya yovg'on ichganimiz yoki podshohlik tuzumining quvg'inlariga uchraganimizda emas! Bundan tashqari, u o'zining nazariyachalarini xalq xo'jaligi amaliyatiga tiqishtirishga urinishda ko'rsatgan saboti uchun o'rtog'imni hatto hurmat qilishim mumkin edi, agar, e... ular sotsialistik taraqqiyotning ayrim manfaatlariiga zid kelmaganida. Aynan nazariyachalar! Sibir o'rmonlarining xaritasiga qarang va o'rmon kesishning har qanday yillik me'yorlarida ham ushbu tuganmas yashil ummonga hech qanday qirilib ketish xatari xavf solmayotganini darrov tushunasiz.

Polya yalinchoqlik bilan uning yenglaridan ushladi:

– Ayting-chi... siz uni inontirishga urinib ko'rmaganmisiz... ko'yib, tanbeh berish yordamida emas, yo'q, ko'zma ko'z, do'st sifatida, katta odam sifatida? Balki uni bizning to'g'ri yo'limizga qaytargan bo'larmidingiz, agar albatta, o'sha Vixrov sizday insonning sa'yharakatlariga arzisa!

Gratsianskiy umidsiz qiyofada bosh chayqadi.

– Uning oliv darajadagi bilim egasi va aqli hanuzgacha tiniq, a... bunday aqli ravshanlashish navqironlik yoshlarida yuz beradi. Savl Damashqqa yo'l olganida necha yoshda bo'lganini eslang yoki Belinskiy Gegelcha murosasozlikdan yuz o'girganida qaysi yoshda edi... lekin yetmish yoshli Galileyning tavba-tazarrusiga kim ham ishonardi? Lekin baribir kamina sizning yovuz niyatlar to'g'risidagi shubhalaringizni inkor etadi, modomiki o'zim ham vaqt-vaqt bilan shunga yaqinroq narsani taxmin etmoqlikka moyilman... lekin bunisi butkul boshqa gumon. Bilasizmikan, mening qizalog'im, muhtojlikda odamlar ularga ko'rsatilgan mehrni alohida his etadilar eslaydilar.

– Qaysi mehrni aftyapsiz? – Asta so'radi Polya.

– Har xil, – ma'nodor so'z qotdi Gratsianskiy. – Vixrovning tarjimayi holida e'tiborga molik ayrim jihatlar bor... tadqiqotchiga doir emas, yo'q, aynan ijtimoiy ruhshunosga daxldor. – Va nigohidagi hatto Polyaga ham yoqimsiz bo'lgan xira parda bilan shama qilib, ertangi jamiyatda bunday lavozimning zarur ekaniga shubhalanmasligini bildirdi – davlat ma'lumotnomalaridagi hisobotlarida payqab

bo‘lmas tadqiqotlar uchun, «agar izlanuvchining maqsadi faqatgina xizmat xonasidagi haqiqatlarni tasdiqlab o‘tirish emas, balki insonning bilimini boyitadigan yangi kashfiyotlarni yuzaga chiqarishdan iborat bo‘lsa».

Bombadan saqlanish joyida uzoq vaqt o‘tirish o‘ziga xos, vaqtincha bo‘lsa ham, yaqinlikka moyillikni uyg‘otishi vajhidan, Gratsianskiy boadablik bilan begona sirni olib berdi. Binobarin, iztirob va jirkanish bilan Polya o‘zining suhbatdoshidan shuni bildiki, ularning o‘rmonchilik institutida birgalikda o‘tkazgan uch yil ichida Vixrov «qanday qilib aniqroq aytsam ekan... yo‘q, stipendiya emas-ku, noma’lum xususiy shaxsdan yigirma besh so‘m miqdorida har oy muntazam ravishda ko‘mak puli olib turgan». Pochta ilova xabarnomasi soxta nasab bilan imzolangan va ishchilar sinfi haddan tashqari qashshoqlashgan o‘sha paytlarda soxta nom ostida yashiringan odam, o‘sha o‘rmonlarning sirtqi muxlisi va homiysi, masalan, Putilov zavodining tokari emas edi har holda. O‘tkazilgan o‘sha pullardan Vixrov o‘zining qamoqqa olinguniga qadar foydalandi, ammo shunday taxmin qilishga asos borki, ikki yillik ma’muriy surgundan qaytgandan keyin ham o‘sha yordam to diplom ishigacha davom etdi, e’tirof etishim kerak, u diplomini ajoyib tarzda himoya qildi. Vixrovning sha’niga, u o‘zining tasodifiy mablag‘larini oshnalari orasidagi eng qashshoqlari bilan baham ko‘rar edi, keyinchalik mablag‘larining kattagina qismini qayerlardadir Enasoyning narisida o‘zining surgun muddatini o‘tab turgan umumiy do‘stimiz Valeriy Kraynovga jo‘natib turgandi. Shu tarzda, bu pullarni olayotganini Vixrov hech qachon yashirmagan, ammo do‘stlarining so‘roqlariga javoban o‘tkazma egasini bilmasligini aytgan.

– Xullas, hayotning og‘ir maktabini o‘tganim bois, xayriyalarning beg‘araz bo‘lishiga juda unchalik ham ishonmayman, – yakunladi Gratsianskiy, – va nazarimda, Vixrovning homiysi, shubhasiz – uzoqni ko‘zlagan odam, uning keyinroq, e... kelgusida minnatdorlik bildirishidan umid qilgan!

Vixrov kelib chiqishi shunchalik sirli bo‘lgan pullarni, Gratsianskiyning fikriga ko‘ra, och-nahor, juldur odamdan qanday qabul qilganligi tabiiy tushunmovchilikni yuzaga keltiradi, lekin bu holat uchun undan qat’iy izzattalablilikni talab qilib ham bo‘lmaydi, boz ustiga, ularning qabul qilib olinishi hech qanday qarshi majburiyatlar

bilan shartlanmagan: «Cho‘lda kimning suvini, qanday suvni ichayot-ganiningni tahlil qilishga vaqt yo‘q, o‘sha suv tashnaligingni qondirsa kifoya».

– Tushunaman... mana u, bir qultum mamot suvi! – yuragi muzlab takrorladi Polya. – Ayting-chi, qanday odam edi o‘sha siz aytgan... Kraynov?

– O, u benazir do‘st edi, bizning umumiy oshnamiz, u ham tabla... faqat yuqori bosqichdan, o‘sha yillardayoq korafta inqilobchi holatiga o‘tib ulgurgan edi. Uchovimiz... Cheredilov, Vixrov va men, bizlar o‘sha vaqtida olgan siyosiy bilimlarimiz borasida ko‘p jihatdan uning oldida burchlimiz. Ochig‘ini aytganda, meni aynan u inqilobga doxil etgan... – Va shu yerda ma’lum bo‘ldiki, u aynan o‘sha taniqli Kraynov ekan, biryo‘la yigirma yil umrini sovet diplomati lavozimida o‘tkazgan va bu jihat o‘z navbatida uning favqulodda aql egasi ekanidan, axloqi va partiyaviy nufuzidan dalolat berardi.

– Lekin, axir o‘rtog‘idan yordamni qabul qilaturib, Vixrovning mulkiy ahvoli haqida bilmasligi mumkin emasdi... – zulmatda adashib-ulqoqib shuuri ziyoga chiqqan ko‘yi mushohada yuritdi Polya. – Modomiki ularni qabul qilib olishdan bosh tortmagan ekan, bu pul-larning toza ekaniga uning ishonchi komil bo‘lgan!

Gratsianskiy ma’qullagan ma’noda kulib qo‘ydi.

– Siz jinoyat qidiruv ishida muvaffaqiyat bilan ishлаshingiz mumkin ekan, – maqtadi u Polinaning zakovatini. – Hammasi shundaylikka shundayku-ya, agar bunga birgina narsa aralashmaganida edi... yo‘q, uning amalini og‘irlashtiruvchi demayman-u, buni tan olmaslikning iloji yo‘q, bir qadar qorong‘i tafsilot bor. Esimda, institutni tugallashga bag‘ishlangan xayrlashuv ziyofatida ijtimoiy ruhiyatshunoslikning ayrim tushunarsiz jihatlari haqida munozara ochilib ketdi... va Vixrov butun Rossiyaga mashhur bo‘lib ketgan yirik o‘rmon sanoatchisi mast holida unga yigirma besh so‘m taqdim etgani haqida o‘zi, majburlovlarsiz, so‘zlab bergandi. Yo‘q, gap shundaki, aynan savdogar mast bo‘lgan, Vixrov emas, shaxsan o‘zim aksincha bo‘lishini istagan bo‘lardim. O‘shanda yuzaga kelgan munosabatlар uyog‘iga ham davom etishi mumkin edi, shunday emasmi?.. Aytib qo‘yishim kerak, vaqt tongga yaqinlashib qolgan edi, bizlarning hammamiz sarxushlikning cho‘qqisiga chiqib bo‘lgandik, boz ustiga qulqoni batang qiladigan Cheredilov, laqabi Katta Kostroma, gitarani g‘ing‘illatish bi-

lan band edi... va shu sabab Vixrov o'sha peterburglik millionerning kayf-safosiga kim sifatida qo'shilib qolganini va eng asosiysi, maxfiy sirni vaysashning unga nima keragi borligini fahmlolmay qoldim.

— Siz ham o'sha safar... sarxushlikning cho'qqisidamidingiz? — ilk bor shishaday tiniq, nozik ovozda gap qo'shdi Polya.

Aytishicha, sharob suiiste'moli Gratsianskiyga yoshligidan salomatligining beqarorligi boisidan taqilangan ekan, buning isboti sifatida u kasallikning nomini aytdi, bu kasallik nomining chiroyli va sirli jaranglashiga ko'ra, shuni xulosa qilish mumkin ediki, bu dard faqat favqulodda iste'dodli kishilarga, aqliy quvvatlarini haddan ortiq zo'riqtirganlari sababli ato etilar ekan. Polya, kam ichadiganlarga qanday ham yaxshi, bir chekkada o'tirib olib gap to'playdi, degisi keldi... va u albatta aytgan bo'lardiym, ammo ayni o'sha paytda qayerdadir juda yaqin atrofda qulqoni kar qilguday ikkita ketma-ket portlash yuz berdi. Chiroq nuri titray boshladı, devorlar silkindi, bolalar uyg'onib yig'lay boshlashdi. Natalya Sergeyevna chiqish tomoniga yugurdi: bomba Blagoveshshensk berk ko'chasiga tushgan edi va kimgadir uning tibbiy yordami kerak bo'lib qolishi mumkin... O'sha kech o'z otasi haqidagi xayollandan Polya bombardimonlarni unchilik sezgani ham yo'q va endi Gratsianskiy misolida qo'rquv falajidan chala murdaga aylangan odam qanday ko'rinishda bo'lishini o'zi kuzatish imkoniga ega bo'ldi. Suhbat qayta tiklanmadı, shundan ko'p o'tmay esa radioda havo hujumidan ogohlantirish bekor qilindi.

3

Polya chayqalib o'z qavatiga ko'tarildi; har safar bombadan saqlanish joyidan qaytishida oyoqlari bo'shashib, nima uchundir beli zirqirab og'riydi. Birinchi marta Varyaning tomdan qaytishiga miz ustida qaynoq choy yo'q edi. Varya dugonasini ochiq turgan avvoncha eshigi yonida ko'rdi; qorong'ida chakkasini eshik kesakisiga tirab, Polya qorong'ilashtirilgan shaharning g'ov-to'siqlari sharpariga qarab turardi. U Varyaning chaqirig'iga javob bermadi, uni o'ziga imlab turgan tik chuqurlikdan chalg'itishga ham ancha vaqt kerak bo'ldi. Ko'k rangli qog'oz pardani tushirib, ular miz oldiga o'tirishdi; Polyaning bardog'idagi choy tegilmasdan sovidi. Hamma savollarga Polya telba-teskari javob berar yoki – shunday xushomad-

li, o‘xshamagan soxta ishshayish bilan javob qilar edi, hech narsadan ta’sirlanmaydigan Varyani yaqinlashib kelayotgan falokat hissi chulg‘ab oldi.

– Tobing bo‘lmayaptimi?

– Yo‘q-yo‘q, hechqisi yo‘q... rahmat.

– Lekin... nima voqeа yuz berdi?

Polya qulqodan qolganday o‘tirardi, – loqayd va gung. Shunda Varya unga xo‘jag‘atli choyni majburlab ichirib, o‘rniga yotqizdi, jimgina uning sovuq kaftlarini silab o‘tirdi.

– Yaxshisi menga tegma, o‘zingni ifloslantirma, – chetlandi Polya va choyshabni bo‘ynigacha tortib oldi, choyshab tagida qo‘llarini tanasiga jipslab cho‘zdi. – Mumkinmas!

– Nima uchun, axir?

– Zimmamda dahshatli sir bor.

Varya kulib yubormaslik uchun chin dildan urindi.

– O, bu judayam jiddiyga o‘xshaydi! Xayriyatki, men sening hamma sirlaringni bilaman. Tavba qil, badbaxt qiz: mendan yashirinchashirin kulcha yedingmi... shundaymi?

Va Polya yana isitmalaganday titrab-qaqshab, uning ko‘ziga qarashga jur’at etolmadi.

– Meni haydab yubormaysanmi? – Varyani ranjitib qo‘ymaslik uchun u darhol jumlasini to‘g‘riladi. – Va umuman, nima deb o‘ylaysan... ular hammalari meni quvib yuborishmaydimi?

– Seni kim haydaydi, qayerdan?

– Xullas, umuman... o‘z xalqimdan, mamlakatdan.

– Sening o‘y-fikrlaring menga yoqmayapti, Polya. Yosh sovet qizini kimdir vatanidan mahrum etishini xayolga keltirish mumkinmi, axir... – Birdaniga u Polyaning savolini o‘zini tark etmayotgan tashvishlarga tatbiqan talqin etdi. – Yoki biz tor-mor bo‘lamiz deb o‘ylayapsanmi? Sen tafakkur qilib ko‘rdingmi o‘zi, biz qanchalik kuchlimiz va bizlar qanchamiz... g‘alabaga olib boruvchi asosiy omil bizda qancha, agar zarur bo‘lsa biz yana qanchasini ishlab chiqarishimiz mumkin? Sen tushun, shuncha yillar davomida to‘plaganlarimizni ongimizdan, vujudimizdan yo‘q qilish uchun har birimizni alohida o‘ldirishlariga to‘g‘ri kelgan bo‘ldi. Xalqimiz seni hech kimga berib qo‘ymaydi: sen uning kaftidagi bir dona urug‘san. Bo‘ldi, endi yotib uxla!

Faqat shu oxirgi so‘zlargina Polyaning shuuriga yetib bordi. U o‘rnidan ko‘tarildi va, xuddi talvasaga tushganday, qip-qizargan, shishgan ko‘zlar bilan qandaydir chekkaga boqib, sarosimada shoshila boshladi.

– Nima yuz bergen taqdirda ham, sen mendan qo‘rqma, Varya, sen qo‘rqma... men senga dog‘ tushirmayman, uyaltirib qo‘ymayman. Shoshmagin-chi, senga yana nimalarni aytmochi bo‘luvdim, a? Mana, fikrimniyam yo‘qotib qo‘ydim... – U o‘z artofiga ko‘zlarini ola-kula qila boshladi. – Ha, esladim... sen qo‘rqma: u holda men oldinroq ketaman, o‘zim, o‘zimga joy topaman... hatto oyimga ham nolimayman. Ishonchim komilki, u ham hech narsada, zig‘irchayam aybdor emas. Rostini aystsam, yo‘q, hammasini aldayapman, Varyajon... bu yerdan hech qayoqqa ketmayman... chunki butun hayotim bilan kechirimga munosib bo‘lib yashayman! – va u yengil tortib, yuzlaridan yoshlari ko‘p-ko‘p oqa boshladi. – Bilasanmi, men eng og‘ir yumushlarni bajaraman... hammalari mendan voz kechganlaridan keyin boraman-da, o‘zim bajaraveraman. Ikkimiz uchun ham ishlayveraman... nima deb o‘ylaysan, ikkovimiz uchun ham mehnat qilishga kuchim yetarmikan, a?

U o‘zining otasini nazarda tutayotgan edi. Varya buni tushunmadи, qovog‘i solindi:

– Sen shaytonlayapsan, bas qil, menga yoqmayapti. Ochig‘ini ayt... Rodionga nimadir bo‘ldimi? – keyin quruq, uzuq-yuluq buyruqlar boshlandi: – Shallaqilikni to‘xtat dedim! Sen u yoqdan xat olding, frontdan, kechayoq uni miz ustida ko‘rgandim. Darhol uni menga ber...

Polyaning yallig‘langan ahvoli, asosiysi, uning uzuq-yuluq, dudmol nutqi – hammasi, hattoki Rodionning asirga olinishi yoki ajalvor yaralanishidan ko‘ra ancha dahshatliroq eng yomon taxminlarga ishora qilib turardi.

– Yo‘g‘-e, gap butunlay boshqa narsada, – titrab ketdi Polya va devor tomonga o‘girilib, g‘ijimlangan, qayta-qayta o‘qilgan uchburchakni yostiqning ostidan olib berdi.

Keyinchalik Varya o‘zining dastlabki shubha-gumonlaridan uyalib qoldi, lekin... unda-bunda o‘tib turgan yo‘l-yo‘lakay eshelonlar Moskvada ko‘p turib qolmayapti, vokzallar esa bu yerga ancha yaqin, Rodionga Polyaning manzili yaxshi ma’lum. Albatta, harbiy rahbari-

yat eshelondan Blagoveshshensk berk ko'chasiga kirib o'tish uchun ijozat etmagan bo'lishi ham mumkin... u holda nima uchun amalda-gi qo'shinga o'tib ketaturib, o'zining seviklisiga qisqagina tabrikno-ma jo'natmad?.. Xullas, uning manavi maktubi ikki haftadan ortiq kechikib frontdan kelgan birinchi darak edi. Nima bo'lganda ham, uning frontga qanday niyatlar bilan ketgani hozir ma'lum bo'ladi: Varya qalamdan ilma-teshik bo'lib ketgan varaqni shoshmasdan ochib tekisladi, – tizzasiga qo'yib yozgani ko'rinish turibdi. Xira, chala tugallangan satrlarni tushuna olish uchun chiroqqa yaqinroq borishga to'g'ri keldi.

Varya bordaniga asosiy joyga duch keldi.

«Rostini aytganda, shu vaqt orasida sukul saqlaganimning sababi, azizam, joylashib o'tiradigan biror yer yo'q edi, – qisqa, kutilmagan tafsilotlar bilan va ochiqdan ochiq, xuddi tavba-tazarru qilayotgan-day yozgandi Rodion. – Biz hozircha chekinyapmiz, tunu kun ortga chekinyapmiz, ma'lumotlarda aytilishicha, foydaliroq mudofaa mar-ralarini egallayapmiz. Boz ustiga, men qattiq betob bo'ldim, hozir ham to'liq tuzalib ketganim yo'q: mening kasalim har qanday kontu-ziyadan ko'ra yomonroq. Eng alam qiladigani – o'zim aslida soppasog'man, bus-butunman, biron joyim tirnalgani ham yo'q. Maktub-ni o'qib bo'lishing bilan yondirib yubor, butun dunyoda bu haqda yolg'iz sengagina ishonib ayta olaman. – Varya sahifani o'girdi. – Voqeas qishloqlaridan birida yuz berdi, bizning bo'linmamiz chekinish paytida o'sha yerdan o'tgan edi. Men rotamiz bo'yicha, ehtimol butun qo'shin bo'yicha oxirgi bo'lib borayotgandim... Bizing yo'limizda to'qqiz yoshlardagi mahalliy qiz turib qoldi, hali go'dak, Qizil Qo'shinni sevishga maktab xarragidayoq o'rgatilgan, shekilli... Albatta, u strategik vaziyatni tushunmasdi. Qizcha dala gullari bilan yonimizga yugurib keldi, shunday bo'lib chiqdiki, u gullarini menga uzatdi. Go'dakning ko'zlarini sinchkov, savolchan edi: kunning qoq tush paytidagi quyoshga boqish ming marta osonroq... men guldasesti olishga o'zimni majbur qildim, chunki qo'rkoq emasman... Ko'zlarimni yumib oldim, ammo dushman changaliga tashlab ketilayotgan qizchaning qo'lidan baribir uni oldim... O'sha kundan beri butkul qurib bitgan supurgichani yonimda olib yuribman, bag'rimda, xuddi qo'ynimda olov saqlaganday asrab yuribman, agar halok bo'lsam, uni qabrim ustiga qo'yishlarini so'rayman. Men ha-

qiqiy erkakka aylangunimcha yetti marta qonimga belanaman deb o'ylab yurardim, u esa, balog'atga yetish marosimi, mana shunday tarzda, quruq cho'qintirish tog'orasida kechadi deb o'ylamagan-dim! – Keyingi ikki satr yozuv mutlaqo o'qib bo'lmaydigan darajada o'chib ketgandi. – Va bilmayman, Polyajon, o'sha hadyaning haqqini ado etishga mening butun umrim yetarmikan...»

– Ha, u rosmana ulg'ayibdi, sening Rodioning, gaping to'g'ri... – xatni taxlay turib, hayajonlanib dedi Varya, chunki fikrlashning bunday qurilishida bu askar biror-bir tanqidga loyiq qilmishga qodir bo'lishi mumkin emasdi.

Va yana savollarning keyingi oqimiga Polya rad etgan holda, lablarini tishlaganicha bosh chayqab o'tiraverdi. Shunda Varya ay-vonning eshigini mahkam yopib qo'ydi, chunki tongga yaqin havo sovib ketadi va tunning qolgan qismini u ko'zlarini mutlaqo yummashdan, shitirlashlar orqali Polyaning har bir harakatini kuzatib o'tkazdi. Tong ham o'zi bilan aniqlikni olib kelmadni. Bombadan saqlanish joyida aynan nima bo'lganini Natalya Sergeyevnadan surishtirib bilish uchun Varyaning ikki martalik urinishlari samara bermadi; ikki safar ham Varyaga, chillik xonim undan o'zini olib qochayotganday tuyuldi. Kunning o'rtasida Polya g'oyib bo'lib qoldi, va uni izlashga otil-gan Varya uni faqat kechga yaqin, keyingi uyning hovlisidan topdi: u begona yashirinish joyi qurilishida yer kovlayotgan edi. Uni hech kim uyoqqa chaqirmagandi, shunchaki qiz ishlayotgan odamlarni ko'rib qolibdi va ko'ziga tashlangan belkurakni o'zi borib olibdi.

– Haligi... shu yerdan o'tib ketayotib, tanish ko'ylakka ko'zim tushdi. Bu yerda nima qilyapsan, oyoq-qo'llaringning chigilini yozgani chiqdingmi? – soxtalik bilan, xavotirining soyasini ham sezdirmasdan so'radi Varya. – Tushlik qilganmiding?

– Kechadan qolgan ovqatni yegandim... o'zim yolg'iz o'tirib zerkidim, – Polya ham loqayd ohangda javob qildi. – Tezda boraman, sen ketaver.

U g'ira-shira paytda, yomg'ir tomchilay boshlaganida qaytdi, ko'zlarini pastga tushirgan, yuzlari xuddi ichidan kuyib ketganday qoraygan. Choy ichayotganlarida Informbyuro ma'lumotlarini ovoz chiqarib o'qishdi, Varya, har doimgiday, voqelikda bu qanday manzara kasb etishini aniqroq tasavvur etish uchun jangovar voqealarni tanaffus bilan bo'lib-bo'lib o'qir edi. Ma'lumotlarda aholi mazgilla-

ri ham, yaqinlashib kelayotgan urushning boshqa yo‘nalishlari ham xabar qilinmagandi; mutolaa paytida yurakning qanchalik siqilishiga ko‘ra, aytilmaganlarni taxmin qilib olish mumkin edi... Polya chaqirilmagan mehmon qiyofasida o‘tirar va vaqt-vaqt bilan miz ostidagi qo‘liga siqib ushlab olgan narsasining o‘z joyida turganiga ishonch hosil qilib olgach, keyin yana o‘zining parishonxayol nigohini avvon eshigining tirqishiga qadab o‘tiraverardi. O‘shandanmikan, qorong‘ilik tushganidan keyin xayolni chalg‘ituvchi hamma narsalar, binolarning bezakli tafsilotlari va kechki chiroqlar ko‘rish miqyosidan yo‘qoldi-ko‘ydi – go‘yoki Moskva manzarasining odatdagidan ko‘ra ancha katta bo‘lagi joylashib ketganday tuyulardi va ko‘zlar Boshkentning me’moriy yaxlitligini osongina qamrab olardi. Uning tungi shakl-shamoyilida olis va xatarli suzishga jo‘nash uchun kemabandni tark etayotgan ulkan, burilib borayotgan jangovar kema qiyofasi namoyon bo‘lardi; tasavvurni kemaning yaltirab turgan ho‘l sahnini eslatuvchi maydonlar va yangi qurilishlarning po‘lat qurilmalari yanada kuchaytirardi.

Bir-birlarini quchoqlaganlaricha, dugonalar yomg‘irning shittirlashini va avtomobilarning ora-sira, bo‘g‘iq bibiplagan ovozini tinglab o‘tiribdilar. Suhbat mavzusi bugungi o‘tgan kunning voqealaridan iborat bo‘ldi: markaziy maydonda ochilgan o‘lja uchoqlarning ko‘rgazmasi, ular o‘zaro suhbatlarida Xushchaqchaqlar ko‘chasi deb nom qo‘yib olgan joydagi ko‘mmasdan qoldirilgan, bomba portlashidan hosil bo‘lgan o‘ra, o‘sha kunlarda butun mamlatga dong‘i ketgan Gastelloning fidokorona qahramonligi: Polinaning qayg‘usidan boshqa hamma narsani.

– Bilasanmi, sen bilan yaxshi ish qilmayapmiz, – xo‘rsinib dedi Varya. – Ehtimol, ayni shu daqiqalarda bizning suyuklilarimiz hosili o‘rilmagan dalalarda tig‘larini o‘qtalib, qichqirayotgandirlar va yiqilayotgandirlar... biz esa xo‘jag‘at murabboli choy ichib o‘tiribmiz.

– Bu to‘g‘ri gap. Uni berib yuborish kerak... – qo‘rquv bilan tasdiqladi Polya va taqsimchasini nari surib qo‘ydi.

– Lekin kimga beramiz?

– Men bitta gospitalni bilaman. Kecha ularni ko‘z oldimda olib kelishdi... ko‘pchilikni. Birortasi ham ingrab qo‘ygani yo‘q! Ertaga birga olib boramiz, bo‘ptimi? – birgina shu qarorning o‘zidanoq qisqa vaqtga bo‘lsa ham ikkovlari biroz yengil tortdilar.

... Ertasi kuni Varya o'zining tez orada mudofaa marralari qurilishiga jo'nab ketishini xabar qildi; ikki hafta davomida Polya uying bekasi bo'lib qolishiga to'g'ri keladi. Bolalarcha ma'yuslik uning yuzini g'amgin qiyofaga soldi va Varya shu o'tgan yillarda yoshlarini shubha-gumonlardan, kundalik tashvishlarga o'ralashib qolishdan har tomonlama asrab-avaylash asnosida Varyaning o'zini kattalar o'zlarining yoshlik davrlarida zimmalariga olgan, hayotda yelkalarida olib o'tgan mas'uliyatni o'z ixtiyoriga qabul qilib olishga yetarli darajada tayyorlay oldilarmikan? Xuddi bunga javob qilganday Polya cho'chigan qiyofada Varyaning guruhiqa qo'shilsa bo'larmikan, yo yo'qmi, surishtirdi va yana yashiriqcha o'zining kaftiga qarab qo'ydi.

- Bo'pti, men institutda gaplashib ko'raman, – bosh irg'adi Varya.
- Aytganday, mushtingning orasida nimani yashirib o'tiribsan?
- Hech narsa... senga tuyulgandir, – jahl qildi Polya.
- Ko'rsat bo'lmasa.

Polya unga tirnoqlari chaynalgan, belkurakning silliqlanmagan sopidan qoraygan bo'sh qo'llarini barmoqlarini pastga qaratib ko'rsatdi; faqat tunda, gugurt cho'pining yorug'ida Varya kaftlarini ochib, yorilib, qontalash bo'lib ketgan qadoqlarini nazardan o'tkazdi. Chamasi, bu kichik og'riq Vixrovning qiziga o'sha, katta, hozircha Varyaga noma'lum bo'lgan og'riqni yengib o'tishga yordam berdi.



TO'RTINCHI BOB

1

Aleksandr Yakovlevichning hikoyasidagi Vixrovning yoshligi haqidagi ayrim qayg‘uli vaziyatlar bayonida qistirib o‘tilgan muayyan noaniqliklarni zudlik bilan to‘g‘rilab o‘tmog‘imiz lozim. Haqiqatan ham, Ivan Matveichning tarjimayi holiga taniqli sanoatchidan hech qanday tilxatsiz, qo‘ldan qo‘lga, bugungi kunda birortasi hayot bo‘lmagan guvohlar shohidligida qabul qilib olingan yigirma besh so‘m haqidagi achinarli holat suqulib kirib oldi. Shu bilan birga Vixrovning kasbdoshlari orasida o‘z ilmiy birodarining keyingi va nuqsonsiz faoliyatini shu voqeaga bog‘lab ko‘rsatgan hikoyachiga mushtning kuchi bilan saboq berib qo‘ymasa ham, hech bo‘lmasa uni yengiltaklikda ayblab qo‘yguvchi birorta mard topilmadi. Aleksandr Yakovlevich agar o‘zi istasa, xotirasining ichidagi maxfiy qutichalardan, mana bu g‘o‘r sovet qizi uchun saboq bo‘lguvchi boshqa bir qator ma‘lumotlarni chiqarib ko‘rsatishi ham mumkin edi. Eng avvalo u qashshoq yigitning hozirgi davrdan farqli bo‘lgan o‘sha yillarda ilm maskaniga yo‘l ochishi qanchalar mashaqqatli bo‘lgani misolida o‘z ishonchini mustahkamlab olgan bo‘lar edi; shuning qatorida o‘sha hodisaning sodir bo‘lish sanasi ham oydinlashib qolardi.

Bu kechmish 1899-yil yozining ikkinchi yarmida, Vixrovlar ayni Peterburgga yetib kelishgan oqshomda voqe’ topdi. Aytib o‘tmoq joizki, Agafyani o‘g‘li bilan birga Boshkentga ikki bekat qolganda, Mgada poyezddan tushirib yuborishdi, shundoq bo‘lsa-da, jo‘ka po‘slog‘idan tikilgan yyyengilgina chipta kovushda ekanlari hamda ortiqcha og‘ir yuklari yo‘qligi boisidan sayohatlarini o‘sha kuniyoq yakuniga yetkazib olishga muvaffaq bo‘lishdi. Ona-bola o‘sha paytlarda butun Rossiyani qamrab olgan qashshoqlikning ko‘kish qorong‘iligidagi oxiri ko‘rinmay ketgan uzun bosh ko‘chalar bo‘ylab uncha vaqt adashib yurishdi. Tutunlar orasida mis tusiga kirib botayotgan quyosh jome’larga va saroylarga, arobalarga va xoskiyimlar-

ga, o'n qadam narida to'satdan paydo bo'lib qolgan tosh taglikdagi birinj podshohlarga, ko'priklardagi zarhal grifonlarga hamda kelgindilarni qurshab olgan, dehqonning tushkun ahvoldagi aqli uchun yechilmas jumboq bo'lgan boshqa g'aroyibotlarga vahimali xayoliylik tusini berib turibdi... Nojo'ya axloqi shaxsan Gratsianskiyning o'zi tomonidan fosh etilgan o'n bir yashar bolaning ahvolini hisobga olishda hech narsani pisand etmaslik aslo mumkin emas.

Har qanday ashayoviy dalil, garchi sarflangan vaqt topilgan tafsilotlarning qimmatliligi bilan oqlanmagan bo'lsa-da, lupani qo'llashni talab etadi. Qishloqlik qarindoshlari yetib keladigan vaqtga qadar Afanasiy Vixrov *Daryal* qo'noqxonasida yo'lak xizmatchisi atalmish favqulodda lavozimgacha ko'tarilishga ulgurdi. Bolaning amakisi zinapoya tagidagi anchagina tor, ammo yaxshi isitilgan hujrada joylashgan edi, ammo lekigin u yerda temir kat hamda shaloq mizdan tashqari tagidan g'o'la tirab qo'yilgan kursi hamda tozalash uchun o'rab tayyorlab qo'yilgan forsiy gilamni hisobga oladigan bo'lsak, bu hujrachani juda unchalik tor deb ham bo'lmaydi. Xullas, joy tig'izligiga qaramasdan, hammalari yog'och shiftning qiyalab tushishiga muvofiq holatda qulay joylashib olishdi, chekka burchak Ivanga tegdi, eshik yonidagi shifti balandroq marrani bo'ydon Afanasiy egalladi. Rostini aytganda, oilaviy uchrashuv uchun butun Piterda bundan ko'ra shinamroq joyni topib bo'lmaydi, faqatgina har daqqa zinadan odamlar o'tib turganlari bois, shiftdan turli iflosliklar to'kilib, Afanasiyning o'z mehmonlarini siylash uchun tayyorlab qo'ygan tansiq yeguliklari ustiga tushib turgani chatoq bo'ldi.

Ochig'i, miz ustiga faqatgina sovib qotgan qayлага solingan losos balig'i-yu, bulduruq arang sig'gandi; sardak solingan cho'chqali tovoq Agafyaning tizzalaridan joy topibdi, choynak esa, uchinchi darajali matoh sifatida yerga, oyoq ostiga olib qo'yilgan. Ko'plab jim-jimador qandlar bilan bezalgan tort butkul Ivanning ixtiyoriga berib qo'yilibdi. Yeguliklarning noyobligi, yo'lak xizmatchisining maoshi, shuningdek, uning benihoya noxush tashqi ko'rinishini hisobga olgan holda, qo'noqxonadagi biror-bir istiqomatchining talonga uchranganini taxmin qilish mumkin edi... Aytish lozimki, buni hatto o'ta ziyrak Aleksandr Yakovlevich Gratsianskiy ham taxmin eta olmasdi. Ziyofatga qo'yilgan ovqatlar ancha kovlab-titkilangan ko'rinaldi... ammo juda unchalik ham iste'molga yaroqsiz emas: uni yejish uchun

yeguliklarga bosib o'chirilgan papiros qoldiqlarini titib topib, tishlangan joylarini kesib olib tashlash kifoya edi. O'z navbatida, bu narsa shu bilan izohlanardiki, *Daryalda* yirik puldor savdogar olti kecha-kunduzdan beri kayf-safo qilmoqda, bu qo'noqxona unga ajoyib supali bug'xonasi bo'lgan xalq hammomining yaqinligi, tinch-sokin hududda joylashgani va Rossiyaning boshqa hech yerida uchramaydigan ajoyib karam tuzlama berilishi bilan ma'qul kelgan edi. Bahodirona sharobxo'rlikdan keyin tuzlangan karamdan ko'ra yaxshiroq tozalash vositasi yo'q. Odatda aysh-ishratning birinchi yarmi uchun mehmon pastki qavatdag'i restoratsiyani sotib oladi, uch kunlar o'tib esa, asosiy shaytonbazm uchun aroqqa chidamliroq shaxslarning tanlangan doirasi bilan alohida xonaga ko'chib o'tadi. Shuning asnosida, Afanasiy uch kundan beri uxlashga muvaffaq bo'lolmayapti, qarindoshlari bilan suhbatlashib o'tirgan paytda ham savdogarning shoshilinch ehtiyojlari bo'yicha ikki marta uni sharobxonaga yugurtishdi. Oxirgi martasida u anchagina yengil tortib qaytib keldi: bazmi jamshid oxiriga yaqinlashib qolganmish. O'zining xonasiga suqilib kirishdan avval u ipduxoba cholvorining cho'ntagidan ozgina ichilgan xeres shishasini oldi; o'zi xeres ichmasakan, yo'ldan charchab kelgan kennoysi shu ichimlikdan tatib ko'rishi va aslzodalar hayotining lazzatini his etishi uchun keltiribdi... Afanasiy to'g'risida shuni aytish lozimki, u haybatda Matveyga teng keladigan pahlavon edi, ko'k olachipor ko'y lagi cholvorining ustidan tushirilgan, nimcha kiygan, qarashlari qattiq, o'ta qalin qop-qora soqoli qatronday yaltiraydi, shu bois Ivan Matveich butun umri davomida, *O'qchingning qatl tongi* asridagi isyonchi askarni rassom amakimdan ko'chirmaganmikan deb, shu jumboqning tagiga yetishni o'ylab yurdi.

– Ishratboz rosa kayfini suryaptimi? – barmoqlari bilan ko'targan taqsiimchasidagi choyning bug'ini puflab haydaganicha istehzoli surishtirdi Agafya.

– Tinchlanyapti, daryo muzini keltirishlarini buyurdi. Ertalabdan yig'ishtirishni boshlaymiz. Kaaatta qimor bo'ldi!

– Shunchalik kayf-safo qilishiga qaraganda katta boyonlardan ekan.

– Uning uchun pullar payraha bilan baravar. O'tgan safar o'zi bilan solbinni olib kelgandi, endi a'yonlari orasiga payg'ambar ham

qo'shilibdi. So'kinishda unga yetadigani yo'q: bo'ralatishni boshlaganidan keyin to'xtovsiz ravishda miyangni parmalab tashlaydi...

– Afanasiy amaki, unga so'kong'ich xizmatchi nima uchun kerak? – ehtirom bilan so'radi Ivan, u o'sha paytdayoq bolalarga xos bo'limgan darajada qiziqvchanligi bilan ajralib turardi.

– Aqlini tozalash uchun kerak... uni to'xtovsiz niqtalab turish uchun: mastlikni tarqatadi. Misoli yerqalampirning o'rniga hidlab turish uchun o'z huzurida olib yuradi. Savdogar unga kanisa uchun pul berishni va'da qilibdi, mana endi qariya jon kuydirib urinib yotibdi, harakat qilyapti.

– O'sha savdogaring nima bilan tijorat qilarkan o'zi? – avvalgiday hech qanaqangi qiziqishsiz so'radi Agafya.

– Hech narsa olib sotmaydi... u o'rmonlarni xonavayron qiladi. Aytishlaricha, uchta daryoning atrofini qirtishlab tugatibdi, endi to'rtinchisini qirg'in qilishga tayyorlik ko'rayotgan emish.

Qadrdon o'lkani shipshiydam qilish yaxshi amal emasligini Afanasiyning o'zi ham tushunib turardi va hatto mavridi kelib qolganida podshoh bilan so'zlashib, mamlakatda tartib o'rnatishini so'rash orzu si ham bor, ammo oddiy yo'lak xizmatkori sifatida katta ichkilikbozlik oldida, xonavayron bo'lishning dahshatli irodasi oldida ta'zimga bo'yin egmoqlikka majbur ediki, uning marhum akasi Matveydan farqli jihatni ham shunda.

Mast-alast savdogarning ish boshqaruvchisining so'zlaridan Afanasiy o'zining jimib qolgan qarindoshlariga nufuzli odamga aylanishning qanday boshlangani tarixini so'zlab berdi; oradan o'n yillar o'tib esa talaba Vixrov sharafsiz tanazzulning tasodifiy shohidiga aylandi... Burlaklar zotidan chiqqan bo'lg'usi o'rmonlar qo'poruvchisi o'z otasi bilan birga daryo yoyiqlarida sayozlikka tushib qolgan yog'och karvonlarini chiqarib olish uchun shirkatlarga qo'shilishar, o'sha paytlarda Rusning qayerlaridadir saqlanib qolgan, amlokdorning chiroy ochib turgan ardoqli o'rmonlarini ag'darar, begona yog'ochlarni daryoga oqizishda o'nboshilik qilib ham o'tirgandi – so'ligan sholg'om bilan kvasdan boshqa yegulik ko'rmagan hayotida hamma ko'rguliklarni boshidan o'tkazishga majbur bo'ldi. Ochlik uni bahorda Volga pasttekisliklariga haydadi va ayni o'sha paytdan boshlab ovozalar unga *martishkalar* deb nom olgan xavfli, lekin daromadli mashg'ulotni ixtiro qilishday mashhurlikni nisbat bergan-

di. To‘lib-toshib oqayotgan suv oqizilayotgan sollarni qirg‘oqlarga uradi, qirg‘oqqa yaqin to‘nkalarga urib sochib yuboradi, binobarin, yo‘lning oxiriga kelib ular abjag‘i chiqqan, sochilib oqayotgan ega-siz g‘o‘lalarga aylanadi. Daryo bo‘yi qashshoqlari ularni daryoga tashlangan g‘ozalarda tutib, yog‘och oqizish vasiqalarining egalariga qaytadan sotadilar. O‘g‘risifat va topqir bu odam deparadagi churva-qalarni o‘z qo‘l ostiga to‘plab, ularning mayishgan, boddan bukilgan bellari ustidan yurib, butun Rossiya ahamiyatidagi yirtqich cho‘rtang maqomiga chiqib bordi. Sollar suvda oqishni boshlashi bilan sochi-lib ketishi maqsadida ularning arqonlarini bo‘shraq qilib bog‘lashlari uchun solchilarga berilgan poralar yirtqichning o‘ljasini ikki baravar ko‘paytirdi... va kutilmaganda u daryodagi ishini tashladi. Sanoatning o‘sishi va yog‘och buyumlarga oshib borayotgan talab uni qashshoq-lashgan aslzodalarning o‘rmonlari bo‘ylab tabar ko‘targan iblis kabi yugurishga majbur etdi. O‘sha paytlarda ancha mashhur bo‘lgan, Olo-netsdan Pskovga qadar hamma changalzorlarni siyraklashtirib yubor-gan o‘rmon sanoatchisi Sukindan, yokigim markaziy muzofotlarni kesib tugatgan Afanasyevdan farqli o‘laroq, Knishev kalxat kabi bu-tun Rossiya ustida qanot qoqib, eng tansiq bo‘laklarni ko‘z ostiga olib qo‘ya boshladi; uning kaftlaridagi dahshatlari qichiqliqi faqatgina yiqila-yotgan daraxtning jon talvasasidagi xirillashi bosib tura olardi. Sovuq yong‘in rus o‘rmoni bo‘ylab o‘z harakatini tezlashtirgani sayin, qash-shoq dehqonlar qishki mardikorlik xo‘ragiga shunchalik tezroq ilina boshladi. Mujiklar savdogarning qadrdon tuproqdagi yashil gilamni sidirib olishiga yordam berib, daqqi samanlariga qo‘silib yog‘och sudradilar. Toqatli dehqon qirchang‘isining qiyofasida qandaydir ramziylik bor edi: u izg‘irinli kunda, xuddi cholg‘uning simtori kabi titrab, zo‘riqish mashaqqatidan butun badani bug‘ taratib, egamasi-dan va egar-jabdug‘idan chiqib ketguday bo‘lib, hatto o‘z terisidan chiqib ketadiganday kuchanadi va nihoyat qamchin zarbi ostida yer-ga qulaydi – dehqonning yagona boquvchisi; keyin uni xo‘jayinning itxonasiga sudrab ketishadi va bir so‘mga sotib yuborishadi. Shu tarzda, ko‘pincha o‘rmon kesishning oxirlariga kelib dehqonlarning uyog‘iga kun ko‘rishi uchun non ham, o‘rmon ham, ot ham qolmaydi va – shunda ular har kim o‘z holicha yolg‘onchilarga tashlanishadi. Havoni kesib vizillagan qoziqlarning ovozi hakamlarning qo‘lidagi hukm yozadigan patlarning qitirlashi bilan, kishan zanjirlarining ja-

rangi bilan, ayollarning yig‘ilari bilan almashinadi, ammo bu tovush-larning barchasini tabarning tantanavor qarsillashi bosib ketadi.

Ivan amakisini chala-chulpa tinglayapti; yollangan payg‘ambar haqidagi ma‘lumot uning yuragiga mustahkam joylashib qoldi. O’sha davrdagi ma’bad qavmlari maktablarining o‘quv dasturlariga da’vatlari yer hukmdorlarini fosh etishga qaratilgan fidoyi kishilar to‘g‘risidagi injil rivoyatlari ham kiritilgan edi; buning uchun ulardan birlarini gulxanda yondirishgan yoki arralab ikki bo‘lib tashlashgan, biroz omadliroqlari tiriklain osmonga ko‘tarilib ketganlar, ammo bolakay bunday qiziqarli tomoshaga guvoh bo‘lishni orzu qilayotgani ham yo‘q. Uni beg‘araz bir istak koraftha payg‘ambarni eng ingichka mix bilan teshilgan tirkishdan bo‘lsa ham bir martagina qarashga chorlayotgan edi. Amakisini ishratbozning xonasiga uchinchi marta chaqirishganida Ivan ham hujradan xuddi shamol uchirganday otolib chiqib ketdi.

U xo‘jag‘at rangli, yerga yopishib ketgan gilam sholcha bo‘ylab biqinib borib, chala ochiq turgan eshik ortidan g‘azabga to‘la, miyani teshib o‘tadigan ovoz eshitilganiga qadar to‘xtamadi: kimdir ichkarda, boyonning xonasida xuddi muqaddas bitikdan o‘qib berayotganday turli xil qo‘rquinchli tahdidlarni ashula aytayotganday bayon qilayotgan edi. Xullas, bolakayning omadi keldi: payg‘ambar o‘zining haqoratli faoliyatining eng cho‘qqisiga chiqib turgan payti edi.

– ... Sen yaramas gunohlar muxlisi, fors podshohidan nishon olding-u, endi hech kim senga daxl qilolmaydi deb o‘layapsanmi? Bekor aytibsan, ... savdogar, noma’qulning go‘shtini yebsan, qalbini jun bosgan iblis. Oxirat kitobining bitiklari orasida ruscha bo‘limgan ajnabiyo so‘z berilgan, *avodon*, biqinida yulduzchasi bor. Xuddi shunday yulduzcha pastdagi chiziq tagida turibdi, uning yonida ham bittagina so‘z bor: qattol. Mana, yana sen haqingda ilohiyotchi Ivan nima degan...

– Nimalar deb aljirayapsan, qari taka... oxirat kitobingda kim meni taniydiyakan? Mening tirikchiligid o‘rmon, – xirillagan ovozda va juda o‘rinli g‘ijindi tanbehlangan boyon. – Ey, avliyo, juda yomon ishlayapsan: hech narsa bilan, hech bir so‘z bilan yuragimni tilkalab yuborolmayapsan... Bilib qo‘y, bugun mendan sariq chaqa ham ololmaysan!

– Sen irshayma, aslo irshaya ko'rma, qashshoq hukmdor... Ko'r-yapman, qoshlaringdan ko'rib turibman sening tez orada keladigan dahshatli mamotingni. Qara, ichingga itning terisi tiqib to'ldirilgan, butun botining qop-qora... qani, javob ber menga, sening xira qorachig'ingda akslangan jirkanch tobut kimniki, gapir, kimniki? – vujudiga quyilib kelgan yangi kuch bilan davom etdi so'kong'ich va qandaydir behayo ayol kulgisi uning ovozini bosib ketishga behuda urinmoqda edi. – Kabutar bilan arslon yana bitta xotin bilan yashashni boshlashibdi-da, sen yiring-patos surtib cho'qintirilgan oqpadar, jahannam olihasini nima uchun bu yerga yetaklab kelding?.. Badani oppoq, suyaklarini shiqirlatib kelibdi! Shoshmasang ham bo'lardi, hali go'ringda u bilan birga to'yib ishrat qilasizlar...

Bundayin xil tahlidlar to'plamini dehqon bolasi hech qachon eshitmagandi. U fosh etilgan haromxo'r payg'ambarni to'xtatib qo'yishidan oldin uni ko'rib qolish uchun qulf teshigiga yopishdi, ammo unga kalit suqib qo'yilgan ekan. Shunda Ivan kallasini eshik tirkishiga tiqdi va eshik ovozsiz ochilib ketdi, shu paytda yo'lakdan o'tib ketayotgan qandaydir hazilkash uning ketiga tizzasi bilan turtki berdi. Bolakay Ivan dahlizdan uchib o'tdi, boshi bilan eshik pardasini ochib yubordi, gilamning buklangan chekkasiga qoqilib, istaklari ijro bo'lib, ziyofatning o'rtasiga tushib qoldi, yerda jimgina o'tirganicha, lat yegan yelkasini siypalay boshladи.

– O, ozgina kech koldi, bechora yosh odam, – sezilar-sezilmas qotib qolgan shevada uning tepasida bijirlagan ayol ovozi eshitildi.

Shaytonbazm yakuniga yetib qolibdi chog'i. Bu yerda, Qozonsovuniga taqlidan ko'm-ko'k marmarsimon shakllarda naqshlangan hamda qizil movut qoplamlari jihozlar joylashtirilgan xonada Afanasiyidan va eshik oldidagi dastyor yigitdan tashqari to'rt kishigina qolgan edi. Divanda, yuzini suyanchiqqa o'girganicha faqat paypoqda, qora tizimcha bilan hoshiyalangan kalta suvoriycha kamzulkiygan, keti katta jingalak sochli kimsa cho'zilib yotibdi; qo'njida popugi bor chapanicha etigi shundoqqina yonida turibdi. Nariroqda, ko'zgu yonida novcha, yuzlarida qondan asar yo'q, ammo qora qalamda chizilgan qoshlari ostida tubsiz o'pqon joylashgan, qora kiyingan, yurakni jizillatadigan darajada hashamador ko'ylakdagi ayol pardoz qilyapti – patlari osilib turgan shlapada. Ivanning nazarida uning hamma narsasi atayinday, yasama, shu jumladan, sariq,

qo'ng'iroy-jingalak, jozibador sochlari ham; so'kong'ich odam qahr bilan ta'riflagan ilohaga to'liq o'xhashi uchun uning qo'liga yog'och dastali chalg'i yetishmasdi, xolos. Nazarni chalg'itish uchun u uzun papiros chekyapti, tutuni esa go'yoki payg'ambarni chetlab, ingicha oqim bo'lib deraza tomonga cho'zilyapti. Bu so'kong'ich odam malla, ayirmachilar mazhabidan, ehtimol Vetlugadandir, uzun, dog'bosib ketgan tor kalta chakmon kiygan, kamar qilib bog'langan tasbehini qayqdandir paydo bo'lib qolgan mushukcha panjasি bilan mahliyo bo'lib siypalayapti... To'rtinchi odam Knishev ekanini bolakay darrov tanidi.

Yo'q, Ivan yanglishishi mumkin emasdi: bu aynan o'sha – Kalinani xonavayron qilgan qattol. Ammo o'rmon sanoatchisi ularning Yengadagi o'sha mashhur tanishuvlaridan beri o'tgan vaqt ichida sezilarli darajada o'zgarib, sochlari to'kilibdi, terisi burishib, ko'p kunlik ishratlar kasofati bilan rangi sarg'ayib ketibdi. Ichiga poxol tiqilganday xo'ppoz, ko'zlarini kosasidan avvalgidan ham ko'proq irg'ib chiqqan. Knishevning inqirozi boshlanib bo'lganini Rossiyada hozircha hech kim bilmasdi. To'g'ri, u hozir ham odamlarga yovuzligini qila oлади va imkon topishi bilan shunday qilyaptiyam, ammo endi undan ko'ra tadbirkorroq, o'zidan ko'ra bilimliroq raqiblari uning tavakkal talonchilik iste'dodini ortda qoldirib, o'zlaridagi boylik orttirishning shafqatsiz va hisob-kitobli ilmi bilan undan o'zib ketishyapti. Kasodga uchragan va zaiflashib qolgan barcha sobiq zo'ravonlar kabi, Knishev ham kecha kimning yo'lini to'sib, qadami ostida toptagan bo'lsa, o'shalarga nisbatan muloyimroq va marhamatliroq bo'lib qolibdi. Endi faqatgina turmushning behuda narsa ekanligi haqidagi xayollar bilan o'zini ovutishi qolibdi xolos, ehtimol, mana bu vetlugalik payg'ambarga ayon bo'lganidan ham ko'proq, atrofidagi hamma narsa, mana bu g'aroyib, mastona g'ira-shirada deraza ortida ko'rinish turgan shahar ham – bularning barchasi unga hozir behuda moddiyotning lahzalik jonlanishi bo'lib tuyulmoqda edi.

U ko'zini qisib, bolani nihoyatda sinchkovlik bilan ko'zdan kechirdi, bu qarash o'zi hech qachon chiptakovush kiymaganlar uchun tushunarsiz holat edi; keyin lanj bir ishora bilan bolaga yaqinroq kelishni buyurdi. Afanasiy jiyanini xuddi duo olishga yo'llaganday, oldinga turtib itardi, Knishev esa uni o'ziga tortib, bolaning qarshiligiga qaramasdan, temir panjalari bilan tizzalari orasiga qamadi.

– Qishloqdan kelib edi, hali ko'nikkani yo'q, ismi Vanya. O'zi jiddiy bola, o'rmonda o'sgan, – shoshilib gapiradi yo'lak xizmatchisi, tez gapirganidan so'zlarini yamlab. – Bizlar o'rmonchilarimiz, mening katta og'am hatto o'rmonchilik ishiga daxldor bo'lgani uchun halok bo'lgan... nihoyatda kuchli edi, Vasil Kasyanich: undan o'zim ham cho'chib turardim! Mana, undan ikki och etim qoldi, ularni otasiz bo-qib bo'larkanmi, axir? Shuning uchun yigitchani Yegorovning novvoyxonasiga joylashtirishga harakat qilmoqchiman.

– Tuzuk, tuzuk... – sal yumshab, ma'qulladi Knishev. – Faqat biringchi chaqani ishlab topish qiyinroq bo'ladi, uyog'ini turmushning o'zi o'rgatib qo'yadi, aqlingga aql qo'shadi, o'zi yo'lga solib qo'yadi! Qani, Vanya, kelishga kelibsani, endi biror nimani aytib, ko'nglimni xushlab qo'ygin-chi. Balki biror ashulani bilarsan? Yoqimli ovozing bilan kuylab bergin-chi, qo'shig'ing uchun etik sotib olishingga yetarli aqcha beraman...

– Menga keragi yo'q, – Knishevning og'zidan buruqsagan aroqning badbo'yligidan nafasi qaytib, boshini jonholatda chayqaganicha, javob qildi Ivan.

– Nega kerak emas ekan, to'nka-tabarcha? – xushmuomalalik bilan, homiylarcha hazil qildi Knishev. – Xizmating uchun ish ha-qingni hali qachon olasan... Piter esa qishlog'ing emas senga: etiksiz yalangoyoq holingda Piterda kimgayam keraging bor? Ana, Yegorovning peshlavhasida podshoh burgutlari tushirilgan: u shaxsan a'lo hazratlarining ta'minotchisi. Nonvoyxonangizga, misol uchun, bosh rohib qaynoqqina o'rama non olishga kelib qolsa, sen uning huzuriga mana shu chiptalarda qo'rqinchli maxluqqa o'xshab chiqasanmi? – Keyin yovvoyi o'rmon bolasining telbaligini jilovlash uchun sochlari no'noqlarcha uzun-kalta qilib qaychilangan boshini tepasidan ushladi.

Ivan tipirchilab uning qo'lini olib tashladi.

– Qo'lingni tekkizma, g'ajib tashlayman... – tahdid qildi u jiddiy ohangda.

– Tishlashga qo'rqmaysanmi, qashqirvachcha? – Knishevning ovozida xuddi bir siqim toshni chaynaganday g'azabli g'ijirlash bor edi.

– Sendan qachon qo'rqqanman? – dovyuraklik bilan kulib qo'ydi bolakay. – O'shanda, Oblogda peshanangni g'urra qilganimni unutingmi?

– Tortishuvning shu joyida payg‘ambar bolaga hasadsiz qiya qarash qildi, shlapa kiygan ajal esa ehtirosli kulgisini socha boshlad; agar Afanasiy amaki o‘z vaqtida aralashmasa, shu yerda Knishevning olivyjanobligi yakunini topib qo‘yaqolgan bo‘ldi. U Vixrovlar naslining baxtsizliklarini, rostakamlarini ham, to‘qimalarini ham, sanab berib, falokatni bir amallab chekkaga surib turishga muvaffaq bo‘ldi.

– Seni esladim, – sovuqqina qilib dedi Knishev. – Seni Titkadan qutqargandim. Yirtqich edi... Agar o‘tgan yozda ustidan daraxt bosib tushmaganida, meniyam g‘ajib tashlash niyati bor edi. Nima uchun o‘shanda mendan jahling chiqqandi, yo o‘rmonga rahming kelganmidi?

– O‘rmonga ham, – bosh irg‘adi Ivan.

Knishev nigohini yuqori ko‘tarib, bolaga qaradi, endi unga bu sariqtumshuq poloponning hamma jihatlari jiddiy ko‘rina boshlad. U o‘zini xuddi shu yoshida yoqasining tagida bittagina shisha tugmasi bor, rangi o‘chgan, yuvilaverib titilib ketgan ko‘ylakda eslatdi va o‘zining shuncha puli bilan, hozirgi itoatkor va suyuksiz bo‘lib qolgan ahvolida hamma narsasini – boyligini, o‘zining jirkanch shuhratini, sotib olinadigan ayol erkalashlarini – pichan uyumi ustida, hali o‘ziga ishonib turgan, uni sevgan, atrofida davra olib raqsga tushgan, ko‘zlarini qisib hazillashgan yulduzlar ostidagi bolaligidagi o‘sha qaytmas bo‘lib ketgan olis tunga almashgan bo‘lishini o‘ylab, ko‘ngli yumshab ketdi.

– Unga achinishning nima keragi bor, Vanya, o‘rmonni aytamanda: u baribir seniki emas, – dedi Knishev past ovozda, go‘yoki o‘zini oqlaganday. – Seningcha, uni mensiz talab ketishmaydimi, Raseyani, a? Hamma olyapti, hatto dengiz ortidan ham qo‘llar cho‘zilyapti. Nega endi rus kishisi ona yurtining bag‘rida turib tirikchilik qilib qolmasligi kerak? – Birdan uning unniqqan yuzini olov yolqini nurlantirganday bo‘ldi. – Uni ayama, Vanyuxa, uch baravar savala, sarfla, chopib tashla... oldingidan qalinroq bo‘lib o‘sadi! – U negadir gapini tugatmadni, tizzalari orasini ochdi: xashak uzoq yonmaydi. – Bo‘pti, boraver, tentak bola...

Biz avvalda gap ochgan hodisa ayni shu yerda sodir bo‘ldi. Xayrlasha turib, savdogar bolaning kaftiga to‘satdan qo‘lida paydo bo‘lib qolgan yigirma beshtalikni qistirmoqchi bo‘ldi, bola esa olmadi, guvhohlarni hayratga solib, xuddi ehsonning iflos ma’nosini his etganday,

qarshilik ko'rsata boshladi; shunda Knishev uni Ivanning qo'yniga solib qo'yishga urindi, lekin bu harakati ham behuda ketdi. Bu hol hatto kulgili edi, kambag'alga sadaqa qistirishdan ko'ra, vatanning bor-yo'g'ini shilib olish osonroq kechar ekan...

Qarshilik doimo Knishevda quturgan kuch xurujini uyg'otib yuboradi va agar bu safar ham Afanasiyning aralashuvi bo'lma-ganida, bu kulgili sahna nima bilan tugashi noma'lum edi. U Ivanning qo'lini yigirma beshlik sadaqaga qo'shib ulkan mushtida mah-kam siqib oldi va jiyanini xonadan olib chiqib ketdi... Agar bu ish Aleksandr Yakovlevich Gratsianskiyning hozirligida ro'y bergani-da edi, uning bittagina ta'nali qarashi dehqon bolasining qat'iyatini to'rt baravar orttirib yuborgan bo'lardi, ammo vaziyatlarning bax-siz tasodifiga ko'ra Vixrovning shafqatsiz hakami ayni o'sha daqiqalarda tug'ilgan kuniga otasi sovg'a qilgan g'aroyib zarrabinni o'r-ganish bilan band edi.

Umuman olganda, uni ayblash ham noo'rin: Aleksandr Yakov-levich bu voqeani tez va qisqa bayonda, badiiy tafsilotlarsiz eshit-gan edi. Aks holda, hikoyadagi arzimas tafsilotlarni tashlab o'tgan holda, u to'g'ridan to'g'ri Vixrovning toliblik yillaridagi sirli qo'llanmalarini ko'rib chiqishga tutingan bo'lar edi... Ammo bu safar Knishevning pullari Ivanning Sankt-Peterburgdag'i eng a'lo, sirlangan yaltiroq ayvonchali kartuz kabi o'ta qimmatbaho buyumlarni xarid qilishi uchun manba bo'lib xizmat qilgan, yamoqlarining zaxirasi voyaga yetgunicha yetadigan darajadagi o'lchamlarga ega bo'lган, Ivan sotib olishiga qadar juda kam kiyilgan pidjakni-yu, aytmasayam bo'ladi. Lekin eng avvalo, Ivanning hayotidagi eng birinchi va hatto-ki shahar mirshablarini hurmat bilan o'girilib qarashga majbur etgan g'archli etigi alohida e'tiborga molik. Apraksin bozori jarchilarining e'tiroflariga qaraganda, bunday tashqi ko'rinish bilan hatto Qishki saroyda ham lavozim olish mumkin ekan mish. Lekin bu guvohliklar noto'g'ri bo'lib chiqdi: Ivanni faqat o'tin omborida ishlashga lozim topishdi, xolos, shunda ham shogird sifatida, ya'ni hech qanday ma-oshisz. Agafya esa ilgari Afanasiy farroshlik qilgan, yo'laklarining tepasida tosh gerkuleslar qad ko'tarib turgan hashamatli uyga oshpaz dastyori bo'lib ishga kirdi.

Agar qandaydir aylanma yo'llar bilan va ikki yillik kechikish tufayli uning Knishev bilan yuz berган to'qnashuvি ovoza bo'lмаганida, bolakay Ivan shu zaylda abadiy yosh yugurdak shaxs sifatida yashab o'tishi mumkin edi. Jurnallardan biridagi bayonda Oblogdagi uchrashuv hikoya qilingan bo'lib, unda ushbu hodisa muallifning irodasi bilan dehqon bolasining mashhur o'rmon qattoli bilan qahramonlarcha olishuviga aylantirilgan; shu bilan birga mamlakat arboblariga yanada battarroq ta'na sifatida ishtirokchilarining ism-shariflari va voqeа joyi ham ko'rsatib o'tilgan. O'sha davrda yetuk odamlar tabarning tartibsiz hamlasini to'xtatish uchun ko'p kuch-quvvatlarini behuda sarflaganlar, Agafyaning xo'jayini esa o'sha, keyinchalik ko'p janjallarga sabab bo'lган, Peterburg o'rmonshunoslik institutida o'rmon tuzilishi turkumidan saboq bergen Tulyakov edi.

U rus o'rmoni himoyachisi bilan tanishish istagini bildirdi, ammo lekigin uning bu xohishi unchalik ham kuchli bo'lмаган ekanki, bu uchrashuv maqola e'lon qilinganidan keyin rosa yarim yil o'tib – Ivanning keyingi kelishida yuz berdi.

Yigitchani onasi xo'jayindan ortib qolgan kechagi karam sho'rva bilan yashirincha boqayotgan paytida uni chit parda ortidan sug'urib olishdi va o'rmonshunos olimning xizmat xonasidan ko'ra ko'proq mahkama mansabdonrikiga o'xshagan hashamdar va fayzsiz xonaga yetkazib kelishdi. Tulyakov ulkan miz ustidagi qo'lyozmalarni ko'zdan kechirganicha, Yenganing xonavayron bo'lishi tarixini xayolchanlik bilan eshitib o'tirdi; unga knishevcha jasoratlarning beshbattarları ham ma'lum edi va dehqon bolasi ham hozir ancha ulg'ayib qolgan, yoshi taxminan o'n beshlar atrofida bo'lib, voqeaning ta'sirchanligi ham bu davrga kelib ancha zaiflashib ulgurgan edi. Ammo salgina vaqt o'tib, Ivanning soddagina hikoyasi Matveyning vafoti, Kalina bilan do'stlashuv va yana – bolalar qanday hayajon bilan o'rmon chashmasi oldida tizzalab turganlari voqealarini ma'lum qildi. Bola hayajonlanib ketdi, uning ruhida ilk bor o'rmonning bo'lg'usi noibining ovozi uyg'ondi... va birdan go'yoki mag'lub bo'lган butun Oblog shu yerga, o'rmon mansabdonining ish xonasiga kirib kelganday tuyuldi, – yashil uvadaga burkangan ulkan ko'r

xilqat o‘zining behuda gunglarcha shikoyatini so‘zsiz ming‘irlaydi; Ivan esa uning huzurida shunchaki yetaklovchi edi, xolos.

Tulyakov hech qachon o‘rmonning musibatlari bilan bunchalik yaqin yuzma-yuz kelmagan edi, zero Boshkentda yashaydigan boshliqlar qudratli davlat yumushlari ortida bunaqa mayda-chuyda narsalarni umuman ko‘rmaydilar.

U ozg‘ingina bu kelgindiga avvalda sinchkov va biroz g‘ijinish bilan qarab qoldi, zero bolaning bemavrid tashrifi unga to‘la-to‘kis farovonlik orasida ulkan Rossiyaning ham mavjudligini eslatib qo‘ygandi.

Professorning hurmati uchun aytish kerakki, u Ivanning hikoya-sidan shunchalik ta’sirlanganidan, hatto yigitchanining tagligi yorilgan etining izidan gilamiga tushgan izlarni ham payqamadi. Keyin esa Vixrovning kelajagini belgilab bergen suhbat bo‘lib o‘tdi.

– Azizim, agar ilmiy sohaga bo‘lmasa ham, umuman o‘rmon-shunoslik faoliyatiga... o‘zingni butkul bag‘ishlashni hech o‘ylab ko‘rganmisan? – jiddiy, xuddi katta odamdan so‘rayotganday savol berdi Tulyakov.

U bir ma’niliroq javobni olgunicha, savolini har xil so‘zlar bilan tushuntirishga harakat qilaverdi. Xayriyatki, professor aqli odam edi, zero biz marhamat ko‘rsatib, obakidandon sotib olishi uchun kaftiga besh tiyin tashlagan odamimiz oxir-oqibat kim bo‘lib chiqishini hech qachon bilmaymiz.

– Bu juda yaxshi ish bo‘lardi-ya, taqsir, lekin bunga bizning mablag‘imiz yetmaydi... – amakisiga taqlidan salobat bilan, etining qo‘njini tortib ko‘targan ko‘yi Tulyakovga javob qildi dehqon bolasi.

Taniqli professor uchun bolani Lisinodagi o‘rmonchilik maktabiga to‘liq ta’minot bilan o‘qishga joylash va uni tugatganidan keyin yigitchani o‘rmon tuzuvchilar guruhiга qo‘sib tajriba safariga jo‘natishning qiyin joyi yo‘q edi. Bu tajriba Ivan Vixrovning Rossiyadagi o‘rmonlarning ahvoli bilan ilk mukammal tanishuvi bo‘ldi. U o‘sha yillarda ikkita shimoli-g‘arbiy muzofotlar chegarasidan nariga o‘ta olgani yo‘q, ammo shu hududlarning o‘zidanoq saltanating qolgan qismida nimalar bo‘layotganini bilib olish mumkin edi. O‘rmonlarning keng bag‘ri oralab qayerda soylaryugurib o‘tgan bo‘lsa, o‘sha joylarda tabarning taqillashi xuddi butxona qo‘ng‘irog‘ining kechki bongi, xo‘rozning qichqirig‘i, qishloq chekkasida chalingan

childirma tovushi kabi sukunatning odatiy mazmuniga aylanib qoldi. Ko‘rinishidan, birinchi inqilobdan cho‘chib qolgan o‘rmon egalari nohaq o‘zlashtirib olingen qo‘pol mulkidan uning rostakam xo‘jayini huquqiy egalikka kirishguniga qadar sotib qutulishga urinmoqdalar. Yenganing kichik fojiasi Rossiyaning har qanday burchagida aynan takrorlanadi. Yosh Vixrov o‘rmon halokatining muqarrar oqibatlarini oldindan fahmlab olishi uchun unga yetarli darajadagi bilimi yo‘qligi xalaqt bermoqda edi, ammo o‘sha paytda podshoh hokimiyatining qasosiga va istibdodiga sabab bo‘luvchi xavfli va yovuz savollar uning yuragida tobora ko‘proq uyg‘ona boshladi... Shaxsan uning uchun bu besh yil muhim voqealarsiz o‘tdi, ammo Boshkentga kelgan kuniyoq onasining o‘limi haqida va boshqa go‘l ruslar qatorida podshoh hazratlari bilan turmush mashaqqatlari haqida yurakdan so‘zlashib olish xayoliga kelib qolgan Afanasiy amakisi to‘qqizinchi yanvarning o‘ta omadsiz yakshanbasida izsiz g‘oyib bo‘lgani to‘g‘risida eshitdi. Tulyakovning qorong‘i yo‘lagida Ivanga Agafyaning oshlangan teridan tikilgan kalta po‘stin va deyarli kiyilmagan poyabzal sifatidagi merosini topshirishdi; darvoqe, Tulyakovning mo‘yna po‘stini ilgichda osilib turgan bo‘lsa-da, chamasi o‘z vijdoni bilan orani ochiq qilib olganiga ishongan professor oshpazining ulg‘ayib qolgan o‘g‘liga bir qarab qo‘yishni ham o‘ziga ep ko‘rmadi. Taiskadan esa o‘sha ayrilikgan kunidan beri darak yo‘q, binobarin, Vixrovning dunyoda o‘rmonlardan boshqa qarindoshlari qolmadı, ammo o‘rmon unga yordam bera olmaydi va yana – yigitchaning olamda mavjud ekanini xayoliga ham keltirmaydigan xalqi bor.

Yetuklik shahodatnomasini olish uchun imtihonlarga tayyorlana-yotgan paytiga kelib, safarda ishlab topgan pullari tugab bormoqda edi. Bundan tashqari, O‘rmonchilik instituti 1907-yildagi talabalarining tartibsizliklaridan keyin yarim yilga yopib qo‘yilgan; nafaqa olishga ham umid yo‘q, o‘sha yillardagi ishsizlik esa doimiy ish haqiga bo‘lgan har qanday umidni yo‘qqa chiqarar edi. Ligovkadagi chordoq uchun ijara haqini to‘lashga mablag‘i yo‘q va uyning bekasi, do‘mboqqina va yolg‘iz ayol och qolgan istiqomatchisini kaptarxonadan pastga, o‘zining uyasiga tushishga va uning mehmonnavozligidan kengroq foydalanishga tobora qat’iyroq taklif etmoqda edi.

Muhtojlikning xalq orasida *boshi ochiq qashshoqlik* deb ataluvchi darajasi yetib kelmoqda edi va hattoki doimo o‘zining topqirligi bilan

ajralib turuvchi Aleksandr Yakovlevichning shaxsan o'zi ham tobora quyuqlashib borayotgan bunday qiyinchiliklar changalidan chiqib keta olmagan bo'lardi... Ayni shu damlarda jo'natmalar idorasining xizmatchisi Vixrovga topshirgan yigirma besh so'mlik najotkor o'tkazmaga savodsizlarcha dastxatda *rus o'rmoni farovonligi uchun* deb yozilgan qaydnoma ham ilova qilingan edi.

Xuddi shunday ikkinchi jo'natma faqatgina bir yarim yildan keyin, O'rmonchilik instituti tolibiliing faoliyatida bo'lg'usi olim qiyofasi paydo bo'layotgan paytda keldi; Knishev tomonidan toptalgan buloqchani himoya qilishga intilish va maqsadga erishish yo'lidagi avomlarcha itoatsizlik o'sha paytlardayoq vixrovcha kelgusi faoliyatning hajmini, yo'nalishini va binobarin, siyosiy mazmunini belgilab bergen edi... Agar go'daklarcha kecha-kunduzning raqamnomasida bolakay Ivan uchun faqatgina uchta belgi bor edi – podachining tonggi surnayi, tushlik vaqt va chorvaning qaytishi, – hozirda esa u o'nlab yangilari bilan qoplangan; eng kichik bo'linma uyqu uchun ajratilgan, ammo Katta Kostroma hazil qilib aytganiday, Vixrov tuning o'rtasida ham gerbariylarni o'rganish uchun uyg'onadi. Uning ixtiyorida rus o'rmonining qismati to'g'risida dastlabki xulosa uchun yetarlicha ma'lumot to'planganida esa, tanlagan fanining sarhadlarida haqiqatni tasdiqlovchi voqelikni izlashni boshladi. Endi dars o'tish, yoritilgan rejalarни chizish va boyvachcha tanballar uchun imtihon topshirishga vaqt qolmayotgan edi. Rostini aytganda, Vixrov o'zining mujiklarcha ajoyib salomatligi boisidan o'zini baxтиyor his etishi uchun bir funt starodub noni va o'rtacha semizlikdagи tuzlangan baliq kifoya qilar edi, ammo shuning yarmi ham hozirda har kuni nasib etayotgani yo'q edi. Murojaat etishga esa hech kimi yo'q; Tulyakov esa ma'ruzalari paytida uni tanimas ham edi. Noma'lum valine'matdan o'z vaqtida, bir oylik tanaffus bilan kelib turgan pul o'tkazmalari o'sha davrlarga tegishli edi.

Bu yana o'sha choraktalik, ya'ni yigirma besh so'mlik qog'oz edi, ammo endilikda bu sadaqalarning biror jumla ham ilovasiz kelayotganida cheksiz bir tahqir zohir edi. Mablag'ning takroriyligi va bir xilligi Knishevdan ishora berib turardi, ammo u mamlakat bo'ylab doimiy ko'chib yurishlarida o'zini haqorat qilgan odamni sakkiz yil davomida muntazam kuzatib borishi va uning och qolayotganidan xabardor bo'lib yurishi aslo mumkin emasdi. Vixrovning

yaqin oshnasi Grisha Cheredilov, mazkur holatda beva bekaning o‘z yonidan qochib ketgan istiqomatchisining yuragidagi muzni masofa- dan turib bo‘lsa ham eritishga urinishlari deb bilar edi. Shuningdek, maslahat uchun chaqirilgan Valeriy Kraynov esa, bevani butkul rad etib, ijtimoiy sabablarga ko‘ra Knishevning ham yuragi oliyjanob amallarga qobilligiga shubha bildirdi; uning fikriga ko‘ra, yordam fa- qatgina o‘rtog‘ining nochorligidan xabardor bo‘lgan va o‘zi bemalol mablag‘larni sarflashga qodir bo‘lgan Sasha Gratsianskiydan kelishi mumkin edi. Dendrologiya xonasida yolg‘iz qolganida esa Vixrov shosha-pisha Sashaga minnatdorlik bildirib, uni qulog‘idanmi, xullas o‘sha atrofdan birodarlarcha o‘pib qo‘ydi, u biroz uyaldi-yu, ammo pul jo‘natmaganini darhol inkor etishi lozim bo‘lsa-da, bunday qili shoshamadi, avvaliga bunaqa narsalar do‘srlarning orasida ar- zimas ish ekani to‘g‘risida nimalarnidir ming‘irlab, jo‘nab qolishga shoshildi; ikki tomonlama xijolatli noqulaylik yuzaga keldi. Knishev borasidagi taxmin o‘rinli bo‘lib qolaverdi, o‘tkazmadagi xatlar ido- rasi tamg‘asiga qaraganda, homiy hozir aynan Peterburgda edi... Xullas, yanvarning qahraton tongida ikkinchi bosqich tolibi Ivan Vixrovning xayoliga dabdurustdan Rossiya burjuaziysi bilan mun- sabatlarni aniqlashtirib olish fikri kelib qoldi. Och qoringa ko‘chaga chiqish malolidan tabiiy ravishda g‘azabga kelib, irodasini va tanasi- ni chiniqtirishga rosa bopta vosita bo‘lgan yengilgina yozgi paltoda tashqariga yo‘naldi va shahdam qadam tashlab – o‘sha vaqtarda u hali oqsoq emasdi – bunaqangi izg‘irin haroratlarda azobli darajada haddan tashqari uzun tuyulib ketadigan Ligovka bo‘ylab manzillar ma‘lumotxonasi tomon yugurib ketdi. Uning maqsadi savdogarning muvaqqat qo‘nimgohini aniqlash va uni, ya’ni Vixrovni bundan bu- yon bundoq marhamatga munosib bo‘lmagan ezgu amallari uchun siylovlardan xalos etish borasidagi so‘zlarni aytib, pulni egasiga qay- tarib berish edi. U Knishevni popuklar tikilgan, g‘ashga tegadigan da- rajada hashamdar xalat kiygan holatda, gazlangan suv ichib o‘tirgan sharoitda uchratishini xayol qilgandi, qarshisidan esa Nevaning sha- moli esib turibdi, boz ustiga bir soatdan keyin Vixrov shaharning boshqa chekkasida, institutda bo‘lishi lozim. Bu sharoitlarning bar- chasi tayyorlab qo‘yilgan minnatdorlik so‘zlarini achchiqroq qilib aytishni taqozo etardi; hattoki, hammasini talaffuz etishga ham hojat yo‘q... U Volkov qabristoni yonidan o‘tadigan yo‘lning bir qismini

bosib o'tib bo'ldi, o'sha paytlarda shu yoqlarga yaqinroq joyda ijara turar edi va tunab qolish uylari, tungi sharobxonalar, pivoxonalar va Boshkent qalang'i-qasang'ilari to'planadigan Chubaryov tor ko'chasiga yaqinlashganida, qo'qqisdan taqdirning o'zi bu yosh yigitchaning salomatligini hamda vaqtini ayashga qaror qilib qoldi. Mamlakatda *davlat do'koni* deb ataladigan, may sotiladigan rastalar yonida, jirkanch devorga suyanib, har xil iflos oqmalar va may shishasining so'rg'ichining urib sindirilishidan qolgan qizil dog'lar orasida, yo'lkada bir ichkilikboz o'tirganini ko'rdi, kal boshi shamollab qolmasligi uchun boshiga ro'mol o'rabi qolgan, oyog'i o'rnida yog'och ko'rinish turibdi. Tizzalari orasidagi yirtiq qalpog'ida mis chaqalar va chamasi rahmdil o'quvchi qiz o'zining ulkan hayoti yonidan o'tib ketayotib, tashlab qo'ygan, qog'ozga o'ralgan popukqand turibdi. Bu kimsa aynan Knishev edi; uni mast holida poyezd kaltalashtirib ketganmi, yoki biror joyda muzlab qolganmi... U sadaqa so'rayotgani yo'q – ko'rinishining o'ziyoq shundoqqina tilanib turibdi. Omon qolgan, suvlanib turgan ko'zları to'g'ri ayoz oftobiga tikilib turibdi-yu, lekin uni tanimayapti, hozir u o'zining tuqqan onasini ham, jonajon Volgasini ham, o'zi shunchalik tiklab bo'lmas va bema'ni zararlar yetkazgan vatanini ham tanimagan bo'lardi. Tanasining chap tarafi butkul harakatsiz qolgan holda, o'ng qo'li avvalgiday keng va keskin harakatdan to'xtamagan, go'yoki hayotni qamchin bilan savalayapti-yu, uning so'ngida aynan nima borligini bilib olish uchun chidab bo'lmas tashnalik bilan qarayapti.

– Ur uni, niqtab tashla, o'rabi-burabi egib qo'y... – tinmay ming'irlaydi u, ammo atrofdagilar uning g'o'ldirashini tushunishmaydi. – Ezib tashla, kuydirib tashla, o'sha onasini...

O'sha davrlardagi rus hayotining butun mash'umoti uning nigo'hida aks etib turibdi va Vixrov xuddi shlagbaum kabi yo'lkanı to'sib qo'ygan yog'och ustidan hech qanday achinishsiz qadam tashlab o'tib ketdi.

Knishev o'zining hozirgi holatida talabalarga g'amxo'rlik qiladigan sharoitda emasligi bu uchrashuvdan tabiiy ravishda ko'rinish turardi. Yo'q, Vixrovning g'aroyib tarzda boyib ketgani sababchisi ni boshqa joydan izlash kerak edi va haqiqatan ham – bunga Boltiq korxonasi daxldor emasdi, ayniqsa, yarashtiruv hakamlari olachiq solig'ini to'lamagan ishchi oilalarni kapalardan haydash bo'yicha

ishlarga boshlari bilan sho'ng'ib ketgan stolipincha istibdodning rosa qizg'in pallasida. Shu tarzda, Gratsianskiyning Vixrov qaysidir darajada shubhali aloqalarga ega ekani halidagi shamasi inkor qilinmay qolaverdi.

Agar gapning ochiqchasiga o'tiladigan bo'lsa, Aleksandr Yakovlevich o'z raqibini rosmana sharmanda qilish niyatida bo'lsa edi, Vixrovning shaxsiy hayotidan – u zamonaviy o'rmon xo'jaligini tanqid ostiga olganidan ancha avvalgi yillardan, yanayam rasvoroq ishlarni dalil qilib keltirishi ham mumkin edi. Bu dalolat sifatida Vixrovning qashshoq dehqonlar tabaqasidan chiqqan shaxs sifatida boshqa tabaqa vakilasi bilan nikohlangani nazarda tutilmoqda. Yengalik bir mushtumzo'rning nabirasini o'g'il qilib olganining o'ziyoq qanday asoratlarga molik, yokigim Vixrov o'zining shubhali ustozining dafn marosimida namoyishkorona ishtirot etgani-chi. O, Gratsianskiyga Vixrov haqida o'zi ularning mashhur munozaralari davomida oshkor qilganlaridan ko'ra solishtirib bo'lmaydigan darajada ko'p narsa bilardi!.. Ammo eng ko'rgazmali jihat shunda ediki, agar Vixrovdan o'zining nomulohazakor, nomaqbul qilmishlarini tuzatish imkonni bo'lganida edi, bu ashaddiy betavfiq o'ylab ham o'tirmasdan ularni yana takrorlagan bo'lardi...

Ammo hamma narsaning ham izohini taqozo etguvchi uzun zanjir buning ibtidosi sifatida mavjud edi.

3

O'rmonchilik institutida Vixrovdan tashqari, yuqorida eslatib o'tilgan Grisha Cheredilov hamda Valeriy Kraynov ham a'zo bo'lgan xususiy talabalar birodarligi yuzaga kelishi aynan o'sha Peterburg davriga to'g'ri keladi. Har uchovlari, bir-birlariga mutlaqo o'xshamaganlari holda, go'yoki o'zaro bir-birlarini to'ldirib turardilar, hatto kiyib yurgan ko'ylaklariga qadar o'zaro baham ko'rар edilar va chamasi, har birlari, kecha-kunduzning har qanday paytida o'rtog'iga yordam uchun tashlanmaydigan birorta ham qiyinchilik butun dunyoda yo'q edi. O'sha paytlardayoq ularning har birlarining kelgusidagi moyilliklari namoyon bo'la boshlagan edi, Cheredilovni istisno etganda, albatta. Kostromalik shahvatparast rohibchaning o'g'li va o'zi ham ichkilik muxlisi o'laroq, u yaqinlarini davolash uchun

shifokorlik bilan shug‘ullanishga jahd qilgan edi, ammo o‘zining e’tirof etishicha, uni mast holida vokzaldan olib, O‘rmonchilik institutiga tashlab kelishibdi, u yerdan hujjatlarini qaytarib olishni esa lozim topmay qo‘yaqolibdi, chunki manzilni adashtirib yuborgan aravakashning xatosida taqdirning yozig‘ini ko‘ribdi; u o‘zining hayotida sodir bo‘lgan hangamalar bilan do’stlarini kuldirishni yoqtirardi. Ularning oralarida eng kattalari, Kraynov, abadiy toliblar toifasiga kirar edi, ammo uning ilmiy tadqiqotlarga nima uchun diqqat-e’tibor qarata olmaganining sababi ancha keyingina ma’lum bo‘ldi. O‘sha tushkunlik va inqilobdan chekinishlar davrida u kamchiliklardan biri sifatida, u aql ravshanligini saqlagan holda, pastki Rossiyaning kelajagiga ishonch bilan qarab, eng sezilarsiz holatlardan ham yaqinlashib kelayotgan ijtimoiy ko‘tarinkilik alomatlarini ko‘ra olish iste’dodiga ega edi va shu zaylda boshqalar uchun ham bardamlik manbayi bo‘lib xizmat qilardi; rus o‘rmonlarining najotini amlokdlarning o‘z-o‘zlarini ixtiyoriy cheklashlaridan emas, xalqning qat’iy to‘ntarishidan izlash kerakligini Vixrov aynan u orqali anglatdi.

Avvaliga, toki bu uchlikning safiga yana bittasi, yoshi bo‘yicha eng kichigi, Gratsianskiy kelib qo‘shilguniga qadar, institutda ularni *mushketchilar* deb atay boshlashgan edi va shundan so‘ng bu unvon uning yolg‘iz o‘ziga, ammo qandaydir noaniq tarzda haqoratli tusda tatbiq etila boshladi. Umuman olganda, yigirma yildan keyingina undagi sovuqqon nigoh, amaliy ishbilarmonlik, ushlagan joyidan tishlash qobiliyatları namoyon bo‘ldi, o‘sha yillarda u sochlarini uzun o‘stirgan, chapanilarcha qo‘shqator tugmali kamzul kiygan olifta, ko‘plab she’rlarni yoddan bilardi va o‘zi ham yaxshi she’rlar yozardi, uning ko‘zları esa nufuzli oilalarning qizlariga behad yoqar edi. Har uchovlari uni har tomonlama yetuk iste’dodi uchun, amalga oshmaydigan g‘oyalarning doimiy mubtalosi bo‘lgani uchun samimiyoq sadoqat bilan sevar edilar, shu bilan birga har qanday zamonaviy bit’atlarga mutlaq moyilligini ma’qullamas edilar – u davrlarda jamiyat tanazzulining darajasi bid’atlarning miqdori bilan belgilanan edi.

Sovetlardan oldingi tarixning bu qorong‘iliklari muvaffaqiyatsiz jimlik bilan nishonlanadi. Sankt-Peterburgdagi saroy maydoni nihoyat tilanchilardan, isyonchilardan, qurollangan avomdan bo‘shatildi va qo‘rqinchisi, Rossiyaning sukutdagi kengliklaridan yuz o‘girgan farishta Aleksandr ustuni cho‘qqisidan boqishni boshladi. Davlatning

tanballigi va harbiy-dala hukmfarmoligi bu baxtiqaro mamlakatning turmush tarziga aylandi. G'oliblar mag'lublarni izlab izg'ib yurishibdi, undaylar esa yo'q. Mahv etilgan inqilob o'lgani yo'q, o'zini o'lganga ham solmayapti – u go'yoki bulutsiz garmselli osmonda vaqt orasida erib ketganday edi. Rus ozodligining birodarlik qabristonidan ham ko'ra chuqurroq yashirin faoliyatga o'tishga ulgurmagan katta yoshdag'i himoyachilar terlama kasali va kishan iskanjasida Sibir ovloqliklariga surgunga ketib borishmoqda. Bolalar va o'smirlar qolishdi – onalari to'qqizinchi yanvar kuni otib o'ldirilganlar va Presnyada emaklab o'q-dori tashiganlar yoki otalarining isyonkor varaqalarini qo'ynilariga yashirganlar; endi keyingi avlod otalarining to'ntarish tajribasini o'zlashtirib olguniga qadar kutish kerak edi. Tiriklik buyuk jang maydonini tark etgach, uning tepasida sharpalar qanot qoqa boshladi. Bu vaziyat chirish, xoinlik, zaiflar o'zlarining tabiiy ruhiy va jismoniy kuchsizliklari o'rmini to'ldiradigan g'ayritabiiy gunohlarning turli-tuman girdoblari sharoiti edi. Bunda Nitsheni, Yahudoni va Chezare Borjani ulug'lagan chala ajinalar, xunasalar, maxluq-ma'budlar, alvasti-itlar, saroy mulozimlarining xos kiyimlarini kiygan o'limtik qonso'rilar, lablari olov bo'lib yonib turuvchi mutaasisib mazhabdorlar, ko'zlarida kamalak ranglari chaplashib ketgunicha ko'ylaksiz hollarida raqsdan to'xtamagan allaqanday o'n ikki malika, iste'fodagi gannover shahzodalari, badaniga har xil temir-tersaklarni va bir pudlik barkashnonni ilib olgan, Nevskiy ko'chasi bo'ylab sayr qilib yurgan oxirat kitobining rohibi, niqob taqqan yokigim egniga hech narsa kiymagan g'alati baron xonimlar, ziyolilarni burjuaziya bilan birodarlik qilishga da'vat etib yurgan qo'shmachilar, mirshab-larning ijozatini olgan anarxistlar va o'zining or-nomusini, millatini hattoki jinsini mutlaq yo'qotgan allakimlar ishtirot etmoqda edilar. Barcha bu tungi maxluqlar kunning yorug'ida erib ketadi va asr boshidan beri ikkinchi marta ocharchilik-qahatchilik hazrati oliylari yoppasiga bosib o'tgan vatanda na izini, na soyasini qoldiradi.

– O'lik podshohlik, o'lik... – bir kuni gap orasida, fenologiya amaliyoti vaqtida qistirib o'tdi Vixrov o'zining do'sti Valeriy Kraynovga. – Meni esa, og'ayni, ko'nglim haydalmagan dalalarni aylanib, o'rmon kesuvchilar bilan bir gulxan atrofida tutun hidlash, bozorlarning tiqilinchlarida chollar orasida aylanib yurish, Rossianying max-

fiy xayollarini tinglash sari tortyapti. Eh, oshna, qish pallasiga to‘g‘ri kelib qoldik-da...

Suhbat institutning daraxtzorida, mayda mevali Pensilvaniya olchasi oldida bo‘lib o‘tgandi; qizg‘ish atlas po‘stloq daraxt tanasining muzday shamol titratib turgan titiq qobig‘i ostida yorishib ko‘rinadi. O‘sha yili ko‘klamning omadi kelmadi, bo‘ronlar yashillikning ko‘z ochishiga qo‘ymasdan tinmay muzlataverdi.

— Qaror topib turgan jimlikdan qo‘rqma, Ivan... Jamiyatimizda hozir quvvat to‘planyapti. Agar uning qutblariga qo‘llaringni qo‘ysang, salohiyatlar tafovuti seni turgan joyingdayoq o‘ldiradi. Sen qortepalarga boqma, sen bu yoqqa qara, — javob qildi Valeriy va pichog‘i bilan ancha bo‘rtib qolgan, hozircha butkul yopiq kurtakni yorib, yashil et orasidagi hali gul bo‘lmasa-da, ammo rangidan ajratib olsa bo‘ladigan, — yaqin orada gullashidan darak beruvchi bir burmani ko‘rsatdi. — O‘sha bahorda ham xuddi shunday bo‘lgandi, olti yil muqaddam... yodingdami? Endi tasavvur qil, agar orada ozgina tanafus bilan bularni iliq yomg‘ir ikki marta yuvib o‘tsa nima bo‘ladi...

Uning iljayishida qandaydir voqelik xabari borday edi, o‘sha paytdagi suhbatda hozir bo‘lgan Gratsianskiy esa oradan yetti oylar o‘tib, Neva kemasozlik korxonasida va Voznesensk manufakturasida oldinma keyin dastlabki ish tashlashlar alangalana boshlagach, birdan o‘sha suhbatni eslab qoldi.

... Favqulodda kuchli xotiradan tashqari, bu yigit mulohazakor aqli bilan va qaysidir darajada Vixrov singari har qanday bilimga tashna miyasi bilan ajralib turardi, yo‘lida uchragan har qanday manbadan haqiqatni izlayverardi. Bunday keng siyosiy va ma‘naviy tabalbar ko‘lamida Sasha Gratsianskiy gimnaziyada saboq olayotirgan chog‘laridayoq Marks va Bernshteyn asarlari mutolaasini Nitsshega, Maks Shtirnerga va hatto Ramacharakega bo‘lgan chuqr qiziqish bilan mohirlarcha uyg‘unlashtirib tahlil etgan va keyinchalik yoglar tizimi bo‘yicha burnining bitta teshigida nafas olish qobiliyatini o‘zlashtirishdan tashqari, shaxsan o‘zi ham jamiyat bo‘hronlar silsilasida Sasha Gratsianskiyni unutib qo‘ymasligiga ham ahamiyat bergen holda bashar zotining ijtimoiy tuzilishi usullarini ixtiro qilgan. Hozirgi, shafqatsiz va uni zamondoshlari nazarida beqiyos yuksakliklarga ko‘targan o‘rmon hakami rutbasi unga azobli izlashlardan keyin nasib bo‘ldi. Diplomni olishi bilanoq o‘zining kuchini galma-galdan goh

iqtisodchi, goh adabiyotchi, goh tarixchi sifatida sinab ko'rdi... Boz ustiga, fuqarolar urushining tugashiga u Sankt-Peterburg qo'riqlash bo'linmasining talon-torojdan omon qolgan arxiv hujjatlarini qunt bilan o'rgandi, ammo o'sha yillardagi yoshlari orasidan chiqqan inqilobiy oqimlar to'g'risida arzirli kitob yozishga uning qalami ojizlik qildi. Umuman olganda, uning O'rmonchilik institutiga kirishining o'ziyoq kishi tasavvuri uchun g'alati holat ediki, bu eng demokratik o'quv muassasalaridan biri bo'lib, u yerga o'rmon mehnatchilarining farzandlari sulolaviy moyillik nuqtayi nazaridan boradilar yoki shikorning hamda jonajon vatanning ashaddiy muxlislari o'qishga kirdilar. Sashaning kasb tanlashiga esa o'zining tug'ma yuragi zaifligi va o'g'lining mehnat faoliyati sokin sihatgoh sharoitida kechishi uchun onasining, mustabidlarcha hukmfarmo ayolning talabi sabab bo'ldi.

Sashaning onasi o'zida qop-qora, takabbur, kamyob darajada kamgap mavjudotni namoyon etib, salgina sezilib turgan g'ilayligini sadaf tusli yaltiroq buklama ko'zoynagi yashirib turardi. Juma kunlari, odatda Kraynovsiz yoshlari Gratsianskiyning obod Sergiyev ko'chasidagi xonadonida to'planishganida, Cheredilov kampirga betimsol rus qudratining soddadilligi bilan yumshatilgan samimiylazillar qilib turishdan zavqlanar edi; bir kuni u sariq chaqaga arzimaydigan atrof olamni ayolning ko'zi bilan ko'rish uchun uning ko'zoynagini so'radi. Sho'x va gajir Cheredilovga gilamlarda torsher chiroqlarining yashil nurlari akslanib turgan bu shinam boyonlar xonadoni o'sha paytlarda unchalik ham yoqmas edi, – ammo bu yorug'likda yuzlar va fikrlar soyada qolaverardi! – baxmal deraza pardalarida dekadentlarning tushkun kayfiyatini o'zida aks yettirgan suv o'simliklari tasvirlangan, shoxlari osilib turgan palmalar orasidan xuddi oltin baliqlar kabi chaqqon, do'mboq, gapirmas cho'rilar o'tib turishadi. Umuman olganda, bu xonadondagilar anchayin ziqlana bo'lib, u yerda taomlar ham juda ayab berilardi, ammo ular solinadigan idishlar benihoya hashamador edi. Sasha anchadan beri o'zining to'dasiga Kraynovni ham qo'shib olish istagida yurardi – ammo bu uni hurmat qilganidan emas, balki o'zining izzattalabligi sababidan edi, chunki erkalikdan quturgan boyvachcha sezgisi bilan uning beparvo qobig'i ostida qandaydir kuydiruvchi va o'ziga dushman bo'lган xalqona haqiqatni his etib turardi. Omadli tasodif tufayli Kraynovning tashrifi Sashaning tug'ilgan kuniga to'g'ri kelib qoldi,

o'sha kuni mehmonlardan biri arzimagan bir janjaldan qizishib ketib, o'quvchilar orasida Sasha tomonidan boshqariladigan yashirin-firqlararo tashkilot mavjud ekani va unga *Yosh Rossiya* degan taqlidiy nom berilganini aytib qo'ydi.

O'sha esda qolarlik to'qnashuvning bosh ishtirokchilarini Gratsianskiyning o'zi 1910-yilning yanvari boshlarida bo'lib o'tgan havoda uchish bayramida bir-birlari bilan tanishtirib qo'ygan edi. Peterburgning bekorchi aslzodalari biror-bir favqulodda hodisa sodir bo'lib qolishi umidida Kolomyaga otchopari minbarlarini to'ldirishgan, ulardan tashqari o'n minglagan o'zboshimcha tomoshabinlar devorning narigi tomoniga joylashib olishgan – to'g'ridan to'g'ri o'tlar ustida yoki bexosdan uchar kurradan qulab tushgan uchuvchi ustlariga yiqlmasligi uchun har ehtimolga qarshi qochishga tayyor holda kirakash arobalarda o'tirishibdi. Dastur har holda anchayin silliq kechmoqda, avvaliga janob Drevitskiy ixtiro qilgan tizimdag'i rus mongolfyerida havo kengliklarini yengishga qasd qilgan keksa va taniqli advokat ommaning ko'nglini rosa xushladi, keyin o'zining bu tadbirdi aqslizlik ekanini anglagach, bo'kirib-dodlab, osma savatda jonholatda tepina boshladi... Buning ortidan Boshkentning ancha taniqli *ucharlari*, to'plangan ommaning tepasida, ba'zan bir necha yuz gaz balandlikda, boshni aylantiruvchi yuksakliklarda xafli havo harakatlarini bajara boshlashdi. Kechga yaqin sobiq kemasozlik muhandisi, va o'z davrining mashhur aviatsiyachisi kapitan Matsiyevich o'z mahoratini namoyish etishi kutilmoqda edi... Tanaffusda mushketchilar uchligi inson tafakkurining poyga yo'lagida turgan g'aroyib ixtirosini, o'rtasiga velosiped g'ildiraklari namunasidagi mustahkam g'ildiraklar o'rmatilgan, ustunlar bilan va cho'zmalar vositasida birlashtirilgan ikkita kanop matoli sirtni o'zida namoyon etuvchi mashina bo'l mish aeroplanni tomosha qilish uchun borishdi. Mana shu yerda Gratsianskiy o'rtoqlarining yoniga ozg'ingina, poxol shlapa kiygan, Sashadan o'zining itoatkor va muhabbatli ko'zlarini uza olmayotgan qizni – Natasha Zolotinskayani olib bordi va biror daqiqalardan keyin ularning yonlarida Sashaning boshqa bir tanishi – to'rburchak, boshi bo'yin o'rniga shundoqqina yelkasidan o'sib qo'yaqolgan, badqoqvoq, yo olamning yaralishidan norizo, yoki-gim o'zining basharasini qoplab yotgan husnbuzar toshmalaridan g'azabdagi, o'zini Psixonevrologiya institutining tolibi Sleznyov deb

tanishtirgan kimsa paydo bo‘ldi. Kraynovga bu shaxs tanishday tuyldi, ammo birinchi to‘qnashuvning vaziyatlarini u bir necha kunlar o‘tibgina esladi... Ayni o‘sha paytda Vixrov yig‘ilganlarning hammlari uchun muzqaymoq olib kelish uchun jo‘nab qolgan edi.

Tez orada yoshlarning bu guruhini saroy generali kuzatuvidagi va ajralmas ingush qo‘riqchilar qurshovidagi yuqori lavozimli, ho-zirgina kelgan kalbosh polkovnikka yo‘l ochish uchun ortga surib tashlashdi. Buyuk knyaz uzun dudamasiga tayanganicha, aviatorga: parvoz paytda shamollab qolish mumkinmi, gofmeyster Stolipin, ikki kun avval aynan Matsiyevich bilan havoga ko‘tarilganida qaysi dastaklarni ushlab o‘tirdi va umuman ushbu temirdan yasalgan, agar ta’bir joiz bo‘lsa, bir necha pud vaznli iskabtopar chivinni, ja-sur uchuvchilarning og‘irligini hisoblamaganda, qaysi kuch osmonga ko‘tarilishga majbur yetyapti kabi savollarni berdi. Chamasi, u ham Peterburgga osmon gumbazi tagidan rohatlanib boqish istagida edi-yu, lekin o‘zining o‘limi bilan Rossiyani yetim qoldirishdan cho‘chib turardi; rostini aytganda, o‘sha davrdagi har bir muvaffaqiyatli parvoz taqdirning mavjudligini tasdiqlab turar edi... bu vaqt davomida Kraynov bo‘lib o‘tayotgan suhbatni masxaraomuz qiyofada tinglab o‘tirdi, Sleznyov esa, o‘z navbatida, pastga qaratilgan qovoqlari ostidan tobelarcha ehtirom bilan Kraynovning xatti-harakatlarini kuzatib turdi.

– Nima uchun menga bunchalik tikilib qoldingiz, o‘zingizning... psixotibbiy ixtisosingiz nuqtayi nazardan meni o‘rganyapsizmi? – quvnoq, unga yarim o‘girilib so‘radi Kraynov.

– Yo‘q, men ochiq chehrali, oshkora, rus qiyofalarini yaxshi ko‘raman, – bezbetlarcha ishshaydi unisi, jimjilog‘ining yaxshi parvarishlangan tirnog‘i bilan vafliga solingan muzqaymoqdan qandaydir xasni olib tashlash bilan band bo‘lgan ko‘yi.

Uchish apparati o‘t ustida sakrab-sakrab yugura boshlagach, qar-saklar guldurosi darhol to‘xtadi, besh daqiqalardan keyin esa devor ortidagi odamlar qorong‘ilashib borayotgan osmonning ko‘m-ko‘k kengliklarida soatiga kamida yetmish chaqirim tezlikda yelib bora-yotgan dovyurak kapitanni ko‘rishi. U naq besh daqiqa davomida havoda bo‘ldi va go‘yoki yer haqida butkul unutganday edi; mana kun ham qoraydi, xabar berish zambaragi ham musobaqalar yakuniga yetganidan darak berib gumburladi, ammo aviatsiyachi nurlari so‘nib

borayotgan yuksakliklarga tobora ko‘tarilib bormoqda edi, – uning balandlik uchun sovrin olmoqchi ekanini hammalari darhol anglashdi. Qandaydir qora dog‘ aeroplandan ajralib, tobora kattalashgan holda pastga tushib kelayotganida nimalar yuz berayotganini avvaliga hech kim tushuna olmadi. Keyin minbarlardan va devorlardagi teshiklar orqali yuzlab odamlar hodisa joyiga yugurishdi, shu jumladan bizning talabalar ham... ammo mirshablarning orasini yorib o‘tgunlaricha, Matsiyevichning jasadini sanitar aravaga yuklab ulgurishgan ekan; faqat yerdagi uzun, botiqroq iz va kapitanning uzilgan pogoni yiqlish joyini ko‘rsatib turardi. Kechki sukunatda zabit bevasining qichqirig‘i va soqoldor dala komendantining xotincha hijillab yig‘layotgani eshitilib turardi. Kraynov bosh kiyimini yechdi, boshqalar uning ta‘ziyasini takrorlashdi.

Yoshlar ortlariga jim qaytishdi. Kuzgi sovuq izillata boshladi va xotirimizcha, Gratsianskiy o‘zining kalta kamzulini Natashaning qaltirayotgan yelkalariga tashladi. Tunda yana izg‘irin turishi kutilmoga edi.

– Osmon, Rossiyaning ustidagi osmon, – past ovozda dedi Vixrov, Valeriy bilan yonma-yon borar ekan. – Yer yuzidagi qanchalab baxtsizliklarga guvoh bo‘lgan, ammo ko‘rinishidan go‘yoki hech narsa bo‘lmaganday!

Valeriy ko‘zlarini yuqori ko‘tardi. Haqiqatan ham, osmon shamsiz edi, beayov darajada go‘zal va qandaydir ma’sum rangda, faqatgina uning pastki chekkasi, Sasha Gratsianskiyning ifodali iborasi bilan aytganda, gulxan yonidagi lo‘lining ro‘moli kabi yonib, erib turibdi.

– To‘g‘ri, beqiyos ajoyib osmon, – xuddi shunday past ovozda ma‘qulladi Valeriy. – Bunga yana adolatli qonunlarni va umumom-maviy savodlilikni ham qo‘shsang va yana jasoratli kishilarimiz yerparchin bo‘lmasliklari uchun ilm-fanga ko‘proq mablag‘ ajratilsa va yana yo‘llarimiz yaxshilansa, yana aroq ichish ham kamaysa, xotinlari ham o‘lguday qilib do‘pposlashmasa... dunyo tepasida biznikidan go‘zalroq osmon bo‘lmas edi!

– Siz asosiysini nazarga olmayapsiz, Kraynov, uningsiz qolgan hammasi o‘z ma’nosini yo‘qotadi, – murosasiz ravishda jazavaga tushdi, hamma bilan bir safda yurib borayotgan Slezniov. – Roppa-rosa yuz yil davomida eng yaxshi rus kishilarini o‘ldirib kelganlarni

ham unutmang... Mana ular, podshoh taxtining zinapoyalariga joy-lashib o'tirib olganlar. Ularni muguzga o'tqazish kerak, birodarlarim, muguzga o'tqazish... – u tarqalishayotgan olomon orasidan tavakkaliga, og'zi g'azabdan ko'piklanganicha, Suxomlinov otliq qo'shinlarining shovvozlarcha bardam generalini, so'ng Vrangelning ozg'in novcha suvoriy gvardiyachisini, yana tasodifan o'zining nazari qamroviga tushib qolgan yaponiyalik mehmonni – poyezddan tushib-oq parvozlarni tomosha qilish uchun yetib kelgan shahzoda Tokugavani qo'li bilan nuqib ko'rsatardi.

– Yo, xudoyim, qanchalik ham ehtiyoitsizsan, Viktor! – uning so'zini bo'ldi Gratsianskiy. – Bu yerda yolg'iz emasmiz, axir.

Valeriy esa jim. Ehtimol, u o'zining o'y-xayollar bilan band edi, u rostdan ham Sleznyovning unga – Valeriya ham atalgan shallaqiliklarini mutlaqo eshitmadni. Uning tasavvurida keyingi o'n yillar istiqbolidagi, har bir pog'onasi qahramonning qip-qizil qoniga bo'yalgan qanotdor rus shon-sharafining zinapoyasi jonli manzarada namoyon bo'ldi va – «agar ular istiqbolga o'zlarining ajalvor uchar javonlarda qahramonlarcha tingchilikka otilganlarida kelajakning zabit etilgan osmoniga hech bo'limganda bir ko'z bilan boqish imkoniga ega bo'lganlarida edi». Chamasi, Sleznyov yo'l qo'ygan xatosidan o'zi ham afsusda edi va boshqa tomonga tashlanib, hammalarini birgalikda Stroganov ko'prigi yonidagi Villa-Rodda yoki yaxshisi qoyilmaqom kegelbani bor Belvyuda kechki tamaddini baham ko'rishga taklif etdi... «Baribir oqshomning rasvosi chiqib bo'ldi» – uning tilidan bu so'zlar ifloslanib chiqdi. Taklif aslida Valeriya qaratilgan edi, ammo u ikkinchi marta yana indamadi, va Sleznyov sarosimada nazarini Kraynovning qo'shni singa burdi. Vixrov quruqqina qilib, u rus aviachisining fojiali halokati borasida qo'pol ohangda munosabat bildirganini ta'na qilib, vaqtłari va pullari yo'qligi boisidan bu taklifni qabul qila olmasliklarini ikkovlalarin nomlaridan ma'lum qildi.

– Pul masalasi – hal bo'ladigan ish. Sizga qancha kerak? – kului Sleznyov go'yoki hamyonini olmoqchiday soxta harakat qilib.

– Siz pullaringizni qayoqdan olasiz, bilmadim-u, ammo men ularni ishlab topaman, – dedi Vixrov.

– Chatoq... Sizning o'rningizda bo'lsam, men makao o'ynashni o'rganib olgan bo'lardim. Qimorni yaxshilab o'zlashtirib olsangiz, he-he, yaxshigina daromad qilishingiz mumkin.

Qo‘rqib ketgan Natasha qo‘llarini siltay boshladi, Vixrov esa lablari oqarib, psixonevirologga tashlandi va agar Cheredilov bu janjalga aralashmasa, ertaga chop etiladigan hodisalar kundaligi yana bitta fojia bilan boyigan bo‘lardi. U Vixrovni yengidan ushlab, janob Vixrovning otasi bir paytlar odam o‘ldirganini va uning o‘g‘lidagi bu yovuz irsiy illatni uyg‘otish xatarli ekanini Sleznyovning miya-miya-sigacha yetib boradigan qilib tushuntirdi.

Ular xayrashmasdan ajralishdilar.

4

Taxminan bir haftalardan keyin, juma kuni, Gratsianskiylar xonardonidagi navbatdagi yig‘inda, Sashaning iltimoslarini yerda qoldirgisi kelmagan aynan Kraynovning hozirligida o‘sha janjal boshqa bir sabab bilan takrorlandi. Ammo begonalarni taklif etmaslik bora-sida bergen va’dasiga xilof ravishda, chamasi ularni yarashtirishni ko‘zlab, Sasha tug‘ilgan kuniga Sleznyovni ham chaqiribdi. Barcha tanish shaxslardan tashqari, yana ikkita chillashir, go‘yoki achchiq sirkamoyda ivitliganday ikki nafar toliba qizlar, ikkovlari ham – Nyusha, biri oppoqqina, biri mallagina, yana bittasi o‘n yetti yosh-lardagi, oliftalarbop zabitlar movutidan tikilgan gimnaziya xoskiyimidiagi, xuddi dinamit snaryadiga o‘xshashga uringan shokoladning shisha idishini eslatuvchi nihoyatda jiddiy bir xo‘ppasemiz yigitcha va yana kimlardir bor edi va nihoyat, butun ziyofat kechasi davomida dudlangan oqbaliqni ishtaha bilan paqqos tushirgan, o‘zining baqaloqligi bilan tanilgan mashhur peterburglik farovonlik muxlisi Akvilonov. Tantana munosabati bilan o‘sha kuni dasturxon nihoyatda hashamdar edi, ammo go‘shtsiz va sutli mahsulotlarsiz; bu xonadonda go‘shtsiz taom kunlariga shu qadar jiddiy amal qilinar ediki, hat-toki birinchi bor o‘zining yuksakliklaridan yoshlarning yoniga tushib kelgan oila boshlig‘i ham ulkan karaxt baliqning naq o‘zi edi, faqat kamzul kiydirilgan baliq. Hali eskirib ulgurmagan taassurotlar taqozosi bilan suhabat Matsiyevichning pirovardida ikki yuz ming kishilik ko‘cha namoyishlariga aylanib ketgan dafn marosimi haqida bordi va – marhum qahramonning mangu shuhratidan boshlanib, ruhning shaxsiy barhayotligi mavzusiga burilib ketdi.

Ilohiyot qonunlari professori o‘zining nuqtayi nazarini shu qadar mufassal, Origennenning asarlaridan iqtiboslar keltirgan holda keng bayon etardiki, mehmonlar bezovtalanib, bir-birlariga qarab-qarab qo‘ya boshladilar, so‘ng Sashaning onasi eriga yengil shama qilib, mazkur masala borasida boshqalar ham o‘z mulohazalarini izhor etmoqlik niyatida ekanlarini bildirdi.

Vixrov uy egasiga eng yaqin o‘tirgan edi, binobarin, birinchi e’tiroz huquqini unga berishdi.

– Biolog sifatida, men alohida bir shaxsning isbotlanmagan abadiylici kabi taxminlarga to‘xtalib o‘tirmayman, – xijolat bo‘libroq so‘z boshladi Vixrov, – hattoki ular bizning ko‘z oldimizda insonni yanayam yuksakliklarga ko‘targan taqdirda ham. O‘ylashimcha, agar odamga unchalik xalaqit berilmasa, uning o‘ziyoq, mehnat va fikriy qahramonliklari bilan o‘ziga munosib bo‘lgan ulug‘vorlikka erisha-veradi. Har holda, mening fanim menga o‘rgatishicha, barcha tirik mavjudotlar tirilmas bo‘lib o‘ladilar. Tabiat – o‘zi bora olmaydigan va o‘zining qonunlari amal qilmaydigan allaqanday narigi dunyoga o‘z o‘ynashlarini yubormaydigan rashkchi va xasis jazman hisoblanadi. Bundan tashqari, men qo‘pol dehqonlar tabaqasidan chiqqan odam sifatida, rostini aytganda, misol uchun deylik, o‘zimni olis bir makonning tanobchi Ivanov deb atalmish bo‘lagi sifatida tasavvur eta oladigan darajadagi tafakkurga ega emasman. Agar u joy egallay ola-digan moddiy jismiyatga ega bo‘lmasa, u holda nima u? – Shu yerda Vixrovning xayoliga nima uchundir Kalina keldi, uning muqarrarlik qarshisidagi samimiyy tabassumi, har qanday oqiziqqa tushishga tayyor ekani, chunki tabiatningadolati *hamma narsaning har qanday narsa* bo‘la olishida ekanini o‘yladi. Vixrovning so‘zlariga ko‘ra, o‘limdan keyingi tiriklik mavjudligini kulgili tarzda da’vo qilish asosan tiriklarning xotirasida haqiqiy abadiylik hisoblanmish qahramonligi yoki biror manfaatli ishi bilan saqlanib qolishga muvaffaq bo‘la olmagan kishilarga xosdir. – Yo‘q, ishonmayman!.. Sening ongingning yolqini keyin hech qachon, hattoki qabristondagi maysaning shitirlashida ham uchqunlanmaydi. Va bu hatto yaxshi ham, chunki jasadning o‘tmishdagi muvaffaqiyatsizliklar va taassuflar haqida ruhga xabar qilgan eski xotirasi yoshlikning shijoati va intilishlarini to‘xtatib qo‘ygan bo‘lar edi. Moddiyot unutishga moyil va yer yuzidagi hech narsani eslab qololmaydi, nima bo‘lganini va *qanday* bo‘lganini. Va

bu ham kam ahamiyatga ega emas, chunki kishining o‘ziga ato etilgan aql va iroda ne’matlar uchun alohida mas’uliyatini uning ongiga singdiradi... Shu bois yo‘q bo‘lish qanchalik izsiz kechsa, mavjudlikning har bir zarrasi shunchalik qadrlidi bo‘ladi. Mana, siz e’tiqodsizlikning gunoh ekani haqida hozirgina eslab o‘tdingiz, professor, – so‘zini yakunladi Vixrov xonodon egasiga murojaat qilib, – menimcha esa, bunday hayotning sahrosida tiriklikning bir tomchi shabnamini behuda to‘kishdan ham ko‘ra qoraroq gunoh yo‘q... men o‘zimizning hayotimiz sahrosini nazarda tutyapman. Xuddi shunaqangi!

Hammalari ma’qullaganday jim qolishdi. Akvilonov tugab qolgan oqbaliqning suyak sinchiga alam bilan ta’nali tikilib qoldi.

– Qachonlardir bir paytlar, sizning umidbaxsh yoshingizda, o‘zim ham shunga yaqin e’tiqod tarafdori edim. Goratsiyni eslasangiz kerak: Dulce est decipere in loco!¹ – achinish bilan xo‘rsindi ilohiyot olimi va o‘rtada o‘tirganlarni chetlab o‘tib, to‘g‘ri Kraynovga murojaat etdi: – Sizning mulohazalaringiz bilan fikrimizni boyitmog‘imiz jozibador ko‘rinadi, janob... O‘zlarini tanishtirsalar!

– Bu axir Krayevskiy-ku... ko‘z oldimda qarib boryapsan, Yakov! – basharasini qizil dog‘lar qoplab, past ovozda dedi xotini.

Hamma alomatlarga ko‘ra, ota-ona o‘z o‘g‘lidan bu sirli mehmon haqida juda ko‘p narsalarni eshitishgan ko‘rinadi, endi hammalari Sashaning maroqlanib unga bergen bahosini tekshirishga intiq holda o‘tirishibdi. Ammo u dasturxonning burmasini siypalaganicha sukut saqlamoqda va shunda Sasha Gratsianskiy yuzaga kelgan bo‘shliqqa o‘zining nazariyachasini tiqishtirdi, unga ko‘ra odam tug‘ilganida hech bir jihat bilan hayvondan farq qilmaydi, amma kundalik ibodat bilan mashg‘ulligi, ijodi yoxud parvardigorini tez-tez ko‘rib turishi bilan o‘z qalbining jasadini parvarishlab, tobora rivojlantiradi va bundan namunali tarzda kelib chiqadiki, zotning o‘limidan keyingi umrboqiyligi uning o‘z ustida bajargan axloqiy-ma’naviy amallariga to‘g‘ri mutanosibdir. Binobarin, Sasha o‘scha vaqtlanring o‘zidayoq qabr ortidagi daxmani bunday turdagи mashg‘ulotlardan manfaatdor tanlangan shaxslar doirasi bilan cheklab qo‘ygan edi. Akvilonov sezilarli darajada jonlanib qoldi, aksincha, ikkita Nyusha, ikkovlari

¹ Tentaklik qilish ham o‘z mavridida yoqimli! (*lot.*).

ham erkin qullar naslidan bo‘lib, o‘z yetakchilarining axloqsiz, tag‘in cho‘rilar hozirligidagi qilig‘ini darhol qiyqiriqlar bilan nishonladilar.

– Bilasanmi, hazrat, yaxshisi bizga aytgin-chi, sen o‘zi qanday royalni ixtiro qilding... rangdor simfoniyalar uchun, shekilli? – mazahomuz gap qo‘shti Cheredilov. – Munosib taom jo‘rligida, sening o‘tli, tinib-tinchimas tafakkuring yuragi tepib turishini rosa yaxshi ko‘raman-da.

– E, yo‘q, royalni kun tartibimizning oxiriga surib turamiz, hozir esa barhayotlik haqidagi ayrim masalalarni aniqlashtirib olaylik, – o‘yib olguday achchiq bilan talab qildi shu paytgacha namoyishkorona bir qiyofada oilaviy fotosuratlar albomini varaqlab o‘tirgan Sleznyov. – Xullas, biz sizni eshitamiz, Kraynov, ammo faqat bu mavzuning muhokamasi... – basharasiga jirkanch ifoda bergenicha yaldoqlanib ishshaydi, – sizning markscha g‘ururingiz bilan uyg‘un kelsa!

Hammalari jimib qolishdi, ikkovlon Nyushalar bo‘yinlarini kamida o‘n santimetrga cho‘zib qarashdi, gimnazist tomoq qirib qo‘ydi, shunchaki o‘zining ham borligini bildirib qo‘yan bo‘ldi, xolos.

– Men oxirat dunyosi masalalarining bilimdoni emasman, – dedi Valeriy Kraynov, – men faqat o‘rmon bilan shug‘ullanaman, butkul xarob ahvolga tushirib qo‘yilgan rus o‘rmoni bilan... nimayam derdim, vabo tarqalganda har kim xohlaganini aytib dodlaydi! – Bu mamlakatdagi aqllar haqidagi mavhumnamo shama emas edi; haqiqatan ham, ayni o‘sha oylarda Boshkentda vaboning va o‘latning tarqalishi sodir bo‘lgandi, ammo hammalari vaboni ham, rus o‘rmonini ham eng keng ma’noda to‘g‘ri anglashdi. – Mening kasbdoshim harakat, taraqqiyot va almashinuv, ya’ni hamma narsani... shuningdek bizning shaxsiy xotiramizni ham o‘ziga bo‘ysundiruvchi muqarrar o‘lim hayotning asosiy shartlaridan ekanini tushuntirib o‘tdi... Uuman olganda, mening javobim ham shu holatga jamlangan, chunki sizlarning barhayotlik borasidagi e’tiqodingizning ma’nosи zaif kishilarning o‘z shaxsiy xotiralarini parchalanishdan asrashga intilishlari-da namoyon bo‘ladi... u esa, ijozatingiz bilan, mening aqlimning omboridan, ya’ni mendan iborat. Qiyofasizlashtirilgan o‘limdan keyingi holat esa quvvat saqlanishining umumiy qonunlariga asoslangan... shundaymi? – so‘radi ikkinchi oqbaliqni ham xotirjam burdalab tuga-tayotgan Akvilonovdan va u titrab qoldi... – Modomiki shundoq ekan,

■ holda biz ko'rib o'tayotgan narsa, ya'ni xotira, sinfiy jamiyatdagi barcha boshqa narsalar kabi, ijtimoiy mansublik bilan tasniflanadi. Boylardagi mangu tiriklik tashnaligi obod xonodon, amalda ko'pincha sariq chaqalik foydasi bo'lmasa-da, yaxshi haq to'lanadigan lavozim, hatto dudlangan oqbaliq bilan... – u oldida turgan shishaning yorlig'ini shoshmasdan o'qib oldi, – ...qo'shib tanovul qilinadigan Sent-Emilyon qizil musallasi haqidagi xotiralarni cho'zishga intilishda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga marhumlarning cheklanmagan vaqt zaxirasi butun dasturning har qanday qo'shimcha sarf-xarajatlarsiz ko'p martalab takrorlanishiga imkon beradi. Kambag'allarda esa bu g'oya ularning yer yuzidagi qayg'u-alamlari takrorlangan taqdirda ham biroz o'zgarganroq tarzda kechishiga bo'lgan kamtargina umidda namoyon bo'ladi. Mening fikrimcha, ularning yer yuzida tortgan azoblari sahnasini yana bir marta takrorlash shafqatsizlik bo'lishi haqidagi mulohazaga hamma qo'shilsa kerak!.. Shu bilan birgalikda qashshoqlarning narigi dunyo sultanatidagi hayotlarini cho'zishga intilishlari to'la-to'kis tushunarli: chunki arvochlар mirshablardan qo'rqlaydilar, mustabidlarga tobe' emaslar, nonga, kiyimga va kulbuga muhtojliliklari yo'q. Va nihoyat, mustamlakachilar qamchisidan kaltaklangan va minglab yillik qashshoqlikdan xo'rangan sharq xalqlarida bu ishonch-e'tiqod mutlaq yo'qlik dinlariga asoslangan... Ularning xotirlaydigan hech narsalari yo'q: xotira – ular uchun tavqi la'natdir. Tasavvur etyapsizlarmi, – so'radi Valeriy, o'zining jimib qolgan davradoshlariga bir-bir qarab, – tiriklikdan yo'qlikka ochib ketishni xohlab qolishi uchun, insonni qanchalik azoblash kerak bo'larkin? Darvoqe, shunisi diqqatga sazovorki, hatto eng qudratli din peshvolari ham jannatning yer yuzida mavjud bo'lмаган ne'matlari to'plamini o'ylab topolgan emaslar... Aynan shuning uchun ham zi-yoli va vijdonli odamlarning burchlari – hayotning butun quvonchlari shundoqqina qo'l ostilarida turgani holda o'zlarining moddiy sharoitlarini yaxshilab olish maqsadida har turdagи azobli o'zgarishlarga o'zlarini duchor etmasliklari lozimligiga... ularni faqatgina kuch bilan tortib olish kifoya... ekaniga mehnatkashlarni ishontirmoqlari shartlidir. Xullas, janoblar, mening so'zlarimga qo'shilganingiz o'zlariningiz uchun manfaatlidir... chunki shaxsiy barhayotligiga ishonish – xudoga ishonishni anglatadi, sizning sohangizdagi kishilarga esa eng bartaraf etib bo'lmas belgi-alomatlar asosida ma'budlarning

erinchoq ekanligi, beparvo hamda qahrli ekanini tan olish yarashma-gan ish bo'lardi... shunday emasmi?

Shu joyda Valeriy ko'zoynagini miz yuziga asabiy urib o'tirgan uy bekasiga samimiyl jilmayib qo'ydi.

— Aybdorman, sizning e'tirozlarining qashshoq odamlarning tur-mushidagi shu qadar yoqimsiz qaysi takroriy taassurotlarga e... qarshi qaratilgan, janob Krayevskiy? — ovozida cheksiz qayg'u bilan savol berdi ilohiyot qonunlari professori.

— Asosan, — xotirjam javob berdi Valeriy, — Volga mujiklari ochlik tufayli qaytadan qirilishiga yoki bizning Peterburgda to'qqizinch may kuni Aleksandr bog'ida otilgan o'qlardan bolalar ilma-teshik bo'lib, daraxt ustidan qayta to'kilib tushishiga, yoki deylik, jallod Aleksandr Ulyanovning bo'yniga qaytadan sirtmoq ilishiga sabab bo'ladiganlarga qarshiman. Bunday hodisalar narigi dunyoda ham arvohlarning muqarrar isyon ko'tarishiga olib kelgan bo'lardi... shu bois kelinglar, shu dunyoning o'zida aqlliroyq tarzda joylashaylik, janoblar!

Asabiy diqqat-e'tibor sukunati darhol sarosimalik jimjitligi bilan almashindi. Bunday kirish so'zi sokin oilaviy quvonchlardan darak bermasdi va Sashaning onasi mehmonlarga hatto loto o'ynashni ham taklif etdi, — qat'iy ravishda, lekin imkon qadar yumshoqlik bilan, zero uning o'g'li aynan shu odamlar bilan kelgusida yonma-yon yashashi va ishlashi kutilmoqda edi. Uning da'vati javobsiz qoldi va avvaliga Akvilonov sezdirmaygina g'oyib bo'ldi, holbuki, miz ustida hali tegilmagan butun oqbaliq savlat to'kib turgandi, uning ortidan esa Sashaning ota-onasi ham yoqimtoy va qiziquvchan yoshlarni bezovta qilmaslik bahonasida xonadan chiqib ketishdi... Shundagina, kursini shovqin bilan chetga surib, Sleznyov o'ziga so'z berishlarini talab qildi.

Eng avvalo u Kraynovning takallufsiz va uning nazarida siyosiy jihatdan qo'pol nutqidan qoniqmaganini bildirdi. Uning fikricha, ruslar savodning foydasi-yu, jo'lakning zarari haqidagi behuda mulohazalarga juda ko'p vaqtlarini ortiqcha sarflab yuborishdi va shu vajhdan ham qat'iy harakatlarga o'tish kerak, ya'ni Rossiyada hokimiyatni to'g'ridan to'g'ri egallab olish lozim. Xuddi Katta Katon kabi, u kezi kelib qolishi bilan Karfagen podshohligi haqida bir xil gapni tinmay takrorlashdan charchamasdi.

— Albatta, nuqtayi nazar fe'l-atvorga bog'liq bo'ladi, janob Kraynov... menga sizning takabburlarcha ishshayishingiz o'tgan safar, Kolomyagadayoq yoqmagan edi, o'shanda men sizning huzuringizda rostdan ham ehtiyyotsizlik bilan valdirab qo'ygan edim... qaysi munosabat bilan gapirganim, albatta, yodingizda! Shu bois ham men hayron bo'laman, aynan siz, firqa sifatida o'zingizga xalqning farovonligi haqida g'amxo'rlikning mutlaq huquqini o'zlashtirib olyapsiz, go'yoki boshqalar avomga yomonlikni ravo ko'rayotganday.

— Biz buni inkor qilmayapmiz, o, yosh bolut, — o'zining odatdagi ruhoniycha uslubida so'z boshladi Cheredilov, — boshqalar ham unga muvaffaqiyat istashlarini inkor etmaymiz... ma'badning qavm matablari hamma yerda bo'lishini, mum haykallar moziygochlari, yana teatrlar bo'lishini, anatomiya tomoshaxonalari va boshqalar. Hamma ga yaxshi bo'lishini boshqalar ham xohlashadi, lekin o'zlariga imkon boricha ko'proq va yaxshiroq ne'matlar nasib etishini istaydilar... o'zlar shunaqangi olivjanob ekanliklarining evaziga!

— Siz bilan masxarabozlik bo'yicha musobaqalashmoqchi emasman, janob Uzun Kostroma... sizni shunaqa chaqirisharmidi?.. mayli, bunisi muhim emas, — qandaydir xirillagan ohangdagi g'azab bilan davom etdi so'zlovchi. — Shu bilan birga sizning nutqingizda, janob Kraynov, hozir bizlar o'tirgan va qimmatli va ziyorilarga munosib taomlarni tanovul etayotganimiz ushbu xonodonning egasiga nisbatan haqoratli va nomunosib shamalar bo'lganini payqadim. Sashaning eski do'sti sifatidagi huquqimdan foydalanib, men sizga Kraynov, yoki ovoz chiqarib uzr so'rashni yokigim uning otasiga nisbatan munosabitingizni aniqlashtirishingizni qat'iy taklif etaman.

— Keling, yaxshisi lotoda olishamiz... — yuzlari yonganicha yalinchoq ohangda dedi Gratsianskiy.

— Xalaqit berma, Aleksandr, gap eng oddiy axloq haqida boryapti, — qo'l silkib, jahl bilan davom etdi Sleznyov. — Bundan tashqari, shuni ham bilib qo'yingki, janob Kraynov, bu mehmondo'st xonodon devorlari ichida, mana ikkinchi yildirki, o'quvchilarning yashirin tashkiloti to'planadi... va ayni damda siz uning markaziy boshqaruvi rahbarlarini ko'rmoqlik sharafiga noil bo'lib turibsiz! — U quruqqina va aniq qilib tashkilotning nomini aytdi va bu nom o'ttiz yil o'tibgina tarixning qorong'i yerto'lalaridan qayta chiqib keldi. — Turgan joyida yer tepinayotgan va hatto podshoh Dumasida o'z vakillariga ega

bo‘lgan boshqa firqalarga zid o‘laroq, – bizlar o‘z oldimizga mustabid hokimiyatni darhol ag‘darishni maqsad qilib qo‘yanmiz... va bu ishni podshoh sulolasini o‘ldirishdan boshlash lozim! Biz vijdonli rus kundasi taraf dorimiz, lekin... ayni paytda, albatta, sizning kamtarligingizga hamda vaysaqi emasligingizga umid bog‘laymiz, Kraynov. Nutqimni tugatdim... so‘zlash navbatini sizga beraman!

U shunaqangi bir g‘azab jazavasida tamakisini chekmoqchi bo‘ldiki, o‘nlab gugurt cho‘plaridan bittasini ham yondira olmadı.

1905-yil inqilobining mag‘lubiyati to‘ntarish yo‘ldoshlari orasida parchalanish va ajralishlarni yuzaga keltirdi. O‘sha davrdagi bu qadar go‘l yo‘nalishdagi ushbu tashkilot jamiyat umidsizligining qoldig‘i va cho‘kmasi ekanini Valeriy tushunib turardi: har doim katta dovul bosilganidan so‘ng sohilda, albatta, qandaydir mayda-chuyda tirik jonzotlar tipirchilab yotgan bo‘ladi. Vaziyatga qaraganda, Sleznyov-Gratsianskiy yashirin hamjamiyati ishchi yoshlari ishtirokisiz, ammo yakson qilingan, beqaror firqalarning qoldiqlari ta’siri ostidagi o‘n-o‘n besh nafar maktab isyonchilaridan iborat edi; uning tez orada sharafsiz yakun topishini oldindan bashorat qilish qiyin emasdi.

– Sizlar ko‘pchilikmisiz? – boshini ham ko‘tarmasdan qiziqsindi Valeriy.

– Bunisi mutlaqo ahamiyatsiz, – xuddi uning yo‘lini to‘smoqchi bo‘lganday oldinga chiqdi mallagina Nyusha. – Bitta g‘oyaviy askar mirshablarning qalang‘i-qasang‘i bo‘linmasidan kuchliroq.

– O, bu gaplar hammasi hali jiddiyymi? – o‘sha-o‘sha ochiq-chasiga tashvishli ohangda davom etdi Valeriy. – Ehtimol sizlar hali bir-ikki funt portlagich, besh-o‘n hovuch bosmaxona harflari va hatto tig‘iga tuzli kaliy surtilgan bir gazlik xanjar ham g‘amlab qo‘ygandirsizlar?

– Bizni mazahlamang, Kraynov, mayli, bizlar hozircha siz kabi tajribaga ega emasdirmiz, lekin kishanlardan ham, petropavlovsk zindonlaridan ham qo‘rqmaymiz... siz hali biz haqimizda eshitib qolasisiz! – ko‘zları chaqnab, xuddi qasamyod qabul qilayotganday ont ichdi Natasha Zolotinskaya. – Dunyoda portlagichdan xatarliroq qurollar ham bor...

Buning ortidan qoshlarini baland ko‘targanicha o‘rnidan ko‘tarildi gimnaziyachi, go‘yoki o‘zining shaxsiy manfaatlari uchun emas, balki buning oliy darajadagi aksi sifatida inqilob oqimiga otilganini

ta'kidlaganday o'zining jimjilog'idagi oddiy temir uzukni tomosha qilganicha.

— Mening naslim Kazachixin va men ham da'vat etishga vakil qilinganman... shaxsan... ya'ni qaysiki... — Eng dono fikrlarni aytishga chog'lanib, u hayajondan o'z mundirchasin yechib tashlashiga bir baxyal qoldi, barmoqlari bilan sochlarini titib tashladi va to'satdan ovozini yo'qotib qo'ydi, xuddi suyuq shokolad quyilgan shisha idishing qopqog'i ochilganida undan havo hushtak chalib chiqqani kabi g'alati chiyillash bilan yo'taldi, yuzlari xo'rozning tojiday qizarib, Akvilonovning ichib tugatilmagan qadahini shartta ko'tarib ichib yubordi va joyiga qaytib o'tirdi.

Shularning hammasi orasida ularning barchalari jo'janing aybdorlarcha zavqlangan nigohi bilan Valeriya ixlosli boqadilar, uning ochiq-oydin ko'rinish turgan yetakchilik salohiyati uchun emas, yoki uning butun qiyofasidagi Sashaning mubolag'ali vaysashlaridan vujud topgan sirlilik tufayli ham emas, balki yoshlik barqaror, rostgo'y va quvnoq kuchni tanib oladigan shubhasiz havas zavqidan. Va kutishmoqda, uning oliy hukmini kutishmoqda, uning da'vatini bo'lmasa-da, kichik bir ma'ullovini kutishyapti, Valeriy esa bular xuddi o'ziga daxldor emasday, hamon jim.

— Endi, — qo'polik bilan va ko'zlar butkul xira tortgan holda xitob qildi Sleznyov, miz ustidagi idishlarni nari-beriga surganicha, — endi, modomiki, biz o'z maqsadimizni ochiqchasiga oshkor qilgan ekanmiz va hatto uchrashuv joylarimizni ma'lum qilganimizda... siz bizlarning ishonchimizni qabul qilib, bizni o'z vaqtida tark etish o'rniga qo'shimcha savollar berishga qaror qilgan ekansiz... endi biz ham sizga savol berishga haqlimiz, inqilob uchun o'zingiz nimalar qildingiz va aslida kimsiz — maksimalist, bolshevik... yoki mabodo anarxistlardan emasmisiz? Qani, bizga bir haqiqiy basharangizni oching-chi, Kraynov... — Va birdan... raqibining masxaraomuz nigohidan o'zini yo'qotib, rangi oqarib ketdi demaymiz-u, ammo vujudi bo'shashib, shilqillab tushdi.

Esda qolgani — o'shanda Valeriyning dudmol javobi hammalarini esankiratib qo'ydi: Sleznyovning qat'iy qiziqishini qondirishga qodir emasligi, chunki taassuflar bo'lsinkim, o'zining hech bo'lmasa shunchaki eslab o'tishga loyiq bo'lgan yoki politsiya jazosiga munosib biror qahramonlik ko'rsatmagani, ammo, — u raqibiga ko'zlarini

qisib qaradi, – jamoatchilik tomonidan fosh etiladigan amallari ham yo‘qligini bildirdi. Bir tarafdan Valeriy bu halokatga mahkum yosh-larga achinardi ham, boshqa tomondan esa bu tashkilotning tashkil to-pishi tarixini Sasha Gratsianskiydan qat’iy surishtirib bilishni istardi. Valeriy yana qandaydir ahamiyatsiz gaplar va hazil-huzullarni ayta turib, xotirasini jadal kovlashtira boshladi va birdan xuddi qo‘lchiroq bilan yoritilgan kabi, Staro-Pargolovask yo‘lining narisidagi o‘rmonzorda 1909-yilda o‘tkazilgan shahar tashqarisidagi ommaviy birinchi may yig‘ilishini esladi. O‘sanda Kraynovning rus ishchi sinfini ozodlikka chiqarish yo‘llari va vositalari haqidagi qisqagina nutqidan keyin qandaydir iblistabiat anarchist so‘zga chiqib, unga qat-tiq e’tiroz bildirgan edi, endi esa Sleznyov xuddi o‘shaning so‘zлari bilan bolsheviklarni siyosiy shijoatsizlikda ayblab turibdi; darvoqe, u shunchalik baland ovozda shang‘illayaptiki, agar o‘zining safsa-talarini butun yer kurrasi aholisiga yetkaza olmagan taqdirda ham, shu yaqin atroflarda izg‘ib yurgan jousuga eshittirishni orzulaganga o‘xshaydi. Ammo o‘tmishdagi o‘sha may namoyishi tunda uyushtiril-gan, notiq esa pensne taqqan kishi edi, uning sochlari ham manavini-kidan ko‘ra qalinroq edi, shekilli, umuman olganda, bu ikovlon kim-salarni o‘zaro taqqoslashga da‘vat ohanglarining o‘ziyoq kifoya qilihi ancha qiyin. Ammo sanab o‘tilayotgan tafsilotlar ravshanlashib borgani sayin Sleznyovning ahamiyati shunchalik pasayib boryapti: u ko‘z o‘ngingizda go‘yoki quruqshab borayotganday, ammo aynan uning o‘zi suhbat mavzuyini Sashaning o‘sha mashhur rangdor royali tomon mohirlik bilan burib yubormaganida, shaxs sifatida butkul erib yo‘q bo‘lib ketishi tayin edi. Izzattalablik sababidanmi yoki oshnasi-ni noqulaylikdan chiqarish istagidanmi, klavishlar rangli chiroqlarga qanday ulangani, har qanday qortepa unga ekran bo‘lib xizmat qilishi va uning atrofida maxsus tanlangan mehmonlar joylashishlari haqi-da Sashaning o‘zi, hech qanday qistovlarsiz so‘zlab berdi. O‘rmon mushketchilari sirli tarzda hingirlashdilar va hammalari birgalikda tezgina jo‘nab qolishdi. Ana shunda ko‘chada jala bo‘lib quyilayot-gan yomg‘ir ostida Valeriy do‘stlari bilan xayrlashib bo‘lishi bilanoq, Sleznyov muyulish ortidan uning yoniga qo‘qqisdan chiqib keldi.

– Bir daqiqa, bir daqiqagini vaqtinigizni ajratishingizni so‘rayman... – o‘z tutumini izohlash uchun haqirlarcha ming‘irladi u. – Mening bugungi ehtiyyotsiz da‘vatimni noto‘g‘ri tushundingiz,

sizning ochiq aytmagan shubhalaringizni tarqatib yuborishim joiz, aynan shu bois men uchun ular basharamga tupurganingizdan ham ko‘ra haqoratliroq...

– Jo‘nang, – ortiga o‘girilmasdan, tishlari orasidan qahr bilan dedi Valeriy, – aks holda biror joyingizni og‘ritib qo‘yaman.

U ko‘chaning boshqa tarafiga o‘tib ketdi, Sleznyov esa qo‘l zarbi yetib kelmaydigan masofadan salgina nariroqda uning ortidan ergashib kelaverdi.

– Men inqilob maydoniga kirib kelguvchi har kim kabi hozircha yerbag‘irman... sizni umrbodga yaxshi ko‘rib qoldim deb ham aldamoqchi emasman... chunki bizning amaliyot bo‘yicha qarashlarimiz turlichay, ammo shuning o‘ziyoq umumiyl dushmanimiz qarshisida o‘zaro bir-birimizni hurmat qilmog‘imizga monelik ko‘rsatmasligi lozim emasmi, axir? Sizning javobingizni talab etmoqchi ham emasman, ammo sizning bir daqiqa fursatingizni so‘rayapman, xolos...

Sleznyov o‘zi haqida qanday ma’lumotlarni bilishi mumkinligiga qiziqqan Valeriy joyida to‘xtab, papirosini cheka boshladи, Sleznyov esa darhol buning suhabatni davom ettirishga ijozat ekanini tushunaoldi.

– Men sizga hammasini ochiq aytaman! Ovozalarga qaraganda, to‘qqiz yuz beshinchi yildayoq siz Motovilixadagi mashhur *o‘rmon birodarlari* jamiyatiga kirgan ekansiz... – gaplarini maydalab, xuddi qushlarga tuzoqqa don tashlaganday bitta-bitta socha boshladи Sleznyov. – Voh-hey, o‘shanda *anavilarning* tozza abjag‘ini chiqargansizlar! Boshqa taxminlar bo‘yicha esa, Vasilyevskiy orolidagi kazaklar bilan bo‘lgan to‘qnashuvda ham... esingizdами, Shiff korxonasing yonida... sizning ishtirokingizsiz kechmagan: chakkangizdagi chandiq ham bekorga paydo bo‘lman – mushtlashuv jangida orttirgansiz-ku! Ammo hech qanday moddiy jism bir vaqtning o‘zida ikki joyda mavjud bo‘la olmaydi, to‘g‘rimi?.. Men buning qanday sodir bo‘lganini mutlaqo so‘ramoqchi ham emasman... Bu axir dohiyona reja-ku, men faqat bu borada o‘zimning... Xullas, bu shunday inson oldida hayvonlarcha itoatkorlikdir, siz kabi...

– Vaqtida daf bo‘lganingiz ma’qul, Sleznyov, – tahdid bilan takrorladi Valeriy, oyog‘i ostida pufaklanib turgan yashimtir yomg‘ir ko‘piklariga boqqan ko‘yi; suhabat har xil rangdagi shisha soqqachalar terilgan, chiroq bilan yoritilgan do‘kon peshtaxtasi yonida bormoqda

edi, o'sha paytlarda uzoqdan dorixonalarni shu belgisidan tanib olish shardi.

– Har holda Gratsianskiylar uyidagi bu hamma tushunmovchiliklar sizning sirlarinigzni bilib olish maqsadidan emas, shunchaki bolalarcha xatoyimiz tufayli yuz berdi... Biz aynan tomonlarning tengligi va mustaqilligini tasdiqlab qo'ymoqchi edik, siz xato fikrga bormasligingiz uchun, go'yoki biz... sizning nazdingizda churvaqalarmiz-u, sizdan qo'rqa diganday xayol qilmasligingiz uchun. Buni haqorat deb hisoblamasligingiz kerak... Aksincha, men har qanday daqiqada sizga qo'l uzatishga tayyorman, chunki...

Hamsuhbatining sukulidan ruhlanib ketganidan u hatto Valeriying paltosining yengiga qo'l tegizdi va bu safar Kraynov o'zining tahdidini amalga oshirishdan tiyilmay qo'yaqoldi, shundan so'ng ikkinchi marta ko'chaning boshqa tarafiga o'tib ketdi.

5

Agar Sleznyov ataylab chalg'itishga uringan bo'lmasa, Valeriying inqilob yillarda qayerda bo'lgani haqidagi uning ikkala taxmini ham noto'g'ri edi; bu borada Valeriying ishonchli *temir* pasporti bor, dalolat o'sha paytlarda shunday atalar edi. Ammo targ'ibotchilik vazifasi taqozosiga ko'ra, u ko'pincha chekka ishchi hududlarda ham bo'lishiga to'g'ri kelardi va politsiya kuzatuvchilari uning RSDRP chap qanotiga mansubligi haqidagi taxminni qayd etib qo'yishlari tabiiy hol... Demak, podshohlik tuzumini ag'darishga urinish ayblovi bo'yicha bir yuz ikkinchi moddaning birinchi bandiga asosan javobgarlikka tortish uchun sabab mavjudligida undan shubhalanishyapti.

Bu davrda bolsheviklar nooshkora firqa tashkilotlarini saqlab qolish va mustahkamlash uchun kurash olib bormoqda edilar. Kundalik tushuntirish ishlari haqiqat so'zlarining xalq e'tiboriga yorib chiqishi mumkin bo'lgan hamma yerda olib borilmoqda, – Tavriya saro-yi minbaridan boshlab, savodxonlikni oshirish to'garaklari, sug'urta g'aznaxonalari va talabalarning o'lkadoshlik tashkilotlariga qadar. Ammo Valeriy Gratsianskiyning *Yosh Rossiyasi* bilan, Sleznyov undan olgan shapatisining qattiq alamida bo'kirib e'lon qilganiday, uni o'zlashtirib olish uchun qiziqqanidan emas... hozircha dor sirtmog'i-ga bo'lmasa-da, har holda Psixonevrologiya institutining yangi Azefi

quchog‘iga to‘g‘ridan to‘g‘ri kirib borayotgan Kazachixina bilan Natashaq achingani uchun qiziqish bildirganidan ham emas edi; qisqasini aytganda, Sleznyov ishning texnik tashkilotchisi ekanini, Sasha Gratsianskiy esa uning yetakchiligidagi shunchaki ilhomlantiruvchilik va mafkurachilik vazifasini bajarib yurGANINI Valeriy baribir bila oлmadi. Ammo unga ma’lum bo‘lgani, Sleznyov o‘zining iflos firiblar yordamida ilgari ham ishchilarning markscha tashkilotlariga kirib olishga intilayotgani bo‘ldi. Sergiyevdagi janjaldan bir necha kun o‘tib, navbatdagi suhabat paytida Sasha Gratsianskiy Sleznyovning Davlat qog‘ozlarini tayyorlash ekspeditsiyasidagi yosh matbaachilarning huzurlarida ham bo‘lganini tasdiqladi va shunda Valeriy dushmanning ishchi yoshlarga ta’sirini bartaraf etish uchun ehtiyyot choralarini ko‘ra boshladi.

Aytish kerakki, Cheredilovning ishtirokisiz o‘tgan o‘sha suhabatda Gratsianskiy o‘zini takabburlarcha tutdi. Ammo Vixrov Sashaning jizzakiligini qo‘zg‘ab, u yangi ixtiro qilgan va o‘zining aytishicha, yengilmas siyosiy qurolining sirini ochib bergen oshkora e’tirofga chaqira oldi. Uning nomi *mimetizm* edi, hozirgi vaziyatda – mug‘ambirlik, ya’ni dushmanning uslublarini mutlaqo behuda bir bema’nilikka aylantirish, ularni ichidan portlatish uchun har qanday davlat muassasalariga va hatto politsiya mahkamalariga ishga kirishinga tayyorlikka asoslangan edi. Sasha buni e’tirof eta turib, buyuk maqsadlar o‘zining qurbanlariga, shu jumladan odamlarning nobud bo‘lishiga ham arziydigan harakat ekanini aytdi.

Vixrov bu orasta, yashilko‘z va hammaning yøqimtoyi bo‘lgan bolaga go‘yo uning boshidan shoxlar o‘sib chiqqanday vahima bilan qaradi.

– Ijozating bilan, birodari aziz... *ular* sizning odamlaringizga, ya’ni mug‘ombirlarga ishonishlari uchun... sizlar kimlarnidir o‘shalarning qo‘liga topshirishingiz kerak bo‘ladimi? – tushkunlikka tushib so‘radi u.

– Illoj qancha!.. afsuskim biz, toki o‘sha ish tinch yo‘l bilan amalgaloshguniga qadar ayrimlar kabi... iflosliklarni tomosha qilib turishga qodirlik darajasidagi fuqarolik sabr-toqatiga ega emasmiz, – sovuqqina javob qildi Sasha Gratsianskiy. – Har qanday muqaddas faoliyat jafokashlarning qoni bilan mustahkamlanadi...

– Ammo buning uchun avval o'sha jafokashlarning o'limga roziliklarini olish kerak, – ta'naomuz kulib qo'ydi Vixrov. – Shunday bo'lgan taqdirda ham, qurbanlikka nomzodlarni kim tanlaydi... sizmi, janob Gratsianskiy, yoki Sleznyovning o'zimi?

Sasha jim edi, ammo o'z tevaragidan bitta no'xat donasi kattaligida bo'lsa ham biror tirqishni izlab, atrofga bezovta alanglaydi: jo'nab qolish uchun. Shunda Vixrov qizishib ketib, bu iblisona hiylani ma'naviy chirishning so'nggi pog'onasi sifatida baholashini, bunday qilmishlar o'limingdan keyin ham unutilmasligini, dushmanning bunday sodda tuzog'iga faqat hali ko'zi ochilmagan kuchukbola tu shishi mumkinligini aytdi... To'g'ri, shu bilan birga buning jirkanch ish ekanini ifodalaydigan bir qancha so'zlarni ham aytib o'tdi, lekin o'shanda ham Sashani aybdordan ko'ra ko'proq qurban deb hisoblagan edi.

– U yerda o'sha ishlaringiz qanchalik olg'a harakatlandi? – past ovozda so'radi shu paytgacha sukut saqlagan Valeriy. – Ular bilan aloqaga kirishdinglarmi?

– Kim bilan? – esankirab, g'ilaylanib, ikki tomonga qaragan nigo bilan so'radi Sasha.

– Qo'riqlash mahkamasi bilan, yana kim bilan bo'lardi! Aynan qanday tadbirlarni qo'lladinglar... amaliy harakatlarni?

– Bu nimasi... voy, bu nima deganingiz! – o'ziga kelib, qichqirib yubordi Sasha Gratsianskiy va o'ziga tikilib turgan Valeriying ko'zlaridagi ajalvorsov uqqlik epkinini butun vujudi bilan his etib, hatto dahshatdan basharasi o'liknikiday burishib ketdi. – Bu hozircha xayoldagi fikr xolos, faqat mulohaza.

... Valeriy eng avvalo Boshkentdag'i partiya tashkilotlarini Sleznyovdan asrab qoldi, *Yosh Rossiya* esa shundoq ham tez orada o'z-o'zidan tarqalib ketdi: uning ishtirokchilarining nomlari peterburglik yoshlarning inqilobiy harakatlarida boshqa ko'rinxay qoldi.

Oldindan aytib o'tish kerak: talabalarning barcha birlashmalaridan ixtiyoriy ravishda chetlangan Gratsianskiy o'z polaponlarini ham tarqatib yubordi, o'zining aybini har qanaqasiga o'chirib tashlashga harakat qilib, ijtimoiy topshiriqlar olishga intilmadi, ammo o'zining artistlar orasidagi tanishlarining mavqelaridan foydalanib, Boshkentda qashshoqlar uchun konsertlar uyushtirishga ko'maklashdi va bu ishlari haqida Valeriy boshqalar orqali, albatta, xabardor bo'lishiga ha-

rakat qildi; ikkinchi inqilob vaqtiga kelibgina, katta ishlar boshlanib, Sashaning yoshlikdagi bu ayblari unutilib ketdi.

Taxminan bir yildan keyin, proletariat harakatining taniqli arboblari ham ma'ruza qilib turadigan, Ligovka yaqinidagi, graf xonim Paninaning Xalq uyi deb nom olgan koshonada Sasha Graptsianskiy Pushkin haqida ma'ruzalar o'qiyotgani ma'lum bo'ldi; bunisi endi xalqning ongiga siyosiy mushohadalarning urug'larini tifqishtirishning taqiqlanmagan usuli edi. Mushketchilar Gratsianskiyning ishchilar orasida o'qiydigan ma'ruzasini tinglash uchun yo'l oldilar, ammo aynan o'sha kuni ma'ruzachining o'zi go'yoki *betobligi* sababidan kelmadi... 1911-yilning o'sha 1-sentabr oqshomi hammaning yodida yaxshi saqlanib qoldi, chunki shu kunning oxiriga kelib, Kiyevda Stolipinga suiqasd uyushtirilgani ma'lum qilindi. Rus inqilobining bosh tinchlantiruvchisining o'limidan keyin politsiya qatag'onlari boshlanib ketdi, bu tadbirlar biz eslatib o'tgan kishilarga ham daxl qildi. Valeriy fuqarolik huquqlaridan mahrum etilishi bilan birga mamlakatning uzoq o'lkalarida umrbod surgunda qolish hukmini oldi, maxfiy politsiya mahkamasi Vixrovning ham bundan buyon Boshkentda qolishini nomaqbul deb topdi. Cheredilov otasining o'layotgani haqidagi xabarni olgan zahoti Kostroma viloyatiga jo'nab ketgani tufayli umumiyl qismatdan qutulib qolish baxtiga musharraf bo'ldi. Gratsianskiy esa, uyida o'tkazilgan tintuvda uning isyonchilarga aloqador ekani haqidagi daliliy ashyolar topilmagani sababli, gap-so'zlarga qaraganda, Mitnino sohilbo'yida joylashgan Peterburg qamoqxonasi biroz noqulayroq sharoitda ikki kun saqlangach, uyiga qo'yib yuborilibdi.

... Valeriyni qishning o'rtasida surgunga haydab ketishdi, Vixrov yana muhtojlik iskanjasida qoldi; noma'lum homiydan rosa mavridida yetib kelgan navbatdagi ehson oltinchisi bo'lib, qutborti muzliklari o'lkasiga quvg'in bo'layotgan o'rtoqqa to'lig'icha berib yuborildi. O'sha safar ular o'n olti yilga ayrilishdilar.

Kuzatgani chiqqanlar oldindan vokzal darvozasi yonida to'planishdilar, ko'pchiliklari – Boshkentning ilg'or ishchilar edi. Qorbo'ronli qahraton tun, bir turkum mahkumlar olib kelingan paytda hammaning usti-egnnini qor qoplab ulgurgan edi... Avvaliga safar chovgunlariningmi yoki boshqa nimaningdir bo'g'iq jarangi eshitildi, keyin esa mash'alalarning yorug'ida qo'riqchilarining yalang'ochlan-

gan qilichlari yaltirab ko‘rindi. Surgunlar juft-juft bo‘lib boradilar, ammo qadam tashlashlari bir xil emas, har biri o‘zining o‘y-xayoli bilan ketmoqda. U yerda siyosiy mahbuslar bilan birqalikda daydilar, mazhabchilar, mashhur kemaning jazoga mustahiq etilgan ikki nafar potyomkinchisi, Matvey kabi dehqonlar dunyosi uchun jabr ko‘rgan og‘ir-sipo mujiklar, o‘zining qochqin o‘g‘liga yuragidan va uyidan joy bergen qandaydir ruhi baland qariya, bosqich bo‘yicha erining huzuriga o‘z ajali sari olib ketilayotgan baxtiqaro xotin, – uch yuzga yaqin, go‘yoki oyoqlari qo‘rg‘oshindan quylganday og‘ir odimlayotgan, nimasi bilandir bir-biriga benihoya o‘xhash odamlar: qadrdonlar. «Mana ular, bosmaxona harflari, – o‘yladi Vixrov, xalq hayotining e‘lon qilinmaydigan yilnomasi shulardan teriladi».

Vaqt yarim tundan o‘tgan, askarchalarining ham uxlagisi keladi, ammo hammalari noixtiyoriy bo‘lsa ham muhim davlat topshirig‘ini bajarayotganlari boisidan o‘zlarini bardam tutishadi. To‘satdan Vixrovning yonida turgan notanish kampir bezovtalanib qoldi, og‘zini jun ro‘molining bir chekkasi bilan to‘sganicha, «o‘zimning mehribonim, ardoqli qadrdom, xushchaqchaq qalbligim...»ga o‘xhash so‘zlarni takrorlay boshladi; uning olti nafar hamrohlari, ularni ham Vixrov taimasdi, notinchlanib, guvullab, bosh kiyimlarini shaxt bilan yechib olishdi. Doimiy tolibning va g‘irt yetimning, Uralda yashaydigan xolasini hisobga olmaganda, Peterburgda shuncha qarindoshi qolayotganining o‘ziyoq juda ajablanarli edi... Valeriyning qo‘liga novcha, sovuqdan butun vujudi qanaqadir shishaday qotgan yigitning qo‘li qo‘shib kishanlangan bo‘lib, shergini shunday qattiq yo‘tal tutgan ediki, ichak-chavog‘i tashqariga ag‘darilgundai chuqr bu yo‘talning ovozi o‘sha tundagi yagona tovushga aylangandi. Eng oxirida borayotgan soqchi ortda qolganlarni yetishib olishga undash uchun to‘xtaganida, Vixrov saflarga qo‘shilib olishga muvaffaq bo‘ldi.

– Ichida pul bor, senga hamma ta’zimda, o‘zingni asra, – tez talaf-fuzda, nuqta-vergulsiz va yuzidagi ifodani o‘zgartirmagan ko‘yi dedi Vixrov, do‘stiga uch tiyinlik o‘rama nonni uzata turib. – Qayoqqa olib ketishyapti?

– Hozircha Motovilixadagi politsiya nazorati ostiga, keyin biror ovloqroq joyga... Xullas, borsang mehmonim bo‘lasan! – achchiq kulimsiradi u, erkin chap qo‘li bilan o‘rama nonni o‘ng qo‘yniga no-

qulaylanibroq joylaganicha. – Darvoqe, meni endi shunchaki Stepan deb chaqiraversang bo‘ladi: fosh qilishdi...

– Seni kim sotibdi?

– Bilolmadim... ammo Gratsianskiyga Sleznyovdan ehtiyot bo‘lishini tayinla! – u kishansiz qo‘lini yuqori ko‘tardi va bosh kiymasiz turgan ishchilar tomonga silkib qo‘ydi. – Katta Kostroma qayerda?

– Otasini dafn qilish uchun yurtiga ketgan edi. Egningga kiyishingga issiqroq kiyiming bormi?

– Hechqisi yo‘q, nafratning o‘zi isitib qo‘yadi... bahor ham tez orada yaqinlashib qolar.

Yetib kelgan soqchi itarib-turtib ularni ayirib tashlamagunicha o‘n bir qadamning so‘nggi uch odimini ular jim yurib o‘tishdi: cheklangan uchrashuv lahzalarida bu jimlik hamma so‘zlarning o‘rmini bosdi. Qo‘l siqishishga ulgurmay ajrashishdi, Valeriyning sherigi qo‘qqisdan qorga mukkasi bilan tushdi; xuddi kesilgan daraxt kabi uning jonsiz tanasi yerdan panoh so‘radi.

Vixrovni ikki soatlardan keyin, uyg‘a qaytishi bilan hibsga olishdi.

6

O‘zining ikki yillik quvg‘inini u Rossiyaning Chekka Shimali bo‘ylab o‘rmon tuzish guruhi bilan kezib o‘tkazdi. Geodeziya bo‘yicha bilimlari va o‘rmonchilik sohasidagi baholash tajribalari, shuningdek qashshoqlikka dosh berish ko‘nikmalari kabi o‘rmon baholovchisining yosh yordamchisiga juda qo‘l keldi. O‘scha hududlardagi yashil ummonni kuzatish Vixrovning o‘rmonchilik ilmidagi yo‘nalishi tubdan belgilab berdi. Tulyakov o‘z ma’ruzalarida ko‘p martabalab ta‘kidlaganiday, o‘rmon xo‘jaligini to‘g‘ri yuritish, bu – yo‘llar va yana yetti marta yo‘llardir, ularsiz o‘rmon barcha tirik mavjudot yorug‘lik tomon intiladigan, kurashadigan, o‘sib-yetiladigan, halok bo‘ladigan va oxir-oqibat qachonlardir yupqagina ko‘mir qatlamiga aylanadigan ibridoiy zulmatga aylanadi; umuman olganda, yo‘lllar masalasida professor qarag‘ay o‘rmonlariga oson va chuqur kirib borish, kerakli xomashyoni qiyinchiliksiz qo‘lga kiritish va olib ketish imkonini beruvchi barcha zaruriy muhandislik vositalarini nazarida tutgan... Ammo, modomiki har qanday o‘rmon egasi tomonidan

changalzorlarga xuddi kar-soqov va yoqimsiz o‘gay o‘g‘ilga nisbatan bo‘ladigan munosabat kabi iltifotsizlik qarashlari tubdan o‘zgarmas ekan, bu uslub xalq xo‘jaligining ushbu sohasi rivojiga olib kelmaydi. Hamma narsa shundan dalolat beradiki, tabiatning yagona va yaxlit vujudida unga ko‘rsatiladigan uzoq muddatli ta’sir dunyoning eng olis va chekka hududlarida ham o‘z asoratini namoyon etmaydigan birorta maydon yo‘q. Asrlar davomida to‘xtamagan yoppasiga o‘rmon kesish faoliyati keyinchalik, qirg‘inga uchragan maydonlarda zaif, o‘tinbop daraxtlar siyrakkina o‘sishiga va kuchsizgina shamol epkinida ular ham ag‘darilishi oqibatda poyonsiz, muzliklar ezib o‘tgan shimoliy tekislikning botqoqlanishiga olib keldi. Tabiatning qudratli so‘rgichlari hisoblanmish ulkan daraxtlar yo‘q qilinishi bilanoq, bug‘lanmaydigan tuproq suvlarini jadal to‘plana boshladi; zaxdan shishgan tuproq yo‘sin bilan qoplandi va daraxtlarning urug‘lari maydagina zax ishqibozlarining qalqima qatlamini yorib o‘tishga kuchsizlik qilib qoldi. Endi buyog‘iga tundaraning qarovsiz, egasiz, tashlandiq kengliklarini sixmolalaganday tekislاب tashlash uchun bu-yuk yong‘inlar, tabiiy muzliklar bosishi talab etiladi. Janubi-sharqdan bostirib kelayotgan cho‘Ining qadrdon singlisi kengayib bordi, shimoliy daryolarni quritdi, mamlakatning suv muvozanatini buzib yubordi. Vixrovning tanlagan o‘rmon muhandisligi umumiyligi o‘rmon falsafasiga o‘z o‘rnini asta-sekin bo‘shatib bera boshladi.

Botqoqliklarni oralab, ba‘zan faqatgina ovchilar daraxt yo buta po‘stlog‘iga kertib ketgan belgi orqali, chivinlar bo‘roniga yo‘liqib, tutun purkagich o‘rniga eng achchiq tamakini buruqsitib, yer kurramizning nol va o‘ninchি meridianlari orasida bir parchagina hududni bosib o‘tadi. U burchaklarni o‘lchaydi, yaroqli xodalarni botmonga o‘lchaydi va shunchaki, ish davomida, kishini har qanday lanjlikka soluvchi ortiqchaliklarsiz, bamaylixotir va erinmas shimolning hayot tarzini, sokin, hamma butun tirik mavjudotlar quyoshga bir martagine tabassum qilishga ulguradigan davomiylikkagina ega yoz faslini yoqtirib qoldi. U yana Onega etagidagi ajoyib Kon orolida ham bo‘ldi va rostdan ham u joylarda sigirlar baliq bilan oziqlanishiga va o‘jar qizlar iljaymas malikalarday mag‘rur yurishlariga ishonch hosil qildi, fribgarlik esa u yerda umuman yo‘q.

U yerdan Oneganing boshlanish joylariga ko‘tarilib, xorijiy konsessiyalarining o‘g‘riliklarini – dunyodagi eng kemabop yog‘och

hisoblanuvchi chayir belomor qarag‘aylarini qanday kesib olib ketishlarini, va o‘z ortlaridan rus yog‘ochining talangan, chiqindixonaga aylangan xazinasini qoldirib ketishlarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi. Yoki Qutb doirasini kesib o‘tib, Kovda etaklarida oftob isitgan tosh ustida har qanday yog‘och ijodkorligining mohir ustasi – kinovar bilan rang berib qizartirilgan pomorlar tusidan, toki ummonning har qanday havo ra'yida ham ishonchli bo‘lgan ikki ustunli tezyurar qayqlargacha tayyorlay oladigan karel Ananiy bilan o‘tirgan edi.

Osmonda zarg‘aldoq oqshom suzib o‘tmoqda va go‘yoki, bu yerda, Knyajye qo‘ltig‘ida, oyoqlaring ostida sokin suv shivirlab oqib turganida, qonlar daryo bo‘lib to‘kilgan va yelkanlar guvullab yongan qadimgi dengiz jangini eslatuvchi qip-qizil shafaqli osmonni tomosha qilish, – bo‘rsigan yog‘ochlarning va quritishga qo‘yilgan baliqchi to‘rlarining hidi aralash sho‘rtang shabadadan nafas olish, daryodagi yog‘och to‘smalarning g‘ichirlashi va Ananiyning ashula kabi cho‘ziq nutqini tinglashdan ko‘ra ortiq baxt yo‘qday tuyuladi.

– Aytishlaricha, sen yog‘ochli o‘lkaning odami ekansan, otangning kasbini esa unutib yuborgansan chog‘i? – shunchaki bekorchilikdan, hazil aralash imtihon qilib ko‘rmoqchi bo‘ldi Ananiy yosh o‘rmonchini. – Menga aytgin-chi, gardishlarning qanaqangi xillari bo‘ladi?

– Ular emandan bo‘ladi, zarangdan ham tayyorlashadi.

– Ko‘zlilari-chi?

– Sotib olmagan bo‘lardim... – kulgiga oldi Vixrov.

– Shumurttilari ham yomon emas, – ayyorlik qildi Ananiy.

– Shumurtni bug‘lab bo‘lmaydi, otaxon.

Ananiy nimadandir quvonib ketdi.

– Ma’qul, ma’qul, azizim. Endi menga chanalarning o‘rovlari haqida so‘zlab ber.

– Bizning Yengada uni kanop qo‘sib to‘qishadi.

– Bu gapinggayam qo‘shilaman: zig‘irpoya sovuqdan qo‘rqmaydi, – va har safar u gap orasiga o‘ziga yoqib qolgan manzara so‘zini qo‘sib aytardi.

Jimlik bag‘rida ko‘chmanchi gagara qichqiradi, burun ortida qayiqlarning eshkak quloqlari g‘ijirlaydi, oldindagi uzun orolchada savdogar Rusanovning yog‘och tayyorlash korxonasi uskunalarining taqirlashi eshitiladi. Bir payt Ananiy suhbatdoshiga kemalar kelib

bandga to'xtaydigan o'sha orolning qirg'oqlari keraksizligi tufayli suvga uloqtirilgan qipiqliq, cho'pak va kapantaxtalardan bunyod topganini aytib qoldi.

— Nimasiga hayron bo'lasan, butun Arxangelsk shahri kemalar makoni-ku axir, u yog'ochlarning ustiga qurilgan. Moviy dengizga yer va osmon yaxshiliklari hamda kuch-quvvatlari qanchalik ko'p yog'ilganining sanog'iga yetib bo'lmaydi. — Ananiy osmon kuchi deganida Qutb doirasida cheksiz seviladigan oftob nurlarini nazarda tutayotgan edi. — O'rmonlarimizda va yo'llarimizda sochilib yotgan oltinlarimizning hisobiga yeta olarmikansan... tejab yashamayapmiz, azizim. Ona yerimizni ranjityapmiz: onamizning siyovolarini bittagina tishlab, so'ng butunicha tashlab yuboryapmiz. Nolimaymiz, badavlat turmush kechiryapmiz: treska-yu, piksha, osmon to'la shimal yog'dusi, botqoq mevalari-yu, tarmevalar... manzara! Ana, issiq mamlakatlarda yashaydiganlar na kursini bilisharkan, na kulbani. Nabiramning alifbosida yozib qo'yibdi: to'shamasiz yerda, tag'in teri yopilgan chaylalarda yashasharmish, yoki undanam battarlari-da. Bizning yosh yigitlar o'rmonga borishadi-da, pahlavon daraxtni ag'darishadi, yashil kallasini uzib tashlashadi, suvda yoki temiryo'l bilan surgashadi... va har qanaqasiga shoxlarini-yu, terisini shiladi, yo'l-yo'lakay randalaydi arralaydi, yagona boyligimizni isrof qiladi... mening o'rmonginam suv yuzidagi muz bo'lagiday erib ketyapti, yaydoq issiq mamlakatlarga esa ulkan og'och xodasi bitta kosovning bahosida yetib boryapti. Hozir bizda bitta yog'och kosovning narxi qancha? O'rmonni olis mamlakatlarga sarson qilgandan ko'ra, o'zimizning yurtimizda kulbalar qursak, kursilar yasasak edi, — qarabsanki, kelinchaklarimiz yana bittadan ko'yaklik bo'lib qolishardi. Va yana yog'och qoldiqlarini yondirib tashlash emas, dengizga tashlab chiritish emas, balki hafsala bilan ishga solish kerak — shunda qo'shimcha mablag'ga ega bo'lardik. Qo'shimcha daromadning o'sha sariq chaqalariga Kovdaga, farzandlarimizga hech bo'lmasa ko'k olma bo'lsa ham olib kelish mumkin bo'lardi... chunki bizning bolalarimiz ham boshqalarning bolalaridan yomon emaslar, boz ustiga ulardan yaxshi askarlar chiqadi. — Agar biror tanga ortib qolsa, chollarga ham bir hovuchdan uzum mayiz nasib qilgan bo'lardi. O'zi dunyoda uzum degan narsa borligi rostmikan. Voy-bo', tengi yo'q shirin narsa deyishadi... sen yeganmisan?

Ananiyning qiyofasida uni Kalina bilan qadrdonlashtiradigan jozibador va o'chmas nimadir bor edi. Vaqtlar o'tib, shu ikki ovozga qadrdon tuproqning boshqa ovozlari ham qo'shildiki, ularni Vixrov o'zining keyingi sargardonlik yillarida tingladi va eshitdi... Keyinroq, Vixrovning mashhur ma'ruzalarida, professorning tilidan o'sha fidoyilar so'zladilar, milliy tarix bitiklariga asos bo'luchchi vatanga muhabbat hissi birgina emas, balki minglab baxtiyor va donishmand avlodlar ixtiyoriga qoldiriladigan tabiat ne'matlariga tejamli munosabatsiz mavjud bo'lmaydi. Rostini aytish kerak, Ivan Matveichning ma'ruzalaridan birini yakunlovchi mashhur iboralardan biri uning o'ziga emas, balki aynan kovdalik karelga tegishli edi: «Pastroq egil, belingni ayama, sovet kishisi, ko'pdan beri oyog'ing ostida sochilib yotgan eng birinchi millionni ko'tarib ol». Afsuski, shimolning o'rmonchilik sohasidagi daromaddorlikni oshirish bo'yicha ulkan ahamiyatli bu masalani Vixrov o'zining ehtiyyotsizligi natijasida Ananiyning ko'k olma haqidagi mushohadasi bilan mustahkamlashga qaror qildi, Gratsianskiy esa o'z odatiga ko'ra xususiy suhbatlardan birlida bu fikrni tushkun safsata, va hattoki, sovet xalqlarining do'stligiga rahna soluvchi fitna deb baholadi.

Bu suhbat ancha yillar o'tib, O'rmon xo'jaligi institutining dekani xonasida, Vixrov faoliyatining nihoyatda esda qolarlik muhokamasidean yarim soatgina avval yuz bergen edi. O'sha kuni ko'pchilik odamlar ularni yonma-yon o'tirgan, do'stona suhbatlashayotgan holda ko'rdilar, zero ikkovlarining ham fikrlariga ko'ra, ilmiy kurash ularning shaxsiy munosabatlariga daxl qilmasligi lozim, bu holat podshohlik tuzumining quvg'iniga uchragan davrlarida qaror topgan edi.

– Ko'rinishing rasvo, og'ayni... to'kilib tushmagin tag'in, – Gratsianskiy o'z qurbaniga o'rtoqlik achinishi so'zları bilan dalda bergen bo'ldi. – Timmay quturyapsan... ochig'ini aytaman, Ananiy olmasi menga yoqmadı: ichi qurtlab ketgan. Sen o'zingga oliv darajadagi ko'ngilsizliklarni orttirib olyapsan... Sen yaxshisi yaxshilab hordiq chiqar, bir-ikki yil sayohat qilib yurt kezib kel, e... balki uch yildir? Mening zaif o'pkalarim yo'qotilmagan salomatlikning qanchalik qimmatli ne'mat ekanligini yaxshiroq biladi.

– Ammo o'zingning zaifo'pkalarining bilan, Aleksandr Yakovlevich, sen deyarli ellik yoshgacha tirik yetib kelding va mening mizim ustisi

ni najaslashtirishdan ham charchamading, – kutilmaganda qo‘pol va zaharli kuldi Vixrov va bu uning po‘stagi qoqlishidan oldingi tabiiy holati bilan izohlanardi.

– Ko‘nglingga hazil sig‘yaptimi, Ivan, lekin bekor qilasan. Sening gemoglobining qanchaydi? Bilmaysan. Holbuki, bizning yoshimizda buni bilish muhim. O‘zingni hech bo‘lmasa biz uchun, sening muxlislaring uchun, va e... malaylaring uchun asrasang bo‘lardi. Agar sening, deylik... tobing qochib qolsa, men nimani yozishim mumkin bo‘lishini tasavvur qilib ko‘rgin-chi? – Pichoqbozlikka teng keladigan bu suhbat to‘g‘ridan to‘g‘ri tahdidga juda yaqin edi. – Oxir-oqibat, jin chalib ketgur o‘rmonning ahvolini ham qo‘yaturaylik... salomatlik tarashadan ko‘ra qimmat turadi, agar u shamshodning g‘o‘lasi bo‘lganida ham!

– Menga agar ikkinchi hayotni bersang, men uni xuddi shu haqiqatlarni isbot qilishga sarflayman.

Gratsianskiyning basharasiga qarimsiq g‘ashlikning nuqsi tepib chiqdi:

– Lekin haqiqat aslida yo‘q ekanini ikkovimiz ham yaxshi bila-miz, azizim. Tarix fanining tarkibiy qismini tashkil etuvchi insonning unga tomon qizz‘in harakati to‘g‘risida gapirish mumkin, xolos. Mazkur holatda o‘rmon senga o‘z shaxsiyatning namoyon etishga, muhtojliklarda toblanishga, mamlakatni kezishga yordam bergen vo-sita, xolos... Darvoqe, aytishlaricha, yaqinda Yeniseyda bo‘lib qaytibs-sanmi?.. Bunga qachon ulguraqolding?

– Ha, o‘n besh yildan beri o‘rmonlardan biri mening nazoratimda. Yoshlik davrlarimda, cho‘loq bo‘lib qolishimga qadar men ko‘p sayohat qilganman.

– Taassurotlaring bilan o‘rtoqlashsang bo‘lardi! Sen bilan an-chadan beri bir shisha sharob atrofida, yuzma-yuz o‘tirib suhbatlash-ganimiz yo‘q... o‘shanda meni va Valeriyni maxfiy politsiya sudrab ketganidan buyon. Darvoqe, o‘shanda surgundan qutulib ketishga qanday muvaffaq bo‘lganding? – u shubhali nazar bilan, ko‘zonyaklari tepasidan uning qanshariga tikilib qoldi.

Aslida Vixrov o‘n uchinchi yildagi amnistiya bilan surgundan chi-qarilgani va shundan keyin bir yildan ortiq vaqt davomida noma'lum sabablarga ko‘ra mamlakat bo‘ylab sayohat qilganidan Gratsianskiy

a’lo darajada xabardor edi. Haqiqatan ham, Gratsianskiyning o’zi birinchi jahon urushi arafasida ish tutganidan farqli o’laroq, Vixrov uzi-lib qolgan o‘qishiga yoki qizg‘in ijtimoiy faoliyatga qaytish o‘rniga Rossianing Yevropa qismi muzofotlari bo‘ylab yarim yillik sayohatga yo‘l oldi – hatto Sibirga ham borib keldi. Darvoqe, Gratsianskiyning hisob-kitoblariga ko‘ra, Vixrovning shimolda ishlab topgan mablag‘lari yetti haftalarga yetishi kerak edi va shu bois u bir narsaga bolalarcha qiziqib qoldi: surgundan keyin noma’lum homiyning sadaqlari yana davom etdimikan?..

Rostdan ham, bu nihoyat darajada sirli ko‘rinardi – bu daydilik havasi, surgunlarda och qolgan va tashqi ko‘rinishidan mulohazakor odamning nima uchun Boshkent turmushidagi barcha ne’matlarni rad etishi g‘alati edi. Rus hayoti ichki dunyosining sodda qissalariga doxil bo‘lish uchun yarim yayov va och-nahor holatda minglab chaqirimlik sargardonlikka yo‘l olish, – ovloqliklardagi kichik bekatchalarda poyezddan tushib qolib, biror kattaroq yo‘lmi, kichikroq temiryo‘l tarmog‘imi, kemalar kam qatnaydigan daryochami uchrab qolguniga qadar izg‘ib yurish... va yana ziyoratchilar bilan olis butxonagacha yurish, yo‘lkiraga puli yo‘qligi sababidan yuk platformasida manzilgacha sovuqdan qaltirab ketish, Kama daryosi buksirida matros bo‘lib suzish, shubhali ishlar bilan mashg‘ul bo‘lgan, o‘ziga o‘xshagan sayoqlarning nigohidan g‘oyib bo‘lish, – bir ko‘zli yuz yashar cholning boshchiligidagi qayerdadir Pripyat tomonlarda yog‘ochdan qatron haydalishini kuzatish, yokigim ashtarxonlik barzangilar podshohlikning arog‘idan xirillab qolgan, g‘ozning ovoziday hirqiroq tovushda o‘z qahramonlari haqidagi qo‘shiqlarini chо‘zib kuylashlarini tinglab o‘tirish: Volga daryosi o‘zining suvlarida Stenka haqidagi qo‘shiqlarini kuylashlarini yoqtiradi... Va butun yo‘l bo‘yi ona yerning yuzidagi aziz ajirlarni tomosha qilish – ulkan sevgi va albatta qalb sokinligining manbayi bo‘lmish nafosat va o‘zgarmas ma’yuslik bilan zamin bag‘riga boqish... Va mujikning o‘zi, ona yer kengliklarining ochilmagan boyliklaridan, erlarining chidamliligidan, ayollarining qomatlaridan hayratlanib, qora non hamda qaymog‘i olingen sut bilan kun ko‘rgan o‘z qabilasining kelajagini o‘tmish hodisotlaridan izlaydi.

Vixrovning eski orzusi ushalmoqda – quruqshagan, uni emizgan ko‘krakka yuzini bosish. Etigini yelkasiga ilganicha, qo‘ltiqlari terdan ho‘l bo‘lgan ko‘ylakda shafaqdan shafaqqacha qishloq yo‘llari va suvsiz vodiylar bo‘ylab odimlaydi va uning ko‘z o‘ngida xuddi ko‘zgudagi akslar kabi, ko‘z o‘ngida bir xil manzaralar namoyon bo‘ladi. Kun yarmidagi sharpa kabi u xalqning yuragi bo‘kiradigan, raqs tushadigan, ko‘z yosh to‘kadigan qayg‘uli to‘ylarni yoki aksincha – ichkilik, ziyofat, o‘yin-kulgilarga to‘la dafn marosimlarini, – shiddatli arg‘imchoqlarga to‘la bozorlar va o‘zidan keyin ko‘z yoshi daryolarini va hovuch-hovuch kullarni qoldirgan rus yong‘inlarini, – taxt egalarining bayramlari, mushtlashuvli yig‘inlar va boshqa to‘s-to‘polonlarni oralab o‘tadi.

Sokin, yuvosh bolalarni, boshlariga moychechak gulchambar kiydirilgan suvga cho‘kkan xotin-qizlar va tepib-toptalgan ot o‘g‘rilari, ko‘zлari irg‘ib chiqqan, mast holida o‘liklarning ustiga ot bostirgan qochoq mirshablar, Svyatoslav davri haqidagi qissalarni ming‘irlab yurgan ko‘rlar, kundalik turmushidagi arzimas ishi uchun kishanlanganlarni ko‘rdi... Chamasi o‘sha davrning Rossiyasi butun o‘zining ko‘z yoshiga to‘yingan go‘zalligi bilan Vixrovga peshvoz chiqib kelmoqda edi.

Va yana bir haftaga uni ulkan, hatto chigirkalarsiz dalalarning jumjutligi yutib yubordi. Bo‘zrang garmsel olov uning peshanasini va ko‘ylagining yuqori tugmasi yechilgan uchburchak shaklida ochiq turgan joyini sho‘ralatib tashladi; o‘zining o‘rmonlari bilan mashhur bu mamlakatning ignabargli daraxtlari ostida yotib rohatlanishning ayni payti edi-yu, ammo u o‘z yo‘nalishini qancha o‘zgartirmas, g‘ira-shira ufqda biror najotkor daraxtzor ko‘rinmasdi.

Oyoqlaridan oldin ko‘zлari toliqdi. Unda-bunda so‘lg‘in tol butalari majmayib turgan salqin botqoqlik oldida o‘tirib, qachonlardir butun bir sodda hayot ilk bor paydo bo‘lgan, va hozirgi qaysidir biror mavjudotning jasur ko‘zga ko‘rinmas, bo‘yi nari borsa yarim mikron keladigan bobokalonining bobokaloni dahshatli, bir yarim qu-loch kenglikdagi ummonni suzib o‘tgan loyqa suvning sirtiga tikilib o‘tirdi. Yoki jaziramadan bo‘g‘ilib, qayirdagi o‘rilmagan o‘tlar ustiga cho‘zilganicha, goh ko‘kdagi qirg‘iy parvozini tomosha qiladi, goh

maysalar orasidagi mayda hasharotlarni kuzatib yotadi. Qorni ichiga tortilgan qumursqalar o‘z so‘qmoqlari bo‘ylab sang‘iydilar, yovvoyi skabiozalar tepasida tukli arilar shang‘illashadi, yer arilari o‘ljalarini uyalariga sudrashmoqda... va ilm tolibi Ivan Vixrov ulardan: shu yoqimsiz jimlikda Rossiyaning asl xo‘jayinlari qayoqlarga daf bo‘lib qolishdi? – deb so‘raydi.

G‘ildiraklarning bir maromdagagi g‘ijirlashi uni o‘tlar ustidan turishga majbur etdi. Taxminan o‘n besh ot-aravalik karvon uning oldidan o‘tib boryapti; yon tomonda odamsifat to‘da ketib bormoqda, ba‘zilari sigir yetaklab ketishyapti, boshqalari biror-bir yuksiz, qo‘llarida qamchi. Balo-ofatlar hammalarini teng qilib qo‘ygan, yoshni ham, keksani ham, ular hammasi bir kulbadan chiqqan bir xil yoshdagagi mavjudotlarga o‘xshaydi. Ular olisdan to‘q va jozibador bo‘lib ko‘rinayotgan o‘lkalarga yo‘l olgan ko‘chkinchilar edi. Hammalari xuddi arvohlar kabi, chang ko‘tarmasdan, nolishlarsiz, shoshilmay, hisobsiz ortiqcha vaqtga ega holda odimlaydilar... Karvonning boshida ham, oxirida ham qadimiylar, olis o‘tmishdan beri yer yuzi bo‘ylab izg‘ib yurgan eski aravani ko‘rasiz. Ko‘zlarining atrofida qora hoshiya o‘rinnagan, gavdali er oti bilan yonma-yon sudralib kelyapti va uning ortidan, o‘ziga qismat qilib bergen, bir bosh past, o‘g‘illarni tug‘ib berishi lozim bo‘lgan, omochga qo‘sish bo‘lib yer tirnash, dunyoni la‘natlab o‘tish uchun yaratilgan xotini bormoqda. Aravaning sahnida lash-lushlar ustida hayot kechmishlaridan ranglari sarg‘ayib ketgan bobo tizzasida uxbab yotgan nabirasi bilan chayqalib o‘tiribdi... tikkaga kelgan quyosh go‘dakning tomog‘iga taftini ufuradi. Arvohlar tiriklarni payqamasliklaridanmikan, yo‘l chekkasida turgan Vixrovga hech kim o‘girilib ham qaramadi, hatto bolalar ham.

Uning o‘zini ham manavi oqimga tortyapti, shu bois yonma-yon odimlab ketdi, so‘rab-surishtirsa, ular uyi kuyganlar ekan, Kadomdan erkin Oltoy mazgillariga ketishayotganmis, yo‘lda onalarini ko‘mishibdi, xayriyat, hayotning azoblaridan qutulib ketibdi, bu yog‘iga ancha yaqin qolibdi, O‘rol tizmalarini oshib o‘tishsa, pardigorning marhamati bilan manzillariga oz masofa qolganmis. «Krestovoye qishlog‘idan o‘tishingiz bilan, – ko‘zlar o‘tkirlashib, oldinga qaragan holda yoddan aytganday o‘qib bormoqda ayol, – qarshingizdan gullab-yashnagan g‘aroyib vodiy chiqadi, lekin siz uyoqqa bormang, faqat so‘lga qarab yuraverasiz, Chin tarafga. O‘sha

yerda o'rlimagan maysazorlar, kesilmagan o'rmonlar, har xil baliq-larga to'lib-toshgan daryolar va boshqa ne'matlarga to'la qo'ltilqlar, bedalar-chi... – o'sha maktubda yurtdoshlari yozgan edi, yo xudo, bepoyon bedazorlarni o'rishni qayerdan boshlashniyam bilmaysan!»

– Ahvolingni qara, otaxon, shunchalik uzoqqacha yetib bora olasanmi?

– Mana, sudralib boryapman, – jonlanib qoldi odam nutqini sog'ingan qariya, – men hali ish beraman! To'g'ri, otning bo'yniga egamasini tashlay olmayman, yog'och egishga ham kuch yo'q, qayodqa deysan. Ammo bilsang agar, men quduqchiman... men ulardan qanchasini qaziganimni, hoy, mening asraguvchi farishtam, hayotimda qancha quduq kovlaganimni sanashga urinishning o'zi aqlga sig'maydi. Menda suvning kaliti bor. Meni qo'limdan yetaklab, eng qaqrangan sahroga olib borgin, yoki muzlagan o'lkalarga boshlagin, qor bosgan maydonda belkurakni qayoqqa urishni ko'rsataman... chetlashga ulgurmasiningdan, suv otilib chiqib, hammayog'ingni shalabbo qiladi. Amlokdor Zveropontov – uni eshitmaganmisan? – uch otli aravada meni olib ketishga kelgan, ishonsang agar, yarim tunda: «Sen kaminaga Yefrem bobo, eng musaffo suvni chiqarib ber!» Men Zveropontovning chorborg'ini bilaman-ku, tosh qaynagan joy... hammomga tosh terishdan boshqasiga yaramaydi...

– Kechasiga tovalarni qo'yib chiqib, shudringdan aniqlasang kerak-da? – tusmollab so'radi Vixrov.

– Nega endi, menda undan ko'ra ishonchliroq vosita bor.

– Jim ketsang bo'lardi... nolishniyam bilmaydigan rosmana vaysaqi, – jahl bilan uni koyib berdi aravaning egasi.

– Tinmay so'kinadi... Menga farqi yo'q, karman, baribir eshitmayman, – bir daqiqani o'tkazib ko'z qisib qo'ydi qariya. – Suvning kaliti sirini aytmaganim uchun mendan jahli chiqyapti... sirimni ayt-sam, kalitsiz yolg'iz o'zimning kimga keragim bor? Baraka topkur, o'g'limmas, kuyovim ham emas, lekin aravasida olib ketyapti. He, agar cho'ksam birga g'arq bo'ladi, lekin mendan ajralmaydi. Haydahayda, qo'lingni paxsa qilma, o'lib qolsam o'zingga zarar! – Va bo'z tusli qiyshiq barmog'i bilan po'pisa qilib qo'ydi.

Keyin manzarani chang buluti qoplاب, xiralashtirib tashladi va Vixrov yo'l ustida o'z xayollari bilan yana yolg'iz qoldi. Ko'p vaqt o'tmay, qiyalik ortida uni sog'intirgan yashillikning uchlari ko'rin-

di, – Vixrov so‘nggi daqiqada ulgurib qoldi. Tasodifan omon qolgan, atroflari sidirib olingen jarlikdagi oqqayinzorni o‘tinga maydalab, birinchi qordayoq quruq, jaranglagan palyon qilib olib ketishga tayyorlashayotgan ekan. O‘rmonkesarlar endigina tushlik qilishga o‘tirishibdi, biror narsani chaynash emas-u, shunchaki har doimgiday xodalar ustida hordiq chiqarib, to‘yimli ovqat va so‘liyotgan barglarni shitirlatib o‘ynaydigan muzdakkina shabada haqida xayol surishyapti. Faqatgina bir odam, osilgan qovoqlari titrab turgan, dahani latta bilan tang‘ilgan jonsarak mardikor issiqqa ham qaramasdan ishni davom yettirmoqda edi va u qanchalik qizg‘in g‘ayrat bilan o‘sha muzofotdagi o‘rmon nomli eng so‘nggi boylikni yo‘q qilayotgani odamni qattiq hayratga solardi. Katta oqqayinlar orasida faqat supurgi bog‘lashga yaraydigan mayda nihollar ham uchrab turibdi; ularni bitta zarbda, tillarang po‘stlari yaltirab turgan nihollarni o‘rdak bo-lasining bo‘yni kabi egib, ustalik bilan chopyapti. Jazavadagi odamning nazarida aybsiz bu yosh daraxtlar qandaydir boshqa narsa sifatida xayol qilayotganday tasavvur uyg‘onar edi... Darvoqe, daraxtlarni yerdan anchagina yuqori chopishyapti, erinchoqlikdanmi, yoki ular qaytadan novda chiqarishi umididanmi yoki... balki izg‘irinning so-vug‘ida to‘nkalarini kesib olib ketish umididadir.

– Marhumaning nomi nima edi? – gap boshlash uchun so‘radi Vixrov g‘o‘la ustiga o‘tirayotib.

– Nima? – xushlamay javob qildi haligi, ishchan mardikor, bolatsini selpiy turib, lekin ko‘rdiki, bu bu yalangoyoq, soqol-mo‘ylovlari olinmagan, juldur tolibning o‘zini tutishida bunday ohangda so‘zlashga haqqi borligi shundoq anglashilib turardi. – O‘rmonchani nazarda tutyapsan, shekilli? Asalxona deb aytardik sho‘rlikni.

Bu nom qachonlardir bu yerda jo‘ka daraxtlari o‘sganiga ishora qilardi, ammo Vixrov qancha alanglamasin, oftob nurida tuslanib turgan bu siyrak o‘rmonda birorta qorayib turgan joy ko‘rinmadni. Endi boshqa tabarchilar ham o‘tkinchining nasli-kasbi bilan qiziqib yaqin kelishdi, Vixrov kulgi uchun hazillashib, o‘zini boyon yoki graf deb tanishtirsa, munosabatlar shunchalik tez o‘rnatalardi. Suhbat hazildan boshlandi, kimdir: boyonning tamakisidan ham chekaylik, dedi. Vixrov o‘zining allaqachon bo‘sab bo‘lgan tamakixaltasini uzatdi, shunda ular xafagarchiliksiz o‘zlarining chekimliklarini u bilan baham ko‘rishdi.

– Daraxtzor xalaqit berib turgandi, shekilli... endi ochiq maydon kenggina bo‘ladi!

– Yo‘-o‘q, o‘z joyida yaxshi turgandi, bu masalada tortishuv yo‘q... – javob qilishdi dehqonlar, – og‘ochlari savdogarga yoqib qopti-da.

– Qadrdonlaringga achinmadinglarmi?

– Kampirlar rosa bir hafta ko‘z yosh to‘kishdi. Qiz bola paytla-ri bayramlarda shuyoqqa yugurib kelib, boshlariga gulchambarlar to‘qishgan... Birov ekib qo‘ymagan bu o‘rmonni, parvardigor bergen ne’mat edi!

– Shaxsiy mulking bo‘lsa, yokigim qo‘ling bilan ekib qo‘yan bo‘lsang boshqa gap, – so‘z qo‘shti eng orqada turgan. – Rossiya-da qabristondan boshqa bizga tegishli nima bor o‘zi? Bittagina katta yo‘l... undan ham agar ijozat bo‘lsa yurasan!

– Ammo o‘rmonlardan dehqonga ham ulush ajratilgan-ku... Demak, sizlarga begona emas, – so‘zida mahkam turdi Vixrov. – Af-sus, o‘rmonga mehringiz yo‘q ekan, birodarlar! Albatta, qo‘l ostingda turgan narsa doim qadrsiz bo‘lib kelgan...

Dehqonlar orasida jimlik cho‘kdi, va hammalari jag‘i bog‘langan tinib-tinchimas emgakchiga ko‘zları bilan imo qilib, uni o‘tkinchiga boplab javob qilib qo‘yishga unday boshlashdi. U gapini past ovozda boshladi, o‘pkasida nimadir hirqillab, har bir so‘zidan oldin nafasi hushtak bo‘lib chiqardi.

– Bu olifta o‘zining so‘zlarini juda silliqlab tiqishtirishini qara!

– Vixrovga tahdidli g‘azab qilib, xuddi tutqanoqday tipirchilagani-cha, go‘yoki butun olamga murojaat qilardi u. – Dehqonlarga hazilini qistiradi-da, ammo o‘zi kulmaydi. Bo‘ydoq bo‘lsa kerak-da, tashvishi yo‘q... Uning fikricha biz bu yerda shirinkulcha yeb o‘tiribmiz, bizlar-chi, okovsi, to‘pon chaynaymiz! Mening kulbamda yettiha og‘iz bor. Har kech go‘yoki yettiha zambarak og‘zini katta ohib, menga baqra-yadi: qani, o‘qlab qo‘y! Non shunaqa narsaki, yugurib qochsa tutol-maysan. Senga bitta misolni aytaman...

– Hozir tuzlaydi, Nefedning har bitta so‘zi olov bo‘lib yondiradi, – yaqinroqda turganlar uni ma‘qullab, gjigjilay boshlashdi.

– Masalan, mening qizim etilib, pishgan olmaday shiraga to‘lgan payti, naq o‘n ikki yoshda, – hushtak chaldi Nefedning o‘pkasi. – Oi-lamning qolgan qismi nobud bo‘lib ketmasligi uchun, o‘g‘illarimni,

turmushdagi tayanchlarimni, uning tug‘ishgan qorindosh akalarini singillari bilan vidolashishga undayman. Qizimni bo‘ynidan arqonlab, bozorga olib boraman, biror rahmdil savdogar mening olmamni bir pud yormaga sotib oladi... Mana, sen endi bizga ayt, alloma, kimning boshi bu yerda aybdor?.. Nahotki mening kallam? Seningcha, biz o‘sha savdogar bilan hisob-kitobni tugatdikmi? Yo‘q, shu palladan endi men tamom bo‘lgan odamman, butun hayotim barbod bo‘ldi. Ana endi mening o‘ligimdan ham qo‘rqishsin.

– Dunyoda sotiladigan narsa kammi, bolangni sotishga qonli yurak kerak, – xuddi shamol silkitgan o‘rmon kabi guvullashadi hammalari.

Rostgo‘ylik nuqtayi nazaridan, o‘zi o‘zlashtirgan bilimlarni xalqdan sir tutmaslik uchun, Vixrov mamlakatning yaxlit xo‘jaligida o‘rmonning ahamiyati haqida va yana – tuproqning serhosil qatlarning yuvilib ketishi, daryolarning sayozlashuvi, bostirib kelayotgan qumlar... haqida tushuntirish berarkan, butun nutqi davomida Valeriy bu suhbatni butunlay boshqacha tarzda olib borgan bo‘lardi deb, vijdoni qiynganganicha o‘yga toldi, ammo o‘zi boshqacha so‘zlay olmasdi. Odamlar uni tinglab o‘tirisharkan, o‘zida bor bo‘lgan eng oxirgi narsasini – shu bilganlarini xoda ustida o‘rtoqlashib o‘tirgan bu oliyjanob yigitni ranjitib qo‘ymaslik uchun, zerikkanlarnini sezdirmay, esnoqlarini kaftlari bilan berkitib o‘tirishibdi.

– Ammo qachonlardir kelib, bularning barchasi *sizlarniki* bo‘ladi, va – eng dadil taxminlarda aytilgan muddatlardan ham oldinroq... xalq kuch-quvvatini va fikrlarini birlashtirishi bilanoq, – so‘zlarini suvgaga cho‘kayotgan odamning umidsizligi hissiyoti bilan yakunladi ma’ruzachi Vixrov. – Shunda biz o‘rmonlarni qaytadan ekishni boshlaymiz, yangitdan!

– Agar imkon beriladigan bo‘lsa nega ekmas ekanmiz. Daraxt o‘tqazish – odamning qo‘lidagi ish, dehqonning qo‘li mehnat uchun yaratilgan. Ammo daryolarning sayozlashayotgani, bor gap. Bizning yaqinimizdagи sudramada tuz ortilgan daryo kemasi sayozlikka botib qoldi... Agardayam inonsang, tuz deganining dehqonlarga ikki yilga yetib berdi, parvardigoring inoyati-da, buyam. – Va qo‘llarini keng siltab, tabarni qo‘liga oldi. – Qani, birodarlar, valaqlashganimiz yetar, ishga kirishmasak bo‘lmaydi... Xudoyim xohlasa, kechgacha ulgurib qolarmiz!..

Ivan Vixrov begonalarcha tushkun xijolat hissi bilan yo‘lga tushdi, nafaqat ortidan masxaraomuz qarab qolgan mardikorlarning, balki olis Lena daryosi bo‘ylaridagi Valeriy Kraynovning ham istehzoli kulgisini his etdi. Xuddi voqeal sezilib turganday, Valeriy u bilan yonma-yon boryapti va shu joyda chetdan qaraganga g‘alati va tushunarsiz bo‘lgan, ikkovlon bir kishining og‘zidan navbat bilan gapirayotgan suhabat boshlandi:

«Nima bo‘ldi, to‘la muvaffaqiyatsizlikmi, Ivan?»

«Eng uyatlisi, men o‘zim dehqon bolasi bo‘laturib, ular bilan til topisha olmadim. Ha, Valeriy, rusda o‘rmonlarni sevishmaydi. Bungaga qadar, qadimdan, shudgorlanadigan bepoyon dalalar ochish uchun to‘nka qo‘porishga sarflangan tinimsiz mashaqqatli mehnatlar xotirasi unut bo‘lmagan. Men ikki yuz yil davomida xalqda ovozsiz yashil do‘sralarimizga nisbatan minnatdorlik hissini bo‘lmasa ham, hech bo‘lmasaadolat tuyg‘usini singdira olmagan maorif generallarini och qoldirish bilan jazolagan bo‘lardim».

«O‘zingni koyima, – so‘lg‘in javdar shitirlashi orasida kului Valeriy. – Najot seningcha savodxonlik o‘quvlaridami?»

«Gap madaniyatda... Albatta, odamlarning ozodligiga va baxtinga yo‘naltirilgan madaniyatda. Mana maqsad va unga olib boruvchi yo‘l».

«Madaniyat degani, og‘ayni, ehtiromga loyiq bo‘lsa-da, lekin eski kitoblar solingan quti emas, u – harakat, amaliyot, *bundan buyon* ham fikrlash qobiliyati. Negizni top. Qattiq qatlam chiqquniga qadar yerni kovla, Ivan. Aks holda daraxt o‘zingning ustingga ag‘dariladi».

«Tushunaman, Valeriy, meni olis yo‘lga chorlayapsan: bu – to‘g‘ri yo‘l... ammo bizlar hammamiz ulkan Lena orqali u yerga yetib borgunimizcha mening o‘rmonimning holi nima kechadi?»

Ular oz muddatga ajralishishdi, so‘ng butun tun davomida pichanxonada xas-xashakni ko‘rpa-yostiq qilib, tartarqushning g‘ijir-g‘ijiri jo‘rligida yana o‘sha mavzuda bahslashib chiqishdi, sayohatning oxiriga kelib esa, Vixrov har safar do‘sining ayovsiz mantiqiga tobora ko‘proq qo‘shila boshladи.

... Jazirama qaytaman demasdi, dalalarning so‘nggi sharbatlari bug‘ bo‘lib ko‘kka ko‘tariladi. Qaniyi yerni tark etib ketayotgan namlikning qarshisidan hech bo‘lmasa yengil shabada esib qo‘ysa, yo‘q, butun rus zaminida eng kuchsiz shabadacha ham qolmabdi!

Kaftida turgan, Asalxonadan esdalik uchun olgan bitta payrahasining nomi ketmasidan turib, qulog'iga dafn janozasini eslatuvchi uzuq-yuluq guvullash eshitila boshladi. Vixrov beixtiyor o'sha ovoz tomonga yurdi va uning ko'z o'ngida xuddi o'lim oldidan olingen so'nggi nafasdan shishib qolgan ko'krak kabi tepalikdagi vaqtidan ilgari sarg'ayib qolgan dala namoyon bo'ldi. Yasan-tusan qilib olgan bir to'da odamlar, ularning oralarida tiz cho'kib turgan qadimdan yashab kelayotgan kampirlar ham bor, hammalari xira kumush halli jez bilan, kashtalangan sochiqlar hamda dala pechagidan o'rilgan gultojlar bilan yaqindagina bezatilgan, dehqon omborining qoramtil shigiga o'xshagan butxona yoniga to'planib turishibdi. Cherkov bayroqlariga chizilgan jahldor qiyofalar, nayza ko'targan farishtalar uyatini yo'qotgan qorayib ketgan osmonning tubsizliklariga qahr bilan tikilib turibdilar... Ayni shu paytlarda podshohlar sulolasining uch yuz yilligi nishonlanayotgan bo'lib, podshohlar bir-birlarinikiga mehmon bo'lib borayotgan oylar edi, bu yerda, mamlakat ichkarisida esa, qishloq ruhoniysi – aslida zarhal chipta kiygan o'sha-o'sha mujik orasiga qurigan dala gullari aralashgan, so'liyotgan suli poyalariga hafsala bilan muqaddas suv sepmoqda va ularning ostidagi qizg'ish, shishib ketgan, yoriq-yoriq bo'lib darzlangan qumoq tuproqli yerni – podshohlik uchun qaramdorlik solig'i undirish va ma'badlar qurish, qo'shinlar harakati hamda butun dunyoda sharaflangan san'atlar taraqqiyoti, hashamdar Boshkentning bezatilishi uchun va bundan tashqari ozgina bo'lsa ham turmushni yaxshilash – birinchi qichitqi o't, oyboldirg'on, shovul pishib olgunicha ochdan o'imaslik uchun mablag' sog'ish kerak bo'lган manba sifatida muqaddas suv bilan quvvatlantirayotgan edi.

Va chamasi oila boquvchilarning nolalariga rahmi kelganday, usq tomonda osmon ozgina qorayib, go'dakning mushtiday kichkina qora bulutcha o'zining to'dasidan yugurib ajralib chiqdi, keyin olatasir chaqmoqlar bilan o'zini o'zi shishirib, yarim daqiqagini muddat davomida yomg'irini dalaning ustiga to'kdi-da, yorilgan biqini ni yamashga ham sabr qilmasdan, manavilarga o'xshagan boshqa ibodatchilarning huzuriga jo'nab qoldi. Darrovgina kech tushaqoldi va butun qavm to'dasi erishilgan yutuqdan mammun holda quvnab tarqalishdilar.

– Ko‘rdingmi, hech bo‘lmasa ertagacha yetadigan namlikni iltijo qilib yog‘dirib oldik, – yuvoshgina dedi Vixrovga bir kampir, yangagina namlangan o‘tlarni tashnalik bilan iskagan ko‘yi. – Hammalari esa, xudo yo‘q, deyishadi...

– Bu yoqqan suv kamlik qiladi, buvi.

– Bulutcha bittagina ekan, biz ko‘pchilikmiz: hammaga baravardan. Agar hamma odamlar iltijo qilganida, sen bilan hozir yomg‘irga g‘arq bo‘lib ketgan bo‘lardik!

Va Vixrov bu yerdan xalqning qo‘llari ongli ravishda birlashganidagi qudratgacha qanchalik yaqin ekanini keyinchalik juda ko‘p o‘yladi.

Tolib Vixrov oyog‘i tagidagi jingala shuvoq butachasini yokigim uvat etagidagi qatron qoplagan donlari bo‘sh boshoqni qo‘liga olar ekan, ularga qarab turib, modomiki Rossiyani og‘ir, kunduzgi uysusidan uyg‘otish uchun butun olam qo‘ng‘irog‘ini bong urdirishga to‘g‘ri kelar ekan, oxirgi yarim asrda yer yuzi qanday ahvolga tushib qolganini anglashga harakat qilar edi.

8

Yashillik bilan qoplangan janubi-sharqni tezgina aylanib chiqishga ham yoz fasli zo‘rg‘a yetib berdi, – g‘arb bilan esa u bir yildan keyin askarlik shinelida tanishdi. U o‘zi rejalashtirganiday, Kavkaz tizmalaring narigi tarafidagi tobora siyraklashib borayotgan noyob tiss va shamshodzorlarni ko‘rish, Riona vodiysidagi jurjiy dzelkvalarning yo‘qolib borayotgan so‘nggi daraxtlariga hech bo‘lmasa qo‘l tegizib qo‘yish yoki Qora dengiz bo‘ylaridagi qulupnay daraxtini siypalab qo‘yish orzusiga erisha olmadidi. Ammo janub o‘rmonlarining oxirgi qoldiqlarini Buzuluk vohasidan toki Orenburg volgaorti dashtlar chegarasidagi cho‘lga yaqinlik tufayli kamdan kam qarag‘aylar qirq yoshgacha yetb boradigan yerkargacha kezdi. Kemabop daraxtlar o‘sadigan Shipa o‘rmonlarining eng ichkarilariga emanlarning kechki suhabatlarini tinglash uchun kirib bordi, ammo shu yerda, qo‘riqlanadigan hudud yuragida ham, uni arraning hirqirog‘i ta‘qib qildi: Pyotr flotining faxriylari va bevosita yaqinlarini pivo hamda musallas uchun yog‘och xumlar tayyorlash maqsadlarida qirg‘in qilishyapti... Kuzgi shafaqda Bityugadagi Xrenovskiy o‘rmonlarining

mis kabi tovlanayotgan daraxtlaridan zavqlandi – o‘rmonchiga bundan ortiq rohat bormi va Toshli dashtida buyuk insoniy jasoratga ehtirom ila ta‘zim qildi. Qaytish yo‘lida esa u qorli hududlardan o‘rib borarkan, Tula Qo‘riqxonalari yaydoqqa aylanib, unda-bunda omon qolgan daraxtzorlardan boshqalari qo‘porib olingenini ko‘rdi va davlat o‘rmonlari ham xususiy egalikdagi daraxtzorlar kabi qismatga mahkum ekanini angladi... Hamma yerda to‘xtovsiz ishlayotgan arrayu tabar ovozi eshitilmoqda: amlokdirlar Oktabrning yaqinlashayotganini fahmlab qolgan edilar.

Bu – o‘n uchinchi, tinkani quritadigan darajadagi ko‘ngilg‘ashliklar va nimalardir sodir bo‘lishini oldindan sezish yili edi. Xalqning noroziliklari keng quloch yommoqda, korxonalarda ish tashlashlar ko‘payib qoldi, o‘rmonlar keyingi ikki yil davomida to‘xtovsiz gurulab yonishi uchun tutantiriq sifatida daraxtzorlarga o‘t qo‘yila boshladi. Shundanmikan, xalqning yuragida keyingi qat’iy hamla uchung‘azab qudrati to‘planib bormoqda, mamlakat kengliklarini mudroq bir bo‘shliq qoplab oldi va mahkum sinfnинг shoirlari ularda mun-kullagan eskilikni zabit etishga tayyor turgan son-sanoqsiz lashkarlarini ko‘rdilar. Ular xalqning musibatlari yurakdan qaynab-toshib, qattiq siqilgan mushtlarga quyilishiga bir daqiqa qolganda Rossiyaning qop-qorayib ketgan yuziga qarashga qo‘rqadilar. O‘sha turg‘un sokinlik Yevropada ham qaror topgan; Vixrov jimjitlik o‘z-o‘zidan o‘t olguniga qadar kutish kerak ekanini Lena bo‘ylaridagi Valeriyga yozib yubordi.

Urushdan oldingi qishni Vixrov Peterburgda, o‘zining Lesnoydagi uyida, tabiatda o‘tkazdi: uning tasavvurida oqshom-chog‘lari bahoriy tovushlarga noinsoniy cho‘ziq qo‘shiplar qo‘shilib ketadi, – ammo uning mo‘ljallab qo‘yilgan safarga chorlovchi so‘zlarini anglab olishga hamma ham qodir emas edi. Ba‘zan shamolning kuchi bir haftaga pasayib qoladi... va birdan shundayin quvvat bilan kuchayib boradiki, tuproqqa chuqur botgan ishonchli ildizlaring bo‘lmasa, rus tekisliklarida bunday chog‘larda oyoqda turib qololmaysan.

Keyin yozning qaysidir bir kunida ko‘chani kesib o‘tayotgan Vixrovga qozonnusxa shlapa kiygan notanish, semiz gavdali bir odam to‘qnash keldi, og‘zi g‘alati tutaganicha, so‘lak bosgan yoqimsiz mo‘ylablarini uning yuziga bosib, qoshlaridan so‘rib-so‘rib o‘pa boshladi va birinchi jahon urushi boshlangani bilan muborak-

bod etdi. Urush boshlanishidan ko‘p o‘tmay uni qo‘shinga safarbar etishdi; ochig‘ini aytish kerak, u paytlarning urushlari uch dyuyimli zambarak o‘qi etadigan masofa kegayı atrofidagina xatarli edi. Uxlamasdan darsga tayyorlanishlar va darsdan darsga yugurishlardan keyin Ivan Matveich birinchi paytlarda harbiycha taomlardan ancha semirib qoldi, kuzga borib esa, dushman tomonidan emas, balki xoinlik tufayli tor-mor etilgan ikkinchi Samsonov qo‘shini tarkibida Soldauga jo‘natildi. Bu – vaziyat taqozosiga ko‘ra, hayot yoki nomus tanlanadigan, ya’ni ikkovidan bittasi muqarrar yo‘qotiladigan... yoki hech bo‘lmasa muvaqqat bir muddatga aqldan ayrilish evaziga unisiga ham, bunisiga ham ega chiqiladigan harbiy halokatlardan biri edi. Shu uch oy davomida changalzorlarni oralab aqlsizlarcha sang‘ib yurarkan, parvarishlangan Avgust o‘rmonlarining yoshini ham, sifatlilik darajasini ham eslab qolmagani shu bilan izohlanadi. 1915-yilning yozgi Belostok tunida *seppelin* degan sovuq nomdagi ikkita dirjablning shaharga hujumi sodir etilishi Vixrovga odamlarning endi avvalgi sharoitlarda mutlaqo yashay olmasliklarini isbotladi. Ayollar yig‘layotgan go‘daklarini yashirish uchun jonholatda yugurar ekanlar, olmonlarning uchar kolbasalarini tinmay la’natlar edilar: ulardan to‘pponchalarda o‘q uzishar edi va turlicha ajalvor narsalarni pastga tashlashardi, shuningdek urushning noinsoniy yangicha qurollarini metall nayzachalarni otar edilar – ular anqov odamning boshiga tekkach, suyakni teshib o‘tib qurbanning miyasiga joylashib olardi... Gumburlash jo‘rligidagi olovli portlash Vixrovning kapitalistik tamadunning omonatligi to‘g‘risidagi fikrlarini tarqatib yubordi; u tizzasi chidab bo‘lmas darajada qattiq og‘rigan holida gospital katida uyg‘ondi, bu og‘riq oldida butun dunyo hech narsaga arzimay qolgandi.

Uch oy o‘tib, Vixrov kasalxonadan chiqdi, ammo u endi 27-diziviziyaning 108-Saratov piyodalar polki oddiy askari uchun shart bo‘lgan zanjir bilan yugurish yoki boshqa jismoniy mashqlarni bajarishga qobil emas edi; uning jarohati diplom ishini muvaffaqiyatli yakunlab olishiga imkon berdi, natijada u o‘zining qadrdon muzofotida, Krasnovershyedan o‘n besh chaqirim narida o‘rmonchi lavozmiga doimiy ishga keldi...

– Mana, – dedi o‘ziga o‘zi, ovoz chiqarib, hayotining birinchi, yakunlangan bosqichini mushohada etishga harakat qilib. – Favqu-lodda qiziqarli. Xuddi shunaqangi.

Birinchi yakshanba kelishi bilan u uyiga, Krasnovershyega yo‘l oldi, xabar olib qo‘yish uchun. Tog‘lar xuddi ancha tekislanib qolganday, yo‘llar ham qisqarib, to‘g‘riroq bo‘lib qolgan. Zapoloskov qishloq yo‘li yosh o‘rmonchini tavakkaliga, xuddi ora-orada to‘kilgan tishlar kabi ba’zi joylardagilari tashlandpiq bo‘lib qolgan, nag‘alsimon joylashtirib qurilgan pastak imoratlarga olib chiqdi: «Salom, bolalik». Vixrovlarning tambalab tashlangan kulbasining atroflarini rosa zinchashib o‘sgan qichitqi qoplabdi, ostonaning chiringan taxtalari orasidan ham o‘tib, har tomonga shoxlab yotibdi. Uyni ko‘zdan kechirib bo‘lgach, Ivan Matveich keyingi qo‘shni kulbani taqillatdi, o‘smir qiz yog‘och tovoqda suv olib chiqdi, uning ichida mahalliy usta ishlagan yog‘och cho‘mich qalqib turibdi; suvni yoqasidan to‘kilib oqquncha miriqib ichdi... Gap orasida shuni bilib oldiki, Taisiya Krasnovershyedagi navbatdagi katta yong‘indan keyin Shixanov Yamga ko‘chib o‘tgan Zolotuxinning uyida cho‘rilik qilayotgan ekan. Qizning so‘zlariga qaraganda, cholning urushda bedarak ketgan Demidkadan boshqa hamma o‘g‘illarini janglarda halok etishganidan so‘ng u butkul *qurib qolibdi*. Odam ovoziga dahlizdan qop-qora bir kuchukvachcha chiqib keldi. Uni bir marta bo‘lsayam akillatish uchun Ivan Matveich qo‘lidagi cho‘p bilan g‘ashiga tegishga behuda uringani qoldi: kelgindi masxarabozga ensasi qotib qaraganicha, kuchuk nari ketdi.

Otini so‘nalar bezor qilib yuborishdi, va umuman uning bu safarini rejalashtirishiga sabab bo‘lgan uchrashuvni kechiktirish ham uning irodasidan tashqari edi.

– Sen bizlarda yashaganmisan? – xayrlasha turjib so‘radi qizgina quyosh nuridan ko‘zi qisilib. – Seni eslolmadim, amakjon!

– Hali kichkinasan, – nasihatomuz kului Ivan Matveich. – Ilgari bu yerlarni o‘rmon qoplab yotardi, olmaxonlar tomlar osha yugurib yurishar edi!.. – Men o‘zim ham bir kun kelib Oblog xalq afsonalari uchun mavzu bo‘ladi deb o‘ylab yurardim.

– To‘qib tashlayapsan-a? Necha yildan beri yashayotgan bo‘lsam, bu atroflarda daladan boshqa hech narsa bo‘lмаган.

– Demak, men ham bo‘lмаганман... – tushunarsiz tasdiqladi Vixrov va oqsoqlanganicha otini o‘rmon tomonga yetaklab ketdi.

Aziz mehmonining kelishiga tabiatning o‘zi ham to‘nkalarni chiritib, o‘tlarni tarab qo‘yishga ulguribdi. Kalina yashagan joylar-

ni taxminan bo‘lsa ham aniqlash uchun do‘ngliklarni rosa oralashiga to‘g‘ri keldi. O‘rmon kesilgan joylar va buloq atrofi yong‘oqzorlar bilan qoplanibdi, oldinda sirli ko‘kish tusda ko‘zga tashlanib turgan Yalanglikdan tashqari hamma narsa uning uchun yarim begonaga aylanib bo‘libdi. Xuddi mana shu yerdan Shixanov yo‘li o‘tgandi, ular yigirma yillar muqaddam Demidka bilan xazina izlashni shu yerdan boshlagan edilar. Ivan Matveich hissiyotga berilib ketib, Kalinani ovoz chiqarib chaqirishiga bir baxya qoldi: bu istakka yuz sahifalik shoirona tuyg‘ular muqaddima bo‘lgan edi. Uning go‘l ko‘r kabi hasasini ikki marta yo‘qotishiga nimadir xalaqit berib turardi, – balki o‘simplikzorlarni to‘g‘ri bosib o‘tayotgan chorvaning tuyoqlari ostida gi qasirlashlardir.

... Shixanov Yam yo‘li Yalanglikning Sapegin mulklari qismidan o‘tar edi. O‘sha-o‘sha ignabargli malla pahlavonlar har tomonga shoxlab ketgan, ba’zilari daraxt umrining oxirigacha yetib kelgan. Ba’zilari qari chollarga o‘xshab, bir-birini qo‘ltiqlagan, boshqalari tanasi singan paytida bir-biriga suyanib qolib, arklarni hosil qilgan, ammo ko‘pchiligi o‘zining barzangilik burchini vijdonan bajarganicha, osmonga ustun bo‘lib turishibdi; ularning oyog‘i ostida hamma narsa pakana bo‘lib ko‘rinadi. Mayin nordoncha gilamlari, pishish arafasidagi brusnika, qirqulokkapa hosil qilib o‘sgan qirquloklar ko‘zga tashlanadi, ular yosh bolaning ko‘ziga qo‘rquvning va zavqning zo‘ridan turli bezarar mavjudotlar shaklida namoyon bo‘lar edi. Endi esa o‘rmonchi uchun atrofdagi hamma narsa tuproqning belgilari va uni manzil tutgan o‘simplik organizmlarining sanoat si-fatiga aylangan edi, xolos... Xullas, bu pishib-yetilgan, qarovsiz, qu-rigan dov-daraxtga boy brusnikazorlarga kon, qaysidir ma’noda rus o‘rmonlarini qirg‘in qilishning qizg‘in davrida noyob moziyoh edi.

Amlokning ahvoli o‘z egasining xasis va beparvo ekanini ko‘rsatib turibdi, – mavridi bo‘lib qolsa uning qo‘rg‘oniga borib, bu namunali maxluqni ko‘rib qo‘yishga qaror qildi... Kunduzgi uyqu uni quvib, yetib oldi va otning ustidan ag‘dardi va rosa ikki soat davomida yangi o‘rmonchining tepasida muzday yashil ko‘l to‘lqinlanib turdi, keyin uni kechki salqinlik uyg‘otib yubordi. Depara bilan tanishish Shixanov Yarga borish bilan yakunlandi. Qora shuhratga burkangan qishloq Yalanglikning davlatga tegishli yarim doira qismida, Gorinka qirg‘og‘i bo‘ylab joylashgan, daryoda baliq ko‘p emas-ku, ammo

qishloqning o‘zi o‘tlari o‘riladigan kengliklarning go‘zal manzarasi-
ga qaragan. Bu barcha hashamdon, nuqul ikki qavatli, tomlari tunuka
bilan yopilgan koshonalar ikki yuz yil davomida uch ot qo‘shilgan
jo‘natma yuborish arobalari, savdo sotiq pullari, aslzodalarining
mehnatsiz topilgan daromadlari yuklangan markablar o‘tib turgan
katta yo‘lga yaqinligi bilan izohlanar edi. Zolotuxinning muassasasi
qishloqning chekkasida joylashgan edi: xo‘jayinning xonasiga olib
kiradigan yo‘lakning ubti yopiq zinasi yonida barg qurtining to‘rlari
qoplagan, qo‘rquinchi arvohga o‘xshagan ikkita qiyshiq-qing‘ir shu-
murt butalari o‘sib turibdi. Ot bog‘lanadigan qoziq atrofida tovuqlar
to‘kilgan sulilarni cho‘qilash bilan band va yog‘och oyoqli bir askar
supachada o‘tirganicha, podachilar qamchiniga ot yolidan to‘qilgan
tilchani biriktirish bilan ovora, u shunaqangi jahldor va alamzada edi-
ki, go‘yo shu qamchiga o‘zining butun dunyodan yashirin diydiyosini
qo‘shib bog‘layotganday edi. Ivan Matveich bo‘m-bo‘sh mayxonaga
ko‘tarildi, ammo tozaroq qismiga o‘tmadi, shundoqqina kiraverish-
dagi eng yaqin turgan, ustiga kleyonka yopilgan miz yoniga o‘tirdi.
Unga bir hovuch teshikkulcha, ikkita qovurilgan tuxum, bir bardoq
xiragina choy keltirishdi – o‘zları aytganlariday *urush* tufayli, qand
o‘rniga teshikkulcha tishlanarkan. Opasi bilan ko‘rishish rejasi amal-
ga oshmadi: uni aravaga o‘tqazib, kerosin olib kelish uchun Loshka-
ryovga jo‘natishibdi.

O‘n oltinchi yilning yoz fasli, taxminan soat yettilar. Har doim
falokatli yillarda bo‘ladiganiday, tushkun bir jimlik hukmron – bo-
lalar kulmay qo‘yishgan, itlarning akillashi eshitilmaydi. Ochiq de-
raza oldidagi ish mizi yonida qoqsuyak chol o‘tiribdi, Zolotuxinning
o‘zi. Soqolini kaftida ezg‘ilib, katta yo‘lning notekis joylarda birdan
g‘oyib bo‘lib, so‘ng yana paydo bo‘lgach, uch baravar torayganica
g‘arb tarafga yugurib ketayotgan tunganmas tasmasiga tikiladi.
Yo‘l hozir butkul kimsasiz, boshidan oxiriga qadar biror markabdan
ko‘tarilgan kichkina chang bulutchasi ham ko‘rinmaydi, bittagina
qo‘ng‘iroqcha ovozi ham qahat. Shafaqning shirinkulchasi qiyomiga
bo‘ylagandal qip-qizil borliqda hamma narsa nimanidir intiq kutadi:
dalalar – yomg‘irni, mayxonachi – ayrilgan o‘g‘illarini, Vixrov –
ozodlikning har qanday yangiligini. Ammo yangi asr o‘n yetti yil-
ga kechikib kirib keldi. Aynan o‘sha bo‘ron arafasidagi yilda Ivan
Matveich uchun muhim hodisalar sodir bo‘ldi.

BESHINCHI BOB

1

Olmon hamlasining dastlabki muvaffaqiyatlari 1941-yilning yozi-dagi siyosiy vaziyatlarning baxtsiz taqozosi edi xolos, ular urushning yakunini belgilab bermasdi, ammo har holda birinchi bo'lib hujum qilishga ulgurgan tarafning sovet kengliklariga chuqrur kirib borishi-ga imkon yaratib berdi. Uning umumyevropa qudrati cho'qqilaridan bu iskanjasiga tashlanishida qandaydir xudkushlik qat'iyati bor edi. Iyunning erta tongida Rossiyaning sarhadlariga bostirib kirgan olmon qo'shini xuddi Napoleon lashkari kabi sinalgan Smolensk yo'li orqali o'z halokati sari harakatini boshladi. G'arbdagi yengil harbiy yutuqlar o'sha davr olmonlarining tevarak dunyoga, shu jumladan sharqiy qo'shnilariga, uning tarixiga, milliy fe'l-atvoriga, uning turmush tarzidagi siyosiy o'zgarishlarning mazmuniga nisbatan tug'ma qiziqishlarini bo'g'ib qo'ygandi. Olmon fashizmining yo'qotishlari frontning kengayib borishi sayin o'sib bordi o'z yakuniga yaqinlasha boshladi. Dushmanning kuchli bosimi sharoitlarida sovet harbiy rahbariyati oldida qanday qilib bo'lsa ham yovning shiddatini to'xtatib turishdan iborat vazifa turar edi. Mag'lubiyat alami va tarixiy xatarni anglash hissi partizanlik nafratini yuzaga keltirdi va shu damdan boshlab, olov qoplagan rus qishloqlarini bo'ysundirish yovga g'arbdagi ba'zi qal'alarmi sotib olishidan ko'ra qimmatroqqa tushdi. Sovet ellari o'z tuprog'idan tashqari, eng uzoq avlodlarga ham tegishli qadriyatlar himoyasiga otlangan muqaddas xalq urushi shu zaylda boshlandi.

O'z g'azabining tig'ini dashman rus Boshkentiga qaratdi. Bu shahar unga butun dunyoga egalikning yakuniy pog'onasi bo'lib tuyuldi, go'yoki uni istilo etish katta tarixning yo'nalishini burib yubora ola-diganday. Moskva unga har qanday holatda, o'lik bo'lsa ham, vayrona holida bo'lsa ham zarur edi: o'lja qanchalik ko'p qonga belangan bo'lsa, yovvoyining ko'z oldida shunchalik ulug'ver ko'rindi. Ammo garchi dashman bombardimonchilari bo'linmasi qorong'ilarshtiril-

gan shaharga uchmagan tunlar juda oz bo‘lsa-da, Moskva hech narsaga qaramasdan, zararlanmay qolmoqda... urush asoratlaridan biroz kulrang tus olgan, xonadon egalari uzoq vaqtga tashlab ketgan uyni ham chang qoplaydi-ku. Boshqa jihatlardan Boshkent ilgarigi to‘liq hissiyotlari bilan yashamoqda, faqat spektakllar havo hujumi xabari tufayli uzilib qolmoqda, shatranj musobaqalarining ishtirokchilari va tomoshabinlari esa biqinlariga gazga qarshi vositalarini ilib olishgan. Kuz yaqinlashib kelgani sayin harakatlarning avvalgi tartibsizligi hamma joyda aniq va yo‘lga qo‘yilgan amaliyotlar bilan almashindi. Keng ko‘lamli sanoatga millionlab yordamchi qo‘llar ko‘makka cho‘zildi, temiryo‘l depolari rejadan tashqari zirhli poyezdlarni tayyorlashdi, ma’danli suv ishlab chiqarish korxonalari endi qudratli minaotarlarni ishlab chiqarishmoqda, askar xotinlari tanklarga qarshi minalarning qutilarini tayyorlamoqdalar.

Moskva harbiy turmushga ko‘nika boshladi, tungi navbatchiliklar esa ish kunining tartibidan mustahkam o‘rin oldi. G‘ira-shira qo‘rongo‘ilik tushishi bilan Polya biror undovlashsiz Varya bilan birga tomga ko‘tarildi, bu vaqt ichida ikkovlari ham barqarorlashtirgichi qizib ulgurmasidan, issiqlik yongichlarini qo‘lqopsiz uloqtirib tashlashni o‘rganib olishdi. Yaqinlashib kelayotgan urushning qip-qizil yolqinida Moskva atrofidagi yo‘llar qizlarga sakkizinch qavatdan yaxshiroq ko‘rinadi. Ehtimol, qayerlardadir hassaga tayangan, qo‘lida tuguni bilan Pavel Arefyich sharqqa ketib borayotgandir, arava ustida esa shifoxonaning ashqol-dashqollari bilan qochqinlar to‘dasining oxirida Polinaning onasi ham ketib bormoqda. Ammo kunlar o‘tib borarkan, Varyaning otasi ham, Yelena Ivanovna ham qizlarini quchish uchun Blagoveshshensk berk ko‘chasida paydo bo‘lganlari yo‘q... Lekigin Varya bilan Polya hujum oldidagi tungi soatlarda o‘z yaqinlari uchun, yokigim o‘zlarining shaxsiy xavfsizliklaridan qo‘rqish emas, balki qadrdon mamlakatlariga tahdid solayotgan ulkan xavfga nisbatan o‘zlarining kamtarona sa’y-harakatlari nomutanosib ekanini anglash hissidan g‘ashlikda edilar. Har kuni gazetalarda jangchilarining jasoratlari haqida ma’lumot berilib, qahramonlarning suratlari ham berib borilmoqda; ularning ko‘pchiligi yoshlar, ikki dugonaning tengdoshlari bo‘lib, komsomol tarbiyalanuvchilari edi. Har safar hisobotlarni o‘qigach, qizlar ko‘zlarini yuqori ko‘tarmasdan jim o‘tirib qolishardi. Va ertalabki choyxo‘rlik, qandsiz bo‘lsa-da, ular-

ga fuqarolik jinoyati bo'lib tuyulardi, insonning tabiatini uchun shunchalik notabiyi jinoyatki, hatto harbiy taqiqilar ro'yxatida eslatib ham o'tilmadi... Yaqin atrofdagi fabrika yaslilaridagi maoshsiz va ixtiyoriy ishlar ularning tushkun ahvollarini yengillashtira olmasdi.

Bu bombardimonlardan oldin, Moskva ikki tomondan safarbar etila borib, sezilarli bo'shab qolayotgan paytdan boshlangan edi. Bitta muhofaza marrasining o'zidan, yuz o'ttiz yil muqaddam bo'lgani kabi, xalq ko'ngilli bo'limmalari va yoshlari jangga – mudofaa istehkomlarini barpo etishga yo'l oldilar, boshqa taraflardan esa – vokzallardan, korxonalarining uskunalariga va moskvalik bolalarga to'la eshelonlar yarim qamaldagi Boshkentda yuz berishi mumkin bo'lgan turli tasodiflardan himoya sifatida Ural orti ovloqliklariga yo'l olmoqda. Endi kichik bolalarni liq to'la avtobuslarda olib ketishdi va shahar ko'zini qisib, ularning ortalaridan uzoq vaqt tikilgan holda xuddi yomg'ir paytida jimb qolgan chumchuqlar kabi unsiz ketayotgan mittilarni kuzatib qoldi... Lekin bu ayriliq barcha judoliklar orasida eng yengili ekanini hamma tushunib turardi...

Faqatgina pastda, 8-a uyning derazalari tagida, xuddi ilgarigiday, bolalarning ovozlari jaranglaydi, bundan esa, frontdagi vaziyat yaxshi tomonga o'zgarayotganiga, va endi Davlat Mudofaa Qo'mitasining bolalarni mamlakat ichkarisiga ko'chirish to'g'risidagi qarori Blagoveshshensk berk ko'chasigacha yetib kelishga ulgurmasligiga umid uyg'onadi. Lekin bir kuni, avgustning boshlarida notinch tundan keyin Varya go'yoki keskin o'zgargan vaziyat siltovidan uyg'onib ketdi. U ko'ylagini yechmay yotgani uchun uyg'onishi bilan deraza yoniga borib tashqariga qaradi, ammo u yyerda havo uchun xavfli bo'lgan hech narsani ko'rmasdi. Uni uyg'otib yuborgan narsa kun bo'yi Varyani bayramona tetiklik va ishonch, nimalarningdir mo'l va yetarli ekan hissiyoti bilan to'ldirib turgan bolalarning har kungi bijirlashlari to'satdan eshitilmay qolgani edi.

Varya o'z fikr-xayollari va tubsiz osmon bilan yolg'iz qolgan zahotiyog Yengadagi bir o'rmoncha uning xayoliga keldi, to'g'rirog'i – uning yolg'iz o'zigagina ma'lum bo'lgan, o'rmonning plaun bilan qoplangan bir burchagi, zero loshkaryovlik boshqa yoshlari sayr uchun daryo ustiga qarag'aylar osilib olgan, katta jarlik yaqinidagi burunni ma'qul ko'rар edilar. Uning dugonalari yigitlar bilan shivirlashishga yoki sovqotgan qo'llarini qovushtirganlaricha nozli sayrga

yo'l olganlarida, Bobrinin ham har safar yangi ilashtirib olgan boshqa qiz bilan ovloqqa yetaklashib kirib ketgan paytda, – ammo Varyani hech qachon! – Varya sezdirmaygina g'oyib bo'lib qolar va qarag'ay-zor orasida yashirin qolgan yalanglikka borib, qo'llarini keng yoyganicha, yerga chalqancha tushib yotar va shu holatda bir o'zi, ulkan va qo'pol gavdasi bakenchi Ilyaning eshkaklari ikki tarafga yoyilgan qayig'idan farq qilmasdan, o'z tepasidagi osmonga tikilib, osmon uni xuddi ona kabi bag'rida tebratishni boshlagunicha shu vaziyatda yotaverardi... Uning tasavvurida jonlangan manzarada – xuddi o'sha joyda boshqa odam yotibdi, badani iliq, uni hatto osongina tanib olish ham mumkin, hatto ko'zlarini keng ochib yotibdi, ammo ayni vaqtida u murdaga aylangan, yuzida chumolilar o'rmalab yuribdi va ko'z qorachig'inining xiralashgan muguz pardasi tomon yo'nalyapti, o'likka esa endi baribir. Varya chayqalib ketdi va nimanidir derazaning tok-chasidan jaranglatib tushirib yubordi. Polya uni yyerda cho'kka tu-shib buklangan, yuzini tizzasiga bosgan holatida ko'rdi.

– Senga nima bo'ldi, Varyajon?

– Menga tegma... hozir o'tib ketadi. Pastga qaraganimda boshim aylanib ketdi.

Polya Varyaning qo'llarini yuzidan ajratishga behuda urina bosh-ladi.

– Bir qultum suv ichib ol. Men uyqisirab, yana uchishyapti deb o'ylabman... Soat necha bo'ldi?

– Soatim to'xtab qolibdi. Suvingni nari ol. Hali vaqt erta, bugun yakshanba... uxla.

Polya dugonasidan ko'zlarini uzmay ayvonchaga yaqinlashdi, ammo u yyerda endi hech narsa yo'q edi: Yengadagi o'rmoncha ham, o'lib yotgan Bobrinin ham; oldinda faqat yengil, ko'm-ko'k, shaf-qatsiz osmonning bepoyon kengliklari ko'rindi, xolos. Tuni bilan ti-niqliq va kuzgi shivit isiga to'yingan havo shu qadar shaffof ediki, komendantlik soqchilari otlarining tuyoqlaridagi taqalarning chaq-chaqi sakkizinch qavatga ham bemalol eshitilib turibdi. Yozning evrilish pallasi hamma narsada namoyon bo'lmoqda, ammo hammasidan ham ko'proq, teraklarning chang bosgan, quruqshagan barglari-da... Polya birdan hamasini tushundi – pastdag'i bolalar maydonchasi bo'm-bo'sh edi, va har tong Varyani uyg'otuvchi baqiroq *barkash-*

non, hozir undan farqli ravishda Polyaga hayotning eng ilhombaxsh simfonik asari bo‘lib tuyuldi.

– Agar bilsang, bu judayla yomon, – fikrini aytdi Polya kecha yuvib qo‘ygan ko‘ylagini arqondan olayotib.

– Nima yomon... nima?

– Frontda. Temir yo‘llarda nimalar sodir bo‘layotganini tasavvur etyapman: faqat bolalar, bolalar... va ularga peshvoz kelayotgan temir. Demak, *bu* uzoq davom etadi, aks holda *ularni* olib ketmagan bo‘lishardi.

Bu orada Varya o‘zining qo‘rquvini yengib ulgurdi:

– Albatta, yarim yilga emas... lekin, yo‘q; umrbodga ham emas.

Hech yoqqa shoshmasdan kiyinishdi; shu bir yarim oy ichida birlariga shunchalik o‘rganib ketishdiki, hatto kallalariga ham bir vaqtida bir xil fikr keladigan bo‘lib qoldi. Binobarin, ikkovlari ham yaslining ko‘chirilishi munosabati bilan endi hatto tushlikkacha uxlاب yotishlari mumkin ekanini o‘ylab qoldilar... Devor ortidan ularga bola kulgisi eshitilganida, qizlar oxirgi qandpopukni olib, baravariga o‘sha tomon yugurishdi: quvonchlaring evazini to‘lash uchun.

Ular yanglishibdilar, Natalya Sergeyevna yo‘lga deyarli tayyorlab qo‘yilgan nabirasiga xayrlashuv nonushtasini berayotgan ekan. Qizcha shu choqqacha hech qachon hozirgiday quvnoq ko‘ringan emasdi. Ular yaqindagina hayvonot bog‘iga borib kelishibdi, Zoyajonga hammasidan ham pashshaga jahl qilgan arslon yoqib qolibdi. Buvisining bu eski qarzini xonodon istiqomatchilari yaxshi bilishardi, moskvalik ayollarning yirtilgan paypoqlari ko‘pligidan uning to‘lovi shu payt-gacha ortga surilib kelgandi. Qo‘lida ko‘zgucha bilan katda o‘tirgan qizaloq, quyoshning shishadagi aksini buvisining og‘ziga qaratib, o‘zining omadidan jarangdor kulib quvonadi... buvisi bu nur quyonchasini tutib olishga intilishida, u esa arazlamasdan chap berib qochib qolishida va yana uning yuzida sakrab o‘ynashida o‘sha sherning pashshaga tashlanishiga o‘xshagan nimadir borday edi go‘yo.

– Sen quvnoq daryo bo‘ylab chiroyli kemada ketasan, – deydi shu orada Natalya Sergeyevna, bo‘shab qolgan yog‘ idishidan oxirgi keta balig‘i uvuldiriqlarini terib berar ekan. – Har tun yangi joyda uxlaysan, keyin baland yashil tog‘ etagidagi oppoq uyga yetib borasizlar. Minglab dugonalaring bo‘ladi, sizlarga dunyodagi eng yaxshi qo‘shiqlarni o‘rgatishadi... – Shu joyida qizcha o‘zining qandaydir tushunmagan

narsasini so‘radi va buvisi bunday lahzalar uchun notabiyy bo‘lgan bir xotirjamlik bilan, yo‘q, faqat betob bo‘lib qolgan kemalar garajda ugraydilar, sog‘lomlari esa xuddi urushdagi odamlar kabi ochiq havoda tunu kun ishlashadi, deya javob berdi. – Kiraqolsanglar-chi, endi... biror shoshilinch ishingiz bormi, qizlar? – dedi u chala ochiq eshik ortidagi shitirlash takrorlanganidan keyin g‘ijinib.

Dugonalar Natalya Sergeyevnaning xonasida hech qachon bunday besaranjomlikni ko‘rmagan edilar: qishki buyumlar yerda sochilib yetibdi, derazadagi kechadan beri sug‘orilmagan yorongul so‘linqirab turibdi, ehtimol kichik bekasi bilan vidolashib qolayotgani uchundir. Varya o‘zining bu kelishini yer ishlariga jo‘nab ketayotgani uchun xayrashuv tashrifi deb muvaffaqiyatlizohlab berdi. Qo‘shni ayol biroz yumshadi, o‘tirishga taklif etdi, – Polya Varyaning yonida, orom-kursining suyanchig‘iga cho‘kdi. Eski odatiga ko‘ra, qiyamasiga darz ketgan kurrasimon shakldagi ko‘zguga ko‘zini qisibroq qaradi, u yerdan unga yana o‘sha ikkovlon – bir xil ahvoldagi, ozib ketgan, ammo hozirda moskvaliklarga aylangan dugonalar qarab turishar edi, Polya o‘zining yuzidagi kulgili qishloqilik asari nihoyat o‘chib ketganidan quvonchda edi.

– Siz Zoyajon bilan birga ketyapsizmi? – so‘radi Varya qo‘shnisidan.

– Yo‘q, men Moskvada qolyapman.

– Men shuning uchun so‘rayapmanki, haligi... siz o‘zingizni Moskva xatarlarida qoldirishingizga hojat yo‘q, ulardan osongina qu tulib ketishingiz mumkin.

– Men o‘tmishda shunday narsalarni ko‘rganmanki, o‘rtoq Chernetsova, oldinda shunchaki oddiy ermaklar qolgan, xolos, – jilmayib qo‘ydi Natalya Sergeyevna. – Urush nomlik bunday katta ishda hatto qari kampirga ham munosib yumush topilmasligi mumkin emas... mendan shu narsani ham tortib olmang! Bundan tashqari, mening yaqinlarimdan frontda hech kim yo‘q, bu esa yaxshi emas. – Va dugonalar safarga jo‘nab ketishganida ularning xonalaridan xabardor bo‘lib turishni taklif etdi, bundan tashqari, urushga jo‘nab ketgan o‘nlab istiqomatchilardan ham shunday topshiriq olib qolgan; ayrimlari hatto maishiy to‘lovlarni to‘lab turishi uchun pul ham tashlab ketishdi, tilxat yozib berish evaziga, albatta... va to‘satdan, ovozida sovuq bir ohang bilan qo‘shib qo‘ydi. – Xullas, oilaviy

kengashimizda men va nabiram ajralishga yakuniy qaror qabul qildik... muayyan bir vaqtga.

– Buvisi yonida bo‘lmasa Zoyajon zerikib qoladi-ku, – dedi Polya qizchaning jingalak sochlari orasiga kirib o‘ynayotgan quyosh nurlarining jozibasidan zavqlanib.

– O, unday emas... u yerda mensiz ham yaxshi bo‘ladi. – Natalya Sergeyevnaning fikriga ko‘ra, keksalarning o‘z yaqinlariga haddan tashqari qattiq bog‘lanib qolishlari suyuklilari uchun ortiqcha mashaqqatga aylanishi mumkin. Bundan tashqari, oxirgi yarim yilda uning ko‘zлari shunchalik xiralashib qoldiki, agar buyurtmalarning miqdori shundoq ham o‘z-o‘zidan kamayib ketmaganida bu ishdan voz kechmoqchi ham bo‘ldi; o‘z vaqtidagi ayriliq qizchani odam-zotning yemirilishini ko‘rishdan xalos etadi, keyinchalik esa boshqa achchiq va tinkani qurituvchi noxush majburiyatlar ham barham topadi. – Zaif ko‘zlarim bilan yuzingizdan ko‘rib turibmanki, siz meni ma‘qullamayapsiz, to‘g‘rimi, azizam o‘rtoq Chernetsova? Odadta ularning tez-tez bo‘lib turadigan mavhum mavzulardagi bahslari shu tarzda boshlanardi. Varyaga o‘zga asrdan va begona muhitdan qolgan bu qattiqqo‘l, kamgap ayolning ko‘pgina jihatlari yoqar edi, lekin nima uchundir bu kampirning har bir mushohadasi qizning ongida ziddiyatli fikr-mulohazalarini uyg‘otardi.

– Bu mutlaqo noto‘g‘ri fikr, – shu zahoti sapchib qoldi Varya. – Sizningcha, ota-onalar keksayganlarida o‘z farzandlaridan non umid qilmasliklari lozim... shundaymi? Ammo insonga hech narsa tekinga berilmaydi, ayrim majburiyatlarni ularga bolalik chog‘laridan o‘rgatish kerak. – U hatto o‘z ixtiyorlariga top-toza, yovuzliklardan xoli musaffo dunyoni shunchaki osongina, huquqiy vorislik tartibida emas, balki otalarning tinimsiz mehnatlari mahsulini avaylash va ko‘paytirish majburiyati bilan oladigan keyingi avlodlarni misol keltirdi. – Bu aytayotganlaringiz noto‘g‘ri va ochig‘ini aytganda ular uchun zararli ham... O‘zingizning muqaddas huquqingizdan voz kechmang, Natalya Sergeyevna, axir ularni himoyalash uchun hatto ayovsiz qonunlar ham yaratib qo‘ylgan!

Jizzaki, yosh vaadolatparast, lekin farzandsiz qizga bosh silkib va iljayib, Natalya Sergeyevna nabirasining buyumlarini yopqichiga kuchukchaning tasviri kashtalangan dag‘al bo‘z matoli tor yo‘lxaltaga joylar ekan, bu mittigina mayin buyumlarning har birini ataylab uzoq

vaqt barmoqlari orasida tutib turar va ularni go‘yo qo‘llarining xotirasida saqlab qolmoqchi edi. U Varyaga javob qilib, qonunlarning ichida eng oliylari – yurakka yozilganlari, anglash mumkin bo‘lganlari ekanini aytdi; jamiyatda o‘shandoq qonunlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, uning ma’naviy darajasi ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Aynan shu bois ham, o‘rtoq Chernetsova bo‘lg‘usi muallima sifatida o‘z tarbiyalanuvchilari ongiga asosiy fuqarolik ezguliklarini nafaqat singdirishi, balki ongsiz ehtiyojiga ham aylantirishi kerak... vatanga bo‘lgan sevgi, keksalarga hurmat, sotsialistik boyliklarni egalarcha avaylash.

– Albatta, Varya, hamma narsa shaxsiy ta‘bga bog‘liq... ammo men hech qachon sovet sudining himoyasiga muhtoj bo‘lmamasam kerak. Mening Zoyaginamning mulkini sotishdan tushgan biror tishlam luqma ham baribir tomog‘imdan o‘tmagan bo‘lardi! – so‘zini tugatdi u va uyg‘otkichli soatga xavotir bilan qarab qo‘ydi.

Gapning bu tomonga o‘zgarib ketishini Varya hatto tasavvur ham qilgan emasdi.

– Jo‘nash vaqt bo‘ldimi? – kampirga ehtirom bilan boqqanicha o‘rnidan ko‘tarildi.

– Yo‘q, o‘tiravering. Ixtiyorimizda hali naq yetti daqqa bor. Zoyaginam bilan kemabandda xayrlashib olishga ulguramiz. – Varyaning keyingi e’tirozlar uchun kuch yig‘ib olishini kutmasdan, uning dugonasiga yuzlandi: – Siz otangiz bilan ko‘rishdingizmi... hech bo‘lmasa uning haqidagi fikrlaringizni tasdiqlab olish uchun?

– Boruvdim, lekin uyda yo‘q ekan, – qizarinqirab tan oldi u.

– Albatta, uchrashing. – Chamsi Zoyanining hozirligi uni samimiylikka undayotgandi. – U haqda menga ma‘lum bo‘lgan hamma tafsilotlarga qaramasdan, sizning otangiz menda hurmatli inson va sofdil olim sifatida taassurot qoldirgan.

– Siz uning asarlarini o‘qiganmisiz? – shoshqaloqlik bilan so‘radi Polya.

– Yo‘q, lekin... o‘tgan safar aytganimday, men bir necha marta anavi bilan... uning raqibi bilan uchrashganman. Bundan tashqari, men... tasodifan, u bilan bombardan saqlanish joyida suhbatlaringizni uzuq-yuluq eshituvdim. Afsuski, batafsilroq so‘zlab berishga fursatim yo‘q, ammo dadangizning tanqidchisi voqelikni aslicha ko‘radiganlar emas, balki o‘zlarining shubhagar va... doim ham xolis bo‘lмаган табиатларда аks etган бузуқ holatda talqin etadigan xudbin hakam-

lar toifasiga kiradi. Bundaylar xolis hukm chiqarishga qobil emas va qariganlarida o'zlarining xatolari va qilmishlari uchun shafqatsiz evaz to'laydilar. To'g'risini aytganda, sizning oldingizda havas qilarlik darajadagi to'g'ri yo'l turibdi, Polya... siz zulmatlarda mavjudlik maqsadlaringizni paypaslab izlamaysiz va bizning ayrimlarimiz kabi yiqilib, qoqilishingizga to'g'ri kelmaydi. – U hamma gaplarini eshikka tikila turib aytdi va chamasi, o'zining sirli shamalarini yumshatish uchun Polyaga otasi haqida shoshilinch xulosa chiqarmaslikni maslahat bermoqda edi, chunki bunday gumonlar mulohazasiz ishlarga olib kelishi va odamlarga bo'lgan ishonchingizni sindirishi mumkin.

– Bularning hammasini to'g'ri aptyapsiz. Yiqilish ham har xil bo'ladi, ba'zan bir umrga majruh bo'lib qolish ham mumkin, – ma'qulladi Polya o'rinsiz, chunki Natalya Sergeyevna bir vaqtning o'zida o'sha odamni qandaydir eski, kechirilmagan qilmishi uchun o'z oldida oqlashga ham, jazolashga ham urinayotganining boisini tushuna olmayotgan edi, Varya ham Natalya Sergeyevnaning tinmay eshikka tikilishidan kimnidir sabrsizlik bilan kutayotgani va o'sha odam hadeb kelavermagani uchun bu ayolning ko'z o'ngida qadrini yo'qotayotganini taxmin qildi.

– Mana bo'ldi. Endi tayyorlanaver, Zoyajon, vaqt bo'ldi, – dedi qo'shni va yon tomoniga sirlangan bandli bardoq ilingan yo'llxaltani qizchaning yelkasiga kiygiza boshladи.

Qizlar ko'chirilayotgan moskvalik bolalarning so'nggi guruhi ni kuzatish uchun yo'lga tushishdi, ammo hammasi juda erta tugadi va o'sha jazirama bekorchi avgust kuni Polinaning xotirasiga qattiq muhrlanib qoldi. Xayrlashuvdan so'ng bo'shab qolgan uyga qaytgilari kelmadи. Ular shaharni kezishga yo'llanishdi, Boshkentning eng asosiy maydonlarida bo'lishdi, Pushkinni ziyyarat qildilar va shoir ularga boqib turadigan nuqtani topishga harakat qilishdi; beso'naqay niqoblab tashlangan Katta teatr uchun qayg'urdilar, tomning kichik supachasidagi uchar otlar borasidagi muhokamalariga esa yaqin joydagи xiyobonda zenit to'pining mo'ylovsiz zambarakchisi ham qo'shildi; kreml yulduzlariga tabassumlarini yo'lladilar va xayrlashuv hayajonida minora soati qo'ng'iroqlarining bongini oxirigacha tinglab turishdi.

Hali tush payti edi, Bryanskka boradigan poyezd esa tunga yaqin jo'naydi. Yonginalaridan kuzovlari taqir-tuqur qilganicha har-

biy yuk mashinalari o'tdi, bulutlar ortida esa har daqqa uchoqlar-ning tobora yuqorilab borayotgandagi sarosimali na'rsi eshitiladi; hamma narsa qandaydir davlat topshiriqlari bilan jadal ketib bor-moqda, hamma – bekorchilikka mahkum ikkovlon qizlardan tash-qari. Varya ovozini chiqarib, kommunizmda mehnatdan chekinish-dan ko'ra tubanroq qilmishlar bo'lmasligini va shunga yarasha jazo muqarrar ekanini aytdi.

Daryo bo'yiga tushib borgach, o'zlarining yoqimsiz boyliklari – tiganmas bekorchi vaqtlarining bir qismini sarflab yuborish uchun ular bo'm-bo'sh sohil bo'ylab erinchoq yurib ketdilar. Shunda Polyaning xayoliga kunni tezroq tugatish uchun kinoga kirish fikri kelib qoldi: xabarnomaning navbatdagagi turkumi orqali bo'lsa-da, urushga yuzma-yuz kelish va ehtimol o'zining uchburchak yo'llovlarini jo'natmay qo'ygan loshkaryovlik yigitni ko'rib qolish istagi edi. Haqiqatan ham, front kechuvidagi ko'priksi ta'mirlayotgan savyorlar ekranidan ketib, tulalik quroloz usta voyaga yetgan ikki nafar qizlari bilan uy eshi-giga qulf urib, oldingi marraga jang qilish uchun jo'nagach, oz sonli tomoshabinlarga artistlarning frontda bergen konsertlari ko'rsatildi. Ayni shu yerda, askarlar orasida kuchli bombardimonga uchrangan o'rmoncha bag'rida, Polya Rodionni izlab topib, vujudi muzlab ketdi; u boshini egib qo'shiq tinglamoqda, tizzasidagi miltig'ini siypalab o'tiribdi. U Polyaga orqasini o'girib o'tirgan bo'lsa-da, hatto qorong'ilikda, paypaslab minglab odamlar orasida ham uni o'sib ketgan sochidagi ensasidagi ariqcha bo'ylab tushib kelgan o'rimchasidan ta-nib olgan bo'lardi.

G'ira-shirada yog'ib turgan yomg'irga o'xshash bu yarim daqqa-lik kinonigoh, Polyaning yuragini uzoq muddatli quvonchga to'ldirdi. U zavqlanib, Varya bilan yuklarini olish uchun qorong'i yo'lak zina-sidan ko'tarilganida ham, o'zi tashlab ketayotgan Moskvani so'nib borayotgan osmondagagi aerostat to'siqlarni poyezd vagonidan kuza-tib jo'nayotganida ham bu his uni tark etmadi... Keyinroq, liqillab turgan, sopiga yaxshi o'mashmagan nosoz belkurakda ishlashdan sillasi quriganida, dam olish uchun xandaq chekkasiga o'tirganida, hatto charchoqning zo'ridan o'lar darajada yiqilib qolganida, haqiqiy ko'chma oshxonada pishirilgan askar bo'tqasini suzganida ham shu his u bilan birga edi. O, Rodion tirik ekan, tirik... va uning bolalarcha ishonchiga ko'ra, Rodion front konsertini tinglab bo'lishi bilanoq,

shu zahoti Polya tomonga o'giriladi, Loshkaryovdagi o'zlarining kabutarxonalariga.

Va yana qayerdadir, tushida bo'lsa ham, onasini shu kabi holatda bir ko'rsa edi!

Dastlabki paytlarda, bir joyda uquvsiz to'dalashib, tong shafag'iidan oqshom alvonigacha xandaqdan majburiy ikki kubmetr tuproqni kovlab chiqarayotganlarida, ular hozirdanoq bir-birlaridan yengil farqlanib qolishdi, ammo keyinroq, ko'yylaklari titilib, quyoshdan kuygan badanlariga tuproq changining qalin qatlami singib ketgach, soch tolalarini taroq bilan ham ajratib bo'lmay qolganida, jazirama osmon atrofida ko'plab chaqirimlarga yoyilib ketgan moskvalik qizlarning hammalari tug'ishgan opa-singillar kabi bir-birlariga o'xshab ketishi – oralaridagi muqaddas qo'shimcha farq bir xildagi va fidokorona jangovar mehnat natijasi edi. Ularning har birlarining ko'ngillarida betakror qayg'ulari bor, ammo ular qat'iyatlari g'alabavor ko'pliklari orasiga izsiz singib ketishgan va keyinchalik mehnat terlari bilan oqib chiqib ketish, quyosh tig'ida butkul kuyib jizg'anak bo'lish uchun omma orasida teng taqsimlanib ketadilar. Polya o'z tengdoshlarining zimmasiga tushgan og'irliklarga to'liq kirishib ketdi, chunki eski dar-di uning miyasiga yangi kuch bilan qaytib kelgan edi.

Front yaqinlashib qolgani sababli ishlar kun-u tun navbatini bilan yuritilmoxda. Tunda ham belkuraklarning shiddatli g'ijirlashi timaydi va aravalarning g'arch-g'urchiga, mamlakat ichkarisiga haydab ketilayotgan chorva mo'rashlariga qo'shilib ketadi: katta yo'l mehnat frontidan yarim chaqirim masofada o'tgan. Dugonalar uplash uchun tankka qarshi xandaqning tayyor qismining oxiriga borib, qiyalikka joylashishdi; kun bo'yli qizib ketgan tuproq esa yerga yozilgan yopinchiq chodirdan o'tib, badanni kuydiradi. To'g'ri ularning qarshilarida sehrli, *oqqush ko'liga* salgina o'xshamay qolgan, atrofiga qorateraklar ekilgan va tubini yoqimsiz balchiq qoplagan hovuz oyymoma nurlaridan yaltiraydi; yaqin atrofda o'rmon yo'qligi tufayli ishchi xotin-qizlarni qo'rqtish uchun sochma qilib o'q uzganicha ikki-uch doira aylanib o'tuvchi, kechki parvozni odat qilib olgan bitta havo quzg'uni hujumidan qochgan qizlar o'zlarini to'g'ri shu

ko‘lga tashlaydilar. Qayerlardadir Svikau kegelbanining doimiy mijoji ekani sezilib turgan bu uchuvchi o‘zining tiyiqsiz ishqibozligida shunchalik muntazam ediki, tez orada ko‘pchilik odamlar uning sariqqorin, irkit mashinasini quyrug‘idagi moy dog‘iga belangan, ichida xoch chizilgan oq doiradan, tezotarining oxirida qiqirlab kulishta aylanib ketuvchi o‘q ovozlaridan tanib olishardi. Tunda u uchib kelmadi, tungi bombardimonlar ham yo‘q, – shu bois o‘z maktabularida u keksa onasiga o‘zining xavfsiz va maroqli ovi manzalarli bilan maqtana olmaydi. O‘sha tunda dugonalar charchoqning zo‘ridan o‘z tanalarini ham his etolmasdan va nihoyatda yaqin urushning pisib-suqilib kelayotgan ovozlarini tinglab yotar ekanlar, bu tovushlar katta yo‘l bo‘yidagi tuproqtepaning etagida tunashga joylashgan kolxoz lo‘lilar qabilasining chaqalog‘i yig‘isini ham bosib ketdi.

– Sen nega uxlamayapsan? Uxla... Ertaga tongdan yangi hududga o‘tamiz.

– Dimiqib ketyapman... Xudoyim, hozir Yengada havo qanday ham yaxshi! Tik sohildan muzday daryoga sho‘ng‘ishni qanchalik istayotganimni bilsang edi. Shunaqangi kirlab ketganmanki, Varya...

– O‘zing ham lekigin shunaqangi mustaqil bo‘lib ketyapsanki... ko‘rinishing ham rosa kulgili, hamma yog‘ing taram-taram. – U Polinaning qalpog‘ining tonggi qisqa yomg‘irdan rangi chiqib, uning bo‘ynida va yelkasida chiziq-chiziq iz qoldirganini nazarda tutayotgan edi. – Ayt-chi, hozir aynan nimani o‘ylayapsan?

Polyanining aytishicha, uning fikriga ko‘ra, moskvalik qo‘snilari nabirasini ko‘chiruvga bejiz o‘zisiz jo‘natgani yo‘q: mohiyatan, Natalya Sergeyevnaning bu dunyoda faqat o‘lishi qoldi xolos va buni sevimli mavjudotining ko‘z o‘ngida ado etish noinsoniy ish bo‘lur edi. Shubhasiz, u o‘tgan safar nimanidir his etdi va, albatta, Zoya bilan ayrilishganidan so‘ng tunlari yerto‘лага tushishni bas qildi va... ehtimol, aynan shu daqiqada, katta qora tomchi, oymomadagi barqarorlashtirgich yarqirab, Blagoveshshensk berk ko‘chasidagi 8-a uying tomi tepasidan o‘tdi.

– Men hammasini o‘ylab qo‘ydim, Varya: odam hech kimsiz, yolg‘iz o‘lishi kerak. Hayvonlar buni bizdan yaxshi bilishadi. Bu ma’noda ular odamdan ko‘ra axloqliroq ekanlar.

Varya tirsagiga tiraldi-da, qo‘llarini boshining tagiga qo‘yib yuqoriga qarab yotgan dugonasiga tashvish bilan qaradi. Unga ba-

qirib bergen ham bo'lardi-yu, ammo Polinaning ko'zlaridan yuzlari bo'ylab oqib borayotgkan kumushrang yo'l uni to'xtatib qoldi...

– Bilasanmi, mening aziz mavjudotim, fikrlaringning yo'nalihi ham, ularni aytayotganingdagi ovozingning ohangi ham menga yana yoqmayapti, – qat'iy dedi Varya. – Aksincha, shunga mutlaqo ishonchim komilki, bir kun o'tar-o'tmas kampir nabirasining ortidan g'ildirab qoladi. Bu muhitning buvisi qanday ishlarga qodir ekani ni sen bilmaysan... Bundan tashqari, Moskvada senga o'sha Natalya Sergeyevnanadan yaqinroq bo'lgan minglab odamlaring bor, ularning ahvollari nima kechishini o'ylashning o'zi tomirlardagi qonni to'xtatib qo'yadi. Nima uchun sen faqat unigina o'ylayapsan?

Rostini aytganda, u Polyaning mulohazalarining chigalini biroz yozishga muvaffaq bo'ldi. Natalya Sergeyevnaning o'sha ayriliq tongidagi xatti-harakatlariga qaraganda, u Gratsianskiy haqida Polyaga tahdid solayotgan qandaydir qora, yovuz falokatning oldini olish istagida aytganlaridan ko'ra ancha ko'proq narsani biladi. Va shaxsiy mushohadalaridan kelib chiqqan holda bunday sabablarga suyanish qanchalik uyatli bo'lmasin, Natalya Sergeyevnaning o'limi bilan Polya bu odamning kim ekanini aniq bilib olish va otasining sirini o'z zimmasidan soqit qilish imkonini ham yo'qotgan bo'lardi.

– Kaminani eshit, men senga bu o'laksaning go'rini titkilashni qat'ian taklif etaman, – jirkanib buyruq berdi Varya. – Ishonaver, bu tanqidlarda birorta bo'lsa ham haqiqatga o'xshaganroq narsaning bittagina tomchisi bo'lganida edi, bu masala bilan maxsus ishlar bo'yicha tergovchi allaqachon shug'ullanishni boshlab yuborgan bo'lar edi. Men tentak esa seni to'la-to'kis davoladim deb o'ylab yuribman... ya'ni o'shanda O'rmon xo'jaligi institutiga borib kelganidandan keyin. Seni kim bunchalik ruhan sindirib qo'ydi, Polyajon? Boshqa odamning o'tmishi uchun mutlaqo aybsiz inson sifatida sen bu mam-lakatda har qanday odamning ko'ziga tik boqishga to'la haqlisan.

– Har qanday odamningmi? – jahldan Polyaning ko'zi qizildi. – Qara-ya, seningcha... shunaqaykanmi?

– Ha... – sal titradi Varya uning qorachig'idagi istehzoli yaltirashni ko'rib va ko'zlarini pastga tushirdi. – Men Rodionni mulohazali yigit deb bilaman... va oxir-oqibat u sening dadajoningdan qandaydir nojo'ya yo'llar bilan topilgan millionlab so'm sep puli olayotgani yo'q.

– Menga bu kerak ham emas! – qahrli bir iztirob bilan dedi Polya. – Men yana aytayapman: hatto o‘zim ham bilmaydigan qandaydir narsa uchun meni kechirishlaridan umidvorlikda kimningdir yuzko‘ziga mo‘ltiramoqchi emasman. Sen tashvishlanma: o‘sha maxsus tergovchisiz ham bir amallab o‘zim sog‘ayib olarman. Shuni bilib qo‘y... bu safar gap otam haqida borayotgani yo‘q. Men juda ko‘p o‘yladim va shu xulosaga keldimki, agar urush uzoq davom etsa, front ortidagilarni ham halok etishi mumkin ekan...

– Tushunmayapman. Umuman olganda, sen oxirgi paytlarda, xuddi isitmada alahlayotganday qandaydir noma’lum tilda valdirayapsan. Shu gaplaringni odam tiliga tarjima qilib ber... – o‘tindi Varya.

Ammo Polyaning o‘zi ham hozircha taxminlardan boshqa hech narsani bilmasdi; xuddi yosh bolaga o‘xshab, u o‘zi tushuna oladigan so‘zni harflardan yig‘ib topish ilinjida o‘ziga ma’lum bo‘lgan ikkinchi darajali vaziyatlarning alifbe kubiklarini behuda aylantirish bilan ovora edi. U ba’zan o‘sha so‘zni topganday bo‘lardi-yu, ammo buni tekshirib ko‘rish uchun Blagoveshshensk berk ko‘chasiga yugurishi ga to‘g‘ri kelardi, buning uchun esa dushman uchog‘ining tuynugidan yondiruvchi portlagich tushguniga qadar ulgurishi ham lozim edi.

Suhbat olis otar to‘plarning gumm-gumidan uzilib qoldi.

– Eshityapsanmi?.. – so‘niq ovozda so‘radi Varya.

– Tez orada bizning xandaqlarimiz kerak bo‘lib qoladi deb qo‘rqaman. Biz bekorchi valaqlashlarga ko‘p vaqtimizni ketkazib qo‘yyapmiz. Ertagayoq me’yorni hech bo‘lmasa ikki yarim kubga ko‘tarishlarini iltimos qilaman.

Polyaning o‘y-fikrlari haqidagi suhabatni uyga qaytganlaridan keyin ikki haftalar o‘tib davom ettirishdi...

Qizlar Natalya Sergeyevnani o‘z xonalarida uchratib qolganlari uchun noqulaylik hissidanmi yoki xayrlashayotgan paytlarida so‘zlarida oshkoraliqka yo‘l qo‘ygani uchun afsuslanibmi, u Polyan har qanday savollarni bekor qiluvchi sovuqlik bilan quruqqina kutib oldi. Xonaning kalitini va turar joy maydoni uchun maishiy to‘lovlari amalgalashishilari oshirilgani to‘g‘risidagi varaqalarni topshira turib, istiqomatchilarining roziliginisiz ularning xonalarini tozalab qo‘ygani uchun uzr so‘radi: kunlar juda chang-to‘zonli bo‘ldi, deraza romlari esa portlash to‘lqinidan oynalar sinib ketmasligi uchun kecha-kunduz ochiq qoldirilgan edi. «Qo‘yavering, hechqisi yo‘q... arzimagan nar-

sa!» – baravariga, aybdorlarcha, o‘rinsiz javob qaytarishdi dugonalar, chunki ikkovlari ham qo‘snilariga nisbatan qilgan taxminlarida yanglishganlarini tushunib qolishdi. Natalya Sergeyevna nabirasining ortidan qochib ketmabdi va Moskvaniing barcha qolgan qismi kabi sog‘-salomat edi.

Qizlarning xavotirlariga qarshi o‘laroq, yuzaki ko‘z tashlashdan ham ma’lum bo‘ldiki, Boshkent vayronaliklarsiz turgan ekan. Kreml soatlari xuddi avvalgiday tarixning vaqt o‘lchovini hisoblab turibdi, Pushkin avlodlarning jasoratlari haqidagi satrlarini xayolidan o‘tkazyapti, teatrning tepasidagi birinj otlar qayerlargadir yelib ketmoqdalar... Ehtimol, pastdagi maydonga – Moskva atrofida urib tushirilgan dushman uchoqlari ko‘rgazmasigadir. Yana qarshilaridan chiqib qolgan o‘sha leytenantning olivyjanobligi tufayli qizlar kabina ning ichini, kuyib ketgan o‘rindiqni tomosha qilishga, qotillik sodir etiladigan dastaklarni, tugmalarni o‘z qo‘llari bilan ushlab ko‘rishga muvaffaq bo‘lishdi.

Polya boshqa tarafdan yurdi, yo‘q – quyrug‘ida moyli dog‘i yo‘q ekan. Demak, *unisi* hali uchyapti, o‘z fyurerining sharafiga Polya Vixrovani otib tashlash fikridan hali qaytmabdi. Va birdan, xuddi moddiy bir jismiyot kabi uning ko‘ngliga shu bilimni joylab qo‘yishdi, Polya aynan ertaga bo‘lmasa-da, tez orada o‘z qotili bilan yakkama-yakka uchrashishini angladi – sal nariroqdagi kursida o‘tirganicha, sabr bilan kutayotgan ajalni hisobga olmaganda, albatta.

Polya ko‘zini yumishi bilanoq, o‘zining insonlik maqomining imtihoni bo‘ladigan dahshatli va shunisi bilan jozibador bo‘lgan eski dunyo bilan bo‘ladigan bu uchrashuvini butun tafsilotlari bilan jonli tasavvur etdi. Polya o‘zini qanday kuch tinch-xotirjam Moskvadan yaqindagina olmon harbiy bo‘linmasi egallagan frontoldi qishlog‘iga uloqtirishini hali bilmassi... To‘g‘ri, temir va odamlar ortilgan eshelonlarni o‘lkadan o‘lkaga haydaydigan, gazeta varag‘ini ochganida yuzni muzlatadigan, vaqt-vaqt bilan odam oyog‘ini yerdan uzadigan o‘sha quyun uni yerga solingan quyosh nuridan hasham-dor ko‘rinayotgan qiyqim sholchalar hanuz saqlanib qolgan, deraza tokchalarida esa – rus qishlog‘i uchun odatiy bo‘lgan siniq sopol xurmachalarda, issiqdan barglari so‘liqqan o‘simliklar, misol uchun *tungi go‘zal* va *ho‘llangan vanka* o‘sib turgan oddiy dehqon kulbasiga itarib kiritadi; qo‘sniisining nabirasi jo‘nab ketgan kunda uning

ongiga o‘rnashgan so‘liq yorongulning ayanchli qiyofasi Polyani tark etmayapti. Albatta, Polyani zarb bilan ichkariga uloqtirishadi, u yerga yuzi bilan yiqiladi, va bosh jallodning oyog‘i ostida g‘ujanak bo‘lib yotarkan, doim bunday holatlarda bo‘ladiganiday, shiddatli sur’atdagi qat’iyat bilan qochish rejasini aniqlashtirib oladi. Imkon qadar tentakona ovoz bilan bu bechora yashil mavjudotlarni sug‘orishga ruxsat so‘rash kerak va albatta, fashistlar va ularning kur-sida o‘tirgan urg‘ochi sherigi uning hiylasiga laqqa tushishadi, umid-lari bo‘yicha – sovet qizi quvonib ketib, Qizil Armiyaning, uning buyurchilarining eng yashirin rejalarini aytib berishi kerak. Jallod-larning ijozati bilan u derazaga yaqin boradi, shunda o‘z tanasi bilan oynani sindirib, jarlikkacha ellik qadam yugurib borish qoladi, xolos, u yerdan esa o‘z Yengasiga tashlanadi – Yermak va Chapayev kabi qanotlanib... Va agar ulgura olmasa, u holda qisqa, oldindan tayyor-lab qo‘ygan so‘zlarini yengiga qayrilma xoch qadalgan olifta janob-ga u va unga o‘xshaganlar to‘g‘risida Sovet mamlakatining qizlari nimalarni o‘ylayotganlarining hammasini aytadi! Umuman olganda, bu tushdagи parvoz kabi, jasorat haqidagi soddadil orzulash bo‘lib, yoshlarga turli ko‘rinishlarda ma’lum, yetilib kelayotgan balog‘at alomati edi. Shu bilan bog‘liq holda Yengadagi qimmatli bir oqshom beixtiyor uning yodiga tushdi. Bitirmv imtihonidan ko‘p vaqt o‘tmay, Polya Rodion bilan mashhur Sevishganlar burunida, daryo kengliklari tepasida o‘tiribdi, onasiga tortgan xislati o‘zini ko‘rsatib, eti uvushdi va Rodion o‘zining oilaviy bisotdan olingan, otasidan meros sifati-da saqlanib qolgan eski xat tashuvchilar yopinchig‘ining bir chetini uning yelkasiga tashlab qo‘ydi. Tevarak shunchaňik g‘aroyib ediki, agar tasodifan shamol ko‘tarilib qolsa, bexosdan uchirib ketmasligi uchun yopinchiqning qiz yelkasidagi bir chekkasini Rodion o‘zining chidab bo‘lmas darajada qaynoq qo‘llari bilan ushlashiga ijozat berdi. Bu holat ularning ayrim dolzarb dunyoviy muammolarni muhokama etishlariga xalaqit bermadi va ular orasida Maksim Gorkiy va insoniyat taraqqiyotining boshqa taniqli arboblari qilganlari kabi yoshlarga xos bo‘lgan o‘zini qandaydir ulkan va dahshatli ishlarda o‘zlarini si-nab ko‘rish masalasi ham bor edi. Xotirada, fikrllovchi inson o‘zining qadr-qimmatini o‘zi qodir bo‘lgan mehnat miqdori yoki fidoyiligining teranligi orqali bilishi mumkinligini hech qanday tushunmovchilik-larsiz ikkovlari ham e’tirof etishdi. Ammo gap qahramonning xuddi

parvozdagi qush kabi jasoratga otilishiga sabab bo‘ladigan qalb amri masalasiga kelganida Rodion ahmoqona taxminini bayon qilib, bunga hamma ham qodir bo‘lmasligi, o‘zini shunga maxsus tayyorlaganlar-gagina xosligi, chunki uning ta’biri bilan aytganda, o‘sha *olovbo ‘ron* balandlikdan sakrash uchun unga yetib olish ham kerakligini aytdi. Bunday istisno bilan u shunchalik muhim hodisaning ommaviyiligini keskin cheklab qo‘ydi va Polya o‘z tengqurlari uchun ranjib, hatto Rodionning qo‘lini o‘z yelkasidan siltab olib tashladi va uni davrimizning eng zaif odami deb atadi... Nahotki uning fikrini hozirga kelib sirtdan tasdiqlash uchun bo‘lsa?

Aslida urush ko‘p martalab Polyani tinch kunlarda amalga oshirish imkoniyati kamdan kam uchraydigan ajoyib olivjanob jasoratlar bilan vasvasaga solgan edi, ammo nimadir uni doim to‘xtatib qolardi – ishonchning mavjud emasligi yoki o‘zining jasoratga qodir emasligi, ya’ni og‘riqqa qarshi nafrati yetarli emasligi ham emas, balki qandaydir boshqa narsa bor edi. Binobarin, uning nazarida o‘lim eng buyuk minbar bo‘lib, hatto o‘zining ajalvor nafasi tegishi bilan hamma tirik narsani nobud qiluvchilarga qarata so‘nggi fosh etuvchi so‘zlarini aytmasdan hayotni tark etish sovet kishisiga yarashmaydiganday tuyular edi. Yo‘q, u o‘z qotilining yuziga takrorsiz, ammo hali pishib yetilmagan qaysi so‘zlarni aytishini hozircha o‘zi bilmasdi.

– Yana nimadandir qayg‘uga tushdingmi, singlim?.. Yana boshlandimi?

– Ha... lekin bu safar butunlay boshqa narsa... – Va ko‘zini hamda qo‘lini Varyadan yashirdi, o‘zining qalbi arzimas va noqobil ekanini dugonasi bilib qolishini istamadi.

3

Oliy o‘quv muassasalariga qabul tobora yaqinlashib kelmoqda, lekin Polya gips haykallardan chizma nusxa olish yoki imtihon uchun o‘ninchisinf o‘quv darslarini takrorlash o‘rniga, eski dunyo bilan xayolan orani ochiq qilib olish uchun so‘zlarni tanlashga urinib, kunlarini sohil bo‘ylab sang‘ishga sarflab yuborayotgan edi – zaxira qilib qo‘yish uchun emas, shunchaki izzattalab xudbinlikdan: unga o‘lim oldida aytildigan chiroyliroq nutqni mashinkada chaqillatib berishlari uchun yoshlар tashkilotining tuman qo‘mitasiga bormaydi-

ku. Butun dunyo mehnatkashlari baxti uchun proletar inqilobining ahamiyati to‘g‘risidagi mактабда o‘tilgan mavzuning birinchi jumlasidan keyinoq so‘zlash qobiliyati Polyani tark etdi... va keyin u alam bilan xuddi mixlab tashlanganday tinish belgilari qadalgan ergash gaplarning chalkash yo‘laklarida umidsizlik bilan har tomonga alanglay boshladi. Nimadir uning Rodion eslatib o‘tgan, hatto talaffuz etishga til zo‘rg‘a aylanadigan *olovquyunga*, Polyaning tiliga tarjima qilinganida esa insoniy soflik ma’nosini anglatuvchi yuksaklikka ko‘tarilishiga xalaqit berib turardi. Butunlay sillasi qurib, u o‘zining oyoqlariga qaradi – uni otasining o‘sha fosh etilmagan mahfiy siring qo‘rg‘oshini yurishga qo‘ymayapti.

O‘quvchilarida Polyaning ayniqsa ijtimoiy tarbiya ishlariga doir tanqidlarning foydasi to‘g‘risidagi ma’ruzalari ko‘pincha muvaffaqiyatli chiqardi. U birinchi bor bu vositani qo‘llashning ehtimoldagi sabablari va usullari haqida o‘ylandi va shu ondayoq bolalarcha savollar orasida adashib qoldi: Agar Vixrovning jirkanch kitoblari Gratsianskiyning tasdiqlashicha yosh avlodning shuuriga isyonkorlikni joylab qo‘yadigan bo‘lsa, u holda nima uchun bu asarlarni chop etishga hech bir e’tirozsiz ruxsat berishgan; nima uchun o‘rmonchilik ishlarini yaxshi anglaydigan zamondoshlari Gratsianskiyning Vixrovni tor-mor qilishi uchun yordam berishmagan, yoki aksincha, Vixrovning himoyasi uchun so‘zga chiqishga jur‘at etishlari bilanoq darhol ovozları o‘chib qolgan; va nihoyat, nima uchun Vixrovning o‘zi agar o‘zining sovet vijdonini zarracha qadrlaydigan odam bo‘lsa, majburiy militsiya ko‘rsatmalarini chetlab o‘tib bo‘lsa ham!.. tuxmatchini haqoratli, takabburona bo‘htonlari uchun ikki-uch-to‘rt marta jag‘iga musht tushirmagan. Polya bu yechilmas jumboqning negizida kichiklardan yashirin tutiladigan qandaydir qora dog‘ borligini sezib turardi. Haqiqatni izlash va bino-barin o‘zining sofligini isbotlash uchun Polya o‘tmishning tirik shohidlari bilan so‘zlashishi lozim edi, hamma bilan – Gratsianskiydan tashqari, o‘sha kimsa bilan qayta ko‘rishishni o‘ylaganida u titrab qolardi... Lekin Natalya Sergeyevna har safar qayoqqadir shoshib qolar, uchrashgan paytlarida esa shunaqangi takabbur-muloyim bo‘lib qolardiki, go‘yo Polyaning yuragida to‘planib qolgan minglab beadab tushunmovchiliklarni oldindan biladiganday edi. Ana o‘shanda Polya o‘zining umidlarini mustahkamlash uchun yana bir marta Taiskaning

huzuriga borish va samimiyl, yakkama-yakka suhbatda o'sha taqilangan bilimning bir zarrachasini bo'lsa ham surishtirib bilishga harakat qiladi... Hatto bu onasining obro'siga dog' tushirgan taqdirda ham. Otasining uyida telefon yo'qligi boisidan u institutga, uning ishxonasiga qo'ng'iroq qilishga urindi, hiyla ishlatib, gapni aylantirib, nihoyat professor Moskvada emasligini, O'roldagi qaysidir qo'riqxonaga jo'nab ketganini aniqladi.

... Yo'q, hech qaysi rus ayoli bunchalik mug'ambirlik qilmagan bo'lardi. Taiska jiyanini ostonada ko'rib, Polya yo'l bo'yi xavotirlanib kelganiday, hiqillab qolmadi, uni o'pish uchun otilmadi, shunchaki quvonib ketdi, butun vujudi titrab, ikkinchi marta undan umrbodga ayrilib qolmaslik uchun qizning qo'llarini mahkam tutganicha ichkariga yetakladi.

... – Sen bilan oshxonaga kiraqolamiz, o'sha yer qulayroq, – bidirlaydi Taiska, Polyaga ham o'zining hayajonini o'tkazib. – Seryoja bugun kechroq kelishini aytgandi, agar havo hujumi ogohlantirishi bo'lsa, tunash uchun depoda qoladi... Bizga hech kim xalaqit bermaydi. Oshxonam top-toza, bir-birimizning diydorimizga to'yishamiz. – U mehmonini varaqtaxtali javon bilan ustiga yozilgan kleyonkasining sirti yeylim ketganidan mato qatlami chiqib qolgan miz orasidagi burchakka itarib kiritdi va ingichka g'o'lachani mayda payrahacha-larga ajratib, kichkinagina olov yoqishga tayyorlay boshladi, bu ishdan Polya juda quvonib ketdi, mana, otasi o'rmon professori-yu, lekin o'tinsiz yashayapti! – keyin Taiskaning qo'liga zirapcha kirib, sal ikkilandi va isrof bo'lsa ham chovgunni elektr o'choqqa qo'ydi.

– Dadang o'zi yo'g'ida uyg'a kim kelganini bilsa, yana alamidan o'ladi... Sen uni safarga ketgani uchun kechir, Polyajon, uning lavozimi shunaqa, o'rmonchilik.

– Hechqisi yo'q, yana ulgurarmiz... – qo'l siltadi Polya behuda va ensani qotiradigan izohlardan nariq bo'lish uchun. – Men uchun elektrni sarflashning nima hojati bor?

– Chovgunni to'ldirganim yo'q, uch bardoqqina. Biz odatda yarim tunda elektrni ishlatmaymiz. O'tgan oyda yetti so'mlik ham yoqmadik. Bol yesang-chi, boshqirdlarniki... Mening Ivanginamga shogirdi yog'och xurmachada jo'natibdi. – Bu gapdan keyin ammasining siylovini rad etgisi kelmadi. – Sog'-salomat o'tirganingdan o'zing haqingda so'ramayman. Lenajon nimalarni yozyapti?

– Undan bittagina xat oldim, shundayam qaytganimdan keyin ko'rdim, eski... uni deyarli yodlab olganman. Yozishicha, ozroq shamollabdi, keyin sog'ayibdi.

– Yelvizakda o'tirgani uchun uni yaxshilab koyib qo'yish kerak o'zi... Bizning yoshimizda oliftalikka balo borakanmi?! – Taiska olmonlar egallab olgan Yengada nimalar bo'layotganini tasavvur qilishga harakat qildi, ko'ngli g'ash bo'lib boshidagi ro'molini o'ziga odat bo'lib qolgan holatiga to'g'rilib oldi va Polyaga qiya qarash qildi: – Uzoqqa borib keldingmi, mittiginam?.. Yegulik olib kelishgami yo shunchaki sayohatgami?

– Yo'q, xandaqyo'lak qazishga bordik. U yerda juda ko'pchilik edik, moskvalik qizlar, bir necha minglab!

– O'zim ham o'yladim, ranging xuddi kuyib ketgan sutning ko'piday bo'pti deb. Bu judayla yaxshi ish, muqaddas vazifaning bir qismini bo'sayam zimmangga olibsan, – bosh chayqadi Taiska Polyaning kaftidagi qadoqlarni ko'rib xafa bo'lган holda. – Mehnating uchun rahmat senga, bizning himoyachimiz.

– Qanaqa mening mehnatim! – qizishib ketdi Polya. – Mana, men siz bilan o'tiribman, oldimda asal turibdi... Opa-singillarim hozir nima ahvolda ekanini bilsangiz edi... Qaysi biri yarador askarni janggohdan sudrab chiqyapti, boshqasi esa undan battar ahvolda qynoqlarga solinib, fashistning tergovida turibdi... Atrofi to'ia begonalar, derazadan sakrab qocholmaydi!

U mana shu maqtovlarga nomunosib ekanini o'ylab, bir tomonidan uyaldi-yu, boshqa tarafdan katta hayotdagi birinchi qadamlari onasidan tashqari kimnidir quvontirgani baribir yoqimli edi. Taiska bilan taassurotlarini baham ko'rgisi keldi – chuqurlikdagi chirigan, ko'm-ko'k tuproqning qanday hidlanishi va bitta xoin to'siq xandaqning tuprog'ini boshqa tomonga chiqarib kovlashga majbur etgani, shu holatida shiddat bilan yurib kelgan olmon tanklari xandaqdan osongina sakrab o'tib keta olardi va keyin hammaning jirkanib turgan jimligi ostida yuzini qo'llari bilan berkitib olgan sotqinni qanday olib ketishgani, Polyan esa qoloq hududga brigada boshlig'i etib tayinlashdi, uni mazahlash uchun emas, aksincha, amaliy ishda o'sishi, keyinchalik kubmetrlarni o'zi mustaqil hisoblay olishi va uchog'inining quyrug'ida dog'i bor o'sha ablah uchuvchining havo hujumlarida

*havo buyrug'*ini berishi uchun. Ammo bularning hech qaysisi keksa Paramonich voqeasi oldida ahamiyatga ega emas.

U bir kuni moskvalik qizlarning ishlarini ko'rgani keldi va o'zini hov anavi toptab tashlangan javdarzor ortidagi hovuzning narigi tara-fida ko'rinish turgan cho'chqachilik fermasining kolxoz tashkil etilganidan beri ishlab kelayotgan almashinmas boshlig'i deb tanishtirdi; hozircha hassasiz yuribdi, slavyan naslining namunasi, gvardiyachi gavdali, soqoli shunaqangi namoyishkorona parvarishlanganki, bu-naqalarni faqat operada tomosha qilish mumkin. O'shandan beri u qizlardan tez-tez xabar olib turdi – yoshlar huzurida ko'nglini yozish uchun, boz ustiga erkalomchi so'zlardan keyin zavq bilan qattiqroq ishlaysan: «Qani, bir zo'r beringlar-chi, mening nozanin va tirishqoq nabira qizlarim, askarchalarga ko'maklashib yuboringlar... jangdan qaytganlaridan keyin o'pib-o'pib minnatdorlik bildirishadi». – «O'z-o'zini tanqidni unutding... undan ko'ra bizni koyib qo'ysang bo'lardi, bobo» – baravariga javob qilishadi qizlar. «Mumkin emas, – mulo-hazakorlik bilan e'tiroz bildiradi u, keng ochilgan kaftlarini yoyib. – Yaxshi otni qamchin bilan ursang ishdan chiqarasan: u sendan bezib qoladi. Rus kishisini tushunish kerak, uni maqtab, qo'ltig'idan olish kerak, shunda u o'zini ikki baravar kuchliroq namoyon etadi...». Lekin ochig'i, u qanchalik xushchaqchaq bo'lmasin, o'zining vayron qilingan xo'jaligini qo'msaydi, undan faqatgina bitta axta cho'chqa qolgan bo'lib, Umumittifoq qishloq xo'jaligida maxsus yorlig'i bilan mukofotlangan, o'ta semizligi uchun uni joydan joyga ko'chirish imkonsiz bo'lib qolgan. Fashist uchuvchisi cho'chqani aniq nishonga olib o'ldirgach, Paramonich uni moskvalik qizlarning tamaddilari uchun ularning ixtiyorlariga topshirdi... Darvoqe, hujumchining tepalik ortidan kutilmaganda chiqib kelish odati bor edi va ahamiyatlisi, doim xandaqlar bo'ylab shunchalik past uchar ediki, xuddi uni belkurak bilan urib tushirsa bo'ladiganday taassurot uyg'otar edi.

Tabiiyki, undan hovuzga sakrab qutulishga urinish xatarli edi, bir kuni portlash to'lqini suv bo'ylab o'tib, Polyanı g'arq qilay dedi, lekin baribir motorning o'kirigidan vahimaga tushgan tirik jon bor-ki, Paramonichdan boshqa, o'zini hovuzga urdi: u o'zining mashhur soqolini ho'l qilgisi kelmadimi yoki ko'ylagiga qadalgan nishonlar va georgiyilar tufayli olmon itvachchaning oldida egilgisi kelmadimi. «Yosh uloq shekilli... nuqul sakraydi, tinmay shumlik qiladi, keragi

yo‘q edi... Eh, keragi yo‘q edi. O‘zining turmushga beradigan singilari bordir, axir... Bechoralar akasining yaramas ishlari uchun baloga yo‘liqishmasa edi», – deydi Paramonich va sariqqorinning ortidan barmoq niqtab tahdid qilib qoldi, bir safar qariyani chakkasidan qorningacha o‘q yomg‘iri ilma-teshik qildi.

Taiska bu hikoyani ma'yus va samimiy iljayish bilan tinglab o‘tirdi.

– Chunki biznikilar dushman qarshisida mag‘rur turishadi. Bobongiz uchun to‘yib o‘kirgandirsizlar? – so‘radi u xotirjam va mulo-hazakorlik bilan, Polya esa ammasining qaddi tiklanib, istaraliroq bo‘lib qolganday tuyuldi.

– Hammasi bo‘ldi! Biz uni o‘sha yerning o‘zida tuproqqa qo‘ydik... men ham kovladim, – gapini tugatdi Polya, Taiska esa uni qo‘lidan tutdi, Polya tortib olmadi. – Shu xolos, boshqa hech narsa bo‘lgani ham yo‘q, rostini aytganda!

Ular an'anaga ko‘ra go‘yo yangi qabr tepasida tegishli bir daqiqa davomida jim turishdi va g‘alatisi, Polya ilgari hech bo‘lmagan kuchli bir sezgi bilan bu ayol o‘zining qondosh yaqini ekanini his etdi, hozircha Vixrov orqali emas, albatta, aynan otib tashlangan Paramonich orqali. Endi o‘z tashrifining asosiy maqsadiga osongina o‘tish mumkin edi; u ahamiyatsiz ohangda Taiskadan o‘z hayotida Gratsianskiy nasabli odamga duch kelgan-kelmaganini so‘radi.

– O‘sha shilimshiq sirpanchiqni kim ham tanimaydi? – biroz su kut saqlab va hech qanday cho‘chuvsiz javob qildi u. – Ivanginam ning ashaddiy do‘siti... u onajonisi bilan birga yashaydi, vokzaldan keyin ikkinchi bekat. Simobga o‘xshagan kampir, ziqnagini!

– Demak, ularning uyida bo‘lgan ekansiz-da, Taisa amma?

– Ha, bir marta bo‘lgandi... – keksalar takabburona jimjimador gunohparastlarni eslaydigan sovuqqina begonalik hissi bilan zahar-xanda iljayib. – Bir kuni Ivan qo‘limga kitob berib, unga sovg‘asini eltib berishimni aytdi, kampir meni dahlizidan uyog‘iga qo‘yganiyam yo‘q. Ammo bizning Vixrovlar naslining ko‘zi judaylayam o‘tkir: men oynavand eshikdan ichkariga qarab olishga ulgurdim, voy otaginam, ular derazalarini ochib qo‘yib, yerga guruch to‘kib quritishyapti... Kulgili, xuddi xirmonning naq o‘zi!

– Nega ular guruchni... nega shamollatishadi? – tushunmadni Polya.

– Har sabab bilan bo‘lishi mumkin... Qarab turmasang mog‘orlab qoladi, yokigim mita yoxud boshqa biror qurt yeb tashlaydi. Ko‘rubsanki, omboringdan ayrilibsan! Qora kunga asrab qo‘yishibdimi, bilmasam... Xususiy savdo yo‘lga qo‘yilishini kutish-yapti, shekilli-da.

– Juda qiziq-ku... – pichirladi Polya va yana ko‘ngli g‘alati bo‘lib ketdi: yaqin oshnasini barcha jahannamiy gunohlarda ayblasayu, o‘zi esa onasi bilan yashirinchaga guruchni shamollatsa. – Ular qanday qora kunlardan qo‘rqishadi?.. Sovet hokimiyatiga nimadir bo‘lishidanmi?

– Kunlar ham har xil bo‘ladi-da... Quyoshli kunlar ham bor, dog‘day qora kunlar ham, – ochiq javobdan qochdi Taiska va o‘z navbatida Polyajonga bu odam nega kerak bo‘lib qolganini so‘radi.

Polya bu savoldan serrayib qoldi, qo‘llari yoniga tushib, tomog‘i quridi. Taiskaning shamsasi uni o‘zining yaqingacha o‘ylab yurgan shubhalarining eng dahshatli gumoniga qaytardi. Ammo Vixrov bilan Gratsianskiyning uzoq muddatli nizolariga ayol kishi, to‘g‘rirog‘i onasi sabab emasligiga avval ishonch hosil qilib olishi kerak edi. Polya uchun bu haqda hatto o‘ylashning o‘zi ham vijdonsizlik bo‘lib tuyulsa-da, ochiqchasiga savol berishga qaror qildi.

– Ayting-chi, Taisa amma... oyim qachonlardir o‘sha odjam bialn uchrashganmi?

– Uchrashganda qandoq. Inqilobdan keyin, yigirmadami, yigirma birinchimi yo yigirma ikkinchi yildami, ang‘i xotiramda yo‘q, u ikki haftacha Ivanning Pashutindagi uyida mehmon bo‘gandi... Lenajon ham o‘sha yerdaydi. Sal keyinroq, Moskvaga ko‘chib o‘tishganidan so‘ng oralaridan ola mushuk o‘tib qoldi. Qaraginki, Sasha besh yil davomida uyimizda qorasiniyam ko‘rsatmay yurib, birdan paydo bo‘lib qoldi: eski oshnasini ko‘rmoqchi bo‘ganmish. Har safar ogohlantirmay suqilib keladi: mo‘ylovidagi yaxini tushiradi, og‘haynilarday quchoqlashib ko‘rishadi, Ivanning yarasiga tuz tiqib yaxshilab ishqalaydi, keyin o‘zini boshqa ishlari bilan jo‘nab qoladi!.. O‘sha safar, Lenajon bizni tashlab ketganida, Ivasha umrida birinchi marta g‘irt mast bo‘lib yotgan edi, eshik taqillaganday bo‘ldi. Chiqib qarasam, ostonada Sasha turibdi: tumshug‘i quzg‘unniidan battarakan – o‘lik tanani uzoqdan sezadi! O‘shanda Ivanni ko‘rishga rosaylayam urindi, men ichkari kirgani qo‘ymadim...

G‘aroyib tarzda mavhumlikdan ochiqqa chiqib kelayotgan voqealarning ko‘zga tashlanmas chizgilariga qaraganda, g‘animlikning eng shafqatsiz gumoni yo‘qqo chiqdi: albatta, o‘sha yovuz kimsa agar eng arzimas darajada bo‘lsa ham Vixrovlar oilasi parchalanishining sababchisi bo‘lganida edi, o‘sha safar o‘rmalab kelgan bo‘lmasdi... Kichkina chovgundagi suv qaynab ulgurar-ulgurmas butun hududda tokni o‘chirishgani ayni muddao bo‘ldi; oraga cho‘kkon qorong‘ilik yosh qizni va keksa ayolni ruhan yanayam yaqinlashtirdi va ularning o‘zaro ochiq muloqotlarini yengillashtirdi.

– Shoshma, navbat bilan tushuntir... – nihoyatda hayajonlanib, uning so‘zini bo‘ldi Polya. – Sen qachon bo‘lsa ham hech eshitgamisan, otam... yoki boshqa kimdir oyimga uning aslzodalardan ekanini ta’na qilganini?

Unisi qo‘l silkidi:

– Uning qanaqayam aslzodaligi borakan? Rusda yashaydigan tatarlarning qizi edi, qoplarini yelkalariga ortib, hovlilarni oralab *shara-bara*, *sharra-barra-yooov*, deb baqirib yuradiganlardan, odamlar ularni masxaralab *knyaz* deb chaqirishardi... Oyingning bor aybi – bo‘yonning qo‘rg‘onida o‘sgani. Kimlardir sarqit yig‘ib kun ko‘rsa-da, boshqalardan ko‘ra erkinroq yashashini har bitta ahmoqqa tushuntirib chiqmaysan-ku. Men uni, Lenajonni chala o‘lik holida qo‘limga olganman... Ivan tom ma’noda uni arqonning sirtmog‘idan chiqarib olgan!

4

Ancha yillar o‘tgani munosabati bilan Taiska o‘sha ayanchli qisaning ko‘p voqealarini chalkashtirib yuboraverdi, ammo ishonchli og‘lzlardan eshitishicha, Lenajonni uch yoshli paytida milod bayrami kuni Sapeginlarning shahardagi xonadoni oldiga olib kelishibdi va es-hik qo‘ng‘iroq‘ini bosib, zinapoyaga tashlab ketishibdi. Umidsiz otasonasining bu xatti-harakatlarida hamma narsa hisobga olingan ekan – davlatmand yarim olmon oilaning bayramona kayfiyatidan qizchaning boshiga qo‘ndirilgan zarhalli qog‘oz tojga qadar; bor-yo‘g‘i shu toj uning kelib chiqishi oddiy odamlar naslidan emasligini bildirib turardi, xolos. Ismi va yoshi qizning beliga qora ip bilan chatib qo‘ylgan ilova xatda yozilgan ekan. Sapeginlarning eshigini baxtning o‘zi qoqib kelgan edi... bu mitti pariqizga rahmdillik bilan qaramay

bo‘lmasdiyam, haqiqiy milodiy Christkind, – u oyoqlari chalishib yi-qilib, lat yemasdan parket to‘shama ustida chiroqlar yoqilgan archa atrofida aylanarkan, hayotdan zavqlanar, xo‘jayinning bolalarining erkalashlari, silab-siypashlariga, .turtkilab o‘ynashlariga indamaygina qo‘yib berardi... Bundan salgina avvalroq Sapeginning bevasi o‘zining keksaygan cho‘risi va kitob o‘qib beruvchisidan ayrilgan edi; shu vaziyat tashlandiq go‘dakning taqdirini hal qildi. Lenajonni Yengaga olib ketishdi, u yerda sig‘indilik turmushining hamma bos-qichlaridan o‘tishi lozim edi: boylarning o‘yinchog‘i bo‘lish, yugurdak qizlik yumushlarini bajarish, bo‘ydoq boyonvachchalarga ermak, nogiron bekasiga cho‘rilik qilish, musibatlarda bosh yig‘ichi, dahlizza bog‘langan it vazifasini ado etish – motamda aysh-ishrat qilayotgan vorislarning po‘stinlarini qo‘riqlab o‘tirish.

Lenajon qo‘rg‘onda kampirdan, Ilya Apollonovich ekib ketgan danakdan o‘sib chiqqan palmadan va yana xuddi ablahning yuragi-ga o‘xshab doim titrab-qaqshab turadigan ko‘m-ko‘k qopag‘on ku-chukchadan keyin to‘rtinchi o‘rinda turardi. Bundan pastroqda nis-batan kamsonli malaylar, mahalliy tilanib keluvchilar va deparadagi hamma mahsulotlarni, mollarni yetkazib beruvchilar turardilar va ular orasida o‘rmonda yashaydigan juldur mujik Kalina Gluxovni shifobaxsh yovvoyi asal keltirib turgani boisidan eslab o‘tmoqlik joiz. Xojalarining dasturxonasi yonida qizaloq madaniy odob-axloqni va yuzakiroq bo‘lsa ham olmon tilini juda tez o‘zlashtirib oldi, yozgi ta’til paytlarida esa nikohda baxti yurishmagan yosh bekaga uning farzandlariga muallimlik qilish huquqi asosida hamma joyda ham-rohlik qilib yuradigan ko‘p muddatli saboqdagi tolib Lenajonga o‘zi bilgan bilimlardan saboq berardi. O‘ziga ehson qilingan ko‘ylaklarda Lenochka haqiqiy qizbekalarga o‘xshardi, zarur bo‘lganda nufuzli mehmonlarning ko‘nglini olar va ajoyib tevarak manzarani buzadi-gan jihatni yo‘q edi.

Ko‘rinishdan, o‘zlarining mahsulotlari va buyumlarini sotish uchun olib keluvchi dehqon xotin-qizlar uni mutlaqo payqamayot-ganday edilar, ammo qizcha ular o‘ziga kambag‘allarning itoatkori-ligi niqobi ostida yovuz nazar bilan qarashlarini juda tez sezdi. Shu bilan birga Lenajon o‘zidan avvalgi cho‘rining xushomadgo‘yligini o‘zlashtira olmadidi, unisi ertalabdanoq o‘laksa bekasiga yaltoqlanishni bilardi: «Yaxshi uxladingizmi, enajon, baloga yo‘liqqrburgalar

qayerlaringizni chaqdi?». Lenajon esa har bir teshikka quloq tutib gap poylashni, xizmatkorlar va nabiralar buvining o‘limi to‘g‘risida nimalar deyishayotganini eshitib olish yoki kampir uyqusи kelmagan paytlarda tuni bilan ming‘irlab chiqadigan nasihatlarni ma’qullab o‘tirishni o‘rganmadи... Ochig‘ini aytganda, bu nasihatlar asosan o‘z bekasiga nonko‘rlik qilgani va ko‘chada birinchi uchragan zabitga o‘zini ishonib topshirgani uchun jazolangan yengiloyoq ko‘cha qizining boshiga tushgan tashvishlar sifatida bayon etilar edi. O‘n besh yoshli qizni hiqillab yig‘lashgacha olib borganidan so‘nggina kampir bokiraning hali qilmagan ayblarini kechirar va parvardigor uni o‘z vataniga qo‘yib yuborgach, qizni ham o‘z yurti Pomeraniyaga olib ketish va‘dasini berar edi; marhum Sapegin bilan aynan o‘sha yerda, yigit universitetda tahsil olayotgan mahali birinchi bor uchrashgan ekan. Kampir yarim asr rus nonini yeb yashagan bo‘lsa-da, bu mam-lakatning nomukammalligi sabab putur yetgan salomatligidan doim nolib yurardi.

Bu orada qo‘rg‘onning nurashi oxirgi chegarasiga yetib keldi; kampirning o‘limini kutaverib tinkasi qurigan nabiralar endi uning tirikligidayoq merosga qo‘l uzata boshlashdi, ammo Oblogning qolgan qismini sotib oladigan xaridor hech topila qolmasdi. Qish oylarida uyning yemirilmay qolgan bir qismidagina hayot asari ko‘rinadi, bu tarafda yertaxtaning tirqishlaridan shamol kamroq izillatar, uyning burchaklarini ham kamroq muz qoplab turardi. Xarajatlarni kamaytirish uchun kampir xizmatkorlarning sonini tobora kamayti-ra boshladi, otboqar bilan aravakash lavozimlarini birlashtirib, bitta odamga topshirdi, ish yurituvchi bilan hisobchilik ham bir kishining zimmasiga tushdi; rus-olmon urushi barham topishi bilan keladigan birinchi yaxshi kunlarga amallab yetib olish kerak edi. Ammo kuti-layotgan tinchlik sulhi o‘rniga vahimali ovozalar Yengagacha yetib kela boshladi, taxi qimirlab qolgan podshoh hokimiyatiga hali biror narsa bo‘lmagan esa-da, oliynasab aslzodalarining paytavasiga qurt tushib, turmushlari notinchlanib qoldi – olislardagi qamalda qolgan qal‘alarning harbiy bo‘linmalariga bunday hissiyotlar juda tanish bo‘ladi. Hatto Sapeginlarning o‘z shaxsiy hovlilarida ham hozir urush xandaqlarida jang qilayotgan askarlar qaytib kelishgach, boyonlar ni sog‘ qo‘ymasliklari haqidagi gaplar ochiqchasiga yura boshladi, Lenajon o‘zining xalqi haqida kampirdan o‘sha kunlari shunaqan-

gi dahshatli gaplarni eshitdiki, o'sha qoraxalq bilan qachondir yuzma-yuz kelish xayolining o'ziyoq uni o'lguday qaqqhatib qo'ya boshladi.

Birovlarga tobelik holati, doimo marhamat bilan xorlik orasidagi hayot, Lenajonni jazo sifatida haftalab eng past darajadagi xizmatkorlar bilan birga mehnat qilishga jo'natishlari uni o'z turmushidagi yaxshi kunlar bilan atrofidagi og'ir, shafqatsiz tiriklik orasidagi farqlarni erta totib ko'rishga majbur qildi. Aslida-ku, o'zi ilgarilari ham butxona eshigi oldida o'zining xo'ppoz, to'ng'izday gavdasi hamma yoqdan ko'rini turadigan, dehqonlar o'z tillarida o'zaro *buqasigir* deb atashadigan vasiyasini aravadan tushirayotganida uyatdan yonib ketay derdi; endi esa Lenajon sabr-toqatli, itoatkor ko'zlarini yerdan uzmasa-da, hamma narsani ko'rib, eslab qoladigan *hakamning*, ya'ni yo'qsil raiyatning g'ashiga tegmaslik uchun har qanaqa vaj-korsonlar topib, tashqariga Sapegina bilan birga chiqmaslikka harakat qila boshladi. Zero bu *hakam* qo'rg'on ichini devor ortidan ham kun-u tun ko'z yummasdan ko'rib turishga qodir, hamma narsani ko'rib va eslab qolmoqda va hech narsa – Lenajonning yetimligi ham, uning bolalik paytida it tishlab tashlagan oyoqlari ham, cho'rilik hayotining achchiq nonini yeishi ham, boyonvachchalarning haqoratlab xo'rashlari ham – uning la'natlangan amlokdorlar toifasiga mansubligini, mansub bo'limganida ham o'shalarga daxldor ekanligini oqlay olmas edi. Lenochkaning yoshidagi boshqa qizlar o'zlarining shirin orzulari og'ushida hayot kechirib turganlari holda, u o'zining tungi qo'rquvlari bilan yashamoqda edi... Vixrov yaxshi niyatlarda uning xalq oldidagi javobgarliklarining hozircha hush-behush uchqunlarini o'chirishga behuda urinmoqda edi.

Taiskaning so'zlariga qaraganda, Polyaning ota-onasining tanişuvlari yangi o'rmonchi o'z xizmat joyiga kelganidan keyin tez orada sodir bo'ldi. U yaralanganidan keyin lazaretdayoq amlokdorlarning o'rmonlarni yo'q qilishlariga qarshi qaratilgan keng ko'lamli ishlarni mo'ljallab qo'ygandi va o'zi egallagan lavozimda o'tirib, krasnovershyelik dehqonlarning Oblog uchun unga ma'lum bo'lgan nizolashuvlari bo'yicha hujjatlar shundoq qo'l ostida bo'la turib, ularni varaqlab chiqmaslik aqlsizlik bo'lur edi; yozning boshlarida qo'rg'on bekasining ijozati bilan Sapegining arxivini titish uchun amlokka yo'l oldi. Uyidan chiqqach, o'zining almoysi-aljoyi notiqli-

gi ham, rus aslzodalar qatlami uchun sharmandali bo‘lgan bu tortishuvning huquqiy muddati o‘tgani ham uning ishi o‘ngidan kelishiga bo‘lgan umidini yo‘qqa chiqarmoqda edi, ammo kunning ikkinchi yarmidagi sersuv iyul yomg‘iri qip-qizil, jaziramadan keyin tutab turgan bedapoya ustida yaltiraydi; tabiatda yuzaga kelgan bu ezgulik, albatta, amlokdorlarga ham joriy bo‘lishiga ishonging keladi. Va shu yerda, asriy Sapegin daraxtzoriga kiraverishda, hovuz ortidan tilog‘och xiyoboniga burilishi bilan Vixrovning yengil aravasi uni o‘zining husni bilan emas, aksincha, qandaydir yuvosh xonaki soddaliqi bilan maftun etuvchi qiz bilan tenglashdi. Yopilmagan boshiga va shaharcha uslubdagagi kalta bichimli ko‘ylagiga qaraganda, u mahalliy qizlardan edi, ammo aslzodalardan emas, chunki oyoqlari yalang, ho‘l sochlari bozorda sotiladigan taroq qadab olgan. Qiz ham uning o‘zi ketayotgan tarafga borayotgan edi, daraxtlar ortida oqarib turgan uyga, qiz xuddi shoshayotganday qo‘llarini tirsagidan bukib olganicha, qo‘llari bilan havoni kesib, o‘ziga yetib olayotgan g‘ildirakning shitirlashidan oldinlab ketishga harakat qilayotganga o‘xshaydi. Ehtimol, bu qiz ko‘ylagi ho‘lligi tufayli orqasiga, ko‘kraklariga yopishib turgani uchun notanish mansabdor oldida noqulaylik his qilayotgandir. Suhbatni boshlash uchun Vixrov yo‘lda ikkovilarini ham jiqqa ho‘l qilgan yomg‘irni koyigan bo‘ldi; qiz esa qizishib, xuddi yomg‘ir o‘zining do‘stiday, jalani himoya qildi: «Har kimning, har narsaning o‘z vazifasi bor». Sapeginlarning xonadonida mehmonmisiz, degan savolga qiz javob berib, urush boshlanganidan beri va xo‘jalik vayron bo‘lgani sababidan bu chirigan makonga hatto vorislar ham kelmay qo‘yishganini aytdi. «Yolg‘iz o‘zim o‘n yetti yildan beri mehmonman, juda uzoq qolib ketdim», – o‘zini tutolmay qoldi u, Vixrov esa qizning talaffuzida qishloqcha shevani payqadi. O‘zining aravada ketayotgani, qiz esa yayov borayotganidan Vixrovga biroz noqulay bo‘ldi, ammo o‘zining oqsoqligini bildirib qo‘ymaslik uchun qizga joyini bo‘shatib berishga jur’at etolmadi. Shunchaki suhbatashib ketish uchun notanish qizga o‘rmonchi o‘zining tashrifi sababini aytdi. Qiz uning soddadilligidan kului: kampirning tushlikdan keyingi uyqusini buza oladigan kuch butun dunyoda topilmaydi; bundan tashqari, o‘tgan qishda Feklusha Ilya Apollonovichning sobiq xonasidan qandaydir shitirlagan qog‘ozlarni o‘choqda yoqish uchun oshxonaga tashib olib kirgandi.

– Men o‘rmon sotib olishga kelgansiz deb o‘ylabman. Biz xardorlarni judaylayam kutib qoldik!

– Qayoqda deysiz, o‘zimning o‘rmonim anchagina, – qo‘l siltadi Vixrov.

Qiz ogohlantirganiday, o‘sha safar uni qabul qilishmadi, ammo ikki kun o‘tib, ayni ish vaqtida, u qachonlardir Demidka o‘g‘irlangan olmaxonni sotgan ayvon yonidagi maydonchaga keldi; chamasi, Vixrovning shunday jaziramada baxmal qaytarma yoqali xos mundirini kiyib yasanib olganiga boshqa qandaydir sabab ham bor edi. Burmali ko‘ylak kiygan, boshiga, yonboshiga yostiqlar qo‘yib olgan Sapegina oromkursida yonboshlab, changdan kulrang tusga kirgan doka tagidagi sha‘mdonlar orasidagi devorga ilingan erining suratiga qarab yotibdi. Vixrov o‘rmon bo‘yicha o‘zining maqsadini ochiqlagani sayin kampirning stearinga o‘xshab ketgan, shishgan yuzi yanayam yig‘loqiroq ifoda kasb etib bordi, o‘rmonchining fikricha – bular Rossiyada yashaydigan har bir vijdonli odam uchun farqsiz bo‘lmagan rejalar edi va nihoyat u xonodon bekasini ishontirish uchun o‘zining ilmiy ishi eng kamida ming sahifadan iborat bo‘lishini aytib gap qistirib qo‘yanida, kampirsho ko‘zlarida qo‘rquv bilan mehmoniga qiya qarash qildi. Ehtimol, uning nazarida hozir bu etik kiygan, mo‘ylovli mujiksifat mansabdor qo‘ynidan bir uyum yozuvli qog‘oz chiqaradi va xuddi ko‘pincha marhum Ilya Apollonovich xotiniga qilgani kabi har xil safsatalarni o‘qib berish vositasida, bekaning ruhini tanasidan chiqara boshlaydi. Va rostdan ham Vixrov o‘zining yoshlarga xos bo‘lgan uyatsizligi bilan kampirning Pomeraniyaga ravona bo‘lishiga qadar qolgan oxirgi bir necha daqiqalarini tortib olayotganida qandaydir axloqsizlik borday edi... Ammo bordaniga beka jonlanib qoldi va uning falajlangan qovoqlari ostida ko‘z yoshi aralash yolqin olovlandi.

– Xursandman... bilimli... o‘zimizning doiradan, – bo‘g‘iq ovozda xirilladi u, nafasi qisib so‘zlarini yo‘qotib-yo‘qotib qo‘yarkan. – O‘zing ko‘ryapsan ahvolimni... nochorlik tuzog‘ida... yordam bersang bo‘ldi... yoshgina, yoqimli ekansan.

– Men, o‘zim tomonimdan... imkonim darajasida... – uning uzuq-yuluq gapirishi o‘rmonchiga ham yuqdi, u shosha-pisha ko‘makka tayyorligini bildirish ifodasi sifatida chekib tugatilmagan papirosinu duxoba dasturxonga, zarang barglari solingan, qulupnay to‘la savat-chadan nariroqqa qo‘ydi.

— Uyga jo'nashim kerak... suyaklarim... qaysi mablag'imga ketaman, a? Hammasi bankka... garovga qo'yilgan... hech vaqo qolmadidi... hammasini tortib olishdi... quturgan tentak boshlab berdi, nabirajonlarim oxiriga yetkazishdi... majburiyat vasiqlari... haqini o'zimga to'lasin-da... u yog'iga... menga desa to'nkasigacha kovlab olsin!

Ish kutilmagan tomonga aylanib ketdi, Vixrov amaliy hayotda o'ta soddadilligi bilan boshqalardan ajralib turardi. Chamasi, kampir puqli nazarda tutyapti, yigit maoshgacha necha kun qolganini hisoblay boshladi.

— Rostini aytsam, men bajon-u dil, agar marhamat qilib kutib tur-sangiz... ayni vaqtda esa... muhtojligim boisidan... endigina kelib joylashganman, yonimda mablag'im yo'g'idi.

— E, sani pulingni boshimga uramanmi... — ingrab yubordi amlok-dor kampir buning qarollarcha farosatsizligidan. — Oblogda yana sakkiz botmonlarcha o'rmonim bor... Sening yog'ochfurush tullak tanishlaring bordir, axir... firibgarlarning eng marazini huzurimga yubor: baribir mul-kimni chuvrindilar talab ketishadi. O'zing ham... u-bu narsalik bo'lib qolasan... — So'ng holsizlanib, boshini yostiqqa tashladi, gapirishga madori qolmaganidan, tizzasida yugurib qolgan barmoqlari dallolga ham yaxshigina tamaki puli qolishini anglatuvchi harakatlar qila boshladi.

O'zini qanday yumushga yollashayotganini o'rmonchi avvaliga tushunmadid... So'ng birdan uning shuurida tizzalari bukilgan holda ikonalar tagida yotgan otasi, uning yonida esa to'nka ustida o'tirgan mast holdagi Kalina namoyon bo'ldi va ko'z oldi xiralashib ketdi. Boyonlar qatlamiga nisbatan doimo bir qadar kitobiyroq bo'lган naf-rati — chunki qishloqdan juda erta chiqib ketgan edi-da — birdaniga dehqoncha qonida qaynab ketdi... va takabbur boylarning basharasi-ga aytish uchun munosibroq bir so'zni o'ylab topgunicha — bekaning qo'ng'irog'iga har xil xizmatdagi mulozimlari kirib kelishdi: olv-rang-malla sochli qiz qorag'at musallasini ko'tarib kirdi, xo'jayindan qolgan eski jujuncha kiygan qulbashara qandaydir g'irt mast chol va nihoyat tilog'ochli xiyobonda duch kelgan, o'sha, Vixrov bir soat davomida sabrsizlik bilan kutgan qiz. Avvalgi ikkovi kampirning qo'liga qarashdi va faqat o'zlarigagina ma'lum bo'lган qandaydir ishoradan keyin darhol daf bo'lishdi.

Sapegina yarim savolomuz qandaydir ovoz chiqardi.

— Bu men, — xotirjam javob qildi o'sha, uchinchisi.

– Ko‘rmayapman... o‘zingni tanishtirishing kerak edi, – tazyiqona xirilladi kampir.

– Xo‘p, bu men, Elen, – itoatkorlik bilan kimligini aytdi, ammo xuddi limon tishlaganday, lablari bujmayib ketdi.

– Quyushqondan chiqib ketding... qara-ya! Mana buni ko‘rib qo‘y, otaxon: menga arilarniyam gijgijlayapti.

Qiz lablarini tishlaganicha biroz vaqt yerga qarab turdi.

– O‘zingiz uch kun avval murabbo so‘radengiz, lekin yemadingiz... arilar o‘shanga kelyapti! – uning ovozida qahr jarangi sezilganday bo‘ldi-yu, tezgina so‘ndi. – Xo‘p bo‘ladi, yig‘ishtirib qo‘yaman...

– Modomiki uch kundan beri turgan ekan, yeb qo‘ysang ham bo‘lardi. E, xudoyim, endi kuyindining isiyam kelyapti... bu qiz meni tiriklayin yondirib yuboradi-da.

Vixrovning papiroasi dasturxonni kuydira boshlagan edi; u sezdirmaygina kuyukni o‘chirdi va ashyoviy dalilni cho‘ntagiga solib qo‘ydi. Va qiz olgan nafasini ichida tutib tura oladigan fursatga yana jim qoldi.

– Dasturxonni shu yerga tuzaymizmi yoki ayvongami?

– O‘sha yoqqa, o‘sha yoqqa... Bu odamga qog‘ozlar solingan sandiqni ko‘rsat... anavinisini emas... unisinimas... boshqasini. O‘sha yerda aroq bilan mehmon qil... etik kiygan manavi janobni, – endilikda alam bilan emas, balki hatto jonli qiziqish bilan qo‘rg‘ondagi tartib-qoidalarni kuzatishni boshlagan o‘rmonchiga sezilar-sezilmas imo qilib qo‘ydi. – Nega turib qolding, tikilib qolding... erkak ko‘rmaganmisan... jo‘na!

Hamma narsaga ko‘nikib qolgan qiz javob bermadi, faqat barmoqlarining uchlari salgina qimirladi va asabiy qoshlari titradi.

Vixrovning qo‘rg‘onni darhol tashlab ketishiga nimadir xalaqit bermoqda edi, lekin bu hech narsaga qaramasdan, albatta, maqsadga yetishishga ahd qilgan xalqona qaysarlik emas, balki qizning hozirligida bo‘lib o‘tgan haqoratli voqeа uchun o‘z aynini yuvish ehtiyoji edi. U mehmonlar xonasidan chiga turib, noqulay holatda qizning qo‘lini qisib qo‘yishga intildi, lekin Lenajon uning maqsadini tushunmasdan, o‘zini ortga tashladi va o‘zini baland tutib, unga kibr bilan qaradi, o‘rmonchi esa uning ko‘zlarini atrofidagi erta tushgan ajinlarni payqadi.

– Bu xorliklar uchun sizga qancha haq to‘lashadi? – sokin so‘radi u.

– Sizga nima qizig‘i bor?.. Cho‘rilikka yollamoqchimisiz?

– Shunchaki, qiziqish va achinishdan so‘radim.

— Menga nima uchun haq to‘lashlari kerak: men o‘zlarinikiman. — Va suhbat mavzusini o‘zgartirdi: — Shartta aroqdan boshlaysizmi yoki avval sandiqni ko‘rmoqchimisiz?

— Shartta sandiqdan boshlasam degandim, — qizning qahrini to‘g‘ri tushunib, hazilomuz ta’zim qildi Vixrov.

— U holda... bu yerdan to‘g‘ri yo‘l yo‘q, hovli orqali o‘tib borishi-mizga to‘g‘ri keladi.

Burg‘un bosgan tomsiz aravaxona yonidan va eski miz tepasidagi yopiq turgan deraza qopqasi tirqishidan tushib turgan quyosh nurida yaltirab ko‘rinayotgan, kesishtirib ilingan oybolta bilan kurdiy shamshir yaltirab turgan nimqorong‘i xonadan kesib o‘tib, qiz mehmonni aylanma zinadan boshlab ketdi va Vixrov zina bo‘ylab yuqoriga chiqib horar ekan, qiz tarixiy arbob va tarjimonning muqaddas xonasi eshigini ochdi. Yarim to‘la kitob javonlari qo‘yilgan pastak xonani sichqon va poxol hamda yerda sochilib yotgan, g‘ajilgan kitoblarning hidi tutib ketgan; rangdor g‘ira-shiralik bu yerga yagona derazaning piramoniga o‘rnatilgan naqshinkor vizantiya rangli oynachalari orqali kirib turibdi.

— Mana, qarang... Bu yerda Feklushadan ortib qolgan narsalarning hammasi, — dedi Vixrovning yo‘ldoshi va o‘girilib, o‘rgimchak inlari qoplagan deraza oldiga o‘tirdi.

Pashutin o‘rmonchisi milliy moziyogohga munosib bo‘lgan, kimningdir jasoratidan ilhomlanib yaratilgan, ehtimol vayronkorlarning gulxanidan o‘g‘irlab olingen, Kichik osiyolik chiqindi to‘plovchining qopidan parijlik antiqvorfurushning peshtaxtasigacha olis yo‘lni bosib o‘tgan, rus boyoni Vixrovning bobolarining tobeglilik mehnati evazi-ga topgan puliga sotib olingen va hozirda yerga sochib tashlangan va savodsiz merosxo‘rning johilligi tufayli chirishga mahkum nashrlarga va bebafo bitiklarga ehtiromli sarosima hissi bilan boqdi. U nazariga tushib qolgan kitobni — Venetsiya dojlarining ikonografiyalarini yerdan ko‘tardi va Feklushaning yalang oyoqlarining loyli izi tushgan, misga o‘yilgan Nikola Kontarenning suratini yengi bilan artdi. Keyin qiyamasiga yozib tashlangan qog‘oz varag‘ini tavakkaliga ko‘tardi va har qanday rus davlatchiligi uchun mustabid vizantiylikning muqarrarligi to‘g‘risidagi mulohazalarini tabassum bilan o‘qib chiqdi. Yo‘q, bu yerda tengsiz kurashda otib tashlangan noma‘lum yengalik mujik haqida bir yarim satrgina ma’lumotnomani topish amri mahol; ko‘rinishidan eng sara xazinalar saqlangan, hozirda yarmi bo‘sh temir

qutidan bunday hujjatlarni izlash bundan ham foydasizroq edi. Qutining eng yuzidagi asar muqovasining sirtidagi yoyilib ketgan yozuviga qaraganda, bu qadimiy yunon injilining bir bo‘lagi edi;

Yomg‘irlarning sarg‘ish oqmalari kinovarni va ming yillik go‘zal zarhalni yuvib yuborgan edi va Vixrov hozir o‘zining qo‘lida turgan titilib va g‘ijimlanib ketgan qog‘ozga qancha rus zig‘iri va daraxti ketganini miyasida hisoblab ko‘rdi.

– Tomni ta’mirlash kerak, hurmatsiz janoblar! – jahl bilan dedi u va birovning mulkini olgan joyiga tashladi.

Buning ortidan u deraza oldida parvosizgina jim turgan yo‘ldoshiga rahmi ham keldi. Kampirning yaqindagina qilgan qilmishining asoratini yumshatish uchun u kasallarning va keksalarning qilg‘iliklaridan ranjish o‘rinsiz ekanini aytdi, ammo-lekigin, albatta, har qanday ichga yutilgan, oshkora aytilmagan g‘azab qullik darajasini oshiradi. U hatto qizdan: meni eshityapsizmi, deb so‘radi.

– Bo‘lmasam-chi! Mana siz tom borasida koyiyapsiz, bizda hamma joydan chakka o‘tib yotibdi. Kampir hech narsani tuzatishni xohlamayapti. Pullarni jo‘nab ketish uchun to‘playapmiz. – Va biroz jonlanib, Pomeraniya mamlakati bu yerdan qaysi tomonda joylashganini to‘satdan so‘rab qoldi.

– Demak, siz kampir bilan Rossiyadan jo‘nab ketishga qaror qilibsiz-da?

– Aldab ketishi mumkin, agar olib ketsa borardim. Bu yerda yolg‘iz qolishgayam qo‘rqaman.

– Qo‘rqinchli nima bor?

– O‘ldirishadi.

Vixrovning qovog‘i uyildi.

– Kim sizni o‘ldiradi?

– Dehqonlar, albatta, – dedi u chorak asr davomida xonaga tasodifan kirib qolgan jonsiz kapalaklarni mo‘ylovlarini o‘rtaga qaratib, deraza tokchasiga titroq barmoqlari bilan terib chiqar turib. – Ular bizdan qanday nafratlanishlarini bilasizmi? Hatto tushlarimda ham ko‘raman: go‘yo ular kechasi anavi darvozadan kirib kelishadi... bizni jazolash uchun! – va deraza ortida, to‘q yashil bog‘ orasida oqarib ko‘rinib turgan kirish arkasini ko‘rsatdi. – Taxminan o‘n bir kishi, hammasi qora kiyingan, xuddi butxonaga kelishganday, ya’ni ibodatga... Oldinda esa mayfurush Zolotuxin...

– Xo‘p, ularning qo‘llarida nima bor... tabar bilan kelishdimi... yo shunchaki tayoqlar bilanmi? – qattiq qiziqish bilan surishtirdi Vixrov, chunki o‘zi ham ko‘p martalab sabrning chegarasida xo‘rlangan xalq hayotining himoyasi uchun bo‘ladigan muqarrarlik haqida o‘ylagan edi, – xullas, uning kasb tili bilan aytganda sanitar kesish.

– Bunisi ko‘rinmaydi... hammasining qo‘li orqasida. Orqa tomondagи оstonadan yong‘in yolqini ko‘rinadi va yer yuzalab tutun o‘rmalaydi, men nastarin butasi ortiga yashirinaman, qo‘rqqanimdan nafas ham olmayman, ular meni tutib olishga urinishmayapti, faqat qaysi tomonga qochishimni poylab, ko‘z qirlarini tashlab turishibdi.

– G‘alati safsata. Kim sizni bunchalik qo‘rqtib qo‘ydi... kampirmi?

– Bilmasam, balki kampirdir. U notinch bo‘lib qolgan, nuqul surat bilan so‘zlashadi. Ba‘zan esa yarim tunda uyqumdan uyg‘otib, atrofda yovuzlar shovqin ko‘taryaptimi yo yo‘qmi qulq solishni buyuradi. «Menga endi baribir, go‘r og‘zida turibman, deydi, sen esa yoshginasan, ayab o‘tirishmaydi», – ravshan nigoh bilan, lekin aytayotgan so‘zlarini o‘zi tushunmayotganday gapiradi qiz va Vixrov uning ko‘zлari atrofidagi ajinlarning paydo bo‘lishi sababini tushundi. – Menga ham hamma narsa baribir bo‘lishi uchun qani edi men ham keksayib qolsam...

Vixrovni o‘shanda bu og‘ir xo‘rsinish, o‘z taqdiriga ehtirosli itoatkorlik qattiq dahshatga soldi. Har qanday vijdonli inson uning o‘rnida u kabi barcha ellar orasida adolatli va olivjanob bo‘lgan o‘zining xalqi haqida qizg‘in so‘zlaydi, chunki iroda kuchi va tarixining kengligi bo‘yicha uning tengi yo‘q, u o‘zgalarning baxtsizligiga e’tiborli, uning qo‘shiqlari sokin va qayg‘uli, alohida mehr bilan *Tungina* ashulasini eslash mumkin – u insonning sofligi va g‘ururiga inonadi va bu ishonchni o‘zining cho‘zilib ketgan tunining rutubatlarida sha‘m kabi ko‘tarib o‘tdi; Vixrov o‘ziga yoqib qolgan qizni o‘zining qo‘rqinchli tasavvurlaridan ayirishi mumkin bo‘lgan har bir narsani nazardan o‘tkazishga harakat qiladi va birinchi navbatda xalqning e’tirofiga sazovor bo‘la oladigan fidokorona mehnatni eslatdi, chunki elning e’tiboridan hech narsa chetda qolmaydi: yashirin qilingan yaxshilik yokigim yomonlikning eng mayda zarrasi ham.

Qiz uning aqli va chiroyli so‘zlar yordamida begonaning g‘amdan xoli bo‘lishiga yordam berishga qilgan harakatlariga sabr bilan bosh chayqab turardi.

– Quruq so‘zda hamma narsa silliq chiqadi. Aytganlaringizning bitta to‘g‘ri jihatni bor, qo‘sish – ibodatning boshqa tomoni. Nimayam derdim, shunisiga ham rahmat... .

– Hozircha minnatdorlik bildirishga asos yo‘q, azizam bekaqiz, – noqulay holatga tushdi u. – Siz o‘zingiz ularga, yana qaytaraman, eng yaxshi odamlarga yaqinlashishga hech harakat qilib ko‘rganmisiz?

– Sizni endi qanday tushunishim kerak?.. O’shalarga xushomad qilishim kerakmidi?

– Yo‘q, men aymoqchimanki, – xalq bilan ochiq so‘zlashishingiz kerak edi, chunki bu odamlar sizning ham xalqingiz... yoki oxirigacha qo‘rg‘onga qamalib o‘tirmoqchimisiz?

– Busiz iloji yo‘q, harakat qilib ko‘rganman, – sovuqqina tan oldi qiz, ajoyib chiroyli tishlari qatorini yaltiratib. – Masalan, o‘tgan kuni, har doimgiday o‘rim oldidan, ularning qizlari Zapoloski etagida davra raqsiga jamlanishdi. Men ham ular bilan birga qo‘sish aytgim keldi, tomog‘im qichishib turgan edi. Men ularga yaqin borib, kuta boshladim: zora chaqirib qolishsa deb. Ular esa meni ko‘rishlari bilanoq, birdan o‘yin-kulgini to‘xtatib, dala bo‘ylab pastga yugurib ketishdi. Bit-tasi hatto ortiga o‘girilib, barmog‘ini o‘qtaldi, meni mazahlab kuldil...

– Siz darrov xafa bo‘ldingizmi?

– O’shalarning nimasidan ranjiyman... men hatto pichan bog‘lashni ham bilmayman, demak ularga keragim yo‘q. O‘rganganim faqat tikish, yamash, kampirni cho‘miltirish... boshqalarga ishonmaydi. Yana olchani sirkamoylashni bilaman: qaznoq to‘la olcha... uni yeydigan mehmon yo‘q... sizga aroqning gazagi uchun bir taqsimchasi solib beraman. – Keyin hamma aytganlarini o‘zi yo‘qqa chiqarib qo‘ya qoldi: – Hechqisi yo‘q. Odamlar yeyishmasa yong‘inning o‘zi hammasini yamlab ketadi!

Qizga achinish va uning so‘zları samimiyligiga nisbatan qo‘qqisdan uyg‘ongan shubha Vixrovning yuragida o‘zaro kurasha boshladi; u o‘z yo‘ldoshining ko‘zlariga tikildi:

– Siz rostdan ham unga ishonasizmi?.. Olovga ishonasizmi yoki hammasi faqat og‘izdam?

Qizning ichga yutgan g‘azabi lablaridan ilonday vishillab chiqdi:

– Aldashimdan qanday ma’ni bor?

– Men ham shuni bilmuoqchiman.

– Meni ranjitish o‘z ixtiyorungizda... hatto yong‘in boshlanadigan joyni ham ko‘rsatishim mumkin. Men sizga noliyotganim yo‘q... Hat-

to kimligingizni ham bilmayman! – bosiqlik bilan dedi u va hasharotlar qabristonini tokchadan yerga sidirib tushirdi. – Xo‘p, nima qilasiz, eski-tuskilarni kovlashtirasizmi yoki uyingizga qaytaqolasizmi? Mening o‘z yumushlarim yig‘ilib qoldi...

Feklushmaning talon-torojlaridan asrash uchun kitob omborini qulflagan qiz Vitrovning qorong‘ida zinadan oqsoq oyog‘i bilan yog‘ochni taraqlatib pastga tushib olishini tepada sabr bilan kutib turdi. Yoshlar chap qanotga, bir paytlar Knishevning aravasi turgan joydagi asrlik jo‘ka daraxtiga bog‘langan yengil arava tomon yurishdi. Ammo Vixrovning qattiq iltimosiga ko‘ra ular o‘sha tomonga aylanma yo‘l bilan, hovuzning narigi tomondan borishdi, chunki mehmon o‘zining Demidka bilan bolalik sarguzashtlari sodir bo‘lgan joylarni ko‘rishga bo‘lgan tiyiqsiz istagini qondirishni xohlab qoldi, shu jumladan qo‘ynida yapaloqqush bilan uzoq va behuda yurishlari davomida toptalgan o‘t-o‘lanlar qayta tiklanganmi yo yo‘qmi, ko‘rgisi keldi. Yo‘l-yo‘lakay hamrohining ismi rostdan ham Elen ekanini so‘radi, qiz esa hech qanday afsuslarsiz va pranjishlarsiz, ilgari ismi Lenajon bo‘lganini, lekin bir paytlar urush arafasida, yosh xo‘jayinlarning xohishlari bilan uy jihozlariga ingliz matosini qoplashdi, bog‘dagi o‘tlarni o‘rishdi, yangi salt otlar va tozi itlarni sotib olishdi va shu bilan bir qatorda qo‘rg‘onning yangi qiyofasiga mos ravishda uning ismini ham o‘zgartirib qo‘yaqolishdi.

Bu safar ham Vixrov uning ochiqchasiga o‘zini kamsitib gapireshida, itoatkorlik emas, mavhum, hech kimning tarafini olmagan holdagi da’vat, kim bo‘lsa ham, har qanday odam kelib uni o‘zining qo‘rquvlaridan va kundalik kamsitilishlaridan xalos etishi talabiga ataylab singdirilgan ma’noni sezdi. U ta’nani qabul qildi.

– U holda, ijozatingiz bilan men sizni avvalgi ismingiz bilan Lenajon deb chaqiraman, chunki Elen... rus tabiatiga ko‘ra xuddi laqabday eshitiladi! – dedi u va keksalarga xos bo‘lgan ohangda ikkovlarining o‘rtalaridagi o‘zaro munosabat borasida do‘stlik va g‘amxo‘rlikdan boshqa ma’noni xayoliga ham keltirmaganini qo‘sib qo‘ydi: – Mana mening oddiy maslahatim: bu yerdan darhol oqib ketishingiz kerak. Darhol, boringizcha, ortingizga o‘girilmasdan, hech narsasiz oqib keting.

– Qayerga, qayerga oqaman? – u qo‘llarini ensasiga qo‘yib, yolg‘on kulgi bilan kuldi. – Agar turmushga chiqish bo‘lsa, bizning

kuyovlarimiz hozir tuproq tagida yotishibdi. To'g'ri, bittasi men bilan unashtrilgan edi, yosh Zolotuxin... shunaqasini eshitganmisiz? U ham sirtdan unashtrilgan, otasi orqali.. buning qissasi uzun, eslashga ham irganaman. Ochig'i, o'shangang jon deb tekkan ham bo'lardim... har holda tabar zarbidan ko'ra tuzukroq! O'shanda nima uchun niyatlaridan aynib qolishdi, bilmayman. Yengiloyoq yoki tutqanoq bo'lsam ham boshqa gap edi... o'sha paytlarda hozirgidan ko'ra chiroyliroq, yoshroq edim. Bundan tashqari, kampir ham hech kimni yonimga yo'latmayapti. Ketib qolishimdan havotirda: vorislari Peterburgda semirishyapti... yodg'iz o'zi mensiz kim bilan qoladi? Siz bilan kelishimga ruxsat bergani esa, siz judayam... nomunosib-siz. – Chamasi u ochiqchasiga yarim shama qilib, o'zining oqsoq va beso'naqay yo'ldoshi bu borada qanchalik xavfsiz ekanini aniqlab, o'zining yashirin maqsadlari borasidagi Vixrovning mahfiy va yovuz shubhalariga barham bermoqchi bo'ldi. – Yetar, siz bilan ko'p valaqlashib qoldik. Kampirni ovqatlantirishga boray, bo'lmasa tuni bilan asabimni g'ajib, suratga mendan shikoyat qilib chiqadi.

... Shu joyida Polyaning ham qiziqlishi tutib qoldi, rostdan ham, nima uchun o'sha paytda Zolotuxinlar onasining chorasisiz vaziyatidan foydalanib qolishmagan? Taiskaning tushuntirishicha, boshidanoq Sapecinlarning chala qizbekasi shixanovlik mayfurushning xonadoniga nomunosib bo'lgan ekan; shu orada urush boshlanadi va Demid Vasilyevich olmonlarga asir tushib qoladi. Unashtiruvning o'zini esa Zolotuxinning uzoqni ko'zlagan hiylasi deb tushunish kerak, u o'zining ayrim masalalardagi manfaatini o'ylab, kampirni sindirmoqchi bo'lgan: gap Sapecinlarning Zapoloskilarini sotib olishga taalluqli edi. Polya ilgarigi turmushning xususiyatlari haqida mutlaqo hech narsa bilmagani boisidan, Taiska gap orasida ayrim maishiy ikir-chikirlarga izoh berib o'tishiga to'g'ri keldi, busiz Polya suhbatning keyingi davomida hech narsani tushunmasligi mumkin edi.

5

Zolotuxinlar boyligining kelib chiqishi haqida Polyaning suhbatdoshi Yenganing qariyalari so'zlab berishgan voqealar orqaligina bilar edi. Ovozalarga ko'ra, Zolotuxin o'zining yoshligini muzofot bo'ylab izg'ib, *ayrboshchi* sifatida o'tkazgan ekan – obakidan-donga va arzon attorlik mollariga kanop mato qiyqimlari, cho'yan

bo'laklari, chorvaning shox-tuyoqlarini ayirboshlab o'zining sa-riq chaqasini topgan ekan. Turmushi ham, tunashi ham aravasining ichida o'tar ekan, diniy marosimlarda, podshohlik bayramlarida boshqalardan alohida chetlanib turadi: xushbo'y tutatma tutuni orasidan ham eng tuban qashshoqlikning xos hidi bo'lgan o'limtik va nafasni bo'g'uvchi mog'or va chirishning qo'lansa hidi urib turardi.

Ammo sal keyinroq Taiska o'zini taniy boshlagach, Krasnovershyedagi eshik-deraza qopqalariga yurak shakllari o'yilgan, tomi hozircha yupqa kapantaxta bilan qoplangan – ammo tunuka yo'qligidan emas: tunuka allaqachonlar omborga taxlab qo'yilgan! – shunchaki hasadli yovuz ko'zlardan asranish, qo'shnilaridan ajralib turmaslik uchun; faqat mana shu deraza tagida unga odatdagi mog'orlagan burda o'mniga chiroyli mis tanga berishar edi. Asr boshlariga kelib, Zolotuxin o'g'illarini uylantirib, qizlarini erga bergach, baqqollik qilishni va bayrambozorlarda eskifurushlikni boshladi, ammo yo'lovchi, tovar tashish faoliyatini o'zining asl kasbi deb bilar-di va e'tirof etish kerakki, uning arobalarida hatto g'irt mast odamlar hamsovqotib qolishmas, omonatdor Zolotuxinga ishonib topshirilgan yuklar orasida bitta mix ham yo'qolgan emasdi. Agar Knishevning Yenga o'rmonlariga mashhur hujumi bo'lmanida Zolotuxinning umri balki mahalliy ahamiyatdagi tadbirdor sifatida shundoq zaylda o'tib ketgan bo'lardi. Boy bo'lishning o'sha ko'rgazmali mакtabida peterburglik olibsotarning abjirlik va ishbilarmonlik sabog'ini kuzatgan Zolotuxin butun ich-etini yeb tashladi; bu o'quv amaliyotining oxirida o'rmon kesuvchilar yog'och xumlar to'la aynigan sudak balig'i va achigan arzon musallas bilan mehmon qilinganlarida krasnovershyelik boyonning paytavasiga qurt tushib qoldi: u endi ko'priq tagiga biqinib, shashvar bilan yo'lto'sarlik qilishga ham tayyor edi.

U eng avvalo o'zining ahvoliga nazar soldi va o'zi shug'ullanayotgan mayda-chuyda ovoragarchiliklardan nafratlanib ketdi, ayniqsa xo'rozi o'zining asosiy vazifasini uhdalab yurishi uchun Zolotuxinning shaxsan o'zi go'ng ichini titib, ichidan suli donlari ni terib olganlari va buni hammadan yashirib, xo'rozini shu bilan to'ydirganlari; o'zining depara miqyosidagi kulagini qistatadigan nufuzi va o'zining hovlisida qo'riqchi it kabi kuzatuv o'matib erishgan farovonligi; yana cho'chqaxonadagi cho'chqa bolalarining chinqi-

rig‘iga nisbatan nafrat, moychiroqlarning xira nuri, yoshligini sarf-lab yuborish evaziga to‘plangan boyligini ishlatmasdan yashirib yurishlari; hatto o‘zining kuyovlaridan ham ularning itoatkor va yuvosh ekanliklari, tekin qul ekanliklari uchun, chorakorlarni esa bir kaft suli uchun yuzlari yorishib, och bo‘lsalar-da, o‘lmay tirik yur-ganlari uchun quvonishlari tufayli nafratlanadi. Ana shuning oqibati o‘laroq bu xonadonda Taiskaga endi sariq tanga u yoqda tursin, qora chaqa ham bermay qo‘yishdi, chunki endi Zolotuxin o‘z oilasini ham chala ochlikka mahkum etdi; o‘zining suyukli Demidkasining badanidagi yog‘ni ham sidirib tushirdi... Aytib o‘tmoqlik joiz, u birinchi paytlarda ota-onasining umidlarini oqlab yurdi, ammo ulg‘ayib bor-gani sayin tojirlikka nafratini namoyon eta boshladи, kitoblargacha qizi-qib qoldi, otasining jismoniy tarbiyasi ham unga ta’sir qilmay qo‘ydi va umuman, qalb kasalligining shunaqangi turiga uchradiki, qishloq tilida bu dardning nomi – *mulohaza qila boshladi* deyiladi... Erta o‘lim cholni o‘z o‘g‘liga nisbatan oxirgi iztiroblardan xalos etdi.

Ota Zolotuxin o‘sha paytda ellik yoshdan o‘tgan edi; uning yoshi o‘tdi-ketdi, o‘zining fikricha esa, u Rossiyani talon-toroj qilishning allaqachonlar boshlangan tadbiriga uning o‘zi kechikib kirishdi. Biri-biridan g‘alati orzular uni vasvasaga sola boshladи – o‘zining poli-zida oltin konini topmasa-da, hech bo‘lmasa neft konini ochsa ham mayli edi, yoki saylovlarda Davlat majlisiga deputat etib saylansa, xalq ichidagi ovozalarga qaraganda, u yerda har bir yigelishda qat-nashganing uchun yuz so‘mdan to‘lashar ekan. Tavriya saroyining minbariga chiqsa-da, qadama ko‘ylakli, qimmatbaho uzuklar taq-qan, soqollari parvarishlangan olifta korchalonlarga bor ovozi bilan qichqirsa – «*menga ham!*» – toshdan suv chiqqanday daromadlarini chiqarishsa-da, u bilan bo‘lishishsa. Yangi bo‘ronlar yaqinlashayot-gani haqida mahalliy rohib Trinitatov hazratdan, otboqardan, eserdan va Boshkentda chop etiladigan rasmili nashrlar obunachisidan eshit-di, – o‘zining dehqonlar tabaqasiga mansub ekanligini nasliy maqom sifatida ko‘rib, Zolotuxin to‘ntarishni pismiqlarcha kuta boshlaydi: agar podshoh paytida biror narsalik bo‘lib qolgan bo‘lsa, podshoh-siz esa la’nati xo‘jayinlarni qiyma qilishgach, uning qavmni erkin shilishiga yo‘l ochiladi. Rossiyani qayta bo‘lishib olishning buyuk tadbiriga so‘yil ko‘tarib tayyor turishga to‘g‘ri keladi. Knishevning saboqlaridan keyin o‘rmon bilan shug‘ullanishga qaror qilib, u birin-

chi qadamlaridanoq Krasnovershye tarafdan o‘z qo‘rg‘oniga qo‘shni bo‘lgan Sapeginlar Zapoloskisini o‘zlashtirib olishni mo‘ljallab qo‘ydi.

Bu juda ajoyib, olti yuz botmonli va demakkim Zolotuxin bemalol tasarruf eta oladigan baland bo‘yli qarag‘ayzor edi, mujiklar bunaqa daraxtlarning tanasini *uchlamali* xodabop deb atashadi, ya’ni undan to‘qqiz gaz uzunlikdagi uchta toza xoda chiqadi – qusursiz, ko‘zsiz, darz-yoriqlarsiz; daryo bo‘yi o‘tloqlari yaqinida joylashgani uchun bu yog‘ochlarni oqiziq qilish ham qiyin kechmaydi. Mayfurushning bu o‘rmonni qo‘lga kiritish istagi mo‘may daromad qilib olish qutqusi emasdi, to‘g‘ri, buning foydasini oxirgi tiyinigacha hisoblab qo‘ygan, ammo asosiy maqsadi bu ishga qo‘lini o‘rgatib, ko‘nikma hosil qilish. U o‘zining muvaffaqiyatiga shubha qilmasdan, shirinkomasi ni ko‘targanicha amlok bekasining qo‘rg‘oniga jo‘nadi, to‘g‘ridan to‘g‘ri rad javobini berishmadi-yu, lekin uyiga kelishuvhsiz qaytdi. Sapeginning bevasi amlokning Zapoloskidan boshqa istalgan qismi ni sotishga ko‘ndi, emishki, bu o‘rmon unga qishning qahratonlariga qarshi tabiiy ixota ekan, temiryo‘l bug‘tortarlarining chinqirig‘idan himoya bo‘lib, bu qichqiriqlar uning uyqusini buzib sababsiz anduh-larga botib o‘tirishiga sabab bo‘larkanmish. Ikkinchisi tashrifdan keyin Zolotuxin rosmana ranjib qoldi, chunki Knishevga katta-katta maydonlarni sotibdi-yu, o‘zining qo‘shnisidan esa shu kichik daraxtzorni qizg‘anyapti... Vaqt o‘tib borishi bilan qariya bayramlarda, tushki ibodatdan keyin, qo‘rg‘onga borib, bekorga uvol bo‘lib borayotgan boylikka achinib oh-vohlashni, eski e’tiqodchi sifatida taqsimchadan achchiq qahvani jirkanish bilan ho‘plab, xushxonad bilan, mulo-yim tahdid bilan, dahshatli nihoya topgan hodisalarini so‘zlab berib qo‘rqtish bilan asta-sekin ko‘ngli cho‘yanday qattiq bevani egov-lashni, arralashni, o‘tmas randa bilan ezib-g‘ajib randalashni odat qilib oldi. Mavridini topib, kampirdan, agar shu o‘rmonda yong‘in sodir bo‘lsa, ishqilib mulklaringiz sug‘urtalanganmi, deb so‘ragan bo‘ladi, ba‘zan eshik-teraza tabaqalarini tortib ko‘rib, xuddi bosqinchilar tunda talab ketadiganday afsuslanib bosh chayqaydi. Zolotuxinning avval boshdanoq amalga oshmay qolgan rejasi uning o‘ziga hadsiz-hisobsiz zarar keltiruvchi ruhiy dardga aylandi; mayxona bilan qo‘noqxona uchun juda bopta bir binoni ko‘rib kelgan Shixanov Yarga ko‘chib ketishdan ham voz kechdi: Zapoloski chegarasidan boshqa tarafga bir qadam yurishga ham toqati qolmadi.

Tashqi ko‘rinishidan u chayir, novcha va ozg‘in, ajinlari yuzlari- ni shudgorlab tashlagan, ildizmonand soqoli siyrak; uning ayanchli pirpirab turgan malla kipriklar bilan hoshiyalangan ko‘zlarida qayg‘u uchqunlanib turibdi. Boshqalarga hukmfarmo bo‘lgan amlokror beka uning hozirligida hayiqib turadi, o‘zini asrash hissidan uning ko‘zlariga uzoq qaray olmaydi, ammo o‘ziga dushman orttirib olmaslik uchun uni haydab yubora olmaydi ham, zero har tomondan qo‘rg‘onni qurshab kelayotgan dehqonlar dengizining kayfiyatlarini birinchi manbadan bilib turishga intilish vasvasasi bunga sabab edi. Rossiyada yashab turgan vaqt davomida u shunga ishonch hosil qiliшга ulgurgani – dunyoda mulk egalari uchun mana shu yerdan ko‘ra xatarliroq joy yo‘q ekan, bu yerda hech kim o‘zini kelajak qismatidan asray olmaydi. Ruslashib ketgan ajnabiy ayolning tahlikali ahvoli Zolotuxinning gardkam o‘yinida asosiy ganga tikilgan edi. Xizmatkorlar uni qo‘rg‘onga e’tirozsiz o‘tkazib yuborishlarining sababi shundoq mulohazada ediki, kampir o‘zining Pomeraniyasiga daf bo‘ladi, Zolotuxin esa ular bilan umrbod qoladi... Ayvonchali bosh kiyimini sal chekkaroqda tutib, uni surbetlarcha bir daqiqqa kutib turishga majbur etganlariga qat’iyat bilan sabr qildi, keyin ijozat berib g‘ichirlash ovozi keldi, bu oromkursining ovozimidi yoki bekaning xirqirashimi, tushunarsiz... Kampir dag‘al matoli soyabon tagida yonboshlab yotibdi, boshidagi doka qalpoq ostidan terisi sarg‘ayib ko‘rinadi.

– Bu men, krasnovershyelik Timofeichman, xabar olgani keldim... mumkinmi? – va zinapoyadan ko‘tarila boshladi, har qadamini yog‘och to‘shamaning ko‘chib ketgan taxtasiga qo‘yishga harakat qiladi, taxtaning boshqa uchi har safar ko‘tarilib, Sapeginani cho‘chitib yuboradi. – Nima bo‘ldi, o‘rmon masalasini o‘ylab ko‘rdingizmi?

– O‘ylaydigan ahvolda emasman, Timofeich. Kasallik azobi qiy-nayapti.

– Hammamiz ham betobmiz, hammamiz ham qiyalyapmiz, – uning ko‘nglini ko‘tarib, inqillaydi Zolotuxin, xuddi muqarrar falokat misoli kampirga yaqinlasha turib. – Hatto chumchuqning ham o‘z g‘ami bor. Sen basharangni burishtirma, Bogdatyevna... Agar bevaqt kelgan bo‘lsam, qaytib ketishim ham mumkin.

– Hechqisi yo‘q, kel, o‘tir, tashrifingdan doim xursandman, Timofeich, – xuddi yanglishganday yonidagi pastak xarrakka ishora

qildi, holbuki uning yaqinida xuddi o‘zi o‘tirganiga o‘xshagan gilam-dor oromkursi turgan edi. – Hayotda qanday yangiliklar bor?

– Hayotda, Bogdatyevna, hamma narsa Ivan ilohiyotchi bayon et-ganiday oqib o‘tmoqda... xuddi kashta qilib tikilganday. Ko‘nchilik korxonasida taqiqlangan varaqqa tashlab ketishibdi. Unda yozilishicha, yer qattiq qurib ketgan mish, uni qizil yomg‘ir bilan sug‘orish kerak ekan... Nimaga shama qilayotganlarini tushunyapsanmi? Polushubovoda o‘rmonchini otib ketishibdi. Shundoq Skopnadan chiqishing bilan, tog‘terakzordan o‘tgan katta yo‘l bo‘yida yotibdi. Sochmali miltiqdan, birinchi raqamlı sochma bilan otishibdi, naq shaxsiyatiga... kimliginiyam tanib bo‘lmaydi.

– Bu ishni kim qilibdi, Timofeich?

– O‘zimizning taqvodorlar sho‘xlik qilishyapti. Ular boyonga tish qayraganlari ko‘rinib turibdi... u dehqonlardan qayir yaylovlarini tor-tib olgani uchun. Boyon esa, sodiq xizmatkoriga, o‘sha o‘rmonchiga o‘zining doim kiyib yuradigan pidjagini sadaqa qilibdi: avra-astarining orasiga momiq urilgan katakdor pijjak. Tentak sadoqatli xizmatkor esa shartta haligini egniga ilib o‘rmonga chiqib ketibdi. Xullas, uni amlokdorning o‘zi deb o‘ylashgan.

Beva qayg‘uli ko‘zлari bilan shamoldan qimirlab turgan nastarin butasiga tikilib qoldi va qalin, xonaki paypoq kiyib organiga qaramasdan uning shishgan oyoqlariga ajalvor titroq quyilib ketdi.

– Nuql meni qo‘rqitish bilan ovorasan, Timofeich. Qo‘snilar bunday ish qilmaydilar. Bu yaxshi emas...

– Yaxshi emasligini aptyapman-da men ham. Bir boshdan qiyaratishni boshlashsa, butun dunyodagi xo‘jayinlarni qirib tashlashadi. Nimalarga qo‘l ko‘tarishayotganini o‘ylashning o‘zi dahshat! Nahotki men seni qo‘rqitayotgan bo‘lsam, o‘zimning yuvoshginam? Sen mendan qo‘rqma, sen ulardan qo‘rq, ya’ni hozir sendan qo‘rqib turganlardan. – Keyin qo‘l harakati bilan kekirdakni kesayotgan pichoq ishorasini qildi va pichoqni xuddi qinga solib qo‘yayotganday bo‘lib, kampirni muloyim kulgi bilan siyladi. – Men sening taqdiringni o‘yladim, Bogdatyevna va iztirobda qoldim. Kuzning rutubatlari tunlari qo‘rqinchli bo‘lsa kerak, a? Yordamga harbiy bo‘linmani jo‘natishlarini so‘rash uchun telegrafga yetib borishga ham ulgurolmaysan. Sen o‘z xizmatkorlaringga judaylasigayam inonib yuborma... Seni birinchi bo‘lib o‘shalarining o‘zлari bo‘g‘izlashadi... Men buni

senga nazarchi sifatida emas, dehqonlar harakatlarining jonli amalchisi sifatida ogohlantiryapman... Sen biz bilan, johil dehqonlar bilan nizolashmasang bo'lardi, Bogdatyevna, o'sha safar Oblog masalasida o'zingni tiyib tura olmading, sen yaxshisi shakl-shamoyili o'zingga o'xshagan biror munkillagan kampirni topgin va ustiga o'zingning shol ro'molingni tashlab, kechasi tez-tez bog'ni kezgani chiqarib tur. Peshanasiga bir-ikkita o'qni joylashlari bilanoq, biz o'shalarni, yovuzlarni shartta ushlab, boshiga qop kiygizamiz-u, temir aravaga joylaysiz, qalay? – va o'zi uchun orzular orzusi bo'lgan qarorga ko'zi bilan ishora qildi. – Eng yaxshisi, boshingga bir balo kelmasidan Loshkaryovga ko'chib o'tsang bo'lardi... Yangi joyingga seni o'zim oborib qo'yaman, baxtingga otlarim ham ayni paytda ishsiz turishibdi! Kampir o'ziga kelmasidan mayxonachi unga shahar hayotining g'aroyib imtiyozlarini shosha-pisha tasvirlay boshladi. Xonadonning kemaband tomonga yokigim biror badiiy go'zal manzaraga qaragannini tanlashadi, lekin albatta jome butxonasiga yaqin joyda bo'ladi, bir chaqirim naridan loy kechib kelmaslik uchun. Qolgan paytlarda shvits-simmental sigirining achitilgan qaymog'i solingan qaynoqqina bo'tqani yeb, o'tgan zamonlarning ofat-falokatlari to'g'risidagi injil kitobni o'qib o'tirasan, qamal xoskiyimini kiyib olgan mirshab nag'alli etiklarini taqillatib, derazang tagida qo'riqchilik qilayotganini eshitib yotasan. «Onangni sadag'asi ketay, bir oyga besh so'm evaziga men eshicing tagiga harbiy askarni soqchi qilib zanjirlab qo'yaman». Qo'rg'onni sotish masalasida esa mulk haqini yozgi qor bilan to'lashning ham yo'lini topadigan hozirgi firibgarlarga ishonmagan ma'qul. «Xudo haqqi, agar narxini qimmat so'rab yubormasang, o'zim ham tuzukroq haq berishga og'rinxayman». U qo'rg'on bekasiga ko'nglini ochadi, pashshani avrayotgan o'rgimchak kabi taqdirning o'zi tayyor yemish qilib bergen kampirning atrofida aylanib-o'rgiladi, unga yoqmayotgan narsa esa qari o'lja o'zining qandaydir g'ayriaxloqiy mulohazalaridan kelib chiqib, mayxonachi to'qib tashlagan to'rlarga tushgisi kelmayapti. Amlokdor beva har safar goh harbiy davr pullarining qadrsizlanganini bahona qiladi, goh qo'rg'on atrofidagi daraxtlarni kesishga ko'ngli bo'lmayotganini aytadi, oxirida esa Zapoloskini o'z tarbiyalanuvchisining sepi uchun asrab qo'yanini, agar munosib kuyov chiqsa, o'n yillardan keyin qizni erga berish niyati borligini aytdi. Shu so'nggi vajh Zolotuxinning

umashtirish o‘yiniga sabab bo‘ldi: agar sharoit taqozo etsa, Lenajonni o‘rmonga qo‘shimcha sifatida olsa ehtimol.

... Xuddi Taiska Polyaga so‘zlab bergani kabi, bu qissani Lenajon ham o‘z vaqtida Vixrovga bayon qildi, ya’ni u bir necha kundan keyin Sapeginoga yana arava surib kelganida. Bu safar u *Elenni Feklusha* orqali chaqirtirdi va Lenochka mallaqiz o‘ziga Vixrov ehson qilgan shirkulchani surbetlarcha chaynay turib, sirli tarzda istehzoli ish-shayganida pashutinlik o‘rmonchi o‘z tashrifining maqsadini yolg‘on vajh-korsonlarni ko‘rsatish bilan xaspo‘sllaganini Feklushmaning ko‘zlaridan anglatdi... Lenajon yasan-tusan qilib, sochiga uquvsizlarcha gul qistirdi, paypoqsiz oyog‘iga yangi charm boshmoq kiydi – yuguraverib nafasi og‘ziga tiqilay dedi, chunki Vixrov kutaverib, sabri chidamasdan ketib qolishidan qo‘rqdi, keyin ular kun tikkaga kelgan mahal bog‘ning ichkarirog‘iga, ovloqroqqa sayr qilib yurib borishdi, endi ikkovlariga ham barcha narsalar oydin edi, Vixrov o‘zining majruhligini yashirishga emas, yanada bo‘rttiribroq ko‘rsatishga harakat qilardi, toki qiz buni yaxshilab ko‘rib olsin, shunga ko‘niksin, sezmay qolgan ekanman, deya keyin afsuslanib yurmasin.

U qiz bilan yonma-yon ketdi, bir oyog‘iga qattiq cho‘loqlanishga urinadi, baland o‘sgan chirmovuqlarning uchlarini siypalab o‘tadi, Lenajonning erksizlikdagi qizlik hayoti to‘g‘risidagi mungli qissasining davomini tinglagan ko‘yi uning qo‘rquvlari sababini chuqurroq anglay boradi.

– Katta Zolotuxin kampirimni avrashga tirishib-tirmashib harakat qildi: bir qarasang, o‘ttiz chiqirim narida yashaydigan tabibdan chip-qonga qarshi shifobaxsh giyoh olib keladi, yo qarovsiz yotgan qu-lupnayzorni o‘toq qilish uchun kelinlarini yuborishini aytadi, oxirida esa nonxo‘r asrandisini boqish tashvishlaridan kampirni qutqarmoq-chi ekanini aytdi... ya’ni mendan! – deya o‘zining oshkora bayonini yakunladi va chamasi keyinchalik Vixrov uni o‘zining haqiqiy istaklarini yashirishda ayblamasligi uchun hech narsani mahfiy qoldirmadi. – Shunda kampirimning yana qaysarligi tutdi: «Xo‘p, deylik, Demidka, sening to‘pori o‘g‘ling, unga yoqmasa-chi?» Unisi shunchaki kulib qo‘ydi: «Nega yoqmasakan, agar kelinchakka oldindan yo‘l-yo‘riq berib qo‘ylsa, qanaqasiga yoqmaydi?» – kulgan holida tizzasini asabiy paypasladidi, go‘yoki qamchisini qidirayotganday harakat qilib. Men u payt cho‘rilarning vazifasiga binoan eshik ortida turgan edim

va eshik tirkishidan hammasini ko'rdim, shunaqa. – Lenajon jim bo'lib qoldi, yo'ldoshining uzoq vaqt indamay turganidan qovog'ini uydi va to'satdan Vixrovning yengiga yopishdi: – Voy, juda g'alati ekan... nima bu, ko'rsating.

Qiz boshini silkitib, qaytarmanning tugmasini tomosha qildi, u ingichka qo'ng'iroq simida tikilgan edi.

– Askarlikdan qolgan odat... tez va mahkam tikib olish uchun. Xuddi shunaqangi.

– Qo'lga qadalib achishtirmaydimi?

– Simlarning uchlarini ombur bilan bukib qo'yganman, – qanday eplashini tushuntirdi Vixrov. – Bu ilgari edi, endi tikib beradigan odamim bor.

Qiz darrov uning qo'lini qo'yib yubordi:

– Shunaqami... uylanganingizga ko'p bo'lganmi?

– Yo'q, opam mening uyimda yashayapti, – shoshib javob berdi uning shubhasini tarqatish uchun.

– O... bu juda yaxshi-ku, opangiz yoningizda bo'lsa, – mammun kuldil u, nafasini rostlab. – Bo'lmasa taomlanishning ham tayini bo'lmaydi.

– Ha, hozir podshohlardek yashayapman! – tasdiqladi Vixrov.

Oldinda arkining ustida oqqayinlar unib chiqqan toshdarvoza oldida har ehtimolga qarshi ataylab qoldirilgan arava ko'rindi. O'rmonchi Lenajon bilan xayrslashdi; qizning sochlari dagi gul o'ziga maxsus atalganini u bilib turardi, ammo bu narsa qizning qo'lidan ushslash huquqini beradimi, yo'qmi hech hal qilolmayapti. Mohiyatan olganda o'zining hayotidagi eng qimmatli xaridini o'tgan safarning o'zidayoq olib ketishi mumkin edi; ammo Lenajon o'zining vahimasi tufayli birinchi uchragan odamning bo'yniga osilishga tayyor ekani uni sergaklantirib, to'xtatib turibdi. Qizni o'sha paydayoq qattiq sevib qolganidan, uning musibatidan foydalanib qolishni xohlamayotgan edi. O'z hissiyotlarining jiddiyligini isbotlashga intilib, Lenochkaga u bilan ancha avval tanishganlarini, o'shanda ayol qalbining beqaror ekaniga ilk bor ishonch hosil qilganini hazilomuz tarzda eslatdi.

U jonlandi, ko'zlarida quvnoq uchqunlar chaqnadi:

– O'shanda men necha yoshda edim? O'lay agar, hech narsani eslolmayman: qopga solingan olmaxonniyam, sizning oshnangizniyam... Demak... – u tuman orasida nimanidir ko'rmoqchi

bo'layotganday o'ylanib qoldi, – demak, o'sha Demid Vasilich ekan-
du? Bilmaganimni qarang... Shoshmang, nega siz tinmay meni is-
kashga harakat qilyapsiz?

– Sizdan jo'ka gulining bo'yи kelyapti...

– O, ertalab ularni terib quritish bilan band bo'lgandim, ana shun-
dan! Kampir shamollashni davolash uchun har ehtimolga qarshi
terdiradi. Qarang-a... ertalab tergan gullarimning hidi barmoqlarim-
dan hanuz ketmabdi.

– Bo'lishi mumkin emas, hidlab ko'ray-chi, – ishonmaganday
dedi Vixrov va aytib o'tilgan gulning hidi qanchalik kuchli ekaniga
ishonch hosil qilish uchun qizning qo'llarini o'zining yuziga yaqin
olib keldi.

Lenajon qo'lini kuch bilan tortib oldi.

– O'sha paytlardagi fotosuratimni bo'lsa ham ko'rsam edi.
To'g'ri, men juda kulgili bo'lganman, meni hindularga o'xshatib
bo'yab qo'yishar edi...

– Hurkak va yuvosh edingiz, lekin hozirgisi yaxshiroq, – hayajo-
nidan zo'rg'a gapirdi o'rmonchi unga bundan keyin tobora yaqinroq
va qadrliroq bo'lib boraverishini ko'zlar bilan anglatib.

Qiz uning izhoriga javoban indamadi, Vixrov shu safar uning
ko'zlarida xavotir ko'rmadi, har doim u o'zining tuyg'ularidan
so'z ochganida takrorlanadigan tashvish endi yo'q edi; qiz uning
tuyg'ulariga teng keladigan hissiyotga ega emasdi. Lenajon uni buta-
lar ostini titib turgan holida uchratdi

– Endi boraqolay, Feklusha meni izlayotgandir. Siz tufayli endi
ta'zirimni yeyman! Keting tezroq...

... Uch kun o'tib, kunbotar paytida o'rmonchi tashvishli va pa-
rishonxayol holatda yana qo'rg'onga keldi: o'ziga xos xotiralar bi-
lan bog'liq bo'lgan tamakidonini yo'qotib qo'yganmish. Lenajon uni
hovlidagi molxonaning orqa tarafida butalarning tagini titib yurgan
holatida uchratdi va eng g'alati jihat shunda ediki, o'tgan safar ular
bu tarafga umuman o'tishmagan edi. Bog'ni imkon qadar yana av-
valgi galddagi yo'naliш bo'ylab chetlab o'tib borishdi. Lenajon nima
haqda so'z ochmasin, o'rmonchi gapni, albatta, o'sha yo'qolgan ta-
makidoniga burib yuboraverdi. Buyum uning uchun shunchalik qadr-
li ekanki, hatto o'tgan vaqt mobaynida yuzlari ham so'liqib qoldi.

– Oltindan ishlanganmidi?

– Yo‘q, temirdan... Sibirda birga surgunda bo‘lgan o‘rtog‘imdan xotira edi.

– Bunchayam qayg‘uga botmasangiz! Yo tavba, topiladi o‘sha tamaqidoningiz!

Qizning gap ohangidan u Vixrovning holatini allaqachon tushunib bo‘lganini sezdi: xayriyatki, ular darvoza oldiga yetib kelishgan edi. Vixrov yashil gardishda eman barglari tasviri tushirilgan qadamlari xizmat qalpog‘ini qo‘lida aylantirib bordi.

– Bugun yana yig‘labsiz, – koyindi u past ovozda. – Hamon yong‘inni kutyapsizmi?

G‘ira-shirada qizning ko‘zları g‘azabli chaqnadi:

– Tezroq yonaqolsayam bo‘lardi!..

– U holda... biror nima qiling: kurashing yokigim, duch kelgan tomonga qochib keting, qo‘llaringizni shalpaytirib, harakatsiz o‘tira-vermang. – U holatdan chiqish chorasi sifatida aytgan ishdan qiz bir yil o‘tib foydalandi. – Har holda sizning qo‘rqadigan narsangiz yo‘q: bularning vorisasi emassiz, qarindosh ham emassiz, kalit ko‘tarib yuruvchi cho‘risiz, xolos... Qora xaltadagi asir olmaxonsiz, mana kimsiz!

U papiros chekishga shoshilib, cho‘ntagidan o‘sha yo‘qolgan tamaqidonni chiqardi, ochig‘ini aytganda, bu askarlarning oddiy sovun qutisiga o‘xshardi, uyatdan Vixrovning yuzlari qizardi, otga qattiq qamchi urdi va arava past-balandliklardan sakrab qiyalikdan tushib borarkan, chuqurga ag‘darilishiga sal qoldi...

Biroz vaqt qorasini ko‘rsatmay yurgach, Vixrov yana qo‘rg‘onga serqatnov bo‘lib qoldi, xullas Sapecinaning xizmatkorlariga u o‘z odamlariday bo‘lib qoldi, Feklusha esa uning tashrifidan xabar berishda pashutinlik alvasti o‘zining shayton aravasida yetib kelganini e‘lon qilardi. Ular xuddi fitnachilar kabi jim va atrofga alanglab darvozadan tashqariga pusib chiqishar va Zapoloskining kechki daraxtzorlari chekkasidan yurib ketishar edi va atrof odamlardan xoli bo‘lib borgani sayin bir-birlaridan ko‘proq chetlanishardi. Dala oqshom shafag‘idan pushtirang olib, xuddi gullab turgan bedazorga o‘xshab ko‘rinadi; uzayib ketgan soyalar oldinda qurigan ang‘iz cho‘kirtaklari bo‘ylab harakatlanadi.

O‘sha paytlarda Lenajon yo‘llarga kuchli bir tashnalik bilan qiziqish bildirardi: «Keyin-chi, uyog‘iga qayoqqa olib boradi?» Qizni bu yo‘llar orqali Yengadan qayoqlarga juftakni rostlab qolish

mumkinligi masalasi qiziqtirardi, Vixrov esa unga bo‘lgan ehtiromidan kelib chiqib, qizning surishtiruvlarini u bilan bir umr shu hayot so‘qmoqlaridan birqalikda o‘tib borish, tunlarni pisand etmasdan, baxtsizliklarni-yu, tog‘larni oshib o‘tib, kuchlari yetganicha olg‘a harakatlanish, hamma narsani ko‘rish, hamma narsani o‘z qo‘llari bilan ushlab his etish, chuqur nafas olish, hayratlanish va tanib olishning qat’iyatlari istagi deb tushunardi. Vixrov shunday odamlar sirasiga kirardiki, – qat’iyatsiz, yurak o‘yinlari fanidan bexabar – o‘zining shaxsiy yoqimlilik jihatlari borligidan shubhalanadi, o‘zlarini sevib qolgan odamga o‘zlarini hukmlari ostidagi sohalarda ulug‘vor ko‘rsatib qo‘yishga urinishadi – bepoyon dengizlarda suzish, yoki sirli tubsizliklarga oxiri ko‘rinmaydigan ilm narvonlarida moddiyotning eng chuqur xilqatlariga tushib borish; bir kuni uning o‘zi aytgan fikrga ko‘ra, faqatgina yetuklik buyuk kitoblarni yaratishga qodir, ammo sehrli kitoblarni faqat oshiqlar yoza oladilar. Vixrov o‘z mahbubasini butun yer kurrasi bo‘ylab, o‘ziga ma’lum bo‘lgan botanik yuzaliklar aro olib yurdi; u yerlarda oqsoqlanmas edi. O‘zining yarim yo‘ldayiq toliqib qolgan qurbanini rus o‘rmonlaridan *Yalanglik* orqali to‘g‘ri Kaspiy orti dashtlariga, *Markaziy Osiyoga*, uni doim o‘ziga chorlagan Jardiling va Himolayni chetlab o‘tib, Sumatraga – tabiatning bu ibridoiy tajriba ustaxonasiga olib kirdi, uyog‘iga o‘z orzularining chegarasiga, ummonga yetakladi... va yo‘l-yo‘lakay, mualliflik g‘ururini namoyon etib, qizga quyoshdan, chirindidan va namlikdan nimalarni yaratish mumkinligini namoyish qildi – butun o‘simliklar olamini g‘aroyib va kamtarin shimol nordonchasiдан¹ toki yoqimsiz, shohona mo‘jiza – tropik raffleziyasiga qadar ko‘rsatdi. Shu tarzda butun dunyoni sayr qilib, ular avvalgi joylariga qaytishdi. Bir payt qiz qo‘ng‘iroqlar jarangidan vahimaga tushib, uni shartta gapdan to‘xtatdi:

– Qarang... Zolotuxin yana kampirning huzuriga mehmon bo‘lib kelyapti! Otining egamasi yaltirashini-chi... Bizni payqab qolmasidan tezroq jarga yuguraylik, – va, yigirma qadamarcha yugurib borib, xuddi mumlanganday silliq o‘t ustida pastga sirpanishdan oldin sabrsizlik bilan ortiga o‘girildi. – Nega joyingizda qotib qoldingiz? Yo tavba, shunaqayam lapashang bo‘ladimi odam!..

¹ *Nordoncha* – kislichka (rus.)

Vixrov o'sha to'xtagan joyida turibdi, yo'lning shundoq yoqasida, ko'zini yerdan uzmaydi. U oqsoq edi, tez yura olmasdi. To jo'nab ketguniga qadar u biror so'z ham aytmadi. Qo'rg'onda uni boshqa qaytib ko'rishmadni, holbuki Lenajon o'sha kuzda va ulkan rus bo'hronlarining muqarrar ekani ayon bo'lgan qish oxirlarida uning ko'magiga nihoyatda muhtoj bo'lib qolgan edi.

Lenajon endi tez-tez, yolg'iz o'zi, to'qligidan semirib, patqanolari xuddi moylanganday yaltirab ketgan go'ngqarg'alarni cho'chitganicha, tanish o'rmon yoqasini chetlab o'tadi. Oyoq ostidagi xazonlarning shitirlashi do'sti bilan bo'lgan suhbatlarning o'rnini bosadi. «Biz ham, bizlar ham olamning zarrasi edik, – shivirlashadi ular, yer bo'y lab sudralib, bir-birlaridan o'zib o'tar ekanlar. – Mana biz lazzatlanib, afsuslanmasdan ketyapmiz, mammun va bir umrga...» O'rmon izchillik bilan avval qo'ziqorin, keyin qatron va nihoyat yaxshigina muzlagan qorning javel isiga to'yina boradigan palla ham yetib keldi.

O'sha kuzda qamoqxona qizga nisbiy rohat makoni bo'lib tuyuldi: u yerdan qachonlardir chiqish mumkin. Birgina chittak o'zining qo'ng'iroqday sayrashi bilan uni oldinga xotirjamlik sari chorlaydi. Taiska Sapeginlarning chala bekaqizini bo'm-bo'sh va kimsasiz kemabanda ko'p martalab kuzatib turgan paytlar bo'ldi; u kemaband ustuniga suyanganicha, muz bo'lakchalariga to'la, qo'rg'oshinday og'irlashib qolgan, duduqlanganicha mumlangan sathga kelib urilib shapillaryotgan suvni uzoq vaqt tomosha qilib turadi. Lenajonni xavfli tomosha maydonidan hech kim nariroq olib ketmaydi... Chamasi har bir kishi kamolga yetayotgan paytida hayot qay darajada qo'rg'oshin kabi og'irligi, tubliklarda yashash qanchalik chorasiz ekanini o'zi anglab yetishi lozim degan mulohazada uni o'z xayollari bilan yolg'iz qoldirishadi.



YETTINCHI BOB

1

Ertasi kun tongda Moskvada havo ra'yi kambulutli bo'lib, janubi-g'arbiy shamol zaif esib turardi; bu yerga kelishi oldidan onasi to'qib bergen ko'k sviter egnida bo'lishiga qaramay, hayajondan Polyaning eti junjikib turibdi. Otasining ma'rzasiga u rosa bir soat avvaldan kelib oldi va to xuddi o'zi kabi g'o'r va hayajonlangan yoshlarning umumiyligi qo'shilishiga qadar institut daraxtzorining xi-yobonchalarida ancha vaqt sayr qilib yurdi; hech kim undan ijozatnomaniyam, talabalik guvohnomasiniyam surishtirgani yo'q. Maydonchalariga temir xumlarda suv qo'yilgan, toptalib ketgan zinapoya-dan uchinchi qavatga ko'tarildi va devorlariga yelimlab tashlangan ko'plab xabarnomalar tufayli bir qadar ifloslanib ketgan ko'rimsiz yo'lak orqali hamma bilan birligida darsxonaga kirdi. Bu joy qop-qora xarraklari yarim doira shaklida terilgan nimqorong'i va fayzsiz imorat bo'lsa-da, ammo deraza ortidagi ko'tarilib kelayotgan quyosh nurlaridan yog'dulanib turgan maysalarning yeyilib ketgan taxta to'shamada va tepadan ruhiyattingizga og'ir bosib turgan shift-da akslangani sababidan sho'xchan yashnab, akademik rutubat va yoqimsizlik hissini uyg'otuvchi ilk taassurot barham topib borardi. Hozir harbiy yil bo'lishiga qaramasdan, hammayoq oyoq qo'yib bo'lmas darajada odamga to'lib ketgan: kirish nutqi biryo'la barcha fakultetlarda yangi talabalarga mo'ljallangan edi. Atrofdagi suhbatlar, aynan shu bugun bu yerga yuqori bosqich talabalari va hatto turdosh fanlar o'qituvchilari ham kelishganini tasdiqlab turardi; Polya ularning qiziquvlari sababini ma'ruzachining mashhur janjalkash ekanligiga yo'ydi...

Unga yuqoridan – qalamda yozib tashlangan qaydlarga to'la shiftning shundoq tagidan joy tegdi; uning yonida o'tirgan, oftobdan qoraygan, yozgi amaliyotdan endigina kelib turgan qo'shnisi

shu zahotiyiq Polyaga o'tgan yilgi xuddi shunday ma'ruza haqida-gi taassurotlarini zavq bilan so'zlay ketdi. O'shanda, qizginaning so'zlariga qaraganda, go'yoki binoning devorlari tashqariga surilib, tinglovchilarining ko'z oldilarida brusnika butalari bilan qoplangan qalin qarag'ay o'rmoni jonlanganday bo'libdi, agar mashg'ulotlar jadvaliga zid bo'lmanida hatto bir-ikki daqiqadan keyin qushlar ham sayrab yuborishi hech gap emas ekan. Bu so'zlardagi tinchlanti-ruvchi samimiylilik Polyaning vujudiga iliqlik bag'ishlaganday bo'ldi; u o'sha zahotiyiq bu qiz Varyadan keyin dunyodagi eng mehribon va ilmli inson ekanini o'zicha minnatdorlik bilan e'tirof etdi.

Biroz vaziyatga ko'nikib olgach, Polya tevarakka nazar tashladi. Oldinda, ancha pastda juda uringan, siyoh to'kilaverib dog' bo'lib ketgan miz turibdi, ustida deraza oynasining aksidan suvi yashimtir tus olgan grafin va shishasi qalin bardoq; nariroqdagi devorda mammakat o'rmonchilik fanining soqoldor arboblarining zich terilgan suratlari siqilishib turibdi, shundoqqina chiqish tomonda esa tanasida bir xil masofalarda o'quv kesmalari aks etgan namuna daraxt mammakatning jismiy xaritasiga taqalib turibdi. Qum solingan xampani hisobga olmaganda, u yerda boshqa hech narsa yo'q edi. Kandikning yonida esa qandaydir asbest dubulg'a kiygan yigitcha jiddiy qiyofada u yoqdan bu yoqqa o'tib turibdi. Ovozlar shovqini birdan kuchayib, miz oldida harakatchan, past bo'yli, chakkalari mosh-guruch, soqoli chekkaga burilgan qariya paydo bo'lishi bilan yigitcha hurmat yuzasidan dubulg'asini yechib qo'ydi. Qariya eski jun matodan tikilgan eskigina pijaket kiygan – libosining deraza tomonga qaragan tarafidagi burmalari yashillanib yaltiraydi... Polya shu odam o'zining otasi ekani haqidagi fikrga ko'nikishga qiynaladi. Ma'ruzachi o'z nutqini anchayin eskicha uslubda, bunday rasmiy muassasa uchun noodatiy bir ifodali tarzda, ammo Polya qo'rqib turgan soxta tantanavorliklarsiz boshladi. U nutqining avvalida yangi kelganlarning tayyorgarlikka ega bo'lman diqqat-e'tiborlarini qiyab qo'yishi mumkin bo'lgan raqamlardan tiyildi; chamasi harbiy davr professorni bu safar o'rmon go'zalliklarini madh etishdan ham to'xtatdi. Ba'zi-ba'zida unchalik muhim bo'lman jumlanı aytaturib sukut saqlardi, mushtlari bilan mizga tiralganicha go'yoki jimib qolgan qatorlardagi ehtimoliy tanqidchilarini izlaganday bo'lardi. Ammo mavzuga chuqurroq kirib borgani sayin tinglovchilar bilan uning orasidagi aloqadorlikni yana-

yan yaqinlashtiruvchi samimiyat ortib borar ekan, ilmiy ma'ruza qanday qilib oddiy o'rmonshunosning bo'lg'usi kasbdosh o'rtoqlari bilan oddiy gurungiga aylanib qolganini hech kim sezmay ham qoldi.

Vixrovning qarshisida ertangi askarlar o'tirgani uchunmi, uning dastlabki so'zлari biroz noqulaylik ohanglarida boshlandi; kamiga ma'ruzachining ovozi past va bo'g'iq ekan, shu bois Polya nutqning muqaddimasini anglab ololmadi ham.

– Nima dedi? U nima dedi? – so'radi qiz hissiyotlari jo'sh urib turgan yosh avloddan yoqimsiz darajada ajralib turgan o'ng yonidagi keksa, rasmiyatparast kampirdan.

– Ishlashimga xalaqit bermang, o'rtoq! – jahl bilan dedi stenographer ayol, Polyaning qo'lini yengidan olib tashlab, daftarchasiga tushunarsiz, orasi ochiq-ochiq belgilarni tushirishda davom etarkan.

Atrofdagilar ularga «Tshshsh! Tshshsh!» deb tanbeh berib tashlashgach, Polya qo'rqib jim bo'lib qoldi, xuddi kimdir uning botiniy vahimalarini anglab ololadiganday, yuzlari qizarib ketdi.

2

«... Lekin bor-yo'g'i to'rt kungina avval, – deydi Vixrov, – bizning jonajon qo'shinlarimiz yana bir sovet shahrini, Dnepropetrovsk shahrini sarkash hamda – ulkan tarix nuqtayi nazaridan – xatokor dushmanning bosimi ostida tashlab ketdi. Boshkentimiz ustidagi qora bulut taqozosi tufayli bizning o'y-xayollarimiz, aslida bu yerda jamlanishimizga sabab bo'lgan mavzudan ancha uzoq. Ammo jismiyot taraqqiysining butun notekis yo'li – amyobadan tortib, toki mag'rur fikrlovchi odamzotga qadar – bizga nurning zulmat ustidan, onging hayvoniylig ustidan yana bir g'alabasiga hamda sizlar to'plagan bilimlar barchangizni bu yerga yo'llagan sharafli xalqqa ayniqsa zarur ekanligiga bo'lgan ishonchni ruhiyatimizga singdirmoqda. Sizlar amalga oshiradigan ishlarda yurtimizga bo'lgan muhabbatizing hamda hozir jangohlarda tarixiy sinovlarning zalvorli yukini zimmasiga olgan o'g'lonlarimizga va og'a-inilarimizga nisbatan minnatdorlik tuyg'ulari yo'lboshchi bo'lsin.

Men o'z vazifamning – buyuk urush suronlari ostida ham xususan rus o'rmoni kabi shundayin, ya'nikim har holda ahamiyati kam bo'lmagan narsalar haqidagi suhbatlarim bilan sizlarning vaqtlanin-

gizni band qilishlikning mas'uliyatini anglab turibman. Sovet xalqiga va uning mavjudligining ildizi bo'lmish barcha manbalarga, shu jumladan o'rmonga ham, tahdid sqlib turgan xatar ostida eng sevimli va oshig'ich ishlar ortga suriladi... ammo sizlar bu yerga dala jarrohligi yoki yaqindan jang qilish uslubi haqida ma'lumot tinglash uchun emas, balki rusiy hayotda daraxtning o'rni haqida, mamlakat xo'jaligidagi eng ko'p abgor bo'lgan sohada vatanparvar inson yuritadigan ongli faoliyat to'g'risida qisqacha bayonni tinglagani keldingiz, zero bu tarmoq hech qachon jamoatchilikning jiddiy e'tiboriga noil bo'lmagan, – shuningdek, o'rmonshunoslik masalalarida hanuzgacha bahsli bo'lib turgan muammolarning ayrimlari o'z yechimini topmaganligi shaxsan mening fikrimcha, ertangi avlodlar uchun ayniqsa xavfli bo'lib qolmoqda. Ushbu uyda sizlar sotsialistik iqtisodiyot arobasiga qo'shamoqlik uchun yangi o'rmonlarni o'stirishni va yovvoyi, zabit etilmagan daraxtzorlarni tartiblashtirishni o'rganasiz; amaliyotlarda o'rmonning iqlim bilan, tuproq bilan, atrof-muhit bilan munosabatlarini, shuningdek, asrlar ko'lamida yuzaga kelgan ushbu shiddatli o'zaro aloqadorlikdan kelib chiquvchi ulkan o'zgarishlarni tadqiq etasizlar; sizlar bu yerda sohani tashkillashtirishning va qat'iy hisobini yuritishning, – go'yoki odamlar doimo kaftlariga qancha sig'sa shunchasini oladigan tuganmas-bitmas hamyon sifatidagi butun ahamiyatini anglab yetasizlar... O'rmon hamma uchun ochiq bo'lgan yagona ezgu amallar manbasidir, tabiat bu xilqatga ezgulik yoki yovuzlik taqozosi ila o'zining zilday qulfini ataylab ilib qo'yongan. U go'yoki bu xazinasini odamzotning aql-idroki ixtiyoriga topshirib qo'yib, o'zi amalga oshirishga qodir bo'lmagan adolatli-rejali tartibni u bajarishini xohlaganday. Xullas, yaqin besh yil ichida sizlar tabarning dahshatli, vayronkor kuchini odil himoya qiluvchi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lasizlar. Ammo vatanga yanada ko'p foyda keltirmoq uchun, yaxshi niyatlar yoki o'rmonshunoslik fani qoidalari bilan yuzaki tanishuvning o'zi kamlik qiladi. O'tmishni o'rganmasdan turib, ertangi kunimizga olib borguvchi mustahkam to'g'ri yo'lni belgilab bo'lmaydi: bashariyat saboqlari sodir etilgan xatolar xotirasidan oziq oladi.

Bolalikning poyonsiz vaqt zaxiralari hammaga ma'lum, u paytlarda birgina kun abadiyatga cho'zilar ediki, uni g'aroyib sarguzashtlarga va kashfiyotlarga sarflaganing sari yana o'n baravar ko'p fursat

ortib qolaverardi! Go'yoki go'dakning qarshisida bepoyon kengliklar yaslanib boraveradi-yu, uning chekkasigacha uchib borish uchun hech qanday qanotlar yetmaydiganday tuyulaveradi... Ruslarning ibtidosida ham shunday bo'lgandi, – Karpatlardagi besh asrlik turg'unlikdan keyin shu paytgacha yagona bo'lgan slavyan qabilasi o'sha yerdan dunyoning to'rt tomoniga sochilib ketdi: biznikilar sharqni tanlashdi. Bir safar hamma narsaning uni o'chdi: arobalarning g'ichirlashi, go'daklarning yig'isi, ho'kizlarning bo'kirigi... – va bizning ajdodlarimiz oldinda nigohlar bilan qamrab bo'lmaydigan darajada chekchegarasiz, tong g'ira-shirasiga g'arq bo'lgan kengliklarga burgut parvozi balandligidan tikilib turardilar. Ajoyib manzarali yovvoyi vodiy Uch tog' tizmasining orasida yaslanib yotardi va vodiy bo'ylab yashil mo'ynalar atipida daryolar shohona viqor bilan oqib o'tardi. Faqat bayan ohanglari va chollarning bashoratchiligi o'sha tomonda, ko'mko'k ufqlarda va ming yilliklar qa'rida Rossiyaning barpo bo'lishi bilan boshlangan ulkan hodisotlar almashinuvini ko'ra bilgan edilar... Ehtimol, bu voqeа mamlakatimiz ayniqsa jozibador ko'ringuvchi yoz faslining ilk tongida yuz bergandir. O'ng tarafda, emanzorlar bilan almashinib borguvchi, sersuv, barq urib o'sgan maysazorlari shamol epkinidan yarqirab turgan dasht namoyon bo'lgan, chap yoqda esa so'ngsiz o'rmon zichlanib turibdi, qariyb Alaun tepaligidan tushib kelib, bir nechta tarmoqlarga bo'linib ketgan tayga deysiz; ularning eng enliси – Dnepr oqimi Kimmyeriyaga, ya'ni hozirgi Qora dengiz sohillarigacha yetib borgan. O'rmonlar orasida, shimol tomoniga qarab oftobda yarqirab turgan minglab sho'xchan ko'llar sezilarli darajada ko'payib boradi – yer hali-hanuz buyuk, geologik davr nuqtayi nazaridan olib qaraganda nisbatan yaqin o'tmishdagi muzlik davri bahorining izlarini o'z bag'rida saqlab kelmoqda. Keyin esa Svyatoslavning eng qadimiy ajdodining otasining bobosi belgi beradi – va qabila xuddi yong'in kabi tog' oldi dashtlarini to'ldirganicha pastga tomon oqa boshlaydi. Shu zaylda g'ildiraklari temir bilan qoplangan minglab og'ir arobalar qoldirgan chuqur izlar tomonidan tariximizning birinchi satrlari paydo qilindi. O'sha birinchi tongimiz balki bir asr davom etgandir, ammo noma'lum kechmish haqidagi har qanday to'qimalar xuddi rost hikoyaday eshitiladi.

Mavjudlikning iqtisodiy sharoitlari tabiat bilan sheriklikda o'sha odamlarning qiyofalarini yarata boshlashiga ahamiyat bering. Ularni

hech kim bolaligidan boshlab erkalagan emas. Shafqatsiz tabiat yilda bor-yo‘g‘i uch oygina ularni siylab qo‘ygan, – G‘arbiy yevropalik xalqlarga beshikda yotgan chog‘laridayoq berilgan ne‘matlar: dengizning yaqinligi, iliq oqimlar va tog‘ tizmalari, yovvoyilarning bosqinlaridan hamda iqlimning beqarorliklaridan asraguvchi muhofaza kabi tashvishsiz turmushning quvonchlarini ular hech qachon ko‘rolmaydilar... biznikilarni esa – Osiyo quyoshi kuydiradi va qutb ayozi muzlatadi, bu jihatlar ularning milliy xususiyati ziddiyatlarida namoyon bo‘ladi. Qit‘aviy haroratning jiddiy tebranishlari qisqa muddatda bir ko‘zli devga xos bo‘lgan ishlarni amalga oshirishday qudratli qobiliyatni ularning ruhiyatiga singdiradi. O‘z milliy mustaqilligi uchun olib borgan ming yillik kurashlar ularda har qanday azob-uqubatlarni pisand etmaydigan so‘zsiz, qahramonona turg‘unlikni shakllantiradi; mamlakatning iqtisodiyoti esa ularni o‘zlarining kuch-quvvatlariga va ruhiy qudratlariga barobar bo‘lgan suvli makonlarni izlashga rag‘batlantiradi. Xuddi shu kabi yer sirtini enlamasiga ajratib chiq-qan yigirmata muvoziy chiziqlarning barchasining ko‘لامи bo‘ylab deyarli o‘zgarmas tabiat hamda tabiiy g‘ovlarning mavjud emasligi ularning birlashishga, umumslavyan mustaqilligining eng ishonchli garoviga bo‘lgan intilishlarini belgilaydi. Yot-begona, vayronkor tamaddunning olisligi ularni o‘zlarining – ajoyib va boshqalarga o‘xshamagan hayot tarzlarini yaratishga majbur etadi. Kasb-hunar va o‘rmonlarni kesish xo‘jaligi ularni daryo yo‘llari bo‘ylab qit‘aning barcha chekkalariga tarqatib yuboradi. Dashtliklar bilan bo‘lgan shiddatli olishuvlarda, yosh davlatchilikni himoya qilib, ular o‘z jasurliklarini va ahamiyati undan kam bo‘lmagan sabotlarini toblaydilar. Biz aynan shunday boshlanganmiz.

Xalqimizning tarbiyachilari va kamsonli homiyлari qatorida o‘rmonni ham e’tirof etmaslik o‘taketgan nonko‘rlik bo‘lur edi. U xuddi poyonsiz dashtlar kabi bobolarimiz ruhida erkka bo‘lgan intilishni va olishuvlarda bahodirona ermaklashlarni tarbiyaladi; o‘rmon ularga ehtiyyotkorlikni, kuzatuvchanlikni, mehnatsevarlikni hamda ruslarni doimo maqsad tomon borishga undagan qat‘iy sobitqadamlikni o‘rgatdi. Bizlar o‘rmon bag‘rida ulg‘aydik, va, albatta qadrdon tabiatning boshqa birorta ham unsuri ajdodlarimizning turmush tarziga bu qadar kuchli ta’sir etgan emas. Yog‘och darhol istifoda etmoqlikka yaroqli xomashyodir va dastakka o‘rnatilgan har qanday

o'tkirlangan temir bo'lagi uni ibtidoiy hayotning qadriyatiga aylan-tirgan. Yanayam ifodaliroq aytadigan bo'lsam, o'rmon rus odamini dunyoga kelishidayoq kutib olgan va umrning barcha bosqichlarida undan ayrlimay yo'ldosh bo'lib borgan: chaqaloqning belanchagi va birinchi yog'och kavushi, yong'oq va yertut, yog'och pildiroq, hammom supurgisi va balalayka, qizlar bazmini yoritib turguvchi qorachiroq va naqshlangan to'y do'g'alar, tekin asalari xo'jaligi va qunduz yo'llari, baliqchilar qayig'i-yu, jangovar kema, qo'ziqorin va chirkay, sargardonning xassasi, murdaning yog'ochdan o'yilgan tobuti, va nihoyat ustidan qoraqarag'ay shoxlari tashlab qo'yilgan qabr tepasidagi xoch. Mana sizga dastlabki rus tovarlari, o'sha paytdagi jamiyatning turmushi-yu, ro'zg'ori: poyadan olingan tola va taxta, xoda va yog'och nov, to'g'inlar va titma chipta, ko'mir va po'stloq tolasi, qatron va ishqor. Lekin xuddi o'sha o'rmonlardan yanayam e'tiborliroq ne'matlar oqib turardi: Valdayning o'tkir isli chiptaki to'shamalari, Ryazanning rangdor chanalari va tyulen terisidan astarlangan Xolmogor qutilari, bol va mum, vizantiyalik oliftalar uchun suvsar va qora tulki mo'ynasi.

Odamzot ehtiyojining o'sib borishi bilan o'rmon o'z xazinalarini yanayam saxiyarcha ochib boraverdi va hozirda bizning o'rmon sanoatimizda sovet xo'jaligining boshqa nufuzli tarmoqlariga qara-ganda ko'proq ishchi qo'llari band ekani bejizga emas. Buning boisi bizlar juda uzoq muddat to'lig'icha o'rmonning qaramog'ida yashaganimiz, bizning Rus ko'p vaqt yog'ochga boqimanda bo'lib hayot kechirganida emasmikan?

Aynan o'sha uzoq davrlarda bizning o'rmonga nisbatan ziddiyatli munosabatimiz shakllandi – haddan oshib ketgan do'stona zi-yofatlarning mastona kayf-safosi, nafosat hamda qadim ajdodlardan meros qolgan beparvolik, yoki takabburlik va ba'zan o'rmonga nisbatan ochiqcha dushmanlik kabilarning omixtasi. Qachonlardir kelib betizgin ishtiyoq bilan biz o'rmonni qaytadan jonlantirishday buyuk ishga kirishar ekanmiz, avvaliga chap qo'limizni o'ng qo'limizning mehnatini qadrlashga o'rgatishimiz, farzandlarimizda o'rmonga nisbatan, tabiatning – o'z dilozoridan osmonlarga uchib ketish bilan qutulib qolish imkoniga ega bo'limgan, yoki g'azabi qo'zib qolgan oltin baliqcha yanglig' dengiz tubiga yashirinish qobiliyatidan mahrum bo'lgan – bir muruvvatli hodisasiga nisbatan egalik hissini

tarbiyalashimiz, hech bo‘maganda boshliqlarga alamlı arznomalar yozishimizga to‘g‘ri keladi. O‘z qo‘limiz bilan ekilgan daraxt bizga avvalgilardan meros qolgan o‘rmondan ko‘ra qimmatliroq bo‘lishiga umid bog‘lamog‘imiz lozim va lobid... chamasi, o‘rmonlarning had-dan ortiq mo‘l ekanligi serpusht va omilkor xalqimizning taraqqiysi-ga hamda boshqa yerlarni o‘zlashtirmoq uchun ko‘chishiga monelik qilguvchi to‘sinqa aylandi; o‘z navbatida, uning shimalga ko‘chishi ajnabiylar bilan savdo-sotiq qilishning ahamiyatini pasaytirdi va zi-roatchilikning nufuzini oshirdi-yu, ayni paytda uning rivojlanishi-ga yana o‘rmonning o‘zi xalaqit berdi. Hatto o‘tkir tig‘li tabar ham har tomondan bostirib kelayotgan chakalakzor-u changalzorlarni to‘xtatishga zaiflik qildi va Rusda yong‘inlar yetakchi o‘rmonbuzarga aylandi. Kundakov qilingan, yoz bo‘yi suvsizlanib qurigan daraxt-larni yondirib, yangi ochilgan yerlarni shudgorlash uchun kul bilan o‘g‘itlab, dehqon arpa sepadi, Volgada sholg‘om ekadi, mening va-tanimda esa zig‘ir tililgan, bir-ikki mavsum g‘alla hosili olingach, kundakov qilingan dalaga – partov yerga dam berilgan, quyosh bilan yomg‘ir esa maydonning jarohatlarini davolagan.

Shu asnoda o‘rmon bizlarni, ya’ni ruslarni to‘ydirdi, kiyintirdi, isintirdi... Vaqtiki, Osiyoning ona vulqonidan garmsellar va chigirt-kalar bilan omixta holda Rusga qaynoq lava misoli odamlar oqib kela boshlagach, o‘rmon ularning yo‘lidagi birinchi g‘ov bo‘ldi. Solno-machining xabariga ko‘ra, shafqatsiz qonxo‘rlarga qarshi xalqning mudofaaga safarbar irodasi hamda o‘rmonning dushman uchun tu-zoqqa aylangan o‘tib bo‘lmas changalzorlaridan boshqa bizda to‘siq yo‘q edi. O‘sha yerlarda, o‘rmon-dasht chegaralarida qadimgi rus istehkomlarining tuproq bosilgan tepalariga zamarak tagliklari o‘rnatalib va taxta ayvonchalardan xoshiyalangan ilk imoratlari qad ko‘tara boshladiki, ularning ortidan turib, otini gijinglatib yo‘rttirib kelayotgan iblisday quturgan nishonni mo‘ljalga olish nihoyatda oson edi, – xandaqlarning bu tarafidagi mum solqigan shinaklar, o‘n to‘rtinchi asrning boshlaridan kreml deya nom ola boshlagan mustahkam tuproqko‘rg‘onlar va qal’alar; hozirga qadar saqlanib qolgan xodag‘ovlar – yuzlab chaqirimlarga cho‘zilib ketgan ajoyib emanzor-larning old qatordagi kundakov qilinib, bir tekis ag‘darilgan daraxt-lari bostirib kelayotgan otliq qo‘shinlar uchun dahshatli hujumqay-targich vazifasini bajargan.

O'rdalar hamda Mo'g'ulistonning va Tibetning yassitog'liklarida hosil bo'lgan garmsellar harakati soat mili yo'nalishida sodir bo'lib, markazi qayerlardadir Volga ortida bo'lgan va xuddi o'sha yo'nalish bo'yab siljigan, xuddi devorbuzar xoda kabi bir maromda qo'zg'alish olayotgan ruslar sharq tomonga yurib borar ekanlar, ota-bobolarining mozorlari bo'yab, inson birinchi bor dunyoni ko'rgan yoki yuzmaya yuz kelgan g'anim bilan bo'lgan mushtlashuvda qoni to'kilgan joyga nisbatan odamning tabiiy mehri misoli Sibir daryolarining tik jarliklariga abadul-abad yopishib olgan edilar... Ikki asr muddat o'tib, Voronejning sara emani, tilog'ochi va shimalning qatrontob qarag'a-yi Rossiya kemalarining turli-tuman asosto'sinlari-yu, quyruq-ustunlariga aylanib, bizning ramziy bayroqchalarimizni barcha dengizlar aro olib ketadilar, binobarin, Ural-otaxonimizga uning tinchlikda istifoda etiladigan va jangovar sotsialistik mashinalari uchun umum-xalq minnatdorligi yo'llanayotgan ekan, rus o'rmoniga ham Gangut va Korfu, Sinop va Chesma tantanavor shuhratining hech bo'lmasa kichik zarrachasini taqdim etmoqlik o'rinli bo'lur edi.

Yer yuzidagi har qanday qabila bolalik davrida aynan o'zining nazmi-ko'zgusiga ega bo'lgan, ularning har birida dunyo o'ziga xos tarzda aks etgan: shu bois ilk taassurotlar moddiy madaniyat qoldiqlari bilan teng ravishda milliy tarjimayi holini anglash borasida bebaho qo'llanmalar bo'l mish dostonlarga bitilgan. Xavf-xatarga nihoyatda ziyrak bo'lgan bizning eng qadim ajdodimiz, xuddi qorong'ida qolgan go'dak kabi, hamma yoqda o'ziga tikilib qarab turgan harakatsiz qiyofalar ko'ziga ko'rnavergan: goh xo'mraygan va uning ajaliga tashna, goh mehrli va onadayin muloyim. Majusiyat ma'budlari, qo'rqinch yoki yaxshilik mavjudotlari, o'zining nomukammal falsafiy lug'atidan kelib chiqqan holda voqelikni izohlashga bo'lgan no'noqlarcha urinishlar shu tarzda yuzaga kelgan. Zamonal o'tib, «iloh»larning bu sodda tasvirlari o'zлari chaqmoqtosh bo'lagi bilan yoxud paykon bilan qirib chizilgan qattiq ashyolarga qoniqmay qo'yadi; ular ko'p sonli mulozimlarni, marmar koshonalarini, ehtiromni, hatto qonli qurbanliklarni talab qila boshlaydilar – va kun kelib, sehrli ko'zgu sinib chil-chil bo'ldi-yu, odamzot tabiat bilan yuzmaya yuz qolgach, o'z faoliyat ko'lami doirasida dunyoda tartib o'rnatisht mas'uliyatini zimmasiga oladi.

Kuch-qudrati tufayli, ezguligi yoki go'zalligi bois ajdodlarimiz sig'ingan hodisalar orasida yaqindagina Xortitsada yuksalib turgan emanlar kabi, yoki rus o'rmonining ajoyib jangchisi bo'l mish Ivan Shishkin tarannum etgan Seligerdag'i qayinlar singari haybatli o'simliklar ham bor. Ularni ehtirom ila ulug'laganlar, ularning po-yida hakamlik qilib, haqiqatni qaror toptirganlar, roviylar esa qabilaning turmush tarzi va safarlari haqida naqlar bitganlar. Shoirona irimchiligidiz o'sha davrlarda toki e'tibordan qolgan oltin mo'ylabli o'ymakor g'o'la yangi e'tiqod va podshohoyim tomonidan quvg'in qilinib, Dnepr bo'y lab pastga oqib ketguniga qadar bizning Perun tumoriga bag'ishlangan janubiy muqaddas o'rmonlarimizni astoydil avaylab-asragan... O'shandan buyon kamsonli rus Olimpi maydalashib boryapti va bizning shubhali ta'viyamiz, dehqonlar tili bilan aytganda alvasti, ajina – o'rmon hammasidan ko'ra ko'proq saqlanib qolmoqda.

Bu hech ham mashhur olmon manzumasidagi o'rmonlarning yovuz hukmdori bo'l mish qandag'och podshohi emas: bizniki oddiy-roq va samimiyoq. Bizniki bor-yo'g'i – o'rmonda nozirlik vazifasini bajarib yurgan va chirigan to'nka ostini kulba tutgan o'ta kamsu-qum, chipta juldurga burkangan sobiq iloh. Xalq orasida tarqalgan ovozalarga ko'ra, alvastilar – odamlarning e'tirofiga qaraganda o'z o'rmonlarining vatanpavarlari ham fuqaroviylar o'zaro nizolarda yuz yillik daraxtlarni so'yil qilib selpishar ekanlar. Ular odamlarda mavjud xislatlardan ham xoli emaslar: ming sakkiz yuz qirq uchinchi yildagi sara olmaxonlarning shimolga ommaviy ko'chishini yuzaga keltirgan Vetlujsk hamda Varnavinsk tumanlaridagi o'rmonlarni zo'r berib qirg'in qilish oqibati qishloq cho'pchaklarida: mahalliy o'rmonchi o'zining jonivorini qimorda vologdalik qo'shnisiga yut-qazib qo'ygani haqidagi matalda ham aks etgan. Umuman olganda, rus alvastisi – mutlaqo bezarar mavjudot, lekin kechasi yo'lda qolgan yo'lovchini mazahlashdan qaytmaydi va bu ishi nafaqat o'zining ko'ngilxushligi uchun, balki o'sha jabrlanuvchi uchun hamki, bo'ronli yangi yil kechasida nabiralariga so'zlab bersin...

Hayoti dunyoning vasvasasidan uzlatga chekilish uchun tar-kidunyochilikni ixtiyor etish istagi rus zohidini yolg'izlikka, go'shanishinlikka, eskicha cherkov tili bilan aytganda, kovakka tomon haydaydi; o'zlashtirilmagan o'rmon tuproqlariga xudojo'yning

ortidan hayvon haydovchi va asalarichi ham, sarboz va savdogar ham yopirilib bordi; o'shanda Volga ortidan Oqko'lga qadar butun min-taqa bo'ylab o'rmon chakalaklari ilk bor titrab, siyraklasha boshladı, nasroniy rivoyat rus ajinasining boshiga muguz qo'ndirib, uni anqov-siragan pravoslavning ko'ngliga eng yoqimsiz jirkanchliklarni solib qo'yguvchi jinlar toifasiga qo'shib qo'ydi. Hozirda uni osongina bo'ysundirish, firib berish, xoch bilan, bosma so'z bilan va shunchaki so'xta bilan qo'rqtish mumkin. O'sha vaqtdan boshlab bizning mulo-hazakorligimiz hamda vijdonimiz o'rmonning yagona himoyachisiga aylandı.

O'rmonning nazmiy qiyofasi shunday shakllanadi – jonli, favqu-lodda mehribon va xalqimiz foydasi uchun faoliyat yuritguvchi mav-judot. Hattoki noziklikdan yiroq bo'lgan vositalar yordamida uni joy bo'shatishga majbur etganlarida ham ruslardan ko'rgan jabr-sitamlari uchun hech qachon kek saqlamagan, bolaligimizning qadrdon do'sti, biz uchun jonini tikkan jangchi va hech moneliksiz xomashyo yetka-zib beruvchi dastyor, daryolarning boquvchisi, hosillarni asraguvchi bu yoqimtoy boboni allaqachonlar o'zi munosib bo'lgan izzvat-ik-romga noil etmog'imiz lozim edi. Ammo bizda, masalan, xorijga sotishimiz uchun suvsar bilan ta'mnlamagan, asal kulcha bilan boqmagan, beshikdalik vaqtimizdan to hozirgi besh yilliklarga qadar do-imiy yem-xashak manbayi sifatida xizmat qilmagan dasht yoki Volga to'g'risida bitilgan ashulalar bor-u, o'rmon haqida esa yo'q...

To'g'ri, biz hozirgacha ziyofatlarda qizarib-xirillab majnuntol-u, bodrezaklar, oqqayin-u, chetanlar haqida kuylashga moyilmiz, ammo bu ko'shiqlar yaroqlilik shuhrat o'tgan asrdayoq Ezgu Umid bo'rtmasigacha yetib borgan, dunyodagi eng buyuk rus o'rmonining asriy sadoqati va qudratini e'tirof etish o'rniga, doim ikkinchi daraja-li o'simlik navlari to'g'risida-yu, va ularda asosan tabar ishtirok etgan bo'ladi, ularning badbaxt qismati yurakni muzlatadigan zavq bilan bo'rttirilgan bo'ladi.

Buning paydo bo'lishi taxminiy izohini omochning singan tishlari va o'rmondagi daraxtlarni kundakov qilib maydon ochish uchun sarflangan mashaqqatli mehnat haqidagi xalqning xotirasidan, – shox-shabbalarning bir xildagi shapillab turishidan miyaga urib turadigan g'ayriixtiyoriy karaxtlikni tarqatishga bo'lgan doimiy intilishdan, – ayiq uyasi, yoki qaroqchilar makoni yaqin atrofda ekanini va shayton

vasvasasini ko'ngilga solib turguvchi muttasil vahimadan, — erkinlik va oftob tafti bizga doimo to'qchilikdan va unsiz mavjudlikdan ko'ra qadrliroq bo'lgani uchun o'rmonning ko'p asrlik vasiyligidan xalos bo'lish ehtiyojidan izlamoq joiz. Tarixiy sababiyatlar zichlanib o'sgan ignabarglilar devorini bor imkoniyatlarimiz bilan siljtitib borishga bizni majbur etdi... Ammo oqibatda o'rmonlar siyraklashib, Qora dengizdan Vologdagacha bo'lган yo'lни ochiq maydon bo'ylab bosib o'tish mumkin bo'lib qolgan holatda ham o'rmonga bo'lган munosabatimizda baribir hech narsa o'zgarmadi. Kelajakda yana takrorlanishi kelgusi avlodlarning farovonligiga qattiq zarba berishi mumkin bo'lган o'tmishdagi ochiq-oydin xatolar haqida tez-tez gapirib turish kerak... Oldindan e'tirof etib qo'yaylik: Yevropaning boshqa qismlarida ham o'rmonlarga shafqat qilinmadi, ammo natijalar shundayin mash'um voqelikda farqlanadiki, — g'arbdagi daryolar muzlik davrining bitmas-tuganmas zaxiralaridan boshlanadi, bizlar-niki esa zaif o'rmon chashmachalaridan ibtido oladi va o'rmonga ehtiyojsiz munosabatda bo'lishimiz bilan biz tabiatning nozik tuzilmasini osongina barbod qilib qo'yishimiz mumkin.

«Boshqa hech bir xalq tarixga yelkasida shunchalik boy ignabargli po'stin bilan kirib kelgan emas; Sharqning sehrli sir-sinoatlarini ko'rmoqlik uchun bizning o'lkalarni yo'l-yo'lakay kesib o'tgan taniqli ajnabiylayg' oqchilarga Rus yerlari onda-sonda duch kelib qolinadigan yalangliklarida odam mazgillari uchrab turadigan yaxlit changalzor bo'lib ko'rinar edi. Mana shu tasavvurlardan bizning o'rmon saltanati sifatidagi ajnabiylar iste'maolchining ko'z o'ngida qadrsizlanib borguvchi yashil tovarimiz va tub aholi orasida zararli davlatmandlik ruhiyatini yaratguvchi xatarli shuhratimiz yuzaga keldi. Shunday kun keladiki, Pyotr noyob daraxtzorlarni xarob qilganlik uchun odamlarning burun kataklarini yirtib uzdiradi, og'ir mehnatlari surgunlarga jo'natadi; hozircha esa Rossiyada o'rmonlar shu qadar ko'pki, hatto uni tozalaganlik uchun mukofot sifatida o'lpon va bojlardan o'n besh yilga, sal shimalroq muzoftlarda esa naq qirq yilga ozodlik beriladi. O'rmon shu qadar o'tib bo'lmas chakalak va ertakona navdorlikka egaki, hatto xalq dostonlarida o'rmon yo'llarini barpo etish faqat pahlavon bahodirlarga ishonib topshiriladi. O'ninchisi va o'n ikkinchi asrlarda butun Kiyev yerlari o'rmon bilan qoplangan edi va ayrim, hozirda atrofi yalang daryolar to dengizga qadar shovullagan zum-

rad ipaklarga burkanib turardi; hatto hozirda ham Xerson yaqinidagi Dnepr o'zanida son-sanoqsiz qora emanlar ishsiz yotibdi... Modomiki shundoq ekan, nima uchun shu haqda qo'shiqlar aytilmaydi! Istagan tomoningga ming kunlab sang'isang ham – o'rmon xuddi vafodor baroq kuchukcha kabi ortingdan bir qadam ham qolmay cho'zilib ketaveradi. O'rmonga nisbatan parvosizligimizning ildizini ana shu yerlardan izlamog'imiz kerak. Biz uni shunchaki payqamaganmiz, chunki u o'zimizniki edi, xonaki va abadiy, doim qo'l ostimizda, havo va suv singari, yelkamizdagi xurjun kabi – ko'ngling va tanang tusab qolgan hamma narsani uyqusiragan qo'llaring bilan ham titib-tintib topib olaverasan. Biz uning xizmati va ne'matlaridan foydalananar ekanmiz, uning ehtiyojlarini va g'am-anduhlarini hech qachon hisobga olgan emasmiz. Qalin qarag'ayzor bag'ridan panoh topgan go'shanishin rus sayhonchi deb atalgan, ya'ni hech narsa yo'q joyning istiqomatchisi. Mana nima uchun o'rmon xalq matallarida ham, ashulalarda ham bor bo'y-basti bilan aks etgan emas.

Rus haqiqati, o'n to'rtinchasi asrdagi Novgorod farmoyishlari, xudi keyinchalik Aleksey Mixaylovichning Nizomi kabi xususiy asalari-chilikni talon-torojdan himoya qilish zarurati bilan bog'liq holdagini o'rmonni eslab o'tadi. Ivan Uchinchi Troitsk kanisasining tevaragida o'rmonni barbod etmoqlikni taqiqlaydi, bu ham o'rmon kesishni tartiblashtirish yoki o'rmonga egalik huquqini o'rnatish, ya'ni fuqarolik qonunchiligidagi unga munosib o'rin ajratishga urinish bo'yicha tajriba emas, bor yo'g'i knyazlik ibodatchilarini dunyoning ranjlantiruvchi halallaridan to'sishga intilish edi, xolos. Rus'hozircha sersuv, serbaliq va sero'rmon; o'sha Ivanning davrida ham kurakshoh bug'u va shoh-ho'kizlar Uglich ostonalarida sang'ib yurardi, ayiq va qora echkilar ham. Ammo Moskva o'z tegrasida tobora shiddatliroq tabar selpiy boshladi va pirovardida Aleksey Boshkent atrofidagi o'ttiz chaqirim atrofda daraxt ag'darmoqlikka taqiq qo'yadi – va bunda ham maqsad shaxsan o'zining shohona shikorlarini muhofaza etmoqlik edi, xolos. Atrofda chopilmagan o'rmonlar shovullab-tebranib turibdi – Kolonna va Murom, Suzdal va Brinsk o'rmonlari, o'tib bo'lmas Qurmish hamda Vladimir changalzorlari, – zangor boylikning tubsiz hamyonini ming yillar davomida ham tugatib-bitirib bo'lmaydiganday tuyulardи...

Nutqimiz rahmdillik to‘g‘risida emas – daraxtni odam chopmasa, vaqt ag‘daradi, – va o‘sha paytda undan ko‘ra shafqatsizroq o‘rmon kushandasini topolmaysiz. Bu rosmana qora o‘rmon edi, u yerda birlarining hayoti boshqalarining – hali o‘z umr bosqichini o‘tib bo‘lmaqanlarining ustiga uyumlanadi va jasadlar o‘z vorislari ning oyog‘i ostida chirib yotadilar. Bunday ovloqlarda hamma narsa sukutda... faqat o‘rmon yoqasida erta bahorda mastona ko‘zli karqular sayraydi. Vaqt-i-vaqt bilan takrorlanib turadigan baxtsizliklar – bo‘ron, yog‘och qurtining bosqini, yer osti suvlarining ko‘tarilishi – bu unsiz, quyosh nuri uchun deyarli bo‘ysunmas poygani, tuproqning hayotbaxsh sharbatlarining abadiy poygasini to‘xtatib qoldilar! Bu ba‘zan ignabarglilar sulolasi hukmronligini tag-tugi bilan kumpayakun qilgan va saltanat hukmdorligiga boshqa sulolani – bargli navlarni qaror toptirgan yong‘inlar edi... ammo hayot har qanday aralashuvlardan kuchliroq. Qora yoki sariq ajal orollari, vaqt kelib ular ham qoraqarag‘aylar naslining og‘ir pardasi ostida qirilib bitishi uchun, bargli nihollar bilan qoplandi. Bashariyatning aralashuvi go‘yoki hozircha rus o‘rmoniga hech narsa bilan tahdid qilmayotganday, lekin tez orada tabarlarning birgalikdagi shiddati o‘simplik xujayralarining sustkashlik bilan jamlanishidan kuchliroq chiqo boshlaydi...

Hamma ham oladi va hozircha hammaga yetib turibdi; o‘n yettingchi asrning boshlarida Serodvinskda tayyorlangan kema sarustunlari va kimyoviy haydab ajratish yo‘li bilan ishlangan dag‘al tovarlar birinchi marta London bozoriga yo‘l oldi. Rusda o‘rmonlar hali anchagina, ammo qo‘porish shiddati tobora kuchayib, daraxt ag‘dargichlarning o‘lchamlari kattalashmoqda. Janublik ko‘chmanchilarning bosqini xavfi barham topishi bilan, davlat ehtiyojlari uchun hatto muqaddas noyob daraxtzorlar ham kesilishga mahkum bo‘lmoqda. Ayni vaqtda dasht ham shimolga qarab o‘zining zafarli yurishini boshladi... va birdan Pososhkovning – hozircha faqat Orenburg va umuman Volga orti o‘rmonlarining birinchi jonkuyarining tashvishli ovozi butun mam-lakatga yoyiladi. Bu ovoz o‘z asri fuqarolik turmushining barcha jihatlariga doxil xalqona vijdon edi va rostini aytganda Pososhkovning o‘rmon ekish bo‘yicha tavsiyalari, ora-chora yaydoq rus qishloqlari tegrasida hanuz eskirgan emas. Ammo bu vatanparvarning aralashuviziz ham birinchi darajali mudofaa masalalari o‘rmonni asrab qolish

bo'yicha mamlakatni qat'iy choralar ko'rishga baribir majbur etgan bo'lur edi.

Azovda flot qurilishi Voronej daryosi bo'ylab va daryoning yaqin sohilbo'yi hududlarida asriy emanzorlarni yamlab yuta boshlagach, eman admirallikning daxlsiz zaxirasi sifatida Pyotrning shaxsiy himoyasiga o'tadi. Eman bilan bir qatorda shumtol va zarang, bujun va tilog'och, keyinroq esa kemasozlik qarag'ayi ham qo'riqlanadigan navlar sirasiga kiritilgani e'lon qilinadi. Emanni aroba o'qiga yoki chana oyog'iga, g'ildirak yoki gardish yasashga o'zboshimchalik bilan ishlatish sodir etilsa, – sen akobirmisan yoxud uning xo'jalik boshqaruvchisimisan – og'ir ishlarga surgun qilish jazosiga birday hukm qilinasan; og'ochni kesganlik uchun esa o'n tillo jarima undirladi, bunda har uch manatdan naq ikki so'm aqcha o'rmonchi foydasiga ajratiladi: o'ta qudratli poraxo'rlikni falajlashga urinish uslubi... Daraxtni bo'laklash avvallari tabar-u, ponalar vositasida amalgalash rilar edi, binobarin «Tabar o'rmon chopadi, payraha uchib qochadi», – deya aytilgan rus maqolidagi payraha Arxangelskdan Ashtarxon ga qadar bo'lgan butun masofa bo'ylab sochilib yotardi; endilikda yog'och iste'molchilar iqtisod maqsadlarida o'z tayyorlamalarining hech bo'lmasa o'ndan bir qismini arra bilan kesmoqliklari lozim... demak, arra tishini ayirishda ham hali no'noqmiz: yarim asr o'tib ham er kishining tabari kuchda turibdi. Pyotr davrida birinchi bor bizdag'i zo'ravonlik bilan o'rmon chopishlar tartibga taqlid ko'rinishidagi ko'zbo'yamachilik bilan almashindi; o'rmonning suvni himoya etuvchilik va iqlimi ahamiyatini ilmiy tushunishdan anchayin yiroqmiz, ammo daryordan o'ttiz ikki chaqirim yaqinlikda og'och ag'darish daraxtdan ikki sarjin yaqinlikda gulxan yoqqanlik bilan bir xilda qat-tiq jazolanadi. Tog'-kon sanoati hududlarida miltiqning qo'ndog'iga bopta burang oqqayinni asrash buyurildi va uy-joy qurilishi uchun yaroqli yog'ochni o'tin sifatida ishlatish taqiqlandi: emandan tobut o'yib, eskichasiga hashamdar dafn etganlik uchun to'rt barobar haq olinadi, shaharlarda yashil ekinlarga zarar yetkazganlik uchun og'ir ishlar va darra urish belgilandi. Ammo-lekin baribir admirallar o'zboshimchalik bilan o'rmon kesilayotgani haqida hanuz ma'lumot yetkazib turibdilar, bundan o'rmonlar kamayib ketmoqda ekan va mana uch sarjinli muhofaza g'ovlari Neva va Finn dengiz bo'yi davlat

o'rmonlari bo'ylab qad ko'tarmoqda, har beshinchi chaqirimda dorlar tikilyapti.

Bir qarashda o'rmon siyosati keyinchalik Pyotr murdasining qo'lidan so'yili tushib ketganidan keyin ham o'zgarmasdan qolganday tuyuladi; misol uchun, uning qizi otasining kemabop daraxt o'rmonlarini ekish va ko'paytirish, ekilgan emanzorlardan istiqomatchilarni qat'yan uzoqlashtirish to'g'risidagi valdmeysterlik yo'riqnomasini takrorlaydi (1754). Ikkala Yekaterinalar ham Boshkent atrofidagi o'rmonlarning o'g'itlik uchun yondirilishi tufayli o'rni qoplanmas zarar ko'rيلayotganidan noliydilar, erkin va bepul daraxt kesishni taqiqlaydilar, onalik nasiyhatlarini in'om etadilar – o'rmonlarni hayvonlardan va tungi o'g'rilardan asrash, to'nka va il-dizlardan chirkay kuydirib olish, o'tinlik uchun esa shamolda singan va bo'ron yiqitgan og'ochlarni ishlatish... o'z-o'zidan ayonki, erksiz dehqonlar «balli-ballı» deya bu farmoyishlarni ko'z yosh aralash rosa miriqib mazahlaydilar!.. Yekaterinalarning keyingisi Rossiyaning farovonligi uchun qayg'urib (zero, shaxsan Didroning o'zi Volter bilan birgalikda Yevropadan turib o'n besh million erksiz yovvoyilar hukmdorining har bir ishini kuzatyapti-da!), keyingi avlodlar Rossiya floti kemalarini ta'mirlash uchun shimoldan eman tashishga majbur bo'lmasinlar, degan mulohazada hattoki Potyomkinga Odessa yaqinidagi yerlarga ko'proq cho'chqayong'oq sochtirishni buyurdi. Ammo gulxan yoqqanlik uchun qanchalik ko'p darra urmasinlar, o'rmonni talaganlik uchun qanchalik ko'p sirtmoqqa tortmasinlar, eman va sarustunbop qarag'aylar Volganing yuqorisidan Nijniyga qadar tavsi-fi berilgan chizma xaritalardan butkul o'chib ketdi. Dehqonlarning yog'ochga bo'lgan ehtiyojini cheklab hamda ajnabiy sifatida rus taxtiga o'zining shubhali huquqini mustahkamlash uchun har kimlarga aslzodalik imtiyozlarini taqdim etib, rus o'rmonlarini o'sha hududlarda yashab turgan shaxslar vasiyligiga topshirib va o'rmonni asrash yoxud parvarishlash bo'yicha har qanday majburiyatlardan ozod etganliklarini malikamiz xayrli amal deya xayol qildilar (1782). Bundan buyon qudratli admirallik o'rmon egasining roziligidisiz va to'lovsiz yog'och olishga jur'at etolmaydi.

Ayol qalbi zaifdir; Rossiya davlatining taxtiga o'tirgan xonimlar o'rmonning ajoyib ne'matlari uchun unga muruvvat ko'rsatganday bo'lsalar-da, ammo birinchi tabaqaga va uning ayrim navqiron vakil-

lariga undan ko'ra ko'proq mehr ajratar edilar. O'rmon endi muvaqqat amaldorlarni taqdirlash uchun hadyalar qutisiga aylanib qolgan va albatta, taqdim etilgan amloklar davlatning eng aholisi mo'l muzofotlariiga to'g'ri kelardi, zero mulkdorga qaramlikda bo'lgan mehnatchi erlarni ham yerga qo'shib berilmasa, shohona ehsonning ma'nosi yo'qqa chiqar edi. Anna Kurlyandiyaning ulkan yer-mulklaridan tashqari Bironga o'zining farmonida qayd etilmagan maxsus kvalitetlari va maqtovga loyiq amallari uchun Boltiqbo'yi o'rmonlarini ham hadya etdi; Yelizaveta esa o'zining Shuvaloviga Rossianing shimolidan xorijga daraxt sotishga mutlaq huquq berdi. Shu zaylda izchillik bilan o'rmon maydonlari maydalaniib bordi, o'zining boyonligini elda, ayniqsa, birinchi navbatda xorijda ko'z-ko'z qilishdek shuhratparastlik vasvasasiga chalingan o'rmon egalari ko'paydi. Rusning barcha hurmatlarga sazovor qarag'ayi esa har tarafning latta-puttalari, nabototning g'aroyibotlari, porter¹, tamaki va Chelishshev sanab o'tgan boshqa bema'ni qadriyatlargacha ayirboshlanadigan tomonlarga oqizildi. Rusda hanuzgacha o'rmonlar mavjud... ammo avvalgi miqdorda emasligi ko'rinish turibdi; chunonchi, Yelizavetaning Kiyevga safari chog'ida Ukrainada o'rmonlar yetishmasligi bois, bekatlarda koshnalar qurish rejasini rad etishga to'g'ri keldi, buning o'rniga yerto'la sharobxonalarini tashkillashtirish bilan kifoyalanildi (1743).

Eslatib o'tganimiz zanona erkali klarning bog'ichini yechamiz... Shuvalov janobi oliylari o'z monopoliyasini ajnabi kemasoz Gomga o'tkazib berdi, u esa Onegamizdag'i odam qo'li tegimagan bokira daraxtzorlarimizning, hozirgi til bilan aytganda, siynasiga chang solib, bearmon siltaladi. Radishshevning do'sti, Sayohatnoma bo'yicha unga hammualliflikda gumonlanuvchi o'sha yekaterininlik vijdonli sekund-mayor Pyotr Chelishshev, mana shu Gomning o'n besh yillik faoliyati to'g'risida Chelishshevcha matn so'zlarida – yaramas daydi tilidan dard va alam bilan so'zlaydi; zamondosh va guvoh sifatida Chelishshev bu qilmishlarning izini topib ulguradi. Gomning go'yoki to'satdan kasodga uchrashi sababli rus tabarida chopilgan, rus g'aznasidan olingan aqchalar evaziga tayyorlangan birinchi nav yog'ochning Onega qirg'og'i bo'ylab uzunasiga bir chaqirim, eniga yuz ellik sarjin kenglikda uch odam bo'yi balandlikdagi poyonsiz

¹ Porter – o'tkir qora ichimlik (pivo).

taxlamlari o'tib bo'lmas tiqinda qolib, halokatga mubtalo qilingan. Bularning hammasi tag-tugi bilan chirib bitishi uchun yigirma yil vaqt kerak bo'lgan. E'tiborlisi, bizning yatanparvarimiz o'sha davrlarning o'zidayoq Gomning xatti-harakatlarida xorijiy hukumatning o'rmonni qirish yo'li bilan mamlakatimizga ziyon yetkazish maqsadini fahmlagan. O'sha matnda Chelishshev yana bir boshqasini – kasbi savdogar, hunari zararkunandachilik bo'lgan kimsani eslab o'tadi... Bizga g'arbona tijoratning shafqatsiz amaliy saboqlarini bergan ma'rifatli deb atalmish ajnabiy dengizchilarni ham munosib so'z ila yodga olaylik!.. Aldov hamda pora berish evaziga ular yuqori kesmasi olti vershok¹ yo'g'onlikda bo'lgan eng a'lo qarag'aylarimizni kesib olish imtiyozini qo'lga kiritdilar; faqat vaqt o'tibgina, yaqin o'rmonlarning tugab-bitishi oqibatida rus yog'ochining navdorligi keskin pasaygach, kesma me'yori besh vershokka tushirildi. Faqatgina Britaniya tojdorlari tamg'asi urilgan tupsa xoda – to'nka bo'yni uch tabardan baland bo'lganlari – olib ketishga yaroqli deb belgilandi: qolganlari o'z joyida chirib, haybatli daraxtlarni bemulohaza ag'darish oqibatida rasamadi buzilgan sog'lom o'rmonlarni ham kasallantirdi. Xullas, bunaqangi saralab kesishlar ming to'qqiz yuz o'ttizinchil yilga qadar, toki xorijiy konsessiya vaziyat taqozosiga ko'ra o'zidan keyin na yo'l, na ishchi qo'rg'onlari, na biror yaxshi xotira qoldirib tumtaraqay bo'lguniga dovur davom etdi... Har bir yo'qolgan narsaning bahosini, modomiki undan o'z vaqtida to'g'ri saboq chiqarib olinmas ekan, to'rt hissa oshirib hisoblamoq lozim.

«O'sha olis yillarda Rossiyada birinchi domnalar yoqila boshlandi... Ey, o'rmon, chekkaga o't: Demidov qo'liga tabar oldi! Yosh rus metallurgiyasi o'rta Uralning qalin changalzorlarini ag'dara ketdi; Kargopol va Ustyujna temiri, uning ortidan tula cho'yani bir tonna eritilgan mahsulot uchun ikki tonna pistako'mir, ya'ni o'n sakkiz kub metr yog'och hisobidan atrofdagi o'rmonlarni yamlab boradi. Ayni paytda xorijga sotilayotgan g'alla bo'shab borayotgan hukmdor g'aznasini qoplashga kuchsizlik qilib qoldi; endi ishqor, qatron va yog'och yordamga keladi – yuz yillik, to'la o'lchovli xoda uchun chorak tillo narx belgilandi. Ana shundan so'ng Arxangelsk-shahar atrofidagi kemabop o'rmonlar qirilib bitdi, Dvinadan tilog'och g'oyib

¹ 1 vershok – 4,4 sm.

bo'ldi va kemalarning suvgaga botib turadigan qismini qarag'ay bilan qoplashga ijozat etildi. Ko'proq qadrlanadigan qimmatli navlar taq-chillikka uchradi: Yelizaveta davridayoq bizning eng asosiy – Qozon va Tambov emanazorlarimiz taqirga aylanib bo'lgan edi. O'sha davrlardagi volgalik keksalar zavqdan ko'zлari yoshlanib eslashlaricha, shunaqangi yo'g'on daraxtlar bo'lgan ekanki, to'nkasining ustida odam bemalol oyog'ini cho'zib uxlasa bo'larkan. Dokuchayev ham dashtlarda aylanasi yetti yarim metr keladigan eman to'nkalarini ko'rishga muvaffaq bo'lgan ekan, biz esa bunaqalarini uchratmadik... Aslida o'shandayoq, mahalliy hokimlar palyonning katta zaxirasi deb qarashga odatlangan shu kabi o'rmon faxriyalarini, o'tmishimizning jonli guvohlarini maxsus nazoratga va muhofazaga olmog'imiz joiz edi.

«Pavel Pyotrning qattiqxo'llik uslubiga qaytishga harakat qildi va o'shanda davlat oldida o'rmonlarni tashkillashtirish bo'yicha kechiktirib bo'lmas masala ko'ndalang turdi. Unga qadar esa – dengizchi zabitlar yaroqli o'rmonlarni aniqlash uchun muzofotlar bo'ylab izg'ib yurishibdi, ammo ularning qidiruvlari samarasiz bo'lib chiqdi va buning ortidan Rossiyada o'rmonni xorijga sotishdan voz kechish sifatidagi bunday favqulodda chora aynan shu bilan izohlana-di. Ammo endi Aleksandr bo'shab qolgan g'aznani epaqaga keltirish uchun bu taqiqni olib tashladi. O'rmon o'sha paytdagi moliya vazirining ixtiyoriga o'tadi, bu esa sog'in sigirni suyib va iydirib sog'ish maqsadida yo'lbarsning g'amxo'rligiga topshirishday gap edi. Bundan buyon o'rmon maydalanmaydigan ertakvor tangaga aylandi-ki, asr boshida undan davlat kirim-chiqimining teshik-tirqishlarini yopish uchun foydalanilib, asr oxirida esa – amlok dorlarning iqtiso-diyotidan paylari uzilib bitgan qul sifatidagi qaram aholi tushib qolgach, – aslzodalarining sarf-xarajatlarini yamab-yasqash ham o'rmonning zimmasiga tushdi. Qudratli poraxo'rlik balosi o'rmonning mavjudligi bilan vijdon o'rtasidagi, yirtqichlik bilan qonun orasidagi zidiyatlarga tezgina barham berdi. Ta'kidlab o'tmoq joizki, muassasa-ning tepasida rus tilida yaxshi gapira olmaydigan nufuzli olmonlar o'tirishardi, o'rmon qorovulkxonalarida esa arzonligi tufayli nogironlardan yollangan och-nahor yalangoyoqlar tiqilib-siqilib yashar edilar; tabiiyki o'z lavozimlarida ular qo'shimcha yegulik hamda qarilikni ta'minlash usulini ko'rар edilar... Mana, taqqoslash uchun

ikkitagina raqam: Pushkin halok bo'lgan yili Rossiyada o'rmondan olingan umumi daromad olti yuz ming so'mni tashkil qilgan, fagaqtina Qozon muzofotidagi o'rmon o'g'riliklari o'n besh millionga yetgan. Ming sakkiz yuz o'ttiz sakkizinchı yilgi saroya taqdim etilgan yozma bildirishnomada o'n uchta muzofotdagi yashil zaxiralarimizning abgor ahvoli bayon qilingan, uning yuqori unvonli muallifi o'rmon qo'riqchiligin yaxshi qurollangan o'qchilar bilan kuchaytirishga da'vat etadi... xayriyatki, hozircha zambaraklarsiz! Nikolayning harbiy tuzilmali va lashkariy unvonlarga ega bo'lgan o'rmonchilarining maxsus bo'linmasini tashkil etib, sochilib borayotgan o'rmon xo'jaligini temir gardish kabi mahkam iskanjaga tortish qarori shu tarzda yetilib pishdi. Ammo xususiy egalikdagi o'rmonlar avvalgiday davlat nazoratidan tashqarida qolaverdi, bu esa vaqt kelib eng mash'um oqibatlarga sabab bo'ldi.

Biz rus o'rmonining xarob bo'lishi haqidagi muxtasar bayonimizning anchayin qayg'uli sahifasiga yaqinlashib qoldik. U qaramdorlik¹ huquqi qulashidan boshlanib, yana o'nlab yillar davomida o'sha davrning Rossiyasi baayni sovuq o'rmon yong'inlari changalida bo'ldi. Saksoninchi yillarga kelib bu holat o'rmonga qarshi haligacha biz ko'rmagan bosqinka aylandi; faqat Rossiyadagi yo'lizlik va asr yoshidagi daraxtlarni qadimgi bobolarimiz qo'llagan usulda yiqitish uchun talab qilinadigan mehnatning mashaqqatigina yashil do'stimizni halok etishga bo'lgan ishtiyoqni pasaytirib turardi. Agar bunday isrofgarchilik namunalarini dehqonning g'adir-budir va cho'ltoq tabari qoldirgan bo'lsa, texnikaning mulohazasiz beboshligi qanchalik vayronkorlik rekordiga erishish mumkinligini tasavvur qilib olavering. Mamlakatimizning yosh va yovvoyilarcha tinim bilmas tujjoroti hozirgi zamondagi elektr arralariga ega bo'limganini Rossiyaning baxti deb bilavering, aks holda to'fon misoli o'sha vaqtlardayoq qu-lochini kerib, bizning shimoliy qarag'ayzorlarimizni Pechoragacha va Murmanskkacha tag-tugi bilan sidirib, tundaraning boshlanishiga yo'l ochib qo'ygan bo'lardi... O'n to'qqizinchı asrda ikkita qudratli sabab o'rmonlarning vayron qilinishini taqozo etdi: rus feodalizmi yemirilib, oqibatda erkin yollanma xo'jalikni eplashga qodir bo'limgan aslzdalarining qashshoqlashuvi va sanoatimizning jadal taraqqiysi. Av-

¹ Krepostnoylik.

vallari o'rmonlarimiz qand ishlab chiqaruvchi, sharob tayyorlovchi va pivopazlik korxonalarining o'choqlarida guvullab yongan bo'lsa, endi uning asosiy iste'molchisi metallurgiya bo'lib qolmoqda. Uralda u allaqachon yoqilg'isiz bo'g'ilishni boshlagan va arzon yer osti ko'mir konlarining hisobsiz zaxiralari ayni vaqtida ochilgan janubdan sezilarli darajada ortda qolmoqda. Temir yo'llarning bunyod etilishi o'rmonlarning tanazzulini tezlashtirmoqda... va umuman butun sayyorada lokomotivlarning joriy etilishi qoplanmas darajadagi isrofni, ya'ni yillik o'sib-yetilayotgan daraxtlardan ko'ra kesilayotganlari ko'payishini yuzaga keltirdi. Buni esa hali tug'ilmagan avlodlarning ulushini majburan o'zlashtirib olish deb atash o'rinni, zero bunday holatlarda ularning e'tiroz bildirishga qodir emasligi odatda o'sha avlodlarning roziligi, ya'ni «sukut – alomati rizo» deb qaraladi. Holbulki, endilikda selluloza sanoatining dunyoga kelishi yaqinlashmoqda edi, u ham xuddi ko'mir konlari kabi Vologdaning yupqa qatlamlili, ta'bir joiz bo'lsa musiqa asboblarini yasashga ham yaroqli qoraqarag'ayini chaynashga kirishdi. Talab ortib bormoqda, o'rmon kesish sur'ati tobora oshyapti, narxlar ikki baravarga ko'tarildi. Hatto dashtlarda ham taxta tilish korxonalarining taraq-turuqlari eshitilmoqda... va mana, o'tgan asrning oxiriga kelib, yog'och-taxta iste'moli ikki yuz yetmish million kub metrga yetdi.

Jamiyatdagagi barcha davlatmand qatlamlarning vakillari kapitalistik taraqqiyot deya nom olgan bu ajalvor talonchilikda qurblari yetgunicha ishtirok etdilar. Rusda qarsillab ag'darilayotgan asriy og'ochlarning shovqini endigina to'xtagan Qrim urushining zambarak gumburlarini ham yutib yubordi.

Daromadni mahkam quchoqlab olgan taraqqiyot ignabargli o'rmonlarga ham kirib keldi va o'z ortidan shu paytgacha misli ko'rilmagan chopqin asoratlarini, og'ir karaxtlik va qiyoslab bo'lmas darajada kam sonli mayda sanoat korxonalarini qoldirdi. Boylik ortirishning bundayin shiddathli quyuni ilgarilari faqat oltin konlari topilganidagina sodir bo'lib turgan, xolos. Texnika yangiligi bo'lmish sehrli elektr chiroqlar bilan yoritilgan va yanada sho'xchanroq aylanishi uchun shampan sharoblari bilan ayamay to'yintirilgan shundayin joduvor quyunning oldida ko'ksiga yulduz va nishonlar taq-qan salobatli, ishshaygan bulbul-qaroqchilar boradi, ularning ortidan esa boshqalar – qalpog'ini chakkasiga qiyshaytirib olgan va

chaqchaygan ko‘zları surbetlarcha yaltirab turgan kimsalar o‘tmoqda. Yog‘och murdalarining bunchalik darajada mo‘lligidan, mog‘orlab-chirishning harorati Yevropaning kasofatxonalaridan tungi qushlarni va qurt-qumursqlarni, to‘r yeng-yoqali har xil toifadagi «pari»larni, jomadon ko‘targan bankchi olisotarlarni o‘ziga jalb etadi. Va yana sersoqol rus o‘rmoni, hukumatning ijozati bilan, har qanday ajnabiy qalang‘i-qasang‘ilarga yer o‘pib ta‘zim qiladi. O‘rmonni kim xohlasa, semizroq bo‘lagini tanlab chopish bilan ovora: yangi paydo bo‘lgan mushtumzo‘r tabaqa xoh mozoristonda bo‘lsin, xoh tuqqan onaizoring boshida bo‘lsin, og‘och nomi bo‘lsa bas – kesaveradi; arvoqlar xotirasi uchun vasiyat qilingan vaqf yer-mulklaridagi daraxtlarni esa kanisalardagi zohid birodarlar parvardigorga o‘rmonlarni qaytadan o‘stirib berishini duo qilib so‘raganlaricha kundakov qilishga kiri-shib ketganlar; Xerson kabi shaharlarning hokim otalari telefon simlarini o‘tkazish bahonasida o‘zlarining mashhur oq akaslarini yanada kuchliroq shijoat bilan ag‘darib qirqadilar, – Rossiyada shu paytga qadar turqi ko‘rinmagan, g‘arbiy muzofatlardan kelgan chaqqonqadam qo‘ng‘izlar viloyat hukmfarmolari vositachiligidida aslzodalardan arzon baholarda egalik vasiqalarini va dehqon chek yerlarini sotib olib, daraxtzorlarni qo‘porishni boshlab yubordilar, – viloyat kattalari ham o‘z xo‘jayinlaridan o‘rnak olib, o‘rmon kesishga kirishadilar, – aslo muhtojlikdan emas, «biror xaridor chiqib qolar», degan umidda zaxiraga olib qo‘yish uchun ham emas, – shunchaki kaftlari chidab bo‘lmas darajada qichishgani sababli tabar ko‘taradilar. Biz Gostomislov davridan buyon orqamizni qo‘yib o‘tirgan ishonchli yo‘g‘on shox shu zaylda astalik bilan ingichkalashib boraverdi... Vatanparvarlarning o‘y-xayollariga, xuddi og‘ir tushlar kabi, yo‘qolib borayotgan rus o‘rmoni haqidagi fikrlar tobora ko‘proq yopirilib kiraveradi. Hattoki Aksakov ham Vasilchikovning o‘rmonga doir maqolasi ustida ko‘z yosh to‘kadi va intiqom onlari yaqinlashib kelayotganiga ham barchaning aqli yetib turibdi, ammo o‘sha davrlardagi ilg‘or jamiyat ko‘p sinalgan munofiqlik qoidasi bo‘yicha ish tutadi: yana bir martagina gunohga qo‘l urib olaman-da, sadaqasini berib, tavba-tazar-ru qilib qo‘yaman! Leninning Rossiyada kapitalizmning rivojlanishi asarida temiryo‘l va suv orqali yuk tashishga oid keltirilgan raqamlar o‘rmonni vayron qilishning ko‘lamni haqida aniq tasavvur beradi.

O'sha vaqtning gazetalari bularning barchasiga milliy iqtisodiyotning rivojidagi muqarrar bosqich sifatida qaraganlar: karvonsa-royda bo'g'izlab ketilgan savdogar ularning e'tiborlarini o'rmonni aqlga sig'mas darajada qiyratishdan ko'ra ko'proq o'ziga tortadi. Rus tekisliklaridagi zangor sholcha qanday izchillik bilan sidirib olingani faqat o'rmonchilikka oid ayrim jurnallardagi maqolalardangina ku-zatish mumkin. Hammasidan oldinroq eman daf qilindi, u shunchalik siyraklashib ketgan ediki, qandaydir beparvolik tufayli kesilmasdan qolib ketgan yakkam-dukkamlari ham daraxtzor sifatida qabul qili-nib, chopilishga mahkum edi; eng oxirgi vaqtlargacha Merzlyakovning «Yassi vodiy o'rtasida» qo'shig'idagi o'sha bo'y echo'zib turgan og'och ham butkul g'udda bosib, butoqlab ketgan, chekkada shamol-dan ag'darilib yotgan daraxtlar kabi o'zining sanoatbop sifatlaridan ayrilib bo'lgandi. Qora dengiz admiralligi haligacha o'n minglab hay-batli daraxtlar g'ujlanib turgani ko'zga chalingan Kiyev, Poltava, Xer-son hamda Qozondagi emanzorlarni eng oxirgi og'ochigacha kesib oldi... Mana, hammaning ko'z o'ngida Kubanning husni-malohati bo'lmish Maykop etagidagi emanzor ham shpallar uchun qo'porildi-yu, kazaklarning bag'ri-dili o'rtandi. Pugachyovning shaharga sezdirmay yaqinlashib kelishiga imkon bergan, ming yetti yuz oltmis uchinchi yilning hujjatlarida qayd etilgan Saratovga chegaradosh o'rmonlar istilochilarining tabarlari ostida jon taslim qildi. Ming sak-kiz yuz yetmish yettinchi yil arafasida o'rmon solnomasi Vitegradagi daraxtzorlarning qo'porib tashlanishidan ko'z yosh to'kadi, xuddi Izyum deparasidagi, ashulalarda kuylangan Pelageyev qarag'ayzori singari... uni endi kim ham yodga olardi? Sobiq Novomoskovskdag'i hozir unumsiz yotgan tashlandiq qumloqlar o'rniда nisbatan yaqindagina tulki ovlab, matrapda kaklik tutib yurilganidan kimning xabi-ri bor? Mayli, ancha ilgari bo'laqolsin – ikki yuz yillar muqaddam Volga—Don daryolari oraliqlari yaxlit o'rmonlardan iborat bo'Igan, ammo yaqingina oltmishinchi yillarda Dnepr atrofi Yekaterino-slavdan Aleksandrova qadar emanzorlarga burkanib yotganiga kim ishona oladi?.. Zamondoshlar endi tovarbop ulkan jo'ka og'ochi faqat Oqdaryo bo'y lab saqlanib qolishidan anduh chekkan edilar, ammo yashil musallas va taxtachoy bilan birgalikda o'rmonning badmast ajali o'sha yerlarga ham yopirilib kirdi. Qo'lida tabar va garmoshka bilan u qalin Boshqird urmanlarida ham izg'ib, yetilgan daraxtlarni

tagi bilan qo‘poryapti, yosh nihollarni sug‘urib olyapti, Ufimkani va Tanapni bo‘kib yotgan po‘stloqlarning qo‘lansasi bilan zaharlayapti; hali qarab tursang, general-gubernatorning vaqtida ko‘rsatilmagan davlat g‘amxo‘riliги uchun vidolashuv sifatida o‘rmonga qasddan o‘t qo‘yib ham ketadi!

Yalatma hamda Murom orasidagi qadimiy o‘rmonlarning qismati yanayam qayg‘uli va o‘rnak bo‘lurli; Viksundagi korxona egasiga hadya etilgan qirq ming botmon yer oqibatda xorijliklarning ixtioriga o‘tib ketdi va u yerlarda ajnabiylar o‘zlarining istilochilik tajribalarini muvaffaqiyat bilan qo‘llay boshladilar. O‘sha yillarda mam-lakatimizda konsessiyachilar rosa qudratga kirgan edi! Xushchaq-chaq ajnabiy janob Letelye qo‘li qo‘liga tegmasdan Andijondagi va Namangandagi tog‘larda poyonsiz yong‘oqzorlarni qiyratdi, yosh daraxtzorlarga va urug‘zorlarga ham shafqat qilib o‘tirmadi, boshqa bir benasab kimsa – Emerik Gavrilovich degani esa o‘rta Volgada asriy qoraterak changalzorlarini sidirib tashladi. Interventsiya yillarida ham muzofotlardan juda ko‘p miqdorda boyliklar oqizildi: shimolda oq gvardiyachilar Oq dengiz qarag‘ayini talon-toroj qildilar, mensheviklar esa janubda o‘zlarining halokatli faoliyatlarining himoyasi uchun shamshodlarni qurol-yarog‘ga ayirboshladilar. Kavkaz daryolarining xususiyatlarida akslangan ko‘plab gruzin o‘rmonlarining ayanchli ko‘rgiligi ham bundan kam emas. Telavi yaqinidagi Chombar o‘rmonlari qulatildi, asr oxiriga kelib esa Satarx-no, Satsitsiano va Sajavaxodagi xususiy amloklar chopib olish uchun muddatli ijara berilib, Goridan janubga tomon ag‘darila boshladil, qurigan yashil yolli jasadlar tog‘ yonbag‘irlarida cho‘zilib yotibdi, ularni pastga tashish uchun ho‘kizlar yetishmaydi, – burgut inlari himoyasidagi daraxtlarga qirg‘indan omon qolgan. Jala yuvib ketgan tuproqlar orasida qoyatoshlar yalang‘ochlanib turibdi. Odam oyog‘i yetib borgan daralarda keksa grnzin qayrag‘ochlari tobora siyraklashib boradi va qayrag‘ochsimon og‘ochlar Riona daralaridan xalq ashulachilarining dostonlariga ko‘chib o‘tadi, ularning qadron birodarlari bo‘lmish Xortitsa emanlari allaqachon o‘sha qo‘shiqlarda shovullab turibdilar. Keksalar Imeretiya, Guriya, Mingareliya shamol-lari jo‘xorizorlarni qovjiratib yuborayotganini, Kura hamda Aragvi daryolari esa bahorda quturib oqishni odat qilganidan noliydlar; agar soatdan kuch harakatini barqarorlashtirib turuvchi tebratkich yoki

kapgirni olib tashlasangiz, uning millari xuddi shu tarzda jadallab ketadi.

Yuz yillik arafasida hatto Grozniy davrini ko'rgan kemabop emanlardan iborat Vasilsur o'rmonlari ham ag'darildi va o'sha yoqlardagi qurib-bitgan chashmalarning ham qaynovi abadiyga o'chdi. Kichik Jiguli ham taqirlashib, Xmelyov sayozliklari Volganing suv qatnovlarini xuddi sirtmoq kabi o'z bag'riga torta boshladи. Novgorod-Seversk yoqasidagi Desnaning ham qumlari yuzaga chiqib qoldi, qarangki, salgina vaqt o'tar-o'tmas cho'lning uchar elchilarini paydo bo'lgani haqida Belorussiyadan xabar olindi. Saksoninchi yillarda muallimimning ustozi Turskiy Okaning boshlanish hududlarini tadqiq etib, o'rmon nomlari bilan atalgan talaygina qishloqlarni topgan, ammo o'rmonlarning o'zidan asar ham qolmaganini ko'rgan, onda-sonda saqlanib qolgan mayda daraxtzorlargina misoli ota duosi saqlagani kabi, keksa avlod tomonidan avaylab-asrab kelinmoqda ekan... Sibirda ham ahvol bundan ko'ra quvonarli emas, masalan Kansk atroflari kabi: shu yerlarda yashovchilarning yodida qolgan tayga o'rnida hozir chalov bosgan dashtlar ko'karib ko'rindi. Ayni paytda olis Baykal ortidan va Amurdan o'lkashunoslarning o'rmonlar halok bo'layotgani haqidagi hayqiriqlari eshitilib turgani bilan hokimiyat egalarigacha yetib bormaydi. Saxalinning o'zidagina Due daralarini himoya qilib turgan yashil g'ovlar chopib tugatildi, bizning davrimizga yaqin yillarda esa yuqori Lena va Janubiy Enasoy havzalarini hoshiyalab turgan o'rmonlar qatag'onga uchradi. Kim biliadi, mashhur rus qo'shig'idagi daydi hordiq chiqargan Irkutsk yaqinidagi zilol chashmalarga boy o'sha o'tib bo'lmash Varnachka darasi hali omonmikan?.. Evoh, dahshatli oq olovning shiddati hanuzgacha pasaygani yo'q; aynan bizning kunlarga kelib, oltita birinchi darajali rus daryolari oqib o'tadigan Valday suv ayirgichi, o'sha atrofdan boshlanadigan Dneprni hisoblamaganda, sayozlikka aylandi. Qozon yaqinidagi yuz yillik Iblis burchagi qarag'ayzorlari, To'ng'izko'ldagi bog'lar, xuddi ajabtovur Derjavin bog'i kabi oz-ozdan jimgina yo'q bo'lib bormoqda, yaqindagini Qozon ishchilari may hordiqlariga to'plangan Dubkini muvaffaqiyat bilan kesishni boshlashdi... To'g'ri, kelguvchilarning so'zlashlariga qaraganda, Enasoydagagi qarag'ay tanalari hozircha shafaq nurlarida osmon tirgaklari misoli ustun-ustun bo'lib qip-qizarib turganmish... hozircha shafaqda qizarib turgan

o'rmonning mavjudligi sababi – daryoning tez oqimi ularni suvda sudrab oqizishga imkon bermaganida, xolos!

Tabiyiki, shaharlarning va ahelining o'sishi bilan, savdo va sa-noat rivojlanib borgani sayin, o'rmon ham rossiya iqtisodiyotining aylanmasiga tobora kengroq so'rilib bormog'i lozim edi. Ammo podshoh hukumatining majburiyati – yashil xaritadagi tobora yoyilib borayotgan sariq dog'larga ko'proq nazar solib, o'z faoliyatlarini bugungi mo'lchilik ertangi kun uchun tanqislikni keltirib chiqarmasligiga moslab yuritishdan iborat edi. Shuningdek, nima uchun ming sakkiz yuz oltmis birinchi yildagi rus o'rmonining ro'yxatga olingan yuz million botmondan ortiq maydonidan olingan daromad bir yarim million so'm miqdorida kirim qilingani holda, farangilarning million botmoni o'sha valutaning o'zida naq o'n million foyda berganini ham bir fikrlab ko'rish kerakmasmikan?.. Najot esa asosiy yog'och tayyorlanmalarni o'z vaqtida yaqin shimoldagi behad ortiqcha yetilib turgan o'tib bo'lmas changalzorlarga o'tkazib, tegilmay yotgan Sibir taygasini bosqichma-bosqich o'zlashtirishni taqozo etib turgandi. Ammo kapitalist yangi qo'rg'onlar, yo'llar va yangi kemabandlar qurishga pul sarflashni yoqtirmaydi. To'g'ri, inqilobdan salgina oldin Murmansko'li Olonetsk zaxiralarini janub taraflarga tashish uchun burib yuborildi, ammo bu yo'l aslida yog'och tashish ehtiyojlari uchun emas, balki chorasiz sultanatni muqarrar mag'lubiyatdan saqlab qolish uchun xorijdan harbiy quro'l-aslahalar tashish maqsadida dunyoga kelib qolgan edi. Bundan tashqari, rus o'rmon egalari shimoldagi ehtimoliy raqobatchisini sindirish uchun o'ziga tashish narxlarida imtiyozlar undirish maqsadida o'zining janubiy hududlardagi yog'ochlari bahosini sun'iy ravishda pasaytirib yuborgandi. Yog'ochfurushlar orasidagi ablahlar esa toshko'mir iste'moliga taqiq qo'ydirishga urinib yotibdilar. Yirtqichlarning sullohligi o'rmon kesishning vaqtinchalik kuchaytirilganini man etmaslik kabi surbetlarcha talab qo'ymoqlik darajasigacha etdiki, zotan o'rmonni xarob etmoqlik – ehtiyojdan tug'ilgan go'dak kabi emish. Bu nolish so'zлari ostida qanday ma'no nazarda tutilgani noma'lumligicha qolgan bo'lsa-da, ammo ming sak-kiz yuz oltmis to'qqizinchi yilda Fransiyadan yetti ming besh yuz pud, o'sha paytdagi ulgurji baholarda hisoblaganda ikki million so'mlik (o'sha yilning pulida) tryufel qo'ziqorinlari olib kirildi; bu noyob tansiqliklarni rus dehqoni tanovul qilgan bo'lmasa kerak har holda!

Rusda ta'sirli arznama bita olish qobiliyatiga ega kamyob sonli savodli o'rmonchilarini hisobga olmaganda, g'oliblik tantanasidan quturgan bu amlok egalarining o'zboshimchaligi oqibatining iqlimda, ziroatchilikda va suyukli mamlakatning qiyofasida qoldiradigan asoratini yoza oladigan kimsaning o'zi yo'q edi. Qonun esa jinoyatni rag'batlantiradi: og'ochi kesilgan hududlar shudgorlash uchun yaroqsiz yer hisoblanib, kamroq miqdorda soliqqa tortiladi va boz ustiga muhofaza qilish uchun mablag' sarflarini talab etmaydi. Qashshoqlashgan zodagonlarga ko'mak sifatida ildiz otib ketgan Qarz beruvchi muassasalarga amloklarni garovga qo'yishda, o'zining nisbatan arzon daromadiga ega o'rmondan ko'ra, to'nkalar qimmatroq baholalar edi. Bu ham yetmaganday, o'rmonlar tuproqni qashshoqlashtiradi, degan qulluqchi nazariyalar ham dunyoga kela boshladi; ming sakkiz yuz yetmish oltinchi yilda Engelgardtning ortidan qandaydir janob Zalmanov deganlari Rossiyada o'rmonning zarari haqidagi maqolasini chop yetti; umuman olganda, ahmoqlarning o'rmonga keltirgan ziyoni yirtqichlarnikidan kam bo'lindi. Darvoqe, shamol-larni kuzatishdan aniqlanishicha, misol uchun, Turkiyaning Rossiya-ga nisbatan qat'iy va tinkani quritadigan darajadagi nodo'stona munosabatlariga qaramasdan, Ryazan o'rmonlari baribir ularning dala-larini namlantirib turar ekan. Va nihoyat, xususiy o'rmonlarni sotib olish loyihasi bilan bog'liq holda, ularni g'azna foydasiga bepul olib qo'yish to'g'risida ovozalar tarqalib ketdi – va oqibatda Roslavlda o'rmon hovlilarining har botmonini olt mish so'mdan sota boshlabdilar, holbuki o'rmonchining qalpog'i peshanasidagi nishoni bilan birga o'n ikki tanga turadi. Xullas, qo'poraver, ayama, yana ikki baravar ortiqroq bo'lib o'sib chiqadi!.. Boz ustiga boyliklarni nohalol taqsimlashga qarshi rus dehqonlari daraxtlarni o'zboshimchalik bilan kesib olish tadbirini yo'nga qo'yib olganlari tufayli o'rmonni asrashdan ko'ra naqd pullarni saqlash xavfsizroq bo'lib qoldi. Hukumat esa bunga javoban tezgina tarzda murosaviy mahkamalarni tashkil etdi, daraxtkesar darhol tan jazosiga hukm qilinaqoldi; amlodor qo'riqchilarining aholi bilan qonli to'qnashuvlari tobora ko'payib bordi. Daraxt kesilishi bo'yicha mahkamaga olingen ishlar soni ming sakkiz yuz olt mish oltinchi yildagi o'n bir mingdan asr oxiriga kelib yiliga bir yuz o'n yetti mingtaga yetdi.

Muzofotlarning ko‘pchiligidagi dehqonlar umuman o‘rmondan chek yerlar olmay qo‘yishdi, olganlari esa ochlik yillarida soliqlarni to‘lash va oilasini boqish uchun chayqovchilarga sotib yuborishar edi. Supurgi bog‘lash yoki bir quchoq shox-shabba olish uchun darg‘azab boyonning oldiga yetti bukilib borishga to‘g‘ri kelardi; binobarin, tun qorong‘isida o‘tin chopib olish uchun xo‘jayinning daraxtzoriga borganida, og‘ochni rasamadi bilan kesish qoidalariga rioya etmaganligi uchun dehqonni ayblash insofdan bo‘lmaydi. Qashshoqning o‘z bolasini isintirishiga va to‘ydirishiga xalaqit beruvchi qonunlar hech qachon mustahkam bo‘lgan emas... Darvoqe, hali o‘sha vaqtlar dayoq yaxshigina haq oladigan davlat mutafakkirlari bizdagi mo‘lmo‘l va hamma yerda qatlamlanib yotgan torf xomashyosini o‘tinga aylantirib beradigan soddagina mashinalarni ixtiro qilsalar asakalari ketmasdi, – siz, yosh o‘rmonchilar uchun o‘tindan ko‘ra jirkanch va bema’ni so‘z hech qachon bo‘lmasin! O‘quv yillaringiz davomida sizlar, o‘choqqa g‘o‘la solaroq, shundayin sirli moddalarni yondirib yuborasizki, ularning ro‘yxatini kimyo sohasi hech qachon oxiriga cha kashf etib tugata olmaydi... kamina hali hech qandoq tutunsiz va kulsiz jon berguvchi yashil soya-salqinliklar va bulbul xonishi kabi vaznsiz ganjinalarni aytgani yo‘q. O‘tin ne’matining qadrini biz uning yer yuzidan yo‘qolib borishi asnosidagina anglay boshlaymiz. Biz shu choqqacha yog‘ochning xujayra pardasi¹ni ajratib olishni o‘rgandik, xolos; bebafo lignin va yog‘ochshirani esa daryoga oqizib, o‘z suvlarimizdagi baliqlarimizni halokatga giriftor etdik. Yaxshiki, endi spirt, mustahkamlaguvchi moddalar, teri oshlash vositalarini istalgan yog‘ochdan ajratib olishni o‘zlashtirib oldik, ilgari bular uchun faqat endigina yetila boshlagan, o‘n besh yillik ko‘zgu emanining po‘stlog‘i ishlatilar edi. Naq bir asr davomida sanoat va transport sohalari o‘zlarining go‘laxxonalarida yog‘ochni shafqatsizlarcha yondirish bilan band bo‘ldilar; faqat ming sakkiz yuz to‘qson ikkinchi yilga kelibgina neft bilan ko‘mir o‘rmon zimmasidagi bu og‘ir majburiyatning yarmini o‘z bo‘yinlariga oldilar. Baribir keyingi yilda o‘tin tayyorlashga yuz ellik million kub metr yog‘och sarflandi... O‘rmon yong‘inlarida qiyoslab bo‘lmas darajada ko‘p miqdorda og‘ochlar yonib ketadi; ming to‘qqiz yuz o‘n beshinchi yilda millionlab kvadrat

¹ Kletchatka, selluloza.

kilometr maydondagi chakalaklar yonib bitdi, ayrim joylarda hatto osmonda muallaq qolgan tutunlar g'allaning pishib-yetilish muddatini ikki hafta ortga surib yubordi. Binobarin, nomukammal ijtimoiyot tuzilmasida yo'qotilganlarining emas, balki omon qolganlarining miqdoriga hayron bo'lmoq kerak.

Yog'och sarflovchi tarmoqlar qatorida quyi Rossiyada tirikchilik manbayi bo'lgan dehqon hunarmandchiligin ham eslab o'tmoqlik joiz; mana sizga ilgarigi isrofchiliklarning raqamlardagi qiyofasi. Yog'och qadimdan o'zining hamma ko'rinishlarida rus eksportining asosiy tovari bo'lgan; bir tonna ishqor tayyorlash uchun ming kubmetr tol, qayrag'och, jo'ka yog'ochlari kuydirilgan. Qatron va ishqor qaynatishda qimmatli chiqindilar havoga sovurilardi, holbulki bir pud qayin po'stlog'i uchun besh chaqadan to'lashar edi. Ming sakkiz yuz ellik beshinchi yilda Nijegorod bozorida sakkiz yuz ellik ming pud chipta mahsulotlar sotilgan, inqilobgacha bo'lgan davr dehqonlarining asl poyabzali bo'lmish chiptakavush hali bu hisobda yo'q. Ularning har juftini tayyorlash uchun uchtadan yosh daraxt yoxud uch arshinli chiptadan o'n ikkitasi sarflangan, kavushlarning xizmat muddati esa nari borsa ikki haftaga etgan. Ming sakkiz yuz yetmish yettinchi yilda birgina Vyatsk muzofotining o'zida o'n uch yarim million juft chiptakavush tayyorlangan, shuning o'zidayoq bu hududda jo'kazorlar ship-shiydam bo'lgan... Besh yillar muqaddam men o'zimizning Yengada bo'lib qaytdim va Loshkaryov darasida turib, bolalik yillarimda o'sha yerdan o'nlab ulkan tirkash sollar karvonni, – har biri uch yuz og'ochdan iborat yassi k'fmalar va barjalar yuzib borganlarini o'kinch bilan esladim. Xullas, o'tgan asrning o'zida har yili og'och mahsulotlari yuklangan o'n minglab shunday kemalar mamlakatimizning o'rmon tanqis hududlariga borsa qaytmas bo'lib jo'nab turgan. Temir kemalarning joriy etilishi go'yoki kemabop yog'ochning iste'molini kamaytirganday tuyulsa-da, ammo temiryo'l ko'rinishidagi uning yangi iste'molchisi paydo bo'ldi... Boz ustiga yog'ochsozlik tarmoqlari ibridoiy yovvoyilik usullarida yuritildi: omi hunarmand yalangoyoqlarni iskanjada tutib turgan mushtumzo'r korchalonlar uchun o'rmonning g'am-tashvishlari sariq chaqachalik ahamiyatga ega emasdi. Qayin chiptasi yoki ignabargli og'och urug'i – bir yarim pudining bahosi besh chaqa! – uchun ko'p yillik yetilgan daraxt butunicha ag'darilgan va ochig'i gazetalarimizda yozilayotgan

xabarlarga ko'ra, hozirgi kunlarda ham Sibirda boshingni ko'tarsang uchi ko'rinnmaydigan haybatli kedrlar faqat yong'og'ini yig'ib olish uchungina qulatib yuborilayotgan ekan, umuman olganda xorijda Peru kaskarilysi ham xininli po'stlog'i uchun hanuzgacha chopqin qilinmoqda.

Agar boylik haddan ortiq ko'p bo'lsa, kaft orasidan tinimsiz to'kilib turishi hammaga ayon, ammo o'sha davrlarda u barmoqlar orasidan qumdan ham tezroq oqib tushdi. Bir vaqt tegirmonchilar yozning chillasida suvlarning sathi pasayib ketayotganini bor ovozlar bilan xabarlay boshlashdi, keksalar esa ilgari ayiqlar izg'ib yur-gan yerlarda endi yumronqoziqlar yugurgilayotganini o'zlarining yondaftarchalariga qayd etib qo'ydilar. Mana, Nijna-goroddan turib Kostromani bemalol ko'rsa bo'ladi, Saratov esa – Voronejdan ko'zga tashlanyapti; qum bo'ronlari xuddi o'tmishdan kelgan sariq arvohlar to'dasi kabi Ryazan darvozalariga kelib uriladi, Kaspiy ortidan esa, yangi yerlarga o'mashib olish uchun sho'ra, yovshan va boshqa har turdag'i tikanli o'simliklar balosi o'rmalab kelmoqda, – go'yo ilgari mo'g'ul suvoriyilar mingan otlarning dumlariga va yollariga ilashib kelgan o't-o'lanlar bizga kamlik qilganday. Oxirgi asrda Ashtarkon viloyatida uch yarim million gektardan ortiq qumliklar paydo bo'ldi. Don va Dnepr dashtliklarga aylanib boryapti, ilgarigi yuvosh soylarning shiddati endi ko'klamda to'g'onlarni o'pirib yubormoqda, lekin hammasi yozning ayni jaziramasiga kelib uyquga bosh qo'yanicha, xuddi odamni ko'rib qolgan osiyo kaltakesagi kabi qo'rroqlarcha qum orasiga singib ketyapti. Suv yo'llarining o'zanlari bo'ylab sayozliklar o'rmalab qoldi; ularning atrofida vodiylar kengayib boryapti-yu, kuch-quvvati esa zaiflashyapti, ko'plarining tubi ham ko'zga tashnab qoldi. To yog'och tog'ora qorni bilan sudralib, yoyiqlikdan o'tib olguniga qadar, yo'lovchilarni qirg'oq bo'ylab sayr qilishga tez-tez taklif etib turishadi. Volganing qizlari onasiga suv tutishga endi qodir emaslar; faqat to'ng'ichi, hali chopib bitirilmagan o'lkadan oqib keladigan Kama uning o'tmish shuhratini imkon qadar quvvatlab turibdi. Agar odamzot buyog'iga ham suvi muhofazalanadigan hududlar uchun qayishmas ekan, daryolarning o'zları uning bir tomonlama yemiruvchi faoliyatiga aralashishga majbur bo'ladilar: ular bug'tortar kemalarni oqimga qarshi yuqorilashga qo'ymaydilar, shudgorlari-mizni tashnalik azobi bilan qaqratadilar, yog'och oqizish mavsumini

yo'qqa chiqaradilar, – holbuki kesilgan og'ochlarimizning to'rtdan uch qismi aynan suv oqimi bilan tashiladi. Bunaqasi bizning zamonda ham sodir bo'lgan: sohilbo'yi daraxtzorlari ayni kesilayotgan paytlarda daryolar sathi shunaqangi shiddat bilan pasayishni boshlaganki, o'sha yili sollar Kama, Vichegda, Shimoliy Dvina va Oqdaryo boshlanishlaridagi sayoz suvlarda tiqilib qolgan; darvoqe, hozirda Kamaning tubi cho'kib ketgan xodalar, g'o'la cho'kindilarining olti metrlik qatlami bilan qoplangan.

Tabiatdagi izdan chiqish va parokandaliklar shu zaylda uyg'ona boshlaydi. Chashmalar so'nadi, kichik ko'lllar chirindiga to'la boshlaydi, qo'ltilqlar qo'g'azorlar va nayzabarglar bilan qoplanadi. Tuproq maysalar kigizisiz halokatga yuz tutadi; odamlar bir kun kelib uning ustiga ehtiyotsizlik bilan yulib olingenan bir bo'lak chimni tashlash va sho'rxokda cho'chqayong'oqni ildiz ottirishning oqibatlarini o'z boshlaridan o'tkazadilar. O'rmonlar yer yuzini qat'yan tark etib bormoqda. Tuproqlarning yuza suv oqimlaridan yuvilib ketishiga endi hech narsa monelik qilolmaydi. Ulkan suv oqava zovurlari sifatida ishlovchi jarliklar va daralar tobora ko'payib boryapti, ular qoratuproqni so'rib ketmoqda. Aynan bizning janubda, sakson mingta jamoa xo'jaliklari joylashgan hududda, eriyotgan qorlarning kattagini qismi jadal tezlikda, samarasiz olg'a intilib va muzlagan tuproqni sug'orishga ulgurmasdan, yupqa hosildor tuproq qatlamin o'zi bilan oqizib ketmoqda. Yoz oylarida, g'alla endi yetilib-pishadigan palla da shundoq ham tanqis bo'lgan tuproq namliklarini daryolarning o'zi shimib oladi. Bizning sovet uyimizga vahshatlilik maxluq shu zaylda kirib keladi, undan qutulish uchun esa o'rmonlarni quvg'in qilishga sarflaganimizga qaraganda taqqoslab bo'lmas darajada ko'p kuch-quvvatni safarbar etishimizga to'g'ri keladi.

Xalqning irimiga ko'ra – o'rmon o'ziga suvni tortib olib, so'ng uni keyingi sayohatlariga bulut ko'rinishida qo'yib yuboradi. Demak, u yog'ayotgan har tomchi suvga ikki va uch karradan ish topshiradi. O'rmonlar qanchalik ko'p bo'lsa, biz ummondan bir yilda oladigan doimiy ikki yuz millimetrik yog'inlar yomg'ir shaklida yerga yetib keladi. Ammo bizlar a'lo darajadagi foydali ish koeffitsientiga ega bo'lgan quadratli avtomat so'rgichlar bo'lmissiz daraxtlarning o'zi ildizlar orqali qancha qo'shimcha namlikni so'rib olayotganini hali hisobga qo'shganimiz yo'q. O'rmon dengizni yaqinlashtiryapti va o'zi

ham xuddi dengizga o‘xshaydi, uning zangori kemabandlarida bulut kemalar qo‘nim topadilar... lekin tabarning taqillashi boshlanishi bilanoq, namlikning havo markablari yemirilgan chaladashtlarimizda to‘xtamasdan, mamlakatimiz orqali boshqa mintaqalarga suzib o‘ta boshlaydi. Boshqa tarafdan esa, ortiq darajada sersuv va yetarli darajada suv oqizish tizimiga ega bo‘limgan shimoliy tekisliklarning dahshatli kelajagini tasavvur qilib ko‘ring, uning bag‘ridan o‘rmonlar yo‘qolib, suv toshqinlari va demak, abadiy muzliklar tazyiqi ham kuchayadi, chunki quyosh tundraning yo‘sini ostidagi tuproqni isitishga ulgurmeydi. Darvoqe, shimol o‘rmonlari yangi muzlik davriga qarshi to‘sinq ekani haqida muayyan nazariya mavjudligini sizlarga ham ma’lum qilib qo‘ymog‘im joiz.

Suv muvozanatining buzilganligi allaqachonlardan beri ruslarning farovonligiga ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. To‘qsoninchi yillardan boshlab hosilsizlik har o‘n yilda mamlakatni qaqshatib kelmoqda, aslini olganda oraliq yillar ham dehqon uchun shirin tatiyotgani yo‘q. O‘lat chorvani ag‘daradi va jonliqlarni to‘ydirish uchun doimo dehqonlarning qora kuniga yarab turadigan zaxira sifatida tomga bosilgan achchiq, yo‘sini bosgan poxol ham qahat bo‘lyapti. Dehqonlar to‘dasining qovjiragan dalalar bo‘ylab xayri duo bilan tushkun yurishlari yaqin atrofdagi arraning bir maromdagи bo‘g‘iq nolasi tomon yo‘nalgan. Ko‘chmanchilar mamlakat tijoratchiligi hali yetib bormagan joylarni izlab izg‘ishdan charchamaydilar: o‘rilmay qolgan o‘tloqlarmi, loyqalamagan suvlarimi, kesib ulgurilmagan chakalak-zormi, mayli-da, – xayriyatki vatanimiz juda bepoyon. Onalar nursizlangan namsiz-moviy osmonga qattiq tikilgan ko‘yi, to‘ponni qichitqi o‘t va oyboldirg‘onga aralashtirib, qorishtirib bolalariga yediradilar. Mo‘jizani qarang: Surada va Irgizda tabarlar taqirlayapti-yu, buning aks sadosi Volga ortida go‘dak yig‘isi bo‘lib ovoz bermoqda! Mana, Dokuchayev rus dehqonchiligin qimorga taqqoslayapti, ming sakkiz yuz to‘qson uchinchi yilda esa, agronom Izmailskiy dashtlar tez orada cho‘llarga aylanishini bashorat qiladi, zum o‘tmay matbuotda bundan ham dahshatiroq bashorat chop etildi: «Yillar o‘tadi, Ryazanning kuni ariqlarga qoladi. Omadi kelib qolgan yo‘lovchi esa Xarkov atrofida taxir-sho‘r suvli quduqqa duch kelib qolishi mumkin». Mana, sotsializm dehqonchiligmizni qanday ofatlardan qutqarishga safarbar etilgan.

O'rmonning dasht bilan bo'lgan qadimiy kurashida odamzot dashlarning tomonida turib faol harakat olib bordi. Iqlim buzilishlarini faqat odamzotning muallifligiga yozib qo'ymoqlik juda o'ziga bino qo'yib yuborish bo'lur edi, ammo zamonaviy texnika sharoitlarida buni kamaytirib ko'rsatish esa yanayam xavfiroq oqibatlarga olib keladi. O'rmonlar haqidagi siyqasi chiqib ketgan bahs-munozaralar Reomyur va Buffon davridan boshlangan, degan umidsiz tasavvurlar sizlarning tashvishlaringizni zaiflashtirmay qo'yaqolsin; hali o'z davrida Demokrit tuz mavjudligini dengizlarning qurishi bilan izohlagan, Kant ham sayyoramizdan suvning chiqib ketishi borasida qat-tiq qayg'urgan va bizning tarixchimiz Solovyov cho'llarning istilosiga qo'yaqolsin; hali-hamon avvalgiday va hatto endi o'qotar qurollarni qo'llashga zo'r bergenicha yashab kelmoqda! Bundan odamzotning o'ziga yomon: kishilar doimo eng oddiy haqiqatlarni pisand etmaganlari uchun juda katta evaz to'lab kelganlar. Rostdan ham shundoq, ilm-fan qit'aning ko'tarilib borishi va muzliklarning shimolga chekinishi, sobiq Sarmat dengizi esa Kaspiy botmasiga oqib ketishi oqibatida Rossiyaning janubi-sharqiy qismi qurib qolishidan ogohlantirgan. Bundan esa hammasiga ayb dor – Yerning fazoviy keksaligi degan xulosa kelib chiqadi: aynan u bizning hozirgi yashab turgan manzilimiz – ulkan suvlik tubini quritayotgan ekan; iqlimi sifyerblatda davrlar shunday joylashtirilganki, bu masalada o'rmonlar ham hech qanaqangi naf bera olmaydi!.. Ammo boshqa tarafdan, o'sha ko'p qiyofali ilm-fan e'tirof etishicha, biz ayni sayyoramizning namlanish davrida yashayotgan ekanmiz, zero ayrim ko'llarning sathi oxirgi besh ming yilda shu qadar ko'tarilib ketibdiki, neolit zamonida yashagan ajdodlarimizning sohilbo'y i mazgillari hozirda suv ostida qolib ketibdi... Binobarin, o'rmonlar bu ma'noda hozircha kerak ham emas emish... Uchinchi toifaning fikriga ko'ra, iqlim o'ttiz besh yillik davriyilikda o'zgarib turishga mahkum ekan-mish hamda qurg'oqchiliklar sovuq va nam havo ra'yini bilan almashi-nib turarkan, binobarin biz hozir ana shunday noqulay oraliqqa tushib qolgan ekanmiz: dengiz o'zimizga mos havo ra'yini taqdim etishini kutib turishimiz lozim ekan. Yana shunday fikrlar ham borki, dashtlarning istilosiga qadim paleogendan boshlangan va bu jarayon shu qadar sust emishki, ruslarning oldida hali bir talay bekorchi fursat bor

ekan... Muhtaram fan arboblari haqiqatni aniqlashtirib olgunlaricha, tabar nimalarni bajarib ulgurishini tasavvur qilish qiyin emas.

Klyuchevskiyga ko'ra, dashtning harakati Chelyabinskdan Ismoliga tomon butun qurg'oqchil mintaqqa bo'ylab yiliga yuz o'n metrga yetibdi, ayni vaqtida Afrikada Sahroi Kabir xuddi shu muddatda bir chaqirimgacha yo'l bosar ekan. Bunday sur'atda cho'llar Moskvadan Mojayskkacha ham sudralib borolmaydi degan xayol bilan o'zimizni ovutmay qo'yaqolaylik; bu raqamlar ortimizdagi tabarlarning tayyorlov ishlari tufayli hali marrot-marrot ortib ketadi. Tinchlantiruvchilarga ishona ko'rmang! Sayyoramizning suv muvozanati qadim zamnlardan beri o'zgarmay turgani borasida bizni Markaziy Osiyo misolida ishontirishga urinmoqdalar: Zarafshonning oqimi hamda Orol dengizining manzarasi o'sha-o'sha emish. To'g'ri, yerning abgorla-shuvi va qashshoqlashuvining yakuniy bosqichi bo'lmish cho'lning ko'rinishini battar yomonlashtirish oson ish emas... lekin jonsiz qum to'lqinlari orasida shaharlarning xarobalari, ayollarning taqinchoqlari va sharob ko'zalari qayoqdan kelib qolibdi? Osiyo tamaddunlarini urushlar xarob qilgan deya e'tirof etib ham qo'yishadi, lekin biz o'z faoliyatimizdagi aynan bir tomonlama yo'nalishni ta'kidlamoqdamizku. Bir inson umri chegarasida tabiatda kechayotgan o'zgarishlarni sezib olish qiyin; bizning vaqt qadamimiz tabiatnikidan farqlanadi va qarag'ayning uch yuz yillik umri bizning sakson yoshimizga to'g'ri keladi. Biz tug'ilgan chog'imizda dunyoni qanday holatda ko'rgan bo'lsak, xuddi o'sha holatida uni tark etamiz. Qo'shnilarining ariqlarini quritib, ularning tepasidagi yashil novdalarni qovjiratib, so'ng ularning yerlarini zabit etgan jahongirlar davridan qolgan qazilmalar orqali tarixni bilib olmagunlaricha, cho'llarning istiqomatchilariga tevarak atrofning hazin manzarasi tabiiy va abadiy bo'lib tuyulaveradi.

Yuz yillik tajribaga ega o'rmonshunoslik fanimiz bunday isrof-garchiliklarning ehtimoldagi oqibatlari haqida allaqachonlar ogohlan-tirib ulgurgan. O'rmonni muhofaza etgani uchun kishilar doim tanbal va xudbin degan nomni orttirib olishi oson va muqarrar bo'lsa-da, rus xalqi yashil iftixorimizni himoya qilguvchi bir qator jasur olimlarni yuzaga chiqardi. Bu devorlar orasida siz Rudzkoy va Dokuchayev, Turskoy va Morozov hamda boshqalarning ismlarini eshitasiz, – ularning baholi qudrat ko'rsatgan qahramonliklari sizlarning sotsialistik

ongingiz orqali quvvatlanib, sizlarni yanada kattaroq mardliklarga safarbar etsin! Tiriklardan... hatto mening taptortmas muxolifim va bosh taskinchim professor Gratsianskiy kabilardan ham saboq olib, o'liklarni sabr bilan tinglashni ham o'rganing. Ular o'rmonni shu darajada bilganlarki, yosh nihollar shamolga ko'nikishini ta'minlash uchun daraxt chopishni qayerdan boshlash lozimligi kabi hozirda bizga juda ibtidoiy bo'lib eshitilguvchi qoidalarni meros qoldirganlar. Bu odamlar shimoliy o'rmonlarning mo'lligi bizlarni ularga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish majburiyatidan ozod qilmaydi, chunki aynan ular Ukrainianing yomg'irlarini qaror toptiradilar, degan fikrlarni jamiyatimiz ongiga tinmasdan singdirib kelganlar; ular agar shimoldagi daraxt faqat xoda holatidagina qadrga ega bo'lsa, janubda u jonli holida behad darajada qimmatli bo'lishini aytganlar; ular Rossiyada o'rmondan foydalanishda qanday bo'lsa ham tartib-qoidalarni joriy etmoqlik lozim ekanini qat'iy isbotlab bergenlar. Shuni alam bilan e'tirof etmoq joizki, ularning da'vatlari javobsiz qolmagan: chunonchi, rus ruhoniylari bir mahal kelib iloh uchligi bayramida oqqayindan foydalanishni, milod bayramiga archa bezashni taqilash borasida ovoz chiqarib qoldilar; amlokдорлар qatlaming chapdastlari esa dehqonlarni payrahachiroqdan foydalanish kabi isrofgarchilikdan voz kechishga chaqirganlar, zero har bitta dehqon hovlisi qish pallasida olti arava payraha yoqadi, bu esa naq o'n sakkizta daraxt degani. Vaqtı-vaqtı bilan o'rmon qismatiga qayg'urib, jamoaviy ko'z yosh ham to'kib turilgan, masalan, ming sakkiz yuz yetmishinchi yilda o'tkazilgan, tarkibi to'rtadan uch miqdorda o'rmon egalaridan iborat qurultoyda shunday ish tutilgan. Qayerdaki qonun hamda davlat aralashuvining darrasi talab etilsa, o'sha joyda amlok dor vatanparvarligining ma'muriy-muloyib uqalovi qo'llangan. Nihoyat ming sakkiz yuz sakson sakkizinchi yilda o'zining sinfiy munofiqligi bo'yicha hatto ozod etish islohoti deb nomlangan qonun bilan bahslisha oladigan, o'rmonni himoya qilish bo'yicha orzulangan qonun paydo bo'lidi. Bu lo'ttibozlikning mohiyati o'qishning oxirgi bosqichida, Rossiya o'rmon qonunchiligin o'rganishda sizlarga namoyon bo'ladi; hozircha yodda saqlab turishingiz lozim bo'lgan jihat – o'rmonni muhofaza qilish qo'mitalari tarkibiga odatda ma'naviy qat'iyatlari taklif etiladigan ulushga, ya'nikim poraga teskari mutanosib bo'lgan xalq farovonligining korafsta riyorachilar bo'lmish gubernator, o'rmon ega-

lari hamda muzofot amaldorlari kirganlar. To‘g‘ri, o‘rmon kesishga ijozatnomalarini taqdim etishda daraxt ekish uchun yigirma besh so‘m mablag‘ olib qolingan, ammo shuni ç’tiborda tutinglarki, bizlar uchun deyarli afsonaviy hisoblanuvchi yillarda o‘tqazilgan eman ko‘chati (agar rostdan ham ekilgan bo‘lsa, albatta) bizning davrimizga yetib kelgan taqdirda ham hali sanoatbop sifatga erishmagan bo‘lur edi.

O‘n to‘qqizinchi asr faqat Rossiyada o‘rmonlarni ayovsiz qiyaratish bilan e’tiborga tushgan deyish noto‘g‘ri bo‘ladi. O‘z davrinining shohidlari bo‘lmish Marks va Engels bu jarayonni butun dunyoda kuzatganlar va bir kun kelib odamzot o‘z faoliyatining uzoq kelajakdagagi oqibatlarini ham oldindan ko‘ra oladigan zamonlar kelishini umid bilan e’tirof etganlar; shuni ham qo‘shib qo‘yish lozimki, o‘shandayin oqibatlarning ba’zilari uchun kelgusi avlodlar murakkab gidrotexnik inshootlar barpo etish bilan evaz to‘lashlariga to‘g‘ri keladi. O‘rmon Sibirda ham, Fransiyada ham o‘rmonligicha qolaveradi; o‘rmon egasi o‘z qiyofasini Kamchatkada ham, Reyn o‘lkasida ham birday saqlaydi. Kapitalizm hamma yerda o‘zining birinchi daromadini o‘rmon hisobidan, asosan – mo‘tadil iqlimning ishlov berish oson bo‘lgan yog‘och navlari tayyorlamalaridan orttirgan. Ertangi kun haqida tafakkur qilish hayvonga begona xislat, binobarin, kapitalistning ongi uning tirnoqlari va tishlaridadir. U bir kun kelib kromanyon uyasida, o‘ziga ishonch bildirgan badbaxtlar bilan birgalikda toki ochlikdan va sovuqdan yer tishlab qolguniga qadar yo‘lida uchragan hamma narsani g‘ajib boraveradi; fashizm ham hayvonning qahr-g‘azabidir va uning tobora ko‘proq aqli kirib qolgan yemishi vaqt borida tuyog‘ini shiqillatib qoladi. Amerika kapitalizmi o‘z o‘rimiga bizdan ko‘ra ancha avvalroq kirishdi – hali go‘dak vaqtidayoq Buyuk Ko‘llardagi va janubiy shtatlardagi o‘rmonlarga bostirib kirdi, joriy yuz yillikda esa – Tinch ummon sohillari istilosini boshlab yubordi. U veymut qarag‘ayini tag-tugi bilan yo‘q qildi, qatron olish uchun noyob xemlokni kuydirib tashladi, qora yong‘oq daraxtidan g‘ovlar qurdi, qoraqarag‘ayni esa, to sellulozaga yaroqli ekani kashf qilinguniga qadar xuddi g‘umay kabi ildiz-pildizi bilan yo‘q qilib keldi... Ishni yuqorida boshlagan yirtqichlar janubgacha izg‘ib bordilar. Oxirgi uchta o‘n yillikda o‘rmon maydoni naq yarmiga kamaydi, Michigan va Minnesota chakalaklarsiz qoldi, Nyu-York shtatida esa o‘rmon chopishni kuchaytirish vositasida ishsizlikdan najot topishdi... Kapi-

tal shoshilinch foyda ko‘rish bilan jon saqlaydi, bu esa ayniqsa yuqori kesilish aylanmasiga ega bo‘lgan navlarning qismatida namoyon bo‘ladi. Butun ulkan sekvoyyalarning yarmi yo‘q qilindi, bu turning ulg‘ayib yetilishi uchun esa to‘rt ming yil vaqt ketadi; avlodlar endi nlarni faqat botanika bog‘lari devorlarining narigi tarafidagina ko‘ra oladilar. O‘rmonning ulkan qayta tiklanishi, hattoki o‘zining buyuk qudratini o‘z iqtisodiyotining eng tor sohasida jamlashga qodir bo‘lgan sotsialistik jamiyat uchun ham juda katta kuch-quvvat sarflashni taqozo etadi; boz ustiga, o‘rmonlarni amalda tasarruf etish hududlarining to‘qson foizi xususiy mulk egalariga tegishli bo‘lgan Qo‘shma Shtatlarda bu haqda so‘zlashning o‘ziyoq soddalikdan boshqa narsa bo‘lmay qoladi. O‘rmonning himoya kamarini saqlash Buyuk Ko‘llar hududida nari borsa yettidan bir ulushga bajarildi, hatto o‘sha bo‘lak ham halok bo‘lmoqda. Asriy o‘rmonning ming gektarini kesish xuddi o‘shancha maydonga cho‘p qadab chiqish bilan qoplanib qolmaydi; bu o‘lchamlar teng qiymatli bo‘lishi uchun hali yuz yil davomliligidagi muddat ham kerak va tag‘in o‘sha vaqt davomida o‘rmon xo‘jaligini to‘g‘ri yuritish shart bo‘ladi... o‘shanda ham natija qanday bo‘lishini hech kim bilmaydi! Ziroatchilik sohalari to‘lig‘icha o‘rmonlarning holatiga bog‘liq, yuqorida biz eslab o‘tgan Marks tuproqni talon-toroj qilish va uning hosildorlik manbalarini xarob etishning kapitalistik san’ati haqida aytib o‘tgan edi. Amerikada qariyb uchdan bir milliard akr yerlar shu tarzda yaroqsizlantirildi, hosildorlik esa ayrim joylarda o‘n karra qisqarib ketdi. Barcha keltirilgan raqamlar siljuvchan bo‘lib, o‘sib borish tamoyiliga moyil, – mayli, shu raqamlar siz bilan biz uchrashgan kunning koordinatalari bo‘laqolsin. Ummon orti adabiyotlarida avvaliga xususiy mulkchining qirg‘iniga, keyin esa – hech narsa bilan tizginlanmagan tabiiy ofatlar ixtiyoriga berib qo‘ylgan yerning qanday ko‘ylarga tushishi tasvirlangan manzaralar ta’rifi uchrab turadi. Kul bosgan, toptalgan dalalar uzra qora to‘fonlar yelib o‘tmoqda, chang-to‘zonga to‘yingan ufq ortidan esa xuddi shilpiq bosgan ko‘z misoli quyosh zaif tikilib turibdi. O‘sha o‘lkalarda muttasil sodir bo‘lib turadigan turli inqirozlarning boshqa sabablari qatorida tuproqning yemirilishi ruhning chirishini, xudbinlikni va qo‘rquvni, haddan ortiq ko‘payib ketgan nufus falsafasini, tafakkurning palag‘dalashuvini va niroyat, insoniylik fitratiga bo‘lgan ishonchning yo‘qolishini keltirib chiqaradi.

Aniq statistik ma'lumotlarning mavjud emasligi sayyoramiz-dagi o'rmonlar haqidagi o'y-fikrlarimiz parovozini qiyinlashtiradi. Ammo-lekin agar Angliyaning o'zida sanoatbop og'och qolmagan bo'lsa, agarki o'tgan asrda Fransiya o'rmonlari chorak hissaga kamayib ketgan bo'lsa, ziyoli ovro'paliklar o'zlarini doimo ayni Kortes va Pizarro kabi tarzda tutgan mustamlakalarning boshiga qanday sho'rishlar tushganini tasavvur qilish qiyin emas. O'z podalarining tuyoqlari vositasida o'rmonlarning tarqalishini to'xtatgan ko'chmanchilarning ishini kapitalistik tamaddun muvaffaqiyat bilan davom yetti. Shu zaylda Livanning mashhur o'rmonlari yer yuzidan yo'qolib ketdi va Adrian chegara xodalari tap-taqir tog'lar orasida qabr ustidagi ustunlar yanglig' shumshayib turibdi. Osioning janubi-sharqiylar mintaqalari ship-shiydam qilib sidirib olindi, bashariyatning qoq yarmini tashkil etuvchi Hindiston va Xitoy hissasiga butunjahon o'rmon zaxirasining bazo'r o'ttizdan bir qismi to'g'ri kelib turibdi. Gangning boshlanish hududlarida ulkan miqdordagi yashiliklar Himolay etaklaridagi torgina kamar shaklida saqlanib qolgan, binobarin, odamlar haddan tashqari uzoq vaqtlar davomida yovuzlikka qarshi sa'y-harakat qilmaganlari uchun qasos tariqasida muqaddas daryo bahor oylarida xuddi Missisipi kabi quturib oqadigan bo'lib qoldi. Avvallari ham bir gektar yerda nari borsa o'n ikkitagacha uchrab turgan kamyob tik daraxti Godivardan janubga qarab to'lig'icha chopib olingen; Koromandel sohil bo'ylaridagi atlas daraxtlari va ebnuslar o'rni tikanli butazorlarga aylanib qolgan. Mitsubisi kabi yapon yirtqichlari Manjuriyani o'rmonsizlantirib bo'ldilar, ularning dastidan hozirda Tayvandagi asriy kofur daraxtzorlari qanday yan-chilayotganini tasavvur qilish qiyin emas, bu turning xomashyo sifatida sanoat miqyosida kuydirilishiga faqat ikki yuz yoshga yetganidan keyingina yo'l qo'yilishi mumkin. Ofatning ko'lami bizni daraxtning insoniyat hayotidagi o'rni va uning yer yuzidagi iste'mol xususiyatini belgilovchi raqamlarga nazar tashlashga majbur etadi.

Shudgor va o'rmon – quyoshning quvvatini hamda tuproqning unumdarligini bizning tirikligimiz uchun zarur bo'lgan mahsulotlarga aylantirib beruvchi eng qudratli mashinalardir. Dunyo xomashyosi orasida yog'och ne'mati toshko'mirdan va oziq-ovqatdan keyingi ikkinchi o'rinni egallaydi. Sayyoramizdag'i qulatilayotgan o'rmonning uchdan ikki qismi yoqilg'i sifatida darhol yondiriladi va

qolganlarining yarmidan anchagina ko‘proq qismi ishlov berish darajasining jinoiy darajada pastligi tufayli tashlandiq sifatida chiqindiga jo‘natiladi. Turli tirik mavjudotlarning yashash ehtiyojlarini qondirish koeffitsienti haqida gapirganda, yo‘lbars o‘z ozig‘ini yeishda odamdan ko‘ra tejamkorroq ekanini tan olmay ilojimiz yo‘q. Ajalvor zarbaning butun zalvori mo‘tadil iqlim o‘rmonlariga tushadi. Hududining yarmi changalzorlar bilan qoplangan Peru hamda keng ko‘lamli o‘rmon zaxiralari Orinokoda joylashgan Venesuela hozirga qadar yog‘och-taxtalarni Kanadadan tashib keltirishadi. Jahon iqtisodiyoti odamzotni shu tariqa hamma bir-biri uchun o‘zaro mas‘ul bo‘lgan bir oila sifatida tobora jipsroq yaqinlashtirmoqda. Skandnaviya mamlakatlari o‘rmonlarining tanazzuli Malayaning ibtidioy o‘rmonlarini moddiy aylanmaga jalb etgan bo‘lurdi, Gudzondagi o‘rmon yong‘inlari esa Lotin Amerikasi o‘rmon sanoatchiligini voqelikka safarbar qilgan bo‘lar edi. Kelajak haqidagi hamda xatar ostiga qo‘ylgan tiriklik manbalari to‘g‘risidagi fikrlar xalqlarning buyuk muzokarasini odamlarning baxtsizliklaridan daromad olishga odatlangan g‘arazli vositachilarsiz amalga oshirmoqlikni talab etadi. Shu kunga qadar xalqaro hamkorlikni joriy etmoqlikka urinish yo‘qlikka qarab ketib borayotgan o‘rmonlar ortidan jamoaviy ravishda aqli boshlarni chayqab turishdan nariga o‘ta olmadi. Burjuaziyaning advokatlari o‘rmonlarni qiyratish amaliyotini mukammallikka erishish sari olib boradigan notekis yo‘ning muqarrar bosqichi sifatida qaraydilar; xuddi shu tarzda ularning iqtisodiyotchilari ham zulm ostida ezilgan ko‘pchilikning qashshoqlikda yashashini zamонавиy tamaddun uchun tabiiy hol sifatida qabul qiladilar. Hatto shu vaziyatda ham, agar o‘rmonlarga nisbatan hozirdanoq zudlik bilan oqilona adolat tamoyillarini qo‘llasak, har holda ular keyingi avlodlarga ham yetarli darajada saqlanib qoladi. Ammo to o‘zligini anglab yetgan bashar jam’iyati – qizib turgan gazning ushbu portlashga moyil buluti, – kommunistik taraqqiyotning yagona turbinasining parraklari ga nisor bo‘lmas ekan, unga dovur ushbu masala biz uchun imkonli bo‘lishi amri mahol.

Biz uchun ishlab turgan barcha mashinalar orasida eng uzoq muddat chidab beradigani ham, ta’mirlanishi eng qiyin bo‘lgani ham – o‘rmon. Shu bois o‘rmonshunoslik fani undan foydalinishda muayyan hisob-kitoblar va tartib-qoida bo‘lishi lozimligi haqidagi fikrga

asoslanishi kerak. Taniqli rus o'rmonshunoslarining hamkorlikdagi faoliyatları negizida o'rmonlardan zamonda va makonda uzlusiz hamda zavolsiz foydalanish haqidagi nazariya yaratildi; ushbu ta'limotga ko'ra og'ochlarni kesish bir yilda o'sib yetiladigan daraxtlar sonidan oshmasligi lozim. Bunda xo'jalik tarkibiga kiruvchi o'rmonlar maydoni kesish aylanmasi soniga teng bo'lgan hududlar miqdoriga bo'linadi, binobarin, birinchi hududdagi daraxtlar chopish uchun qaytadan yaroqli holatga kelgachgina, arra oxirgi hududdagi daraxtni kesishga kirishadi; ushbu muddatlar o'rmon lozim darajada parvarishlangan taqdirdagina qisqartirilishi mumkin. Chorvachilikda ham ishlar taxminan shu taxlit yuritiladi, bir yilda so'yiladigan molalar soni chorvaning podadagi tug'ilishi va tirik vazni bilan mutanosib kelishi shart. Bir viloyatda chorvani bitta qo'ymay so'yib bo'lib, keyin bolalarcha tabassum bilan keyingi viloyatdagisiga kirishish oqilona ish bo'lmasdi, albatta... Ehtimol, bu ta'limotlarda o'rmonning yashnashi haqida bayon etilgan ayrim mulohazalar bizning zamoni-miz uchun eskirib qolgandir, ammo ularda avlodlar uchun qayg'urish hamda vatanga bo'lgan beg'araz sadoqat aks etgan. Ularning xo'jalik yuritish mantiqlarining mukammalligi shu qadar nuqsoniszki, ming sakkiz yuz to'qson to'qqizinch yilda Ural safariga borganida va o'zi o'rmonchi bo'lmay turib, Mendeleyev voqeliklarni kuzatish asnosida mustaqil ravishda xuddi shu xulosalarga kelgan edi. Qadimdan cho'zilib kelayotgan intihosiz bir munozaraning ildizi aynan shu joyda yotibdi. Sizlarga, bo'lg'usi o'rmon arboblariga, mamlakati-miz zangor xazinasining kaliti topshirilmoqda, endi sizlar o'rmonshunoslikning chalkash nazariyalarini hal etmog'ingiz va e'tiborin-gizni karaxt qilib qo'yuvchi mastlik asali surtilgan ayrim ta'limotlarga adolat bilan baho bermog'ingiz lozim bo'ladi.

Bizda shunaqangi toifadagi «allachi»lar borki, Marksning mazahomuz ta'rificha, ular «muhtojlikdan ham ezgulik yasab oladilar». Buyuk qurilish uchun majburiy ravishdagi ortiqcha kesuvlarni doimiy amal qiluvchi qonun maqomiga ko'tarib olib, ular o'rmon kesish miqdorini faqatgina transportning tashib ketish qobiliyati bilan o'Ichab va bu chopqinlarni o'rmonning o'sib yetilish miqdori mutanosibligi bilan cheklamasdan, o'rmonni hammayoqdan olaverishni shivirlagan ovozlarda tavsiya etadilar. Ular suvi mudofaa etiladigan hududlarni qo'shimcha ravishda siyraklashtirishni taklif qiladilar, holbuki, alla-

qachon ko'plab rus daryolari bo'y lab siyraklatish mumkin bo'lgan narsaning o'zi qolmagan. To'g'ri, undaylar o'rmonni qayta tiklash jumlasini qahr-g'azab bilan rad etganlari holda, so'nggi vaqtarda zaurat bosimi taqozosni ila o'rmon ishlab chiqarish tushunchasiga rozilik berib qoldilar, ular uchun har holda shunisi ulug' vorroq eshitilar ekan-boz ustiga ishlab chiqarishning ma'nosini har tomonga burib yuborish ham mumkin. To'g'ri, har qanday qizg'in ishda qiziqqon kallalar ham bo'lishi tabiiy, ammo ular o'rmonlarimiz haqidagi haqiqatlarni xalqqa yetkazib berishga harakat qilayotgan raqiblarining ovozlarini o'chirishga zo'r berib urinislari alohida tadqiqotlarga loyiq. Bu yerda men o'zimning asosiy raqibimni, Gratsianskiyni ko'r mayapman, ammo orqa qatorda uning stenografiisti, issiq, hozirgi mavsumga xos bo'lman bos kiyimini yechib qo'yishni unutgan yigitchaning ortida yashirinib o'tirishga behuda urinayotgan Iraida Antonovnaning hozir ekanligi, bu yerda aytayotgan so'zlarim meni fosh etmoqlik uchun juda ko'p kuch-quvvatlarini sarflayotgan tanqidchilarimgacha yetib boradi, deb umid qilishimga imkon beradi. Yana shuni ham yozib qo'yingki, Iraida Antonovna, Ivan Vixrov bo'lg'usi o'rmonshunoslar bilan bo'lgan suhbatida sizning boshlig'ingizning tasalli berguvchi serenadalarini unutilmas va xayriyatki, o'ttizinchi yillarda rad etilgan, Ukrainianing qora tuproqlarini yetmisht yetti santimetr chuqurlikda qudratli omochlarda shudgorlash taklifi bilan taqqosladi va xulosa shuki, bundayin tavsiyalar sotsialistik unum dorlikni butkul go'rga tiqib qo'yaqqlgan bo'lar edi.

Ozchilikning boylik orttirib olishiga xizmat qilgan kechagi o'rmon sarflari bilan kelgusi avlodlar farovonligini ta'minlab beruvchi bugungi xarajatlar orasidagi farq kunday ravshan. Sovet ishi uchun kurashda har qanday qurbanlar muqaddasdir va hozirda belorus Polesyesi fashist tanklari yo'lida g'ovlar hosil qilganicha qator-qator bo'lib ag'darilar ekan, o'rmonchilarining yuraklarini aslo qayg'u bosmaydi. Tinch mehnat jabhalarida hamda jangovar chopishmalarda rus o'rmoni bizga yelkadosh bo'lib turishi birinchi marta ko'riliayotgani yo'q: vayrongarchilik va intervensiya yillarida ishchi-dehqon respublikasi uchun u ham bor quvvati bilan mehnat qildi. Janggohlar ko'mirni va neftni to'sib qo'ydi, – u esa mamlakat bo'y lab qizil armiya hamda g'alla eshelonlarini tortib yuribdi, Boshkentga jasur sakkizlikni sudrayapti, korxonalarining yaxlab qolgan dastgohlarini

u aylantiryapti, ishchilarining uy-joylaridagi iliqlikni u saqlamoqda. Yog'och shu qadar qahat bo'lib ketdiki, hatto Lenin Sho'rolarning To'qqizinchi qurultoyida yog'ochni yonilg'i balansidan chiqarish, o'rmonchilarни harbiy xizmatdan va boshqa hamma joylardan o'z asosiy ish joylariga qaytarishga ovoz beradi. O'sha yilgi qonun daraxt kesuv ishlarini o'sish miqdori va hisob rejalar bo'yicha amalga oshirish zarurati, ya'ni qat'iy ilmiy asoslangan o'rmonshunoslik to'g'risida aniq ko'rsatma berdi... Ammo qisqagina tanaffusdan so'ng birinchi besh yillik boshlandi – Magnitogorsk va Qarag'anda, Turk-sib va Dnepr GESi; to'rtta shaharda traktor ishlab chiqarish korxonaları, qora metallurgiya va og'ir mashinasozlik korxonalarining qurilishlari qoziqoyoqbop g'o'lalar va beton quyish uchun qoliptaxtalar, quruvchilarga uy-joy barpo etish uchun katta o'lchamli ustunlar va yupqa taxtalar zudlik bilan yetkazib berilishini talab qila boshladi. Sanoatimizning barcha ilk chaqaloqlari yog'och yo'rgaklarda yotibdi va agar xalqimiz o'z vaqtida asrimizning tog' dovonlaridan to'g'ri o'tib bormaganida, hozir biz fashizm bosimi ostida kulfatga botib yotgan bo'lur edik. Umumbashariy ishlarni bizlar aqlli dushmanlarimizning alamli g'azabdan tish g'ijirlatishlari va tentaklarning ichiqoralik bilan mazahlashlari ostida boshladik; chumoli ishlayotganida chigirtkaning ko'ngilxushlik qilishi tabiiy hol! Biz kambag'al edik, ammo chet el-larning tajribasini va mashinalarini sipolik bilan naqd pul to'lab sotib oldik... va ular olishdi, G'arbning eng nasroniyashgan janoblari bolalarimizning yeb turgan nonini va moyini, moziyohlarimizdagи xazinalarimizni, suvlarimizni muhofaza qilib turgan o'rmonlarni sotib olishdi, xullas sovetcha jasoratlarimiz evaziga o'zlarining kasodga yuz tutgan ishlarini o'nglashdi. O'sha shoshilinchda biz hamma narsani chopib-ko'pordik, og'ochlarning yoshiga ham qaramasdan, navini ham farqlab o'tirmasdan, mahsuldarlik ko'rsatkichlariga ham ahamiyat bermasdan, ularni shimol va sharq yog'och oqimlari qa'rige tortdik, ammo asosiy og'irlikni yana o'sha – allaqachon o'rmonlari qashshoqlashib xarob bo'lgan o'lkalarning zimmasiga tashladik. Yer yuzi o'rmonlarining mashhur o'ndan uch hissasiga to'g'ri keluvchi asosiy o'rmon esa xuddi avvalgiday e'tibordan chetda qolib, behuda qulab, qurib-chirib yotgan holicha qolaverdi. U tomonlarda hali-hanuz tabiat odamdan ko'ra kuchliroq, hayot esa o'rmon chekkalarida tiqilib-siqilib kun ko'rmoqda: ignabargli o'rmonlarda qush sayra-

maydi. Qurtlar chaynab tashlagan, chaqmoqlarning o'tli nayzasi dan ag'darilgan loshlar o'sha yerlarda yo'sin kafanlarni kiyib, tirik og'ochlarga suyanib turibdilar, yo'lchi esa xuddi qadim davrlardagi kabi yiqilib yotgan yog'och uyumlari va chiqin bulutlari orasidan qo'l kuchi bilan yorib o'tishga majbur... Buni o'rta Rossiyaning yalang'ochlangan manzarasi bilan taqqoslab ko'ring-chi!..

O'rmonchilik ishlarida befarqlik bo'lishi mumkin emas: xalqimiz bu muqaddas tuproqda abadiy yashamog'i lozim. Toki kommunizmning takomiliga yetgan texnikasi bizlarni hamma narsadan hamma narsa yasashga o'rgatguniga qadar aholimizning yog'ochga, qog'ozga va tobora murakkablashib borayotgan yog'och kimyosi mahsulotlari ga bo'lgan ehtiyoji o'sib boraveradi. Shaharda har bir xonodon turar joy maydonining bir kvadrat metriga ikki kub metr yog'och talab qiladi. Temiryo'lning har bir chaqirimi yordamchi imoratlar, telegraf aloqasi va shpallar uchun to'rt yuz kub metr yog'och-taxta ishlata di... modomiki holat shundoq ekan, uni temir to'shamali yog'och yo'l deb atash to'g'riroq bo'lmasmikan? Birgina Donbassning yerlari ostiga har kecha-kunduzda tirkaklik yog'ochlar ortilgan o'nlab uzun eshelonlar kirib ketyapti... O'rmonshunoslik diplomi bilan sizlar bu maktabni tark etayotgan paytingizda, yog'och iste'molining miqdori ehtimol yana ikki baravarga ortgan bo'lar. O'rmon sarhadlari qanchalik qashshoqlashmasin, mamlakat sizdan yanada ko'proq yog'och yetkazib berishni talab qilaveradi, tabarlar yanada o'tkirlashadi, daraxtgacha bo'lgan yo'l yanayam qisqaradi, og'ochning mahsulotga aylanishi hozirgidan ko'ra ancha osonlashgan bo'ladi. Tabar, havoza va dehqon chanalarining o'rniga ko'chma elektr stansiyalari va xudi o'roqqa o'xshab ishlaydigan yangicha turdag'i arralar, moto-tashigichlar va buldozerlar, ko'p romli taxta tilgichlar, xodalarni to'p qilib bog'laydigan mashina kabi boshqa-boshqa idroksiz po'lat uskunalar o'monga kirib keladi. Bularning barchasi jarrohning qo'lidagi tig'singari, jonsiz neftga va ko'mirga o'xshab tomi bir chaqirim tublik dan boshlanadigan yerto'laga yashirinib ololmaydigan, hatto o'zini himoyalash uchun tikanakka ham ega bo'lмаган, тирик, яшил ва himoyasiz mavjudot uchun insoniy mas'uliyatni marrot-marrot, karrot-karrot oshiradi. O'rmon haqidagi, uning mamlakat iqtisodiyotining fuqarosi ekani to'g'risidagi, unga nisbatan munosabatlarimizdagi me'yirlarni qaytadan ko'rib chiqish lozimligi borasidagi umumxalq

tafakkurining zarurati shu tariqa yuzaga keladi... Kim bilsin, balki u ham o'shanda rangli metallar kabi faxrli o'rinni egallab qolar?

Hammaga ma'lumki, og'ochni chopganimizda payrahasi uchadi; tobora o'sib borayotgan davlat rejalari miqyosida bu holat allaqachonlar eng yuqori muhosabat e'tiborini talab etishga haqli bo'lib ulgur-gan. Qonunlashtirib qo'yilgan bu matal ma'nosidan biz o'rmondan iste'molchigacha bo'lgan butun yo'lda yog'ochning isrof qilinishini tushunishimiz lozim... Mana, o'rmonchi arrasini ko'tarib daraxtning yoniga keldi; bu yerda tabar hozircha faqat daraxtning yiqilishini yo'naltirib beruvchi boshlang'ich chopish uchun kerak bo'ladi, payraha hozircha ko'p emas. Endi daraxtni shox-shabbalardan va tepe qismidan xalos qilish kerak, ular o'z navbatida keraksiz va o't olish xavfi bo'lgan chiqindi sifatida shu joyning o'zidayoq yondirib yuboriladi. Yerda qolib ketgan daraxt ildizlari va to'nkalar birgalikda va po'stloqlar shilinganidan so'ng dastlabki kamayish miqdori butun organik moddaning qariyb yarmini tashkil etadi. Agar yog'ochni tashishda va oqizishda muqarrar zarar, ya'ni kamomadni faqat o'n foiz deb hisoblasak, sanoat korxonalari har bir yiqitilgan daraxtning qancha qismini olishini hisoblab ko'ring-chi?.. Holbuki iste'molchiga yetib borgunicha hali ancha bor. Xoda yog'och tilish korxonasiغا kelib tushadi, payraha yanayam mo'iroq ucha boshlaydi: kapantaxta, cho'ptaxtalarning chekkalari hamda qoliptaxtaga ishlov berishda va faner shilish paytida xomashyoning yarmini tashkil qiladigan qipiқ ko'rinishida; uy jihozlarini yashashda yana uchdan biri chiqitga chiqib ketadi. Hattoki qor ham, yog'och o'zining yo'ldagi sarguzashtlarning oxiriga kelib so'nggi ishlov berilganidan so'ng ba'zan o'ndan bir qismigina qolganichalik, erib ketmaydi. Biz hali o'rmon kesilgan joyning o'zidayoq kesilgan daraxt poyalari ustma-ust bosib tashlanganida oladigan shikastlari, shoxlarni yondirishdagi isroflar, yog'ochni ko'ndalang kesishda pala-partishlikka yo'l qo'yib navni pasaytirish, yiqitilgan daraxtlarni to'liq olib chiqmaslik oqibatida ko'rila-digan odatiy hol bo'lgan zararlarni hisobga olganimiz yo'q. Siz o'zining yo'g'onligi sababli yog'och tilish dastgohiga sig'magani tufayli chiqitga chiqarib yuborilayotgan olis hududlardagi korxonalarini borib ko'ring. Dalada yuz yil davomida pishib yetilgan hosilni talon-toroj qilishga jur'at etgan g'allachilik sovet xo'jaligining direktorining ayanchli taqdirini tasavvur qilish ham qiyin emas!

Tabiiyki, o'rmonga bo'lgan munosabatimizni amalda qayta ko'rib chiqish o'z mehnatimizni talab etadi, ammo temirning zarurati odamni avvallari ham dastakni va g'ildirakni ixtiro qilishga, yangi turdag'i quvvatlarni va mashinalarni kashf etishga, sotsialistik inqilobni va hayotni yaxshilashning boshqa ezgu uslublarni o'ylab topishga majbur qildiki, usiz bashar ahli yovvoyilashib, zavol topib ketgan bo'lardi!

Ochig'ini aytganda, hech qanday o'rmon yong'inlari «Rossiyaning qadimda o'rmondor bo'lgani» haqidagi garangsitib qilib avrash kabi katta zarar yetkazgan emas. Rus o'rmonlarining haqiqiy miqdori doim taxminiy aniqlikda hisoblangan. Ikki turdosh sovet muassasalarining ming to'qqiz yuz o'ttizinchi yildagi o'rmonlar maydoni haqidagi rasmiy ma'lumotlari bir-biridan Yevropadagi uchta o'rmon eksportchilaridan bittasi bo'lgan butun Shvetsiya o'rmonlarining o'lchami miqdorida farq qilgan. To'rt yildan keyin bizning o'rmon bilan qoplangan maydonlarimiz sirli ravishda yuz o'n yetti million gektarga kamayib ketdi, keyingi yilda esa, aksincha, oltmisik ikki millionga ko'payib qoldi. Suvni muhofaza etuvchi o'rmonlarning holati bundan ham jumboqli; kuchaytirilgan tartibdagi daraxt kesishlarga qaramasdan, ularning maydoni ming to'qqiz yuz o'ttiz oltinchi yildan toki ming to'qqiz yuz o'ttiz sakkizinchi yilga qadar uch milion gektarga ko'paygan, ming to'qqiz yuz qirqinchi yilda esa – birvaraka-yiga yigirma millionga ortgan... Boz ustiga, aniqlanishicha: dalalarga chegara tortish natijasida zirotatchilik uchun yaroqsiz bo'lib chiqqan barcha yerlar o'sha mashhur uchdan bir hissa o'rmon maydonlari qatoriga qo'shib yuborilgan ekan: chopib olingen va tashlandiq yerlar, o't ketgan hududlar va botqoqliklar, butazorlar vqa hatto tosh va qum konlari ham shu jumladan. Sovetning har bir tiyini ham aniq hisobga olinadi. O'rmon esa xuddi baliq va mo'ynali hayvonlar kabi davlat bankining muhofaza etilmaydigan moddasi hisoblanadi. Aynan shuning boisidan «allachi»larimizning o'rmonlar soxta farovonligi haqidagi munofiqona shivirlashlarini yagona to'g'ri uslubda tekshirib ko'ring: bizning ishlarmiz va so'zlarimiz avlodlarimizning turmu-shida qanday aks etadi?!

Bu ham yetmaganday, «ovuntirgich»larimiz o'rmonlarni kesish miqdori yillik o'sish ko'lamidan anchagina past ekaniga sizlarni ishontirmoqchi bo'ladilar. Ularga minba'd inona ko'rmang: ular

umumiyl o'sish hajmiga o'rmonlari hozirga qadar qurib-chirib yotgan Sibirning o'zlashtirilmagan tayga hududlarini ham qo'shib hisoblaydilar. Biz asrlar bo'yi Enasoydan Obgacha bo'lgan maydonlardagi o'rmonlar bilan maqtanib keldik, ammo daraxtlarni Tula va Ryazan atroflaridan kesdik. Bundoq ortga o'girilib, maydalamanmas so'mdan aslida qanchasi qolganini ko'rib qo'yish va bizda o'n besh yil davomida o'qitilmagan o'rmonni tashkil etish fanining qolgan-qutgan ilmlarini, ta'bir joiz bo'lsa, lupada ko'rib o'rganish vaqt keldi. Al-batta, bugungi kunda ham vatanimizni ufqlardagi ko'k hoshiyasiz tasavvur etish mumkin emas, men hattoki, dala hovlilarning egalari hamda bizning sohamizdan yiroq bo'lgan kishilarning rus o'rmoni taqdirini haddan ortiq vahima bilan juda bo'rttirib ta'riflayotganim haqidagi e'tirozlarini oldindan fahmlab turibman. «Kuni kechagina Marya Gavrilovna, – deyishadi menga albatta, – ansolzordan yana bir savat malla qo'ziqorinni terib keldi!.. Avvallari ham o'rmonlarga ehtiyyotlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo'lish lozimligi haqidagi da'vatlarimizni har qanday kesishlarga taqiq qo'yishni taklif etganlik sifatida ko'rsatishga g'arazli urinishlar bo'lgan. Men bir narsani tan olishga tayyorman: har bir insonning hayotida shunday ajoyib damlar bo'ladiki, u o'z hayotining so'nggi onlarigacha qanchalik navqiron bo'lib qolmasin, turmush taassurotlarini o'ta xasislik bilan to'plab boradi, keyin esa yig'ib qo'ygan tajribalari zaxirasiga yangiliklarni kuzatish salohiyatini singdiradi. Kaminaning shaxsiy tajribasi o'rmonni zo'r berib quvg'in qilish yillariga to'g'ri keldi... Ayrim ayanchli voqeliklarni qayd etib o'tishimdan maqsadim oldingizda turgan ishlar hajmi borasida ko'nglingizga g'ashlik solish emas, balki sabrsizlik iskanjasidagi ijodiy tashvishlarimni sizlar bilan baham ko'rmoqlik uchunki, biz, o'rmonchilar uningsiz xonasidan chiqmay o'tiradigan beg'amlarga va o'rmon baxtsizliklarini shunchaki ro'yxatga olib o'tiruvchi qaydnomachilarga aylanib qolamiz.

«Bugunning o'zidayoq mamlakatning to'la huquqli egalari bo'lmish sizlar, bir necha yildan so'ng uning boshqaruva dastagini qo'lingizga olasiz. Saflaringizdan olimlar va rejalomchilar, sanoat darg'alari, qonun chiqaruvchilar va deputatlar ajralib chiqadi. Oldinga jadal intilgan holda, katta strategiya yuksakliklaridan turib chamlab ko'ring-chi: faqat qo'lingiz yetadigan tegralardagi yog'ochlarni olish, misol uchun shaharlar atrofidagi daraxtzorlardan o'tin tayyor-

lash, Oltoydagi ensizgina maydondagi o'rmonlarni yoki Sibirming g'allaxonasi bo'l mish Qulunda dashtini Mo'g'uliston garmsellaridan panalab turgan Yuqori Ob o'rmonlarini, shuningdek, sotsialistik korxonalar va yangi qurilishlar atrofidagi yashil ixotani chopib tashlash maqsadga muvofiq bo'larmikan. Fikrlab ko'ring-chi: shoshma-shosharlik bilan, yarim ko'chmanchi tarzda yog'och tayyorlash tizimi o'rniga turg'un, doimiy ishchi xodimlarga ega bo'lgan yuqori madaniyatli o'rmonchilik sanoati korxonalarini tashkil etish, ya'ni bizning isrofgar dasturxonimizdan pud-pudli urvoqlar to'kilmasligi uchun ishlov berish sohasini xomashyoning o'ziga yaqinlashtirish to'g'ri bo'lmasmikan. Kesiladigan o'rmonlarni o'zini o'zi barqaror va uzlusiz hosil bilan ta'minlovchi, o'sha joyning o'zida yog'ochni tom ma'noda oltinga aylantirib, temiryo'lning yuk oqimini sakson foizli qipiqlik, payraha va namlik bilan to'ldirmaydigan, ko'ptarmoqli o'rmonchilik korxonasining birlamchi sexiga aylantirish foydaliroq emasmi? Bu holat bizning o'rmon xo'jaligimizni yerga ishlov berishning madaniy sohasiga aylantirgan, kesilgan daraxtning tovar qiymatini oshirgan, hozirda hatto olma degan meva borligini ham bilmaydigan rus shimalining farovonligini orttirgan, har bir o'rmonchilik korxonasi doirasida zudlik bilan o'rmonni qayta tiklash uchun qo'shimcha mablag' yetkazib bergen bo'lur edi. Tekshirib ko'ring-chi, kesilgan daraxtlarni tashib chiqishda og'ochning shox-shabbalarini oldindan chopib tashlamaslik, yosh ko'chatlarni sug'urishda tuproq qatlami ni ham qo'shib shilib olish, sovet qonunchiligidagi buyurilgan Olonets o'rmonlari o'rniga Ukrainianing va Belorussiyaning daraxtzorlar qashshoqlashib ketgan hududlarida daraxt yelimini olish uchun xuddi avvalgiday qo'porishda davom etish yoki chopilgan o'rmonlarda o'tinlik yog'ochni joyida qoldirgan holda, chirib yotishga mahkum etish, og'ochlari kesib olingen maydonni esa chiqindixonaga aylantirishning qanday zarurati bor? Halokatga mahkum daraxtzorlarni avaylab asrab qolish uchun payraha va o'tinlarni kamaytirish, tashqi imoratlarga mo'ljallangan barcha yog'ochlarga istisnosiz tarzda majburiy ravishda himoya moddalarini singdirish va qatronlashga, qog'oz chiqindilarini ikkilamchi qayta ishlashga o'tish vaqt kelmadimikan. Eng katta miqdordagi mablag'lar va keng qamrovli hodisalar odatda pisand etilmagan chaqalardan va qo'lidan ketgan mayda-chuydalardan bunyod topadi. «Sizlarning orangizdan o'rmonshunos muallimlar,

bebaho ahamiyatga molik arboblar yetishib chiqadilar, zero o'rmon buniyodkorlarini hamda homiylarini yaratish o'rmonning o'zini parvarishlashdan ko'ra muhimroqdir.. Har qanday alifbe qadrdon tabiatning, shu jumladan o'rmonning ahamiyati va chiroyi to'g'risidagi kiring so'zli sahifasiz to'laqonli bo'lomaydi; agar muallim o'z qavmiga mana shu eng ta'sirchan va olivjanob saboqni bera olmagan ekan, demak ustoz sifatida u noshuddir. O'rmon – vatan tushunchasining bir bo'lagi ekanini, vatanparvarlik qudrati doimo unga sarflangan shaxsiy mehnatning miqdoriga mutanosib ekanini bolalarga sabr-toqat bilan anglating: daydilarga va ishyoqmaslarga vatan tuyg'usi har doim begona bo'lgan! Yosh tarbiyalanuvchilaringizning vayronkorlikka va buniyodkorlikka birday qodir bo'lgan cheksiz vaqtлari va quvvatlarini manfaatli faoliyatga yo'naltirishning uddasidan chiqing, – shunda bolalarni ko'pincha alohida zavqlantirguvchi xarob qilingan daraxtlar, sindirib-shikastlangan bog'lar, qushlarning va chumolilarning buzilgan uyalari kamroq bo'ladi. Umumxalq miqyosidagi va maqsadga yo'naltirilgan shijoatdan boshqa hech qanday budget va hech qaysi muassasa ko'tara olmaydigan narsalar ham bor. O'yashimcha, yashil do'stlarimizning himoyasi uchun uyuştiriladigan safarlarga qayta isloh etiladigan yerlarning egalari bo'l mish aynan kommunistik yoshlар ittifoqi va maktab o'quvchilari sarkorlik qilmoqlari lozim.

Bu unsiz o'rtoqqa qarzimizni to'lash fursati yetdi. O'rmonni qayta jonlantirish bayramida sanoatchiligimiz dunyoga kelgan vaqtidan boshlab to shu kungacha undan kuchni qanday vositalar yordamida qandoq so'rib olgan bo'lsa, o'shandan ko'ra quvvati kam bo'lman mashinalari bilan daraxtzorlarga ta'zim etsin. Mamlakatning ishonchli o'rmon xaritasiga nazar tashlagan holdagina, sizlar qarzning ko'lamini va uni to'lash qanchalik shoshilinch ekanini anglab yetasizlar. Har holda, Timiryazevning so'zlariga ko'ra, o'rmonchining va qishloq egasining maqsadlari mushtarakdir, chunki ularning har ikkovi o'simlikdan imkon qadar ko'proq mahsulot olishga intiladi, dehqon o'z hosilini yilda bir marta yig'ib oladi, o'rmonshunos esa uzoq vaqtli kuch-quvvat sarflashning natijasi bo'l mish ijodiy qoniqish nima ekanini deyarli bilmaydi. Sizlarning hosilingiz juda uzoq muddatda yetiladi, mening yosh o'rtoqlarim, uning samarasini ko'rish juda ozchililingizgagina nasib etadi... Ammo bir kun kelib haya-jon bilan, boshingizdagи qalpog'ingizni ham yechib tashlab, Tosh-

loq dashtning shovullab turgan, deyarli shohsaroy xonalari misoli yo'laklar bo'ylab o'tib borasizlar, uning zumrad devorlari – daraxtlar, tomi esa – ko'zni qamashtirguvchi, o'rmon bag'ridan ko'kka o'rلان bulutlar bo'ladi. Uning o'zi esa, o'rmonning ijodkor ustasi, Vasiliy Dokuchayev va uning qaysar shogirdlari ularni faqat o'z tasavvurlaridagina ko'rganlar. Inson baxtining bunyodkori uchun orzu — bilim yoki g'oya kabi ta'sirchan vosita misolidir, orzusiz o'rmonshunos esa teshikkulchaning teshigidan farq qilmaydi. Kim bilsin, o'z parvarishlanuvchilaringizning tepe shoxlari birlashib ketgan tojlari ostiga sochlaringiz oqargan holda kelgan paytingizda shoshib yozilgan kitoblar, chala tugallangan binolar yoki juda tez yemirilib ketadigan mashinalarning yaratuvchilaridan ko'ra o'n barobar ko'proq g'ururni tuymasmikansizlar.

Sizlarning o'rmon foydasiga bo'lган har qanday mehnatingiz xalqning xayrixohligi va quvvatlovi bilan har jihatdan yengillashadi... Ming sakkiz yuz to'qson birinchi yilgi ocharchilikdan keyin muntazam davriy qurg'oqchiliklar sabablarini tadqiq etish uchun o'rmonchilik mahkamasi tomonidan nufuzli komissiya jo'natildi; komissiya o'rmon-dasht hududini o'rganishga yuksiz, to'rt g'ildirakli aravada chiqди, tarkibida bittagina a'zo bor: o'sha odam Dokuchayev edi. To'g'ri, kelasi yili topshirilgan vazifaning murakkabligi hisobga olinib, komissiya a'zolari soni ikki baravarga ko'paytirildi. Binobarin, yolg'izlikdan aslo qo'rquamngalar: o'z birlashgan qo'lllarining quadratini amalda anglab yetgan butun xalq sizlar bilan birga bo'lajak!.. Shu asnoda sizlar rosa o'z vaqtida o'rmonga ko'makka kelasizlar; asrlar o'tgani sayin yer bag'rida tekin ne'matlar tobora kamayib boraveradi va oldindagi hayotda kulfat ko'rmaslik uchun, rizq-ro'zni oqilona sarflashga o'tmoqlik lozim, ba'zida esa hattoki, tabiatdan ijozat so'ramay olingen har bir tiyin evaziga tovon to'lashga ham to'g'ri keladi. Xullasi kalom, bu bilan men Marksning barcha jamiyatlar, millatlar, hattoki bir zamonda mavjud bo'lган hamma tamaddunlar bir butun bo'lганlarida ham yerning xo'jayinlari bo'la olmaydilar; ular faqat bu ne'matning istifodachilari xolos, ular oilaning donishmand otasi sifatida, tabiatni keyingi avlodlarga yaxshilangan holatida topshirishlari lozim, degan so'zlarini sizlarga baholi qudrat sharhlab berishga harakat qildim.

Faqat bizning mamlakatimizdagina insonga tabiatning vijdonsiz tasarrufchisi bo‘lmaslik hamda uning oqimida kuchsiz xasga aylanmaslik, va aksincha, olam bunyod etilishining buyuk yo‘naltiruvchi kuchi bo‘lmoqlik imkonini berilgan. Buning uchun u tabiatning isrof-garchiliklar, behisob tajribalar va shafqatsizlik bilan chiqitga chiqarish vositasida mukammallikka erishish maqsadida ko‘r-ko‘rona intilishdan iborat faoliyatini osonlashtirish va tezlatish uchun undagi hodisalarni jonli va yaxlit vujudga birlashtiruvchi sirli o‘zaro aloqadorlikni ko‘ra bilmog‘i lozim va lobid. Inson zakovatining maqsad va mazmuni ham ana shunda; sotsializm – uning faoliyatining bir qadar to‘g‘ri va tejamkor shaklidir. Biz o‘z yo‘limizdan misli ko‘rilmagan odimlar bilan yurib bormoqdamiz, ammo qudratli va tanazzulga mahkum yovuzlik yo‘limizga hali ko‘p marta mustahkam to‘siqlar qo‘yadi. Bugun u bizga qarshi o‘zining hayvoniy tasavvurida go‘yo o‘z shaxsiy irodasi bilan harakat qilayotganday tuyulayotgan navbatdagi ko‘ppagini yo‘lladi. Ammo bizlar tarixdan olingan barcha avvalgi tajribalarimizdan bilamizki, xalq cho‘pchaklarining sof qalbli, mingta nomga ega bo‘lgan qahramoni inson baxti manbayini quritishni ko‘zlagan maxluqni har doim mag‘lub etgan.

«Xalqimizga va armiyamizga shon-sharaflar! Xush keldingiz, navqiron o‘rmonchilar!»

Ma’ruzachi tinglovchilarni go‘yoki o‘z ortida turgan, tasavvuri-dagi yashil ark ostiga taklif etayotganday yakuniy harakatni amalga oshirdi-da, so‘ng suv ichish uchun grafiga qo‘l cho‘zdi... va birdan hammayoq qarsaklarning shovqin-suroniga ko‘milib ketdi.

3

Polya yengil tortib, o‘zini ortga tashladi. Xuddi qandaydir betoblikdan keyin birinchi marta ochiq havoga chiqqan odam misoli boshi yyyengilgina aylanardi. Xuddi to‘satdan to‘xtalish bo‘lganday, hamma narsa oldinga harakatlandi. Faqat endigina darsxonada Vix-rovgaga dushman bo‘lgan oqimning vakillarini farqlash mumkin bo‘lib qoldi, to‘g‘ri, ular taqqoslab bo‘lmaydigan darajada ozchilik edi; birlari istehzoli ishshayganicha ma’ruzachi qaysiki degan so‘zni necha marta takrorolaganini shivirlamoqda, boshqa ikkitasi o‘zlarini

go'yoki nafislikni qadrlovchilar qiyofasiga solib, og'ir, majburiy vazifalarini bir amallab o'tab bo'lganday soxtakorlik bilan esnaydilar...

... Otasi uchun kuyinish xavotiri Polyaga asosiy jang hali oldinda ekanini aytib turardi va haqiqatdan ham, odat bo'lib qolgan qo'daga ko'ra, professor savol berishni taklif etishga ulgurar-ulgurmas, birinchi qatorda o'tirgan, tashqi ko'rinishidan biror kamchilik topib bo'lmaydigan darajada nuqsonisz kiyangan, oxirgi bosqichdan bitta pastda o'qiydigan yigit – Gratsianskiyning erkasi va eng qadrdon shogirdi o'rnidan turdi. Polyaning yonida o'tirgan, hamma narsadan xabardor qiz darrov uning shaxsiga ta'rif berib ham bo'ldi. Yigitning boshida yog'i yaltirab turgan kallik paydo bo'lib ulgurgan, uni yoshroq ko'rsatib turgan narsa labining tepasida endigina sabza urgan mo'ylovi edi, nuqsoniszlik tasavvuri bir tarafdan uning sport rusumidagi a'lo sifatli baxmalsimon charmdan tikilgan kurtkasi tufayli, boshqa jihatdan esa lutf ila va yyyengilgina charchoqqa yo'g'rilgan g'urur bilan o'zini tutishlik uslubida edikim, odatda kallakesarlar va tajribali kekchilar xuddi g'ilofda pichoq berkitib saqlangani kabi yashirin tutilgan qasos tig'ida edi.

– Ijozatingiz bilan... mening birvarakayiga ikkita savolim bor edi, professor, – ta'zim qilib qo'ygan bo'ldi u kurtkasidagi mexanik ilmani ko'tarib-tushirib o'ynagan ko'yi. – Menga shu narsa ma'lumki, kolxozlar ham o'zlariga tegishli o'rmonlarni kesishadi. Men shuni juda ham xohlar edimki, siz eng keyingi vaqtlardagi, ya'ni sovet davridagi o'rmon chopishlarning amaldagi ko'lamlari va xususiyatlari haqida mufassalroq to'xtalib o'tsangiz.

Xarraklar oralab yyyengilgina harakat va salbiy shivirlash yurib qoldi; yangi kelganlar institut ichida ayovsiz jang mavjud ekanini payqadilar, xolos. Boshqalarga esa savolning ig'vogarlik yo'nalishi ochiq-ravshan ko'rini turardi.

– Men ham sizga ma'lum bo'lgan ma'lumotlarnigina bilaman, xolos, – javob berdi Vixrov suvini shoshmasdan, mayda ho'plamlar bilan ichgan ko'yi. – Sizga davlat rejasi va kolxozi iste'molining hajmi yaxshi ma'lum... shularni kolxozning kesilgan daraxtzorlaridan tashib chiqilgan yog'och koeffitsientiga ko'paytiring. Modomiki, iqtisodiyot kulliyotida professor Gratsianskiyda o'qigan yillaringiz davomida statistik materialni mustaqil anglashni o'rganmagan ekansiz, bunisini o'zingizdan ko'ravering... Keyingi savolningiz qanday edi?

O‘z-o‘zidan murosasiz janjallarga aylanib ketuvchi bunday mu-nozaralarning turli qaltisliklariga o‘rganib qolgan muxolif ishshayib qo‘ydi.

— Minnatdorman, — dedi u professorning tepasidagi shiftning ganchkor, vaqtlar o‘tishi bilan chang bosib ketgan araqisini tomosha qila turib. — Ikkinchı savolim judayam ahamiyatsiz... Sizning taqqos-lashlaringiz hammamizga juda yoqdi... ayniqsa... haligi... qabilalar yong‘inga o‘xshaydi, deganingiz. Bu juda yangi va noyob o‘xshatish, sizga mersi. Shundan bir daqiqagina oldin esa siz samimiyliliqlik bilan o‘z birodarlarining va farzandlaringiz haqida gapirdingiz, aytishingiz bo‘yicha — o‘z zimmalariga olgan... nimaydi... — u o‘zining baxmal-simon charm muqovali yon daftarchasidagi yozuvga qarab oldi, — tarixiy sinovlarning asosiy yukini o‘z zimmalariga olgan... Muhtaram professor aytib berolmaydilarmi, bu bilan o‘z qarindoshlaridan aynan kamlarni nazarda tutib edilar?

Bunday darajadagi aniqlik bilan zarba berish uchun Vixrov oilasining tarkibini yaxshigina bilish kerak edi. Uyatdan yuzlari qizarib, birinchi navbatda o‘zi uchun orlanib, Polya professorni quvvatlov-chi va bu ishga aralashuvchilarni qidirib, ayanchli ahvolda atrofga alangladi, ammo darsxona ahli jimlik bilan kutmoqda, shu jumladan qo‘lidagi bo‘s sh bardoqni juda uzoq vaqt davomida joyiga qo‘ygan professor ham.

— Sizning savolингiz ko‘rib o‘tilgan mavzuga hech jihatdan alo-qador emas, ammo men javob beraman... — past ovozda so‘zini bosh-ladi Vixrov va hammalari uning aytayotganlarini yaxshiroq eshitish uchun o‘rinlaridan tura boshladilar, Polya esa o‘ziga muqarrarday tuyulgan mag‘lubiyatning dahshatidan ko‘zlarini yumib oldi. — Men bu jumlani buyuk silkinishlar qarshisida xalq ruhiyatida yuzaga keladigan, qarindoshlikdan ko‘ra yuqoriroq turguvchi umumfuqarolik aloqalarini ta’kidlash ma’nosida qo‘llagan edim. Shu jihatdan olganda, agar siz o‘z vaqtida harbiy xizmatga chaqirilishdan qutu-lib qololmasangiz, kamina sizni ham shu toifaga qo‘shishga majbur bo‘ladi... Ammo afsuski, aynan sizning tushunchangizdagи yaqin qarindoshlarimdan frontda hech kim yo‘q... o‘zim keksayib qolganman va o‘zingiz sezgan bo‘lsangiz kerak, albatta, boz ustiga oqsoqman. Aynan shu jihatni nazarda tutgandim.

Bir necha kishining suyuqqina chapaklari ham ko‘pchilikning shivir-shiviri orasida yo‘q bo‘lib ketdi, ammo boshqa savollar berildi. Buning ortidan xuddi uyasi buzilgan arilarning guvullashi singari g‘ala-g‘ovur butun darsxonani to‘ldirib yubordi, Polya gap aynan o‘zi haqida borgani uchun uyatdan qizarib ketgan yuzidan qo‘llarini olgанида, professor joyida yo‘q edi, uning pastdagи miz yonidagi joyini esa, hayajonlanganidan ma‘ruza paytida qalpog‘ini yechib qo‘yishni ham unutib qo‘ygan o‘sha yigit egallab ulgurgan edi. Tubi qizil kazakcha qalpog‘ini silkitganicha, u tartibni tiklashga urinardi va uning xo‘mraygan yuzi hech qanday yaxshilikdan darak bermayotgandi. Biroz tinchlik saqlangan paytda u bolalarcha do‘rillagan ovozda afsus bildirib, silliq yigitchaning iflos savolchalarini kechroq tushunib qolganini va bu bilan barcha yig‘ilganlarni rus o‘rmonining yoqasida mehmonnavozlik bilan kutib olgan qariyani ranjitishga yo‘l qo‘yib bergenini alam bilan aytdi. Kimdir o‘tirgan joyidan ovoz berib, shaxsan uning o‘ziga taalluqli gap aytilmagani haqidagi mulohazasiga javoban, istehzoli iljayish bilan e’tiroz bildirib, u o‘ziga daxl qilib qon-qonigacha g‘azablantirgan fashizmni ham kuni kechagina yomon ko‘rib qolmaganini, balki ancha avval undan nafratlanganini va shu bois ham uni, o‘zining ta’biri bilan aytganda, g‘irt ikkinchi darajali jirkanch moddaga aylantirish uchun (bularni u og‘ir-bosiqlik bilan gapirdi) butun kuch-quvvatini sarflashini aytdi.

– Harbiy davrning to‘s-to‘polonidan foydalanib qolib, bizlarning oramizga qo‘shilib olganlaricha birovlarning xonumoniga o‘t qo‘yib yurgan shu kabi fitnagar arboblarning axloqlarini qoralashni taklif etaman. Fashizmdan... uning har qanday ko‘rinishidan nafratlanaman, munofiqona o‘yin qiladiganlardan ham, burchakka biqinib olib zarba beradiganlardan ham jirkanaman, – qo‘llarini keng yoyganicha so‘zini tugatdi yigitcha va har ehtimolga qarshi qo‘llari bo‘sh bo‘lib turishi uchun qalpog‘ini qoshigacha tushirib kiyib oldi-da, darsxona-dagilarni juda sekinlik bilan nigohidan o‘tkazdi.

Bu safar uzoq davom etgan qarsaklar gulduroslarga aylanib ketdi – uning jasorati uchun, uning qabihlikka qarshi yoshlarcha murosasizligi uchun. Polya ham barcha bilan birgalikda notanish kubanlik yigitchaning qo‘lini qisib qo‘yish uchun pastga yugurdi, u zikh halqani amallab yorib o‘tib, deyarli navbatи yetay deb qolgandi hamki, kutilmagan shubha qizning suyunchini g‘ashladi: bu yigit unga yaqin-

dagina tanishish istagini bildirgan, ammo Polya rad etgan sirli Seryo-jaday tuyuldi. U ham o'rmonchi oilasida tug'ilib voyaga yetgani va tabiiyki hayotga o'rmon yo'lidan-ketgani va endi o'z tarbiyachisini himoya qilayotganini taxmin qilish mumkin edi. Bu gumanlar shoshilinch tekshiruvni talab etardi. Polya haqiqatni aniqlash uchun zinapoyadan pastga shoshib tusha boshladi.

Ketib borayotgan yigitcha yolg'iz emasdi, uning bir nechagina kishidan iborat yo'ldoshlari, o'ziga o'xshagan jangovar ruhdagi yigitlar oldinma keyin tarqalib ketishgunicha, Polya uning ortidan qolmadi. Yigit yakka o'zi qolgach, hovlilar oldida gulzorlari bo'lgan uzun, chang bosgan torgina ko'chada Polyaning o'tingannamo cha-qirig'iga jahl bilan o'girilib qaradi. Uning egnida arzon, oldi ochiq, yarimqog'oz matoli paltocha, garmonning ovoz pardachalariga o'xshagan anchagina mayda tugmachalar qadalgan movut ko'ylak, oyog'ida to'p tepaverganidan old tomoni yedirilib ketgan botinka; qandaydir ovloq joyda yashaydigan, bosh kiyimlari bo'yicha daho usta tomonidan tikilgan san'atkorona ijod namunasi bo'lmish, ichki tomoni go'yoki bir bo'lak olov qoplab qo'yilganday qip-qizil, hatto jahon boshkenti uchun ham noodatiy kubancha qalpog'i kiyimlari ning odmiligini to'ldirib ketgan. Yo'q, bu yigitcha Polyada o'zining qizg'anchiqligi, badxohligi tufayli unchalik yoqimli bo'lmagan bir hissiyot uyg'otgan o'sha Taisiyaning erkasidan judayam farqlanib turardi: bunisi ko'proq Rodionga o'xshaydi, chunki uning ham qo'polfe'li ostida xuddi shunday mehrli yurak urib turibdi.

– Boya siz Vixrovni judayam yaxshi yoqladingiz, hatto yuragim hapriqib ketdi... – minnatdorlik bilan tan oldi u, hattoki kerakli ma'lumotlarni yigitchaning ichidan sezdirmaygina sug'urib olish uchun o'ylab topgan soddagina hiylalarini ham unutgan bir holatda. – Shunchalik yaxshi ekaningiz uchun sizga rahmat...

– E, qo'ysangiz-chi... arzimagan narsa, – e'tiroz bildirdi u. – Bu jin chalgurlar qayoqdan paydo bo'lisharkin o'zi? O'zingdan nariga sidirib tashlasang ham, baribir o'rmalab kelaverishadi... Nima, sen ham o'rmonchilikka o'qimoqchimisan?

– Hozircha bilmadim... – javobdan qochdi Polya va hayotda qachonlardir yana uchrashib qolishlari mumkinligi boisidan, har ehti-molga qarshi o'z ismini aytib qo'ydi.

– Mening ismim esa Kasyan, yo‘qsillardanman, – kulib qo‘ydi u o‘zining kamyob ismini nazarda tutib, va yemirilib ketgan yo‘lkada botinkasining uchi bilan bir toshchani oldinga-orqaga aylantirgancha. – Agar ma’ruzalarda ko‘rishib qolmasak... tez orada yana uchrashishimiz dargumon. Yaqinda bu yerdan qochib qolaman... frontga jo‘namoqchiman... yuragim achishib ketyapti, xuddi qashlanaverib, shilinib ketganday. Xorijiy charmga burkangan haligi kalbosh iblis meni jizg‘anak qilib kuydirib tashladi. Yo‘-o‘q, bunaqa kuydirgилarni inidayoq yondirib yuborish kerak, shekilli... – Uning ko‘zлari qisilib, qayoqqadir yon tomonga, tomlardan ham tepaga tikilib qoldi, go‘yo o‘sha tomongan nido eshitilganday. – Bo‘pti, men boraqolay, qizgi... alvido.

Daridan sog‘ayganda bo‘ladigan zaiflik Polyani qamrab oldi. Darvoza oldidagi oyoqlari yerga ko‘mib mahkamlangan xarrakka o‘tirganicha, u karaxt bir holatda toshko‘chadagi shaffof toshchaga tikilganicha, xuddi o‘sha toshcha kabi rangsizgina kuz quyoshining nuridan qishga g‘amlab qolishga intildi. To‘satdan chidab bo‘lmas bir qiziqish ko‘chada yotgan o‘sha toshni olishga majbur etdi.



— Buning nimasi hayratlanarli, — dedi Varya dazmollangan gimbastorkani katga taxlab qo'yayotib. — U shunchaki qizchasini ko'rish uchun kelgan.

— Agar shunday bo'lsa, nima uchun uning o'zi menga ochig'ini aytaqolmagan?

Chamasi, Varya o'z fikr-xayollari bilan haddan tashqari band bo'lgani bois, ayni paytda birovlarning ko'ngliga qaraydigan kayfiyatda emasdi.

— Oh, Polyaginam, bu chollarning bizga tushunarsiz bo'lgan o'z aftorlari, qiliqlari bor. Bunday olib qaraganda tabiiy, o'ziga xos insoniy munosabatlarni ham ba'zida qanchalar qiyinlashtirib yuborganlari haqida o'zlarining kitoblaridan o'qib bilaverasan. Boshqa ijtimoiy mexanizm, o'zgacha ko'nkmalar... — sal kibrlanibroq ishshaydi u mizda ochiq turgan jomadonchaga buyumlarni solaturib. — Va umuman, maktabning tarix fani bo'yicha qisqacha bayonni varaqlasang, undagi hamma narsa silliqqina, mantiqiy, ulug'vor tasvirlangan bo'ladi, ammo satrlarga yashirin qotgan qonlarni ko'rganingda esa, — yuragi bo'sh odamlarning ko'ksidagi sanchiq miyasigacha bora-di. Sen esa, ey karaxtlikdagi qalb, bashariyatning katta yo'l deb ataluvchi rohiga boqqin-chi — u yerda nimalar yo'q ekan: xunrez savdoylarning qonli yurishlari, kitoblardan olovlangan gulxanlar, o'tda yondirilgan kampirlar, ajalvor ilma-teshik qilingan kemalar, yong'in ichidagi kentlar... talvasadagi tirishishlar aralash betizgin ruhiy ko'tarinkilikday tuyuladi ba'zan... va yana ko'rlar karvoni... va bular barchasi oldinga, faqat oldinga, qanday qilib bo'lmisin muzli cho'qqilar sari intiladi, ilgarilaydi. Odamlarni mana shuning uchun ham sevmoq kerak, Polyajon!

— Bilasanmi, aynan Qozonga jo'nashi oldidan Rodion menga yaxshigina bitta she'r yozib berdi... ayni shu haqdagi bir necha misrasi xotiramga shundoqqina mixlanib qoldi, — qizg'inlik bilan dunganasini quvvatladi Polya. — Jonli moddalar haqidagi she'r, bir kuni, qayerdadir, sianli o'simliklar bilan qoplangan ko'rfazda, o'sha moddalar odamlarga aylanib qoladi... va keyin ular nihoyatda sekinlik bilan bulutlardan ham baland cho'qqilarga ko'tarilib boradilar va «tog'larning siyrak havosidan nafas olmoqlik ular uchun qanchalar azobli hamda dahshatli». Uning she'ri shunday yakunlangan:

*... Ammo bu muzli tog 'ning tik cho 'qqilaridan
Hali hech kim tushmadi, qaytmadi ortga –
O'zi ko 'z ochgan yoqimli, iliq xilqatga
Ilk bor boshini qo 'ygan beshigiga, belanchagiga¹.*

U tirsagiga tayanib turganicha, Varyaning ayovsiz bahosini kuta boshladi.

– Uning yoshidagi bola uchun yomon emas, – so 'zlarini bir qadar cho 'zib dedi Varya. – Umuman olganda, biologik taraqqiyotning uzluksizligi ham badiiy chekinishlarsiz aniq ko 'rsatilgan...

– Aslidayam u ancha qobiliyatli bola, – yuzlari qizarib, o 'zini imkon qadar beparvo ko 'rsatib shivirladi Polya va miz ustidagi qulfi uzilgan jomadonchani, atrofga sochilgan buyumlarni va shoshilinch ravishda safarga ketish oldidan hosil bo 'ladigan muqarrar tartibsizliklarni endigina payqadi. – Qayoqqa ketyapsan, Varya?

Unisi esa dugonasiga orqasini o 'girganicha narsalarini yig 'ishtirishda davom etaverdi.

– Senga aystsam, meni bir muhim topshiriq bilan jo 'natishyapti... yo 'q, qiyin emas, lekin anchagina ovoragarchiligi bor, – to 'xtalib-to 'xtalib izoh berdi u, – tez orada ketayotganim yo 'q, ammo har daqiqada tayyor bo 'lib turishimni buyurishdi. Iltimos, boshqa savol berma, senga baribir hech narsani ayta olmayman.

– Men-chi? – titroq ovoz bilan so 'radi Polya.

– Sen Moskvada qolasan, institutda o 'qiyan va mana bu kattagina, yaxshigina va lekin salgina chala qurilgan uyni ko 'ngilsizliklardan asrab o 'tirasan. Xullas, bekalik qil. Aqli qız bo 'l. Nihoyat sening otangga nisbatan bolalarcha, lekin dahshatli shubha-gumonlarining tarqalib ketganidan nihoyatda xursandman.

Polya mizni aylanib o 'tdi va dugonasining engagidan ushlab, boshini yuqoriqoq ko 'tarib, uning ko 'zlariga boqdi:

– Varyajon, menga xoinlik qilding, holbuki dunyoda hamma narsani teng bo 'lishishga ont ichganding. Aniqki, buni sen o 'zing ancha avval o 'ylab qo 'ygansan, ammo sukut saqlab kelding. Menden yashirding, demak – meni aldading. Qayoqqa ketayotganining bilaman.

– Aksincha, Polya, meni mamlakatning ancha ichkarisiga yuborishyapti.

¹ Alisher Sa'dulla tarjimasи.

– O, sen doim faqat haqiqatni gapirasan-da!.. Lekin aynan qaysi ichkariga ketayotganiningni baribir aytmading. Xullas, ikkovimiz birga ketamiz.

Odamlar shaxsiy sirlarini o'chib qo'yganlarida o'zlaridan qanchalik jahllari chiqsa, Varya xuddi o'sha alpozda lablarini qattiq tishladi.

– O'zing o'ylab ko'r, Polya, aytayotganlaring hammasi g'irt telbalik-ku... kel, yaxshisi bu suhbatni darhol to'xtatamiz. Shunday narsalar borki, ularni yarimta so'zdan fahmlab olish kerak bo'ladi.

– Bilib qo'yginki, Varyajon, har kim boshqalardan nimasi bilandir farqlanib turishga haqli. Bu tafovut mening fikrlash salohiyatim-dagi kamchiliklarda namoyon bo'lishiga ko'nishing kerak. – U ikki qo'li bilan qizni yelkalalaridan tutdi. – Nahotki xuddi o'sha narsaga mening ham irodam yetishiga bir lahma bo'lsa-da shubhalanishga jur'at etgan bo'lsang... nimani aytayotganimni bilib turibsan!

Buning ortidan umidsizlikning qudratli portlashi yuz berdi, kun davomida to'plangan ko'ngilsizlikning qora bulutlari Polina-ning ko'zlaridan jala bo'lib yog'ildi; faqat bolalar yig'laganlarida ko'z yoshlari shu kabi yirik bo'ladi. Varya bu jazavanning yakuniga yetishini sabr bilan kutarkan, ora-orada soatiga qarab qo'yar, lekin dugonasini ovutishga urinmasdi; anchadan keyin Polyaning o'zi o'zaro chalmashgan ho'l barmoqlari orasidan unga vahima aralash tikilib qoldi.

– Talvasang tugashini sabr bilan kutyapman, Polya, – kishini hushyor torttirguvchi xotirjamlik bilan so'z boshladi Varya. – Bu ahvolda qaysi ishga yarashingni endi o'zing mushohada qilib ko'r. U yerda temir kerak, tag'in har qanaqasi emas, sen esa o'lim bilan o'ynashishingga yo'l qo'yishmagani uchun arazdan shalpayib tushing. Sening tasavvuringda haqiqiy hayot – aqlsizlik bo'yicha mu-sobaqalashish, xatarli jasoratni o'yin deb bilish, birodarlik qabristonigacha poyga o'ynash... kim birinchi bo'lib go'rga tushsa – o'sha qahramon, shundaymi? Sendan butunlay boshqa narsa talab etiladi, eng avvalo: senga ajratib berilgan joyning ahamiyatini anglash, tatrix tomonidan zimmangga yuklatilgan... eng mayda topshiriq bo'lsa ham, aniq-ravshan tafakkur qilish. Yostig'ing tagida kommunistik yoshlар ittifoqining guvohnomasi turibdi... u haqda ko'proq o'yla – u seni buyuk ishlarni amalga oshirishga o'rgatadi. – Varya eng tantanali, kayfiyatni ko'tarinki bo'lgan kunlaridagina kiyadigan chiroyli katak

ro‘molini – buyumlari orasida eng yaxshi ko‘radiganini, yelkasiga tashlab oldi. – Xullas, meni yaxshilab eshit, Polya. Men bugun kechki payt jo‘nab ketaman... hozir esa yana bir soatga borib keladigan joyim bor. Bu yerda yolg‘iz arillab o‘tirmasliging uchun, toki bunga ko‘nikkuningga qadar, vaqtinchaliging uchun, toki bunga ko‘tirganining ma’qulmasmikan?.. Yur, seni uning oldiga olib chiqaman. Yo o‘zing bir amallaysanmi, nima deysan?

Qo‘shni ayol uch kundan beri yostiqdan bosh ko‘tarmay yotibdi, Polya buni bilardi; Varyaning o‘z dugonasini kattalar qarovida qoldirish kabi kishiga alam qiladigan niyatini Polya o‘zi uchun haqli jazo deb qabul qildi.

– Bu boshqa qaytarilmaydi, Varya. Sen xotirjam boraver, qo‘rqma. Men o‘zimni eplayman... – boshini pastga egib dedi u.

– Mana shunisi ma’qulroq. Endi jilmayib qo‘y... yo‘q, ko‘zlarining bilan ham. Qo‘lingni yuvgin-da, tushlik qilib ol. Itoatkorliging uchun senga eng sevimli kitobimni sovg‘a qilaman, Bigl... unga allaqachon qaydlarimni yozib qo‘ydim: uni keyin o‘qiysan. Bu mening ham... amalga oshmagani yo‘nalishim. – U Polyaga Darvinnning «Tabiatshunosning sayohatlari» kitobining rasmli nashrini topshirdi, kitob Varyaning shaxsiy qaydlari bilan liq to‘la edi. – Bundan tashqari yostig‘ing tagidagi maktubni ham olarsan.

– Oyimdanmi? – tipirchilab qoldi Polya.

– Yo‘q, yana frontdan.

Irodasini va toqatini tarbiyalash uchun Varya Rodionning xatini o‘qishdan avval betob qo‘shnisidan xabar olishga qaror qildi. U Natalya Sergeyevnaga pastki qavatdan suv olib chiqdi, uning yuvinishiga va nabirasi jo‘nab ketganidan keyin tanib bo‘lmaydigan darajada ivirsib ketgan xonani yig‘ishtirishga yordam berdi. Qiz qanchalik qat-tiq xohlamasin, xuddi o‘z xizmati evaziga haq kutayotganday taassurot uyg‘otmaslik uchun Gratsianskiyni esga soluvchi savollarni berishdan tiyildi. G‘amgin botayotgan zarg‘aldoq quyosh nurlari devor bo‘ylab bola katiga qarab o‘rmalab kelayotgan pallada dahlizdagи radioqurilma zirillab qoldi.

– Siz bu besaranjomlikni bekor boshladingiz, – dedi qo‘shni ayol ag‘darilgan ish qutisidan to‘kilgan kalava hamda g‘altaklarni yerdan yig‘ib olayotgan Polyaga. – Men bu ulkan qutida nima qayerda yotganini o‘zim yaxshi bilaman. Va umuman muqarrar keksalik sabab

bo'lgan sirqovlanishlarimga qaramasdan, hayotim judayam yaxshi o'tyapti.

– U holda hoziridan ko'ra yanayam a'lo bo'laqolsin... maylimi? – hazillashdi Polya Varyaning kattalarday gapirish ohangiga taqlid qilib. – Odam kun bo'yi yolg'iz yotishi qanchalik zerikarli ekanini tasavvur qilyapman. Qayeringiz og'riyapti?

– Voy, hech qayerim og'rimayapti! Shunchaki uzoq davom etgan bekorchilikdan keyin ozgina hordiq chiqaryapman, – juda samimiyyat bilan dedi qo'shni. – Yo'q, rahmat, taomlangim kelmayapti. O'rtoq Chernetsova ertalab choy keltirib bergandi... judayam katta iltifot ko'rsatdi-da. U ko'pga ketyaptimi?

– Arzimagan ish, ikki-uch haftada uddalab qo'yadi. – Va oxiri shartta yorildi: – Xohlaysizmi, pastki qavatdagi tanishingizni chaqirib kelaman? Chamasi, tobingiz yo'q ekanini u bilmaydi-yov...

Natalya Sergeyevna bosiqlik bilan jilmayib qo'ydi:

– O'taketgan qaysarsiz-da, Polyaginam... ammo rostdan ham Gratsianskiy haqida boshqa hech narsa deyolmayman. Uchrashganlarimizga ancha vaqt bo'ldi, o'shandan beri butkul begonalashib ketganmiz... Ochig'ini aytsam, uyimni o'zim ham yig'ishtirib olardim, bundan tashqari, ertadan shartta oyoqqa turib ketaman. Har holda sanitariya mudofaasining jangchisiman, bu esa men uchun ulkan sharaf!.. Men yo'g'imda har narsa bo'lishi mumkin. – U yer yuzida o'zi erisha olgan lavozimni oshkora qoniqish bilan aytdi va keyin yarim daqiqacha dahlizdagi radiodan eshitilib turgan, tanklar hujumini mahalliy kuchlar vositasida qaytargan front oldi yog'-moy korxonasing qandaydir mudiri haqidagi radiobayonni tinglab yotdi. – Shundoq iliq paytda boshingizga nima baloni o'rab oldingiz?

Aslida Polyaning boshida hech narsa yo'q edi: bu savol oxirgi oyda Natalya Sergeyevnaning ko'zi qanchalik xiralashganiga dalolat bo'ldi.

– Sochlaringa chang tegmasin deb, Varyaning sharfini boshimga tashlab oldim, – shoshilinchda shuni o'ylab topdi Polya.

– Juda g'alati... nima uchun rangi to'q yashil?..

– Varya yashil narsalarini yaxshi ko'radi.

– Nima uchun menga yolg'on gapirasiz, Polya? – juda sekinlik bilan so'radi Natalya Sergeyevna. – U axir sariq-ku...

– Yo'q, u ko'proq yashil moyil!..

Natalya Sergeyevna hozir yaqindan ko'rishni istab qolishini Polya qo'rquv bilan kuta boshladi, ammo ayol hammasini o'zi tushunib yetdi, chunki boz ustiga Polyaning boshidagi nurchambar endi salgina kamalaknamo tusda ko'rina boshladi. Xuddi hech narsa bo'limganday, u nabirasi haqida so'zlay ketdi.

Qarangki, qizaloq boshqa bolalar bilan birgalikda Kamadagi sobiq kemadorning saroyida yaxshi joylashib olibdi; shaxsan tuman ijroiya qo'mitasining raisi yosh qochoq qizchalarga sovg'alar keltiribdi va tatarcha shevada ularga qo'shilib Moskva barkash noni haqida kuylabdi. O'z bolasining yoniga ketgan o'sha moskvalik ayol o'zining maktubida xabar berishicha, Zoyajon jamoa bilan yaxshi kirishib ketibdi va buvisi bilan xayrlashuvning qayg'uli vaziyatini xotirasidan umuman chiqarib yuboribdi. Mana shu payt kampir uh tortganicha yorilib qoldi – mana, nasroniyalar bolalarning himoyasiga bag'ishlab yozgan hashamdar muqovali kitoblar kutubxonalarini to'ldirib yuborgan va faqat bolsheviklarga ularning kelajagini qanday qilib bo'lsa ham umumbashariy besaranjomlik oqibatlaridan ixotalashga kirishdilar.

– Yo'q-yo'q, men faqatgina ularni ko'chirib olib ketishni nazarda tutayotganim yo'q, bular hammasi jo'n ishlar... – so'z orasida ta'kidladi u Polyaning kichkintoylarni yarim qamaldagi shaharda qoldirish xavfli ekani haqidagi javobiy fikriga nisbatan. – Bunday haqiqatlarni odamlarga amalda hech narsa bera olmaydigan bo'lib qolgan vaqtinda, umring so'ngida kashf etish juda alamli.

– Hali hayot bo'lib turgan odamlar boshqa tirk insonlar bilan hech narsani baham ko'ra olmaydigan sharoit voqealn mavjud bo'lishi mumkin emas-ku, axir!

– To'g'ri aytdingiz, Polya... shu bois ham men ayniqsa shoshmog'im lozim. Tashakkur, boravering, dam olaqoling... o'ta ravshan kecha notinch tunning darakchisi bo'ladi. Men ham mizg'ishga urinib ko'raman.

Polya Rodiondan kelgan uchburchakli mujdani ochganida ancha qorong'i tushib qolgandi. Dastxatiga qaraganda, maktub ora-orada uch mahal yozib tugallanibdi. Bu safargi xatda askar mulohazalari ning uzuq-yuluq bo'laklari va ularni yuzaga keltirgan front voqealari bayon etilgandi, nomaning nisbatan xotirjam ruhi muallifning ayovsiz urush sharoitlarida ham jismoniy sog'liqdan ajralmas bo'lgan

ruhiy salomatligi mustahkamligidan darak berardi. «Rus tuprog'i bo'ylab hanuz quyoshga peshvoz ketib boryapmiz... sen bilan tez orada va quvonchsiz vaziyatda ko'rishamiz deb qo'rqaman, – shama bilan yozgandi Rodion. – Vaqt-vaqt bilan bir g'ajishib qo'yaminda, radishshevcha yo'nalihsda yana yo'limizda davom etamiz, lekin xos arobada emas, valday childirmalari badabangi ostida ham emas, silkinuvchan temir qutining sahnida ketyapmiz, shu bois butun atrof kuzatib borishim uchun kaftday ochiq.

«... Urushda eng hayratlanarli narsa nima ekanini so'rayapsanmi? Bilmayman, azizam, ammo har holda jasadlar emas: ular hamma narsadan ko'ra qo'rqinchli va ayni paytda tushunarli hamdir. Qishloq yaslilarida alanga bilan qoplangan bolalar katchalarini ko'rdim, mina maydonida sakrab borayotgan baqani, o't ustida kallasi uzilib yotgan qushchani ham ko'rdim; qorningda sudralib ketayotganingda ko'plab har xil narsalarga ko'zing tushadi, – va bularning hammasi kishini fikrlashga majbur etadi. Sovxozlardan birida katta yoshli bir amaki yupqa taxtali yog'och qutiga solinib, jo'natish uchun tayyorlab qo'yilgan tuxumlarni etigi poshnasida hafsala bilan ezg'ilab toptayotganini ko'rdim: oziqliklar dushmanning qo'liga tushmasligi uchun. Yaqin atrofda aholi yo'q, tutun zulmati ichida hamma narsa olovdan chirsillaydi. «Menimcha, bo'ldi!» – dedi amaki va keyin ro'zg'orboshi nigohi bilan atrofni nazardan o'tkazdi va qolgan-qutgan kerosinni olovga sepdi: o'sha odamning ko'ksidagi oltin yulduzga ham ko'zim tushdi... Shuningdek, asirlarni ham ko'rdim, ular bilan so'zlashdim ham. Juda g'alati: davr ham boshqa, tepamizdag'i osmon ham nazarimda o'zgacha, ularning ishlari esa hammasi hamon eskicha, xuddi kaltakesaklarday, qoziqtish qonuni bilan yashaydilar. Ammo hammasidan ham ko'proq yodimda qolgani aholi mazgilida tashlab ketilgan qari qirchang'i bo'ldi: jo'nab ketayotganlar uni unutib qoldirishibdi. Ot hech yoqqa ketib qolmabdiyam, arqondan bo'shatilgan, qamchilansayam ketmaydi-ya. Ammo menga shunaqangi ma'noli nigoj bilan qaradiki, men sharitta temir aravamizning ortidan yugurgilab qoldim. Yo'q, Polyajon, ochig'i, urushda eng og'ir narsa metall ham, zambaraklar ham emas, balki askarning o'y-fikrlari».

«Shu tarzda g'alabaga erishish uchun yonarkukunga qo'shish shart bo'lган maxsus ta'sirchan modda asta-sekinlik bilan yurakdan tomchi-tomchi bo'lib sizib chiqa boshlaydi. Meni hozir tanimay

ham qolgan bo‘larding, Polya: kamina endi ulg‘ayganroq, yovuzroq, yaxshiroq bo‘lib qolgan va sen bilan birgalikda o‘zimning bulutsiz va ozod etilgan tuprog‘imdan boshqa hech qayerda baxtli bo‘lishimizni istamayman... va men bu yerda har kuni ko‘rayotganim baxtsizliklardan seni shundayin himoya qilgilarim keladiki! Men avvaliga shunday bir qiyofada chekinib borardimki, go‘yoki dushmanni parfiyaliklar hiyla ishlatganlari kabi mamlakat ichkarisiga ataylab tortib borayotgandek, mana nihoyat shuurimdagi yovdan behad xavotirlanish hissini va bolalarcha sabrsizlik tuyg‘usini yenga oldim... va askar faqat dushmanga hamla qilishi emas, balki o‘zi ham zarbalarini tabassum bilan qabul qilishi shart ekanini angladim. Yo‘q, Polya-jon, haqiqiy urush hali boshlangani yo‘q, rus qirg‘inbarotlari hali oldinda. Mana, hozir men hattoki, sen bilan valaqlashishga ham fursat topyapman... sen bilan hozir yonma-yon o‘tiribmiz va men o‘z kaftlarimda sening iliq, tishlab tashlangan tirnoqchali nozik qo‘llaringni tutib turibman. Qo‘llarim qanchalik dag‘allahib qolganini his etayotgandirsan?...»

— Sen qanchalar ham yaxshisan, yaxshisan... — lablari pirpirab dedi Polya va xatning bir chekkasini o‘pib qo‘ydi.

Zulmatga o‘ralgan tun Rodionning o‘qib ulgurilmagan satrلارини qamrab oldi va bu bir tomondan yaxshi ham edi, ertaga o‘qish uchun ham ozginasi ortib qoldi. Varya qaytib kelganida dugonasini ayvonning ochib qo‘yilgan eshigi yonida uchratdi; u qo‘llarini ensasida chalishtirganicha yuqoridagi to‘sinq aerostatlarida yulduzlar nuri kumushlanib turishini tomosha qildi.

— O, yuklarimni bog‘lab ham qo‘ydingmi... ofarin. Demak, ixtiyorimizda naq bir daqqa vaqt bor. Meni pastda o‘rtoqlar kutib turishibdi... — U tezgina kiyinib, Polyani yelkalaridan quchdi va uning qo‘lida oqarib turgan qog‘oz bo‘lagini endigma ko‘rdi. — Rodion nimalarni yozibdi?

— U sog‘-salomat... g‘alaba qozonarmish.

— Ana, ko‘rdingmi, hammasi yaxshilikka bo‘lyapti. Tez kunlarda oying haqida ham xushxabar olishingga ishonaman. Nimalarni o‘ylab qolding, xayrlashuv oldidan rostini aytaver, singlim? — so‘radi Varya yurakni achishtiradigan ohangda.

— Axir dunyoda yaxshi yashayverish mumkin edi-yu, deb o‘ylayveraman. Axir odamlarga buning... osongina bartaraf etsa

bo‘ladigan azobning nima keragi bor ekan-a... qaysiki, yulduzlarni o‘chirib, yana ortga, balchiqzorga kirib ketgisi keladi odamning.

– Nailoj: eskilik jangsiz taslim bo‘lmaydi, turmushning yanayam mukammalroq shakllarini izlash esa odamlarga hech qachon arzonga tushmagan, – sekin, go‘yoki gapirish bilan bir vaqtida sinf taxtasiga ham yozib borayotganday so‘zlardi Varya. – Tafakkur qiluvchi moddiyatning olg‘a qarab rivojlanishi odatga aylangan, eskirgan faoliyatdan voz kechish bilan bog‘liq... bu esa aslo og‘riqsiz kechmaydi.

– Ammo biz ham sen bilan keksayib boramiz-ku, axir. Demak, bu og‘riq abadiy ekan-da?

Varya kulib yubordi:

– Jahonning barcha akademiklari ham bitta go‘dakning qiziqishlarini qondirishga qodir emasligi hammaga ma’lum. Lekin seni xotirjam qilishim mumkin... kommunizmda eskilik va yangilik o‘rtasidagi uzilishlarni yengib o‘tish hoziriday azob-uqubatlarsiz kechadi... mening fikrimcha shunday. Javobimdan qoniqish hosil qilgandirsan?

Keyingi tushunmovchiliklar uchun Polyada fursat qolmagan edi. Qurilishlar tufayli dandanador bo‘lib ketgan ufqda chayqalib turgan projektor nuri ularni vogelikka qaytardi.

– Ha... – Varyaning qo‘lini yelkasidan o‘zi olib qo‘ydi. – Tez orada uchib ketishadi, sen esa hali vokzalga ham yetib borishing kerak. Yur, men ham sen bilan tushaman.

– Hechqisi yo‘q, biz mashinada boramiz, birpasda... Bizning tungi ijozatnomamiz bor, ko‘chalar esa mutlaqo kimsasiz. – Varya tashvishli sukutga botdi, xayrashuv chog‘ida har doimgiday qandaydir eng asosiy gapni aytish yodidan chiqaveradi. – Har nima bo‘lganida ham anavi rasmni avaylab saqla, menga sovg‘a qiluvding-ku, unutmadingmi? Sening o‘rningda otang bilan, albatta, do‘splashib olgan bo‘lardim... uning oldida qattiq aybdorsan. Yaxshi bola bo‘lib yurgin, hayotni sev, Moskvani ehtiyotla. Tunlar tobora sovib boryapti... iltimos, tomga chiqqaningda issiqroq kiyinib olgin. Meni kuzatma, shu narsani yoqtirmayman.

Qandaydir fursat zinaning panjarasidan engashib turganicha, Polyaning qaytadan yuqoriga ko‘tarilishini kutdi – dugonasini yana bir martagina bag‘riga bosish uchun; va o‘sha daqiqada pastga yugurib tushayotgan qadamlar tinchib qoldi, keyin esa zinapoyadagi boshqa shitirlashlar orasida izsiz erib ketish uchun yana qaytadan eshitildi.

Ayvongacha yugurib borishga ulgurgan Polya o't oldirilgan mōtoring g'ing'illashini eshitdi va shivirlabgina Varyaning ismini talafluz qildi; nazarida, bunga javoban pastda dugonasi ro'molini ikki marta silkitganday bo'ldi. Bergan va'dasining ustida turish uchun u yuragini zirqiratishni boshlagan yolg'izlik hissini ortiga qaytardi... keyin tik turganicha, qo'llari bilan, paypaslab, taqsimchadan nimadir yeb olgan bo'ldi va navbatchilikka ketishga tayyorlana boshladи. Ammo tuni bilan u Varyadan ajragani yo'q: xayolan uni nimqorong'i vokzal bo'ylab kuzatib bordi va bag'riga qattiq bosganicha, olslarga yugurib borayotgan relslarning yulduzlar nurida yaltirashini kuzatgan ko'yi issiq vagonning ochiq eshigi yonida u bilan ancha vaqt birga o'tirdi. Tongga yaqin, tomdan qaytishi bilanoq, Polya yechinmasdan ham yotganicha ko'zi ilindi va mana shu qisqagina vaqt ichida uning Varyasi g'arb yo'li bo'ylab qizning voqeligidan butkul ketib qoldi.

2

To'satdan paydo bo'lган maylga qarshilik ko'rsatishga holi kelmadи: erta tongdanoq Polya uygа boshqa qaytib kelmaslik istagida ko'chaga yugurib chiqdi. Harbiy komissariat yoki komsomol raykomiga borish tanlovi o'rtasidagi uzoq ikkilanishlardan so'ng u keyingisini tanladi, chunki hisobga turish uchun borganida kotib bilan shaxsan tanishishga ulgurgan edi. Eshikni taqillatishiga javoban ichkaridan o'spirinlarcha yosh ovoz kirishga ruxsat etdi. Polyaning omadi keldi: vaqt hali erta bo'lishiga qaramasdan, rahbariyat allaqachon o'z xonachasida o'tirar va qog'ozga o'ralgan nonushtasini tamaddi qilayotgan ekan. U himoya rangida gimnastorka kiygan yoshgina yigit edi, ammo avvalgi baland bo'yli, jigarrang ko'zli, yuzida davlat ishlari bilan bandlik ifodasi zohir kotib emas, balki muvaqqat, bo'yi pastroq, o'zi oddiyroq, ko'zining ostida Polyaning o'zidagi kabi tungi uyqusizlik asari bo'lmish xuddi o'shanday ko'karish mavjud, ammo uning familiyasi ham juda jo'ngina ekan: Sapojkov.

– Kechirasiz, bu yerda bir o'rtoq o'tirgan edi... – bo'shashib gap boshladi Polya, jo'nab qolishga tayyorlanib.

Yigitcha tashrifchisiga ko'z qiri bilan, lekin ziyrak nazar tashlab qo'ydi va papiroq qog'oziga yozilgan hisobotga boshi bilan sho'n-g'idi.

– Bundan kelib chiqadiki, qizgina, sen o‘z tashkilotingga juda kam qadam ranjida qilar ekansan. Men ikki haftadan beri shu yerdaman. Hozir hujjatni o‘qib bo‘laman, sep o‘tiraver... – va hatto bir qarab ham qo‘ymasdan, mizning u tomonidan ikkinchi qatlaman Polyaga uzatdi, yoqimli hidiga qaraganda unga qandaydir tanish va dudlangan masalliq qatlangan edi. – Olaver, hozircha tamaddi qilib tur, men to‘yib olishga ulgurdim. Faqat ehtiyot bo‘l: balig‘i juda murakkab tuzilmaga ega, ilmoqlari bor... – ish orasida so‘zlashda davom etdi u. – Hammasi tushunarli: qizgina front ortida o‘tiraverishdan zerikidi, qizgina haqiqiy, ulkan ishlarga oshiqmoqda... topdimmi?

– Aha, – tasdiqladi Polya, uning farosatiga qoyil qolib va boshlanishiga hammasi yaxshi ketayotganidan quvondi.

Qatlaman bir tishlaboq Polya uning kichkinaligiga achindi; ma-zasiz bo‘lsa ham kattaroq bo‘lgani yaxshiydi!

– Ajoyib, ajoyib... – dedi kotib hisobotdan ko‘zini uzmasdan. – U yerda ishlar qalay... tun juda besaranjom o‘tgandir? Ammo rosa olov tashlashdi-da: naq Pompeyaning halokati!

– O, bu safar u bizni chetlab o‘tdi, – dedi Polya miz ustidagi bar-doqda sovib qolgan choyga zimdan tikilib.

– Ol, olaver, uyalma... – yana qandaydir mo‘jizavor tarzda fahmladi Sapojkov, bo‘s sh qo‘li bilan choyni ham Polya tomonga surib qo‘yarkan.

U hali ham boshini ko‘tarmasdan va hisobot varaqlariga rangli qalamida qandaydir belgilar qo‘yar ekan, mehmonining tug‘ilgan yili va joyini, ota-onasini va – birinchi navbatda, aynan o‘z ixtiyoridagi qanday vositalar yordamida qisqa muddat ichida fashistlar Germaniyasini tor-mor etmoqchi ekanini so‘radi. Ammo uning ovozida kinoya yoxud takabburlik emas, aksincha, kundalik zerikish ohangi bor edi, chunki har kuni o‘nlab qizlar xuddi shu istak bilan uning eshigini qoqib kelishar edi. Ammo u Polyaning nemis tilini va morze alifbosini bilishini – bir daqiqada qirqtagacha belgi ura olishini ma’qulladi. Shunga bog‘liq holda u qizdan alpinistik qilgan-qilmaganini ham gap orasida so‘rab o‘tdi, afsuski Yengada durustroq tog‘lar mavjud emasligi tufayli, Polyaning bilimida shu borada uzilish borligi achinarli hol edi.

– Bekorga o‘zingni oqlayapsan... tog‘larning yo‘qligi – sening aybing emas, – achinish bilan bosh silkib qo‘ydi kotib, hisobotni miz-

ning g‘aladoniga qulflab qo‘yarkan. – Nimayam derdim, Vixrova, sening niyatlarining har qanday maqtovga loyiq. Demak, o‘limdan ham hech qancha qo‘rqmas ekansan-da?

– Men faqat sharafsiz o‘limdan qo‘rqaman, – «sharafsiz» degan so‘zga alohida urg‘u berdi Polya, o‘tgan safar Varya bilan janjallashib qolgani kabi bu yerda ham ishkal chiqarib qo‘yishdan ko‘proq xavflangan holatda.

– Fikring shubhasiz, qiziqarli, – biroz qovog‘ini uyibroq, bu gapga qo‘schildi kotib, – ammo nazarimda, menga e’tiroz bildirib, sharafsiz hayotdan xavflanish lozimligini aytmochi bo‘lding. Zero, sen-u, men o‘lim haqida o‘ylashimizga hali erta. Mulohazamga qo‘silasanmi?

– Ha, albatta, qo‘shilaman. Lekin sharafsiz o‘limdan ham... – dedi Polya.

– Xullas, seni to‘g‘ri tushunganidan nihoyatda mammunman!

Endi kotib Sapojkov go‘yoki badanining chigilini yozmoqchi bo‘lib, mizdan tashqariga chiqdi, ammo yakuniy xulosa chiqarish uchun u Polyaga tashqaridan nazar tashlamoqchi ekanini qiz juda yaxshi tushunib turardi. U oyog‘ini o‘rindiq ostiga yashirishga qanchalik urinmasin, Polyaning shu paytga kelib butkul rasvosi chiqib ketgan poyabzali ayniqla ko‘proq uning e’tiborini tortdi. Birdaniga Polya orzusi chil-parchin bo‘lganini ochiq-oydin anglab yetdi, zero Sapojkov o‘zining qat’iy rad javobini sal yumshatish uchun bergen siylovini qabul qilgani o‘zining kechirib bo‘lmas xatosi bo‘lganini o‘ylab qoldi.

– Nima, nega menga bunchalik tikilib qoldingiz? – achchiqlandi Polya allaqachon bo‘shab ulgurgan bardoqqa alam bilan boqib. – Gazeta o‘qimasligingiz shundoq ko‘rinib turibdi... bo‘pti, quvib yuboring meni bu yerdan! Ular nuqul bostirib kelishyapti, Kremlga kirishni ko‘ngillari tusab qolgan, biz esa faqat qo‘limizni silkiymiz, xolos. Sizningcha men jo‘jachamanmi, qanotcham bilan vatanni himoya qilish uchun sudralib kelibmanmi, bilsangiz, men naq portlagichning o‘ziman... men endi portlagichman, agar shuni bilgingiz kelayotgan bo‘lsa... bo‘ptimi? – Keyin yana anchagina olovli, g‘irt befoyda so‘zlarni aytib tashladi.

Qizni oxirigacha eshitishga kotibning toqati chidab berdi.

– U holda, tasavvur qilyapman, Vixrova, men haqimda qanday fikrga kelib qo‘yganiningni: front ortida yaxshi mansabga o‘rnashib

olgan, davlat bergen qog'ozni ko'zbo'yamachilikka shiqillatib o'tiradi, kamiga yana dudlangan yemish g'ajiydi. Ammo ko'rib turga ningday, bularni vijdonimga qarshi bormasdan qilyapman. Kreml masalasida esa, bu... imkonsiz: buning uchun ular butun Rossiyanı bosib o'tishlari kerak bo'lardi, bu narsaga esa ularning tumshug'i yetmaydi: baland! – U qizning qarshisidagi oromkursiga o'tirdi, tizzasini uning tizzasiga tegizdi. – Qani, o'zing haqingda so'zlab ber-chi... o'zi qaysi kasbga o'qish uchun kelganding?

– Me'morlikka, – yuragi siqilib, lablari titrab oshkor qildi Polya.

– Ana ko'rdingmi, inchunin. Bu urushlar urushi yakun topganidan keyin biz qancha qurilishlarni boshlashimiz kerakligini tasavvur qila olasanmi? O'shanda axir ishtahamiz o'n baravar ochilib ketadi-ya... Go'zal qilib qurish kerak bo'ladi, jin chalsin, hovlilari chala bo'lib yotgan va devorlaridan zang oqib turgan qora qutilar allaqachonlar xalqning ko'ngliga urib ketgan. Shunday bunyod etish kerakki, sen barpo qilgan mahsulot asrlar davomida yashayversin, hozirgiday bir yarim g'ishtli omonat binolardek bo'lmasin. Binobarin, og'ayni, bardam bo'l, atrofni kuzat.

– Men qarab yuribman... – bosh silkib qo'ydi Polya, hech bo'lmasa ketar chog'ida Sapojkovdan biror nima undirish umidida. – Meni bal-ki harbiy korxonaga joylashtirib qo'yarsiz?

– Nima uchun? Biz o'zingga bopta biror vazifa topib beramiz, bunga imkonimiz bor... lekin sen o'qish uchun kelgansan-ku. Tashvishlanma, kerak bo'lib qolsang, bizning chaqiruv varaqamiz seni topib oladi. Hozir qaysi bosqichdasan?

– Hozircha birinchidaman, – dedi Polya qandaydir ishonchsizlik bilan.

– Qoyil... demak, sen uchun hali hammasi oldinda ekan. Bu juda yoqimli hissiyot – yer yuzida hali obod qilinmagan joylar, bo'ysundirilmagan daryolar, ekin ekilmagan dashtlar... va umuman hanuz kashf etilmagan sirlar va xazinalar mavjudligini anglash tuyg'usi... Sening kasbingni men qattiq hurmat qilaman, holbuki o'zim gidrotexnika bilan shug'ullanmoqchiman: suvni yaxshi ko'raman. Menga uni tushovlash yoqadi, erinchoq, baqaloq havzani shundoq... asovligidan asar ham qoldirmasam! Bu miz ortida umrimni o'tkazmayman-ku, axir... boz ustiga mendan qanaqa ham kotib chiqardi – duch kelgan qiz, uni frontga jo'natmaganim

uchun xuddi men bir gazandaday, xohlaganicha baqir-chaqir qilaversa. Eh, qizlar, qizlar, boshimga balo bo‘ldilaring-ku! – dedi qayg‘urib va yoshiga xos bo‘lmagan tarzda boshini shunaqangi aylantirdiki, Polya o‘ziga yaqin olib, uning qo‘lini o‘siprin o‘g‘il bolalarcha ushlab oldi, xuddi Rodion kabi. – O‘ylashimcha, bila-sanmi, dunyoda cho‘ldan ko‘ra orombaxsh narsa yo‘q... tap-taqir bo‘lsa, sirtida hech narsa o‘smasa, tushunyapsanmi? Va men u yerga xuddi sen kabi dovyuraklar lashkari bilan boraman, so‘ng uni o‘z ishtiyoyqim bilan shunaqangi to‘ldirib yuboramanki, shaharlar, dov-daraxtlar, hayotning har qanday talabini bajaruvchi itoatli va shovqin-suronsiz mashinalarning ko‘pligidan tiquilinch bo‘lib ketsin... mening buyruqlarim bo‘yicha, a? Baxtdan boshim aylanib ketyapti, ushbu tabiatning paxmoq, to‘zigan vujudiga qanday qudratni sanchish kerakki,, u itoatkorlik bilan barcha xazinalarining kalitlarini oltin laganda chiqarib bersin. «Hammasini, bitta qoldirmay hammasini olib kel, yana qanday boyliklarni orqangga yashirib olding?» Qalay, seniyam boshing aylanib ketdimi... a?

– Ozgina aylanyapti... – xuddi sehrlanganday bazo‘r javob berdi Polya va birdaniga mana shu bo‘ysunmas qudratlar zabit etuvchisingning yonida shunday yengil tortdiki, Varyadan so‘rab ulgurmagan narsalarining hammasini vaqtida shundan bilib olishga qaror qildi. – Xo‘p, undan keyin nima bo‘ladi?

– Qaysi ma’noda... keyin? – qovog‘ini uydi kotib.

– So‘ramoqchi bo‘lganim, keyin nima bo‘ladi, yuz yillardan keyin... hamma zarur narsalar qurib bo‘lingan, dushmanlar mag‘lub etilgan va ko‘hna dunyo ortda qolib ketganidan keyin?

Eshik salgina ochilib, yana bir qiz cho‘chibgina ichkariga qarab qo‘ydi va kotib xo‘rsinganicha o‘rnidan turdi.

– Buyog‘iga kechirib qo‘yanan, Vixrova, hozircha senga tarixning mana shu voqelagini fosh qilolmayman: bu hozircha buyuk sir! Yuz yillardan keyin bir xabar olarsan... o‘shanda sen bilan o‘tirib, bo‘sh vaqtimizda kelajak uchun rejalarimizni tuzib olamiz, hozir esa ko‘zlariningdan ko‘rib turibmanki, vaqting juda tig‘izga o‘xshaydi. Ma’ruzaga kech qolyapsan, ana shunaqa! – Polya ostonaga yetganida esa uni to‘xtatib, o‘zining kamtarin imkoniyatlari doirasida bo‘lgan boshqa iltimosi yoki istagi bor-yo‘qligini so‘radi, shu orada uning

nigohi yana qizning titilib ketgan poyabzaliga tushdi: – Sen bundan uyalaverma, o'zimizning odamlarimiz...

Kutilmagan umiddan Polyaning yuragi to'xtab qolay dedi:

– Modomiki, Moskvada qolishimga to'g'ri kelar ekan... Oktabr bayramida judayam Qizil maydonda bo'lgin kelyapti!

Kotib Sapojkov tezgina Polyaga qaradi, qizning ko'zlarida shunday bir qishloqona yashirin orzu yolqinlanib turardiki, u ikkinchi rad javobini ham berishga jur'at etolmadi.

– Bu qiyin masala... Oktabr bayramiga ijozatnama bo'yicha senga biror va'da berolmayman, Vixrova, – dedi u o'ychanlik bilan mizga tomgan siyoh dog'ini tirnog'i bilan qirib tashlashga urinib. – U darajada qudratli sehrgar emasman, lekigin... ba'zi narsalarga imkonlari bo'lgan o'rtoqlar bilan uchrashganimda sen haqingda aytib qo'yishga so'z beraman. Endi hozircha xayr...

... Uning maslahatlariga amal qilib, Polya saboqlariga zo'r berdi, ammo mashg'ulotlar juda sust o'tayotgandi: talabalar maydonlarni havo hujumiga qarshi niqoblash bilan mashg'ul, o'qituvchilar xalq qo'shini saflariga qo'shilishgan... va umuman olganda me'morlik institutining ko'chirilishi haqida tobora ko'proq gapira boshlashdi. Bundan tashqari, pastki qavatda yong'inga qarshi mudofaa shtabi joylash-tirildi va urush haqidagi tinimsiz eslatmalar ham professorlar tushkun ahvolda o'qitayotgan fanlarga e'tiborni jamlashga xalaqt berayot-gandi. Hisobotlar frontning yaqinlashib kelayotgani haqida mavhum ma'lumot bermoqda va shular orasida onasidan xat kelmay qo'yganini nemislar Yengani bosib olgani bilan hech ikkilanmay izohlash mumkin edi. Hayotida yig'ilib qolgan tashvishlarni ham qandaydir yo'llar bilan vujudidan chiqarib yuborish kerak va Sapojkov komsomol ray-komida o'tirib Polya uchun vazifalar o'ylab topayotgan paytda 8-a uydagi barcha hodisalardan xabardor Natalya Sergeyevna ham goh askarlarga jo'natma yuborishni topshiradi, goh betoblanib qolgan qorovul ayolning o'rniga non olish uchun navbatda turishni buyuradi. Charchoqlar Polyani vaqtincha o'zining tashvishlaridan xalos qilib turibdi, ammo otasi uchun bo'lgan ko'p yillik vijdon azoblaridan qu-tulishni tabiiy ravishda kutish mumkin bo'lgan ko'ngil to'qligini va xotirjamlikni taqdim eta olmayotgan edi.

Ish bilan band bo'lmanan paytlarida Polya darslikni o'qishga tuti-nadi, ammo tungi navbatchilikning charchog'i tufayli kitob qo'lidan

tushib, ko‘zлari qattiq yumiladi va birdan uyqu bilan uyg‘oqlik o‘rtasidagi shunday bir oraliq holat yuzaga keladiki, miya hali ishlab turibdi-yu, ammo endi voqelikni ham, mantiqiylikni ham anglab ololmaydi... Bir safar unga shunday tuyuldiki, go‘yo qish kelganmish, qor parchalari havoda chir aylanadi va uning o‘zi, Polya, yaqin atrofdagi qo‘ng‘iroqxonaga chiqib olib, Blagoveshshensk berk ko‘chasidagi o‘z uyiga tikilarmish, ammo endi u yerga borishiga o‘lim xavfi yo‘l qo‘ymas emish. Uyning yo‘lagi oldida yashirinib olgan askarlar tufayli Polya u yerga qaytishdan qo‘rqadi, xuddi ular u yerda yo‘qday, ammo unday emas; Polya qanchalik urinib-tirishmasin, askarlarning maqsadlarini hech bila olmasmish. Dunyoda hech kim ularning niyatlarini aniqlay olmasdi ham, chunki fashistlarning qanotdor furajkasini kiyib olgan zabitdan boshqa hammasining aft-basharasi temir dubulg‘alar bilan to‘liq yopilgan, zabit esa bu yerda albatta allakimnidir o‘ldirishi shart emish. Chamasi fashist ayni chog‘da zinapoyadan beparvo tushib kelayotgani oynadan ko‘rinib turgan odamni o‘ldirishi lozim ekan, afsuski uni endi xavfdan ogohlantirishning iloji yo‘q, chunki qichqirish uchun Polyaning ovozi ham chiqmay qolgan, tosh to‘shamaga yopishib qolgan oyoqlarini tortib olish uchun quvvati ham yetmayapti, ko‘chaga yugurib chiqish uchun fursati ham qolmagan. U baribir yugurib borishga ulgurmas ham edi, chunki odam yo‘lakdan chiqib kela boshladi va Polya uning Gratsianskiy ekani ni tanib qoldi, qiz uning o‘z oilasiga yetkazgan musibatlariga qaramasdan, uni taniqli sovet professori sifatida qutqarib qolishni juda ham istaydi-yu, ammo askarlar professorni qurshab olishdi, miltiqilarini o‘qlashdi va mana hozir qatl ijro etilishi kerak... ammo unga – Gratsianskiyga hamma narsa bir pul. Gratsianskiyga hammasi shu darajada ahamiyatsizki, hatto u Polyaga ko‘z qisib qo‘yganday ham bo‘ldi, ya’ni, ko‘rib qo‘y, tentak qizcha, men hozir ularni nima qilishimni. U askarlarga ko‘zini qisib qo‘yib, kaftiga yashirilgan nimanidir ko‘rsatdi va soqchilar birdaniga ortga chekinishdi, zabit esa o‘z ishlari bilan yo‘lida ketayotgan Gratsianskiyga harbiycha hurmat bildirdi. U qanday shaxsiy ishlari bilan ketayotgani Polyani qiziqtirib qo‘ydi va qiz uning ortidan ko‘chama-ko‘cha bora boshladi, birdan uni orqa tomondan chaqirib qolishdi va bular hammasi Polyani qo‘ng‘iroqxonadan tushirib olish uchun ataylab qilinganini tushunib

qoldi. Mana, hammalari uning atrofini o‘rab turishibdi, Gratsianskiy ham ularning orasida, demak, qizning kuni bitibdi.

Polya bosh og‘rig‘i bilan, suv bo‘lib terlagan horg‘in holda uyg‘ondi. Kat shundoqqina kunning tig‘ida qolgan va pastroqda yuksalib turgan kuz oftobi ayvondagi tirqish orasidan unga kunduzgi jaziramaning qolgan-qutgan taftini ufurmoqda edi; zinapoyadan ko‘tarilishi mashaqqatlari kechgan Taiska esa hansiraganicha, qo‘lida sovg‘a-salomlari bilan eshikdan mo‘ralab turibdi. Xonaki yeguliklar solingen to‘rvasini ostonaga qo‘yib, u Polyaning yoniga o‘tirdi, ammo qizning nigohi ammasini ko‘rmaydi, Gratsianskiyning sirli ravishda o‘ziga tikilgan ko‘zlariga boqib, ularda o‘ziga chiqarilgan hukmni o‘qib olishga urinadi.

– Arang yetib keldim-a, jaa balandga joylashvoribsan: odam qo‘lidagi yukining og‘irligini lift yo‘q joyda shundoq sezarkan! – dedi shu orada Taiska, nafasini rostlab olarkan. – Ivan ham yoningga men bilan birga kelishga endi otlanib turgan edi, o‘sha paytda uni olib ketish uchun naq eng katta o‘rmonchilik boshqarmasidan ma-shina yuborishib qolishdi degin, – jiyanini erkalab, hamma yerini silab-siypalay boshladи. – Qaynoqsan-ku, mabodo shamollab-pamollab qolmadingmi?.. Nima balo, ko‘zlarining mendan olib qochib, pastga qarab olding? Voy o‘lay, jaa bemavrid kepqopman shekilli?

– Yo‘g‘-e, unaqamas, Taisa amma, judayam xursandman... – javob qildi Polya o‘zining chala qolgan tushidan butun holsizlanib.

– Hecham xursandga o‘xshamaysan-da... – achchiqqina ta’na qildi Taiska. – Ammangni jilla qursa bitta quchoqlab qo‘ysangam sa-zang ketmasdi!

– Aksincha, rosa vaqtida keldingiz, Taisa amma... meni shundoq quduqning og‘zidan tortib oldiz, – tushunarsiz izoh berdi Polya va Gratsianskiy haqida qandaydir dahshatli kashfiyot qilishiga yo‘l qo‘ymagani uchun minnatdorlik belgisi sifatida ammasiga suykalib erkalandi. – Siz dampingizni oling, nafasingizni rostlang... o‘rinni keyinroq o‘zim yig‘ishtirib qo‘yaman.

U chayqalgan ko‘yi oftob taftida ilib qolgan suvni ichish uchun miz yoniga bordi.

– Ivasha uchun men o‘tgan safar sendan judayam xafa bo‘ldim: Seryojenka uchun voybo‘y, sen unga yo‘q joydagи ayblarni yopishti-rib tashlading! – Axir Seryojamiz asrab olingen-a... tag‘in to‘g‘ri kelib

qolsa o‘ziga aytib qo‘ymagin, hamma ishni rasvo qilasan. U o‘zining uyini ham, nasl-nasabini ham eslolmaydi: Vixrov Sergeyimi, Vixrov Sergey. Bu balki zamonaviychasiga noto‘g‘ridir, ammo bizningcha, eskichasiga, hatto ko‘zi ochilmagan kuchukbolani ham uydan haydash gunoh bo‘ladi: tirik jonivor-ku, axir. Avvalgi odamlarimiz shundoq deyishgan: go‘dakning qo‘li bilan eshigingni kim taqillatganini bilolmagaysan. Ochmasang-u, ketib qolsa, sening nasibangni ham o‘zining gadoto‘rvasida olib ketadi... ana shunaqa, Polyajon!

Taiska to‘rvasidagi oziqliklarni chiqarib, ular uzoqroq vaqt aynimay turadigan joylarga tarqatayotganida ham og‘zi gapdan to‘xtamadi. Hozir uning hamma jihat Polyaga o‘zi kutgan xotirjamlikni ato etayotgandi: ohangi dam-badam o‘zgarib turgan kuychan ruscha so‘zlashuv va ko‘zlaridagi quyoshsiz kunduz kabi bir xilda shu'lalanib turgan nur, hatto maxsus kiyiladigan kunlargacha qulflog‘liq turadigan, xonadonbop, oxori to‘kilib bitgan kiyimidagi yovshan isi. Ammo uning gap-so‘zlaridagi ehtiyyotkorlik ortida, Seryojaning kelib chiqishi haqidagi hikoyasida u chalg‘itish uchun ataylab qo‘llayotgan ohanglar zamirida Polya yana bir temir eshikni va uning narigi tomonidagi maxfiyatni yaqqol sezdi. Ana shu pallada, qandaydir taqiqlangan narsaga daxldor bo‘lib qolish vahimasidan titrab-qaqshab, Polya ammasining ortidan, har qanday qariyaning tarjimayi holi, agar u hatto o‘z otang bo‘lgan taqdirda ham, go‘dakning hali g‘am-qayg‘u inmagan qalbida namoyon bo‘lguvchi zax va nimaqorong‘i yerto‘laga tushib bora boshladi.

Seryojaning tarixi Polyanı vahimaga soldi, chunki ushbu qissa oilalarining tarqalib ketishidagi otasi qilmagan aybni bevosita mantiq yo‘li orqali onasining vijdoniga ko‘chirishga uni majbur qilmoqda edi.

3

Bukrigina ayolning o‘z shaxsiy xotiralari shunchalik oz ediki, bayon etayotgan yodnomasidagi kemtik-kemshiklarni u begona umrlarda kechgan voqeot va hodisot bilan butlab ketaverardi. Taiskaning hikoyasi yosh Vixrovlarning o‘rmon xo‘jaligidan Boshkentga ko‘chib o‘tishlari bilan boshlandi; eng esda qoladigani, yo‘lda ularning yuklari yo‘qolib, kitoblardan boshqa hamma narsani yangitdan sotib olish-

lariga to‘g‘ri kelibdi. Kutilmaganda, Vixrov ijodining muvaffaqiyat bilan birga turmushlariga pul ham kirib kelibdi, nollarining ko‘plig bilan o‘lchansa, o‘sha vaqtlar uchun bu pullar yaxshigina mo‘lchilik ekan. Shu bois yangi manzilga joylashish tashvishlari Taiskaning zimmasiga tushibdi, uning aniq esida, o‘rin-ko‘rpa sotib olguncha qancha sarson bo‘lganlari, shifoxonanikiga o‘xshagan katni arzon-garov sotib olib, o‘zлari bo‘yashgani, har xil o‘ymakorlik shakllari bilan qoplangan chala bitgan idish-tovoq javoni uchun duradgorning bevasiga qancha pul to‘laganlari, darvoqe, javonning eshiklari yarim tunda uzundan uzoq uvullab va g‘ichirlab ochilib ketish xossasiga bo‘lib chiqdiki, Lenochka bundan uyg‘onib ketib, yuragi hapqirgacha uvullahning davomini kutib yotarkan. Birgalikda kechgan besh yillik turmushlari davomida Vixrovlar uni ta’mirlatish uchun usta chaqirishga ko‘p bor jazm qilmoqchi ham bo‘lishibdi, chunki yaxshi buyumni mix urilgan yasama chirpirak bilan buzib qo‘yish alam qiladi-da, Lenochka qochib ketganidan keyin esa bunga ehtiyoj ham qolmadi: oilaning qolgan a’zolari juda qattiq uxlashlari bilan boshqalardan ajralib turardilar. Ochig‘ini aytganda, hazil-huzul paytlarida onasining qiziga so‘zlab beradigan o‘tmishning yagona tafsili shu edi.

Dastlabki paytlarda Taiska kelinining o‘z uyasini barpo etish niyatidagi g‘ayratidan quvonib to‘ymasdi. U institutning eski xo‘jalik imoratidagi ikkita xonani sarishta tutish uchun Sapeeginning uy xo‘jaligida orttirgan butun tajribasini sarfladi; uchinchisini esa farzandli bo‘lishganidan keyin olishdi. Lenochka o‘zi yoqtirmaydigan Yengadan qutulgach, olisdagi yangi joyda go‘yo jonlanib ketdi: uning hatto o‘y-fikr qilishga ham fursati yetmasdi, chunki qancha sa’y-harakat qilmagin, xonadoningda yana nimanidir joylash mumkin bo‘lgan burchak, albatta, topiladi. Pullari ko‘proq vaqtga yetishi uchun uyda qulflanib olib, hech qayoqqa chiqmaslik maqsadida yanada ko‘proq o‘tin-cho‘p, oziq-ovqat g‘amlab olsam derdi; Ivan Matveich hatto uning go‘schanishinligini va hatto xasislikka yo‘ysa bo‘ladigan tejamkorligini ma‘qullab qo‘yardi, buning sababi esa hatto xayoliga ham kelmasdi, holbuki bu ishlar aslida uzoq muddatlari qamalga tayyorgarlik edi. Har safar ishdan qaytganida, Ivan Matveich oilaning farovonligini mustahkamlovchi yana bir shinamgina yangilikni ko‘rardi: gul bosilgan pardami, yoki sopol ko‘zada kuzgi beresklet aralash

bir bog' zarang novdalarimi va, albatta, Lenochka qo'shiq aytayotgan bo'lardi – past ovozda, ohangi ham mavhum, so'zi yo'q, xuddi o'rmon qushchasining sayrog'i kabi. O'sha paytlar Ivan Matveichning eng sermahsul ijodiy davri edi: yangi kitobining qoralama matnlarini yozuv-chizuv uchun moslashtirib olingan oshxonasi mizi ustida turibdi. Agar oqshomda kinomatografga yoki xizmatdoshining uyiga mehmonga bormasalar, Ivan Matveich qandaydir uy jihozlari yasash bilan band bo'lar, yoki bundan ham ko'proq ishtiyoq bilan mumtoz asarlarni yoddan o'qirdi – o'z ta'biri bilan aytganda, vaqtning sinovidan o'tgan, imkon qadar zerikarliroq, quvvatliroq adabiyot; ora-orada esa o'z zavqini ifodalash yoki izohlar berib o'tish uchun ozgina tannaffus qilib olardi. Shu tarzda ishonchli va umuman olganda bevaqt kulgiga olingan, granitdan ham qattiqroq oila poydevori barpo etildiki, aynan shunday oilalardan Vixrovga o'xshagan ko'plab avvalgi arboblar turmush ikir-chikirlariga ikki oyoqlari bilan botib qolishdan xavotirlanmaygina o'z fanlarining yuksakliklarigacha o'sib bordilar... Xullas, bir qadar zerikarli professorlik hayotining hamma voqeoti qirq yil oldinni osongina ko'rsatib turibdi. Mana deraza tokchasida xinalar gullab turibdi, kenja qizi xonaning quyosh tushib turgan yerga yotib olib, nimalarnidir bijirlaydi, Ivan Matveich esa oila tutumini yanada mustahkamroq asrash uchun rafiqasini goh «jonginam», goh «onajonisi» deb erkalaydi. Bu holat ko'psonli va me'yorida ho'ngrab turgan avlodlar mehnatkash otalarni Moskva qabristonlaridan birida yonma-yon dafn etguniga qadar davom etadi.

Lenochka Moskvada ham o'sha-o'sha hurkak yovvoyiligicha qoldi; va Ivan Matveich o'zining ko'plab zamondoshlaridan namuna olib, xo'jalik uchun bopta bo'lgan, harbiy davrning viloyat miqyosidagi tibbiy kurslar bergan bilim darajasidagi mana shu ibtidoiy holtida uni umrining oxirigacha tutib turishning to'liq imkoniyatiga ega edi. Ammo dastlabki yillardagi barcha bo'sh vaqtlarini Ivan Matveich uning dunyoqarashini kengaytirishga va ayniqsa unda insonlik g'ururini uyg'otishga sarfladi. Va hatto o'zining omonat toleyini qanday xatarga ro'baro' qilib qo'yayotganini oldindan bilgan taqdirda ham, kimki atrofni o'rab turgan dunyoni uning o'zidan kamroq bilsa, o'shaning oldidagi qarzdorlikning tug'ma muallimona tuyg'usi baribir g'alaba qilgan bo'lurdi. Hattoki, ular yashab turgan joydan ancha uzoqda bo'lGANI boisidan tez-tez borib turishning iloji bo'lмаган

teatrlarga va moziyohlarga tashrif buyurish kabi ko'ngilxushliklarini ham u o'z xonaki univyersitetining yordamchi muassasalariga aylantira oldi... Albatta, Lenochka katta madaniyatning yaraqlab turgan cho'qqilarigacha baribir hech qachon yetib bora olmadi, ammo shundoqqina yonida turganida chalkash bo'lib ko'rindigan dunyo chizmalari Lenochka yetishgan mana shu pastakkina tepalikdan qaralganda ham unga anchagina soddalashgan holatda, tushunarliroq bo'lib ko'rindiqda edi. Bashariyatning toptalib ketgan, xatoliklar va adashuvlar sirtmog'idagi minglab yillik yo'li xuddi tuman orasidan elas-elas ko'ringanday, pastda, tubsiz jarlikda namoyon bo'lmoqda edi; injiliy sahrodagi olovli ustunlar kabi, uni orzulari komillikka – adolat va farog'at sari chorlaydiki, jamiyat ularsiz tuban va shafqatsiz hasharotlar to'dasiga aylanib qolgan bo'lur edi... Ivan Matveich yo'l-yo'lakay o'z o'quvchisining ongiga hayotning muqaddasligini hamda insonlarning yemish va quvonch topish yo'lidagi adashuvlarini kamaytirish uslublarini singdirishga urinishi asnosida, alohida bir kishining qayg'usi ko'pchilikning farog'ati oldida hech narsaga arzimasligini va uning farovonligi asosiy ko'pchilikning ne'matdorligidan tashqarida kufroni moddiyat sanalishini alohida ta'kidlardi... rostini aytganda, bundan ko'ra o'rmonshunoslik bo'yicha ma'ruzalar Ivan Matveich uchun taqqoslاب bo'lmaydigan darajada oson kechar edi. Gratsianskiy uning o'quvlarida biror marta ham bo'limganini omad deb hisoblash mumkin, – u ma'ruzachining tarixiy dunyoqarashlarini, jumladan insoniyat taraqqiyoti uchun haq sifatida to'langan azob-uqubatlarga nisbatan qishloqcha izzat-ehtiromini mazahlab rosa kulgan bo'lardi!

Xonimlar asta esnashni boshlaganlarida, Ivan Matveich ularning qiziqishlarini saqlab turish uchun turli tarixiy manzaralarni bayon etishga o'tardi: misol uchun, Iskandariya rohiblari tomonidan xarob qilingan go'zal Ipatiyaning halokatimi, yoki Chingizxonning hozirligida o'z qatlini tashkillashtirgan mo'g'ul bahodiri Jamuguning tariximi... va shu bilan birga o'sha qissalarni o'zi o'ylab topgan badiiy tafsilotlar bilan shundayin boyitib hikoya qilar ediki, hali to'qib bitirilmagan paypoq Taiskaning qo'lidan tushib ketar va Lenochkaning ko'z oldi qorong'ilasha boshlardi: kishi qanchalik tinchlikta lab bo'lsa, hodisalar kundaligi mutolaasiga shunchalar moyil bo'ladi.

Ertalabga kelib Vixrov xotinining bunday mutolaalarga ko'nikmagan xotirasidan juda ko'p narsalar uchib ketardi, ammo aqlga va yurakka birday ta'sir etadigan ishlar hech qachon yo'q bo'lmaydi. Shunday oqshomlarning karomati bilan Lenochka kitob o'qishga shu qadar kirishib ketdiki, agar bukrigina Taiska bo'lmanida xo'jaliklari abgor bo'lib ketardi. Ayolni bilim o'rganishning faqat ko'zi ochilgan ko'rlnigina tushunadigan to'yinmas tashnaligi qamrab oldi. Ilgarilari kitob mutolaasi uning bekorchi vaqtini qisqartirish uchungina xizmat qilgan bo'lsa, keyingi yilning oxirlariga kelib, kitoblarning qa'ridagi asalni chiqarib olish uchun ularga aqliy mehnatni sarflash zarurati uchun o'quvni qadrlashni o'rgandi. Darvoqe, Vixrovning kutubxonasida mumtoz adabiyotning juda boy jamlanmasi bor ediki, ular Sapecinning qo'rg'onidagi tarjima romanlarga umuman o'xshamasdi; bir kuni ayol o'shalarga ta'rif berib, pashshalar hayotidan olingen asarlar deganida, eri uning farosati ortayotgani va zehni ochilayotganidan quvonib ketdi. Endi Lenochka kitoblarни o'qiyotganida, tabiatida rutubatli zulmatdan mo'ralab, charog'on yoritilgan deraza ortidagi notanish odamlarni kuzatayotgan tilanchining hasadli qiziqishi namoyon bo'lardi. Qahramonlarning fikrlari domo uning anglay olish darajasidan tashqarida bo'lardi, ammo ularning nutqidagi rangin ohanglar, o'zining miyasida jaranglagan tovushlar bilan mushtarak bo'lardi. To'satdan u shuni kashf etdiki, barcha yaxshi kitoblarda bir narsa borasida – buyuk hayot yo'lidagi hamrohlar to'g'risida, shu jumladan uning o'zi haqida so'zlanar ekan. Boz ustiga, birorta ham asar yo'q ediki – uning shaxsiy o'y-kechinmalari haqida va tobora o'sib borayotgan shubha-gumonlari haqida qandaydir jumlar topilmasa. Chamasi, maktab o'quvchisi ham koinotning yoyib qo'yilgan xaritasida o'zining hech kimga noma'lum qishlog'i joylashgan nuqtani topganida shunday tuyg'uni his etsa kerak. Qarangki, Lenochka hali dunyoga kelmasidan oldinrolq uning sevmoq, quvnomoq, harakat qilmoq kabi sarkash ehtiyojidan iborat ruhiy dardining shifoxonasi odamlarga avvaldan ma'lum bo'lgan ekan. Boz ustiga, u o'qib chiqqan kitoblarning mualliflari hattoki uning najotkori, ustozи bo'lgan, va shu ayolga sarflagan mehnatlari evaziga uning eriga aylanigan kishi bilan kechgan yashirin o'ta shaxsiy hayotining ikir-chikirlarigacha besh qo'lday bilishgan ekan. Ular bu ayolning tobora abadiy yolg'onga aylanib borayotgan, endi agar uni Vixrov bilan bitta qabrga

qo'yishadigan bo'lsa, hatto go'r ham tuzata olmaydigan barcha shudsiz va epsiz hiylalarini ham oldindan ochiq-ravshan ko'rishgan ekan; va albatta u erini avval-boshdanoq-sevmaganini ham fahmlagan ekanlar. Ivan Matveichni doimiy kuchli iztirobga solib kelgan xotinining fe'lidagi ishonchksizlik va pismiqlik hattoki voqelikdagi har qanday eng ezgu hodisadan ham tushuntirib bo'lmaydigan darajadagi o'ta kuchli alamzadalik ko'rinishida kuchayib ketardi: erining har bir xatti-harakati uning vujudida uzoq vaqt kuydirib turadigan iz qoldiraverdi. Bu kuydirgi dardning yangi bosqichi boshlandi... tag'in aynan shu paytdaki, Taiskaning fikriga ko'ra, to'liq saodatga erishishlari uchun faqatgina qavatdor javonga to'r tashlamalar to'qib qo'yish va allaqachonlar sotib olingan, qo'l bola emas, aynan korxona mahsuloti bo'lgan romchalarga sochi yelkasigacha tushgan biror bastakorning yoki kuzgi istirohat bog'laridagi o't bosgan hovuzlarning manzarali rasmini ilib qo'yish qolgandi, xolos.

– Bir payt sal yengillashganday bo'ldi-yu, keyin yana dardi qo'zib qoldi. Tushkunlikka tushdi va xo'jalik yuritishga bo'lgan ishtiyoqi ham so'ndi-qo'ydi... uy ichida aylanib yurgani yurgan, kitoblarni rosa o'qigandi-da o'ziyam, o'tning poyasiday ozg'in bo'lib ketdi. Agar parda ortidan tashqariga bir qarab qo'yishini aytmasang, ko'chaniyam unutti-vordi. Ivan undan so'ragani so'ragan: ko'ngling nimani tusa-yapti, gapir, dengiz ortidan bo'lsayam so'rattirib beraman, – u esa erining chakkasini siypalab qo'ygan bo'ladi-yu, gunohkorona bir tabassum bilan bosh chayqaydi, xolos. Ko'ngli yozilsin deb, naq Kavkaz tog'larining o'zigacha oborib keldi: foydasi bo'lindi. Shifokorlar-ni-yu, har qanaqasiga ko'rsatdi... Birining po'stinini kiydirib qo'yadi, boshqasining eshigini taqillatib boradi. Voy, ularni orasida shunaqangi gazandalariyam borakan-e! Bittasi – «Ilgarilari davlatmand odamlar bunaqa kasallarni Misrning qaynoq qumlariga oborishgan, – gap bilan chaqib oldi. – Ammo-lekin hozir, deydi, bizda umumommaviy baxt e'lon qilingan, balki endi rafiqangiz Misrsiz ham tuzalib qolar». Ivanning lablarigacha titrab ketdi, ammo unga yalinib-yaltoqlanaverdi, ta'zim qilib yubordi, shunaqa! Shu orada Lenochkamiz avvalgidanam battar sovqota boshlaganini sezdim... – Taiska xotiralarini shu tariqa baham ko'rди-yu, biroq bularning hammasi kelinining homildorligining oxirgi oylariga to'g'ri kelgani borasida mum tishladi.

Lenochka keyingi yilni o‘z joyidan qimirlay turib, g‘am-qayg‘ularidan yugurgilab qochgan holida o‘tkazdi va hamma vaqt uning miyasida yashirin, yagona chora aylanaverdi, ammo bu chora-ga qonsiz yetishish hech qanaqasiga mumkin emasdi. U o‘sha najot-kor tirqishdan ko‘zlarini uzolmaydi va go‘zal, quvnoq odamlar ketib borayotgan, olislarga cho‘zilib ketgan yo‘lni ko‘radi, go‘yo o‘zi ham o‘sha odamlar bilan birga emish, ammo endi u yengil, nuqsonlar-dan xoli, tahqirlanganlik tashvishlaridan, ma’naviy fosh etilishning tiganmas vahimalaridan va o‘zining o‘zligidan ozod bo‘lib olgan. Yarim tunda uyqusi qochib, yonida uxlab yotgan erini uyg‘otib yubor-maslik uchun hatto yelkasini qimirlatishga ham qo‘rqib, yaqin depara temiryo‘lidan eshitilayotgan bug‘tortarlarning yashirin ravishda uni qayerlargadir chorlayotgan tashvishli chinqirig‘iga qulq tutadi. Endilikda uni qiyayotgan narsa ag‘darilgan tuzumga yashirin daxldordik tuyg‘usi emas, balki o‘zining kundalik nonini, tinchligini, haddan tashqari odmi kiyim-kechaklarini, aslida xayoliy bo‘lman arvoхlar tazyiqidan xavfsizligini qanday dahshatl to‘lovlar evaziga sotib ola-yotganini atrofdagi hamma odamlar fosh etib bo‘lishdi, degan dilgir ishonchi edi; terisining tabiiy sezuvchanligi va vujudining ta‘sirga beriluvchanligi uning mana shu doimiy, muzlatuvchi yalang‘ochlik his-sini kuchaytirib yuborgan edi. Har qanday ziyrak nigoh uni sarosima-ga solib qo‘yaverardi, hatto tizzasidagi qizchasining qarashlari ham; hammadan ham ko‘ra u o‘z qizining oldida uyatli edi! Tag‘in anavi Taiska gap orasida eski zamonlardan qolgan irimini tiqishtirib o‘tdi: muhabbatsiz dunyoga kelgan bolalar, albatta, baxtsiz bo‘lisharmish. Shafqatsiz intiho tobora yaqinlashib kelmoqda edi.

Falokatdan oldingi bir necha yil davomida Vixrovlarnikiga mehmonlar deyarli kelmay qo‘yishdi, ustozlarining har tomonlama bilimdon ekanligi va uning yosh o‘rtasidagi farqni unutishga majbur etuvchi sovimas qalb qo‘ri uchun muallimlariga muhabbat qo‘yan kam sonli talabalar bundan mustasno edilar. Ular barchalari vatanlari-ning bir bo‘lagi sifatida unga sadoqatli bo‘lishga qasam ichganlari rus o‘rmoni barcha bahslarning bitmas-tiganmas mavzusi bo‘lib xizmat qilardi va keyingi chorak asr davomida o‘quvchilar o‘z ustozlari no-miga yo‘llagan, har qayoqlardan kelib turgan minnatdorlik maktubla-riга qaraganda, keyinchalik umumxalq e’tirofiga musharraf bo‘lgan kitoblarning ko‘philigi mana shu kichik o‘rmonshunoslik munoz-a-

ralarida o‘ylab qo‘yilgan ekan. Ivan Matveich uchun Kalina boli qanchalik totli bo‘lsa, mana shu yoshlar uchun Vixrovning xonadonidagi nochor, hatto ko‘pincha qandsiz choyxo‘rlik bir umrga shirin xotira bo‘lib qoldi. Choyni ko‘pincha ortib qoladigan darajada ko‘p miqdorda Taiska olib kirardi... talabalar to‘garagining a‘zolaridan hali hech kim professorning xotini bilan tanishish imkoniga ega bo‘lolmagan. Uy egasining ish mizi ustida turgan fotosuratga qaraganda, bu ayol kulag‘onlik xulqi bilan va jismining go‘zalligi bilan bo‘lmasa-da, istarasi issiqligi bilan ajralib turarkan, eri esa oqsoq bo‘lib, tashqi ko‘rinishi ham unchalik yoqimli emasdi; mana shu qiyosning o‘ziyoq beg‘araz, ammo biroz yengiltak talqinlarga sabab bo‘lgandi.

4

Faqatgina yolg‘iz Osminov Pavel Andronovich – yuqori bosqich talabasi, Vixrovning sevimli shogirdi – uning oilaviy baxtsizligidan xabardor edi. Iqlim sharoiti shafqatsiz Vagada tug‘ilgan, tashqi qiyofasi ham o‘sha yerliklarniki, ozg‘indan kelgan, dilkash, o‘ziga xos shimoliy shevada so‘zlaydi, qora ko‘zлari tiyrak, u bilim o‘rganish uchun emas, agar ta’bir joiz bo‘lsa – hali tug‘ilmasidan avval o‘ziga allaqachon ma’lum bo‘lib ulgurgan barcha narsalarning tafsilotlari ni aniqlashtirib olish uchun ilm-fanga kirishadigan odamlar toifasiga kirar edi. Narsalarning tuzilishini dabdurustdan anglab olaroq, u bir xil darajadagi salohiyat bilan nafaqat o‘sha paytlarda urfga kirgan kvant mexanikasi haqida yoki Tulyakovning o‘rmonchilik sohasidagi bid‘atchiligi to‘g‘risida xulosa bera olar, balki ayol qalbining sir-sinoatlari borasida ham mukammal ma’lumotga ega edi. Uning o‘rmonga bo‘lgan sadoqati hamda ijtimoiy nufuzning yuksakliklariga ko‘tarilib borarkan, Shenkur botqoqliklaridagi siyrak chakalakzorlar da kun kechirayotgan kamsuqum qarindosh-urug‘larini hech qachon unutmaslik kabi o‘ziga jalb etuvchi xislati Ivan Matveichni maftun qilib qo‘ygandi. U vijdonli va shubhasiz jasoratli inson edi, chunki Vixrov ayni Gratsianskiy tomonidan ayovsiz quvg‘inlarga duchor bo‘lib turgan paytlarda, hammaning orasidan yolg‘iz ugina Ivan Matveichga o‘zining yupqagina ilk ilmiy ijod mahsulini bag‘ishlashga jur‘at eta olgan edi. Ivan Matveichning huzuriga u hammadan ko‘ra ko‘proq kirar edi. Ko‘pincha xonodon egasi uyda yo‘q bo‘lgan vaqtarda, alohi-

da ta'kidlash joizki – Lenochka o'zining yashirin shubha-gumonlari ni faqat unga yorilishga jur'at etardi. To'g'ri, bu ishni u hazil tarzida, aslida mavjud bo'limgan qandaydir dugonasining misolida amalgam shirardi, shu bilan birga, bu kabi suhbatlarda Osminov Vixrovning xotiniga nisbatan eng yaqin va sevimli shogirdga ijozat etiladiganidan ko'proq darajada haroratliroq va yaqinroq munosabatda bo'lar edi. Ehtimol, falokatning sodir bo'lishi uning ishtirokisiz kechmagandir, ammo avval-boshda opa-uka Vixrovlari o'z kulfatlarining sababini yolg'iz Pavelga bog'laganlari, Lenochkaning dardining mohiyatini ular qanchalik yomon bilganlarini namuna tarzida ko'rsatadi. Bir kuni uyga har doimgidan ertaroq qaytgan Ivan Matveich kirish eshigini o'zining kaliti bilan ochdi va kiyim ilgichda Osminovning paltoni ko'rib, nima uchundir yechinmasdan, kirish yo'lagida turib qoldi. Uning ish xonasidan jonli suhbat eshitilib turardi, so'zlashuvning xususiyatiga qaraganda, bunisi birinchisi emasdi. Vixrovning eshik tagida gap poylash odati yo'q edi... ammo bunisi birdaniga chidab bo'lmas darajada qiziqtirib qoldi, ularning gap-so'zлari qanaqangi o'zi yo'q soxta dugona haqida boryapti ekan. Opasi uyda emas edi, suhbat nimovozda bo'lyapti, lekin qulog'iga kaftini qo'yib tursa va bo'ynini ozgina cho'zadigan bo'lsa, eng mayda ohanglari ham tushunarli bo'lib qolarkan.

– Men axir necha martalab uning fikrini o'zgartirishga harakat qildim, – dugonasiga yordamga borish uning bevosita burchi ekani haqidagi Osminovning xushmuomalalik bilan bildirgan mulohazasiaga e'tiroz bildirdi Lenochka, – uning ahvolidagi odamni nima bilan, qanday qilib qutqarish mumkin? Bunga qo'shimcha ravishda maxsus, farzand ko'rinishidagi, uning aybini og'irlashtiruvchi va ortga qaytarib bo'lmaydigan vaziyatlar ham mavjud...

«Nahotki u Polyaga shama qilayotgan bo'lsa, a?.. shuni begona odamga atyyaptimi?» – hayron bo'ldi Vixrov va yana oldinroqqa egilib, yerdagi surilib ketgan gilamni ixtiyorsiz ravishda, oqsoq oyog'i bilan to'g'rilib qo'ydi.

– Yo'q, men dugonangizning xudkushlik haqidagi fikrlarini qat'ian ma'qullay olmayman! Faqat yuragi bo'm-bo'sh odamgina bunday ishga jur'at etishi mumkin, – do'rilladi bunga javoban Osminov va cho'bug'ini, yozuv mizining chekkasiga ura boshladi (buni taqillagan ovozidan bilib olsa bo'ladi). – Yosh, jozibador ayol-

ning qalbida bir siqim kuldan boshqa hech narsa qolmaganiga ishon-gim kelmaydi...

— Yo, tavba, dugonam yuragi bo‘m-bo‘shligini o‘zi ham yashira-yotgani yo‘q, — uning so‘zini bo‘ldi Lenochka, go‘yoki o‘zining bu gaplarini darhol qizg‘in inkor qilib tashlashlarini istaganday. — Bilasizmi, Pavel Andronovich, nay degan cholg‘u kimning labiga tegsa, o‘shaning kuyini chaladi. Va umuman, chakalakka o‘xshab g‘ovlab ketgan soqolingiz bor bo‘lsa ham, o‘zingiz hanuz ishonuvchan va tajribasiz bolakay ekansiz. Yo‘q, bu masalada boshqa, kuchliroq nima-dir kerak... uning nima ekanini hozircha o‘zim ham bilamayman.

«O‘-ho‘, bularning o‘zaro dardlashishlarini qara-ya... men bilan o‘lim haqida umuman so‘zlashmasdi. Bundan kelib chiqadiki, xotinim unga dadilroq turib o‘zini qutqarishini, bo‘shanglik qilmasligini, evaziga esa unga qo‘lidan kelgan minnatdorlikni nisор etishini shama qilyapti! Ishlari judayam chuqurlashib ketibdi-ku...» — quloqlari qizib, birorta so‘zni ham o‘tkazib yubormasdan o‘ylardi Ivan Matveich, lekin bitta mulohaza uni quvontirdiki, ikkovilarining o‘rtalaridagi shubhasiz ruhiy yaqinlikka qaramasdan, hozircha bir-birlarini «siz» deb, to‘liq ism-shariflari bilan murojaat etib turishibdi.

— Sizning dugonangizga sirdan muolaja tayinlash men uchun g‘oyatda qiyin, — gapni uzoqdan boshlab, e’tiroz bahonasida maqsadga o‘ta boshladi Osminov, — ammo men uning haqida boshqa fikrga keldim. Sizning so‘zlariningizdan shuni xulosa qilishim mumkinki, u juda oqko‘ngil, rahmdil va agar kitoblarning qahramonlari ning sa’y-harakatlari ortida muallifning nimalarnidir qilishga undovchi maqsadi turganini anglab yetayotgan bo‘lsa, anchayin aqli ham ekan. Menimcha unda yaxshigina iqtidor nishonalari ham borki, ular mavjud bo‘lmaganida dugonangiz hoziridan vijdonliroq va pokroq bo‘lish ehtiyojini his etmagan bo‘lurdi. Agar haqiqatan ham o‘zingiz aytaganingizday, yo‘qchilikdan va mehnat qilishdan cho‘chimas ekan, demak, u kuchli inson. Va nihoyat u hali yosh, va binobarin, o‘z xatolarini to‘g‘rilash uchun yetarlicha bo‘sh vaqtga ega ekan, — bu so‘zlarni Osminov haddan tashqari urg‘ulab aytdiki, Vixrov buni darhol ko‘pni ko‘rib yuborgan chapanining qiliqlari sifatida qabul qildi, — ammo u bilan uchrashganingizda, o‘qib-uqishni va ma’naviy tashnaligini kitoblardan emas, hayotning ilk chashmalaridan qondirishini maslahat bering: mening nazarimda, kitoblarning eng yaxshisi

ham faqat xususiy nuqtayi nazarlarni ifoda etadi va borliqning alohi-da ayrim hududlarini o'rganadi. O'z qamrovida butun olamni to'liq aks ettira oladigan ko'zgu hanuzgacha bo'lgan emas... – U sarflagan gugurtlarning miqdoriga qaraganda, tinmay o'chib qolaveradigan cho'bug'ini yana o't oldirishga tutindi. – Ayting-chi, dugonangiz-ning eri o'sha ayol u bilan baxtsiz ekanini biladimi?

– Yo'q, shekilli, – dedi ishonchsizlik bilan Lenochka va bosh chayqab qo'ydi. – U juda kuchli, o'z ishiga mukkasidan ketgan inson... va dunyodagi hamma narsalar – uning aqli uchun oziq xolos, shunchaki uning g'oyasini tasdiqlovchi moddiyot. Va mana shunday... – uning ovozida sezilar-sezilmas istehzo sirpanib o'tdi, – kecha-kunduz uzlusiz davom etuvchi, odamga, o'z xotiniga g'amxo'rlik qilaverishi rafiqasiga qanchalik noqulaylik tug'dirayotgani xayoli-ning ko'chasiga ham kirib-chiqmaydi.

– Demak, siz aytmoqchisizki... – bemavrid yaldoqlanib qoldi Osminov, – shumshuk mushuk, o'zi tiriklayin yutib yuborgan sich-qonchasidan, qorinning ichidagi issiqqina, yumshoqqina xavfsizgina sharoitda baxtli ekani yo emasligini so'ramaydi ham... Sizni to'g'ri tushundimmi?

«Ofarin, ana shunday!.. cho'loq iblisni pona bilan, dastak bilan urib, chiqarib yubor!» – kinoyali kulib qo'ydi Ivan Matveich, xuddi Osminovga yordam berayotganday beixtiyor harakatlar qilib.

– Bu juda kulgili, ammo... noto'g'ri, – eriga qayishgan bo'ldi Lenochka, ammo gap ohangi begona, Vixrovga notanish edi. – Aksincha, dugonam menga aytishicha, unga' eridan ko'ra adolatli va ochiqko'ngil odam hali uchramagan ekan... Ammo eri o'z yelkasiga shunaqangi og'ir toshni ilib olganmishki, barcha begona, yengilroq yuklar ham uning uchun ahamiyat berishga arzimaydiganday tuyulkaran.

– U holda fikrlarimni mufassalroq bayon etmog'imga ijozat bergaysiz, chunki mening nazarimda, men, sizning so'zlariningizdan o'zim uchun o'sha kimsaning jonli qiyofasini yaratib ulgurdim... – ochiqchasiga maqsadga o'tdi Osminov. – Men uni asta-sekinlik bilan, o'sib boruvchi davriylik jarayonida nufuzi tanilib boradigan oliyjanob inson naslining buyuk arbobi deb hisoblay boshladim, agar siz avval-boshdanoq rozilik bildirganingizda edi...

Ivan Matveich bularning hammasini, ko‘zgu tagligiga terilgan, endi o‘zi uchun shaklini, vaznini hamda vazifasini birdaniga yo‘qotgan buyumlarni u yoq-bu yoqqa siljita turib tinglardi. Lenochkaning ovozida anglashilib turgan ehtiromli nafrat uni ranjitgani yo‘q, lekin cho‘chitib qo‘ydi, boz ustiga uning xislatlarini begona odam bilan va asosiysi, Ivan Matveichning o‘zidan ko‘ra jozibadorroq odam bilan muhokama qilishi; u «xotinim menin o‘zimdan jirkanayotgani yo‘q, balki bizning baxtsiz nikohimizga nisbatan o‘z nafratini bildiryapti» – deb o‘ylagisi kelardi. Axir u xotinining ko‘zidan o‘qib olishga musharraf bo‘lgan barcha tilaklariga nihoyatda e’tiborli bo‘lib keldi-ku. Albatta, u o‘zining tirishib mehnat qilgan yillari davomida to‘plagan o‘lchovsiz boyliklarini unga topshirishga harakat qilgan o‘sha mustabid shoshqaloqlik asnosida, xotinining shaxsi qaysidir ma’noda erving vujudiga singib ketgani rost, busiz bo‘lmasdi ham, – va demak, bu xotinining tomonidan qonuniy isyon bo‘lgan ekan-da? Nachora, u Lenochkaning lanjlik va damduzlik qobig‘i ostida otilib ketishga tayyor prujina borligini doim his etgan, bu narsa esa xotinini o‘z panjasida ushlab turgan odamga muqarrar ravishda azob yetkazadi.

Ivan Matveich rosa vaqtida xira, amalgamasi ko‘chib-ko‘chib ketgan ko‘zgudagi o‘ziga boqdi va yoshlarga bunday ahvolda ko‘rinishi noshoyonlik bo‘lishini fahmladi. Bir tomonidan, uning o‘sha yoqqa, masalan deylik, oshxonan pichog‘i bilan bostirib kirishiga asos yo‘q edi. Shu bois ortiqcha shovqin qilmasdan, Ivan Matveich toza havodan nafas olish, asabiylashgan yuzini va hissiyotlarini tartibga keltirib olish uchun yana ko‘chaga qaytib chiqib ketdi. Havoning ra‘yi ham ayni ko‘nglidagiday edi: mart oqshomining qorong‘iligi quyuqlashib boryapti, devorlar oralab o‘sha yilning so‘nggi izg‘irini quturib, o‘ralib-buralib izg‘imoqda.

... Gap endi muqarrar falokatning muddatlari haqida bormoqda edi, lekin chamasi Lenochkaning hozircha muayyan rejalarini ham, o‘z taqdirini tubdan o‘zgartiruvchi harakatni amalga oshirish uchun irodasi ham yo‘q edi. Biri boshqasining ortidan kelgan ikkita hodisa yakuniy qarorning pishib yetilishiga yordam berdi. Aprelning boshida, bahor isi ufurib qolgan paytda Ivan Matveich xotinini konservatoriadagi organ oqshomiga – hattoki Moskvaning go‘zal musiqa kunlari uchun ham mislsiz bo‘lgan bayramga olib bordi. Olmoniyadan kelgan mashhur mehmon yelkador, sochlari arslon yollariday hurpay-

gan, bukchaygan chol bo‘lib chiqdi – go‘yoki mana shu tovushlar mashinasiga hukm o‘tkazish uchun tabiat tomonidan ataylab yaratilganday edi. Nihoyat Lenochka butun devorni egallagan kuylovchi yog‘och va kumush quvurlarning sirli uyumini amalda eshitishga muvaffaq bo‘ldi. Birinchi bo‘limda do-minor fugasi, sol-major fantaziya va Baxning to‘rtta xor saraxbori ijro etildi. Kim va nima uchun hozirgi asr intilishlaridan shunchalik uzoq bo‘lgan narsalar haqidagi ushbu cho‘ziq va shaddod xayolotni ijod qilganini Lenochka bilmas va bilishni ham istamas edi; musiqaning umrzoq qudrati shundan iboratki, har kim o‘z shaxsiy tajribasiga mutanosib ravishda o‘zining mazmun-mohiyatini nota chizig‘iga yozib qo‘yadi... Lenochkaning diqqatini suv sirtida to‘satdan kuylay boshlagan qamishpoya o‘ziga tortdi va ayni paytda past, pog‘onador guvullashni ko‘z bilan ko‘rish ham mumkin edi – ular shunchalar ham son-sanoqsiz darajada ko‘p ediki... va keyin mayin, jarangdor shabboda bosh ustidan shunday uchib o‘tdiki, ular shoshilinch egilib olishdi va endi bularga bolalar jo‘r bo‘ldilar. Ushbu madhiyaga shamolning epkinini shimib olgan atrofdagi devorlar, yuqoridagi kurrasimon shakldagi suratlar va hatto uning o‘zi – Lenochka ham vujudidagi har tomchi qoni bilan singib ketdi. Go‘yoki ulkan va qayg‘uli kimdir asosiy mohiyatni izlab uning yonidan o‘tib ketdi, ammo qidirib topolmadi va alam bilan qo‘llarini ulug‘vor tarzda yonlariga yozdi va boshi uzra ko‘pchigan ko‘kka boqdi, lekin o‘sha uyoqda ham hech qayerda yo‘q edi. Ana shunda hammalari, bolalar va shamol maysazorda kimpo‘zarga yugurib ketishdi. Qiziqishidan tikka turib olgan bulut yuksakliklarda ularning ortidan, mavjudligi orom va dahshat hissini uyg‘otguvchi kimningdir aksi zohir bo‘lib turgan sokin, to‘garak ko‘l tomonga ergashdi. Ayni shu paytda dastlabki tomchilardan hosil bo‘lgan doiralar ko‘lning ko‘zguvor silliq sirtini bo‘laklab yubordi. Tez orada osmon pastga oqib tushdi, bolalar va shamol esa bularning hammasi nima uchun kerakligini bilmasdan, yog‘ib turgan jalaning tizimchalariga osilib olganlaricha jim bo‘laroq turib qolishdi... Atrofda gulg‘unchalar ochila boshladilar va birinchi, qoziq tishli, hali oxirigacha yaratib bo‘linmagan hayvon hammalarini chetlab o‘tib ketdi, chunki hozircha u ham o‘zining nega yaratilganidan xabarsiz edi. Keyin esa qiylama va surmarang quyosh nuri quyuq, haddan tashqari dim havoni

yorib tashladi va Lenochkaning yuziga to‘kilib, uning chehrasida shifobaxsh salqinlikning bir bo‘lagini qoldirdi.

Uning yuzlari pushti rangga kirdi va ko‘zlarini yumib, oromkursining suyanchig‘iga o‘zini tashladi: hozirgina eshitganlari ham uning o‘zi haqida edi.

– Obakidandon shimasanmi? – so‘radi yon tomondan Ivan Matveich. – Menda yalpizli, salqinlatadiganlari bor.

– Yo‘q, tashakkur. Menga shundoq ham yaxshi bo‘lyapti...

– Ajoyib pastki tovush pardasiga o‘tish jarayoniga e’tibor berdingmi? Darvoqe, ba’zilarning gaplariga qaraganda, ayrim organchilar ijro vaqtida oyoqyalang bo‘lib olishar ekan, chunki oyoqyalang bo‘lganda cholg‘uning tepkisi yaxshiroq, ta’sirliroq his etilar emish, shuni bilarmiding?..

U Jim bo‘lib qoldi va bu holat Lenochkada o‘zini endi tinch qo‘yishlari borasida umid uyg‘otdi. Ammo xotinining muvaqqat xushnudligidan foydalanib, Ivan Matveich uning qulog‘iga muallif haqida va ijro etilayotgan asarning dasturiy mazmuni haqida ayrim ma’lumotlarning xabarini yetkaza boshladi, uning samimiy ishonchiga ko‘ra, shulsiz madaniyatli odamning san’atdan lazzat olmoqligi amri mahol ekan. Har doimgiday, u avvaldan tayyorlik ko‘rib qo‘ygandi, kerakli joylardan ma’lumotlarni o‘qib oldi va Baxning tarjimi holidagi ayrim jihatlarni tezgina sanab o‘tgach, uning organchi Marshan bilan Drezdendagi musobaqasiga, Marshan esa o‘zining mashhur raqibi oldida qo‘rquvdan qochib ketgani borasida mufasalroq to‘xtalib o‘tdi.

– Sen yana cherkovning odamlarni o‘ziga moyil qilish uchun yaqin-yaqinlargacha qanday qudratli vositalardan foydalanganiga ahamiyat bergen. Ma’badlarning dastlabki gotika uslubidagi nayzasimon, noxush qubbalarini tasavvur etgin-a, shunda sen o‘rta asrlarning mana shu xorali vujudingga kirib borganini, ongingda kurtaklaganini va umrbodga ruhingning bir zarrasi bo‘lib qolib ketganini his etasan. Shuning boisidan men o‘tmishning sarqitlarini bugungi marsh qo‘shiqlari bilan emas, balki mislsiz san’at asarlari bilan siqib chiqarish mumkin degan fikrimda qat’iyman, tushunyapsanmi? Bundan xulosa ...

– Sendan iltimos, bas qil, Ivan, – so‘z qotdi Lenochka.

– Ammo har bir fikrlovchi inson buni bilmog‘i kerak, jonginam.

– Xudo haqqi... dastingdan hozir dodlab yuboraman! – vishillab shivirladi xotini va bu eskidan tanish bo‘lgan zardali ohangdan tush-kunlikka tushgan er junjayib qoldi.

Ammo ikkinchi bo‘limda ayolning musiqaga berilishiga nima-dir xalal beraverdi: ensasi tomonda suyanchiq yo‘qligimi, yo oldin-da o‘tirgan bo‘yanib olgan mallasochdan taralayotgan achimsiq atir isimi... Tushunarsiz bir notinchlik Lenochkani italiyacha Fa-major konsert ijrosi davomida ham tark etmadni; uzuq-yuluq ohanglar tobora kuchayib borayotgan, deyarli jismoniy noqulaylik aro uning ongiga bazo‘r o‘tib boradi. U xavotirlanib qaddini tikeladi va atrofga alang-ladi – o‘ng tarafdag‘i faxrli mehmonlar ayvonchasining to‘sig‘idan qo‘lini tashqariga osiltirib olgan notanish erkak unga sinchkov tikilib o‘tirardi... Ayol ixtiyorsiz ravishda sochlarini va ko‘ylagining qaytarma yoqasini to‘g‘rilab oldi, ammo erkak hamon undan ko‘zini uzmasdi. Yoshi qirq beshlardan oshmagani holda u deyarli oqsoch edi; erkakning salgina qisilgan ko‘zlaridagi istehzo uchquni va ikkovlari ajratib turgan yigirma qadam masofadan ham yaqqol sezilib turgan chakkasining tepasidagi chandiqdan boshqa belgilari ayolning xotirasida saqlanib qolmadi. Tashqi ko‘rinishidan u ham eri kabi olimga o‘xshardi, faqat – qandaydir o‘zga, umumyakunlovchi bashariy fan vakili, ammo shunaqangi sinchkov tikilar ekanki, go‘yoki ayol erta tongda uyg‘onishi bilanoq, erini kelgusi shubha-gumon-lardan chalg‘itish uchun soxta yumshoqlik bilan aldagani bu odamga ma’lumday edi. Bu odam yengilgina iljayib, boshining bir qadar takallufsiz harakati bilan Ivan Matveich to‘monga imlab qo‘yganida ayol butkul tinchini yo‘qotdi.

– Meni tamaddixonaga kuzatib qo‘y, Ivan... – dedi u butun vujudi holsizlanib. – Suv ichgim kelyapti, tobim bo‘lmayapti.

– Balki bo‘limning oxirigacha o‘tiraturarmiz?

Tomoshabinlarning «Tshsh! Tshsh!»lari yo‘ldoshligida u allaqachon yo‘lak to‘monga yugurib borarkan, anavi ayvonchadagi kimsa ham ular bilan baravar o‘rnidan ko‘tarilganini ko‘z qirida ilg‘agach, dahshatga tushdi. Tamaddixonada u odam yarim daqiqalardan keyin paydo bo‘ldi va ancha naridagi miz yoniga o‘tirdi. Lenochka mayin mo‘ytaroq bilan upalanar ekan, anavi odam o‘zining orqasida boshini pastga egib olganicha, sabr bilan, mazahlab fursat kutayotgan bir qiyofada narzanini mayda qultumlar bilan ho‘plab o‘tirganini ko‘zgu

orqali ko'rdi. Shundan keyin Lenochka boshi aylanayotganini bahona qilib, uyiga shoshib qoldi, ammo ta'qibchisi ularning ortidan sahn-gacha tushib bordi va ularga yaqir taqalib kelib, Ivan Matveichdan, do'stlari oldida shu darajada kibrlanib ketish nihoyati uyatmasmikan, deya so'radi.

– Butun tanaffus davomida ortingdan sang'idim, xotiningga qo'l silkitib salomlar yo'lladim, sen esa, baloginalarga yo'liqqur, do'stingga hatto rashkli qarashingni ham in'om qilib qo'ymading!.. Bo'pti, rafiqang bilan tanishtir endi!

– Valeriy!.. – bolalarcha chinqiriq bilan qichqirdi Ivan Matveich, uning quchog'iga otilar ekan, va Lenochka, vaziyatning to'satdan yuz bergen to'liq yengillashuvidan o'zi holsizlanib turgan holida erining ko'zida quvonch yoshlarini ko'rди!

Bu uzoq muddatli firoqlardan so'ng yuz bergen sof ruscha uchrashuv edi va peshtaxta ortida turib olib, qichigan tillariga erk bera boshlagan kiyimxona xizmatchilari ikki nafar mas'ul o'rtoqlar bir-birlarining yelkalariga qoqib qo'yganlari, o'zlariga chetdan nigoh tashlash uchun ajralishishlari va bir-birlarining yangi qimmatbaho pijjaklarini yana qaytadan mijg'ilashga kirishishlari kabi tomoshasi-dan bahra olmoqdalar.

– Bu nimasi, kallavaram, modomiki Moskvada ekansan, nima uchun o'zingdan darak berib qo'ymading? – nuqul gina qiladi Ivan Matveich, uni Lenochka bilan tanishtirib.

– Sen haliyam o'rmonchilik idorasida o'tirib olib, tikanli-tikanli insholarining yozib o'tiribsan deb o'ylagandim... aytishlaricha ijobding unchalik muvaffaqiyatli emasmish-ku, a? O'qidim men, Sasha Gratsianskiy aqlingni kiritib qo'yganini o'qidim... – Va do'stining ko'zlariga sinovchan tikildi.

– Lekin o'zing varaqlab chiqqanmisan o'sha kitobni?

Valeriy negadir buni tan olishga shoshmasdi.

– Qalin ekan, og'ayni, oxirigacha o'qishga ulgurmadmadi.

Ivan Matveich mo'ylovini chaynadi: hattoki Valeriy uning ilmiy ishi haqida shu qadar tiyiqlik bilan fikr bildirib tursa, boshqalardan nimani kutish mumkin?

– Ha, ozgina xato qildim, shekilli, – mavhumroq tarzda tasdiqladi u, ancha ilgari boshlangan o'rmon jangi tafsilotlarini oshnasiga shu topdayoq ochiqlashga qaror qilolmasdan. – G'o'r aql bilan katta ke-

tib yubordim, bu degani – imkonimdan ortig’iga urinib qo‘yibman... Xo‘p, o‘zing qayerlardasan, qayoqlardan kelding, biz tomonlarga ko‘pga keldingmi?

– Shoshma, sen avval o‘zingdan hisobot ber, sendan yoshim kattaroq, – yarimhazil ohangida talab qildi Valeriy.

Shunchalik ko‘p yillarning hodisalarini ikki og‘iz so‘z ila bayon etib bo‘lmasligi, Vixrovlarning shahar chekkasidagi uylariga borish uzoqlik qilishi vajidan ular Valeriyning talabi bilan Valeriy joylashgan mehmonxonaga yo‘l oldilar; darvoqe, ayni o‘sha kech u muhim telefon qo‘ng‘irog‘ini kutayotgan ekan. Uning mashinasi konservatoriyaning hovlisida turgan edi. Lenochna oyog‘ida arang turganiga qaramasdan, dunyo ishlaridan xoli quvonchni hech bo‘lmasa vaqtinchalikka o‘y-xayollardan xalos etish uchun cho‘zmoqlik taklifiga rozilik berdi.

– Meni kechirasan-u, Ivan, lekin... Sashanining alamzada hamlasini javobsiz qoldirib bekor qilibsan, – dedi mashinada Valeriy. – Uning so‘l qarashlarida yo‘ldan ozdirguvchi safsata bisyor!.. xususan, asosiy maqsadi – erib oqmoq va yondirmoq bo‘lgan inqilobning qaynoq oqimidagi kristallashuv jarayonini imkon qadar cho‘zish borasidagi bayonoti.., esingdami? Uning maqolasidagi shuhbali bir jumla hatto xotiramga ham joylashib qoldi: «Lava sovigan paytida, uning yoriqlarida faqatgina chiroyli chechaklar, mevali daraxtlar, foydali hasharotlar emas, bir qadar mashhur bo‘lgan tamaddunlarni vayron etgan qadimiy baloyi nafs mikroblari ham paydo bo‘ladi». Ammo olovlanib turgan lavanining ustiga kulba qura olmaysan, hosil ham yig‘ib ololmaysan. Men ovoz paychalarining baquvvatligi bergen huquq evaziga xalq nomidan so‘z yuritishni o‘zlariga monopoliya qilib olgan arboblarga ishonchsizlik bilan qarayman. Bizning xalqimiz esa har qanday boshqa ellar qatori tinchlikni va osoyishtalikni istaydi. Xuldas, Sashanining tanqidi menga shilimshiq va g‘arazli bo‘lib ko‘rindi... ammo sen buni ichingga yutib ketding, oddiy o‘quvchida esa go‘yoki sen katta mushtlashuvdan qo‘rqib chetlanganday tasavvur yuzaga keldi.

– Bunisi endi militsiyaning ishi... raiyatning ish joyini notinch fe‘lli o‘tkinchilardan muhofaza etish! – keskin javob qildi Ivan Matveich. – Mening esa bunga vaqtim yo‘q, qo‘llarim doim ish bilan band.

– O'sha maqoladan keyin menga sening kitobingni buyurtma qilib keltirib berishdi. Sen o'z mavzuyingni o'rinli va o'z vaqtida ko'targansan... uchinchi bobning avvalidagi, qishki o'rmon haqidagi g'ayrioddiy badiiy chekinish esa adabiy xrestomatiyalarga munosib. Men o'shanda anchayin jazirama bir mamlakatda soyabon tagina o'tirgan edim va xuddi to'satdan vatanimdan bir siqim rus qorini olib kelib berganday bo'lishdi. O'sha qorni yuragimda ancha vaqt asrab yurdim, Ivan.

– Erib tugagunichami? – ishshayib qo'ydi Ivan Matveich. – Mening bunday... asabiy ekanimdan achchiqlanma. Gap shundaki, Sasha Gratsianskiyning muntazam uqalashlaridan keyin yang'rinimda qattiq og'riq beradigan fasod paydo bo'ldi... Demak, kitobimdagini madir senga har holda yoqibdi-da?

– Kerakli kitob, uni bir o'qishda tugatdim, – bu safar juda jiddiy tarzda gapirdi Valeriy, – va men Gratsianskiyning fikrlariga qo'shilmayman, ammo tan olib aytishim kerakki, sening g'oyalaring anchayin bahstalab.

Ivan Matveich qizisha boshladi:

– Men o'rmonchiman, xolos... ayni vaziyatda bug'tortarning qozonidagi manometrning miliman, ammo men aldashim nojoiz, chunki mashinist yuqorilikka ko'tarilib borayotganida yoki tezlikni oshirayotganida mening so'zlarimga asoslanadi. Umuman olganda bu zे-rikarli uskunani ariq-pariqa osongina otib yuborish va nikellangan, xushchaqchaq, doimiy ravishda nekbinlikning ijobiy ko'rsatkichiga sozlab qo'yilgan.. Gratsianskiyga o'xshagan... milga almashtirib qo'yish mumkin.

– Bo'pti, kesatma, – kuldi Valeriy. – U bilan tez-tez ko'rishib turasanmi?

– Ba'zan uyimga kelib qoladi, ammo mehmonga hech qachon chaqirmaydi. Onasi sal yoqimsizroq ayol. Uni eslasang kerak, peterburgdalik paytimizdan, buklama ko'zoynakli qora kampir?

– Albatta!.. oshnamiz-chi, uylanganmi?

– Nazarimda Moskvada hech kim bu kabi tafsilotlarni surishtirmaydi.

Yo'l bo'yи Lenochka jim borardi; u Valeriy haqida eridan ko'p bora eshitgan, lekin Valeriyning maqomidagi odamlarni yaqindan ko'rishga musharraf bo'limgan edi. Lift qavatlar orasida quruq ta-

raqlab, ularni yo‘lagida harbiy qorovul turgan, tashqi ko‘rinishidan turar joyga o‘xshamaydigan eski uyning eng yuqorisiga olib chiqdi. Va umuman binoning rasmiy sharoiti, ipak deraza pardalari va eshik-derazalar orasidagi devorlarga mahkamlangan o‘yma naqshli ko‘zgulardan to sovigan va yoqimsiz taomlar solingen aravaga qadar Valeriyning o‘ziga jalg etuvchi oddiyligi bilan ham, uning diplomatlik hayoti ne’matlari to‘g‘risidagi kinoyali oniy mulohazasi bilan ham hech qovushmayotgandi. Atrofdagi buyumlar, ba’zilari hatto zarhal edi, xuddi jarroh uchun tig‘ yoki suvoqchining andavasi kabi uning kasbining muqarrar anjomi hisoblanadi va Lenochka katta ishlar uchun bunday asbob sifatida dehqonning anjomlarga qashshoq kulbasini ham olish mumkin deb o‘yladi, oxirgi kunlarda bu kabi o‘y-xayollar ayolni tark etmayotgan edi.

– Negadir sizning oilangiz ko‘rinmaydi? – gap qotdi Lenochka, ichkiliklar uchun javonlar qo‘yilgan, zarraday garddan xoli, yaxshi yoritilgan xonalarni nazardan o‘tkaza turib.

– Yo‘q, mening oilam Leningradda, doimiy xonadonimizda. Men bu yerda bir xorijiy mamlakatdan boshqasiga ketayotib yo‘l-yo‘lakay to‘xtab o‘tdim. Farzandlarimni butun dunyo bo‘ylab ergashtirib yurish oson emas... agar biror yerda muqimroq o‘rnashib qolsam, u holda... – shama qilib o‘tdi u qadahlarga musallas quyaturib va telefonga ko‘z qirini tashlab qo‘ydi. – Umuman olganda, mening o‘g‘lim va qari ammam bor, xuddi sendagiday. Esingdami, Ivan, biz bir kuni, o‘n yetti yil muqaddam institutdan chiqaverishda u bilan uchrashib qolgan edik, o‘shanda u meni o‘z ismim bilan chaqirgan edi... nahotki unutgan bo‘lsang?

– O‘g‘lingiz katta bo‘lib qolgandir? – unga achinib, suhbatga qo‘sildi Lenochka.

– Xuddi shu bugun to‘qqiz yoshga to‘ldi. – Valeriy shishadan musallas quyaturib, sukut saqladi, xayolan o‘g‘liga xayrli tun tilab xayrlashar ekan, to‘q rangli musallas oqimi bir necha lahzaga to‘xtadi. – Agar vaqtim imkon bersa, qaytishimda ularning yonlariga kirib o‘taman. Xullas, mening hayotim dabdabali o‘tyapti, Ivan: ziyofatlar, koshonalar, mulozamatlar... frak kiygan salobatli nahanglar va beligacha yalang‘och keksa suv parilari.

– Menga quymay qo‘yaqol, men deyarli ichmayman... – uning qo‘lidan tutib qoldi Ivan Matveich va o‘rniga yashirin bir diqqat bilan

tinglab o'tirgan xotinining qadahini uzatdi. – Sen bunga quyib ber, isinib olsin. Qani, o'z uchrashuvlaring haqida mufassalroq gapirib ber-chi... podshohlar bilan ham ko'rishganmisan?.. ularning hayotlari qanday va ular nimalar bilan band?

Ular o'g'illar uchun va avlodlar uchun ichib, ularning sof yerda chiroyli yashashlarini tiladilar.

– Hozircha podshohlar uchragani yo'q... va hozir gap podshohlarda emas, – o'ychan takrorladi Valeriy, qadahni joyiga qo'yaturib, va to'satdan suhbat mavzusini keskin o'zgartirdi: – O'zing mazkur o'rtoq haqida qanday fikr dasan?

– Kimni nazarda tutyapsan?

– Sening tanqidching haqida gapiryapman, Sasha Gratsianskiy to'g'risida. Aytgin-chi, u halol odammi?

– To'g'rirog'i – baxtsiz odam. Ochig'ini aytganda, u ko'tarilib kelayotgan, lekin... chorasisz darajada besamar yulduz. Fir'avnning yettita oriq sigir haqidagi tushi yodingdami?

Valeriy uning pichingini e'tiborsiz qoldirdi.

– Gazetalarda o'qiganlarim bo'yicha aystsam, uning hujumiga uchragan yolg'iz sen emassan.

– U Tulyakovni tor-mor qilib yuqoriga ko'tarildi... o'z qalamini shu tarzda sinovdan o'tkazdi. Agar ilmiy ishlarimizni kuzatib borgan bo'lsang, u o'rmon uchun ijobjiy bo'lgan yoki hech bo'lmasa zarraday darajada samarador bo'lgan birorta ham taklifni ilgari surgan emas... Har holda bu fuqaroning jallod kundasiga olib boradigan birorta ham g'oyasi yo'q!

– Qaysi idishga quysang, o'shaning shakliga kiradigan beqaror suyuqlik... shundaymi?

– To'g'ri... lekin men shuni qo'shimcha qilgan bo'lardimki, bu suyuqlik – o'zi quyib qo'yilgan shisha idishni ham eritib yuborguvchi shubhadan tarkib topgan ftorli nordonsuv. Sizib chiqadi-yu, yerga hech qanday izsiz singib ketadi... Bilasanmi, o'zining shaxsiy samarasizligi doimo omadsizlar uchun kattalashtirib va kichiklashtirib ko'rsatuvchi oina vazifasini o'tab kelgan, ular o'sha oina orqali zamondoshlarining muvaffaqiyatlarini ko'rib o'tirishgan. Ilm-fanning har qanday sohasida bizning Sasha shu ishini qilaverган bo'lardi, tiyiqsiz inkorming tashnaligini qondirib yurardi. O'ylashimcha, shu

bois uning inqilobdan avvalgi yoshlar haqidagi kitobi chalaligicha qoldi... holbuki, u arxivlarda bir yil qog'oz titib o'tirgandi...

– Buni ilgariroq eshitmagan ekanman... Chamasi o'zining Yosh Rossiyasi bilan bog'liq masxaralangan tavakkalini yuvib tashlashga urinib ko'ribdi-da, esingdami? – jonlandi Valeriy. – Uning kitobidan g'aflatda qolibman, oshna. Qachon chop yettirgan edi?

– Kitob umuman chop etilgani yo'q... bizning tarixchimiz o'zini o'rmon statistikasiga urib ketdi, – dedi Ivan Matveich va birdan rangidan qon qochdi. – Kechirasan, Valeriy, u bilan-hisob kitob qilishga chog'lanib qoldim chamasi... Har holda u qiziqarli notiq, bundan tashqari, qalami ham o'tkir... iste'dodli va kamtarin inson. Yaqindagina u anchayin nufuzli lavozimni olishdan bosh tortdi...

– Balki... o'ta sinchkov jamoatchilikning jiddiy e'tibor qaratishidan qo'rqqandir? – so'ng Valeriy Ivan Matveichning mulohaza qilib olishiga yetarli fursat berdi, ammo unisi sukutda edi. – Senga o'z qiziqishlarimning vajhini aytib beraman. Boya sen xorijdagi uchrashuvlarim haqida eslading va mening xotiralarim tubidan juda g'alati bittasi qalqib chiqdi... – Valeriy o'sha paytlarda xorijda xizmatini bajaruvchi sovet xodimi uchun anchayin oddiy hol bo'lgan kichik bir sarguzashti Vixrovlarga so'zma-so'z gapirib berdi. Voqeа Italiyadagi sokin bir shaharchaning sohilbo'yida sodir bo'lgan, Valeriy u yerda navbatdagи xalqaro anjumanda uch kunlik tanaffusni o'tkazayotgan edi. Tizzasida aynan Vixrovning kitobchasi bilan tushlik paytiga qadar bo'sh vaqtini o'tkazib, yotma suyanchiqli oromkursida o'tirgan ko'yi, uzoqlarda, ko'zni qamashtiruvchi kunduzgi qumloq sohilbo'yidagi rang-barang gavdachalarni kuzatardi. Uzoq vaqt davom etgan g'irt foydasiz mu nozaralarning charchog'i oralab bolalarning shodon to'polonlari, qирг'oqqa urilayotgan to'lqinlarning shovullashi, boshining tepasidagi palmalarning shitir-shitiri va kurortlarda albatta uchraydigan boshqa tovushlar eshitilib turadi. Qayerdadir yaqin atrofda, shundoq orqa tomonida mayda bitta tosh shaqirladi va Valeriyning oldida qotmagina, ko'rinishidan ancha izzattalab, ochiq rangli, yenglari to'zigan, ammo sarishta, endigina tozalash korxonasidan chiqqani sezilib turgan pidjak kiygan chol paydo bo'ldi. U hech narsa sotmoqchi emas, pul ham so'ramadi, Valeriy oldindan kutganiday, biror ko'mak yo hamdardlik ham istagani yo'q, xuddi o'zini tanib olishlarini xohlab turgan odamlar eslatishga urinadiganday bir nigoh bilan uzoq tiki-

lib turdi. Valeriy sabrsizlik va taassuf ishorasini qildi. Shunda qariya ikki barmog'ini harbiy ko'nikmaga binoan bosh kiyimining ayvoni chekkasiga tekkizib ehtirom bildirgach, qarshisida janob Kraynovni ko'rish sharafiga muyassar bo'lib turganini aniqlashtirish maqsadida samimiyat ila so'roqlandi; demak, taniqli rus bolshevikni shaharchada payqab ulgurishibdi. Savol fransuz tilida berildi, biror-bir shevasiz, shu bois Valeriy hozircha tanib olishga yo'naltiruvchi hech qanday alomatlarni ko'rmadi, faqat, ochig'i, g'ashga tegar darajada tanish, sarkash nigohi bundan mustasno, u o'zining ko'zlarini va irodasini falajlangan qurbanining miyasiga joylayotganday qattiq tikilib turardi. Cho'l havoning ra'yi yaxshiligidan qoniqish bildirib, yoshlikdagi g'am-tashvishlar janob Kraynovning salomatligida va yashnab turgan qiyofasida o'z asarini qoldirmagani borasida quvonchini izhor etdi. «Kamina Sizdan shuni iltimos qilar edimki, men doimo qalban uni hurmatlashimni janob Gratsianskiyga yetkazib qo'ysangiz. Anchayin tinib-tinchimas bo'lsa-da, ammo... juda serqirra er yigit. Ha, ha, men o'shaman, aynan o'zi... – taassuf bilan u endi rus tilida tasdiqladi gung qotgan suhbatdoshiga. – *Tout passe, tout casse, tout lasse*»¹. Qo'li bilan bir nomaqbul harakat qilgach, keksaygan yoshini ham va vatangadolikda o'tgan yillarning alamini ham o'zida bir xil namoyon etguvchi qadamlar bilan kalovlanib nari ketdi.

– Bilasanmi, u kim edi? Baribir topolmaysan... Chandvetskiy!

Talaffuz etilgan ismda shundayin bir og'ir ezuvchi kuch zohir edi-ki, Ivan Matveich oshnasiga tikilib turishda davom etsa-da, ammo nigohi undan singib o'tib, butunlay boshqa narsani ko'rib turardi. Xotirasi voqe'lanib, ko'z oldida hali o'sha yillardayoq anchayin katta yoshda bo'lган jandarmeriya podpolkovnigi namoyon bo'ldi, ovozalarga qaraganda, u Stolipinning erkasi bo'lган emish va yana deydilarki, o'sha paytdagi mustabidchilik namoyandalarining Stololipindan keyingi eng aqllisi ham bo'lган ekan. Misol: bodga uchragan barmoqlarini katta, deyarli bo'sh miz ustida chalishtirganicha, u beparvo, loqayd bir ohangda, tish orasidan Vixrovga zotlarning biologik jihatdan tengsizligi va binobarin, bashar jam'iyatining qaror topib kelgan qonunlari mustahkam ekani haqida, – haddan tashqari qiziq-qon va shul vajhdan otalarcha qattiq rahnamolikka muhtoj yoshlari

¹ Hammasi o'tkinchi, hammasi yemiriladi, hammasi me'daga uradi (frans.).

Rossiyani yetaklab ketayotgan jarlik haqida va qalbda tizginsiz qarshilik ko'rsatish ruhini paydo qilguvchi yana allanarsalar to'g'risida nimalarnidir salmoqlanib uqtiradi. «Siz hayotni poklamoqchisiz, janob Vixrov... ammo mutlaq sof unsurlar faqat komyogarlarning shisha idishlarida mavjud bo'ladi va ko'pincha ular jam'iyatga keng iste'mol uchun mutlaqo imkonsiz bo'lgan narxlarda taklif etiladi... ularning qimmat bahosidan qo'rqmaysizmi?» – shivirlaydi u zerikkan vasvasakor qiyofasida va tergovning avjida Ivan Matveich tasavvurida o'z oldida turgan birinj bardoq ichidagi g'oyibiy qalamni sindirib o'tirdi.

– Xotirasi qanaqangi kuchli ekanini qaragin-a!.. – jirkanish hissi bilan hayron bo'ldi Ivan Matveich. – Vaholanki, qancha-qancha birodarlarimiz uning qo'lidan o'tgan edi-ya?.. – Menga qara, axir u g'o'labir, gavdasi kuchli odam edi-ku.

– Demak, qariganida qurib bitibdi... gap bunda emas, og'ayni! Esimda, Enasoyda ekanimda menga maktub jo'natganding: Andryusha Teplov kabi va ... kabi – u butun mamlakatga tanish bo'lgan uzoq sharqlik mashhur xodimning ismini aytди, – xuddi o'sha jandarm janoblari seni ham tergov qilganini yozgan eding. Demak, unda juda katta tanlov imkonи bo'lgan... Ammo nima uchun u aynan Sashani esladi... Gratsianskiyni, u men bilan jinoiy aloqadorlikda bo'lGANI uchun o'ta yengil jazo olgan edi-a?

– Yo'q, Valeriy, – o'z dushmanini qat'iy himoya qildi Ivan Matveich. – Sen hozir dahshat bilan o'ylagan narsa haqida gumon qilish uchun agar nihoyati zarracha asos bo'lsa, u holda Chandvetskiyga o'zinikilarni sotishdan nima ma'ni bor? Shunchaki jandarm seni tanib qolgan va tinib turgan quyqum chayqalib ketgan... natijada, uning uchun yoqimsiz bo'lgan bizning taom to'la qozonimizga bir siqim qum tashlagisi kelgan. Xuddi shu narsani u bir tomonlama imzosiz xatda senga yoki menga yozib yuborishi ham mumkin edi, umidi esa: xat manzildagi egasiga yetib borishidan avval kerakli idoralardagi odamlar o'qishgan bo'lardi... salgina shama qilsa bo'ldi edi, jin chal sin uni, ko'z qiri bilan salgina nazar tashlash bilan... shu ishni qilsa... qolganini soddadil tergovchi tugallab qo'yaqolardi! Rostga o'xshashi uchun bizning mushketchilarimizdan eng zaifini tanlabdi. Mening nazarimda, bu juda tuban va kuchsiz g'azab, va xayriyatki, u faqat o'zi yonayotgan joynigina kuydiradi.

– Ehtimol, aytganlaring to‘g‘ridir... – bu fikrga darrov qo‘shilqolmadi Valeriy va mehmonnavoz mezbonlik vazifasiga qaytdi.

Lenochka Gratsianskiy haqida juda kam narsa bilgani uchun suhbatda ishtirot eta olmasdi, ammo vijdoni munofiqlikdan iborat kishilarning begona muhokamalar va mulohazalarni o‘z ongida darhol o‘lchab-bo‘ylash odatiga ko‘ra, o‘tmishdagi qilmishlar shuncha yillar o‘tganidan keyin ham shubha-gumon uyg‘otishi mumkin ekanı to‘g‘risidagi fikrdan u dahshatga tushdi. Suhbat mavzuyi Valeriyning g‘arb ziyyolilari bilan bo‘lgan uchrashuvlariga ko‘chgach, ayol o‘sha yerda ham o‘ziga bevosita taalluqli nimalarnidir topishning uddasidan chiqa oldi.

– Kaminada shundoq fikr uyg‘ondiki, – o‘z kuzatuvlari bilan jo‘ralashdi Valeriy, – Yevropada ko‘pchilik odamlar ijtimoiy siljishlarning muqarrar ekanini anglay boshladilar... tabiiyki, yillar o‘tishi bilan bu tafakkur voqeliklar ta’siri ostida o‘sib boradi. Bular sirasiga hech qachon burjuaziyaga daxldor bo‘lmagan, ammo hech bo‘lmasa urush keltirgan baxtsizliklardan, odamlarning muhtojligidan, o‘z yaqinlarining g‘ofilligidan va nihoyat fojiaviy bo‘linib ketishlardan o‘ziga rizq chiqarib oluvchilarni ham kiritish lozim. Insonlik o‘tlog‘ida ko‘plab shunday o‘tlar borki, ular ham o‘z qurbanini qamrab olmaydi, balki bo‘g‘ib tashlaydi, xuddi qo‘schnisining kurtagiga o‘z so‘rgichi bilan yopishib oladigan tekinxo‘rlar kabi. Xotiram pand bera boshladi... nimaydi anavi... bizda bor edi-ku o‘shanaqasi?!

– Maryannik, Melampyrum nemorosum, – eslatdi Ivan Matveich, do‘sti uchun juda xursand bo‘lib – u o‘rmonshunoslikni tashlab ketgan bo‘lsa-da, ammo fikrlash jarayonida misollarni ularning umumiylarining qozonidan suzib olmoqda edi. – Xuddi shu ish bilan Rhtnantis apterusning, ya’ni dala shiqildog‘ining oilasi ham shug‘ullanadi.

– Ha, ana, aynan shiqildoq, – quvonib ketdi bu topilmadan Valeriy va o‘zi izoh berishicha, G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida madaniyat borasida keng tarqalgan mavhum afsatalarni, ya’ni ma’nosiz shaqirshuqr gaplarni nazarda tutib. – Afsuski, ko‘proq tafakkur qiluvchilar haqiqat tomon yayov yoki qadimiy velosipedlarda yo‘l oladilar, holbuki ertangi kunga eltuvchi tezyurar markablar allaqachonlardan beri mavjud... Sizni zeriktirib qo‘ymadimmi, – kutilmaganda Lenochkaga murojaat etdi u.

— Aksincha, men birorta ham so‘zingizni o‘tkazib yubormaslikka harakat qilyapman... — Va o‘z xayollari bilan band bo‘lgan paytida fosh etilgani uchun yuzlari qizarib ketdi.

— Misol uchun, taniqli bir fizik meni o‘zining bir qo‘lbola kashfiyotidan xabardor etgandi, go‘yo emishki, odamlar jamiyatidagi ijtimoiy munosabatlar uning yanada murakkabroq iqtisodiyotni talab etuvchi miqdoriy o‘sishi davomida muqarrar o‘zgarishi lozim ekan. U hatto kommunizm davrida uning bu fani cheksiz tadqiqot imkoniyatiga ega bo‘lishi taxminini tasdiqladi, lekin... emishki, bu holat keyinroq yuz bersin, men yo‘q bo‘lib ketganimdan so‘ng. Bunday kimsalarni o‘zlarining soxta erkinliklaridan ayrılib qolishdan qo‘rqish hissi ushlab turadi... Odatda oiladagi eski divandan ayrilish shunaqa bo‘ladi, mayli, simlari o‘ynab, tikanday chaqib yotgan bo‘lsin, tirqishlaridan yoqimsiz mahluqchalar o‘rmalab chiqib tursin, axir har holda uning ustida yarim asr davomida cho‘zilib yotganmiz-da. Ha, Ivan, kapitalizm ijtimoiy ifloslikka aylanib bormoqda. Mohiyatan, men unga o‘shanda, sizning yagona chorangiz bor, degandim: o‘z qo‘rquvingizga qarshi borish.

— Nima, unga nima dedingiz? — hayajondan yonib va oldinga engashib, so‘radi Lenochka.

— Qo‘rquvingizga qarshi boring, dedim unga... toki nozikta‘b afandilar uchun munosib koshonalar bunyod etilguniga qadar... o‘zingizdagi tuban, ijtimoiy o‘zgarishlardan rosmana jismoniy azob bilan qo‘rqish hissini, ko‘pincha tasavvuringizzagina mavjud bo‘lgan yo‘qchiliklardan, inqilobning qora nonidan, oddiy xalqning tiriklik quvonchidan xavflanguvchi qo‘rquvingizni yengib o‘ting, dedim. Busiz g‘alaba ham bo‘lmaydi, o‘zining tor qobig‘ini sindirib chiqishga jur‘at eta olmagan jo‘janing sho‘ri quriydi. Men ularning o‘rnida bo‘lsam, o‘ylab ham o‘tirmay, o‘lar-tirilarimga qaramasdan, o‘zimning kelajagim sari yugurgan bo‘lardim... — Valeriy afsuslanib xo‘rsunganicha, bosh chayqadi. — Mayli, bu gapni to‘xtataylik. Yaxshisi, menga o‘z faoliyatindan gapir, meni changalzor o‘rmonlaring bo‘ylab sayr ettir... mezbonlik qil!

— Ular kam axir, yaqin atrofda bunaqa o‘rmonlar oz qoldi, — nihoyat so‘z navbatini o‘ziga oldi Ivan Matveich va shuning uchunmikan, xotinining sinovchan, go‘yoki ikki erkakni o‘zaro taqqoslayotganday nazarini o‘zida his etib turdi, kechaning qolgan qismida u yaqin

kelgusi o'n yilliklarga taalluqli fikrlarini bayon qilib, juda gapdon bo'lib ketdi.

5°

Roppa-rosa yarim tunda telefonda bo'lib o'tgan suhbatidan keyinoq, xonadon egasi o'z mehmonlarini nisbatan ancha erta uylariga olib borib qo'ydi; erta tongda Ivan Matveich xizmat safariga jo'nashi kerak edi... Falokat ikkinchi kunning oyoqlarida, Taiska narigi ko'chadagi qo'shnining uyiga xamirturush so'ragani ketganidagi bir soat ichida sodir bo'ldi. Sal avvalroq ham hech narsa kulfatdan darak bergani yo'q edi; aksincha, Taiskaning ko'rgazmasicha, kunning o'rtalarida, naq uch yillik uzilishdan so'ng, Taiska oshxonadlik paytida ikki marta, go'yo ovozini sinovdan o'tkazayotgandek, Lenochkaning xirgoyisi eshitilibdi, ammo Polya uchun emas, uning o'zi uchun aytilgan qo'shiq, – boshlanarmish-da, uzilarmish. Taiska sho'rlik soddaligiga borib, ishlar yaxshilikka qarab yura boshlandi deb o'yabdi. U qo'shninikidan qaytganida esa, Lenochka uyda yo'q edi. Xonadon bo'sh, eshik chala ochiq, tag'in qulfniz buzib yurishmasin degan-da, hamma narsa o'z joyida turibdi, shu jumladan Lenochkaning sevimli buyumlari ham, bundan esa, yosh beka Polya bilan tungi izg'irinda sof havodan nafas olgani chiqishibdi, degan xayolga borish mumkin edi-yu, ammo bolaning buyumlari g'oyib bo'lgan va bundan xona xunuklashib, fayzini yo'qotgandi.

Taiska o'zining taxminlaridan vahimaga tushib, qochoqlarning ortidan quvishga tutindi; hay-huy deguncha Vixrov uyga qaytishi kerak edi. U sarosimada atrofdagi hamma ko'chalarni yugurib chiqdi, Taiska endi qidiruvning samara bermasligini tushunib bo'lgan va ukasining oldida o'zini oqlash uchun vajh topolmayotgan edi. Tunga yaqin u xonadonga pisibgina kirib kelganida Ivan Matveich allaqachon uyda edi. U o'z xonasida yerga cho'zilib yotardi, qo'llari ikki yoni ga yoyilgan, ammo dabdurustdan bukriginaning xayoliga kelganiday o'lik emas ekan, shunchaki mast bo'lib yotibdi, shunaqangi darajada mastki, hatto o'z opasini ham tanimadi. Miz ustida Gratsianskiy bilan bo'ladigan dilkash suhbat uchun atab qo'yilgan aroq shishasi turardi. Uning yuzida xuddi tirishayotganday titroq ko'rindi, ammo bu o'choqda yonib turgan olovning yolqini bo'lishi ham ehtimol.

Ivan Matveich chalahush ahvolda edi; ichkilikka o'rganmagani uchun es-hushidan ayrilishi darrovgina kechaqolgani yo'q. Xuddi zaharlangan odamday, og'zidan so'zlari ko'piklanib chiqyapti va u bo'lib o'tgan ishlardan xabardor o'laroq, o'zining xushbaxt raqibi bilan so'zlashayotganini osongina anglab olish mumkin edi.

— Obbo, men bahslashayotgan ekanmanmi?.. — degan so'zlarni tu-shunib olish mumkin edi, agar sabr bilan qulqoq tutib tinglansa. — Unga siz bilan yashash yaxshi bo'ladi, lekin siz... siz meni talab ketdingiz, Osminov! Men taslimman: siz kuchliroq ekansiz... Men cho'loqman, shunchaki g'ussaga botgan... oddiy o'rmonchiman, siz esa shafqatsiz, aqli va navqironsiz. Mana, Gratsianskiy aytyapti: qachon millat haddan tashqari ko'p narsani o'zidan ajratib bersa, o'zi tobora xasis-roq, xudbinroq bo'lib borarverarkan... lekin mening zuvalam boshqa loydan qorilgan, ha-mmm, meni mehmon qilish uchun yegulik olib kelgani xonadan chiqib ketgan muallimning kursiga ilingan pidjagini urib ketmagan bo'lardim... shu tarzda! — Uning keyingi e'tiroflari tushunarsiz, ahamiyatsiz bo'lib, ovozi xuddi nam tortgan yog'och xumchadan chiqayotganday yoqimsiz eshitildi.

Begona odamlar uni bu ahvolda ko'rmasliklari uchun opa ukasini bir amallab kat tomonga, parda ortiga sudrab bordi, Polyadan qol-gan iliq sut bilan uni davolamoqchi bo'ldi; ertalab Ivan Matveichning ma'ruzasi bor edi, u esa institutdagi mashg'ulotlarni qoldirmaslikka harakat qilardi. Ammo Taiska to'g'ri mulohazaga borib, ukasi bir-muncha vaqt mana shu sarmast holatida yotgani uning o'zi uchun manfaatli degan fikrga keldi. Ayni shu paytda Gratsianskiy go'yo o'lik tanani tomosha qilishga kelib qoldi-yu, bukrigina unga rosmana qarshilik ko'rsatib, bir amallab eshikdan chiqarib yubordi. Tunning qolgan qismini u inisi cho'zilib yotgan yerdan topib olgan qog'ozdag'i qing'ir-qiyshiq satrlarni tushunib olishga tutinish bilan o'tkazdi. Hech qanday vergullarsiz, xuddi har yer-har yeri yonib ketgan kabi jumlalar bir-biriga qo'shilib ketgan Lenochkaning maktubi bir necha sahifalardan iborat edi, ammo bukrigina mizning ustini qancha titkilamasin, uning boshlanishini ham, tugallanishini ham topa olmadи.

«...Hammasi shundan kelib chiqdiki, men sizni sevgan emasman, Ivan Matveich, hech qachon... hatto o'sha safar ham, eslaysizmi? Siz avvalboshdanoq buni tushunishingiz lozim edi, axir siz shunaqangi jonkuyarsiz, sizni hamma qadrlaydi, talabalaringiz esa siz uchun

jonlarini bervorishadi. Osminov aytdiki, siz meni yolg'on so'zlashga majbur qilmaslik uchun, mendan hech narsa haqida so'ramagan emishsiz. Mana, hatto atrofdagi odamlar ham bilib turishibdi, ammo sizdan achchiqlanayotganim yo'q, siz ham uni so'kib yurmang, u sizni benihoya qattiq hurmat qiladi... Men sizni sevmaganim, sizni sevishga arziyidigan hech jihatingiz yo'qligidan emas, har qanday ayol sizni hurmatlab, sizga turmushga chiqqan bo'lardi, shunchaki men ishq-muhabbatdan nari edim. Xossatan men bilan siz qanday ham quvonch topardingiz? Xuddi tayyor tugunlab qo'yilgan bo'g'cha kabi umrimni bir joyda o'tirib o'tkazardim. Go'yoki soxta chipta bilan bayramga boraman-u, to'satdan nazoratchi – «chiptangizni ko'rsating-chi, hurmatli fuqaro...», deb so'rab qolsa-ya, degan vahimadaman, – o'shanda ahvolim nima kechadi? Balki haydar yuborishmas, ammo uning bitta nazaridanoq uyat ichida suv bo'lib oqmaymanmi. Ehtimol shu turmushimga bir amallab chidagan ham bo'lardim, ammo hayotda judayam odam bo'lgim keldi, Ivan. Ichichimdan men ham yomon emasman aslida, ammo palid Zolotuxin meni bir umrga qattiq qo'rqtitib qo'ygani uchun bolaligimdan ayyorlikni odat qildim. Yo'q, boshqa chidolmayman men, chidolmayman, tushunyapsizmi, Ivan Matveich? Do'stingiz Valeriy Andreichga ta'zimimni yetkazib qo'ying... men o'z qo'rquvlarimga qarshi bori-shim uchun aynan u tugunimni yechib yubordi. Shu qarorga kelishim bilan esa bu dunyoda men qalban yengil tortdim: endi men uchun suv yanayam shirinroq, havo yanayam moviyroq. Meni hech qayerdan izlama, hatto yangi joyda o'zimning o'zligimni topolmagan taqdirimda ham endi qaytmayman. Sizga qanday kulfat yetkazayotganimni o'zim ham qattiq bilaman, Ivan Matveich, ammo cho'kayotgan odam xasga ham, boshqasiga ham yopishadi: sening qo'ling, sening hayoting men uchun shunchaki xas vazifasini bajarib berdi... va o'zim ham yengil tortdim, chunki qizimning ko'ziga bir umr tik qaray olishim kerak-ku. Agar u bilan ko'rishihsingga to'g'ri kelib qolsa, hamma gaplarni unga aytib yurmagin – Pashutinda men senga kuchukboladan ham battar osilib olganimni...»

... Taiskaning hikoyasi shu yerda to'xtadi.

– Xudoning qahrini keltirish kerakmas, hammasi silliqqina ko'chaqoldi. Hech qaysimiz o'lib qolganimiz ham yo'q. Avvaliga odamlar biror narsani payqashmadi, keyinchalik esa ko'nikibam

ketishdi, – dedi Taiska gapining oxirida. – Uning irodasiyam mustahkam, Ivanni aytaman. Oyog‘ini temir kesib ketadimi, kim bilandir rosmanasiga mushtlashadimi, bola paytidan ko‘zini siydigini oqizib kelgan emas. O‘sha safar ham shunaqa bo‘ldi: ertamatan ma’ruzasiga sal kech qoldi, xolos.

- Men o‘shanda necha yoshdaydim, Taisa amma?
- Olti yoshga o‘tib qo‘yganding. Uydan ham o‘zingni oyoqchalaring bilan yurib chiqib ketgansan, o‘zimni mittiginam.

Darvoqe, uning bayonida inisining oilaviy baxtsizligi yanayam oddiy sodir bo‘ldi: masalan, yosh bolalar uchun moslashtirilgan jahon tarixi shunaqa ko‘rinish olgan bo‘lardi. Endi Polya rashksiz yoki nafratsiz, faqatgina onasi uchun qo‘rquvda ammasining qissasining davomini kutmoqda: Vixrovlar oilasida o‘sha sirli bolaning qanday paydo bo‘lib qolgani unga mutlaqo tushunarsiz edi. Umuman olganda, dunyodagi barcha begonalarning birortasi ham Seryojaning kelib chiqishini endi eslolmasdiyam, faqatgina, qulay fursat kelishi bila-noq, biror-bir nufuzli guvohning hozirligida o‘z raqibini yer tishlatish uchun o‘zi bilgan narsani qo‘ynida asrab yurgan Gratsianskiy bundan mustasno edi.



TO'QQIZINCHI BOB

1

Lenochka qochib ketganidan so'ng ham Ivan Matveichning uyida hamma narsa o'z holicha qolaverdi, faqat endi, uning o'rmon bilan ko'p yillik ayrilikning va kasbi tufayli tobora ko'payib borayotgan musibatlariningva eski, qish oylarida sovib ketadigan xonadonidagi noqulayliklarning o'rmini bir qadar to'ldirib turgan o'sha eng asosiyisi yo'q edi. Qo'shnilarga va do'stlarga go'yoki shifokorlar Yelena Ivanovnani Misrning shifobaxsh qumlaridan ko'ra ikki baravar davokorroq bo'lib chiqqan o'zimizning sovet qaynoq qumlarimizga jo'natishdi, deb aytildi. Kechalari opa-uka xuddi avvalgiday, kun yangiliklarini jo'ralashish uchun yoki uchinchi, bo'sh oromkursi hozirligida qandaydir biror asarni ovoz chiqarib mutolaa etish uchun jamlanar edilar. O'sha oromkursining ustida Polinaning to'qib bitrilmagan nimchasi yotibdi, shu bois ham, xonodon bekasi go'yoki bir daqiqaga narigi xonaga chiqib ketganday, unga hech kim o'tirmasdi. Ammo o'shandan beri xuddi kelishib olinganday, Lenochkaning va Osminovning ismlari bu xonadonda talaffuz etmay qo'yilgan. Ivan Matveichning butun ruhiy sabotiga qaramasdan, agar uning g'amini va butun vaqtini to'lig'icha yamlab yuborgan jonli ishi bo'limganida, qo'sh yo'qotish – ham qizidan, ham xotinidan ayrilish uning uchun fojiali oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin edi. To'g'ri, o'rmon tuzilishi va o'tish davriga nisbatan qarashlarning mubhamligi munosabati bilan, u darslik yozishni to'xtatib qo'ydi, buning o'rniga o'sha yili uning qalami ostidan o'n beshtalar atrofida ajoyib maqolalar chiqdiki, Gratsianskiy ularni g'ajib-chaynashga arang ulgurmoqda edi.

– Meni mayda-chuyda narsalaring bilan ezib tashlading, Ivan! – dedi u yarmi hazil-yarmi chin qilib, Vixrovlarnikida mehmonda ekanida. – Yashirmayman, sening yirik asarlaring menga ko'proq yoqadi. Sening birinchi kitobing kamchiliklarga ega bo'lsa-da, ammo –

teran va jasoratli: bu-chi, og‘ayni, o‘zimizning o‘rmon mumtoziyati! Ammo undan tezgina shuhratni kutmay qo‘yaqol. Bunaqa kitob zamondoshlar tomonidan qadrlanmaydiganlari sirasidan, meni tushunyapsanmi – nima uchun?.. Darvoqe, xotining haqidagi aytilayotgan gap-so‘zlar rostmi? – so‘radi-yu, uning qulog‘ining narisiga – qiya nazar bilan tikilib qoldi.

– Mana endi o‘zimizning shimoliy o‘rmon xo‘jaligining yetilib turgan masalalari bilan jiddiy shug‘ullanmoqchiman.

– Seni xatarli mavzularga tortaverar ekan-da, oshna! – shubhagumon aralash hayratlandi Gratsianskiy. – Qara, tag‘in uzilib qolmagin... Mana oilangdagi ko‘ngilsizliklaring bo‘la turib ham, sen xuddi Afrikaning baobabi singari sabringda mustahkam turibsan. Xotining uzoqqa jo‘navordimi?

– Men shon-shuhratning ortidan quvmayman. Men o‘zimizning sovet hokimiyatidaman... men sha’n-shavkatsiz ham shundayman.

– Haa-a, odamovi bo‘lib ketyapsan, Ivan...

Vixrovning xotini ketib qolganini atrof javonibdan eshitgan tabalar professornikida kamroq to‘planadigan bo‘ldilar... taxminan biror oylar o‘tib, birinchi bo‘lib, Osminovning o‘zi keldi va eng ajablanarlisi, o‘zining diplom ishi bo‘yicha emas, buni aytishga qanday beti chidadi ekan – ustozini sog‘inganidan kelganmish. Umuman olganda, u ehtiromli, quruq muomalali, jindaygina ozib qolganday edi, o‘zining xijolatini hech jihatdan bildirgani yo‘q, shu bois Taiska hozirgi yoshlarning bunday shafqatsiz irodasiga va sabotiga hayron bosh chayqab turardi. O‘z tomonidan Ivan Matveich ham bo‘lgan voqeа haqida bir og‘iz churq etmaslikka o‘zida matonat topa oldi. U Osminovni o‘zining o‘rmonshunoslik borasidagi dunyoqarashlarning eng yaqin vorislari qatorida sanashda davom etmoqda edi, boz ustiga ilmiy muhitda aynan oktabr avlodlarini chollardan ajratib turadigan xo‘jayinlik hissi, mustahkam kuch-quvvati tufayli uning katta muvaffaqiyatlarga erishishini bashorat qilardi. Umumiyl ish faoliyati ikkovlari uchun ham shaxsiyatlardan ustun turardi, binobarin, uning ikkinchi tashrifi oxirlarida Ivan Matveich shogirdidan u aynan hozirgi sharoitida moddiy quvvatlovga muhtoj ekani yo yo‘qligi haqida qo‘polroq ohangda so‘radi. Osminov ustoziga tikilib qaradi, ochig‘i, endigi holat uchun juda o‘rinsiz bo‘lsa-da, to‘lqinlanib, uni bag‘riga bosdi va chop etish uchun qabul qilingan bitta taqrizi uchun haq ol-

guniga qadar kichikroq miqdorda ustozidan pul oldi. O'sha safardan keyin u muallimining oldiga tez-tez keladigan bo'lib qoldi va shunday holat yuzaga keldiki, dasturxonagi choy endi kichikroq bardoq-dagi aroq, Taiskaning o'zi tuzlagan sho'r bodring va ikki bo'lak qora non bilan almashindi, – achchiqni ham achchiq kesarkan-da. Turmushning ahamiyatsiz muammolari muhokama etilguvchi bunaqangi faylasufona ziyofatlar aql va bilim o'rtasidagi olishuvlarga o'xshab ketardi va bu janglarda Osminov o'zining shubhasiz o'sib borayot-ganini va shuningdek, vijdonining yengilmas xotirjamligini namoyon etardi. Qandaydir uyatga yo'g'rilgan kuch Ivan Matveichni o'zining xayoliy raqibi sari tortaverardiki, ehtimol bu uning xotininining laz-zatbaxsh, uyqusiragan ko'zlariga har tong to'yib boqadigan odamni ko'rishga bo'lgan ehtiyojdir.

Deyarli yarim yil mobaynida Ivan Matveich Lenochkaning liboslarini, ich kiyimlarini, ko'p ham kiyilmaganlarini, albatta, olib ketishini Osminovga maktub orqali yozib yuborish yoki shaxsiyatiga tegmaydigan tarzda shaxsan taklif etish borasida ikkilanib yurdi; bu ish yoshlarni hozirgi vaziyatlarda moliyaviy qiyinchilikka solib qo'yguvchi sarf-xarajatlardan xalos etgan bo'lurdi. Nihoyat professor bu ishni yarim hazil bilan, erkakchasiga bajarishga qaror qilib, gapni uzoqdan boshladi: mamlakatdagi yengil sanoatning ahvoli, kiyim-kechak mahsulotlarining yetishmasligi va shu kabi narsalar... Va muallim endi yurak yutib maqsadga o'tmoqchi bo'lganida, shogirdning o'zi kutilmaganda undan Yelena Ivanovna yangi joyda qanday o'rnashib olgani to'g'risida ma'lumotga ega ekani yo yo'qligini so'rab qoldi. Ivan Matveich bir necha lahma Osminov cho'bug'ining tutunidan go'llarcha ko'z uzolmay qoldi va ahmoqona umid uning yuragini g'ijimladi... ammo buning ortidan dahshatli sarosima vujudini kuydirib o'tdi; u Osminov bilan qolgani yaxshi edi! Ulardan boshqa, ikkovlon soxta raqiblardan tashqari, Lenochkaning dunyoda hech kimi yo'q edi va uning maktubidagi hamda avvalroq – devor ortidan eshitib olgani suhbat orasidagi sirli shamalar mana endi oydinlashdi. Ehtimol, u o'zining maqolachalarini imzolayotgan chog'larida, karam sho'rvasini ichib, Osminov bilan berkinmachoq o'ynab o'tirgan paytlarida asov daryo muz ostida xotininining jasadini sudrab borayotgan bo'lgandir. Qizi haqidagi xotiralari Ivan Matveichni biroz xotir-jam qildi-yu, ammo mavhumlik azobidan xalos etolgani yo'q.

Tanish-bilishlarning manzillari bo'yicha yozma qidiruvlar hech narsasiz tugadi; Lenochkani Yengadan, uning barcha baxtsizliklari ning eski o'chog'idan izlash na o'zining va na opasining kallasiga keldi. Ish keyingi yilning ko'klami oxirlaridagina oydinlashdi...

Taiska uqlashga tayyorgarlik ko'rib turgan bir pallada tashqaridan xijolatli, uzilib-uzilib taqillash eshitildi va chala ochiq eshikning tirqishidan nimqorong'i zinapoyada Taiska o'zining yoshidagi, ulkan gavdali, qishloqcha ko'rinishdagi soqoldor odamni ko'rdi; u xiralik bilan, betinch bir ovozda Ivan Matveichning huzuriga ijozat so'rab turardi. Tungi mahal bo'lgani uchun va uylari ovloq bir yerda joylashgani boisidan Taiska eshikni shartta yopib olishi joiz edi va u vaqtini cho'zmasdan shunday qildi ham. Idish-tovoqlarni yuvib bo'lgach, u qo'rquvlaridan xalos bo'lish uchun yana tashqariga nazar soldi va endi hech narsani ko'ra olmadi: faqat yosh bolaning zaifgina hiqlagan yig'isi zinapoyadagi tinchlikni buzib turardi. Ayni o'sha payt uylarida Gratsianskiy o'tirgan edi; suhbat ko'ngildagiday o'tmadi va mehmon sog'lig'ini asrash uchun ertaroq uqlashga yotish odati-ga ko'ra xayrlashib turgan mahali edi. Eshikni Ivan Matveichning o'zi lang ochdi. Bemahal tashrifchi soqolini tizzasiga osiltirgan ko'yi zinapoyada o'tiribdi. Umuman olganda bu yerda ular ikkovlon edilar – kattasining yonida, uning yengidan ushlab olgan yetti yoshlar-dagi o'g'il bola oyog'ida zo'rg'a turar, uni uyqu tortib ketayotgandi. Bola otasi kabi etik kiygan va ip-ipigacha ho'l bo'lib ivib ketgan chakmonchada. Ko'chada muzday bahorgi yomg'ir savalab turibdi. Ivan Matveich qovog'ini uyib, ular qayerdan va nege kelganlarini surishtirdi.

– Haligi, Yengadanmiz... ko'rib o'tay deb kirgandim, – tushuntirdi kattasi ko'zini yerdan uzmay, qo'lini esa, xuddi ko'zi ojiz odam kabi bolaning yelkasiga qo'yib turardi va oradan roppa-rosa uchta o'n yillik o'tib, uni hozir tanib olish qiyin bo'lgani bois xuddi fitnachi kabi, shivirlab, bir jinoyatdagi sherikning maxfiy xos so'zini aytgan kabi, xo'jayin chashma bo'yidagi tunni, keksa Kalina Timofeichning mehmoni bo'lganini eslay olarmikanlar, deya so'radi.

U xonadonga kirishga urinmadni, biror narsani tilangani ham yo'q va, to'g'ri, agar unga qat'iyroq buyurilsa, darhol jo'nab ketgan ham bo'lardi. Ammo hech kimga, hatto o'sha qochib ketgan aylolga ham, Ivan Matveich bolalikdagi bunday tafsilotlarni aytmagan edi va uning

o‘zidan boshqa faqat dunyoda birgina odam Kalinaning otasining ismini xotirlashi mumkin edi.

– Kiraver, Demid... Vasilyich, – titroq tovushda taklif etdi Ivan Matveich va mehmonlarni dahlizga o‘tkazib, chetlanib turdi.

– Yurtdoshlaringiz, shekilli? – shunchaki qiziqqan bo‘ldi dahlizda kiyina turib Gratsianskiy.

Yomg‘ir tufaylimi, ehtimol ataylabdir, u ketishga shoshilmassi, go‘yo bilmasdan o‘ziniki bo‘lmagan kalishga oyoq tiqdi, kirib kelganlar bilan salomlashmadi va ayni paytda o‘zicha hazil qilgan ham bo‘ldi, – mana, yarim tun bo‘lganda o‘rmon deputatining uyi-ga qanaqangi yurtdoshlar izg‘ib kelishar ekan. Uzoqni ko‘ra biluvchi Gratsianskiy, o‘sha paytdagi ayrim vaziyatlarni bir-biriga biriktirgan holda, Vixrovlarning o‘zları yarim yildan keyingina anglagan narsani darrov bilib bo‘ldi. U, tez orada ko‘rishihsanida o‘rmon bora-sidagi o‘zining noroziliklarini oxirigacha aytib o‘tishga va’da berib, nihoyat uyiga ketdi, – darvoqe, u aytgan uchrashuv o‘n ikki yildan keyin yuz berdi.

Ivan Matveich ish xonasiga qaytganida, Taiska uyqudagisi – charchog‘ining zo‘ridan o‘zining qo‘lidan tushib ketayotgan bolani yechintirayotgan edi. Bir daqiqadan keyin u Lenochkaning taqiqlangan, baland suyanchiqqli oromkursisiga yotqizildi va sovuqdan hamda charchoqdan chakkalari shishib ketgan, o‘choqda yonib turgan olovning yolqini yuzlarini dog‘-dog‘ qizil qilib ko‘rsatayotgan bola beparvo uxbayverdi.

– Sen bularni quritish uchun o‘choqqa yaqinroq qo‘y, – past ovozda opasiga buyurdi Ivan Matveich, bolaning yerda ho‘l iz qoldirgan kiyimlarini ko‘rsatib; keyin ko‘zlarini mehmoni tomon ko‘tardi: – Sen nega tilanchiday tik turib qolding, Demid Vasilyich? Chamasi, mendan ancha begonasirab qolibsan... ko‘pdan beri bir-birimizning ko‘zlarimizga tik qaramagan edik... qiziq, sen hozirda kimsan?!.. Qani yechinaqol, choy ichib, isinib olasan shu bahonada. Vorisingmi deyman?

– Xuddi o‘zi... o‘g‘ilginam, – kulib yubordi Zolotuxin boshini so-qoligacha egib va xo‘jayin nimani buyursa, navbat bilan shuni ado eta boshladi.

U Gratsianskiy ketganidan keyin yig‘ishtirilmagan miz oldiga o‘tirdi, ochofatlik qilmasdan har bir taomdan oz-oz totindi, bardoqda-

gi qaynoq choyni hayotning ulug‘ ne’mati sifatida ikki kaftida ancha vaqt tutib turdi. Miz ustidagi deyarli ichilmagan aroq uning nafsi ni qitiqlab turardi; avvaliga uni rad etdi, keyin bardoq tubiga ozgina quydi va birdan dadillashib, bardoqning naqshinkor hoshiyasiga qadar to‘ldirdi-yu... yana o‘ylanib qoldi-da, ichmasdan, dasturxonning o‘rtasiga surib qo‘ydi.

— Anchadan beri seni ziyyarat qilish fikrim bor edi, Ivan Matveich, mana, yo‘l-yo‘lakay o‘tib ketaturib, imkon tug‘ilib qoldi. Men asirlik dan qaytganimda, o‘rmonchilikdan ketganingga bir haftagini bo‘lgan ekan. Juda g‘alati: necha martalab rosmana ajalvor hujumlarga otil ganman, jahon urushini aytaman-da, hozir esa eshiging tagida yuragim betlamadi... ishonsang, bir martagini taqillatib qo‘yishga quvvat topolmadim, xuddi qo‘llarim akashak bo‘lib qolganday, it g‘ajisin bunaqa qo‘lni! Bir sirasi, o‘zimcha o‘ylab qo‘yaman, haydab yubormas axir deb. Bunaqada bu hayotda boshqa ko‘rishmasdanam o‘lib ketamiz-ku.

— Bu qanaqa tentaklik... xuddi shunaqangi, — o‘zidagi achinish hissiga qarshilik ko‘rsatganicha dedi Ivan Matveich. — Sen ich buni, tortinma, ichaver!..

Beixtiyor uning ko‘z oldida bolaligining so‘nggi manzarasi jonlandi: o‘rmon jizzg‘inining achimsiq suti, Yalanglikning janubiy qismi tepasidagi tutun qalpoq, Yevpatiyning iflos sahni, tashlab ketilayotgan yerdagi... bandargoh yonida g‘ujlangan bolalar to‘dasi... Ivan Matveich o‘zi sanab o‘tgan vaziyatlarni hozir oldida boshini egib turgan odam bilan bog‘lashga qanchalik urinmasin, haqiqiy Demidka baribir orqada qolib ketdi, bunisi esa mutlaqo notanish, Ivan Matveichga ma’lum bo‘lmagan kulfatlarning zalvorli yuki ni yelkasiga ortib olgan, hattoki qandaydir soxtaga ham o‘xshaydi. Uning qansharini kesib o‘tgan qandaydir yechilmas o‘y-xayol tugu ning chuqur ajini, mujmal nigoh, va nihoyat, notinch, qo‘rquvdan qaltirab turgan qo‘llar – hammasi Demiddan tarqalayotgan vahimani kuchaytirib turardi. Shu vajhdanmikan, mohiyatan ular so‘zlashishlari mumkin bo‘lgan narsaning o‘zi yo‘q edi, Ivan Matveich Kalinadan Vixrovlar Krasnovershyedan jo‘nab ketganlaridan keyingi turish-turmushini so‘ragan bo‘ldi. Ammo Demid o‘sandan beri ancha yillar o‘tib ketgani bois bunaqangi mayda-chuydalar haqida hech narsani xotirlay olmadi. Kalinaning qorovulkxonasi o‘rmonning tozalangan

maydonlari oqqayinlar bilan qoplama boshlagach, chamasi bir yilcha saqlanib turibdi, undan ko‘p emas, so‘ng xo‘jayindan keyin u ham erib yo‘q bo‘lib ketganmish, Kalinaning so‘zi bilan aniqroq aytganda erib, qandaydir boshqa mavjudlik shakliga o‘tib ketibdi.

– Hayoti bilan qayerda, qanday vidolashgan, bunisi noma’lum. O‘rmon hayvonining qabrim hech kim ko‘rmagan... balki rostdanam ular ajali yetgach, o‘zini o‘zi tuproqqa ko‘mib yuborar. Ana, toshlar ham dengizga o‘zi cho‘kadi-ku! – Demid Zolotuxinning fikrlari Yengadan allaqachonlar olislab ketgandi. – U yerlar jonimga tegib ketdi, Ivan Matveich, o‘shandan qutulish uchun sirtmoqqayam rozi bo‘lib ketdim, shunichun yangi joylarga ketish fikriga tushdim. Mana, il-diz-kurtagim bilan uzilib chiqdim va jo‘navordim. Ammo poyezdga chipta olish masalasi chatoq bo‘lyapti: yarim tundan navbatga turib olisharkan!

– Xotining vokzalda qoldimi deyman? – anglatib bo‘lmas darajadagi qattiq qiziqishini qondirish uchun shu savolni qistirib o‘tdi Ivan Matveich.

– Yo‘q, tul qolganman men, oltinchi yil bevalikdaman! Mana, shuni boisidan yigitchani senikiga olib kelish kallamga kelib qoldi, navbatlarda uyqusiz azobga qolib ketmasin dedim, bekatda chiptalar ni hal qilib olishim bilanoq, uni olaman-u – yo‘lga tushaman! U tan-tiq bolalardan emas, Seryoga deb cho‘qintirganmiz. Uyg‘onganidan keyin to‘polon qiladigan bo‘lsa, uni yaxshilab savala, unga baloyam urmaydi. Men bunga mana shunday qarayman, oxir-oqibatda butun qonun bilan sochidan changallab hurmatlab qo‘yanlaridan ko‘ra kichik yoshidan o‘rgatgan ma‘qul!..

– Hechqisi yo‘q, tonggacha bir amallab janjalsiz yashab turamiz, – tinchlantirdi uni Ivan Matveich, miz ustidagi taomni u tomon surib qo‘yib. – Qaysi o‘lkalarga yo‘l olishni mo‘ljallab qo‘yding?

– Joriy bo‘lib turgan hodisalar ta’sirida Amurga jo‘nashni tafakkur qildim. Devyer yozib yuborgandi: hududlari judayam keng ekan, hayvonlari dahshat darajada ko‘p, odamlari esa sanoqli deydi.

– Demak, yolg‘izlikni qo‘msab qolibsan-da, Demid Vasilyich?.. Boisi nima buni?

– Shu, urushdan og‘ir asorat qolgan. Yoshim ham aslida uncha katta emas, qirqdan endigina o‘tdim, kuch-quvvatimniyam sarflab bitirganim yo‘q, ko‘ngil esa – xuddi rosa bo‘kib zaharmiya

yegandayman... eslaysizmi, shunaqa qo‘ziqorinlar bor edi, jirkanch zamburug‘, Oblogda o‘sardi? Zora Amurda biroz to‘qchilik bo‘lsa...

– Hoziridan ko‘ra to‘qchilikni qayerdan topmoqchisan? – bunga shubha qildi Ivan Matveich. – Uying to‘la turfa yemish bo‘lsa, merosing omboringgayam sig‘may ketgandir, axir... otangdan qolgan uyurlar-chi, sog‘-omonmi?

– Rosa joyidan tutding-da! Xonumonim kuyib ketdi-ku axir, Ivan Matveich, bitta tunning o‘zida hammasini yong‘in yalab ketdi.

Uning iqrorida Ivan Matveich qandaydir mavhum chala haqiqatni payqaganday bo‘ldi.

– Rosa katta yong‘in bo‘lgan, chamasi?

– Yetarli darajada... jiddiy, – istar-istamas ohangda tasdiqladi Zolotuxin va ko‘zini yerdan uzmagan ko‘yi aroqni bir ko‘tarishda yutib qo‘yaqoldi, boz ustiga eng oxirgi tomchisi ham tomog‘iga to‘kilmagunicha bardoqni ushlab turaverdi. – Men achinayotganim ham yo‘q... zig‘ircha g‘ashlanmadim, o‘sha mol-mulkimga, usiz hayotim ham yengillashganday bo‘ldi: o‘z yo‘lingda erkinsan, o‘ngnichapni ayamay, hammasini tanqidlab boraverasan. O‘zimizning Shixanovdagagi sharobxonamizni marhuma xotinin bor paytidayoq yondirib yuborishuvdi, qo‘shnilar hazil qilib o‘t qo‘yishganakanmish: atrofda masharabozlar rosa ko‘payib ketgan. Otlarimga ham achinayotganim yo‘q, ularning turgan-bitgani tashvish edi.

Aroq uni karaxtlab qo‘ydi, qoshi orasidagi ajinlariyam tekislanib qoldi; u hatto bu borada maqtanishga tushdi, o‘sha yong‘indan keyin o‘ziga yaxshi bo‘lgani, hayoti yoqimli bo‘lib qolganini aytdi, chunki endi uning uchun yer yuzida hech narsa qadrli bo‘lmay qoldi. Birdaniga uning lablaridan zaharxanda kulgi uzilib chiqdi.

– Nimani eslab qolding, Demid Vasilyich?

Javob o‘rniga u o‘choqdagi ko‘mir cho‘g‘larining sirtida o‘ynayotgan ko‘k tilchalarga tikilib qoldi; kursilarga yoyib qo‘yilgan qo‘y terilaridan o‘tkir nordon bug‘ chiqib turibdi.

– Mening otaginam bilan ham shunga o‘xhash hangoma yuz bergandi... bu o‘tmishda bo‘lgan ish, endi so‘zlab bersam ham bo‘ladi, – boshladi Demid. – O‘zimizdagi erkaklar keyinchalik kulib gapi-rib yurishgandi, o‘zim u paytlarda hali yosh bola edim! Yodingda bo‘lsa kerak, Zolotuxinlar qadimdan aravakashlik qilishgan: avvaliga otib ovlangan ilvasinni Moskvaga tashiganmiz, ishlarimiz rivojlan-

gach, boshqa yuklarga ham kirishganmiz. Otamning g‘azabi shiddatli bo‘lsa-da, qudratga erishishi katta mehnat evaziga kelgan: dastlabki tiyinni ishlab topishning azobi hammaga ma’lum. Esimda, onam o‘limidan oldin unga ta’na qilgandi: «Sen meni bo‘yimning pastligi uchun ataylab xotinlikka tanlagansan, yuvinishimga kamroq sovun sarflanishi maqsadida». – Demid suhbatdoshining hamdardlik hissini uyg‘otish uchun otasining yulg‘ichlik fe’lidan oilasi qanday azob chekkani haqida so‘zlay boshladи. – Qishni kuzatish bayrami¹ kuni, ayni kechirimlilik kunida mening otaginam katta safardan quruq qaytdi... Yo‘l-yo‘lakay Yaratganga ta’na qilishga botinibdi: har xil qalang‘i-qasang‘ilarni odam qatoriga qo‘sib qo‘yyapsan, yolg‘iz meni sariq chaqa bilan ham siylab qo‘ymading, qolgan hamma esa aslida – yoki yonib turgan olovdan, yoki yopishqoq loydan tarkib topgan-ku! Xudoga u shunday malomat qilishi bilanoq, tog‘ etagida, kuyib ketgan daraxtzorda nasibasini olgandi... eslaysanmi, Gorinka-da?.. Loshkaryovdan savdogar Yashshikov, Mikolay Zaxarich... rosmana qashshoqlikka tushib qolgan. Bilsang, Polushubovda u o‘ziga sohibjamol jononni topib olgandi: o‘sha rosmana yosh urg‘ochi bo‘ri Stashaning husni bu dunyodan emasdi, mashhur surgundor mahkum Donsov uning huzuriga yetib kelguniga qadar muxlislari jononning ortidan to‘dalashib yurishardi. U o‘sha vaqtarda, katta yo‘lda qochqinlar bilan shumlik qilib yurardi... Mikolay Zaxarich Yashshikov ayolning oldiga eski aloqalar xotirasidan borib turardi, dahshat drajadagi mablag‘larni unga sarflab yuborardi, butun qishloq bilan kayf-safo qilishar edi. Donsov esa uyiga muddatidan oldinroq qaytib qoldi-yu: savdogardan nihoyatda qattiq ranjidi, ammo halok etmadи. Qaragin-a, hamyoniniyam qoqlamadi, Steshaning sha’nini bulg‘ab qo‘ymaslik uchun-da, xullas, savdogarni qishloq yo‘liga sudrab chiqdi, bo‘yniga ikki marta taqvodorchasiga musht tushrigach, bu tomonlarda qayta ko‘rinmasligini nasiyahat qilib qo‘ydi... Ilgari bunaqa ishlarning yo‘rig‘i boshqa edi! Agar o‘zing eslasang, u joylar ancha ovloq... xullas, orqadan Donsov o‘zining to‘dasi bilan pisib kelyapti, oldinda esa rostakam qashqirlar tungi qirg‘inga chiqishgan, – ular bunaqa paytda, kuyikish mavsumida tugma-pugmalaring bilan qo‘sib g‘ajivorishadi... Bizning boyon sovuq kechki shafaq yolqinida g‘irt

¹ Maslenitsa (*rus.*).

mast, ayanchli ahvolda turibdi, bitta yengi uzilgan po'stinining oldi ochiq, otaginamdan chanasiga chiqarishini xo'rlanib o'tinadi. «Yo'q, sen bilan birga qaytish mening qo'limdamas... kechirasan, Mikelay Zaxarich. Boz ustiga kerosin moyini olib ketyapman, hidi senga uring ketadi!» – deydi otaginam unga. «Hechqisi yo'q, chanangga o'tqazsang bo'ldi, Xudo haqqi, Kondirev qo'rg'onigacha bo'lsayam mayli – ko'z yoshini to'kib arillaydi unga Yashshikov. – ustingdan oltin to'kaman va buyog'iga buyurtmasiz ham qoldirmayman». Va ahmoqliq qilib unga pul to'la hamyonini ko'rsatadi, tag'in hammasi yuztaliklar degin. Aytishim kerakki, mening otaginam ma'bad oqsoqoli sifatida, kechki ibodatga yetib borish dardida edi, ammo o'ylab qoldi: chamasi parvardigor mening nasroniy shikoyatlarimni eshitibdi-yov, mana tirikchiligm uchun Yashshikovni yo'limga chiqarib qo'yibdi. Yotadigan xazinalarni bilardim, ammo mana, yuradiganlariyam bo'larkan-ku... To'g'ri xatarli jihatiyam bor, ammo hamma tijorat ham qonga bulg'angan bo'ladi, yo'lida uning bo'rillardan qolgan losh qoldiqlarini topishsayam – Donsovdan gumon qilishadi. Sarishta aravakashning tabari doim o'rindiq tagida tayyor turadi, har ehtimolga qarshi. Ikkovlonni u yerda hech kim ko'rgani yo'q: savdogarni chanasiga o'tqazdi, yo'lga tushishdi...

To'laroq ikkinchi bardoqni Demid Vasilyich taklifsiz ham bo'shatib qo'yaqoldi va darrov rangi bo'zrayib, xuddi hikoyasining davomini unutib qo'yganday, ancha vaqt yerga tikilib o'tirdi.

– Hech bo'lmasa bodringni gazak qil, oshna, bunaqada poyezdga chipta ololmay qolasan, – vaqt kech bo'lganini shama qilib qo'ydi Ivan Matveich.

– ... Xushbo'y pichan orasida isinib olgach, Yashshikov endi quvonch bilan ketib borardi. Ibodatga chorlovchi qo'ng'iroq ovozi yana o'rmon uzra yoyilib ketdi, osmondag'i yulduzchalardan go'yo iliqlik taralayotganday, atrof nihoyatda jozibador, faqat farishtalar yetishmayapti, xolos. «Agar bilsang, Vasil Fedotich, seni bu yerga parvardigoring o'zi yo'llab yubordi... men hayotim bilan vidolashib ham qo'ygandim, – deydi Yashshikov otaginamga. – Muqadas Mikolani shundoqqina yodga oluvdim hamki, birdan najotkor qo'ng'iroqchalarining ovozi eshitilib qoldi». – «Nachora, ikkovichizning iltijolarimiz xudoning huzurida to'qnash kelib qolishibdi, – o'z xayolida o'ylab qolibdi otaginam, – ko'raylik-chi, kimniki kuch-

liroq ekan!». Shundoqqina Kalinov bo‘g‘iziga chiqishlari bilanoq, biz o‘sha yerda bir o‘tirishgan edik, esingdadir, tanasiga taqa sanchilib o‘sgan oqqayin bor edi-ku? – xullas, otiginam o‘sha yerda xuddi ot egamasining bog‘ichi yechilib ketganday, yolg‘ondan oh-avoh qila boshlabdi... Yashshikovga go‘yoki shotini tutib turishi uchun tushishni buyuribdi, u esa ahmoq odam emasdi, xullas darrovgina fahmlabdi: agar rost bo‘lganida edi, egamaning qisqichlari ayrilib, yoyi birdan osilib qolgan bo‘lardi! Ammo baribir chanadan tushibdi... va otiginam unga o‘zining ajalvor asbobi bilan hamla qilibdi. Ammo endi chopishga qo‘lini ko‘targanida, tabarning muhrasi xuddi ilohiy bir kuchning imosi bilan sug‘urilib chiqqanday otilib ketibdi-yu... otiginamning qo‘lida faqatgina xuddi g‘ajilganday bir ahvoldagi dastasi qolibdi, mana palakat. Bizning Mikolay Zaxarich chap berib qolibdi va mening qariyamni avval o‘ng qo‘li, keyin chap qo‘li, so‘ng ikkisi bilan baravar shunaqangi qamchilabdiki... Uni savalagani bahonasida o‘zi ham isinib olibdi, otiginamning chanasiga o‘tiribdi-yu, karasin-parasini bilan birga jo‘nab qolibdi. Qaroqchimiz esa ertalab uygacha bazo‘r emaklab kelibdi, ham yayov, ham soqolining yarmi yulangan. Salomatligi joyiga kelguncha biror haftalar shu ahvolda yotdi, it qopgur! Yashshikovning o‘zi esa ko‘pchilikning oldida keyin maqtanib yurdi. Ammosiga olganda, o‘zi taniqli bahodir edi: kosovni har qanaqangi tug‘ro shaklida bukib berardi... Bir yil o‘tib, to‘rt dyuyumli mixdan nobud bo‘lib ketdi.

– Qanaqasiga? – kutilmagan bu gapdan tipirchilab qoldi Ivan Matveich.

– Sarxushgina bir ulfatchilikda mix bilan nayrang ko‘rsata-yotganida, mastlik ortidan haligini bexos yutib yuboribdi. Shifoxonaga olib borgunlaricha, u yerda qornini yorgunlaricha...

Ivan Matveichning qovog‘i solindi:

– Agar hikoyang bilan meni zavqlantirmoqchi bo‘lsang, bu hangomang qayg‘uli chiqdi, Demid Vasilyich.

– Hangomam-ku, kulgili, Ivan Matveich, gap shundaki, sen menga olmaxonni, Marya Yelizarovnani haligacha kechira olmayapsan, – og‘ir kulib qo‘ydi u. – Yo‘q, mening har bir qissamda hissa bor, bu qissadan hissa mana bunday. Men odamlarga razm solaman: qulayliklarni qidirishadi, o‘zaro jang qilishadi, taqdir esa birgina mix bilan bittasining masalasini hal qilib qo‘yaqoladi, boshqasini qoqhol

olib ketadi, mening otaginiamga o‘xshab. Parvardigor bizning xalqni haziliga olyapti, rosmanasiga olyapti! Mana men so‘rayapman: bularning hammasi nega kerak o‘zi? – Javobni esa xuddi Vixrovning xo-nasini to‘ldirib turgan kitoblardan izlaganday, ko‘zlarini yogurtirdi.

O‘shanda undagi hamma narsa – ehtimol tekin yegulik va aroq-ning haqini shu bahonada to‘lab qo‘yish uchun so‘zlab berilgan ota-ginasining tarixi ham, voqe’ hayotdan nariroq chalg‘itish uchun taklif sifatida namoyon bo‘lgan mulohazalar ham, – bularning hammasi shu fikrga olib kelardiki, mehmon har qanday vositalar bilan quruq va xatarsiz boshpana ortidagi tungi o‘tirishni cho‘zishga urinayotgan ko‘rinadi.

– Sen gapni aylantiryapsan, Demid Vasilyich, oxirigacha aytma-yapsan. O‘zing hayotda nimani izlayapsan?

Unisi darrov javob bera qolmadı, avvaliga deraza ortidagi yomg‘irning tovushiga qulq solib o‘tirdi.

– Mening o‘tmishdagi boyligimga shama qilyapsanmi? Yo‘q, vaziyat sen o‘ylaganchalik jo‘n emas, Ivan Matveich. Albatta, hozir menga... eski hokimiyatning bir sinig‘i sifatida qanaqa ishonch bo‘lishi mumkin... ammo sen, hozir bir xum tuzlama bilan so‘zlashib o‘tirganing yo‘q: vujudimda hali qalbim haroratlanib turibdi! Men sokinlikdan, xotirjamlikdan boshqa hech narsani izlayotganim yo‘q, yana mana bu yerimga yengillik istayapman, – va ko‘ksidagi shiqirlab turgan pullardan qappayib turgan cho‘ntagini changalladi.

Va birdan Ivan Matveichning qalbi tubidan beixtiyor Krasnover-shyeda o‘tgan bolaligining achchiq xotiraşı otilib qhiqdi: Taiskaning sumkasidan olingan g‘ajilgan non sirti yoki Zolotuxinning kechqurun o‘z sharobxonasidagi taxta to‘shamani yuvish uchun onasini yubori-shini tayinlab, o‘n yashar bolani qat‘iy ogohlantirishlari.

– Axir sen o‘zing baxtni istaganding-ku, Demid Vasilyich, – souvuq kului Ivan Matveich, – u esa yo‘lda chang bosib yotmaydi. Uni qo‘lga kiritish uchun naqdinani to‘lab qo‘yish kerak... oldindan to‘lash kerak. Mana, yoshing qirqdan o‘tganini aytyapsan, qani bir hisoblab bergen-chi, sen ko‘p evaz to‘laganmiding? Ana shunaqa, o‘z sokinligining izlovchisi!..

Ularning suhbatlari shu bilan barham topdi; ochig‘i, oromkursida tinchgina uqlab yotgan bolakay uchun ikkovlari ham bahsni o‘zaro gina-kuduratlarni izhor etmasdan yumaloq-yostiq qilishga

harakat qildilar. Tez orada mehmon vokzalga shoshilib qoldi va fagaqt mehmondorlik uchun itoatkorona minnatdorlik uning bir umrga jo'nab ketayotgandagi sarosimasini sezdirib qo'ydi. Ancha keyingina Vixrovlar uning vidolasha turib, go'yoki rutubatli havo bag'riga bir kaftgina iliqlik olib ketmoqchi bo'lganday, qizib turgan o'choqqa qandayin bir anduh bilan qo'l tegizib qo'yanini, yoki yo'lga na bir burda non, na bir so'm pul so'raganini, yoxud Vixrovlarning bir bo'lak oqqandini bilsa hazil – bilmasa chin, ma'nosida barmoqlari orasiga yashirganini, yoki nihoyat – Taiska bergen shirinkulchani mushtchasiida ushlab uxlayotgan o'g'ilchasiga vidolashuv nazari bilan qaranlarini eslashdi. Bular hammasi Zolotuxinning bejizga kelmaganidan dalolat berib turardi. Xayrlashayotganlarida Ivan Matveich gap orasida, uning qanday mo'jiza karomati bilan Boshkentda o'zining manzilini topib kelganini so'radi. Qarangki, u bir yarim oy lar muqaddam taqsimot bo'yicha Pashutin shifoxonasiga o'tin olib borganida, Yelena Ivanovnaning o'zi unga manzilni beribdi. Kutilmagan bu xabardan uyg'ongan tabiiy bir hayajon Demidovning Amurga ko'chib o'tishining asl sabablarini Vixrovning shuuridan to'sib qo'ygandi. Bir tarafdan, quvonchning sababi shunda ediki, Lenochka tirik, sog'-salomat edi va chamasi o'z taqdiridan mamnun, boshqa tomonidan esa – bu vaziyat Vixrovning eng yaxshi shogirdini o'ziga qaytarib berdi. Tunning qolgan qismini qochqin haqidagi mulohazalar bilan o'tkazdilar va eng avvalo – qidiruvning to's-to'polonida Yengani tintuv qilishni qanday unutishdi ekan!

Ertalab Ivan Matveich qizi uchun birinchi pullarni xotiniga jo'natdi, pashutinlik tabibga esa – ko'p yillik sukuti uchun uzr xatini yubordi; bir qancha yo'llovchi savollarni, yaqindagina Gratsianskiy tomonidan rosa haqoratlangan o'zining ikkinchi kitobini ham ilova qilib yubordi. Yegor Sevastyanichning javob maktubida Lenochkaning qochishi borasidagi tafsilotlarni yoritib beruvchi ayrim xabarlar bayon etilgandi.

2

1929-yilning bahori Yengaga kechikib keldi, oqqayinlar may oyingining o'rtalarida bazo'r yashillandi, ammo qorlar ancha oldin erishni boshlab, chanalarning sirpanchagi apreldayoq yerga botib qola

boshlagandi. Bekatdagi aravakashlar Yelena Ivanovnani qizi bilan yo'l-yo'lakay qayrilishdagi paromga tashlab o'tishdi; daryo ustida endi chana yo'li yo'q edi, qor-muzlar xuddi sochmadan o'q uzilgan kabi ilma-teshik bo'lib ketgan. Daryoning erigan muzlari ortidagi tuman qoplagan qirg'oqqacha ayov yurib borishlariga to'g'ri keldi. O'rmon hali jonlanmagan, ammo daraxtlar ba'zi joylardagi qiyaliklarda erigan qor suvlariga yuvinib ulguribdi. Shudgor bo'lib ketgan arava izlaridan yurish qiyin, ammo qishi bilan bosib toptalgan yo'l chetlarida hatto yosh bolaning oyog'i ham loyga botib ketadi. Yarim yo'lda qizaloq charchoqning zo'ridan hiqillashni boshladni, ona esa erkinlik sari tavakkaliga otilib, Yegor Sevastyanichni xat bilan o'z tashrifidan xabardor etib qo'ymaganiga afsuslandi. Qorong'i tushib bo'lganida ikkovlari oyoqlari jiqqa ho'l holda yer bag'irlagan xodavor kulbacha yoniga yetib kelishdi, uning yo'l yoqalagan qanotida Pashutin feldsheri yashardi... taqillatishga ham, ovozga ham hech kim javob qilmadi: pashutinliklar kun botar-botmas uplashga yotishadi.

Ona qizchasiga shivirlab, hozir bobosi uyg'onib, ularni issiqqina uyiga kiritishini aytdi, ammo atrofdagi tushunarsiz bir bahoriy shovullash hamda qo'rg'onning narigi chekkasida uyqusidan chala o'yg'onib, erinibgina akillayotgan ko'ppakni aytmaganda, hamma-yoq hanuz to'la jimlik hukmida edi. Yelena Ivanovna eng yomon taxminlar xayolida, bo'g'otga yopishib olgan sumalak ortida osilib turgan ko'm-ko'k yulduzga tikildi, – sumalakdan sirpanib tushayotgan tomchilar yulduzning zaifgina shu'lasining zarralarini akslantirib tommoqdalar.

Birovning derazasi tagida qizi bilan qanchalik uzoq vaqtsovqotib turgani sayin, uning uchun Yengaga qaytishining muqarrarligi shunchalik kuchliroq namoyon bo'la bordi... U bolaligidanoq o'zining Sapeginlar oilasidagi sharoiti yolg'onligini his eta boshlagandi, ayniqsa inqilob arafasida, tabaqlar tuzumining yorila boshlashi daxlsiz tuyulib turgan davlat mustahkamligini yemirishni boshlagan vaqtida. Va aslida yutqazib bo'lingan urushning o'sha oyalarida halokatga mahkum tuzumning xoinliklari va jinoyatlari haqida shunaqangi bo'kira boshlashdiki, kampirshoning endilikda siyraklashib qolgan mehmonlari bunga gohi nafrat, gohi tuhmat bilan javob qaytarib turishdi, shunaqangi kuchli bir qasos to'lqini muzofot bo'ylab izg'ib yurarkan, hali ham kamaymagan yer-mulkarning yolg'iz va falaj

bekasining mavjudligiyoq shundayin surbetlik bo‘lib tuyula boshladiki, kun kelib Lenochka barcha tirik javobgarlar qirib, yo‘q qilib bo‘lingach, o‘zining o‘tmishi uchun, hatto o‘zi bilmagan va egalik qilmagan narsalar uchun undan tovon talab qilib kelishlari muqarrarligi fikridan dahshatga tushib, qaqshab qoldi. U kuchaygan qochqinlik hissi orqali qora xalqning o‘ziga qaratilgan yovuz qiziqishlarga to‘la alamzada qarashlarini butun vujudi bilan sezar, ammo yordamga muhtoj tarbiyachisi oldidagi burchi hamda narigi tomondagilarning ishonmasliklaridan qo‘rqish hissi, ya’ni xuddi o‘sha o‘z qadrini band tutish tuyg‘usi uning baloga yo‘liqqan, hatto xizmatkorlar ham allaqachon tark etib ketgan xonadondan fursat borida qochib qolishiga monelik qildi. U kimsasiz bahor oqshomlarini indamas kampir bilan yolg‘izlikda, telbalantiruvchi ruhiy azoblarda o‘tkazganlarini, vahimali bir sarosimada derazadan xiyobon oxiridagi xuddi kimlarnidir atayin taklif etayotganday lang ochiq darvoza tarafga alanglab qarashlari, ostonadagi shubhali shitirlashlar, eshik-deraza tabaqalari ning tungi g‘ichirlashlari, chidab bo‘lmas darajadagi kutishlar – ajalni emas va hattoki uzoq davom etguvchi, ammo pirovardida o‘ldirib qo‘ymaydigan og‘riq azoblarini ham emas, balki kimningdir o‘z qalbiga, ayniqsa uning eng og‘riqli nuqtasiga ayovsiz teginishini kutish mashaqqati edi. Uning qandaydir iztirobli aybdorlik va o‘zining shaxsiy norasoligi tuyg‘usi aralash qo‘rquv dardi shu asnoda boshlandi, o‘z ishi bilan band bo‘lgan Vixrov esa uni bu darddan, – to‘xtovsiz, tun-u kun, qayerga bo‘lsa ham mayli, – sargardonlikkami, go‘rgami, xayolan qochib ketish vasvasasidan xalos eta bilmadi. Ammo shunday bo‘lgan taqdirda, – haqiqat qayerda, kim tomonda ekanini u hech qachon aniqlashtirib ololmagan bo‘lardi, binobarin, Lenochkaning oldida o‘zi muvaffaqiyatsiz er-xotinlik munosabatlariiga tomon qochib borgan joyida hayotini qaytadan boshlashga urinishdan boshqa narsa qolmadidi.

Feldsherning derazalari ortida hanuzgacha biror jonlanish sezilmadi, ammo qayta taqillatganidan keyin yoqilgan gugurt oyna bo‘ylab yuzib o‘tdi va bиргина daqiqadan so‘ng og‘zida papirova ich kiyimi ustidan tashlangan plashdagи tanish uzun gavda ostonada paydo bo‘ldi.

– Sizlar uchun kunduz yo‘q-da, a, tunda izg‘iysizlar! – to‘ng‘illadi tabib va akillagan kabi yo‘taldi. – Juda shoshilinch qanaqa kasalga yo‘liqib qolding?

– Biz poyezddan to‘g‘ri huzuringizga kelyapmiz, Yegor Sevastyanich... – Yelena Ivanovnaning nazarida endi erining nasabidan foydalanishga uning haqqi yo‘q edi. – Sizga uyqu bermaganimiz uchun kechiring.

Chaqiruvdan endigina qaytgan feldsher ustiga shundoqqina tashlab qo‘yilgan brezentga jimgina o‘ralib oldi. Xuddi shu payt Polyajon juda o‘rinli hiqillab qoldi-da, rosa bir yil o‘tib Demidovning o‘g‘li Vixrovlarning zinasi oldida xuddi shunday g‘ingshigan edi va Yelena Ivanovnaning o‘zi ham bexosdan xo‘rsinib yig‘lab qoldi.

– Muddatidan avval o‘zingni o‘ldirvorishing shart emas! – do‘q urdi qariya. – Bolani uyga olib kir, kiyimini yech... hozir uni ko‘rib qo‘yamiz. Bir daqiqa ostonada kutib tur, avval egnimga biror narsa ilib olay.

Abajuri qaymoqrang shishadan ishlangan qadimiylar dumaloq kerossin chiroq bo‘ydoq tabibning butun devorlariga gazetalar yopish-tirib chiqilgan va kitob javoni tepasiga kurakshox bug‘u muguzlari o‘rnashtirilgan yarim turar joy hujrasini arang yoritib turibdi. Va bu nimqorong‘ilikni alqaganicha, Yelena Ivanovna cholga o‘zi haqidagi hamma gapni eng oxirgi nuqtasigacha shosha-pisha ro‘y-rost so‘zlab berdi: hozir uning taqdiri hal bo‘layotgan edi. Yegor Sevastyanich yalang oyog‘iga kiyib olgan kalishini shapillatganicha uyning u burchidan bu burchiga borib qaytarkan, chiroqning moyso‘raridagi shishib qolgan pilikni burab uzaytirdi, o‘zining o‘rnida isinib yotgan qizchaga qarab-qarab qo‘ydi. Harbiy feldsherlik maktabining bor-yo‘g‘i to‘rt sinfini bitirgan bu shifokor ko‘ngil ishlarida tashxis qo‘yishga qiynalardi, mazkur vaziyatda esa – Boshkentdagi turmush qulayliklarini ovloq bir joydagi hayotning mubham quvonchlariga almashishni maqsad qilgan yosh va istarali ayolning xulqiga davo bo‘lguvchi dil malhamini bilmasdi. Tunning naq o‘rtasida, uning o‘z vatani havosidan nafas olishga haqqi borligini kimgadir isbotlash ehtiyoji, go‘yo kimdir buni rad etadigandek, ehtiros jazavasiga berilishi nihoyatda soxta ko‘rindi. Qariya miyasida o‘sha vaqtda nufuzli bo‘lgan bir qancha ishlarni o‘ylab ko‘rdi, Ammo Loshkaryov tumanida mudofaa korxonalari ham, maxfiy sanoat korxonalari ham yo‘q edi, voqeа yuz berayotdan shu joydan yigirma chaqirimlar naridagi junbosma mahsulortlar korxonasini hisobga olmaganda, albat-ta. Xullas, qirq yillik tibbiy amaliyotida bunisi eng kamyob voqeа

edi va chamasi ortga surib bo‘lmaydigan hodisa... bu ayol shundayin kichik narsani so‘rab turibdiki, buni rad etishning o‘zi imkonsiz.

– Seni qayerga joylashtirishni ham bilolmayapman, kapalak-cham... bilganlaringniyam allaqachon unutib yuborgandirsan? Losh-karyovdan senga biror vazifa so‘rab ko‘rsammikan? – professorning xotini oldida u qiyin ahvolga tushib qoldi.

– Men uchun endi eng asosiysi, aynan shu yerda qolish, Yegor Sevastyanich. Enagalikdan boshlasam ham mayli...

Shundan keyin, mehmonini miz ustida turgan naqshinkor tovoqdagi achibroq qolgan bo‘ydoqona yeguliklari bilan siylagach, tabib safarlarda kiyadigan tukdor mo‘yna po‘stinini yelkasiga ildi, bu po‘stin o‘ziga ketgan terilar soniga ko‘ra butun tumanda o‘n ikkita it laqabi bilan tanilgan edi va otboqarning qorovulkxonasida tunagani chiqib ketdi.

Nazarida, maqsadlari aniq-ravshan bo‘lishiga qaramasdan, Yelena Ivanovna Yengaga xuddi girdobga otilayotganday hissiyot bilan keldi: o‘lish va qayta tug‘ilish uchun... Uni yakshanba tongining quvnoq ovozlari uyg‘otdi. Feldsherning kuchukchasi panjalarini yoyganicha quyosh nurlari taftida akillab qo‘yadi, dahlizdan esa qo‘shquloq yog‘och chelakka quyilayotgan suvning shalopplashi eshitiladi; bundan tashqari, qo‘shqavat deraza ortida chumchuqlar chirqillab sho‘xlik qilishadi va Yegor Sevastyanich kimnidir intizomiy aybi uchun koyimoqda. Hamma ish oldindan xayoliga kelgan tashvishlarsiz kechdi, hatto qizi ham yo‘lda shamollab qolgani yo‘q; Yelena Ivanovaning ikkinchi hayoti shu zaylda boshlandi. Kun yorishishi bila-noq u Tegmaxon laqabli shu yerlik qariqizning kulbasining bir burchini ijaraga oldi, bozordan bug‘doy, ro‘zg‘or uchun uchta xurmacha xarid qildi va kechki navbatchilikka ketishi oldidan hamma kerakli ishlarini bitirib oldi. Dastlabki kunlarda odamlarning oldida qo‘rqib yurdi – eplomaslik yoki sharmanda bo‘lishdan, ammo endi kecha-kunduzlik vaqtining katta qismini o‘tkazayotgan sovuq yog‘och imorat ichida negadir kamroqsovqotayotgan edi. Bu juda eski, avvalgi tuzumda qurilgan mahalliy shifoxona, Yegor Sevastyanichning o‘zi tashkil etgan, o‘n ikkita katga mo‘ljallangan, shahar sharoitlaridan yiroq, ammo bu yerda oz-ozdan bo‘lsa-da, hamma narsa bor edi: devorlariga turli kasalliklarning tasvirlari ilingan ambulatoriya, rosmana tug‘uruq xonasi, hatto eshigi xira oynali o‘z dorixonasi ham-

da hali dorini qabul qilmasingdan oldin dardlaringni ham unuttirib yuboradigan vahimali do'rillagan ovoz egasi bor. Bemorlar yupqa kalta choyshablarda yotishibdi, hammalari minnatdorlik hislariga to'la va hatto bolalarcha qoniqish bilan yotishibdiki, bunaqa bemor bo'lish faqat dehqonlarga xos bo'ladi; parvarish va g'amxo'rlik bu soddadil odamlar uchun dorilarning hammabop ta'siridan ham ko'ra inuhimroq... Umuman olganda bu yerdagi eng surunkali va xatarli kasallik Yelena Ivanovnaning o'zining dardi edi.

U toki oyog'ida tura olar ekan, o'zini ishga bag'ishlab yubordi, kunlarning hisobiga ham bormay qo'ygan; uning xudbinlarcha alam-zadaligi shu qadar kuchli ediki, ko'pincha Tegmaxonning qo'liga tashlab qo'yilgan qizini ham unutib yuborardi. O'sha yerdagi uch na-far sanitar ayollarning eng yoshi o'laroq, u har qanday yumushni ham indamasdan bajarib ketaverardi va tez orada bu binodagi muhit, iliq-roq bo'lib qoldi deyish unchalik to'g'ri bo'lmas-u, ammo har doim xonadonda yangi va tirishqoq beka paydo bo'lishi bilan o'zgarishlar yuz berishligi kabi xonakiroq bo'lib qoldi. Shifoxona ahlining dast-labki paytlardagi bezovtaligi qiziqish bilan almashindi – uning tirish-qoqligi ko'p vaqtga yetib berarmikan. Bu vaqt ichida ovozalar butun depara bo'ylab sapetin sotqin qizining qaytib kelgani xabarini tarqat-di, bu yerlarda oddiy xalq tarbiyalanuvchilarni shunday ataydi; uni ko'pchilik erining nasabi bilan bilmassi. Yelena Ivanovna daqqa sa-yin mingko'zli xalqning nazari o'ziga tikilayotganini his etib turardi; toki bunga ko'nikib olguniga qadar pashutinlik bolalar ham uni rosa vahimaga solishdi, ular poydevor bo'rtig'iga chiqib olib, derazadan mo'ralayverishardi va rostini aytganda, daryo muzlarining erishi va o'tib bo'lmas loygarchilik uning chekinishiga yo'l qoldirmaganigina, dastlabki, eng og'ir haftadagi ikkilanishlarini yengib o'tishiga ko'-mak bo'ldi. Bu paytga kelib juda abgor bo'lib qolgan Trinitatov ham o'zining surunkali yallig'langan quymich asabi bo'yicha ilmiy majlis o'tkazish uchun Yegor Sevastyanichning huzuriga kirgan bo'ldi, shu bahonada esa dahlizning taxta to'shamasidagi loy, kir-chir poyabzal izlaridan qatlamlanib ketgan iflosliklarni hafsalá bilan, tirishib, qirtishlab tozalayotgan boshkentlik arbobning benihoya jozibador rafiqasiga achinish bilan uzoq vaqt tikilib, bosh chayqab o'tirdi... Hech kim bu ayoldan rad yoki shikoyat eshitgani yo'q, shuningdek hazil-huzulni ham. Ko'pincha Yelena Ivanovnaning olisdagi tug'uruqqa

qo‘mitasining taqsimot yo‘llanmasi bilan turkum o‘qishga ketishga tayyorlanayotgani Moskva to‘g‘risida, – va nihoyat ayolning ijtimoiy qarashlari va talab-ehtiyojlari haqida surishtirdi, uning har qanday ehtiyojini qondira olishi boisidan emas, balki kelgindi xonimchaning beradigan javoblari orqali uning maqsadlari qanchalik jiddiyligini aniqlashtirish, siyosiy-ahloqiy holatiga chuqurroq kirib borish vajhidan edi. Bulardan anglashildiki, insонning turmush kechirishi va obro‘-e’tibori uchun kerakli hamma jihatlar Yelena Ivanovnada amalan mavjud ekan. Bundan tashqari, Mark badbo‘y bir sovuqlik ufurib turgan va u chekkadan bu chekkaga mayda tikandor uchqunchalar yugurib o‘tib turgan tirqish-teshiklari bisyor taxta to‘shamaga e’tiborini qaratdi.

– To‘sama ostida g‘ildirab yurgan munchoqlar nima u?

– Bular kalamushlar, otaginiam... urchitaman desangiz bir juftini tutib beraman, nima deysiz? – tili achchiq Tegmaxon o‘z istiqomat-chisining o‘rniga javob berdi. – Tuni bilan soxta pul bosib chiqish-mayaptimikan, degan gumonda ular ham bizni kuzatib turishibdi.

– U holda bu juda yomon va noto‘g‘ri holat, – qariqizga ko‘zlarini chaqchaytirib va biroz tin olib dedi Mark Petrov. – Qizcha ham shammollab qolishi mumkin. Tirqishlarga cho‘pak¹ tiqib yopish kerak... shu kunlarda uni o‘zim berkitib beraman. Aslida-ku, o‘zim portfeli vaqtinchalikka qo‘ltiqlab yuribman, kundalik kasbim duradgorlik. Shu bois ham ismim Mark, injilchiga o‘xshagan... agar bilsangiz, bizning naslimizdagilarning ham hammasi duradgorlar.

– Bo‘lmasam-chi, sizlarni bilaman, – minnatdorlik bilan kulib qo‘yan bo‘ldi Yelena Ivanovna. – Shu yarim yil ichida *to ‘rt shamol*² haqida juda ko‘p narsalarni eshitib ulgurdim. Demak, siz beshinchisi ekansiz-da?

– Bu ibora og‘alarim haqida aytilgan, menga yo‘l bo‘lsin! Ular asr yoshidagi daraxtlarni tizzalariga urib sindirishardi. To‘ng‘ichimiz, Yefim, hatto Lenin bilan birga bug‘tortarda yurgan, qo‘riqchi edi. Mana, Vetrovlarning qadami qayerlargacha yetgan! Men esa, shunchaki, supraqoqdi bolaman, *shabadacha* desayam bo‘ladi...

¹ Cho ‘pak – reyka.

² Petrov nasabiga ishora (veter – shamol).

U shuningdek Yelena Ivanovnadan nima uchun, o‘z ta’biri bilan aytganda, ilmiy risola vositasida ijtimoiy madaniyat darajasini oshirish uchun yoki bir qulog‘i bilan bo‘lsayam, Moskvadan turli mashhur artistlar ijrosidagi qo‘shiqlarning chiroysi radiomusiqalarini tinglash uchun qiroatxonaga kirmayotganini so‘radi. Tegmaxon o‘rinli gu’mon bildirib, oddiy ovoz shuncha olis masofadan, tag‘in hech qanaqa simsiz, Yengagacha qichqirig‘ini yetkaza olmasligini aytdi, Shunda Mark hamma vaqt bexosdan tirsaklari Yelena Ivanovnaga tegib, havo to‘lqinlari g‘altak to‘rlarida qanday o‘ralashib borishini va boshqa shu kabi tafsilotlarni qog‘ozda ko‘rsatib tushuntirarkan, o‘zining sevimli mavzusiga qizg‘inlik bilan kirishdi: o‘z zanjiriga o‘zi bog‘-lanib qolgan odamzotning oyog‘i ostida qanchalik ko‘p foydali, qiziqarli va hali kashf etilmagan narsalar yotganini so‘zlay ketdi.

– Shu bois albatta boring. Aytganday, siz balki odamlardan iymanayotgandirsiz? Sizga olaqarash qilishlarini o‘ylayapsizmi? – so‘roqqa tutdi Mark. – Nima uchun ulardan uyalishingiz kerak, sizning ishingizga dog‘ tushmagan-ku...

– O‘ylashimcha u yerda mensiz ham odamlarni hatto zambarak bilan tarqatib bo‘lmasa kerak... – ikkilandi Yelena Ivanovna. – Navbatim yetib kelgunicha hech narsayam qolmaydi-yov.

– Siz kechki payt, yopilganimizdan keyin keling, qizchangiz yolg‘iz qolmasligi uchun uniyam olib boring. Agar qashqirlardan xavflansangiz, qaytishingizda o‘zim kuzatib qo‘yaman.

Bu ayoldagi xushro‘ylikdan ko‘ra uning hayotda o‘zini tan olishlariga erishtirgan qat’iy mustaqilligi va qaysarligi Markni o‘ziga jalb qila boshladi. U fikrining qo‘qqisdan bu tomonga burilib ketganidan xijolat tortdi va o‘ziga qattiq tikilib turgan Tegmaxonning istehzoli nigohini butun vujudi bilan his qilib, xayrlashar-xayrleshmas tezgina jo‘navordi, o‘zidan esa yaylov bepoyonliklari va go‘yoki sarobiy bir moviy kunduz hissini qoldirdi. Yelena Ivanovna uning kimga bunchalik o‘xhashligini azob bilan eslashga urindi. «E-ha, bo‘ldi, o‘sha – qarchig‘ay, qirg‘iygina...» – dedi u o‘ziga o‘zi, eri bilan Kavkazga qilgan safari xotiralaridan unga bir o‘xshatish topib. Xuddi shunday chayir, o‘zining abadiyligiga qattiq ishongan bir mavjudot qoyatosh ustida o‘tirib, yoyilgan qanotlarini tumshug‘i bilan tozalagan ko‘yi vagon oynasi yonida turgan ayolni ko‘z qiri bilan kuzatib qolgandi.

Ertalab, xonadon bekalari uyda yo‘q paytda Mark taxta to‘shamadagi tirkishlarni bitta qo‘ymay yopib chiqdi, yana ikki kunnarni o‘tkazib esa, yolg‘iz ayol qanday o‘rnashib olganidan xabarlanish uchun Yelena Ivanovnaning oldiga shifoxonaga bordi. Bundan tashqari, uning o‘sha yuqorida eslangan yolg‘izligiga malham bo‘lish uchun kimdir yordam berayotgani yoki yo‘qligini aniqlashni ruhan o‘z-o‘zidan talab qilib, pochtaga kirdi. Oradan bir-ikki haftalar o‘tib, ayol uning tashriflariga ko‘nikib ham qoldi; nima bo‘lgandayam Mark undan nihoyati to‘rt yoshgagina kichik edi – bor yo‘g‘i to‘rt yil xolos, hatto ikki oyi kam edi ham!.. lekin ayolga uning samimiyligi, hali taxi buzilmagan kuchi qanchalik yoqib tushmasin, uning o‘zi keyinigi uchrashuvlariga chek-chevara qo‘ydi. Uni yarim yo‘lda to‘xtatgan narsa, ochig‘i, qudratli Semenixaning oldidagi qo‘rquv ham emas edi, shunchaki miyasida bir uchqunlab o‘tgan ehtirosi uchun o‘zini o‘zi jazoladi, – holbuki, birdaniga, hamma pog‘onalarni bir qilib bosib o‘tib, hech qachon o‘zi his etmagan baxtga va o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishish uchun nasabi oxiridagi ikkitagina harfni o‘zgartirish kifoya edi... Darvoqe, dekabrning o‘rtalarida Markni Loshkaryovga, faollarning turkum saboqlariga chaqirib qolishdi va munosabatlar o‘z-o‘zidan uzildi-qo‘ydi. Ammo lekin Yangi yil arafasining naq yarim tunida u shundoqqina katning tepasidagi derazani taqillatib ayolni uyg‘otdi va ostonadan, eshik g‘alaqasi ortidan turib, Moskvadan oldindan xabar qilingan radiokonsertga chaqirdi. U arang eshitilarli qilib, bunaqa qahraton tunlarda olis radiostansiyalar ayniqsa tiniq eshitilishini va qiroatxona kulbasida hech kim yo‘qligi sababli ularning miriqib tinglashlariga birov xalaqit bermasligini qo‘shib qo‘ydi. Yelena Ivanovnaning o‘zi ham musiqani biroz sog‘inib ham turgan edi, ammo avvaliga aqlning ovozi uning junbushga kelgan hissiyotidan ustunroq keldi.

– Eshigingizni ochsangiz bo‘lardi-da, bu turishda gapirishim qiyin bo‘lyapti, – dedi unisi ostonadan turib.

– Ha yo‘g‘-a, bunisi endi judayam ortiqcha... Vaqt ham kech bo‘ldi, Mark Nikolayevich, – javob qildi bunisi eshikning lo‘kidonini beixtiyor ochib yuborishdan qo‘rqanicha uni mahkam changallab,

lekin o'zini hozir ko'ndirib olishlarini oldindan bilgan ko'yi. – Bu izg'irinda yo'l ham sovuqlik qiladi...

– Biz jarlik bilan boramiz, to'g'ri kesib chiqamiz... nima, shunchalik uzoq yurarmidik! – Bo'g'iq ovozda yalinadi Mark. – Ochaqolsang-chi axir: o'g'ri emasman-ku... o'zimnikisan, o'g'irlab olib bormayapman-ku!..

Biroz ikkilangach, u paxtali guppisini olishga yugurdi va shoshapisha ro'molining uchini bo'yning o'raganicha, ostonada kutib turgan yigitning yoniga chiqdi. Atrof o'rmonlar tepasi shunaqangi yorqin zulmatga chulg'angan, Polyajon shundayin qattiq uxbab yotibdiki, Markning qayergadir chuqur botib ketgan ko'zlarini uning ko'z oldida shundayin yalinchoq-itoatkor chaqnamoqdaki, u Polushubovoga yarim soatga bo'lsa ham yugurib borib-kelish istagidan o'zini tiya olmadi.

– Tugmangni taqib ol, qahraton, shamollaysan! – dedi Mark qo'llarini orqasiga yashirib. – Kel, o'zim taqib qo'yaqolay... tugmalarin qayerda o'zi?

– Hechqisi yo'q, o'zim...

Yelena Ivanovna xuddi uyqu aralash quvonayotganday, astagina, bekaning tinchini buzib qo'ymaslik uchun va yanayam to'g'rirog'i – o'zini uyg'otib yubormaslik uchun, jarangdor, dona-dona kumush bilan qoplangan qorga peshvoz yugurdi. Uning birinchi erkagi kabi, ayollar bilan munosabatda judayam no'noq Mark nima uchundir unga butun yo'l bo'yi, xuddi burgut misoli dashtlarda shamolday yelib yurgan va xuddi Yermak kabi daryoning tezoqar qismida halok bo'lган Chapayev haqida so'zlab bordi. U tafsilotlarni so'zlab berayotgan o'sha kitobni Yelena Ivanovnaning o'zi ham o'qigan, ammo Markning bayonida qo'shimcha hayajon bilan yo'g'rilgan o'ziga tanish tafsilotlar olovliroq va dilga yaqinroq tuyulmoqda ediki, bu nimaning hosilasi ekanini u ayollik tuyg'usi bilan his etdi. Va yigit ham yaqindagi qishloq kengashi oldidagi namoyishda «kuz faslidagi suvilonlar kabi bir-biriga chirmashib yotgan» mushtumzo'rlarni g'alla topshirishdan bo'yin tovlaganlari uchun yakson qilib tashlagan yaqin paytlardagi shafqatsiz o'ziga hecham o'xshamasdi... Hozirigiday uyg'oq tushlarda aynan shundoq holatda ko'rinishi lozim bo'lган sirli va nima uchundir nimpushti qortepalar orasidagi hali tuzukroq toptalmagan torgina so'qmoqdan oldinma-ketin yurib borishlariga to'g'ri

keldi. Yelena Ivanovna shoshilar, hadeb yugurib qochaverar, Mark esa uni quvib yetar, yangi yilning sarxush qiluvchi havosi esa boshlarni telbavor aylantirardi: so‘nggi.daqiqada u hasrat bilan va aslida kechirim so‘rash ilinjida qizi qolgan tarafga o‘girildi va birdan shunday qattiq chinqirdiki, uning o‘rmonda akslangan sadosi ikki marta takrorlandi. Pashutin tepasida, mutlaqo shamolsiz havoda, deyarli tutunsiz yolqin ko‘tarilgan va o‘rmonning shokilador milki ortida yonayotgan nima ekanini bu yerdan turib bilib bo‘lmashdi.

Tez yugurganlaridan nafaslari bo‘g‘izlariga tiqilib qo‘rg‘onga yetib kelganlarida, shifoxona ignabargli og‘och gulxanidan ham shiddatliroq yonayotgan edi. To‘s-to‘polon shovqinini ham bosib ketgan olovning qaynoq, o‘ynoqi tillari derazalardan tashqariga hamla qilib turar, bemorlarning o‘zлari quduqdan qo‘lma-qo‘l suv uzatishib, kichkinagina qovg‘achalarda ahillik bilan o‘sha yoqqa sepishmoqda. Ochig‘ini aytganda, qutqarish mumkin bo‘lgan narsaning o‘zi qolmaga gandi, ammo mavjud tartib-qoidaga binoan kimdir tabar bilan eshikni sindirmoqda, boshqalar omonatgina tomni changakda ko‘chirishib, olovning ishini oxiriga yetkazib qo‘yishmoqda. Yuz ellik qadamlar kegayida qip-qizil bahor kirib keldi; atrofdagi daraxtlarning qorlari erigan, eng yaqindagilarining shoxlari xuddi olrang gullarga burkangan kabi olov bilan qoplangan. O‘sha yerda, olovdan sal narida, Yegor Sevastyanich turibdi, qo‘lida sterilizator ushlab olgan; olov qo‘ynidan o‘z vaqtida tortib olingan qutichaning xira tortib qolgan nikelida yong‘inga o‘xshash, ammo mittigina olovli manzara o‘ynaydi. Cholning boshida qalpog‘i yo‘q, pidjakda turibdi, shifoxona kir yuvuvchisi nechanchi marta uning yelkasiga o‘n ikki itni tashlab qo‘yishga urinadi, tabib esa uni haydaydi, o‘zidan chetlashtiradi, xuddi o‘zi uchun aziz bo‘lgan bir marhumning dafn marosimida faxriy qorovullikda turganday toshqotgan edi.

– Kim senga qo‘l ko‘tarishga jur’at etdi, Egor Sevastyanich, a-a? – ko‘tarinki ruhga hamda vazmin g‘azabga to‘liq ovoz bilan so‘radi Mark.

– O‘shalar, yovuzlar, odam qoniga tashnalar... mana kim! – siltanib ingradi tabib va dorixona tepasidagi bostirma qulab tushganidan keyingina uni nariga olib ketishga muvaffaq bo‘lishdi.

... Baxtsizlik qurbanlarsiz kechdi va umuman olganda asoratli oqibatlarsiz ham; yangi va yaxshiroq bino qurilguniga qadar

shifoxonani hovlidagi omon qolgan yuqumli kasalliklar binosiga ko'chirishdi. Faqat Yegor Sevastyanich qancha-qancha orzularini, mehnatini va shaxsiy jamg'armalarini sarflagan qadrdon arzandasining halokatidan keyin tez-tez spirit no'sh qilib turishga kasal bo'lib qoldi. Imkon doirasida so'xtalarning miqdoridan kelib chiqqanda, surishtiruv davomida qasddan o't qo'yish holati aniqlanmadi, ammo bu yong'in sotsialistik yo'sinda qishloq xo'jaligini qayta tuzish tadbirlari boshlanishi bilan bir vaqtga to'g'ri keldi va ovozalar buning yovuz niyatda qilinganini e'tirof etishdi. Qolaversa, qidiruvlar paytida shu narsa ma'lum bo'ldiki, gazetalarda dehqonlar qatlamiga doir keskin o'zgarishlar to'g'risidagi shov-shuvli maqola paydo bo'lganidan ko'p o'tmay, muzofotdagi sobiq boyonlarning eng aqllisi Zolotuxin Demid yong'indan bir yarim oy avval Shixanov Yamdan izsiz g'oyib bo'lgan ekan, o'g'li bilan birga qayoqqa yo'q bo'lib qolgan noma'lum o'laroq, barcha imkoniyatlarga ega bo'lgani holda, o'zi tashlab ketayotgan, mol-mulk va ne'matlarga to'la qo'rg'oniga o't qo'yib ketmaganidan hamma hayratda qoldi. Undan ko'ra boyroq uchtasi esa, xalq fojiasiga o'zlarining daxldor emasliklarini ustalik bilan isbotlab berishdi.

— Hechqisi yo'q, baribir topamiz... agar lozim bo'lsa, dengizning ortidan ham topib kelamiz! — g'azab bilan e'lon qildi Mark yo'qsil faollarning navbatdagi yig'ilishida va uning so'zлari shu zahoti butun tumanga tarqalib ketdi.

Buyuk o'zgarishlar yili o'tib bormoqda va u bilan bog'liq hodisalar Markning Loshkaryovga safarini to'xtatib qoldi. Uning Yelena Ivanovna bilan uchrashuvlari o'z-o'zidan uzilib qoldi: har safar ularning o'rtasida o'sha ayirmachi yong'in turib qolaverardi. Polushubovodagi qiroatxona ham o'z egasining boshqa muhimroq ishga boshi bilan sho'ng'ib ketgani tufayli yopildi. Uning hamma narsaga qanday ulgurishi ajablanarli edi: bugun mushtumzo'rlarni yanchilmagan donni yashirgani uchun yoki otlarini sotib yuborgani tufayli yog'och tashish ishlari barbod bo'lgani uchun yakson qiladi, erta tongda, bu yerdan yigirma chaqirim narida, Sovet respublikasiga qarshi salib yurishini o'ylab qo'ygan rim papasining Pompiliy bilan birgalikda uyushtirgan fitnalariga javoban aholini zig'ir ekish uchun jamoatchilik asosida yer haydashga da'vat qilib turgan bo'ladi; butun bahor bo'yi muzofot bo'ylab mablag'larni safarbar etish uchun fin-estafeta

qilib kezib chiqdi – o'sha yillarda noqonuniy ortiqcha mol-mulkni tortib olish shunday atalardi, yo'l-yo'lakay ekish davri uchun tay-yorlangan urug'lik zaxiralarni tekshirish, o'ziga o'xshagan inqilobning yosh faxriyalaridan iborat boshqaruv guruhlarini tuzish bilan shug'ullanadi, ya'ni Yengaga sotsializm kirib kelishiga boshchilik qildi. Jamoalashtirish 1930-yilning qishidan boshlandi va buning ortidan mushtumzo'rlar qarshilik harakatining birinchi otishmalari yangradi.

Viloyat gazetida sovet g'oyalarining taniqli taportmas ma'rifatchisining nomi tez-tez eslanadigan bo'lib qoldi; yarim yil ichida uni Loshkaryovga, turli anjumanlarga ko'p martalab chaqirishdi va yozdag'i oxirgi kelishida tahririyat Polushubovo qiroatxonasini chirroqli radio qabul qilgich bilan, Markning anchadan beri orzu qilib yurgan buyumi bilan taqdirladi. Ma'rifatchi yomg'irdan keyin kechki payt uyiga qaytmoqda edi; hamma narsa tuman pardasiga ko'milgan, chorvani hozirgina haydab kelishdi. U qishloq bo'ylab, odamlarni oralab borgani yaxshi edi-yu, ammo och-nahor, yo'l yurib tinkasi qu'rigan va ayniqsa mana bu mashinasini tezroq sinab ko'rish istagida xirmonlar orqali to'g'riga yuraqoldi. Ayni shu yerda, uyi yaqinida yuzlariga ro'mol bog'lagan ikki kishi pistirmadan turib o'q uzganlaricha, Duboviki tomonga otliq yelib ketishdi. O'q ovozidan tashvishlangan Semenixa o'g'liga peshvoz yugurdi, ammo u kulbaga yugurib kirishga va qo'lidagi qimmatli buyumni xarrak ustiga qo'yishga o'zida iroda topa oldi.

– Qo'rqmang, onaginam, men tirikman!.. – deyishga ulgurdi u va nimalargadir qulq solayotganday turgan joyida, xuddi oyog'idan chopilganday yerga quladi.

Oradan biror soatlar o'tib, mushtumzo'rlarning zararkunandalik faoliyatlariga qarshi chora ko'rilmagani bo'yicha surishtiruv o'tkazish uchun Kondirev qo'rg'oniga yo'l olgan ijroqo'm muovini Potashnikov bilan prokuror Polushubovoga shoshilib yetib kelishganida pashutinlik tabib o'z joyida yo'q edi. Keyinroq uni topib, navbatdagi kasal ahvolida olib kelishdi; olomonni deraza oldidan tarqalishga zo'r berib undayotgan militsionyer, tabibni qo'lting'idan olib, Vetrovlarning tob tashlagan ostonasiga chiqishiga ko'maklashdi. Butun mahalliy hokimiyat, to'rt kishi, yetti simli chiroq yonib turgan miz oldida xuddi urush e'lon qilish chog'ida bo'ladigani kabi qimirlamay, tantanavor holatda turishibdi. Ularning devorga sig'may qolgan

soyalari o'rtasidan sinib, dud bosgan shiftga o'tib ketgan. Mark yarim hushsiz ahvolda yerda, ularning oyoqlari tagida yotibdi, uning yonbosh tomonidan to'q rangdagi qon xalqob oqib chiqqan; o'g'lining bosh tomonida, tiz cho'kkanicha onasi uning peshanasidagi xabari ajal terdan yopishib ketgan jiqqa ho'l sochlarini bitta-bittalab ajratib o'tiribdi. Va sukutga cho'mgan butun muzofotda, Markning xuddi uzoq yugurishlardan so'ng kichik bekatchada nihoyati bir daqiqagagina to'xtagan bug'tortar pishillashiga o'xshash tez-tez olayotgan nafasidan boshqa birorta tovush yo'qday tuyuladi...

– Bosib olma, – salomlashish o'rniga buyurdi Potashnikov kirib kelguvchi tomonga ko'zlarini burib. – Juda uzoq kutishga majbur etding, a'lo hazratlari!

Yegor Sevastyanich tizzalab o'tirganicha, ma'rifatchining ko'y lagi ustidan tashlab qo'yilgan, qonga bo'kkan og'ir sochiqni olib tashladi, qishloq kengashining raisi esa cho'nqayib o'tirganicha, unga chiroq tutib yoritgan ko'yi tabibning yuziga qarab ahvol qandayligini va qariyaning maqsadini bilishga harakat qiladi. O'q ichak-chavoqlarni chetlab, tanani qiyamasiga teshib o'tib, tashqariga chiqib ketibdi, o'qning yirtma chiqish tuynugi qorindagi kichkina kirma teshikdan ko'ra qo'rqinchliroq edi; yonboshidagi ikkinchi o'q teshib o'tgan jarohat xavfli emasdi. Tomir urishi vaqt-vaqt bilan to'xtab qolar va Yegor Sevastyanich qayg'uli bir ma'noda bosh chayqab qo'yardi. Uning so'zlariga ko'ra, yaradorni tuman kasalxonasiga olib borish xatarli tadbir bo'larkan, ammo shu o'rinda shoshilinch jarrohlik taomili talab qilinishini ham qo'shib qo'ydi. Boshliqlar bir-birlariga qarab qo'yishdi, ular tabibning qadam olishiga ahamiyat berib bo'lishgandi, shuningdek, uning qarilikdan emas, boshqa narsadan qaltirab turgan qo'llariga ham. To'g'ri, hozir yo'llar biroz qurib qolgan, ammo hoziroq shifokorni telefon orqali chaqirganlarida ham, u Polushubovoga kun chiqishidan oldin yetib kelolmasdi. Maslahatlashuv unsizlikda kechdi, nigohlar so'zlardan ko'ra tushunarliroq bo'ldi, bundan boshqa chora aqllariga kelmadi.

– Demak, bunday... – yurakni ezadigan jimlikda buyurdi prokurator. – Xullas, boshla, davola buni.

– Ilojim yo'q, – dedi Yegor Sevastyanich. – Bu holatda qorin bo'shilig'i jarrohligi talab qilinadi, men esa feldsher sifatida bunga imkonsizman... qonun bo'yicha haqqim yo'q.

— Xo‘p, o‘sha qonun deganing – kim o‘zi? Mana biz qonumiz, – achchiq kuldil Potashnikov. — Nimaga qaror qilsak, qonun – o‘shanning o‘zi... qiziq, sen qanaqasini xohlab qolding, tentaksifat? — Va ishonch-siz bir nafrat bilan tabibning butun tanasi bo‘ylab osilib turgan uzun qo‘llariga qaradi. — Nima, Yengada ilgari hech qachon hech kimni otishmaganmidi?

— Avvallari biz taraflarda qurol sifatida tabarlar-u, qoziqlar ko‘proq ishlatilardi, — boshini pastga egib dedi Yegor Sevastyanich. — To‘g‘ri, bir voqeа bo‘lgandi, qirq yillarning berirog‘ida... Kalinadagi qorovulkxona yaqinida bir qochqinni xuddi shu joyiga otishgandi. Lekin u darrovgina jon beraqolgan.

— Bas, — shartta kesdi Potashnikov, uning qiyofasining o‘zi xudi gapi rayotganday edi: eh, tabib, tabib, xomkalla, o‘zim ham ichaman, ammo o‘z ishimni yaxshi bilaman! — keyin esa ko‘zлari bilan Yegor Sevastyanichni prokurorga topshirdi. «G‘aflatda qolibmiz, butun dunyo ilm-fanining ziyosi o‘zimizning Pashutanda o‘tiribdi deb o‘ylabmiz, bu esa, mana, ishdan chiqib bo‘libdi, chirib ketibdi, qirq yil ichida bir qarichga ham o‘smabdi-yu. E, almashtirish kerak, jin chalib ketsin bularni, atrofdagi hamma narsani o‘zgartirish lozim!» — sabrsizlik bilan o‘ylardi u; mana shu uzil-kesil tashhisdan pashutinlik tabibning inqirozi boshlandi.

— Bizga aytинг-chi, fuqaro, siz firqa a’zosimisiz? — burnidagi ko‘zoynagini to‘g‘rilagan ko‘yi muloyimlik bilan so‘radi prokuror.

— Yo‘q, lekin men rusman... Xufyona is olishning ham hech keragi yo‘q: men axir hech narsani inkor etmayapman-ku!

— Ammo siz, hech bo‘limganda, fuqaro, jahonda hozir qandoq masalalar hal etilayotganini va ayni paytda oyog‘ingiz ostida kim, yana qaytaraman — aynan *kim* cho‘zilib yotganini inobatga olyapsizmi?

— Bo‘lmasam-chi, Vetrov Markushka yotibdi. Uni axir onasini qornidan o‘zim qabul qilib olganman-ku... xohlasangiz Semenixanining o‘zidanam so‘rayqoling.

Boshliqlar undan ko‘ra yoshroq edilar, juda vijdonli va qiziqqon ham. Ko‘p martalab yashirinchcha tashlab ketilgan xatlar orqali ularga ham o‘ldirib ketish bilan tahdid qilishgan, ammo lekin, bu borada g‘anim birinchi bo‘lib Markni tanlabdими, demak ularning orasida eng yaxshisi shu ekan. Gapning qayoqqa burilayotganini fahmlagan

Yegor Sevastyanich, masala e'tiqodda emas, balki olingen ma'lumotda ekanini tushuntirishga urindi, uning sohasida ham generallar va podpraporshiklar bor, nufuzli lavozimga nomzod sifatida u shifokor kelguniga qadar bemorga faqat kofurmoy hidlatish va jarohatiga quruq doka bog'lab qo'yish vakolatiga ega xolos va bundan kattasiga majburiyatni zimmasiga olishga jur'at etolmaydi.

– Sen gapni cho'zyapsan, uzoq cho'zyapsan! – shivirlab va tishlari orasidan do'q urdi Potashnikov. – Bizning huzurimizda o'z hayoting uchun qo'rqib, yana qanaqasiga rus bo'lding? Bo'laqolsang-chi, iblis, qo'lingdan kelganini qilaqol, axir... E, uyatni yo'qotgan!

Qishloq kengashining raisi shu zahotiyoy haqiqiy shifokorga, tu'man kasalxonasi dagi Vlasovga qo'ng'iroq qilish uchun chiqib ketdi, qolganlar esa tabibga uning kamtargina ishida yordamlashib, ingrab yotgan kutubxonachini umumiyl sa'y-harakatlar bilan xarrakka olib yotqizishdi. Ular mushtumzo'rning yerto'lasidan muz olib kelinishini va telefonдан xushxabar kelib qolishini kutib turishdi: uch daqiqa o'tar-o'tmas Vlasov yo'lga chiqdi. Potashnikov bilan prokuror ortlariqa, Loshkaryovga qarab shoshdilar... Odamni dimiqtiradigan, tez-tez chaqmoq chaqib turgan barqli-bulutli tun. Hammalari ostonaga chiqib kelganlarida xaloyiq hali ham tarqalmagan edi.

– Gap bundoq, marhamatli o'rtoqlar, – tushkun sukutga botgan dehqonlarga murojaat qildi Potashnikov, – mana, qanday to'lovlar evaziga sizning baxtingiz yaratilmoqda! Iblislar qimmat haq olish-yapti... bizning ham ularga to'laydigan naqdinamiz yo'q emas. Eh, o'z himoyachilaringizni asrang, bolalarim, yer yuzida ulardan boshqa sizning yaqinlaringiz yo'q... Ana shunaqa! – U nimalarnidir aytmay qo'yaqoldi, faqat qayoqdandir qo'liga tushib qolgan qamchin bilan nam, og'ir havoni savalagan bo'ldi va chetan yonida turgan tepasi ochiq tarantas tarafga ketdi.

Shu paytda Yegor Sevastyanich Potashnikovga yuzlanib, o'z vazifasini bajarish majburiyatidan hoziroq chetlanishi lozimmi yo yo'qligini so'radi, unisi esa munosib nomzod izlab topilguniga qadar buning shoshilinch joyi yo'qligini, ammo hoziroq, uning shaxsiy javobgarligi ostida yaradorning yonida uni yolg'iz qoldirmaydigan uzluksiz sanitar qo'riqchilikni o'rnatishni buyurdi... va albatta bu maqsadda chaqqonroq xotinni tanla, o'ziga yaqinlardan bo'lsin: o'zi uchun qadrdon insonning o'chayotgan hayot uchqunini asrasin.

— Va tezlashtir: bir oyog‘ing shu yerda, bittasi u yoqda, keyin esa uzilib qolgan mashg‘ulotingga daf bo‘l... ichganingdan keyin gazak qil, gazak qilib ich! — qariyaga yarim o‘girilib, jirkanib dedi ijroqo‘m muovini Potashnikov va jilovni siltadi.

Pashutin shifoxonasida faqat birgina hamshira katta boshliqning talabiga mos kelardi.

4

Yelena Ivanovna Vetrovlarning kulbasiga navbatchilikka kelib, dahlizning o‘zidanoq, ochiq turgan eshik orqali Semenixani orqasidan ko‘rdi. Kampir o‘g‘lining yonida, bu safar suyanchiqsiz kursida o‘tirardi, u yoq-bu yoqqa chayqalib, go‘yo o‘tmish xotirasi yo‘rig‘ida uni eng so‘nggi uyqusida allalayotganday edi. U tashrifchining salomiga alik olmadi, hatto o‘girilib ham qo‘ygani yo‘q va ochig‘i Yelena Ivanovnaninng o‘zi ham salom berdimi, yo yo‘qmi, aniq ay-tadigan ahvolda emasdi: qo‘rquv sabab uning ovozi butkul yo‘qolib qoldi. Bo‘g‘iq dam havoda shift ostida aqldan ozgan bir pashsha uchib yurar, parvozda kelib o‘choqqa qattiq urilar va yana qaytadan odamning g‘ashiga tegib g‘ing‘illab qolardi. Yelena Ivanovna qish-loq tibbiy vositalari solingan jomadonni miz ustida ochib yoydi va bor irodasini to‘plab, xotirjam ovozda bemor o‘zini qanday his etayotganini so‘radi.

— Hech qandoq, alhosil, ertalabga borib egamga omonatini topshiradi, — eshitilar-eshitilmas pichirladi kampir va qoqsuyak bukilmas qo‘li bilan xuddi marhumni avaylaganday, muz solingan shisha ustidan kiydirilgan toza ko‘ylakning burishig‘ini tekislab qo‘ydi. — O‘lgan og‘alari uni sog‘inishibdi chamasi. Hayot paytlarida uni qat-tiq erkalashardi: yo shirinkulcha jo‘natishadi, yo kamzul sotib olishi uchun pul yuborishadi!

— Qo‘ying, tushkunlikka cho‘kmang, Anna Semyonovna. Urushda bundan battarlariyam bo‘ladi, jang paytida, shunda ham sog‘ayib ketishadi. Doktor yetib keladi, kerakli hamma muolajani qiladi... ko‘rbsizki, kenjangiz sog‘ayishniyam boshlab beradi. Endi unga qarashimga ijozat bering.

U butun mana shu o‘tgan yil mobaynida o‘rgangan ushbu sokin korraftavor tasalli so‘zlariga butun o‘zligini bag‘ishlab yubordi, hol-

buki o‘z amaliyotida ularni ilk bor qo‘llashi edi va chamasi maqsa-diga erishdiyam. Kampir unga umidvor, tanimas nigohini tikdi va chetroqqa surilib, joyini bo‘shatdi.

Bu ezgu alomatdan dadillangan Yelena Ivanovna yaradorning boshi tagiga yassi, jildsiz dehqoncha yostiq qo‘ydi va derazani och-moqchi bo‘ldi, ammo chirigan rom bunga yo‘l bermadi; faqat bitta oyna sinig‘i nozik shishavor yig‘i bilan tashqariga tushdi. Yelena Ivanovna yurak o‘ynog‘ini zo‘rg‘a bosib, Markning oyoq tomoniga o‘tirdi va uning yuzlariga boqdi. Uning qarshisidagi behushlik tal-vasasiga tushib yotgan kimsa yangi yil oqshomida uning yuragiga yo‘l topishga uringan odam emasdi, bunisi qandaydir boshqa, uning uchun tushunarsiz, ammo shunaqangi so‘ppaygan va nochorki, unga nisbatan achinish hissi ayolni hatto Semenixaning oldidagi yo‘l bo‘yi qiy nab kelgan, ko‘ngilni behuzur qiladigan darajadagi g‘ayrishuuriy qo‘rquvdan ham kuchlilik qildi. Yarim hushsiz holatida Mark daqi-qa sayin qo‘lini pastga tashlab, azoblarini yengillashtirishga qodir bo‘lgan nimanidir izlaydi, ba’zan esa tushunarsiz bir shivirlash bilan suv so‘raydi va onasi sarosimada cho‘michga yuguradi, Yelena Ivanovna esa bunga ijozat bermaydi, chunki unga hozir suv ichish taqiq-langan, ularning birinchi tunlari to‘lig‘icha shu zaylda o‘tdi.

– Balki, unga qanaqadir dorikukun berish kerakmidi, – gohi-go-hida, ko‘ngil g‘ashligidan to‘lg‘anib, gap boshlaydi ona, – Yefim lazaretda o‘layotganida, unga yetti a rangli idishdan nimalarnidir ichirishgan edi. Agar yoriladigan o‘q uning ichini ifloslantirib tashlamasa edi, u hamma azoblarga o‘sha suyuqliklarsiz ham chidagan bo‘lardi...

– Yo‘q, Anna Semyonovna, hech qanaqa dorini hozir berib bo‘lmaydi.

Bu tun barcha iyul kechalari ichida eng uzuni va eng dimiqqa-ni bo‘ldi; uzoq kutilgan g‘ildiraklar ovozi faqatgina tong otishi ol-didan taraqlab kelib, deraza tagida taqqa to‘xtadi. Vlasov qishloq chekkasida o‘zini kutib olgan, mastligi tarqagan Yegor Sevastyanich bilan birgalikda uyg‘a otilib kirdi. Vetrova kampirni Pashutingacha sayr qilib borib kelish uchun chiqarib yuborishdi. Qop-qorong‘ilikda idishga suvning shovullab quylgani, asboblarning shaqir-shuquri eshitildi, ammo jarrohlilik oxiriga yetay deb qolgan mahalda, g‘ira-shira kulrang tong shu’lasida Markning deraza tomonga qaratilgan

zahil yuzi biroz yorishib ko‘rindi. Tamakisini chekib, rohatlanib ko‘kimir tutunni puflab o‘tirgan Vlasov ko‘chadan sasi eshitilayotgan ruslarning cho‘pon muguznayining navosi g‘ayrioddiy darajada dilkash ekanini e’tirof etdi va Yelena Ivanovnaning aniq, ishchan qo‘llarini maqtadi: ayrim natijalarga ko‘ra aytish mumkinki, doktor u haqdagi maqtovlarini boshqa ba’zi joylarda ham takrorlagan chiqadi. Xayrlasha turib, u oxirgi tavsiyalarini berar ekan, Yegor Sevatyanichning nursiz ko‘zlariga zimdan qarab qo‘ydi, u endi boshqa sababga ko‘ra oyog‘ida arang turardi va doktor o‘z hamkasbini uyiga kuzatib qo‘yishni o‘zi taklif etdi. Kampirni ham biror soat yotib dam olishga ko‘ndirishdi va endi Yelena Ivanovna quyoshning bir donagina nuri kabi uning hayotida yarqirab qo‘ygan va isitishga ulgurmasdan, yana oldinga yugurib ketgan odam bilan yolg‘iz qoldi.

... Shu tarzda odamlar orasidagi bir yillik hayot maktabidan keyin bu ayolning bиринчи имтиҳони бoshlandi, birovning hayoti uchun kechgan sakkiz kunlik kurashda, va natijada uning qutqarib qolinishida oxir-oqibat ayolning shaxsiy muvaffaqiyatidan kattaroq nimadir bor edi. Buning mukofoti o‘laroq, uning baxtga erishishga bo‘lgan kamtaringina umidini vayron qilgan hamda uning kasbidagi insonlardagi haqiqiy bilim va jasorat sayqallanadigan oqilona ehtirossizlikka o‘rgatuvchi ayrim yangiliklarni o‘rgandi. Dastlabki uchta tun nihoyatda og‘ir kechdi, ularning ikkitasida Yelena Ivanovna mutlaqo ko‘z yummadi. Nima uchundir uning o‘rniga katta hamshira, Pashutindagi eng tajribali enaga o‘tishi bilanoq, yaradorning bo‘g‘ilishi va qayt qilishi kuchayib ketdi va bunga chidab bo‘lmas darajadagi tashnalik ham qo‘sildi. Uning quruqshagan va shishaday shaffof yaltiroq qatlam bilan qoplangan lablaridan jazirama harorat ufurib turibdi, ora-orada tomir urishi yo‘qolib qoladi, ustiga tashlangan muzning og‘irligidan azobli ingranadi. Og‘riq Markning hushini qisman o‘ziga qaytardi, ismini aytishsa javob berishga urinadi, hatto ko‘zlarini ham ozgina ochishga muvaffaq bo‘ldi, ammo ko‘ziga Yelena Ivanovnaning nigohi ilg‘aman qandaydir narsalar ko‘rindi va bir safar xuddi o‘sha, yangi yil oqshomidagi ovozi bilan kimnidir chaqirdi, ammo uni emas. Ahyon-ahyonda esa, Vlasov o‘zining ikkinchi kelishida shifokor ojizligi bilan xo‘rsinib ogohlantirganiday, qorin pardasining yallig‘lanishi boshlanganday tuyulmoqda edi. Mamlakat uchun kerakli bo‘lgan bu yigitni ajalning changalidan

sug‘urib olish uchun ma’lumotnomalarda ko‘rsatilmagan qandaydir favqulodda vosita kerak edi va Yelena Ivanovna go‘yoki o‘sha eng ta’sirli dorining tiganmas zaxirasining sohibasi sifatida o‘zini butkul shu bemorga bag‘ishlab yubordi. O‘sha paytda uning yuragida faqatgina ikkita fikr olovlanib turardi: Mark o‘zidan ko‘ra yaxshiroq, yoshroq va erkinroq ayolga munosib, ikkinchi xayoli esa – Polya tumanada izg‘ib yurgan ichburug‘ kasaliga yo‘liqmasa bas; Tegmaxon unga yegulik bilan birga qizchasi haqida xabar ham keltirib turardi... Turgan joyida uyqudan yiqlib tushmaslik uning uchun oson kechmayotgan edi. Yelena Ivanovna aybdorlik hissi bilan uyg‘onadi, o‘ziga qattiq tikilib, uni o‘rganayotgan bir nigohni butun vujudi orqali sezadi: har safar Semenixa uning yonginasida bo‘ladi. Kampir yo‘g‘on igna bilan latta-puttasini yamab-chatiyotgan bo‘ladi yoki o‘choq supachasi yonida o‘tirganicha, qog‘ozdag‘i qachonlardan beri tugamayotgan, ko‘karib, mog‘orlagan ikki bo‘lak tuzlama baliqni g‘ajib o‘tirgan, yoki burchakda ko‘zini chala yumib olib mizg‘iyotgan bo‘ladi...

Semenixaga yashirinchha nazar tashlab qo‘yish uchun Yelena Ivanovnaning ham yetarlicha vaqtি bor edi. Bu kampir yosh yillari-da chiroylikkina bo‘lgan chamasi, jiddiy va agar ta’bir joiz bo‘lsa, uncha-bunchaning qo‘li yetmaydigan, novdalari kokilchalar kabi yuqoriga mayda o‘rib chiqilgan archaning xuddi o‘zi, – ammo muh-tojlik hamda shafqatsiz dehqoncha g‘am-qayg‘ular ularni tikanli, yergacha to‘kilib turgan hurpaygan-pahmaygan chigal sochlarga aylantirib qo‘yan. O‘g‘illaridan judo bo‘lish unga yanada ko‘proq dangalso‘zlikni va g‘amgin sharttakilikni o‘rgatibdi; baland bo‘yli, bir dona oq tuksiz, u doim sarishta, zinch o‘ralgan, xuddi kraxmal-langanday tekis oq ro‘moli ostidan jiddiy qaraydi. Sakkiz kun davomida u Yelena Ivanovnaga birorta ham ezgu so‘z aytmadi, u bilan navbat almashishni taklif etmadi, tamaddi qilishga chaqirmadi, Yelena Ivanovnaning sharoitidagi odamning o‘zini namoyon etishiiga xalaqit bermaslik kerakligi qanchalik zarur ekanini tushungan-day edi go‘yo.

Oltinchi kunga kelib Markning isitmasi tusha boshladи, sakkinchi kunning oxirida esa, boshliqlarning kelishiga, bemorning o‘zi deraza oldidagi xarrakka yotqizishlarini so‘radi, qishloqdagi hayot harakatini ko‘rmoqchi ekan. Uning iltimosi shaxsan Potashnikovning o‘zining mas‘uliyati ostida qondirildi, chunki u kasallikning hozir-

gi bosqichida uning istagini ado etish eng yaxshi dori bo'lib xizmat qiladi deya hisobladi. Xira oyna orqali ko'chadagi oqtollarning uchlari gina ko'rindi, xolos. Mark esa har holda tashnalik bilan, xuddi shirin azob tortayotganday ko'zlarini yumilib-yumilib, shafaqlari so'nib borayotgan osmonda shodalanib-tizilishib uchayotgan jarqaldirg'ochlarga boqadi. Ko'p o'tmay onasi Potashnikovni va a'yonlarini hozirgina yetib kelgan shifokorlarni kutib olishlari uchun kuzatib chiqdi.

– Jonlanyapman, shekilli... – tilga kirdi Mark Yelena Ivanovna bilan yolg'iz qolgach. – Ilgari bundan ko'ra dahshatliroq narsa bo'lmasa kerak deb o'ylardim, endi esa rosti, dunyoda hech qanday falokat men uchun qo'rquinchli emas...

– Hamma yomonliklar ortda qolgach, oldinda faqat eng yaxshi narsalar ko'rindi, – javob berdi bunisi mulohazakor-hissiz bir ruhiyatda, termometrni olish uchun u tomon engasharkan. – Endi issiq o'lkalarga borasiz, qayoqqadir qaynoq qumlarga. O'zimizning yurtimizda ham juda yaxshi qumlar bor, Misrdagilaridan qolishmaydi!

Bunisi ayolning qo'lini qat'iyatsizgina ushlamoqchi bo'ldi, u esa sog'ayib borayotgan bemorlar uchun odatiy hol bo'lgan aybdorona minnatdorlikka hech bir qiyinchiliksiz chap berib qoldi.

– Bu yerda ancha vaqt cho'zilib yotibman, shekilli... Men bilan rosa qiyalgandirsiz, Yelena Ivanovna? Yuzingiz ham biroz keksayibroq qolganday...

Bu no'noqlarcha achinishdan ranjishga hojat yo'q edi.

– Bu bizning burchimiz, bemorlarga g'amxo'rlik qilish. Har holda bizga qarab o'q uzishmaydi-ku... – hazillashgan bo'ldi u, shafaqning so'nggi nurlarida simobning ustunchasini izlar ekan, shundan so'ng kechki haroratni yozib qo'yish uchun nari ketdi.

To shifokorlar ostonada Potashnikov bilan so'zlashib olgunlaricha, Mark biron aniq mavzusiz suhbatni yana biroz cho'zmoqchi bo'ldi, u qaysidir qilmishi uchun kechirilishini kutayotgani shundoq ko'rini turardi, ammo Yelena Ivanovna sukutda qolaverdi, zero ushbu kechirish o'zining oniy va baxtga ko'ra, jazosiz qolgan zaifligini tan olishni anglatgan bo'lurdi. Tibbiy ko'rik yaradorning ahvoli burilish bosqichiga yetib kelganini tasdiqladi. Tunga borib havo sovib ketdi, mijg'ov yomg'ir ertalabgacha maydaladi va ilk bor Mark nafas qisishlarsiz va alahsirashlarsiz osongina uyquga ketdi. Yelena Iva-

novna ham eshikdan tashqariga chiqdi va zulmat og'ushida dahliz-dagi bir quchoq poxol ustiga tappa quladi, bu yer biroz sovuqroq edi, pashshalar ham azob beravermasdi.

Charchoqdan oyoqlari qaqlayapti, uyqusiyam tezroq kela-qolmadi. Orqa hovlidan chorva isimi-yey, zaxlikmi-yey sizib turibdi. Yelena Ivanovna belini yerga berib, ko'zlar ochiq yotibdi; uning Vetrovlar kulbasidagi oxirgi tuni shu alpozda kechdi. Devor ortidan uyqusiz Semenixaning tagida yog'och to'shamalarning ingranib g'ichirlashi eshitilib turibdi, o'g'lining sog'ayishiga ochiq-oydin bir umid namoyon bo'la boshlabdiki, u o'zini qo'yarga joy topolmayapti. Birozdan so'ng eshik chala ochildi va o'zini uxlyotganga solish uchun qovoqlarini salgina yumib yotgan Yelena Ivanovna kerosin chiroqning sarg'ish nurlari yorug'ida tikilib turgan kampirni ko'rdi.

– ... Uxlayapsanmi, qaldirg'ochim? Voy-ey, shamollab qolmasang bo'lidiydi!.. – so'radi u past ovozda, uyg'otib yubormaslik uchun, ammo Yelena Ivanovna javob qilmadi: unga endi hammasi baribir edi.

Bir daqiqa o'tib, Semenixa qo'lida qo'ypo'stincha bilan qaytdi va uni uyqudag'i ayolning ustiga ovozsizgina yopib, ketishga chog'landi, lekin yarim yo'lidan yana qaytdi-da, o'sha yerda tizzalab, ayolning to'la uzatilgan, jonsiz oyoqlarini qo'y terisi bilan o'rab qo'ydi. Boshqa hech gap bo'lgani yo'q, ammo bu ish Yelena Ivanovna uchun ezgu xushxbabar edi, nihoyat uni kattakon, iliq muhitga qabul qilishdi, yetti yet begonaga qaysidir koshona saroylar qanchayin imkonsiz ersa, undan ham imkonsizroq bo'lgan xonadonlariga kiritishdi. Uning sa'y-harakatlarini sezishlariga mutlaqo ishonchi qolmagan umidsiz daqiqada, ularga kerak ekanligini tan olganlarining mujdasi keldi. Bu xabar vatanga, ona suti bilan birga taqdim etilguvchi omadli joyga haqqi borligining e'tirofi edi. Yelena Ivanovna yomg'irning shivalashiga ancha vaqt qulqut tutib yotdi. Juda olis-olislarda qolib ketgan nimalarningdir manzarasi ko'z o'ngida bulutlar kabi yuzib o'tadi, ammo bu – bolalik emas, uning yuragini bir umrga muzlatgan xalq jazosining dahshatlari o'laroq vayron qilingan qo'rg'onning yong'ini ham emas, balki hodisalarining hoshiyasiga bitib qo'yilgan qandaydir ikkinchi darajali, bazo'r taniladigan tafsilotlar edi.

... Yelena Ivanovna hovlining bir chekkasida yuvinib, kulbag'a kirganida Mark hali uxlayotgan edi. Yog'och tovoqda zardobi olingen

sutoqi¹ aralashtirilgan qatiq esa kesib qo'yilgan javdarnon bo'laklari bilan birga uni dasturxonda kutib turardi.

– Kel, tamaddi qilib ol, qaldirg'ochim, men bilan o'tir, o'zi birov bilan so'zlashishlarniyam unutib yuborganman, – go'yo ularning o'rtasida hech gap o'tmaganday, xotirjam ovozda gapirardi Semenixa, to Yelena Ivanovna miz oldiga joylashib o'tirib olgunicha. – Qarigan-da odamga bitta so'z ham qadrli bo'lib qolarkan! O'zing ham qizingni qo'msab qolgandirsan, axir...

Yelena Ivanovna bu ayolning yonida qanday yengil tortib qolganiga o'zi ham taajjubga tushdi.

– Hechqisi yo'q, endi tez orada uyg'a qaytaman: u bilan to'yib-to'yib erkalashamiz! – Va non sirtini idishdagi oqlikka botirib, ne'matning bir tomchisini ham yerga tushirib yubormaslik uchun dehqonchasiga qilib, tagiga kaftini tutganicha, uni og'ziga olib bordi.

Kampir xayrashuv oldidan qulfi dili ochilib, qizlik yillarini xotirasida jonlantirishga tushdi va gap orasida marhum erini eslab o'tarkan, g'ayrioddiy darajada kuchli bo'lgani bilan tanilgani, Yengadagi nihoyatda xushmuomala va mohir temirchi bo'lganini aytdi, u kim bilan to'qnash kelgan bo'lsa, hammalari u bilan nihoyatda minnatdor bo'lib xayrashar ekanlar.

– Voy, birov bilan gapi qochib qolsa... ustaxonaga yo'l shamoli kimlarni olib kelmaydi deysan!.. Ammo mening Nikolasham hech kimni ranjitmasdi, yomon so'z aytmasdi, faqatgina o'sha odamning ko'z oldida otning taqasini qo'llari bilan shundoqqina egib qo'yaqlardi-da, yuvoshgina kulib qo'yib, o'z ishiga qaytaverardi. Markusha esa o'zimga tortdi... Voy, yoshligimda shunaqangi ashulalar aytardimki!... Sen eyaver, jonginam, tagida qoldirmagin endi.

– Shundog'am to'yib yedim, non va shirin so'zingiz uchun chin ko'nglimdan minnatdorman, – miz oldidan turib, odob bilan ta'zim qildi Yelena Ivanovna; avvallari cho'ponlar, o'roqchilar, uzoq o'lkalardan kelgan duradgorlar o'zlarining benazir salohiyatlarini, bajargan yumushlarining foydaliligini anglashlaridan kelib chiqqan qadr-qimmatlarini qat'iy saqlagan holda ta'zim etganlari kabi ehtirom ko'rsatdi.

¹ Sutoqi – tvorog (rus.).

– Mening yashiradigan narsam yo‘q, jonginam: men o‘yifikrlarimda Markushaginamni allaqachon dafn qilib bo‘lgandim va yuragimga uning qabr toshini bostirib ham qo‘ygandim. Men shunaqangi musibatda edimki, jonginam, shu ishdan avval uylab qo‘ymaganimga afsuslandim... hech bo‘lmasa nabiram kulbada shov-qinlab yurgan bo‘lardi deb. Loshkaryovda uning ko‘z oldiga olgan yurak titrog‘i bor... agar bilsang, hamma pullarga egalik qilib o‘tirgan bosh hisobchimizning qaynsinglisi u.

– Bu judayam yaxshi-da... yoshlarning butun umri hali oldinda, – iljaydi Yelena Ivanovna, quyosh nurlari uxlاب yotgan Markni uyg‘otib yubormasligi uchun deraza pardasini yopib qo‘yar ekan. – Ularning tanishganlariga ancha bo‘lganmi?

– Nazarimda oxirgi borishida topishib olishgan. O‘sha makkora uni nimasi bilan rom qilib oldi, bilolmadim; unga sovuq nazar bilan qaray olmayman onaginam, deydi, – maqtandi Semenixa, mizning ustini yaxshilab quritib artar ekan. – Ana o‘shanda biznikiga kel, biz bilan maishat qil, muloyimginam...

Yelena Ivanovna agar fursat orttira olsa, biror soatga kirib o‘tishni va’da qildi: yangi qurilish boshlanishi bilan shifoxonada uning yumushlari ikki baravar ko‘payganini aytdi. Mark haqidagi xabarni u eriga nisbatan yo‘l qo‘yan shafqatsizligi uchun jazo sifatida qabul qildi va buni endigina anglab yetdi. Xuddi shu paytda tibbiyot hamshirasi Vixrovani muzofotdan birinchi kotib telefonga chaqirib qolgani ayni muddao bo‘ldi. U taniqli ma’rifatchining salomatligi to‘g‘risida so‘rab-surishtirdi va shu bahonada Yelena Ivanovna bilan, sog‘lig‘ini tiklashi uchun o‘rtoq Vetrovni yo‘llashni, ammo hamshira avvalroq o‘ylab qo‘yaniday qaynoq qumlarga emas, balki dengizga, marmardan qurilgan, ilgari mutlaq podshohlar va ularning eng yaqin qarindoshlari hordiq chiqargan sarvzorlar orasidagi bir sihat-gohga jo‘natishni maslahatlashdi. Yelena Ivanovna bu taklifga javoban tibbiyotchining xotirjam ovozida ichak-qorin bo‘shilg‘i jarrohligidan keyin dengiz havosi ham juda yaxshi ekanini aytdi.

Oradan uch kun o‘tib, doktor Vlasov ma’rifatchini temiryo‘l bekatiga ko‘chirish, u yerdan esa viloyat kasalxonasiga – eng nufuzli shifokorlarning nazoratida bo‘lishi uchun jo‘natish maqsadida yana Polushubovoga yetib keldi. Yelena Ivanovna engashib, Markning boshi ostiga poxol solayotgan paytida, yigit ayolga xijolatli nigoh bi-

lan boqdi, ammo hamshiraning ko‘zlarida bemorni yo‘ldagi silkinishlar qiyinab qo‘ymasin, degan xizmat g‘amxo‘rligidan boshqa narsani ko‘rmadi. Holbuki, endi boshqa ko‘rishmasliklarini ayolning yuragi sezib turgan bo‘lsa-da, ressorli sapegin tarantasi qishloq chekkasida ko‘rinmay ketishidan oldinroq, jomadonini yig‘nab olish uchun kulgaga qaytdi.

Umuman olganda sinov sharaflı kechdi, ammo Tegmaxonning fikriga ko‘ra uning istiqomatchisi ozroq so‘liqib, yuzlariyam qora tortibdi. Lekin Yelena Ivanovna boshqa so‘lg‘inlashmadi: aynan o‘sha yili bu ayolning qiyofasi yakuniy suratini topdi – qat’iyan jiddiy, hazilga deyarli moyilligi yo‘q, har doim hissiz tetik, xizmat vazifasidan tashqari topshiriqlarga ham e’tiborli va hammani taajjubga solgan jihatni – o‘nlab yillar mobaynida biror marta betob bo‘limgani edi... Dastlabki paytlarda Markning katta hayotdagি muvaffaqiyatlari bilan maqtanish bahonasida Semenixa kampir birda sut, birda sutoqini lattaga o‘rab, Polyajon uchun keltirib turdi; u paytlarda Vetrovlarning o‘z sigirlari yo‘q edi... Yangi shifoxonaning ochilish marosimida Potashnikovning o‘zi Yelena Ivanovnaning pashutinlik tabib haqidagi fikri bilan qiziqlidi va ayol qariyaning liqillab turgan nufuzini saqlab qolishga erishdi. Shundan keyin ko‘p vaqt o‘tmay, tibbiyot hamshirasi Vixrovani matlubot shirkatining boshqaruviga saylashdi, bu uning ilk mansab pog‘ongasi edi. Kelgusidagi kundalik amaliyot esa odamlarga o‘zini bag‘ishlamoq quvonchi ulardan olish shodligidan ko‘ra karrot-marrot yuqori ekanini va barcha odamlar istisnosiz mana shu ikki toifaga ajralishlarini anglashiga ko‘mak bo‘ldi. Oradan yana uch yil o‘tib, hayoti boshqachasiga qanday qaror topgan bo‘lishi mumkinligini u endi tasavvur ham eta olmasdi.

5

Katta avlod vakillarining taqdiridagi yuqorida eslab o‘tilgan siljishlar, ba’zida yosh naslning turmush haqidagi dastlabki tasavvurlari shakllanib kelayotgan davr bilan bir vaqtga mos kelib qolardi... O‘rmon xo‘jaligi institutining daraxtzori yonidagi ikki qavatli eski qo‘srimcha bino Seryoja uchun o‘z qadrdon uyi bo‘lib qolgani kabi, Sklanning soya-salqin, tobulg‘i hamda valyeriana bilan qoplangan, sokin o‘pqonlar tepasida moviy ninachilar uchib yurgan qirg‘oqlari

Polina o‘zining bolalarcha o‘yinlarini o‘ynaydigan joyga aylandi. Deyarli yildosh, taqdirlari ham ko‘p jihatdan o‘zar o‘xshash o‘laroq, ular mamlakatni o‘zining barcha yaxshi ishlari bilan yoshlarni quvvatlashga intilayotgan muzaffar, mustahkam qaror topgan holatda uchratdilar. Sovet jamiyati qudrat kasb etib borgani sayin, bolalarda ikkovilarini ham ignasining achchiq uchi bilan chaqib ulgurgan ilgarigi hayot tuzumiga nisbatan ongsiz bir jirkanish paydo bo‘la bordi. O‘tmish ularning ko‘z oldilarida xuddi chirib yotgan suyaklar va to‘plab qo‘yilgan boyliklarga to‘la ulkan lahadga o‘xshab namoyon bo‘lardi. Oldindan aytish lozimki, yillar o‘tishi bilan Seryoja o‘sha suyaklar va boyliklarning son-sanog‘ini darsliklarda yozilganlarga ko‘ra, ular yaratilgan hayotning ayanchli sharoitlari bilan hajman mutanosib kelmayotganini payqay boshladi; aslida u dafinaning ming yillik yoshini hisobga olmayotgan edi... Ikkovining fe’l-atvorlaridagi o‘xshashliklar oxirgi mayda-chuydasigacha mushtarak edi: Polya o‘sha esda qolarli kechada Taiskaning hikoyasidan ko‘nglida qolib ketgan achchiq asoratni havoga sovurib yuborish maqsadida ko‘chalarda tentirab yurgan bo‘lsa, Seryoja ham kim va nima uchun kunlarning birida uni rutubatli havodan mehmonnavoz vixrovcha iliqlikka olib kelganini so‘rashdan ataylab tiyilar edi; u doimo shularni eslashi bilanoq uxbab qolishni va bu xotiralar uyqusida o‘chib ketishini xohlardi... Darvoqe, Demid Zolotuxin sobiq oshnasini aldab ketdi: u o‘g‘lini olib ketish uchun bir kundan keyin ham, bir yil o‘tib hammasi oshkor bo‘lganidan keyin ham kelgani yo‘q, chamasi, o‘z valine matining hayotiga o‘z soyasini tuşhirib qo‘yishdan cho‘chib, hatto maktub orqali ham Vixrovlardan o‘zining o‘g‘ilchasi haqida so‘ray olmadi.

Vixrovning oilasi parchalanib ketganidan keyin yuzaga kelgan dilgir bo‘shliq Seryojaning asrab olinishi bilan qisman to‘lganday bo‘ldi. Bundan tashqari, ko‘rsatilgan yaxshiliklar evaziga qaynoq bir tarzda ularga bog‘lanib qolish bilan haqqini ado etgan quvnoq va navqiron bu mavjudotning borligi Ivan Matveichga o‘zining ilmiy muvaffaqiyatsizliklaridan chalg‘ituvchi muayyan bir yupanch ham bo‘ldi. Qizi uchun mo‘ljallangan hamma narsa mana shu oriqqina, sinchkov, o‘z yoshiga qaraganda yetukroq bolaga berildi. U yo‘qchiliksiz o‘sdi, ammo bolalarga xos sho‘xliklarsiz ham; yetarli darajada ibratli bo‘lmagan ertaklar u paytlarda zararli erka-

lik hisoblanar edi, xonalar bo'ylab reqlar ustida yelib yurgan elektr poyezdgina boshqa o'ynichoqlarning qismatiga sherik bo'lishdan qutulib qoldi, xolos. Maktabdagagi jamoatchilik lavozimlari Seryojaning ongiga hukmronlik qilish ehtiyojini vaqtidan ilgari singdirdi; u o'zining o'y-fikrlarida turli erkinliklarni o'ziga ravo ko'ra boshladi, uning mulohazasiga ko'ra bular yetakchi uchun ijozatli hisoblanardi. Har qanday tarmoqlar va suv tarmoqlari aynan uning uchun barpo etilayotganini unga daqqaq sayin ta'kidlab turishardi. Biroq o'sha qurilishlarda mehnat qilayotgan, unga deyarli tengdosh bo'lган ishchilar sinfi vakillari bo'lmish o'spirinlar haqidagi fikrlardan uni xalos etib qo'yishgandi. Dunyoning bor hikmatlari Seryojaga tay-yorgina, qog'ozda bayon etilgan holatda taqdim etilardi, – haqiqatga yetishish uchun uning mustaqil mehnat qilishiga hojat qolmagan. Ivan Matveich kuchaytirilgan, maktabdan tashqari mashg'ulotlarda, o'zi talabalik yillarda juda qattiq mashaqqat chekkan masalalarni hal etishda o'smirga xatarli jasurlik ruhini singdirdi, holbuki, u dunyoqarashni qaror toptirish uchun bo'ladigan kurashning og'irliklari va davomiyliliklari, yot g'oyalar bilan doimiy to'qnashuvlar o'zining ongida haqiqatning mustahkam o'mashib qolishiga ko'mak bo'lganini unutib qo'ygandi. Ijtimoiy besaranjomlikning barcha ofatlarini o'z tajribasida sinovdan o'tkazgan katta avlod barcha jabhalarda o'z o'miga kelgan yangi naslni tahqirli muhtojliklardan xalos etishga va shuningdek, uni ehtimoldagi ruhiyat dardlaridan umrbodga asrab qolishga urinar edi. Shu maqsadda ko'pincha eskirgan fikrlarga bepisandlik bilan qarash, takomiliga yetmagan insoniy tafakkurining o'tmishiga, bolalarining tushunchasiga moslashitirilgan umumjahon tarixining baxtsizliklariga istehzoli kibrda bo'lish ko'nikmasi oldindan yaratilar edi... Darvoqe, turli mashhur asarlarning kechki mutolasi Vixrovlar xonadonida Yelena Ivanovna jo'nab ketganidan keyin ham davom etaverdi, boz ustiga Ivan Matveich doimiy ravishda ularning tahlilini ushbu kitoblarning zamiriga singdirib yuborilgan zararli illatlarni kuchsizlantirish uchun maxsus yozilgan kirish so'zlaridan boshlardi. Haddan tashqari softlangan taom inson jismini zaif qilib qo'ygani singari, faqat sof mazmunli mumtoz asarlarni o'qish ham o'z tarbiyachisining himoyasiz, hattoki yopishqoq ma'naviy illatlariga beriluvchan bo'lib qolishidan xavflangan Ivan Matveich, yetakchi

kitoblar bilan bir qatorda, boshqa, Seryojaning pichingli ta’biri bilan aytganda, *tubanlikka tortib ketuvchi* asarlarni ham berib turardi.

— Bilasizmi, muhtaram fatyer, — kutilmaganda so‘z ochib qoldi u bir safar, — o‘z xizmatini o‘tab bo‘lgan barcha bu qanotlar o‘z vaqtida uloqtirib yuborilmasa, bashariyatning oyog‘iga shubhasiz og‘ir tosh bo‘lib zanjirlanadi. Bu mulohazamni aqlning tanballigiga yo‘ymang... ammosiga olganda men otalarimizning o‘rinlarida bo‘lsam, Lutning xotinining ayanchli qismatini xotirlab, yoshlarning tark etilayotgan eski dunyoga o‘girilib qarashlariga yoki jozibador o‘tmishga ko‘milib qolishlariga ijozat etmagan bo‘lardim. Safarxalta qanchalik yengil bo‘lsa, bir kunda bosib o‘tiladigan masofa ham shunchalik uzunroq bo‘ladi... qolgan hamma narsalar orqaga, orqaga eski aravaga! — Va fatyer Seryojaning g‘oyaviy o‘sganining va mada-niy merosni o‘zlashtirish bo‘yicha uning ilk qadamlarining shubhasiz alomatlarini yengil, ammo iztirobli hayrat ila e’tirof etdi.

Bir so‘z bilan aytganda, bolakay yaqinlarini namunali xulqi bilan va maktabdagи muvaffaqiyatlari bilan shodlantirib, tez o‘smoqda, ammo Ivan Matveich o‘g‘lining o‘qilgan asarlarga nisbatan shosh-qaloq mulohazalaridan tobora ko‘proq noxushlanib bormoqda edi. Barcha davrlardagi yoshlар o‘z zamонини o‘tab bo‘lgan tamaddun-larning vayronalarидаги begona, kar-soqov ilohlarni masxaralashга va hattoki burunlarini sindirishga moyil bo‘lganlar va ag‘darilgan qadimiyatni muhofaza etishga uringan emaslar... uning o‘zi esa tax-minan o‘shalarning yoshida bo‘lgan vaqtlarida qadimiy dahmalarda, ma‘badlarda o‘zini kamtarinroq va ehtiromliroq tutgan edi. Istiqbol-da tug‘ilajak g‘oyadoshlari uchun ham nufuzli insonlarga shafqatsiz bo‘lgan yuzaki, kitobiy ijtimoiyat ba’zilar uchun o‘sha vaqtarda urfga kirgandi; o‘sha paytlardagi ss/ larning hamlavor hujumlarini Ivan Matveich Peterburg sharobxonalarидаги miz atrofida pivoxo‘rlik qilib o‘tirib, Pushkinga uning talabalik yillarda tahdid qilgan sariq nimchali bezorilarning zo‘ravonligiga beixtiyor qiyos qildi. To‘g‘ri, Seryojada bu holat odamlar oldida o‘zining yuzaki bilimi bilan bolalarcha maqtanish istagi sifatida namoyon bo‘ldi, xolos; u o‘zining mulohazalarидаги chapanilarcha sho‘xlik eski dunyoni ag‘darishga shunchalar ko‘p kuch sarflagan kattalarga yoqishi kerakligiga sami-

¹ SSF – San’atning So‘l Fronti (rus: Leviy front iskusstv).

miy ravishda ishonardi. Tafakkur yugurikligi asr mafkurasi bilan tasdiqlangan taqdirda ham, modomiki uning o‘z shaxsiy muvaffaqiyatlari bilan asoslanmas ekan, bu narsa chala bilimdonning takabburligi hisoblanishini hech kim Seryojaga hali uqtirib ulgurmagandi. Seryoja bu kashfiyotni mustaqil ravishda amalga oshirmog‘i lozim ediki, basharti, hamma narsadan ixlosi qaytib qolganidan keyin nomatlub tomonlarga yo‘rg‘alab qolmasagina najotga erisha olardi.

Misol uchun, Seryoja injilni o‘qib chiqqach, ma'yus qiyofada o‘zining shunday ma’nodagi fikrini bayon etdi: quldorlik davri uchun hatto ijtimoyat haroratisiz ham bu juda jasoratlil kitob, ammo – «Yo, tavba, qurilishni tomdan boshlash kimning kallasiga kelishi mumkin?». Galiley baliqchilariga xayrixoh bo‘lsa-da, ammo atrofdagi voqelikni yetarlicha o‘rganmagan Masih o‘zidan yetmish yilgina keyinroq yashagan Spartakning tajribasini hisobga ololmaganiga Seryoja afsuslandi. Bu kitob odamlarga ikki ming yilga yetib bergenini yigitcha qiyinchilik bilan bo‘lsa-da, tan oldi, ammo holbuki Ivan Matveich uni shunday bir fikr bilan tarbiyalagan edi: deyarli butun shu muddat davomida u aql-zakovatni mahv etish va bolalarcha ochiq-oydinlikni va qashshoqlikning birlamchilagini e’lon qilib, zulm zulmatining va pulning mustabidligi qaror topishiga yordam bergen. Bunday xiyonat uchun Seryoja dinlar yoshini yashab bo‘lgach, odatda ularga dostonlarda taqdim etiladigan chala ehtiromni ham nasroniylikka ravo ko‘rmadi. Ayniqsa Seryoja ning e’tiqodida *Istig‘for* yaratuvchisining ham omadi kelmadi, bitikni u feodalizmga qarshi g‘ovlar kurashi bilan shug‘ullanish o‘rniga, o‘zining shubhali sirlarini sotish bilan shug‘ullangan buyuk bekorchining tarjimayi holi deb atadi. Va Ivan Matveichning zerikarli e’tirozlarini oldindan daf etib, unga Yumning xulosasini eslatdi, o‘sha arbob haqiqatni izlashda o‘zining cheksiz tasavvuridan foydalanishni afzal bilib, hech narsani ko‘rgan ham, o‘qigan ham emas.

Xuddi shu tarzda, Seryoja kulgili xo‘roz qichqirig‘iga o‘xhash ovozlar chiqarib, so‘zlaridan adashib, Ivan Matveichning nazarida butun boshli jamiyat tuzumlari davriy bosqichlari bo‘lib xizmat qilgan boshqa falsafiy badiiy mumtoz asarlarni ham ayblar edi.

– Bu *romanchalarning* barchasi bitta dastaga bichilgan, hammasida hayotiy hodisalar sevgi munosabatlarining ipiga terib chiqilgan. Men umuman bu janrni hujjatli yilnomaga o‘xhash boshqa bir nar-

sa bilan almashtirib, foydali bilim berish yuklamasini kuchaytirgan bo'lardim. Vaqt keldi, adabiyotning zimmasiga ham kelajakning boshqa bunyodkorlari qatorida umumiy xabarlar taxtasiga ish jadvalini ilib qo'yish fursati yetdi!

– Sening o'sha bayonnomalaringni kim ham o'qirdi, jigargo'-sham?

– Hechqisi yo'q, mutolaa qilish uchun boshqa hech narsa bo'lмагандан keyin o'qishga majbur bo'lishadi, muhtaram *father*.

Shunda Ivan Matveichning qovog'i solina boshladи:

– Marhamat qilib, meni *father* deb atamagin. Qarindoshlar ekanimizdan orlanma... Men rostdanam sening otangman va bu so'z har qanday lug'atda haqli ravishda birinchilardan hisoblanadi... Xuddi shunaqangi.

– Bo'pti, xafa bo'l mang... – uyalganday bo'ldi Seryoja va qo'l tegizib kechirim so'radi. – Ishoningki, men biologik zarurat sifatida muhabbatga qarshi emasman, lekin... buni odamzotning asosiy faoliyatni sifatida ko'rsatish ancha tahqirli ish. Boz ustiga bu yoqimsiz to-monga qarab rivojlanib bormoqda... Ilgarigi mualliflar o'z qahramonlariga she'rlar o'qitishgan, nastarin hidlattirishgan, ancha keyingilari esa ularning ortidan uyatli bir ahvolda sahifa eshigini yopishga shoshadilar.

– Men ham shuni aytyapman-da. Bilasanmi, o'g'lim, – muallima-na, professorcha uslubda gapini boshladи katta Vixrov, – har qanday tirik mavjudot o'z muhabbatni faslida gullaydi va ko'proq ochiladi, bu olma daraxtimi yoki qushmi – farqi yo'q. Yopiq urug'lilarda botanik oilaga mansublik guliga qarab belgilanadi. Inson esa unday paytda axloqiy-ma'naviy quvvatining butun jilvasi bilan namoyon bo'ladi... va shu tarzda sevgi nazmi qahramonning ma'naviy qadriyatlarini yax-shiroq ko'rish uchun kattalashiruvchi ajoyib oyna vazifasini bajaradi.

– Aha, – ensasi qotib qizishdi kichik Vixrov, – demak mehnat va kurash sizning ma'naviy-tadqiqiy maqsadlaringiz uchun yaroqsiz ekan-da, a? – Va davlat xizmatida turuvchi o'zining qadrli insonining mulohazalarini ko'chadan hech kim eshitib qolmasligi uchun derazani namoyishkorona yopib qo'ydi.

– Ayrimlarning fikricha, tabiatning birinchi navbatdagi vazifasi turning umrini uzaytirishdan iborat, – himoyalandi Ivan Matveich. – Shu tarzda, har qanday zot o'zining oldindan belgilab berilgan vazifa-

sini ijro etishga yaroqsizlanib qolishi bilanoq, tabiat o‘z ne’matlarini undan olib qo‘yadi, shu jumladan dunyoga ta’sir etuvchi quroslasla hasini ham. Masalan, daraxtlar halokati yaqinlashib qolishi bilan ikki baravar ko‘p meva bera boshlaydi. Abelyarning esa, agar yodingda bo‘lsa, o‘z nazmiy qobiliyatini butkul yo‘qotishiga sabab...

– E, bizga qadar ham daraxtlarning boshidan nimalar kechmagan! – gapni bo‘ldi kichigi, oxirigacha tinglamasdan va cholga o‘zining tarbiyasi uchun vaqtini bekorga ketkazmaganini ko‘rsatib qo‘yishning mavridi kelganidan quvonib. – Bu ish juda jo‘n, ota: kechagi adabiyotning qahramoni tekin nonga bakovul bo‘lgan aslzoda, sudxo‘r, amlokdir edi, ular naslni davom ettirish muammo si bilan shug‘ullanish ishiga o‘zlarini butunlay bag‘ishlash uchun bekorchi vaqtga ega edilar... agar bilgingiz kelsa! Axir o‘zingiz, kezi keldi deguncha, aynan odamzot tabiatning sa‘y-harakatlariga oqilona yondashuvni joriy qilish uchun safarbar etilgan, deyishni yoqtirasizku. Binobarin, – uning ovozi Ivan Matveich uchun yoqimsiz bo‘lgan shallaqi namoyishchilarining qichqirig‘iga tortib keta boshladi, – agar yer yuzining barcha fuqarolari bizga qadar bu ish bilan sinchiklabroq shug‘ullangan bo‘lsalar edi, ularning xatolariga hozir biz balogardon bo‘lib o‘tirmagan bo‘lardik. G‘am-tashvishlarimiz ham kamroq bo‘lurdi... sizning muhabbattingiz ham yutuqda bo‘lardi va shunda Romeo bilan Julyettaniyam ajalidan besh kun burun go‘rga tiqmagan bo‘lishardi!

– U holda ajoyib fojaviy doston ham dunyo yuzini ko‘rmasdi... – taysallandi kattasi, chekinish paytida sirpanib yiqilmaslikka intilib. – Xuddi shunaqangi!

– Ishlab chiqarish munosabatlari yo‘lga qo‘yilishi bilan ziddiyatlar ham barham topadi va yozishga arziydigan narsaning o‘zi qolmaydi, demoqchimisiz? Siz qo‘rmang, jasoratli boboy, bizning davrimiz yangi fojalarni yaratadi, faqat o‘shalar inson degan maqomga ko‘proq munosib bo‘ladi...

– Hozircha negadir ularni ko‘rmayapman. Bersang bir o‘qib chiqardim, o‘g‘lim! – G‘irrom o‘yin qilgani uchun shu ondayoq o‘zidan ranjidi.

Bir necha kun o‘tib, ular o‘z bahslarini Moskvadagi o‘zlarini har yakshanba ertalabdan borib oladigan moziyoghlardan birida davom ettirdilar.

– Tayyorlan, hozir sen mo'jizani ko'rasan. – To'g'ridan to'g'ri, Misr, Rim, Italiya Uyg'onish Davri haykallarini chetlab o'tib, Ivan Matveich Seryojani miloslik Afroditaning yoniga yetaklab keldi. – Mana, qara, ana shunaqa. Endi bunisiga nima deysan, darg'azab yigitcha?

Mashhur qo'lsiz ma'buda kattagina xonada o'z davrining boshqa o'lmas asarlari qatorida, aynan pahlavonlar olishuvi aks etgan Pergam lavhasi manzarasida turardi. So'l tarafda ilonlar ilohni haqoratlagan Laokooni o'g'illari bilan birga jazolashmoqda, o'ng tomonda esa – g'azabnok og'a-inilar onalarining qasosi sifatida mustabidning xotinini quturgan farnez buqasining shoxiga bog'lamoqdalar. Yuqorida yoyilib tushayotgan yorug'lik shu'lasida yolg'iz Afrodita bu yerda shunday bir xotirjam va hurkak, qizlikning nimyalang'och holatida, Ivan Matveichning izohiga ko'ra, yerning yaratuvchilik quadrati oldida shoirona insoniy e'zozning mahsuli edi. Qo'shni xonalarga arang sig'ib joylashgan qadimiy sultanatlarning va jahannamlarning hukmdorlari, shohlar va iblislar, buqalar va «iloh»lar – bularning hammasi unga buyuk ma'budaning a'yonlari bo'lib tuyulardi. Albatta, uni kun yarmidagi Egey osmonisiz, moviy, burmalanib pastga tushib turgan baxmalga qo'ymoqlik joiz edi-yu... ammo shu tiqilinchda, azob va qo'rquvlar orasida, hatto iliq sarg'ishlikdan yanada nozikroq qiyofa kasb etgan gips quyma orqali ham Parijdagi asliyatning mukammalli-gi to'g'risida so'z ochish mumkin edi.

Seryoja haykaldan bosiq-istehzoli nigohini uzmagan ko'yi xarrakka cho'kdi.

– Nimayam derdim, bu ham... turning naslini uzaytirish ma'nosida anchagina ta'sirli. Va baribir, bu narsa boshqa zamonlarda va kengliklarda tug'ilgan, men muayyan muddatga uni tuzukroq kiyintirib qo'ygan bo'lardim.

– Voy, sen g'irt ruhoni yekansan-ku, Seryoga! – qizishib ketdi Ivan Matveich. – Hatto Savonarola ham emas, beshinchi asrdan qolgan Iskandariya voizisan. Esingni yig', tosh otaverma... bu xafa bo'lishi va bu dunyodan uzoq vaqtлага ketib qolishi mumkin. Sening qarshingda umumbashar go'zalligi turibdi, axir...

– ... lekin meniki emas, – go'yoki vasvasaga soluvchi haykaldan ko'zini uzib, pastga qarab masharaomuz kului o'spirin. – Bunday so'z bilan bizda manavindan ko'ra kam bo'limgan yuqori mazmun-

ga ega bo‘lgan mukammal shaklni tushunish qabul qilingan... mana shu toshdagи davrimizning qanday yetakchi g‘oyalari sizni o‘ziga jalg etdi? Va yana, hech qanday san’at asari o‘z muhitisiz yashay olmaydi... qani aytинг-chi, mana bu narsa o‘sha olis davrni o‘rganishim uchun menga kichik bir qo‘llanma bo‘lib xizmat qila oladimi? Muallif shafqatsiz hodisalarning qozoni ichida qaynagan va antik quldorlikning vahshiylıklarini ham, Peloponnes urushining dahshatlarini ham, Iskandarning qonli yurishlarini ham payqamagan. Va umuman, bu so‘z qandaydir johilona so‘z, ota: go‘zallik. Bu tu-shuncha juda ko‘p martalab nohaqliklar va jinoyatlar uchun niqob bo‘lib xizmat qilgan! Vayronalar doimo oqshom shafag‘ida jozibador ko‘rinadi, ammo e’tibor berib qarang, ularning tirqishlarida qanday qadimiy gazandalar yashirinib yotibdi. Yo‘q, bu mening Elladam uchun yaramaydi. Endi ham taslim bo‘lmaysizmi, ota?

– Ehtimol, sen qaysidir ma’noda haqdirsan... ammo yashirmayman, sening bu haqligingdan men qayg‘udaman, Sergey. Odatda odamlar hayot ne’matlariga nisbatan, ulardan lazzatlanib bo‘lgachgina shubhaga boradilar.

– Bunga vaqt yo‘q, fursat tig‘iz, ota: avval hayot rejasini oshirib bajarishimiz kerak, – tantana qildi Seryoja.

– Nimayam derdim, ochig‘i, sen qaysidir ma’noda bunga erishing...

Ular baland, har bir tovush yaxshigina aks sado beradigan oynavand shiftli xonaning o‘rtasida o‘tirishardi, ularning orqa tomonidagi bularnikiga o‘zaro qo‘shilgan xarrakni esa ular hozirgacha payqamagan, yarim harbiy bichimdagi kitel kiygan, o‘qituvchi qiyofasidagi, ko‘rinishidan anchayin yosh bir odam band qilgandi. Xonani yarimdoira shaklida go‘yoki maqsadsiz aylana turib, u birovlarining bahsiga aralashgani uchun to‘satdan Vixrovlardan uzr so‘radi.

– Mening nasabim Morshixin... sizga ko‘mak ko‘rsatishimga ijozat etsangiz, – murojaat etdi u Ivan Matveichga, eski namunadagi kichik ko‘zoynagini to‘g‘rilay turib; aynan shu ko‘zoynagi uning novcha qaddiga g‘alati bir maftunkorlikni bag‘ishlab turardi. – Men munozalarining boshlanishidan beri shu yerda o‘tirgan edim va madaniy meros masalallariga muayyan doxillikka ega ekanim vajhidan bu tosh xonimning himoyasiga o‘tmochiman...

– ... Boz ustiga qandaydir jizzaki tanqidchidan jafo ko'rgan xonimning, – gap qistirdi Ivan Matveich, Afroditaning chopilgan qo'llariga ishora qilib.

– Bu qandaydir ongli ravishdagi faoliyat izi ekaniga shubham bor... mutaassiblar jazoni doim kallasidan boshlashgan. Ayniqsa antik burunlar ularda tiyilmas bir faoliyatning qichimasini qo'zg'atgan. Bu xonimni esa bir martagina silkitib qo'ygan, xolos: Milos – vulqonli orol. – Morshixin o'ziga bo'shatib berilgan yondosh joy uchun bosh irg'ab minnatdorlik bildirib qo'ydi. – Demak, yosh qoralovchimiz vorislik huquqiga kirishar ekan, buni san'atdan boshlabdi-da?

– Sizning otalig'ingizga olingan ma'budangizga hozircha hech narsa xavf solmayapti, – hamlanı shartta qaytardi Seryoja. Men zurrat bo'lishi bilanoq yangi, o'zimizning Afroditamizni yaratamiz demoqchi edim, xolos.

Bu gapdan keyin Morshixin butunlay oldinga egildi va peshanasidagi soch tutami kulgili ravishda qoshlarigacha osilib tushdi.

– Maqtovga loyiq istak, lekin... demak butunlay yangisini deng? Va uni zamonomizning qanday taniqli belgisi bilan ta'minlamoqchisiz?... uning qo'liga gayka buraydig'an kalitni qistirib qo'yasizmi yoki uning sinfiy mansubligiga hech qanday shubha qolmasligi uchun yuziga ozgina qoramoy surtasizmi?

– Buni o'zim ham tushunib turibman, – dedi shu zahoti Seryoja, – Afroditada shaxsiy guvohnoma bo'lishi shart emas... ammo bizlar o'tish davrida yashayapmiz, u butkul boshqa ming yillikka munosib. Binobarin, hujjat zarar qilmaydi. Yangisi faqat Uran Kros tomonidan tikkilamchi ag'darilganidan keyingina dunyoga keladi...

Bunisi raqibini o'zining yunon afsonalaridan xabardorligi bilan lol qoldirishga shaddodlarcha urinish edi va Morshixin Seryojani o'ta jiddiy qiyofada tingladи, ammo tuxumsimon shakldagi ko'zoynak ortidan uning ko'zлari o'smirning bolalarcha shoshqaloqligiga qiziqib kulib turardi.

– Xullas, uning yangiligi nimada bo'ladi?

– Buni hozircha bilmayman... ammo har holda bu tariximizdan ham avvalgi marmar sovliq bo'lmaydi... va falsafiy jihatdan ham – odob doirasidagi ashyodan ishlanadi! Umuman olganda injil bayo-

nidagi qovurg'a borasida zaif jinsning unchalik omadi kelmagan... shunday emasmi?

Seryoja rivoyatning bolalarga aytilmaydigan tafsilotlarini nazarda tutmoqda ediki, Morshixin o'zi ko'p bora o'qigan va eshitganlarini qayta tinglash taklifini rad etib qo'yaqoldi.

– Siz Geziodni o'qiganingizni menga takroran pisanda qilmoqdasiz, – bosh irg'adi u salgina yuzi tundlashib. – Lekin bu ilohanining nassini muhokama etmoqlik bizni mavzudan uzoqqa olib ketib qoladi... boz ustiga Gomer talqinida u oddiy tarzda dunyoga kelgan. Modomiki, men shundayin o'qimishli o'rtoq bilan uchrashib qolish baxtiga musharraf bo'lган ekanman, siz Vladimir Ilyichning Yoshlar Ittifoqining uchinchi qurultoyidagi ma'rzasasi bilan tanish bo'lsangiz kerak?

– Men o'zim ham komsomolman... – Seryojaning yuzlari qizardi va betgachoparligi uchun hozir jazolanib qolishidan cho'chiganday, qaddini to'la tikladi.

– Bu meni iqtiboslar keltirish zaruratidan xalos etadi. Demak siz, yigitcha, Leninning, bizga eski jamiyatdan meros qolgan quvvatlar va vositalar zaxirasi bilangina kommunizmni qura olamiz, degan so'zlarini eslasangiz kerak?

– Men madaniy merosni sariq chaqaga olmayman. Nahotki bizning suhbatimiz sizga meni o'qish va saboq olishni istamaslikda ayblashga asos bergan bo'lsa? – qarshilik ko'rsatdi Seryoja.

– Aslo unday emas... holbuki Lenin aynan kitob bilan hayotiy amaliyot o'rtasidagi uzilishdan, quruq yodlab oluvchilardan va maqtanchoqlardan saqlanishdan ogohlantirgan. Men sizni millionlab daraksiz insoniy tafakkur va ish kunlaridan tarkib topgan o'tmishning shunday betakror xazinalariga nisbatan zararli zo'rvonlikdan to'xtatishni xohlayman, xolos... Bu bizning milliy o'zlikni anglash manbalarimizga ham tegishli. Bu haykalda antik tafakkurning butun ravshanligi, insonning taqdir bitigi go'zalligiga ishonch singdirilgan... aynan mana shu yerda avlodlarning ko'ksiga ilingan ajdodlarning mana shu onalik e'tiqod tumorini yaratilgan zamonning shafqatsiz sharoitlarini ham e'tiborga oling. Buning ustiga sizning qarshingizda turgan aslzoda emas... bu ayol qo'lsiz bo'lsa ham, yigirma ikki asr davomida uzlusiz mehnat qildi. Allaqanday Gleb Uspenskiy uning huzuriga turmush iflosliklariga qarshi malham uchun uchrashuvga qatnagan va uni o'ldirish – dunyoni quyoshdan

mahrum qilish bilan barobar ekanligini aytgan. Boshqa yana biri, afsuski u ham sizga taniqli g‘alati kimsa, Geyne, uning qarshisida, Luvrdag'i divanchada ko‘z yosh to‘kkan... ko‘rinib turibdiki, ular ikkisi ham yig‘i borasida sizdan ko‘ra zaifroq edilar. Shu bahonada ularni ham shapatilab qo‘ysangiz bo‘lmaydimi, yigitcha, boz ustiga o‘liklar qarshilik ko‘rsatishmaydi-ku? Lekin bu ikkovlon o‘zlarini ajdodlarning mashaqqatli mehnatlari bilan to‘plangan barcha yaxshi narsalarning qonuniy vorislari deb hisoblaganlar... va umuman go‘zallik haqidada va ma‘naviy qadriyatlar haqida ular eng yaxshi ko‘rinib turadigan joydan turib fikr yuritgan ma’qul!.. Aks holda bularning hammasini, obod qilingan uyni bizning davrimizning g‘or odamlariga berishga qanday jur‘at etmoqchisiz... rosti, haqiqiy g‘or odamlari hozirgi monopoliyachilardan ko‘ra rahmdilroq bo‘lishgan. Ular zaiflarni tabiiy holida yeyishgan, zamonaviy tamaddun apparatlarida murakkab ishlov berishlar yo‘li bilan... insoniy azob-uqubatlardan tansiq taomlar tayyorlagan emaslar. Binobarin, maqtovga arzirli g‘azab bilan tashlanishdan oldin yiqilib ketmang, mening yosh va harakatchan do‘stim!

Moziyoh sokinligini buzmaslik uchun u past ovozda avlodlarning uzluksiz vorisligi haqida so‘z boshladi: busiz har safar olovni va g‘ildirakni ko‘p martalab takror-takror kashf etishga to‘g‘ri kelgan bo‘lardi. «Yo‘q, Fukening, Dreyperning yoki barcha tamaddunlar bitta tomosha maydonidan kelib chiqadi, deb hisoblaydigan o‘zimizning Danilevskiyning yagona, uzluksiz oqimini nazarda tutayotganim yo‘q», – shu joyda Seryoja o‘zining bilimsizligidan uyalib qolishiga to‘g‘ri keldi. Suhbat uning marksistik tushunchasidagi taraqqiyot haqidagi qisqacha ma‘ruzaga aylanib ketdi – o‘tmishning ijobiy muvaffaqiyatlarini o‘zlashtirish va ularni oliv mukammallik pog‘onasiga ko‘tarish, mushtarak halqalar avvalgilarning ustidan o‘rama shaklida joylashuvi to‘g‘risidagi leninchcha nazariya... Seryoja alamdan dog‘-dog‘ bo‘lib qizarib, lablarini tishlaganicha, o‘ziga notanish bo‘lgan nomlar va tushunchalar talaffuz etilganida har safar titrab ketardi; xususan, gezelcha aufheben uning uchun vishillagan qamchin zarbasiy ta‘sir qildi. Agar Morshixinning maqsadi nafaqat haqiqatni anglatishdan, shu bilan birga yodlab olgan bilimlari bilan maqtanishday bolalarcha maqtanchoqlik uchun jazolashdan ham iborat bo‘lsa, u o‘zining murodiga to‘la yetishdi. Shunisi diqqatga sazovorki, u ham-

subbatining samimiy taassufini va o‘ziga nisbatan talabchan adolatga tomon burilganini payqadi.

Morshixinning ko‘pincha bandligiga qaramasdan, ular shu kundan boshlab bir-birlarining jalb etuvchi yangi-yangi xislatlarini kashf etib, tez-tez ko‘rishib tura boshladilar. Yoshlaridagi deyarli o‘n yillik tafovutga qaramasdan, ularning qaynoq o‘zaro yaqinliklari Seryojaning Vixrov vasiyligidan erkin o‘quvchi sifatida Morshixinning ixitiyoriga o‘tishi bilan yakunlandi, natijada uning mashhur nasabli va Parijdan keltirilgan sharflar o‘ragan tengdoshlari qurshovi bu yangi do‘stlik yo‘liga qurban qilindi.

6

U paytlarda ota-onalar go‘yoki orada uzilib qolgan va endi qaror topgan avlodlararo do‘stlik rishtalariga ko‘pincha haddan tashqari katta umid bog‘lab yuborardilar; qaysidir darajada bu ularning nazarlarida o‘z navbatchilarining o‘sib-ulg‘ayishi ustidan yetarlicha bo‘lmagan kundalik nazoratlarini oqlardi ham. Xossatan yaxshi ta’minlangan doiralardagi ayrim oilalar kelajak oldidagi fuqarolik majburiyatini noto‘g‘ri talqin etib, uni o‘zining shaxsiy bolasi to‘g‘risida g‘amxo‘rlikka aylantirib olganlar, – vaholanki, ular kuchsiz tuproqda parvarishlangan daraxt serqatron, maydaqtlam va zich bo‘lib yetilishini o‘z tajribalaridan bilardilar. Ivan Matveich o‘z xatolarining xususiyatidan kelib chiqilganida, o‘rtacharoq darajada turardi; Seryojaning oshnachiligidan mahrum bo‘lishdan qo‘rqib, u bolaning munosabatidagi tenglik ohangiga yoki uning nasihatlarini bu boqimandasasi aziz odamining, ko‘pincha esa jonga tekkan cholning tentakvor vaysaqiliqi sifatida masxaraomuz kamsitishlar bilan qabul qilishlariga chidab keldi. Faqat urush arafasidagi eng oxirgi vaqtlardagina Ivan Matveich Seryojaning qadimgi insoniy ma’naviy qardriyatlargacha nisbatan ishonchsizlikdan iborat hur fikrliligi eng yaqin va muqarrar qadriyatlargacha ham qaratilmasa edi, degan rosmana tashvish-xavotirga tushib qoldi.

Bu xonadonda bo‘lish Morshinxinga yoqardi. U paytlarda shaxsiy do‘stlik deyilganida mamlakatning fuqaroviy birligi tushunilar edi, uning o‘z oilasi ham yo‘q, o‘zining nosarishta bo‘ydoqona xonasini esa asosli ravishda garaj deb atar edi. U Vixrovlar oilasida shunchalik

o'mashib qoldiki, hatto Taiska go'yoki uning mansabini-yu yoshini sal kamaytirib qo'yish maqsadida ko'zoynakni asrab olishga onalarcha tayyorligini ko'p bora izhor etdi ham.

Morshixinning navbatdagi o'rmonchilik yig'ilishiga bo'lgan tashrifida Ivan Matveich endigina o'n sakkizga kirgan Seryoja borasida u bilan maslahatlashdi. O'zi past tabaqadan chiqqan Morshixin hech qanday ko'maksiz kechadigan mustaqil mehnat hayoti Seryojaning tarbiyasidagi xatoliklarni to'g'riliishi mumkinligi haqidagi mulohaza-ga qo'shildi; uning fikricha, ziyoli tabaqalardan chiqqan ko'pchilik yoshlarga, agar oliy maktabga kirishdan oldin biror yil ular ishlab chiqarishda mehnat qilishsa hecham zarar bo'lmasdi.

Uyog'i o'z-o'zidan jo'nashib ketdi. O'sha oqshom uyga kechroq qaytgan Seryoja mehmonni o'zining g'urur manbayi bo'l mish san'at bo'yicha bezakdor kutubxonachani ko'rsatish uchun xonasiga boshlab kirdi; o'sha paytda u Polyaning naq yarmi texnik ashyolar uyumi, eski elektr relelar va burchaklarga tashlab qo'yilgan jez chiqindilarga to'la mexanik ustaxonaga aylantirilgan xonasida yashardi. Yuritkichi bilan birga taglikka o'rnatilgan sarishtagina tokarlik dastgohi Morshixinning ko'z oldida Seryojani notanish tomondan namoyon etdi.

– Bolalikdan qolgan ermakmi deyman? – bosh irg'ab qo'ydi Morshixin yarmi bo'laklab qo'yilgan o'yinchoq elektr poyezdni yerdan ko'tarar ekan.

– Yo'q, ayrim narsalarni takomillashtiryapman, Pavel Andreich, – uyalib ketdi Seryoja. – O'rama bo'ylab oliy pog'onaga o'tish... – Va, zamонни hamda makонни yengib o'tuvchi, hov o'shanda ustozi aytgанидай, inson umrini uzaytiruvchi har xil mexanizmlarga ko'pdan beri qiziqishini o'rtadagi sir sifatida tan olib aytди.

Kelajakda kim bo'lmoqchi ekanı haqidagi savolga Seryoja baldandparvoz tarzda javob berib, har qanday ishga – sayyoralararo raketa radiochisidan boshlab, shamshir tig'idagi tarkibiy zarracha bo'lishga ham tayyor ekanini aytди.

– Oddiyroq aytganda-chi? – uning o'zini ko'rsatib, hayratga solishga uringan izzattalabligi yana takrorlanayotganiga yuzini burish-tirdi mehmon. – Darvoqe, makonlarni yengib o'tish masalasida... Sizni hech qachon rostakam bug'tortarda yurish havasi o'ziga jalb etmaganmi? Shu ishda kamina yordam berishi mumkin. Qobiliyat-ingizga qaraganda, sizdan yomon mashinist chiqmasdi.

Yigitcha mammunlikdan qizarib ketdi va shu tarzda bitta o‘yin-choq hamda Morshixinning tarjimayi holidagi ayrim vaziyatlar Seryojaning taqdirini bir necha yil oldinga belgilab berdi... Morshixin universitetni tugatgach, tanlov tartibida firqa tuman qo‘mitasiga targ‘ibotchi etib yo‘llandi, uning hududida O‘rmon xo‘jaligi instituti ham joylashgan edi. Vixrov bilan tanishuv vaqtiga kelib u oliy partiya maktabini sirtdan yakunladi, shunday qilib uning dissertatsiya yoqlashi qolgan edi xolos va bundan tashqari u tumandagi eng yirik ishchi markazda, shimoli-g‘arbiy temiryo‘l tarmoqlaridan biriga qarashli Deyev bosh deposida partiya tarixidan seminar o‘tkazar edi; u yerda bir paytalar Morshixinning otasi ishlagan va o‘zining ham bolaligi o‘tgandi. U yerga Seryojani ishga joylashtirish qiyinchilik tug‘dirmadi. Taklif etilgan ikkita vazifadan – ko‘tarish sexida slesar shogirdi va o‘t yoquvchi – yigitcha romantika nuqtayi nazaridan keyingisini tamladi; bunaqa tafsilotlar umr davomida yosh sovet kishisining xizmat varaqasida xuddi unvon kabi ko‘rinish olardi.

O‘zining yangi ishida yarim yil ichida Seryoja milos haykaliga bo‘lgan munosabatini bir qadar o‘zgartirdi: tenderda ishlayotgan irkit yigitga u qadrdon bo‘lib qolgani yo‘g‘-u, lekin qandaydir shubhasizlik kasb etdi. Yarim yillikning oxiriga kelib, mashinist yordamchisi unvoni uchun zarur bo‘lgan to‘rtinchi toifaga imtihon topshirishi oldidan, Seryojaning irodasi va jasorati sinaladigan birinchi hodisa yuz berdi. Safar paytida, bekatlardan birida o‘txonani tozalash paytida kul tashlash qutisiga o‘choq panjarasi tushib ketdi va yosh go‘lah poyezd yo‘lda turib qolmasligi uchun uni darrov o‘rnatib qo‘yishga tayyorligini bildirdi. Buning uchun qozonning haroratini ozgina pasaytirish va kosovlash tirqishiga belga qadar suqilib kirishga to‘g‘ri kelardi. «Qara, Vixrov, u yer juda qaynoq va rosayam tor... tiqila olasanmi?» – so‘radi mashinist. «Hechqisi yo‘q, Lazo battarroq azoblangan, men ham o‘tishim shart», – dimog‘dorlik bilan javobini qaytardi Seryoja, kimlardir hanuzgacha uning timsoldida professoring o‘g‘ilchasini ko‘rayotganidan achchig‘i chiqib. Tezgina o‘zining ustidan suv quyib, qanor matoga o‘ralib, Seryoja chidab bo‘lmas darajada kuydiruvchi zulmatga sho‘ng‘idi va ikki harakat bilan ishni muvaffaqiyatli yakuniga yetkazdi va qaytganlaridan so‘ng bu holat komsomol majlisida muhokama etildi. Oradan hafta o‘tib, o‘ziga o‘xshagan besh nafar yoshlari qatorida u ham imtihon topshirishga keldi.

Dud bosgan derazalari qayrilish doirasiga qaragan, tamaki tuni tutib ketgan texnika xonasida bug‘tortarlar boshliqlari va o‘z vorislarini ko‘rishga kelgan deponing faxrli qariyalari o‘tirishibdi. Topshirilgan vazifaga ko‘ra berilgan gayka uchun Seryoja yasagan kalitga ham, shunchalik mukammal sayqallanganidan, ustma-ust qo‘yilganida bir-biriga yopishib qoladigan andaza taxtachasiga ham ularning birortasi hatto barmog‘ini tegizib qo‘ygani yo‘q. Ammo bug‘tortarni ta‘mirlash va soz holatda tutish bo‘yicha oddiy savol-javoblardan keyin depoda ancha taniqli, sochlari allaqachonlar oqarib ketgan yo‘riqchi mashinist Markelich yangi ishchini semafor xo‘jaligi bo‘yicha qayta-qayta sinovdan o‘tkazaverdi; chamasi, shogirdlik yillarida yo uning o‘zi, yoki uning ko‘z o‘ngida boshqa kimdir butun tarkibi bilan oldinda turgan poyezdning quyrug‘iga kelib urilgan-u, shuning boisidan butun yarim asr davomida u xabarlagichlarni bug‘dotar ilmining tomi deb o‘ylab yurgan, shekilli. U avvaliga tili achchiq bo‘lsa-da, imtihonning oxirlariga borib, Seryojaning yuziga muloyimroq qaradi, u esa hozir kuyib ketgan qoshlari va panjarani o‘rnatayotganida hatto qo‘lqop orqali kuygan, doka bog‘-langan qo‘llari haqida so‘rashlarini kutib turardi.

Rostdan ham, qariyaning ko‘zlarida to‘satdan qandaydir jonli qiziqish iliq nurlandi.

– O‘tkir bolayakan, hechqisi yo‘q, bundan bir ish chiqadi, – maqtab qo‘ydi Markelich, cho‘bug‘ini o‘tlantirarkan. – Endi bizga javob qilgin-chi, bolam... – va Seryoja o‘z jasoratini ulug‘ qahramonlarga xos tarzda qisqa va quruqqina bayon qilishga chog‘landi, – bizga aytgin-chi, sen anavi la’natini ichmaysanmi? Bizning“og‘aynilarga, xullas boboylarga, buning aybli tomoni yo‘g‘idi: podshohlik tutumi bizning birodarlarni shu narsaga ruju qo‘ydirgan. Sizlar uchun esa bunday oydin hayotda uning keragiyam yo‘q. Nari borsa hordiq chiqarish uchun, kezi kelib qolganida yarim bardoq uzum musallas kifoya qiladi... – Va labini chapanichasiga artib qo‘ydi, Seryoja esa o‘zining qahramonligi hozirda u a’zolikka qabul qilinayotgan katta hayot oldida ahamiyatsiz, odatiy ish ekanini angladi.

Qariya yangi ishchiga yong‘in xabarlagichi va havo hujumidan ogohlantirish chorlovlari ma’lum ekanligiga ishonch hosil qilgachgina Vixrovni qo‘yib yubordi: bugun urushning to‘rtinchı kuni edi.



O'NINCHI BOB

1

Hozirda urush borayotgan va sovet kishilarining butun o'yayollari frontga qaratilgan bo'lsa-da, aynan ushbu davr har bir insondan buyuk ma'naviy poklikni talab qilib turgani bois, Polya o'z shaxsiy tashvishlariga uzil-kesil bepisandlik qila olmasdi. O'z xalqining yuziga ochiq qaray olish huquqi uchun xuddi onasi singari Polya to'lashga tayyor turmagan bahoning o'zi yo'q edi. O'zi bilma-gan holda, Vixrov qizining sinoviga bardosh bera oldi, boz ustiga, bu shundayin shafqatsiz imtihonki, farzandlar qonunlarga deyarli chap berib ketgan dalillar asosida bir umrlik nafratdan boshqa hech qanday hukm bilan jazolamaydilar. Dastlabki surishtiruvlar Vixrovning foydasi tomon og'ib turibdi, endi uning Gratsianskiy bilan ilmiy ziddiyatlari tarixini o'rganish qoldi. Aytish joizki, sentabr ma'ruzasining xotirjamlik baxsh etgan taassurotlari keyingi o'y-fikrlar ta'sirida ancha xiralashib qoldi: eng yovuz odam ham o'zini asrab qolish tuyg'usi ta'sirida yoshlar qarshisida, ayniqsa Moskva ostonasidagi ayovsiz jang kunlarida boshqacha gapira olmasligi yosh bolaga ham ayon edi.

Qidiruvlarning ushbu bosqichida Taiska jiyaniga yordam berishga qodir emasdi; keyinchalik Polyaga yosh mashinist yordamchisi so'zlab bergen ba'zi narsalarni dahshatli Moskva tunlaridan birlida tasodifan o'zi eshitib qolgan birgina jumla butkul izohlab berdi. Hozircha esa, xuddi onasi kabi badgumon va serzarda Polya haqiqatni yolg'iz o'zi, turli yolg'on-yashiq makkorliklar va uzoq sa'y-harakatlar yordamida qidirmoqda edi, shu bois Varyaning ortidanoq frontga otilishning tiyilmas havasi ham to'xtalib qoldi: to'la ruhiy ravshaniksiz Polyaning o'ylab qo'ygan qarori xudkushlik talvasasidan boshqa narsa bo'lmay qolardi. Qiz turli bahonalar bilan otasining xizmatdoshlariga uchradi, ular maxsus maslahatlar berishni rad etmадilar, ammo gap Vixrov uchragan asosiy tanqidga kelib taqalganida

esa, qat'iyan jim qolishaverdi; oqibatda Rossiyaning Yevropa qis-midagi o'rmonlar ahvoli bilan va o'ttizinchi yillardagi o'rmonchilik bo'yicha kelishmovchiliklar bilan yaqindan tanishuv Polyaning kasb tanlashda yakuniy qarorga kelishiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. U noyabrning oxirlarida tanishgan Osminovgina unga o'sha mashhur o'rmonchilik munozarasi bo'yicha muayyan ma'lumot berdi va uning otasining raqibi haqidagi o'zi bilgan mavjud juda oz ma'lumotlarni xabar qildi. Shunisi ahamiyatlici, hatto o'shanda, front yaqinidagi ov-loq qishloqchada ham, mayor Osminovning shaxsiy fikri uning mujmal-xayrixoh ohangi orqali arang anglashilib turgan edi.

Polyaning ko'z oldida Aleksandr Yakovlevich Gratsianskiy ulug'vor, lekin begonalarning qiziqishlaridan ustomonlik bilan ihotalanib olgan odamovi tarkidunyochi kimsa timsolidagi bir qadar qo'shaloq qiyofa egasi sifatida shakllandi; misol uchun, shu narsa ma'lum bo'ldiki, dunyodagi hech bir zot avvaldan telefon orqali ijozat olmay turib, uning huzuriga kirishga jur'at eta olmas ekan. Va eng avvalo u oddiy odamlarning har qanday zaifliklaridan xoli ekanmish... To'g'ri, Sovetlar mamlakati erkaklari orasida o'z shaxsiy fazilatlari dan boshqa biror narsa bilan ziynatlanish qabul qilinmagan bo'lsa-da, Aleksandr Yakovlevich ko'rsatkich barmog'iga antik naqsh tushirilgan qimmatbaho toshli uzuk taqib yurardi va uning mujmal sirli shamariga ko'ra, bu go'yoki oddiy uzuk emas, balki shaxsan Gersenning Gratsianskiyga uzoq qarindoshlik tomoni mavjud bo'lgan nadimidan qolgan meros emish, binobarin Aleksandr Yakovlevich qora avom-dan ajralib turishlik uchun emas va hatto o'zi mustabid podshohdan ko'rgan mashaqqatlarining evazi sifatida ham emas, ochiq aytganda, umumbashariy ozodlik uchun jonini tikkan taniqli kurashchilar-ning ma'naviy vorisi ekanining belgisi sifatida bu erkinlikni o'ziga ravo ko'rар ekanmish. Vorislik huquqiga ko'ra va o'rindoshlik aso-sida Aleksandr Yakovlevich eng kamida o'nta qo'mita, tahririyat va turli ilmiy muassasalarning a'zoligiga ega edi; O'rmon xo'jaligi institutida esa u qandaydir noaniq yo'nalishdagi kafedraga mudirlik qilardi – «O'rmonlarni sanoat asosida o'zlashtirishni tashkillashtirish». Tabiiyki, yo'l qurilishi, yong'inlarga qarshi kurashish, texnik jihozlash, o'rmon muhofazasi, yog'och tayyorlovchilarning maishiy tuzilmasi kabi tartibot muammolari boshqa uchta, ixtisoslashgan kul-liyotlarda o'qitiladi, ammo professor Gratsianskiy go'yoki o'zining

jamlanma dahosi bilan va favqulodda jazavasi bilan ularni shundoq qamrab olgandiki, natijada ma'muriyatdagilardan hech bir kishi o'ziga qudratli dushman orttirib olish va qon bosimi dardiga mutbalo bo'lish qo'rquvida uning xizmat vazifasi o'zi nimadan iborat ekanini aniqlashtirishga botina olmasdi. Ammo har holda, Osminovning so'zlariga ko'ra, Aleksandr Yakovlevich o'rmonchilik amaliyotini bir qator o'ta qiziqarli takliflar bilan boyitibdi-yu, lekin afsuslarkim, ular amalga oshirib bo'lmaydigan yoki foydasiz rejalar ekan; agar uning g'oyalari fandagi raqiblarini yo'qotishga urinish va o'zining sayoz, ammo qamrov miqyosiga ko'ra ajablanarli tafakkurining benuqsonligini zo'rlik bilan tasdiqlatish o'rniغا o'rmon manfaatlariga qaratilganida edi, har holda ulardan hech kimga zarar yetmagan bo'lardi... Xullas, kaltafahmlarning nazarida bu odam chuqur ehteromga munosib ediki, zero o'shalarning nazdida uning yolg'iz o'zi mamlakatdagi o'rmonchilikka doir ishlar bo'yicha umumiy nazoratni o'z yelkasiga ortib olgan ekan; natijada tahririyatlar unga qulog tutishar, kasbdoshlari unga yaldoqlik-yaldoqlik qilishar va har qanday holat bo'yicha yuvosh o'rmonchi chollar, o'zlariga qanchalik qiyin bo'lmasin, uning ijodidan iqtibos keltirmaslikka botinolmas edilar.

Bularning barchasiga Aleksandr Yakovlevich shaxsiy iste'dodi bilan, aynan o'zini go'yoki qobiliyatsiz va beg'am zamondoshlar olomoni ustidan yuksaltirib turuvchi ayovsiz istehzoga to'la tanqidiy maqlolalari yordamida erishdi. Odamlar o'zaro suhbatlarda bir-birlarining quloglariga shivirlab, u o'zining ro'yxatida rejalashtirgan barcha hamkasblarini yo'q qilib bo'lgan zahotiyoq, o'z qahrini tabiatning ayrim qoloq hodisalarini mahv etishga qaratib, ularni kerakli mukammallikka erishtirishni boshlaydi deb hazil qilishardi. Bundan tashqari, Aleksandr Yakovlevich ba'zi-ba'zida begona kitoblarga ni-hoyatda ehtiyyotkor, ammo favqulodda «bilimdon» so'zboshi yozib, dunyoga tuhfa etardi va lekin o'rmonchilik bo'yicha duch kelgan risolaga emas, faqatgina o'tmishning mashhur asarlariga murojaat etib, yovuzlikning ildizi qayerda ekani va uni o'sha yerdan qanday sug'urib olish lozimligini to'g'ridan to'g'ri ko'rsatib berardi. Uning o'zi yirik bosma asarlar yozmagan, ammo buning boisi matbaachilik sanoatini ish bilan ortiqcha band etmaslik maqsadi emas, hattoki, qandaydir jazoga mustahiq bo'lib qoladigan adashishni sodir etib qo'yishning maqtovga loyiq vahmidan ham emas, faqatgina bemorligi

vajhidan yozmagan xolos, xususan, o‘zining bazo‘r 63,5 foizgacha boruvchi gemoglobin tanqisligidan. Muntazam o‘n besh yillar davomida Aleksandr Yakovlevich o‘rmonchilik sohasi bo‘yicha qandaydir favqulodda qalin «injil»ni chop etishga tayyorlayotgani, mayda, zinch yozuvda uch yarim ming sahifadan iborat bo‘lishi, hali bir dunyo havolalari bundan mustasno ekani, kitob bosmadan chiqqach, hamma o‘rmonshunoslar hasaddan va notavonlikdan so‘lib-so‘ljayib hamda abgor bo‘lib, uning oyog‘i ostida qolishlari haqida to‘xtovsiz ovozalar yurib turdi; va albatta u o‘z tahdidini amalga oshirar ham ekan-u, lekin bunga shifikorlarning qalam ko‘tarishni taqiqlaganlari xalaqit berib qolibdi-da. Aleksandr Yakovlevich o‘zining umum tan olingen nimjon gavdachasi bilan Tulyakovday pahlavonni es-kirgan o‘rmonshunoslik nazariyalari uchun yuzi demay-jag‘i demay matbuotda uraverib, oldi-ortiga qaramay tanqid qilaverib-qoralayverib ag‘darganini qahramonlik deya hisoblash kerak. Faqat bir marta Seryoja otasiga bo‘lgan bolalarcha achinish ma’nosida Gratsianskiyga shu darajada mustahkam salomatlik nisbatini berdiki, qadrdon o‘rmonchilik ilmi manfaati yo‘lida bu sog‘liqning ozgina mazasini qochirib qo‘yish ham ayb bo‘lmasdi. Ivan Matveich dushmaniga zarar yetkazmaslik borasida boladan chin komsomollik va‘dasini oldi.

A. Ya. Gratsianskiyning yorqin mavqeyi ko‘tarilishining boshlanishi yigirmanchi yillarning o‘rtalariga borib taqaladi, o‘shanda Rus o‘rmonining qismati ortidan Vixrovning O‘rmon to‘g‘risidagi fanga kirish asarining birinchi nashri dunyo yuzini ko‘rdi. Bu kitobda ehtimol yangi kashfiyotlar bo‘limgandir, ammo u boshidan oxirigacha sovet olimi uchun begona bo‘lmagan, kelajak uchun o‘tli bir xavotir tuyg‘usi bilan yo‘g‘rilgan edi; unga qadar o‘rmon haqida faqat juda ozchilik bunday jasorat bilan gapira olgan edi. Muallif o‘zining nuqtayi nazarlarida o‘rmon ashyolari turmush zarurati buyumlariga taalluqli ekani va shuning boisidan ularga bo‘lgan yillik talab avvalgiga yaqinroq hajmlarda, ammo muntazam o‘sib boruvchi miqdorlarda takrorlanib borishi haqidagi hammaga ma’lum qoidadan kelib chiqqan. Vixrov bundan shu xulosaga kelganki, o‘rmon xo‘jayininining maqsadi o‘rmonni imkon qadar ko‘proq miqdorda a‘lo navli yog‘och olish uchun zarur bo‘lgan holatda saqlashdan iborat bo‘lmog‘i lozim. Buning uchun o‘rmonning yetilib turishi va yoshidan kelib chiqib kelishilgan kesishlar o‘rni uning to‘g‘ri asosda yangilanishi bilan

to‘ldirilishi lozim va bu tizim shunday hisob-kitob bilan yuritilishi kerakki, oxirgi o‘rmon maydoni kesiladigan paytga kelib, birinchisida yangi, sanoatbop sifatga ega daraxtlar yetilib ulgurgan bo‘lsin. Bu holatda, muallifning fikriga ko‘ra, Shimolning Yevropa qismi, Sibir va Uzoq Sharqdagi o‘zlashtirilmagan o‘rmon kengliklarini xo‘jalik aylanmasiga kiritish, yog‘ochga ishlov berishda chiqindi isrofini kamaytirish, kesilayotgan o‘rmon hududlarida odamlarning insofiroq bo‘lishi, daraxt kesilgan maydonlarda va bo‘sh yerlarda darhol daraxt ko‘chatlari ekish bilan o‘rmonni qayta jonlantirish, botqoqlashgan o‘rmonlarni parvarishlash va suvini qochirish vositasida yangi o‘sish hajmini orttirish, yong‘inlardan muhofaza etish va nihoyat, buyum-lardagi va o‘rmondagi yog‘och chirishiga qarshi kurashish hamda imkon qadar yog‘och ashylarni metall bilan almashtirish evaziga ishlab chiqarish va iste’mol o‘rtasidagi uzilishni qoplash shart.

«Ko‘z yoshini oqizgandan ko‘ra, ter to‘kkan ma’qul, – deya yakunlaydi boblardan birini Vixrov. – O‘rmonchilik alifbosining bu haqiqatlarini o‘zlashtirishsiz o‘rmonshunoslik faoliyati o‘rmonni oddiygina istifoda etishga aylanib qoladi va bu ham bizning mushtumzo‘r irodamiz imkonidadir, ammo bu ishimiz ertangi kunning ehtiyojlariga bepisandlik bo‘ladi». Shu tarzda Ivan Matveich avvalgi rus o‘rmonchilarining tutumini davom ettirdi, ammo shu qayg‘uli farq bilanki, uning ushbu ilmiy ishi mamlakatning o‘rmonni sarflashining butun tarixidagi eng kuchaytirilgan payti arafasida paydo bo‘ldi. Tabiiyki, xalq xo‘jaligining eng yirik tarmog‘i qayta qurilishi bilan bog‘liq har qanday nazariya, jamoatchilikning kuchaygan diqqatini o‘ziga jalb etadi va albatta ko‘plab e’tirozlarga sabab bo‘ladi. Vixrovning murosasizligi turli-tuman sohalar bo‘yicha hisob-kitoblar bilan tasdiqlangan, uning talablari bor-yo‘g‘i o‘rmonga bo‘lgan munosabatda qat’iy tartib o‘rnatishga qaratilgan bo‘lsa-da, hattoki uning ko‘p sonli tarafdorlaridan ba‘zilarini ham qo‘rqitib qo‘ydi. O‘sha paytlarda Ivan Matveichning juda ko‘p jiddiy tanqidchilari paydo bo‘lib qoldi va ularning eng chekka qanotida A. Ya. Gratsianskiy o‘zining yorqin aqli va kuchli zarbasi bilan alohida ajralib turardi. Tulyakovni muvaffaqiyat bilan mahv etganidan hamda o‘rmon kesish aylanmasini kamaytirish bo‘yicha hozirgina shov-shuv bo‘lgan munozaradan ilhomlangan holda u Vixrovning to‘g‘ri ko‘ngilda yozilgan kitobini tekshirib qo‘yish uchun ohib, undagi «yovuzlik ildizi»ni izlab topdi,

qandaydir «ilmiy» asosni unga qarshi moslashtirdi, istiqbol bilan taq-qosladi, go'yoki muallif tomonidan ataylab mavhumlashtirilgan va isbot uchun yetishmay turgan mazmunni o'zi ijod qilib qo'yaqoldi, bularning hammasini kerakli ta'sir kuchiga ega bo'lgan ehtiros bilan quvvatlantirdi – va dor sirtmog'iga yo'llanmaga o'xshash o'tkiringina ayblov yuzaga keldi-qo'ydi.

U yillarda ko'pchilik odamlar maqtovni buzg'unchi murosasozlik sifatida qabul qilishar, yaxshi ishlarni xomxayollardagi ezgulik yo'lida inkor qilishni esa – ma'rifiy donishmandlik deb hisoblashar edi. Kutilmagan muvaffaqiyat shu paytgacha noma'lumlik chuqurchasida g'ujanak bo'lib yotgan taqrizchini qanolatlantirdi va Vixroving navbatdagi O'rmon – xo'jalik obyekti sifatida nomli ilmiy ishi nashrdan chiqqach, u endi avvalgisidan qattiqroq va rostini aytganda, qorindan pastiga zARB urdi, ammo kuzatuvchilarining taajjublariga ko'ra, hamkasbi bu g'irrom zARBaga ham dosh berdi. «Yo'q, azizim professor, burjuaziya o'zi uchun o'ylab topgan o'rmon qonunlari bilan bizni qo'rqitilmaysan: qonunlarni bizlar o'rnatamiz, – yozgan edi o'shanda Gratsianskiy noma'lum kimningdir nomidan, chunki sovet hokimiyatining o'rmon bo'yicha barcha hujjatlari, 1918-yildagi mashhur lenincha dekretdan boshlab, aynan o'rmon kesishning yillik o'sish bilan mutanosib miqdorda bo'lishini ko'zda tutardi. – Sizlarga qasdma-qasdiga, vaqt kelishi bilan hammasini kesamiz, Volgani ham ayamaymiz, sizlarga shunchalik suyukli bo'lgan Mezenga ham shafqat qilmaymiz, Pechora va Kamani, Dnepr va Dvinani, Angara va Enasoyni o'rib tashlaymiz, iblisning onasini ko'rsatib, va... etagingizza yashirgan yana qaysi o'rmonlaringiz bor edi?» Va agar yana bitta satr yozsa – muallif tutqanoqdan ag'dariladiganday tuyulardi go'yo. Ammo shu maqoladagi kabi va umuman Gratsianskiyning barcha nashriy chiqishlari singari o'rmon borasidagi birorta yetilib turgan masala hech qachon mazmunan tahlil etilgan emas... Va, albatta, Aleksandr Yakovlevich o'z quvvatini ishlab chiqarish amaliyotining mayda-chuydadlariga sarflashni lozim topmasdiyam; turbinalar qurilishi bo'yicha muhandislar, o'rta qulqoq bo'yicha shifokorlar bo'lgani kabi, xuddi shu asosda u o'zini yovuzlikning ildizi bo'yicha mutaxassis deb bilardi, hozircha faqat o'rmon bo'yicha. Qolgan ishlarni esa u arzimas ilmiy ko'nigmaga ega, turmush quvonchlarini tezlashtirish maqsadida o'ziga qo'shilib olgan yigitchalarga topshirar edi. Ular-

ni, e'tiqodlari dunyoning har to'rt tarafiga qarab osongina burilib ketavergani vajhidan mutlaqo o'z nuqtayi nazariga ega bo'lмаган beqaror sobitqadamlar deb atash to'g'ri bo'lardi.

Shu tarzda rus o'rmoni tepasiga g'alati, qo'shaloq yulduz chiqib keldi, unda birining o'tli qaynoq haroratini ikkinchisining g'a-yirlarcha sovuqligi muvozanatlab turardi: Vixrov hamda Gratsianskiy, ushbu sohada bir xil tan olingen taniqli arboblar. Zamondoshlar asta-sekinlik bilan shu fikrga ko'nika boshladilarki, birinchisining vazifasi o'z zaxirasidagi qandaydir yangilikni ikkinchisining mujmal tegirmontoshiga yanchish uchun, aniqrog'i – yanchib tashlashi uchun, muttasil yetkazib turmoqlik edi. Avlodlarning ertangi kuniga ishora qilgan muallif havolalari ko'rinishidagi qattiq, Gratsianskiyning tishi o'tmaydigan donlar esa go'l o'quvchining ko'z o'ngida *vixrovcha hiylalar* degan bahona bilan yaroqsizga chiqarib tashlanar edi; Ivan Matveich navbatdagi ilmiy asarini tayyorlashda ozroq kechikib qolsa, Aleksandr Yakovlevich matbuotda shubhali tarzda cho'zilib ketgan ijodiy inqiroz to'g'risidagi maqolalari bilan uni niqtab turardi. Qator yillar mobaynida u Vixrov kitoblarini zinapoya qilib o'zining balchiq o'rasidan yuqoriga chiqib oldi, tag'in har bir kitobning ahamiyati uning ko'tarilish balandligiga matematik jihatdan muvofiq kelardi. Barcha ushbu holatlarga qaramasdan, Ivan Matveichning obro'-e'tibori go'yoki eng shubhali bo'lsa ham, ammo shunga qaramasdan, o'z zamonasining eng yirik o'rmonshunoslaridan biri sifatida saqlanib turishidan Aleksandr Yakovlevich favqulodda manfaat-dor edi va shu zaylda unga nisbatan uzlusiz tarzda doimiy tanqidiy xo'jalik faoliyatini yuritib, ta'bir joiz bo'lsa, bundan o'zining yillik daromad foizini ajratib olaverardi. Raqibni bir martada yakson qilish esa, uning o'z halokatini ham anglatar edi. Vixrovning majburiy turg'unlik yillarida Gratsianskiy zarba berish ko'nikmasini hamda dastxatini yo'qotmaslik maqsadida uning o'rmonshunoslik adabiyoti oltin jamg'armasiga go'yoki «shoshqaloqlik bilan kiritib qo'yilgan» avvalgi kitoblarini qaytadan g'ajishga kirishardi. Shu ma'noda uning o'ttizinchi yillar o'rtasida soxta bir kimsa orqali qilgan chiqishi o'ta jiddiy e'tiborga loyiq: o'sha paytlarga borib deyarli unut bo'lgan *Rus o'rmonining qismati* tanqidga olindi. Har xillik bo'lishi uchun maqola boshqa ism-sharif bilan imzolandi, lekin uning matnida Gratsianskiyning ayblov jumllalari ochiq-ravshan ko'rinishib turardi...

Birinchi satrlardanoq muallif kitobni nazmiy chekinishlar ni-hoyatda ko'p ekani boisidan nafis og'zaki adabiyot toifasiga kiritib qo'ydi; bu bilan o'zining zimmasidan ilmiy tahlil mas'uliyatini soqit qildi. Qadam-baqadam u asardan loqayd kuzatuvchilik obyektivizmi va tor manfaatparast-iqtisodparastlikni, sinfiylikdan yuqorida turuchi tajribaparastlik va mexanik amaliyotchilikning qusurli izlarini, rad etib bo'lmaydigan darajadagi xayolparastlarcha inkorchilikka va soxta ilmiy vulgarizmga moyillikni izlab topdi, bularning oxirgisi-ga eng avvalo Vixrovning o'ziga tegishli bo'lman, u kimlardandir o'zlashtirib olgan: *yerni o'rmon shudgorlaydi*, iborasining antropomorfizmini kiritish lozim bo'ladiki, aslida o'rmon yerni hayday ol-maydi, chunki u odam emas. Muallif yo'l-yo'lakay Gostomislovlar davrida Ukrainianing sero'rmonlik darajasini, ochiq-oydin vixrovcha ko'pirtirib ko'rsatish, deya tanqid ostiga oldi va uning o'rmonlarni kesishdan iqlim buzilishlari yuzaga kelishi borasidagi xavotirini kulgi qilib tashladi: zero, masalan Geroklit bo'yicha ham iqlimlar o'zgaradi, kim bilsin, bir yil-bir yarim yillardan keyin ehtimol Vologda atroflarida ham evkaliptlar o'sishni boshlar. Nihoyat, tanqidchi alohida bir g'azab bilan kitobning unvon varag'iga tashlanib, asar biror-bir munosib kishiga emas, balki yengalik allaqaysi asal sanoatchisi Kalina Gluxovga bag'ishlanganidan quturib ketdi. Maqlolacha ochig'ini aytganda shaloq tilda yozilgan, o'qiganlarning hammalarining ko'nglini behuzur qilar, biroq uning oxirgi sahifalarida yoshlarni mog'orlagan vixrovcha ta'sirdan asrash masalasi keskin qo'yilgan ediki, bunday ayblovlar shunchaki izsiz o'tib ketmaydi.

2

Ivan Matveich shuni taajjub bilan aniqladiki, unga otilgan o'qni O'rmonshunoslik ilmiy qo'mitasi, xususan yaqindagina raisning o'rnbosari etib tayinlangan Cheredilov uyushtiribdi; uning lavozi-mida uzoq yillar davomida V.V. Dokuchayevning saboqdoshi, sinch-kov va beg'araz qariya, akademik Tarakansev o'rnini bo'shatmas-dan o'tirgan edi. Cheredilovning taqdiridagi g'aroyib o'zgarishlar Ivan Matveichning qulog'igacha avvallari ham yetib turardi va odamlar ishonch bilan aytishlaricha, bunday ko'tarilishlarga u Gratsianskiy bilan oshnachiligi orqali hamda boshliqlarga mutelarcha

bo‘ysunish iste’dodi tufayli erishibdi, binobarin agar, misol uchun rahbar, Tarakansev timsolida oromkursining tirsaklagichiga tirsagini qo‘yan kabi uning kallasiga qo‘lini tekkizsa, u holda Grigoriy Pavlovichning bosh suyagi shu zahotiyoyq boshliq kaftining shakli va hajmini qabul qilib olarkan. Balki bu gaplar ortida kamsitilganlarning tuban hasadi turgandir, omadi yurishganlar esa, aksincha, Grigoriy Pavlovich Cheredilovni go‘yoki ilgari qadriga yetilmagan shundayin fazilatlarga ko‘mib tashlashar ediki, uning bu xislatlari to‘lig‘icha faqatgina olivjanob hut balig‘ining qornigagina sig‘ishi mumkin edi... Nima bo‘lganda ham o‘sha maqolachaning paydo bo‘lishi nima uchun Grigoriy Pavlovich ancha yillardan beri Moskvada yashab turgan bo‘lsa ham, Vixrovlar Yengadan bu yerga ko‘chib o‘tganlari dan keyin biror marta bo‘lsin ularning xonadoniga og‘aynilarcha bir kirib o‘tmaganini ochiq-oydin izohlab qo‘yaqoldi. O‘shanda sof tadqiqiy istaklardan kelib chiqib, Ivan Matveich yangi lavozim bilan muborakbod etmoq uchun uning huzuriga o‘zi borishga qaror qildi.

— Balki tushlik qilishga uni uyga sudrab kelarman, kartoshkani po‘sti bilan cho‘g‘da pishir... yoshlik yillarida o‘shanaqasini yoqtirardi. Shisha ichidagi o‘tkirroq narsa masalasida esa, qaytishda o‘zim sotib olaman, — yo‘lga tushar chog‘ida topshiriq berdi u Taiskaga.

O‘rmonshunoslik ilmiy qo‘mitasi Moskvaning sershovqin bir tor ko‘chasida, g‘alati-g‘alati nomlangan bir qancha yordamchi muassasalar va idoralarga to‘la ko‘hna binoning to‘rtinchchi qavatida joylashgandi; ularning hammasi g‘adir-budir zinalar va ichki yo‘laklar bilan bir-biriga o‘zaro bog‘langandi, shu bois Ivan Matveich, xuddi rosmana o‘rmonga tushib qolganday, u yerda ancha vaqt adashib yurdi. Bo‘yoqchilar taxtasupadan suyuq bo‘r sachratayotgan fayzsiz yo‘lak bo‘ylab u *Yo‘lkimyomum* oldidan hamda Fuqarolik holati qaydnomalari yozish bo‘limlarining xodimlari qo‘mitasi yonidan o‘tdi va shu zahoti burilish ortida torgina, ammo sarishta, manzarasi o‘n oltinchi asrdan avvalgi davrlarga taalluqli, devorining pastki yarmi haqiqiy qimmatbaho eman yog‘ochi tusida ustalik bilan bo‘yalgan, zarhal berilgan Moskva gumbazchasi shakli aks etgan xonachaga kirib keldi. To‘g‘ri, u yerda o‘rmonga tegishli boshqa hech narsa yo‘q edi, ammo qayerga qarama, qolgan hamma narsa tonggi siyrak o‘rmon rangidagi sovuq yashil tuslarda ishlangan edi, bu manzara shu qadar xotirjamlik bag‘ishlar ediki, go‘yo miya faoliyatini to‘xtatmagan holda sihat-

gohlarda bo‘ladigan bu osoyishtalikdan foydalanib qolging kelardi... ammo yo‘q, bu yerdagi hayot G. P. Cheredilovning boshchiligidan bu loqday qaynab turibdi.

Qabulxona bo‘sh ekan va xonachaning ochiq turgan eshididan jazavali, yengilgina hushtak aralash o‘ta baland cheredilovcha ovoz eshitilib turibdi:

– ... lekin sizni bu yerga, o‘ta marhamatli fuqaro xonimcha, mening vaqtimni tashkillashtirilmagan tashriflardan asrashingiz uchun o‘tqazib qo‘yishibdi va men talab qilaman – sizga tushunarlidir? – siz o‘z oldingizga qo‘yilgan vazifalarni anglay oladigan darajada mas’uliyatli bo‘lishingizni talab qilaman, – so‘zlarni dona-dona talaffuz etardi Grigoriy Pavlovich, qo‘l ostidagi, o‘ziga javoban nimalarnidir chiyillab qo‘ygan allaqanday mavjudotni qattiq koyib. – Agar bundan buyon halingga o‘xshagan iltimoschilar va tuyog‘ini shiqillatuvchilar telefonlar orqali qo‘ng‘iroq qilsalar yoki huzurimga bostirib kirishga intilsalar, o‘zingiz uchun yozib qo‘ying – xohlagan joyingizga yozib qo‘ying! – ki, manim urug‘-aymog‘im ham, hech qanday o‘rtoqlarim ham, bundanam battari – hech qanaqa do‘stilarim ham yo‘q. Men doim, hatto uxlayotganimda ham, faqat xizmat ishimdaman, men mas’ul davlat odamiman, qonun arbobi-man, mana kamina kim erur! Endi esa jo‘nang, Marya... uyog‘i ni-maydi, Petropavlovnamidi, tarixning o‘zi sizga vazifa etib topshirgan ishni bajarishga kirishing... bunisi sizga tushunarlidir?

Ivan Matveich, o‘ziyam rosa vaqtida yetib kelibman-ku, deya qayg‘uli bir hazil bilan o‘ylab qo‘ydi.

Irimchi tashrifchi navbatdagi kelishini kamida bir oyga qoldirgan bo‘ldi, ammo Ivan Matveich o‘zining sobiq oshnasi jahlidan tez tushishini yaxshi bilardi. U odob yuzasidan, kotibani o‘ng‘aysiz holga tushirib qo‘ymaslik uchun bo‘yoqchilarning shiddatli faoliyatlarini yarim soat bo‘lsa ham tomosha qilib kelish uchun yo‘lakka chiqdi, qaytib kelganida esa, kotiba mizi oldida o‘rta yoshlardan o‘tgan, yuzidagi notejis qizillik hanuz tarqamagan sochlari sal jingalakroq qizni ko‘rdi. U cho‘chibgina Vixrovning nasabini so‘rab oldi va u ha-zillashib, o‘rtoq Cheredilovni ranjitmaslikka, sochma miltiqlidan o‘q uzmaslikka yoki qarz so‘ramaslikka so‘z bersa-da, kotiba boshlig‘i joriy ishlarni yaxshilash uchun yaqin yarim yillikka mo‘ljallangan navbatdagi tadbirlar rejasini tuzishni yakunlashidan oldin bu tashrifni

xabar qilmaslikka rozilik berdi. Bir soatni o'tkazib, u o'z va'dasini bajarish uchun o'midan turdi, har ehtimolga qarshi yozuv tugallanmagan qog'oz qistirilgan yozuv mashinasining kirza g'ilofini yopib qo'ysi. Ma'lum bo'ldiki, Grigoriy Pavlovich ishini hali tugatmabdi va u *xalqaro* aloqa simi orqali suhbatini yakunlagunicha jurnal o'qib turish kerakmish, qiz bularni achinish bilan aytdi.

Ivan Matveich jurnalni bajon-u dil oxirigacha o'qidi, gilam yo'lcha bo'y lab u yoqdan bu yoqqa yurib turdi, qo'shni imoratga mo'raladi, u yerda ham dermatin isi anqimoqda, arifmometrlar ishchan o'kiradi va tamaki tutuni qatlamlanib muallaq osilib qolgan. Mavjud sharoitga qaraganda, Cheredilov o'ziga ishonib topshirilgan ilmiy birlikni temirday qattiqqo'llik bilan kerakli yuksaklikka tortib turgan ekan. O'rmonshunoslik sohasining bu frontida charchoqsiz, ammo begonalar uchun tushunarsiz faoliyat kechmoqda, kotiba esa, xudo ko'rsatmasin, mashinaning chaqillashidan qog'ozga nimalar yozilayotganini tashrifchi eshitib olmasligi uchun chiqirlatib yozishni ham shartta to'xtatdi. Ora-orada xonachaga shovqinsiz va ogohlantirishsiz goh ustiga sochiqcha yopilgan nonushta ko'targan dastyor qiz o'tib ketadi, goh oylik maoshni olib kelgan g'aznachi – ish aynan oyning boshlarida yuz berayotgan edi, – goh, niroyat ko'zoynakli yassigina xotin: o'rtoq Cheredilovning fikrlarini, his-tuyg'ularini va topshiriqlarini stenografik belgilarda yozib olish uchun. O'shanda Ivan Matveich *muqaddas* makonning bir qismini ko'rib ulgurdi – g'aladonli ulkan yozuv mizi ortida sandalet qiygan haybatli tanish oyoq tagi ko'rindi, – ilmiy manzara hosil qilish uchun qo'yilgan silliq randalangan rezonansli qoraqarag'ay taxtachasi va niroyat devorga ilib qo'yilgan, havoning salomatlikka zararli quruqligini oldindan xabar qiluvchi gigometr.

Nima uchundir Ivan Matveichning yodiga chorak asr muqaddam ularning hammalari, mushketyorlar Peterburg yaqinidagi, shahardan tashqarida oqib o'tadigan soyda cho'milganlari tushdi. May oyining sovuq suvi etni junjiktiradi, Vixrov bilan Valeriy allaqachon narigi qirg'oqqa suzib o'tishgan. Cheredilov tizzabo'y suvda turganicha, pishqirib, ko'kragini ho'llaydi, duoni boshlash oldidan tomoq qirib qo'ygan ruhoni kabi hiriqlaydi, lekin o'zining yirik, o'sha paytlar-dayoq yog' bosgan, shalviragan tanasini iliq kunning muzday suviga botirishga jur'at etolmaydi; Gratsianskiy esa, paltosini va baxmal gar-

dishli qalpog[‘]ini ham yechmasdan, qum ustida huzur qilib yotibdi... Ivan Matveich o[‘]zining hangamaxayollariga berilib turgan paytda, Cheredilov ichki eshik orqali oliy dunyoga – shoshilinch yig[‘]ilishga jo[‘]nab qolibdi, bu narsa bir soatdan keyingina ma[‘]lum bo[‘]ldi. Kechga yaqin, qabul qilinishini kutmasdan Ivan Matveich o[‘]zining kayfiyatiga doimo yaxshi ta[‘]sir ko[‘]rsatuvchi bug[‘]li hammomga yo[‘]l oldi.

Ivan Matveichning haqoratlangan kitobi bo[‘]yicha o[‘]rmonchilar ning ko[‘]p sonli, hamdardlik bildirib yozilgan taqrizlari uning haq ekanini tasdiqlamoqda; u o[‘]zining tug[‘]ma soddadilligi bilan muvafiqiyatsiz kechgan safarini oddiy anglashilmovchilik sifatida qabul qildi. Xuddi o[‘]zining Afanasiy amakisi singari uning ham keksaygan paytida bolalarcha ishonuvchanligi yo[‘]qolmadi: agar xotirjam sharoitda hukumatdagilarga va raqiblariga o[‘]zining o[‘]rmon borasidagi tashvishlarini bayon qilsa – Gratsianskiy ham, uning ortidan Grishka Cheredilov ham ko[‘]z yoshlарini to[‘]kib, yarashish uchun uning quchog[‘]iga otlishlariga ishonardi. Eng yaqin yakshanba tongida Ivan Matveich poyezdda Grishkaning dala hovlisiga yo[‘]l oldi. Iyunning ajoyib bir kuni, faqat o[‘]sha atroflarda saqlanib qolgan asr yoshidagi qarag[‘]ayzor oralab sayr etish ham kishiga chuqur ma[‘]naviy rohat bag[‘]ishlaydi. Cheredilovning qo[‘]rg[‘]oni baland devor bilan odamlarning nazaridan yashirilgan, muhofaza uchun devor tepasiga urib chiqilgan zanglagan mixlar taroq tishlariday terilib turibdi, bu manzaralar bug[‘]lanib turgan qarag[‘]ay namlari yordamida salomatlikni yaxshilash uchun hamda ayrim ijtimoiy-ahloqiy mushohadalar uchun bopta ajoyib maskanni o[‘]zida namoyon etardi. Qo[‘]rg[‘]onni qurshab turgan daraxtlar namunali tartibda saqlanib turibdi, tuproq ham ildizlar yaqinigacha mayin qilib yumshatilgan, qurigan shoxlar esa daraxtlarning uchlari uchun qadar xonaki arrachada kesilgan; qanotdor kelinkuyovlar uchun qurib berilgan chug[‘]urchuq uyalarining ko[‘]pligidan hammayoq bir xonali uylar shaharchasiga o[‘]xshab ketgan va bu ham xo[‘]jayinning o[‘]z xususiy mulkinining butun deparasining kegayı yaxshi ko[‘]rinishda bo[‘]lishi uchun qayg[‘]urishiga dalolat edi.

Grigoriy Ivanovichning yerlarida o[‘]simliklar teng miqdorda, g[‘]aroyib bir turli-tumanlikda u yoq-bu yoqlarda alohida ekilib, yayrab unmoqdalar, oddiy taramcha[‘]dan tortib manjuriya yong[‘]og[‘]iga-

¹ Taramcha – krijovnik.

cha – bunisi mevasini terib olish umididan ko‘ra, turmush farog‘atining to‘laroq bo‘lishi uchun soya-salqinidan bahramand bo‘lish maqsadida ekilgan. Hullasi kalom, bu unchalik katta bo‘Imagan, yarim gektar maydondagi, ammo hafsala bilan jihozlangan, notarius orqali rasmiylashtirilgan bihishtnamo maskan ediki, bundayin go‘shalarda keljak orzulariga berilish ayniqsa rohatbaxsh bo‘ladi.

Ivan Matveich ko‘cha eshikdan hovliga endi kirgan ham ediki, shu zahotiyoyq nasli notanish jundor maxluq kuchayib boruvchi o‘kiriqli vovullash bilan u tomonga tashlandi; faqat uning bo‘ynidagi zanjir va mashina yuvib turgan oqko‘ngil haydovchi itning jasur tashrifchini g‘ajib tashlashiga yo‘l bermadilar. Tashrifchi gullab turgan no‘xatlar oralab bir chekkadan yurib, tok ishkomlari bilan to‘silgan, minoralari va shinakchalari bor oldi ayvon, ikki qavatli yog‘och imorat tomon yo‘naldi. Eshik oldidayoq u o‘zining odimlab kelishini kuzatib turgan, yuqorida turib, yashil novdalarning orasini salgina ochgan ko‘yi xavotirli tikilayotgan kimningdir ko‘zini payqadi. Ivan Matveich tavakkaliga o‘sha tomonga shlyapasini silkidi va uy egasi endi buyog‘iga yashirinishdan ma’ni yo‘qligini tushundi.

– O-o, bu sen-ku! – so‘z qotdi u biror xursandlik aldomatisiz, ammo har holda tinchi buzilganidan g‘azabgayam minmadi. – Men esa kim ekan u, xabarlamasdan bostirib kelayotgan mehmon deb hayron bo‘lib turuvdim... qarasam, uning o‘zi, shaxsan o‘zi ekan. Qandaysan?.. eshitishimcha yozish bilan ovora emishsan?

– Ha, og‘ayni, maqsadim dunyodagi bor qog‘ozni yozuvga to‘ldiirish... ammo qog‘oz tayyorlaydigan korxonalar mendan ko‘ra tezroq ishlashyapti, ulgurolmayapman, – hazillashdi Ivan Matveich, bo‘ynidagi va peshanasidagi terni artar ekan. – meni kechirasan, o‘shanda seni ilm ma‘badida oxirigacha kutib turolmadim, uch kun avval...

– Hechqisi yo‘q, – hazilning fahmiga bormasdan, uni kechirdi Cheredilov. – Ammo mashinangning tovushini qanday qilib eshitmay qolibman, oshna?.. yoki shahardan shu yoqqacha velosipedda g‘izillardingmi?

Ochig‘ini aytganda, Ivan Matveich o‘z obro‘yini saqlab qolish uchun shundoq o‘girilib, jo‘navorishi kerak edi, ammo olimlik rutbasining hurmatidan u hech qachon o‘zining shaxsiy sababiyati jonli

tabiat hodisalariga bo‘lgan o‘zining ilmiy qiziquvchanligini zaiflash-tirishiga yo‘l qo‘ymasdi.

– Men poyezdda keldim, birodari aziz... bizning yoshimizda ba’zan piyoda yurib turishlik ham foydali. Shu yaqin orada yashay-digan bemor o‘rtog‘imni ziyorat qilmoqchi edim, u bo‘lsa, yaramas, xizmat safariga daf bo‘libdi, – darhol sabab o‘ylab topdi Ivan Matveich. – Mana, shu bahonada sen bilan ba’zi narsalarni ochiqchasi-ga muhokama qilib olish uchun yo‘l-yo‘lakay kirib o‘tish ko‘nglimga kelib qoldi... Havoning dimligi yomg‘ir yog‘ishidan darak beryapti, shekilli... sezyapsanmi?

– Muhokama... deganingni qaysi ma’noda aytding? – hushyor tortdi Cheredilov, kallasini tok novdalari orasidan osiltirib.

– Hayot haqida fikrlashishni aytyapman, – ma’yus kulib qo‘ydi Ivan Matveich og‘riq kirib qolgan bo‘ynini siypalab. – Senga dunyo-dagi hamma narsa ma’lum emas-ku... ehtimol, sen bilmagan biror yangilikni xabar qilarman!

– Yo‘q, sen aynan nimani muhokama qilmoqchi ekaningni sal aniqroq qilib tushuntir, akasi! – so‘zida turib oldi u yuqori ayvon-chadan mo‘ralaganicha, chunki uni, davlat ahamiyatidagi xizmatchi-ni, pisandsizlik bilan, kunning qoq o‘rtasida, o‘zi istamagan qanday-dir tubsizlikka oyog‘idan tortib qolishlariga yo‘l qo‘ya olmasdi.

– O‘sha-o‘sha narsalar haqida so‘zlashamiz, Grigoriy Pavlovich... o‘rmon to‘g‘risida, mening kitoblarim haqida, ularga sening munosabating borasida, – birdaniga qandaydir jirkanch behuzurlikdan bo‘shashib, mavzuni aniqlashtirdi Ivan Matveich va o‘rtoqlarcha tanqid dan ranjiyapti, degan fikr hech kimning ko‘ngliga kelmasligi uchun bu safar ham ketib qolmadi.

– Xo‘sh-xo‘sh... – xavotir bilan do‘rilladi Cheredilov yuqori ay-vondan va xayolga toldi; orada bir yarim daqiqa fursatga qayoqqadir g‘oyib bo‘lib qoldi, shundan so‘ng xuddi hech gap bo‘limganday yana ko‘rinish berdi. – Nimayam derdim, men qarshi emasman, osh-na... agar buning senga foydasi bo‘lsa.

Ochig‘i, Ivan Matveich bu uchrashuvlari iliqroq sharoitda kecha-di deb o‘ylagan edi. Cheredilovdan nimanidir iltimos qilish uning xayoliga ham kelmagandi, ayniqsa boshiga kelayotgan muqarrar balolarda undan himoya so‘rash; u faqatgina manavi beg‘am va qachonlardir ochiqko‘ngilroq bo‘lgan temsa-tebranmas tanbalni Grat-

sianskiydan yuqtirib olishga ulgurgan, o'rmon uchun halokatli ada-shishlardan to'xtatib qolish istagida edi, xolos. Ivan Matveichni hozir bekor keldi deyish ham o'rinli bo'lmasdi: Cheredilovning yakshan-balik mehmonlari bor ekan. Ochiq derazalardan chala kuygan bayram pirogining isi kelmoqda va dasturxonga terilayotgan idishlarning shaqir-shuquri aralash patefondan allaqanday bekaxonim haqidagi chapanicha arillash eshitilib turardi. Boz ustiga Ivan Matveichni tashnalik qiyinab yubordiki, shu sabab stansiyadan bu yerga yetib kelgunicha yo'l bo'yi xonaki kvas muzlatib qo'yilgan, sirti sovuq-dan terlab turgan ko'vacha hech xayolidan ketmagandi, ammo hozir uni yuqoriga, ziyofat bo'layotgan jannatga taklif etishadi deb behuda kutmoqda edi. Ivan Matveichning tit-pitini chiqargan maqoladan keyin va kamiga uning katta muhokamasi arafasida mana bunday tashrif nafaqat Cheredilovning do'stlari va oilasi davrasidagi kamta-ringina istirohatlanishini yo'qqa chiqarishi, balki muayyan ma'noda xonadon egasining nomiga soya tushirishi ham mumkinligini u mut-laqo tushunmayotgan edi. Shu bilan birga martabasi liqillab turgan o'rmon janjalchisi nihoyat o'z oyog'i bilan ta'zimga sudralib kelgani Cheredilova xush yoqmoqda edi... va qachonlardir, Pashutindagi kechirilmagan tunda, Vixrov uning hasratlarini esnab, hattoki takab-burlik bilan tinglagani uchun uning ta'zirini berib qo'yish vasvasasi-dan ham u hozir xalos bo'lolmasdi.

— Yo'q-yo'q, Ivan, sen bilan o'z mulohazalarimni baham ko'rishga aslo qarshiligidim yo'q, — takrorladi yuqorida Cheredilov tashvish-langannamo hamdardlik ohangida. — Mavzuni shundan boshlashim kerakki, bu gap ikkimizning o'rtamizda qolsin-u, menga qaysidir da-rajada kitoblarining yoqadiyam, ularning mazmuni emas, albatta, nima desam ekan... sening charchoqsiz kuyinishlaring. Tabiiyki, hozirgi davrda yonmaslikning o'zi mumkin emas: hammamiz yonib-kuymoq-damiz... ammo sen, okovsi, sal sovuqroq kuyinsang bo'lardi! Kamina tabiatni sendan kamroq sevmaydi, o'rmonda qo'lsavat ko'tarib yu-rish kaminaning ikkinchi ehtirosi... lekin sen, ochig'ini aytayotganim uchun kechirasan-u, necha yillardan beri muttasil ravishda o'rmon-dan foydalanishning doimiyligi degan narsa haqida do'mbira chalish bilan ovorasan, tag'in azayimxonlar tilida qandaydir tavajjuhlar qilasanmi-ye. Odam qulog'ini yopib olgisi keladi! Tushunsang-chi, axir... negaligini o'zim ham bilmadim-u, ammo bu jumla bizning so-

hamizga o'tirishmadi... uni shartta «jadal o'rmon xo'jaligi» debmi, yo hech bo'lmasa «o'rmonning qayta tiklanishi» degan tushunchagami, almashtirib qo'yaqol. Og'ayni, mulohazalaringni shunday ifoda etmoq lozimki, hamsuhbatingda ichak burilishi emas, fikrning yoqimli faoliyati yuzaga kelishi kerak... Gratsianskiy boshqa masala... u axir haqiqiy iste'dod-ku! Sen o'zing ham shunaqasanki, hammayog'ing qontalash bo'lib yotishiga qaramasdan, unga tashlanib, o'zingni baloga qo'yyapsan... marhamat qilib tushuntir-chi, masalan, Tulyakovning dafn marosimiga borishning senga nima keragi bor edi?

– U katta olim va mening muallimim edi, – sokin va qat'iy javob qildi Ivan Matveich. – Bundan tashqari, uning tobuti ortidan sening o'sha vaqttagi boshliqlaring ham borishgan edi. Xuddi shunaqangi.

– Boshliqlarga ijozat etilgan narsalar kam emas... Sen Nuhning donishmand o'g'illarini esla, ortingga o'giril. To'g'ri tushun, seni kamina xushahloqlikka yoki xushomadgo'ylikka emas, Ivan, ijtimoiy odob saqlashga o'rgatmoqchi. Mana, o'zing ayt, yog'och g'o'la ustida buyuk diydiyo uyuştirishning senga nimasi kerak bo'lib qolgandi? Xo'p, kesishyapti, suvni muhofaza qilib turgan o'rmonlarni chopib tashlashyapti... jin chalsin hammasini! Mayli, boyliklarimiz barmoqlar orasidan oqib ketyapti... kamomad uchun tovon to'lashga seni majbur etishayotgani yo'q-ku? Agar buning uchun o'sha o'rmon g'aznachiligini shtat asosida senga topshirib, maosh to'lashayotgan bo'lsa boshqa gap edi.

– Mening fuqarolik majburiyatlarimni hech kim o'zimga topshiriq sifatida berolmaydi, – quruqqina javob qildi Ivan Matveich, og'irligini bir oyog'idan boshqasiga tashlagan ko'yi. – Aynan sen bilan biz bu haqda o'ylashimiz lozim, chunki bizlarnig ortimizdan mulohaza qilmaydigan va asl po'latdan ishlangan millionlab tabellar lashkari bormoqda. Mening bilimlarim mohiyati, o'ylashimcha, o'rmonni tartibli saqlash hamda xalqni uning holatidagi barcha o'zgarishlardan xabarlashdan iborat. O'zing o'ylab ko'r, Grigoriy, faqat o'zining boshliqlariga yoqadigan, yolg'onligi oldindan ma'lum xabarlarni keltirib turuvchi istixborotchini nima qilgan bo'lishardi...

– Qara-ya, gapni qayoqqa burib yubording, jamoatchilik manometri vazifasini yelkangga ortib olding-ku! – uni ayblab bosh chayqadi Cheredilov va yakshanba kuni qattiq charchab qolmasligi uchun rafiqasi tomonidan ayni paytida keltirib berilgan nimaning-

dir ustiga o'tirdi. – Seni fikringdan qaytarmoqchi emasman, lekin seniyam joning temirdan, tanang toshdan emas-ku. Bayrog'ingni birikki silkib qo'ydingmi, bas, asta chekkaga o'tib ol: seni bug'tortarda ezib tashlashadi axir, ey, o'rmon g'aroyiboti. Odamlarni tinch yashashiga qo'yib ber, o'zing ham shunda yuz o'n yetti yoshdan ko'proq umr ko'rasan... Bunaqa vaziyatda joriy o'rmonchilik ishlariga to'xtalishning hech iloji yo'q edi-ki, Cheredilov alohida bitta nuqtayi nazarda to'xtashdan qochyapti, ushbu holatda u geometriyadagi faqat bir vaqtning o'zidagina uchta muntazam to'g'ri chiziq muayan berilgan yuzani hosil qiladi, degan qoidani qo'llashga qaror qilgandi. Barcha uchovini bayon etishga tushlikkacha ham uning vaqtin yetmagan bo'lardi, shu bois Gratsianskiyning eski maslahatlari bilan kifoyalandi, ya'ni sovuqqonlik bilan tashvishlanish, biror vaqt qora bug' ostida sayr qilish, juda qo'li qichib ketsa, biror beozor narsani yozish, masalan o'simlik tanasida kambiyuning vazifasi va ahamiyati haqida, shunda ham asosiy urg'uni zamondoshlar ongidagi eskilik sarqitlariga qarshi kurashga qaratish. Bularning barchasini Cheredilov xuddi radio qabul qilgich kabi loqayd-nasihat ohangida bayon qildi va Vixrov uchun shu narsa taajjublanarli bo'ldi-ki, xuddi mana shu odam, bir paytlar o'zining hammani qoyil qoldirgan «Uzun tun» qo'shig'ini talabalarning ziyofatlarida kuylaganida shunaqangi nola qilardi-ki, yuraklarni muzday sovuq titroq bosardi, tinglovchilarning ko'zlarini yosh pardasi qoplab olardi.

Ivan Matveichning kayfiyati keskin tushib bormoqda, buyam yetmaganday, osmonning yuziga qora parda tortildi, uzoq vaqt davomida boshini yuqoriga ko'tarib turaverish zaruratidan bo'yni qotib, og'riyotgani hammasidan ham o'tib tushdi. Ammo gap uning hayotidagi eng muhim narsa haqida borayotgani vajhidan u o'zining noqulayliklarini chetga surib qo'ydi.

– Men seni fosh qildim, Grigoriy, – javob qildi u o'zining hozirgi holatida anchayin o'rinsiz bo'lgan bir qo'rslik bilan. – Hayotning farog'atlari uchun menga tulki niqobini kiyishni tavsiya etyapsan. Ammo men uchun o'zim o'rgangan insoniy qiyofamdan ayrilish achinarli hol. Shu bois ham men o'sha manhus asarimni insofsizlik ila varaqlaganiningni aytish uchun kelgandim. Sen butun mamlatkat oldida sanoatlashtirishni qoqnonga zor qilish maqsadini menga yopishtiribsan, ammo mening mufassal jadvallarim haqida biror

so'z demagansan: o'rmon zaxiralarini xonavayron qilmasdan, qayerdan, qanday uslubda, qancha yog'och olish mumkinligini. Sen meni podshohlik davrida o'rmon ishchilari ayanchli holatda bo'l-ganini ongli ravishda aytmay o'tishda ayblading, holbuki men uch sahifani allaqanday Knishev degani yengalik o'rmon kesuvchilarini irindi-chirindilar bilan boqqanini tafsilotlarigacha yozganman... O'g'rilikning daliliy ashyolarini sobiq bo'lsayam, har holda do'st bo'lgan odamning cho'ntagiga ataylab yashirinch solib qo'ygan manavinaqa arbobning faoliyatiga bo'sh vaqtingda o'zing munosib nom topib qo'yarsan!.. Va nihoyat sen Gratsianskiy bilan til biriktirgan holda...

– Ijozating bilan, – rangi sal oqarib, uning so'zini bo'ldi Cheredilov, – keksaligimga borib xotiram pand beradigan bo'lib qoldi... Sen qaysi Knishevni aytding? Haligi, saxiyligi tutib, senga yigirma besh dona bir so'mliklarni ajratib bergen kimsa emasmi?

Uydagi musiqa ovozi to'satdan uzildi va shamol epkini bilan bir paytda tunuka tomni yomg'ir yengilgina savalab o'tdi, bir nechta iomchi yuqoriga qarab turgan Ivan Matveichning yuziga tushdi. Ayvonda uyg'onib qolgan bir erkak uyquga pishgan ovozda muzdekkina pivo yoki kokteyl berishlarini so'radi va shu zahotiyoyq o'ntacha ovoz unga «tshshshsh» deb tanbeh berdi, chunki endi hamma uy egalari va mehmonlar yomg'irdan panada tekin munozara ne'matidan huzurlanmoqda edilar.

– Bizning halol mamlakatimizda mehnat hamma narsadan balandroq qadrlanadi, Grigoriy, shuning uchun... mening kitobim boshliqlarning ijozati bilan chop etilgan o'sha... barcha asarlarning hammasidan yomon bo'lgan taqdirda ham, o'z o'rtog'ingning ilmiy ishiga hurmat bilan munosabatda bo'lishing lozim va lobid edi, – yuzlari to'xtovsiz quyilib turgan yomg'irdan burishib, qat'iy va jiddiy so'zlardi pastdag'i suhbatdosh. – Pliniy degan shaxs, dunyoda yomon kitob bo'lmaydi, aqli odam har qanday kitobdan o'ziga saboq chiqarib oladi, deb ta'kidlagan edi.

– Bu borada sen suygan Bernar de Klervo nimalar degan? – g'azab bilan ishkom orasidan tipirchiladi yuqoridagisi va tashqariga yiqilib tushmasligi uchun har tomondan cho'zilib kelgan qo'llar uni yog'och panjaradan nari torta boshlashdi.

— Agar umumxalq baxtsizligining olovli halqasi orqali qurshovni yorib o'tish lozim bo'lsa, u holda men o'rmonga achinmayman, — endi rosmana jala ostida, havo bilan qo'shib yomg'irni ham yutishga majbur bo'lgan holda davom etdi Ivan Matveich, — ammo tinchlik vaqtida ham o'rmonni harbiy davr odatiga ko'ra qo'porishga da'vat etuvchilarni yovuz odamlar deb hisoblayman. Shu bois ham bizning suhabatimiz o'rmon xo'jaligi g'oyalari uchun olishuv sarhadlaridan chiqib...

— Xo'sh-xo'sh, o'z mafkuraviy nuqtayi nazaringni aniqlashtirginchi! — qahr-g'azab bilan, shamollab qolish vositasida o'z salomatligiga ziyon yetkazib qo'yish xatariga qaramay, tashqariga boshini chiqardi Cheredilov.

— Aytmoqchi bo'lganim... siyosiy kurashga o'tib bormoqda.

Uy ichida nimadir jaranglab yerga tushdi va sindi, keyin tashvishli ayol ovozi yeng ichkarilardan uni chaqirdi: «Grisha, dasturxonga kelaqolsang-chi, mehmonlaring bor, axir!..» Gapning davomi xuddi chelaklab quyayotganday kuchli jalaning shovqinida yutilib ketdi. Cheredilov bir necha lahma davomida qattiq g'azab bilan cho'loqqa, qo'rqinchli bir osoyishtalik bilan o'ziga tikilib turgan pastdagi odama qaradi.

— Qarab tursam, sen o'z urug'-aymoqlaringdan surbetlikni rosa zo'r o'zlashtirib olibsan!.. Piterda mushtumzo'r qo'riqchi bo'lib ishlagan kimsa eslashimcha sening dadajoning edi, shekilli? — kuchli shamol orasidan chinqirdi Cheredilov.

Shundan keyin Ivan Matveich ortiga o'girildi va ado etib bo'lingan burch hissi bilan, endi yomg'irda ivib ketishdan ham qo'rmasdan orqaga, ko'cha eshikka tomon yo'naldi. Sho'x va zumrasha jala kuchayib bormoqda, o't-o'lanlar va novdalar u bilan birga raqs tushishyapti. O'rmon yalangliklarida oltinrang-pushti tomchilar mayda kamalaklar rangida yorilib sochilayotgani ko'rindi, chunki holdan toygan, kuch-quvvatidan ayrilgan osmon yuksakliklarida quyosh yana yerga mo'ralay boshlagan edi. Momoguldurak yana bir marta qarsilladi, so'ng bulut suvlarida cho'milib poklangan tabiat bag'rida sehrli muattar farog'at yoyila boshladi. Ivan Matveich tez va ko'p yurganidan pidjagi tutab turganday bug' chiqaradi, u bekatga yetib borganida yo'lovchilar nima uchundir chiptaxona oldida unga yo'l bo'shatishdi,

Ivan Matveich ham xuddi hozirgina mana shu odamlar uchun bo‘lgan jangdan zafer qozonib qaytgan kabi bu ehtiromni rad etmadi.

Bo‘lib o‘tgan ishlardan u g‘am-anduh chekayotgani yo‘q, zero o‘rmonchilik kasbi doimo ko‘proq yoki kamroq darajada havoning yomon ra’yi qamroviga tushib qolish xavfini taqozo etadi.

3

Intiqom soati rosa bir oydan keyin yetib keldi, bu safar endi Cheredilov maqolasining ta’sirida O‘rmon xo‘jaligi institutining il-miy kengashiga Vixrovning hisobot ma’ruzasi qo‘yildi. Gratsianskiy boshchiligidagi maxsus komissiya uning o‘qituvchilik faoliyatini o‘rgandi va yashirin shivir-shivirlarga qaraganda, oltmisht uch sahifadan iborat tadqiqot bayonnomasini o‘qishda Tarakansev keksalarga xos chiyildoq ovozda *Onegincha* mavzuda kuylab yuborganmish: «O‘ldirildi-i-im». Vixrovning kafedradan olib tashlanishi masalasi hal etib bo‘linganini hamma tushunib turibdi, shu bois ommaviy majlisga yagona, ammo oqibatda aksi bo‘lib chiqqan maqsadda – o‘z faoliyatlarida to‘g‘ri yo‘nalish olmoq uchun o‘rmonshunoslik fanining dong chiqargan ahli donishlarining ma’ruzalarini tinglash uchun kelgan edilar... Yig‘ilish institutning odamlarga liq to‘igan tadbirlar xonasida o‘tmoqda, bir paytlar u yerda Yekaterina a‘yonlarining mazurkali-ri yangragan. Orqa chap burchakda, musiqachilar ayvonchasi tagida Gratsianskiyning mutaassib tarafdorlari o‘tirishibdi, ularning orasida Gratsianskiy guruhining yetakchi uchligi o‘zlarining qat’iyatli qiyofalari bilan alohida ajralib turishibdi: o‘rtoqlar Andreychik, Eychik va shunchaki Chik – shunisi eng qari va xavflisi edi, oppoq osilma mo‘ylabli va teleskop qurilmali ko‘zoynakda; aytib qo‘yish kerakki, o‘rmonchilar jamoatchiligi aql-farosat taqozosini ila nasablardagi bu latifaomuz tasodifotni payqamaslikka harakat qilardi. Ma’ruza endi boshlangan ham ediki, tamaki chekmaydigan Chik prokuror qiyofasiga kirganday, yondaftarchasi bilan oldingi qatorga o‘tirib oldi, qolgan ikkovi yo‘lakka chiqib, qo‘llarida papiroslari bilan eshikdan mo‘ralab, bir-birlariga ko‘z qisganlaricha, navbatlarini kuta boshlashdi. Gratsianskiyning o‘zi esa, odamlarning chekka-chechkada pichirlashgan ehtiromli mish-mishlariga qaraganda, zo‘riqqan tana-sida gemoglobinning keskin tushib ketishi munosabati bilan yig‘ilishda hozir bo‘lolmabdi emish.

Vaziyatni oldindan ko'ra bilgan Ivan Matveich o'zining izohlarini ma'ruzaga ajratilgan vaqtning yarmidayoq yakunladi. Kafedra masalalariga to'xtalmasdan va o'ziga taqalgan ayblariga tavba-tazarru qilish o'mniga, u so'zini to'g'ridan to'g'ri o'zining hammaga ma'lum nazariyalarini bayon etishdan boshladi va buni shundayin bir qaysarna xotirjamlik va ochiq-oshkoralik bilan bajarardi-ki, xuddi qarshisida yosh bolalar o'tirganday, go'yoki o'z taqdirini mazaxlayotganday edi; raqamlarni u yozuv taxtasida bo'r bilan xotirasidan yozib borardi. Harqalay, u o'zining liqillab turgan nufuziga e'tibor ham bermasdan, tez-tez Rossiyaning mashhur kishilarining o'rmon haqidagi mushohadalaridan havolalar keltirib turardi, hatto shungacha borib etdiki, o'rmonshunosning emas, balki kimyogar Mendeleyevning, biz bobolarimizdan qancha qabul qilib olgan bo'lsak, avlodlarimizga ham kamida shunchani qoldirishimiz lozim, degan jumlasini keltirib o'tdi. Uning do'stlarini yanayam ko'proq qayg'uga solgan narsa, har qanday sun'iy o'stirilayotgan daraxtlar necha yillardan keyin har gektaridan besh yuz kub zaxiraga ega bo'lgan Pyotr ko'chatzorlarining kemabop daraxt yetilgan o'rmonchasiga tenglasha olishi mumkin, degan eslatmalarini u jinoyatkorona umidsizlik deb atagani bo'ldi. So'zining yakunida Vixrov muxolif taraf vakillaridan javob tariqasidagi ijobili takliflarni tinglashga va muhokama etishga rozi ekanini dadil bildirishi nafaqat o'z dushmanlarining to'dasida, balki hay'at a'zolarining bir qismi orasida ham qahr-g'azablar epkinini qo'zg'atdi.

— In articulo mortis¹ o'zingizni odobliroq tutsangiz ham bo'ldardi, — o'tirgan joyidan luqma tashladi Chik va go'yo haqoratlangan alpozda yondaftarchasini shaqillatib urib qo'ydi.

Majlis ahlini raqamlar bilan toliqtirmaslik uchun, komissiyaning qo'shimcha ma'ruzasi Vixrovning statistik jadvallari va hisob-kitoblarini chetlab o'tdi; ammo unda Vixrovning yoppasiga o'rmon kesishga qarshi e'tirozlari go'yoki mazkur o'simlik hamjamiyatida o'matilgan allaqandaydir muvozanatni buzish deya tanqidga olindi. Shunday bo'lib chiqdiki, qo'shimcha ma'ruzada aytishicha, Vixrovning fikrlariga ko'ra, tabiat tartibsiz ravishda harakat qilarkan, odam esa ongli ravishda undagi nimanidir zaiflashtirib, boshqasini kuchaytirar ekan. Binobarin, vixrovchasiga aytganda, inson va tabiat

¹ Mamot oldidan (lot.).

o'zaro bir-biriga qarama-qarshi va inson mehnati tabiatga nisbatan dushmanona faoliyat emish. Komissiya bundan shunday xulosaga kelibdiki, Vixrov odamzotni o'z faoliyatini o'rmon bilan kelishish uchun, uning jarayonlarini anglash uchun kuchsiz deb hisoblar ekan, bu esa bevosita xatarli agnostitsizmga olib keladi. To'g'ri, Vixrov qachonlardir ofatlar ustidan nazorat o'rnatish maqsadlarida o'rmon qonuniyatlarini o'rganishga chaqirgan payti bo'lган, ammo bu o'sha to's-to' polonlarda ahamiyat bermasa ham bo'ladigan xususiy bir holat edi... Bundan kelib chiqadiki, Vixrov talabalarga odam bilan tabiatning, ong va tartibsizlikning va eng yomoni – ruh va moddiyotning ziddiyatlarini targ'ib qilmoqda, bundan esa mənhoniy da'vatining isi kelib turibdi. Bularning hammasi jamlikda Vixrovning kantchilikka, spenserchilikka, maxizmga va qaysidir darajada vakulaparastlikka – bunisida institutning keksa qorovuli, ma'rifatchilarning barcha asoslariga qarshi o'laroq, murosasizlik bilan narigi dunyo borligiga inonuvchi Vakula Trepereshshenko nazarda tutilmoqda, daxldorligini isbot etardi. Keyingi munozaralar xuddi oldindan mashq qilib olingan konsert singari o'tdi.

Osminovning hamda Vixrovga xayrixoh bo'lган boshqa xijil tarafdorlarning mujmal chiqishlaridan keyin, Tarakansevning uzluk-siz denudatsiya biogeotsenozning boshqa ko'rinishga o'tishini rag'-batlantirsa-da, ceterum uning tanazzuli bilan tenglashtirilmasligini e'tirof etgan nutqidan so'ng – xullas, bularning barchasining ortidan Vixrovni qopish uchun *beqaror sobitqadamlardan* biri minbarga qo'yib yuborildi. Bunisi esa chiqasolib, o'rmonning o'sib boruvchi daromaddorligining vixrovcha talabi o'rmon xo'jaligini yuritishning uzlusizligi vositasida o'z yer-mulklarini doimiy daromad manbayiga aylantirishga intilgan pruss zamindorlarini eslashga majbur etishi ko'rsatib o'tdi. Sovetlar mamlakatidan allaqachonlar dumi tugib yuborilgan aynan shu tushuncha orqali, Vixrovning yot-begona va to'g'ridan to'g'ri dushmanimiz bo'lган ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga moyilligini osongina ko'rishimiz mumkin... va umuman, – dedi voiz, Vixrovning eski dunyo bilan bo'lган ayrim shaxsiy, bemavrid unutib yuborilgan aloqalarini sinchiklab ko'rib chiqish hozir xalaqit qilmasdi... Xossatan Yengani butkul xonavayron qilib yuborgan pomerniyalik amlokdor ayol bilan yaqinlikda bo'lган rafiqasi orqali ham. Bundan ko'rgazmali tarzda shu narsa kelib chiqadi-ki, aynan Vixrov

o'rmonlarning yangilanishini cheklashga, ya'ni sotsialistik surriyotlarimizni chorasiz ahvolda qoldirishga ongli ravishda urinayotgan o'rmonlarni tag-tugi bilan yo'q qilishning korchaloni va maddohidir. «Mana shu devorlarning hurmatidan biz vixrovcha g'arazlarning siyosiy ildizlari to'g'risida indamaymiz, ammo shunga qaramasdan, aynan shu sabablar unga nisbatan bo'ladigan shoshilinch tadbirlarimizning zaruratini taqozo etmoqda...» Shundan so'ng, majlis ahlini nafas rostlab olishga ham qo'ymasdan, minbarga Chik chiqib keldi va toki u qamalda qolgan beso'naqay zambarak kabi lapanglab, yertaxtani g'ijirlatib, go'yo o'zini boshqa buyuk ishlaridan chalg'itib, arzimas sabab bilan chaqirtirishganday ensasini qotirib irshayganicha yurib kelar ekan, Vixrovning tagidagi minbar ham uning qadamiga monand tebranib turdi.

Chik so'zini hazilnamo e'tirof bilan boshlab, rus o'rmonlarida hech qachon bo'limgani, to'g'ri, yoshroq paytida, emigratsiyada ekanida, Tiroldagи dauervaldlarni oralab kezganlarini so'zladi... shunda ham xuddi bizning ilg'or davrimizda fikrlovchi mavjudot soqolini o'stirib yurgani kabi chakalak bosib yotgan o'tmisning yovvoyi sarqiti bo'l mish o'rmonga nisbatan qiziqishi emas, balki sayohat-chilikka bo'lgan moyilligi sababli izg'igan ekan. Va umuman, uning bashoratlariga ko'ra, o'rmon, sust rivojlanuvchi o'simlikzor sifatida yaqin kelajakda o'z o'mini nasha yoki masalan bokkoniya kabi o'sish davriyligi kichik bo'lgan ziroatlarga bo'shatib berar ekan.

— Aytishim mumkinki, tinglangan ma'ruzaning mazmuni o'zida kulgi dengizini namoyon etadi, — nafasi siqib hamda ommaning suyukli erkasi ohangida gapirardi Chik, — qarshimizda o'tirgan o'rmonparvarlik vakilining fikrlari bolalarcha, ijozatingiz bilan aytganda, havasni keltiradigan darajada o'yinqaroqligini ko'rsatadi... ammo hozirgi momoguldurak shiddati bilan qaynab turgan davrimizda, bizning jamiyatimiz o'rmonga bo'lgan yig'loqi rahmdillarcha munosabat bilan hamda oddiy xodani ilohiyashtirish bilan murosa qila olmaydi. Bu hol menga boshqa bir o'rmonchi hamyurtimizni, Graffni eslatib yubordi, u Buyuk Onado'li o'rmonchiligini tark etayotganida, mutlaqo hushyor holatda bo'laturib, vidolashuv uchun har bitta daraxt tanasini navbatli bilan quchib chiqqan ekan... va hatto, agar ta'bir joiz bo'lsa, bundan ham bttar ko'ngli bo'sh masxarabozni eslataman, ya'nikim — ming sakkiz yuz yetmish to'rtinchi yilda

vafot etgan o'rmonchilar bo'linmasi polkovnigi, Tula viloyati davlat mulkularining boshqaruvchisi o'z vasiyatida tobutiga qoraqarag'ay shoxchalarini kesib solishlarini so'ragan – tag'in daraxtlar uning bu yetkazgan foydasiz shikastini kechirishadi deb umid ham qilganakan, he-he! Men ilgari ham soddadil hamkasbimizning bir kitobini o'qib, xuddi aksiga olganday o'sha asarning nomi esimdan chiqib ketibdi, xullas o'qib qayg'uda qolganman... meni ayniqa ta'sirlantirgan jihatlari – uning sertashvish tirishqoqligi hamda har xil o'rtamiyona mutafakkirlarga, ularning ijtimoiy shaxsiyatlaridan qat'i nazar, notalabchan intilishlari bo'ldi.

O, albatta, Bernar de Klervo emanlarni va qoraqayinlarni o'zining murabbiylari deb hisoblagan, bu bilan, ko'rinib turibdiki, uning ta'lomitining axloqiy darajasi qanday ekanini anglash mumkin. Kemplik Foma esa faqat quyuqbargli o'rmonlardagina ruhiy osoyish-talik topar ekan... ammo bizning ziyrak, ajoyib yoshlarimizning tarbiyachisi shuni bilmog'i lozimki, bizlar doimiy ozodlik bo'ronlarini yoqlab, xudbinlarcha osoyishtalikdan voz kechganmiz. Basharti muallifimiz sovet o'quvchisining yotib qolguncha qotib kulishini istayotgan ekan, men unga qariya Konfutsiyni ham o'ziga sherik-chilikka yollab olishini maslahat bergen bo'lardim, zero u ham sarv daraxtining foydaliligi haqida chuqur ma'noli birnimalarini vaysagan edi! Yo'q, omonat qalqib turgan hamkasbim, siz bizni o'zingizning motamsaro marsiyalaringizdan xalos eting, bizning bosh yo'limizdan o'zingizning chalamuhtaram marhumchalarining olib tashlang va buni birinchi salib yurishining gijgijlovchilaridan bo'lmish o'sha eslatib o'tganim Bernarddan boshlang. O'zimizning mustaqil, mayli, ayanchli-xarob ahvolda bo'lsa ham, o'rmonchilik ishlarimizni o'sha palag'da, olti yuz yillik chirigan kelgindilarsiz ham bir amallab eplab olamiz!.. Yo'q, sizga eslatib qo'yishimga ijozat bergaysiz, yog'ochsevar hamkasb, tafakkur etuvchi ajdodlarimiz aynan daraxt-dan tushib, yovvoyi o'rmon changalzorlaridan ochiq maydonga chiq-qan kunidan keyingina odam bo'la boshlagan. Binobarin, o'rmonlarni yo'q qilish juda unchalik ilg'or hodisa bo'lmasa-da, har holda madaniyatning taraqqiyoti jarayonidagi to'la qonuniy hodisadir... va G'arb mamlakatlari o'zining rivojini to'xtatib turgan bu kishanlardan alla-qachonlar qutulib bo'lgan. Xususan, Dod Doddley ming olti yuz olt-mish beshinchi yildayoq va Kolber undan to'rt yil keyin o'rmonlarni

yo‘q qilishning oqibatida mamlakatlarining boshiga o‘nglab bo‘lmas baxtsizliklar kelishini bashorat qilgan edilar... ammo mana, hozirga qadar ham o‘rmonlarning yo‘qligi ularning nafaqat to‘qlikda va farog‘atda yashashlariga, balki dunyodagi o‘tin zaxirasi bo‘yicha deyarli uchinchi o‘rinda turuvchi qudratli mamlakatga fitna-fasodlar uyuşhtirishlariga ham xalaqit berayotgani yo‘q, ho-ho!.. Vixroving o‘rmonni go‘yoki umumjahon iqtisodiyotini yuzlab yillar o‘z yelkasida tutib turgan afsonaviy Atlantga taqqoslashi esa, beixтиyor xotirada Atlantning birodari Prometey qiyofasini uyg‘otadi, uning nomi yunonchadagi olov hosil qilish uchun *yog‘ochni yog‘ochga ishqalovchi* ma’nosidan ko‘ra ko‘proq hind-olmon tillari oilasidagi ramathusni ifoda etadi. Binobarin, agar Prometey biz muhokama etayotgan professorning tarafдори bo‘lganida, ipso facto, Yer kurrasida hatto burjua taraqqiyotining olovi ham uchqunlanmagan bo‘lardi. Ammo modomiki, Vixrov janoblari burjuaziya taraqqiyotiga mana shundoq munosabatda bo‘larkan, agar uning qo‘liga hokimiyatni topshirib qo‘ysangiz, bizning proletarcha turmushni qanday yakson qilgan bo‘lishini tasavvur etish qiyin emas! Darvoqe, burjua kohinalaridan qaysidir bittasi tarixda ko‘rsatgan mardona sa‘y-harakatlarimiz uchun bizga ko‘p martalab turli-tuman halokatli oqibatlarni bashorat qilib edi va biz hech kimga kal bo‘lib qolgan sayyora uchun o‘zimizni tovslashga yo‘l qo‘ymaymiz... boz ustiga shaxsan o‘zim ham, ko‘rib turganingizday, boy o‘simlik qoplamasiga ega emasman... Hatto ak-sincha! – u o‘zining mutlaqo sochsiz kallasini siypalab qo‘ydi, – bundan juda bir sezilarli noqulayliklarni his etayotgani yo‘q... mening shoirona soch turmagim yo‘qligini hech ham kechira olmayotgan go‘zal jins vakilalari bundan mustasno...

– Bunday so‘zlarni aytishga uyalmaysizmi, qari irkit odam! – o‘tirgan joyidan xitob qildi Vixrov, boshini chayqaganicha va yig‘ilishdagilarning hammalari uning shu daqiqalarda ham qo‘rquv bilmaslidan hayratga tushdilar.

Chik xuddi hech gap bo‘Imaganday, o‘ziga grafindan suv quyib oldi.

– Ammo-lekin bizni ortga, changalzorlar ichiga qaytishga da‘vat qilayotgan bu daraxtzorlarning jangovar homiysining g‘ayratiga tan bermog‘imiz lozim, – dedi nutqining yakunida Chik. – Men o‘zim ham ibridoiy mavjudlikning muayyan jozibalarini va arzonligini inkor

etmayman, biroq mening bu qartaygan keksaligim hamda vaznimi ni hisobga oladigan bo'lsak, u yerdagi eng hashamatli shoxda ham bermalol o'tirolmasam kerak. O'yaymanki, bizning hurmatga noloyiq bu kasbdoshimiz uni tamaddunimizning noqulay rishtalaridan va egallab turgan lavozimidan xalos etishga bo'lgan samimiy sa'y harakatlarimizni to'g'ri baholaydi. Sizning yana ortga, o'rmoningizga qaytib ketishingizda oq yo'l tilaymiz, in saecula saeculorum¹, tabiatning soqoldor farzandi.

Uning ko'p yillik amaliyotida o'zining yarim soatlilik nomlar, iqtiboslar va latifalaridan keyin hozirgiday (tag'in ham uning ma'ruzasi bu bayonda qisqartirib berildi), o'z joyiga qarsakbozliklarsiz qaytgani hech qachon sodir bo'lman edi. Vixrovni yer tishlatish boshlanganidan zavqlanib, o'z quvonchlarini qizg'in namoyon etayotgan beqaror sobitqadamlardan boshqa hammalari xijolat va noqulaylikdan go'yoki o'z tizzalarini o'rganayotganday boshlarini pastga egib o'tirishibdi; ammo rostini aytish kerak, o'sha beqaror sobitqadamlarning orasida ham allaqanday sarosima paydo bo'lib qoldi-ki, papirosh ushlagan haligi ikkovlon pistirmadan turib jangga otilishdan o'zlarini tiyishdi. Majlis ahli o'z qur'asini beparvo kutib o'tirgan Vixrovga achinish bilan boqmoqda... ammo ayni shu daqiqada o'zining suyukli shogirdi bilan qo'l ushslashganicha shaxsan Gratsianskiy paydo bo'ldi. Hozir ko'pchilikka uning «ahvolidagi» odamni go'yo ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy burchini ado etmoqlikka faqat mutlaq mardlik-kina safarbar eta olishi mumkinday tuyulmoqda edi. Soqoli olimmag'an, go'yo har bir qadamini qo'yayotganida joni uzilib ketayotganday gandiraklab. u jimb qolgan qatorlar orasidan bo'yniga o'ralgan jun sharfiga to dahanigacha burkanib olib, tezroq o'lib qo'ya qolishday shu kichkina marhamatini ham zamondoshlariga uzoq vaqt ravo ko'rmagan shaxsning dafn marosimiga kelgan kabi qayg'uli tantanavor qiyofada o'tib bormoqda. Ammo gemoglobin yetishmovchiliga qaramasdalan, qurboni bilan o'zining o'rtasidagi masofa qisqargani sayin uning pastga tushib turgan o'laksa qovoqlari ostidan iblisona ko'tarinki ruh uchqunlari yanada zavqliroq chaqnay boshladi. Noqulay ahvolda qolgan majlis raisi unga navbatdan tashqari so'z berishga ulgurinasidan, ochiq-oydin namoyon bo'lib turgan betoblik alo-matlariiga ham tupurib, u minbarga chaqqongina chiqib oldi.

¹ Abadul abad (lot.).

Aleksandr Yakovlevich ko‘zlarini atrofga tikkanicha, suv quy-ganday jimlik ichida biroz vaqt ataylab chuqur sukut saqlab turdi, bu bilan yo quvvatini to‘plab oldi, yoki junbushga kelgan xotiralarini tarqatgan bo‘ldi.

– Salom, Ivan... qayerda o‘tiribsan o‘zi, ovoz bersang-chi! – tilga kirdi u nihoyat tushkun bir ovoz bilan, o‘zidan besh qadamgina na-rida sal qiya o‘girilib o‘tirgan Vixrovning eng oxirgi tiriklik alomati o‘laroq qoni qochgan tuproqday rangsiz yuziga xuddi uni ko‘rma-yotganday nazarini qaratib. – Salom, sobiq birodar, sobiq do‘s... ko‘rib turibsan, men nihoyatda betobman, ammo bizning uzoq yillik munosabatlarimiz meni yolg‘iz yotgan o‘rnimdan turishga majbur etdi, e... sen bilan ko‘p vaqt aloqadorlikda bo‘lganim uchun omma oldida tavba-tazarru qilish uchungina emas, faqat shugina emas, eng avvalo, sen bilan umrbodga vidolashmoqlik uchun... O‘nlab yillar davomida muttasil biz sen bilan qo‘l ushlashib bo‘lmasa-da, qadam-baqadam yonma-yon yurdik va, menga inonginki, sening oldingda manim vijdonim toza. Kuch-quvvatim yetganicha men seni yuz mar-talab jozibador makkorlik bilan o‘zi tomon chorlagan jarlikka qulash-dan to‘xtatib qolishga harakat qildim, qaysiki... o, yo‘q, men yolg‘iz Knishevning o‘zinigina nazarda tutmayapman!.. Tan olaman, men bu ishni ba’zan keskin tarzda amalga oshirganman, ammo do‘stimning jamoatchilik orasidagi obro‘sí mening o‘z shaxsiy yaqinligimdan ko‘ra qadriiroq bo‘lgan... O‘zingga ma’lumki, suvgaga g‘arq bo‘layot-gan odamni qutqarib qolayotganda uning sochini ham, chiroyli tur-magini ham ayab o‘tirishmaydi. Sen o‘zingning favqulodda salohiyatli quvvatingning kaloriyalarini va kilovattlarini boshqa maqsad-larga qaratganiningda edi, sevimli mamlakatimizning bu yerga jam-langan, e... ilg‘or o‘rmonchilarini quvontiradigan qanday ajoyib nar-salarni yaratgan bo‘lar eding!.. – Shu joyida Aleksandr Yakovlevichning ovozi cho‘ziq, violonchel torlariday mungli ohang kasb etdi.

– Ishning mazmuniga tegishli gapingizni boshlayqoling, Gratsianskiy... – jur’at qilib so‘z qotdi Osminov va hatto o‘rnidan ham ko‘tarildi-yu, ammo nursiz, yurakni muzlatuvchi nigohga dosh berol-masdan, joyiga cho‘kaqoldi.

– Vidolashuvimizning so‘nggi daqiqasida, Ivan, bizni manguga ajrashtirgan qat’iy ziddiyatlarimizni yana bir karra sanab o‘tishni xohlardim, – davom etdi Aleksandr Yakovlevich o‘sha qabr ustida-

gi yig'i ohangida. – Sen o'rmon uchun fuqarolik huquqlarini undirish uchun harakat qilib, uni fuqarolik majburiyatlaridan yashirinchalos etmoqchi bo'lding... sening belingni e... osongina sindirgan zamonamizning odamxo'rlari bo'l mish Knishevlar bizlarning bar-chamizni yer tishlatmoqchi bo'lgan ayni bir paytda-ya! Ha, biz seni yaxshi ko'rardik... ammo biz sening o'rmonlaringni asrab qo'yib, uning ko'mirga aylanishini milliardlab yillar mobaynida kutib o'tira olarmidik? Bizga ko'ksingni och, Vanya, yuragingni qanday dard g'ajib yotganini bizga birodarlarcha ko'rsataqol, e... biz uni o'sha yerdan sug'urib olaylik. Bizga, oddiy odamlarga tushuntir, tabarning har bir zarbasi oldidan bizlarni sen qaysi siyosiy nuqtayi nazardan mushohada etishimizga da'vat qiluvding? O'zingning aqlli boshing va deyarli mukammal bilimlaring yordamida, Ivanushka, million sovet o'rmonkesarlariga ko'paytirilgan birgina daqiqa – ikki yil bekor o'tgan vaqtga teng ekanini tushunmasliging mumkin emasdi... Hech bo'lmasa jar yoqasida turgan paytingda tan olib ket, sen sovet o'rmon kesish jarayonini yillik o'sib yetilish g'oyasi bilan cheklamoqchi bo'lganingda, boshqachasiga aytganda – besh yilliklarimizning xandaqlarini yog'ochsiz qoldirishga uringaningda, qanday jahannamiy maqsadlarni ko'zlagan eding?

– Miliitsiyani chaqirsanglar-chi, axir... bu tomoshaga chek qo'yish kerak! – qichqirdi kimdir orqadan, har ehtimolga qarshi ovozini o'zgartirib.

Majlis ahli orasida bo'ron misoli bir guvullash bo'lib o'tdi.

– O'rmon bu – suv, – o'zini tutolmay jig'ibiyron bo'ldi Osmnov. – U holda nima... sizningcha turbinalarimizni garmsel epkinlari aylantirib beradimi?

– Fuqaroga janoza o'qilayotgan marosimda janjal ko'tarmang... – Yarim o'girilgan ko'yi zaharli vishilliadi Chik va xuddi shu onda Aleksandr Yakovlevichning ovozi xuddi tobut ustiga birinchi mix urilganidagi bolg'a zarbidan bevalarda bo'ladigani kabi titrab ketdi.

– Mana, bizning minglab ovozlarimiz seni chorlayapti, Ivan, ammo sen javob bermayapsan. Sen o'z bitiklaring bilan yetkazgan va buni o'zing anglashni xohlamagan zararlaringning o'rmini o'zimizning fidokorona mehnatlarimiz bilan to'ldirish uchun biz og'ir bir musibat bilan hozir bu yerdan tarqalishamiz. Men sening ajalingdan avval qazilgan qabringga mana shu bir siqim tuproqni yoshlik davrimiz-

da va hamkorlikdagi inqilobiy kurashlarimizda sen bizga baxsh etgan quvonchlar va afsuski, e... o'zimiz sendan kutgan va taassuflar bo'lsinkim, amalga oshmagan umidlarimiz xotirasi uchun minnatdorlik tuyg'usi bilan tashlamoqchiman!..

Yaqinroqda o'tirganlar Aleksandr Yakovlevich minbardan tushayotgan paytida uning ko'zida kattagina hajmdagi va chamasi chiroqning nuri tufayli sarg'ish tusda tovlangan yoshni ko'rdilar; beqaror sobitqadamchalari uni shu zahotiyoy mo'yna po'stiniga o'rab, bu yerda sarflab qo'ygan gemoglobinini tiklash uchun olib ketishdi... Ammo ularning o'lib-qutilib bajargan jirkanch ishlari institut partiya tashkilotining kotibi tomonidan jiddiygina zaiflashtirildi. U nisbatan ancha yosh xodimlardan bo'lib, «Mexanizatsiya» kafedrasining diplomanti edi va aynan hozirgina eslatib o'tilgan besh yilliklarning xandaqlaridan to'g'ri jamoat boshqaruviga kelgani boisidan ham firqa ziyolilarining safini a'llo darajada to'ldirgandi. Ixtisosi bo'yicha o'sha paytlarda sodir bo'layotgan o'rmonchilik ziddiyatdaridan uzoq bo'lgani uchun, yovlashayotgan taraflardan birortasiga ham yon bosmadi, ammo munozaralarining xususiyati uning qiziqqon ishchanlik ruhiga va to'g'riso'z fe'liga tegib ketdi. U Vixrovning himoyasiga o'tmasada, uning raqiblarining bahs yuritishdagi bunday shubhali kashfiyotlari kommunizm quruvchisiga yarashmasligini piching qilib qo'ydi, ayniqsa, xalq xo'jaligi turmushining eng muhim masalalarini hal etish chog'ida. Professor Gratsianskiyning o'tmishiga har tomonlama ehtiromli munosabatda bo'lsa-da, baribir uning nutqini haqiqatni qoralashga qaratilgan burjuacha so'zamollikning tutqanog'i deb atadi: raqamlarni raqamlar bilan inkor etish aynan odobdan bo'ladi, dedi u. Va nihoyat, o'z chiqishida jamoatchilikning tanqidini qizib turgan tovaga taqqoslashga jur'at etgan o'rtoq Chikning nomunosib betakallufligini keskin qoraladi... Ivan Matveich yakuniy so'z olishdan voz kechdi. Majlisning stenogrammasini yuqoridan so'rattirishgani yarim tunga borib ma'lum bo'ldi.

Shunga qaramasdan, ertangi kun oqshomga Vixrovning kafedrasiga qayta saylov tayinlandi va yashirin ovoz berish uchun varalar tayyorlab qo'yildi. Tizginsiz mish-mishlar quvg'inga uchragan Vixrovni allaqachon qayoqqadir Oltoydag'i o'rmonchilik xizmatiga jo'natib ham bo'ldi, uning o'rniga esa nima uchundir Cheredilov saylanishining bashoratini ham berishdi, holbuki ommanning fikriga

ko'ra u dafn idorasining xo'jalik mudiri bo'lishga ham noloyiqroq edi... va kutilmaganda birinchisi saylovda eng ko'p ovoz olib, ayni paytda ikkinchisining O'rmonchilik ilmiy qo'mitasidan dumি tugilgani to'g'risida xabar olindi. Ertalab telegraf tabriknomalari uyumi orasida Ivan Matveich qo'rqib ketgan Gratsianskiydan ham noma oldi, unda barcha beqaror sobitqadamlarning ham imzolari qo'yilgan. shuningdek, Vixrov shu paytgacha o'zida mavjudligini o'zi ham bilmagan barcha fazilatlari sanab o'tilgan edi. 1936-yilning esda qolarli bu voqeasi Ivan Matveichning salomatligiga va jamiyatdagi nufuziga deyarli ta'sir etmadni, bir satr ham matn yozilmasdan o'tgan ikki yillik sukut bundan mustasno. Faqatgina katta urush boshlanishi arafasida kutilmaganda uning ikki jildlik *O'rmon haqidagi fanga kirish* asari dunyo yuzini ko'rib, bu holat Gratsianskiy tomonidan yarashuv ahdini makkorona buzish deya baholandi. Ushbu kitob tanqidining fosh etuvchi favqulodda kuchi Aleksandr Yakovlevichning nomzodi Fanlar akademiyasi muxbir a'zoligiga qo'yilishi to'g'risidagi, avvalroqda eslatib o'tilgan qat'iy, va xayriyatki, o'zini oqlamagan ovozalarning tarqaligishiga sabab bo'lgan edi. Bu uning shuhratining cho'qqisi edi: Gratsianskiyning nomini sovet qishloq xo'jaligi, bog'dorchiligi va polizchiligining taniqli arboblari nomi bilan bir qatorda qayd etib o'tmaslik o'taketgan beodoblik sanalar edi. Endi Ivan Matveichning o'zi ham aybdorlik hissi bilan uning qarshisida bosh egdi, o'zining nazariyalari uchun emas, albatta, shunchaki mana shu arbobning ulug'verligini tushunishga noqislik qilayotgan o'z aql-idrokining cheklanganini anglaganidan. Aleksandr Yakovlevichning taqdirining zavoldidan hali hech narsa darak beryotgan bo'lmasa-da, uning qiyofasida va amr-farmonlarida birdaniga qandaydir anglab bo'lmas tushkunlik zohir bo'lib qoldi. U kamsuqum, o'zining huzurida odatda mum tishlab turadigan o'z xodimlariga ham yaltoqlanib gapiradigan bo'lib qoldi, ko'pincha o'zining sof matematikaga yoki tarixchilik faoliyatiga qaytish istagida ekanidan gap ochaini. Ivan Matveich uning yonidan oqsoqlanib qadam bosganicha yugurib o'tib qolsa, yalinchoq nazar bilan ortidan mo'ltirab qoladi.

... Yuzma-yuz to'qnashuv 1941-yil sentabrining oxirlarida, ko'chish masalalari hal etilayotgan so'nggi kengashda ikkovlari bitta miz oldida yonma-yon o'tirib qolishganida sodir bo'ldi. Kutilmaganda, bombardimon xatari e'lon qilinmasidanoq, atrofda zenit to'plari

gumburlay boshladi va ilmiy kengash qachonlardir Yekaterina mulozimining ichkilik zaxiralari saqlangan qubbasimon shiftli yerto'laga o'tib oldi.

– E'tibor qilgin-a, Ivan, oradan yuz yilliklar o'tib ketsa ham devorlardagi hidlar hanuz ketmagan: Dionisning nafasi! – Vixroving yelkasiga yelkasini tiraganicha kuzatuvini o'rtoqlashib shivirladi Aleksandr Yakovlevich. – Ko'rinishicha, Mokvani tark etish niyatting yo'q, shekilli? Men ham, oshnaginam, shu yerda qolishni o'ylab qo'ydim... institutni kimdir nazorat qilib turishi kerak-ku... Gapsoszlarga qaraganda yana bitta kitobni yakunlab qo'yanmishtan? Sen qo'rqinchli odamsan, Ivan-pahlavon, sening kemachang hoving har qanaqa ra'yida ham suzaveradi, o'choqning zangi ham, qozzonning qorasi ham yuqmaydi senga. – Ivan Matveich sukut saqlab o'tiravergach, unisi savolini ochiqchasiga berib qo'yaqoldi: – Yana davr ahamiyatiga ega uch jildli biror narsami?

– Yo'q, bu safar shunchaki uzoq muddatli mudofaa sharoitida o'rmonni istifoda etish bo'yicha qo'llanma, – quruqqina javob qildi Ivan Matveich, holbuki aslida hozir aviatsiya yog'ochlari masalasi bilan shug'ullanayotgan edi. – Bir mahallar nam yog'ochga ishlov berish texnologiyalariga qiziqib ko'rgan edim... xuddi shunaqangi.

– Sen ehtiyyotkorroq bo'l, judayam kirishib ketma. Mening o'zim ham, og'aynichalish, o'ng qo'limda yozgan narsamni shu zahotiyoyq chap qo'lim bilan o'chirib tashlayman. Bir safar sening shu yilgi kirish ma'ruzangning stenogrammasi mening qo'limga tushib qolgandi: o'qigach, boshimni changallab qoldim. Axir qayta-qaytallab g'ozlarning jig'iga tegaverishning senga nima keragi bor, Ivan? Ozgina mulohaza qilib ko'rgin: *ular* mana shu g'oyalarning *hammasini* xalq uchun afyun deyishyapti, sen esa...

– *Ular* deganing kim? – qovog'ini uydi Ivan Matveich. – Ular – bu biz.

– Men ham shuni aytyapman-da... biz. Urush ketyapti axir, sen esa g'o'r yoshlarning qarshisida o'rmon alvastilari haqida lapar aytilib o'tiribsan, yana qandaydir sayxonliklar to'g'risidami-yey... tag'in hammasi qadimgi rus shevasida yangrayapti.

– O'sha sheva – mening bobolarimning tili... sen balki o'g'rilarining yasama so'zlamasida gapishtimni buyurib qo'yarsan? – nihoyat Ivan Matveichning jahli chiqib ketdi. – Bundan tashqari, men o'z

o'quvchilarimning sog'lom tafakkurini hurmat qilib o'rganganman. Kel, yaxshisi jim o'tiraylik, kengashga xalaqit beryapmiz... xuddi shunaqangi.

Biror daqiqa o'tib, Aleksandr Yakovlevich o'zining Vixrov uchun hozircha yo'nalishi mavhum bo'lib turgan hujumini qaytadan boshladi:

— Mana, bizlar keksayib qoldik, Ivan, amallarimizning izohini berishga ulgurmasdan qabr toshining ostiga tushib qolishimiz hech gap emas... asl maqsadingni aytish vaqt kelmadimikan, a?.. Yo'q, sen bilan bir shisha ming darajali musallas ustida miriqib otamlashib o'tirmasak bo'lmaydi, bombardimonlar gulduragi atrofnı tutsin-u, bir-birimizning ko'zlarimizga tik qaraylik. Ustimizdan bomba yog'ilib turganida muttahamlik qilishga botinolmasak kerak axir, a?

— Qachondir keyinroq suhbatlasharmiz... g'alaba qozonganimizdan keyin, — taklifga chap berdi Ivan Matveich.

— Ha-ha, biz, albatta, zafar qozonamiz... faqat... o'ylashimcha hali-beri emas. Biz esa ertaroq uchrashishimiz lozim... mabodo shu kunlarda kechki payt eshigingni taqillatib borsam haydab yubormasan, axir? — Va, savoliga javob ololmagach, kezi kelganda hozirgi aytmoqchi bo'lgan so'zlaridan tonib ketish imkoniga ega bo'lish uchun eshitilar-eshitilmas ovozda qo'shib qo'ydi: — Sen katta odaman va qalbingda tunganmas hayot suvi qaynab turgan o'zingning chashmangga egasan, men esa... men nihoyatda kimsasiz va bad-baxtman, Ivan.

— Bugun negadir juda yopishqoq bo'lib qolding, lekin... mayli, kelaver. — Va ko'p yillardan beri ilk marta sheringining qora tortgan, ich-ichidan kuyib ketgan yuziga boqdi: Gratsianskiyning beqaror sobitqadamlari hozircha yo'nalishi noma'lum bo'lgan, endi ko'tarilib kelayotgan allaqanday yangi quyosh tomonga asta-sekinlik bilan qo'chib o'tishayotgani unga allaqachon ma'lum bo'lib ulgurgan edi.

Aleksandr Yakovlevichning yuragini nimadir kuydirayotgani shubhasiz; ehtimol bu qatorasiga chorak asr davomida o'z zamondoshlarining ko'zlarini qamashtirib kelgan o'zining o'zgarmas omadi to'satdan yuz o'girib qolishidan qo'rqiб ketgan ashaddiy qimorbozning kutilmagan vahimasidir. Demak, o'z haqiqatiga qattiq inongan Ivan Matveich shularning barchasiga qaramasdan, mana shu makkor,

o‘zlarining olamchalarida o‘ta qudratli bo‘lgan odamni o‘z fikridan qaytarishga so‘nggi marta urinib ko‘rmoqchi bo‘libdi-da.

Shundan keyin ko‘p vaqt o‘tmasdan Aleksandr Yakovlevich yana bir marta qattiq vahimaga tushdi-ki, ammo bunisi endi hazilakam qo‘rquv emasdi.

4

Sovet Boshkenti mudofaasining eng qizg‘in pallasi yetib keldi... Urushning keyingi borishlari davomida hududiy ko‘lamlari, qatnash-chilarining miqdori, strategik uslublarning murakkabligi bo‘yicha o‘tmishning buyuk janglarini o‘z soyasida qoldirib ketgan ko‘plab qonli manzaralar sodir bo‘ldi, ammo o‘sha davrdagi Moskva atofidagi voqealar o‘zining dunyo tarixi uchun ahamiyati bilan hammasidan o‘tib ketdi. Deyev aylanma deposining umumiy majlisida frontga sovg‘a sifatida zirhli poyezd qurish masalasi muhokama etildi, Morshixin bu voqealarni shunday atadi: bo‘lg‘usi g‘alaba maktabi.

Hali qirq birinchi yilning qishi kelmasidan, dushmanning sovet qo‘shinlari katta tezlikda mag‘lub etilishi borasidagi rejasi barbod etilgani ravshan bo‘lib qoldi. Qadimiyl Boshkentni egallash uchun belgilangan va maqtalgan olti hafta esa olti oyga aylanib ketdi, ammo Moskvagacha bo‘lgan masofani bosib o‘tishdan ko‘ra, agar ta’bir joiz bo‘lsa, nemislar uchun hozir Amerika sohillariga yetib borish osonroq bo‘lur edi. Olmon fashizmining saralangan harbiy qismlari Belarus dalalarida o‘sha yili erta yog‘gan ho‘l qor tuproqqa tushib ulgurmasidanoq yer tishlab bo‘lgandilar. Ikkinci navbat kuchlari bilan to‘ldirilgan olmon mashinasi hamon sharqqa g‘ildirab ketmoqda, ammo harakatlanish tezligi avvalboshdagi bir kecha-kunduzda olt-mish chaqirimdan nari borsa ikki chaqirimgacha pasayib ketdi va hatto bu sur’at ham Yevropa uchun aqlga sig‘maydigan darajada qimmatga tushmoqda edi. Bosqinchilarining maktab darslarida o‘zlashtirgan bilimlariga ko‘ra, bu yerdarda yap-yalang tekisliklar bo‘lishi kerak edi, aslida esa qarshilaridan xaritalarda belgilanmagan, zabit etib bo‘limas tog‘lar chiqib keldi: ya’ni buyuk xalq qarshiligi. Ana shunda Berlin qarorgohining qaysarligi va umidsizligi sovet mudofaasini yana bir bor askarlar jasadi bilan sindirish fikrini miyalariga joylab qo‘ydi. Jon talvasasidagi oktabr hamlasi fashistlar Olmoniyasini Moskvaning

uzoq ostonalarigacha olib keldi, u yerda chamasi bir yarim oylardan keyin buyuk jang, deyarli Borodinoning takrori, yuz berishi lozim edi, ammo farqi – bu safar yuz yigirma ming kvadrat kilometr maydonda va butkul boshqa oqibatlar kelib chiqqan holatda.

Moskva dushmanning jangovar bo‘linmalaridan bir manzil masofada turardi, xolos – avvalgi istilochilarining xomxayollaridagi sarob va yangi dunyoning eng asosiy qal’asi. Hordiq chiqarish, isinish hamda askariy ermaklar orzusida, shuningdek dushmanning oltmishta diviziyasini qo‘lga kiritish istagida o‘zlarining butun lash-lushlari bilan oldingi marralarga joylashib olishgan; jangda qizib ketgan temirdan qorlar erib, kuzatuv tuynuklaridan oqib tushmoqda. Talab olingen latta-puttalarga o‘ranib olgan, muzlab akashak bo‘layotgan kaftlari ni puflab isitishga behuda urinayotgan bosqinchilar qora izg‘irinning g‘ira-shirasi orasidan tikilib, biror umidba什 narsani ko‘rishga urinadilar, ammo u yerda hech narsa yo‘q – oltin gumbazlar ham, qimmatbaho metaldan ishlangan laganlarda shahar darvozalarining va xazinalarining kalitlarini ko‘tarib olgan tizcho‘kar boyonlar ham yo‘q. Faqatgina shoxlariga qo‘ngan qor parchalari kumushday yaltirab uchqunlanayotgan o‘rmonlar soddagina go‘zalligini namoyon qilmoqda va o‘nqir-cho‘nqir dalalar yuzida yalatma izg‘irin o‘ynaydi. Fashistlar olmoniyasi hozir bu yerda maqtanchoq va ehtiyoitsiz lashkarlarning boshidan o‘tgan barcha qonli umidsizliklarning eng kattasiga duchor bo‘lish arafasida turar edi.

Olmonlarning bir hamla bilan maqsadga erishishga takroriy kuchanishi muvaffaqiyatsiz yakun topdi, ammo g‘aninshing yaqin masofada ekani sovet Boshkentini qamal holatida qoldirdi. Yov g‘azabidan quturib, kunning o‘rtasida, shaharning ustiga bombardimonchilarini yo‘lladi, ammo Boshkent osmoniga ularning ozchiligi yorib o‘ta oldi, xolos. Ammo ular endi asosan kechki tig‘iz mahalda, ko‘chalar ish navbatini tugatib qaytayotgan paytda bombalarini bo‘shatib olishga o‘tdilar. Moskvaning nafasini ham, uning tafakkur shuurini ham, ishchi dastgohlarning harakatlanishini ham hech narsa to‘xtata olmasdi. Ertalabga qadar ko‘zga ko‘rinmas qo‘llar shaharning zararlangan binolarini, yodgorliklarini va yo‘lkalarini qaytadan ta‘mirlab qo‘yishga ulgurishar edi. Yonarkukun pardasi Moskva chetidagi mazgillargacha o‘rmalab kelgan oktabrning o‘rtalaridagi qisqa sarosimalikdan so‘ng, moskvaliklarga qat’iy xotirjamlik tuyg‘usi qaytdi. Urush o‘zining hu-

jumlari bilan shahar turmushiga va kun tartibiga mahkam o'mashib qoldi; yilnomachi o'sha oylardagi Moskvadan tantanavor ranglarni topa olmaydi. Shahar go'yoki o'z zeb-ziynatlarini, qadimiy zarhal jilolarini, hattoki o'z xiyobonlaridagi tabiiy qizillikni, o'limga bo'lgan nafratdan tug'ilajak eng yuksak go'zallik evaziga yechib qo'ygandi. Qor parchalaridan uqa taqib olgan, zanglagan temir kirpilar va sanqosiz o'rachalar shahar chetidagi yo'llarni to'sib qo'ygan, shaharga kirish joylarida esa tankka qarshi ixotalar ko'tarilgan bo'lib, qish arafasidagi, qon xalqobini eslatuvchi shafaq shu'lasida yelib kelayotgan mashinalar uchungina yo'l olchib qo'yilgan edi. Mudofaa marralari bilan qurshalgan shahar fuqarolar urushi davridagi o'q terib chiqilgan tasmani badaniga o'rab olgan dengizchiga o'xshaydi va ishchi batalyonlar ham xuddi tinchlik paytidagiday jimgina frontga jo'nab ketishmoqda... Kiyilaverganidan eskirib ketgan poyabzaldagi beretli moskvalik qizning yig'layverib qizarib ketgan ko'zlarida yosh bilan ularning qadamlariga yetishib olish uchun tosh yo'lda yugurib ketayotganini ko'pchilik eslasa kerak.

O'shanda Polya rosa bir oy g'arb tomon yo'nalgan odamlar oqimi orasida turib qoldi. Uning nazarida, shunday tahlikali davrda o'zi o'rganib qolgan Moskvaning tomini tashlab, institut bilan birgalikda xavfsiz-xatarsiz Toshkentga jo'nab qolish eng oliy ma'nodagi gunoh bo'lib tuyuldi. Hech qayerdan xat-xabar kelmay qo'ygan, Varyaning o'mini bosadigan yangi dugonalar topilmadi, Taiskaning tobi yo'q... Hozir u tezoqar daryoning eng chuqur joyiga yaqin girdobda chirillab aylanayotgan yolg'izgina bir xas edi. Atrofdagi hamma narsa jasoratga chorlamoqda: yonayotgan rus qishloqlari haqidagi gazeta xabarlar o'q teshib o'tgan komsomol biletlarining fotosuratlari, Gastello izdoshlarining portretlari, oxirgi tomchi qoni qolgunicha yangi tarixning boshqaruv qarorgohi bo'lmish Moskva uchun jang qilishga ont ichishlar bilan almashinib turibdi. Vijdon qiyognog'i endi qirovdan sirpanchiq bo'lib qolgan tomdagi tungi navbatchilik charchoqlarini ham bosib ketmoqda edi. Havo bilan non xuddi urush qahramonlaridan o'g'irlab olinganday, Polya ko'ngilli ravishda o'z zimmasiga olgan barcha yuklamalar esa o'z burchini bajarmaslik uchun bahona bo'lib tuyulmoqda. Polya komsomol tashkiloti kotibining tasiyasi bilan ishga kirgan ambulatoriyada uni dunyodagi eng sodda mavjudot deb hisoblashadi va u oddiygina tarzda, hech qanday fikr-

mushohadalarsiz erishgan narsalar qanday to‘lovlar evaziga qo‘lga kiritilgani hech kimning xayoliga ham kelmasdi. Hammalari uning qanday qilib jo‘shqin hayotdan uzilib qolganini anglashga urini-shardi: axir eng avvalidanoq jarnomalar barcha chorrahaldan uni hamshiralalar tayyorlash ilmxonalariga, ishchi dastgohlariga, yuk ma-shinasi chambaragini boshqarishga, oqma loylarga qarshi kurashishga uning yoshligi va sog‘ligi imkon beradigan metroning uchinchi navbatli qurilishiga chorlayotgan edi-ku. Lekin avvaliga, ko‘pchilik o‘ylaganiday, bir-ikki hafta ichida sovet qo‘shinlari bitta hamla bilanoq dushmanni uloqtirib yuboradiganday tuyulgan edi, keyin esa... Bu orada Oktabr bayrami ham yetib keldi.

Sal oldinroq, tushlikka tanaffus paytida Polya yana frontga yuborishlarini so‘rash uchun yugurgilab qoldi. Harbiy komissariating devorlardan turli o‘gitlar joy olgan dim yo‘lagida odamlar navbatga tizilishgan, Polyadan oldinda sovet qo‘shiniga to‘rtta xabarchi kaptarni in’om etish uchun bir maktab o‘quvchisi turibdi. Bolaning ishiga hech kim kulayotgani yo‘q, chunki bu yerda gap umuman kabutarlarda emasdi: kishilar o‘quvchining atrofida to‘planmaslikka harakat qilishmoqda, chunki qush judayam kichkina, unga ko‘proq havo kerak. Bir soat ichida Polya qo‘l garnatasining tuzilishini, oyoq sinishida bog‘lagich qo‘yishni o‘rganib ulgurdi. Birinchi bo‘limning mayori qizni qisiq ko‘z bilan ziyrak kuzatdi va birinchi taqsimot bo‘lishi bilanoq uni, albatta, eslashga va’da berdi: bolalarni hozircha urushga qo‘yishmayotgan edi. Yoshlar tashkiloti qo‘mitasigacha olti daqiqalar chamasi yurilardi. Tanish xonada, miz ustida xuddi ataylab Polyani kutib turganday, bardoqda o‘sha-o‘sha bitmas-tuganmas choy turibdi, ammo Sapojkovning joyini, agar yigirma besh yoshda odamga o‘z taqdiri kabi bo‘zargan bashara ato etiladigan bo‘lsa, endi xuddi o‘shanday ozg‘ingina qiz egallagan edi.

– Bo‘ldi, tushundim... – u darhol Polyaning so‘zini bo‘ldi. – Men aynan o‘rtoq Sapojkovning o‘rniga keldim... Yo‘q, vaqtinchalikka emas! Agar frontga jo‘nash masalasida bo‘lsa, Mitishshi vagonsozlik korxonasiiga murojaat etishni maslahat beraman, u yerda ayniqsa ishchi qo‘llariga ehtiyoj katta... – u ko‘zini qisib qarab qoldi. – Yoki Sapojkovga shaxsiy ishingiz bormidi?

– Unchalikmas, lekin... aynan o‘zi bilan uchrashsam degan-dim, – so‘zini o‘tkazishga jur’atsizgina urinib ko‘rdi Polya, u xusu-

siy suhbati bilan taqdir basharasining vaqtini olishga xijolat tortayotgan edi. – Uni uzoq gapga tutmayman.

– Afsuski, bu mutlaqo ilojsiz, – qog'ozdan boshini ko'tarmay javob qildi taqdir. – O'rtoq Sapojkov Narofominsk ostonasida o'ldirilganiga uch kun bo'ldi.

Polya xuddi o'sha o'q uchib kelib o'ziga tekkanday qalqib-gan-diraklab eshikdan tashqariga chiqdi. Uyiga kechqurun yetib bordi va oradagi vaqt davomida nimalar qilganini deyarli eslay olmadi, bu fursat ichi o'rtoq Sapojkov nuqul u bilan birga yurdi va negadir uning yuzi Rodionniki edi... Tun ham notinch o'tdi: ikki yuz ellikta uchoq Moskvaga hamla qildi, o'nlar chasi mudofaa zarbalar bilan urib tu-shirildi. Tomdan qaytganidan keyin qizning uyqusи ham kelmadi: zax bosgan, isitilmay qo'ygan xonadon tobora sovib bormoqda edi. Natalya Sergeyevna o'sha tun o'zining tibbiyat bo'limida qoldi.

Ora-orada oqbo'ronga aylanib qo'yayotgan quyuq qor sahar g'ira-shirasida deraza ortida osmondan rosmana to'kilib turibdi: Oktabr bayrami shu alpozda kirib keldi. Odatda, shu kuni erta tongdan butun Chernetsovlar oilasi Pavel Arefich boshchiligidagi radio qabul qilgich atrofida jamlanishib, Moskva namoyishlarining qudratli guvul-lashini tinglashar edi. O'sha odatga ko'ra, Polya dahlizdagagi devorga ilig'liq qora barkash oldiga chiqdi. O'sha yili katta namoyish bo'lishi amri mahol edi: qo'shinlarga to'lgan Qizil maydon dushman aviatsiyasi uchun ayniqsa ko'ngildagiday nishonga aylangan bo'lardi... Shunga ham qaramasdan, Polya birovning sandig'i ustida chayqalib turganicha nimanidir intizor kutadi. Radiotarmoq sukutda, ammo goh-gohida undan shamol haydayotgan qorning shitirlashigami yoki sekin sirpanib siljiyotgan temirning g'iyqillashigami o'xshash g'atalati ovoz to'kilib qo'yadi. Qorong'ilikda to'satdan qizning qarshisida bahodirona bo'y-basti bilan paydo bo'lib qolgan o'rtoq Sapojkovning yuzini judayam ko'rgisi keladi. Polyani odamzotga xos bo'lgan, o'z yaqiningdan ayrilganidan keyingina unga munosib asosiy, xush yoqadigan so'zlarni u hayotligida aytishga ulgur-maganingdan afsuslanish tuyg'usi qiyamoqda edi. O'sha lahzalar-da mizg'ib qolibdi, shekilli, oq nimpo'stin kiygan feldyeger uning yonida paydo bo'lib qolganini payqamabdiyam. Xira chiroqcha yorug'ida u ola-bula varaqachadagi Polyaning nasabini ovoz chiqarib o'qidi va uning pasporti bilan solishtirib, yuzini yaxshilab

o'rganganidan keyingina qizning qo'liga topshirdi. Bu Qizil may-donga taklifnomasi edi. O'sha yili ularni manzillarga pochta orqali jo'natishmabdi, namoyishning boshlanishiga bir soatdan salgina or-tiqroq vaqt qolibdi va chamasi bunisi butun Boshkent bo'yicha yago-na istisno edi.

O'rtoq Sapojkov o'zining komsomolcha va'dasini o'limidan so'ng bo'lsa ham bajaribdi.

5

Polya daqiqa sayin bo'sh qorga botganicha, bo'm-bo'sh, chiroqlari o'chirilgan shaharni oralab to'g'ri yugurib borardi. Tun hali poyoniga yetgani yo'q, ammo har holda oqbo'ron to'xtadi; ahyon-ahyonda chiroqlari o'chirilgan mashinalar yelib o'tadi va burchak-burchaklar dan ust-boshini qor qoplagan tungi soqchilar qo'qqis paydo bo'lib qolishadi. Markazga yaqinlashgani sayin namoyishga yetib kelayotgan jangovar bo'linmalar ko'proq ko'zga tashlana boshiadi va xuddi Polyaning o'zi kabi o'sha tarafga oshiqayotgan yakka-yakka odam gavdalari ko'rinish qolmoqda. Askarlar qurshovi orqali, oq g'iloflarga o'rab qo'yilgan ulkan harbiy mashinalarni oralab u maydonga kirib keldi. Qorong'ida o'z joyini izlab topishi uchun nafas rostlab olishga va o'zi ham ishtirokchiga aylanayotgan tarixiy voqeaga tayyorlik ko'rib olishga deyarli fursati qolmagan.

Hamma narsa vaziyatning favqulodda ekanidan darak berib turardi: namoyish o'tkazish uchun juda erta, muzday titroqqa to'yingan fur-sat, to'rtdan uch qismigina odamlarga to'lgan qorong'ilik bag'ridagi minbarlardagi sukunat, mehmonlar orasida harbiy xizmatchilarning ko'pligi... Maydonda Polyan dan yoshroq hech kim yo'q edi, uni iltimossiz ham oldingi qatorga o'tkazib yuborishdi. U tadbirning boshlanishini shunday sabrsizlik bilan kutar ediki, hatto o'z tanasini ham his etmay qo'ydi va hamma bilan birgalikda goh tongning g'ira-shirasida ko'rinish turgan Spassk siferblatining ikkovi ham sakkiz raqamiga yaqin turgan millariga, goh Lenin mavzoleyining qor bos-gan, hozircha kimsasiz supalariga, goh esa chala uyqudag'i, xuddi qo'l uzatsa yetadiganday past ko'rinishayotgan bulutlarga qayta-qayta qarayveradi... Bir payt achchiq bulduruq uni hushyorlantirib, bo'yinlarini kuydirib qoldi.

Qiz hozir dunyo tarixining o‘z ahamiyatiga ko‘ra yirik jangda qozonilgan g‘alabaga teng bo‘lgan sahifasini o‘z xotirasiga muhrab olish arafasida turardi. Uning ayrim bo‘laklarini ilgari rasmlarda, kitoblarda, ekranlarda o‘qigan yoki ko‘rgan: oldindagi, g‘alabaga chorlovchi shiorlar yozilgan, qishning shamoli mavjidan yelkanday shishib turgan matolar tortilgan kulrang bino manzarasida xira yashil kaskalardagi, telpaklardagi, ayvonchasiz bosh kiyimlardagi to‘bora ko‘rinmay borayotgan harbiy saflar; oqarib kelayotgan osmonda xuddi ro‘yoday xayoliy ko‘rinayotgan Vasiliy gumbazining burmalar, xuddi Yenga etaklaridagi kabi tungi qorbo‘ron to‘plab qo‘yan to‘p-to‘p baland qor uyumlari yopishib olgan kreml devorlari. Atrofdagi odamlarning qiyofalarida, ayniqsa anavi ishchilar qalpog‘ini kiyib turgan yigitchaning chehrasida qiyonoqli darajada tanish allaninmadir bor, ammo bu umumlashtiruvchi jihat ular barchalari Moskva ko‘chalarida bir-birlariga alohida-alohida duch kelib turishlari emas, balki ularni o‘zaro yaqinlashtirib turuvchi bir oilaga daxldorlik hissi hammalarini o‘zaro bir-birlariga o‘xshatib turardi... Bundan ko‘ra ancha kichik ko‘lamda bo‘lsa-da, lekin Polya go‘yo mo‘jizaning, hov o‘rtada turgan ulkan orkestrning sukutidan yanada kuchliroq his etilayotgan jimlikning g‘oyibiy xabari misoli bir talvasadan bunday hayajonlanishni avval ham his etishiga to‘g‘ri kelgandi... Lekin bularning barchasi havoning aynigan ra‘yiga to‘g‘ri kelgan harbiy soat bilan birlashganida yurakni ezuvchi, hozirgina shu joyda kashf etilgan yangiligi bilan yurakka tig‘ sanchganday og‘riq berardi. Qizil maydondagi, bir lahzadan so‘ng bo‘ronga aylanishga tayyor turgan o‘sha kungi sukunatning buyukligini to‘la tasvirlab berishinga keyinchalik qog‘ozning ham kinotasmaning ham na kuchi, na bo‘yoqlarining ranginligi yetib berdi.

Va Polya, toki umrining so‘nggi kunlarigacha undan aynan shu haqda so‘rab-surishtirishlarini anglagan ko‘yi, bu yerda olgan taassurotlarini, odamlarning o‘z abadiy shaharlari uchun, besh yilliklarning xandaqlariga baxshida etilgan navqiron yoshliklari uchun fuqarolik tashvishiga va g‘ururiga yo‘g‘rilgan suhabatlaridan eshitib olganlarini o‘z xotirasining burchak-kunjaklariga shosha-pisha joystack boshladi. Salgina oldin yerto‘lada bo‘lib o‘tgan tantanali yig‘ilish, raqiblar dekabr olishuvlarining marralari uchun kurashgan Yaxroma yaqinidagi shiddatli janglar, xuddi vulqon lavasi kabi kecha-kunduz ish-

lab chiqarilayotgan tanklarning to'xtovsiz oqimi chiqib kelayotgan O'rol orti korxonalari, nihoyat, Moskva atroflariga Sibirdan muntazam kelib turgan qandaydir maxfiy eshelonlar haqida shivirlashib so'zlashmoqda edilar... Osmon xuddi yuvib qo'yilayotganday tozalana bormoqda va oldindagi uzun qizil transparantlarda imperialistlarni ag'dargan va xalqlar o'rtasida tinchlikni e'lon qilgan sotsialistik inqilob haqidagi yozuvlar osongina o'qila boshladi... Polya sabrsizlik bilan soat millarini ilgarilashga shoshirar ekan, bundan avvalgi hodisot o'z o'mniga to'la joylashib olmagunicha, keyingisining sodir bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'ymaydigan tarixning murosasizligini ilk bor yaxshi anglab yetdi: eng oxirgi kechikkanlar hali yetib kelganlari yo'q va minbarlar bo'ylab tortilgan qo'riqchilar zanjiri hali ortga siljimadi, bu hodisa qanday sodir bo'lganini avlodlar bir asr o'tganidan so'ng ham ko'ra olishlari maqsadida kinotasvirchilar o'z obyekтивларини hamma tarafga yo'naltirib qo'yishni hali tugallamadir.

Har safar minora soatlariga nazar tashlar ekan, Polya o'z yonida o'tirgan, yelkasiga qor ingan yigitga ko'z qirini tashlab qo'yadi... hozirgiga butunlay o'xshamagan qandaydir boshqa sharoitdarda, bundan ancha avvallar u bilan hatto so'zlashganiga ont ichib berishi ham mumkin. Yigit ham ora-sira yovqarash qilib qo'yayotganiga ko'ra, u ham Polyani taniganday bo'lyapti-yu, lekin eslolmayapti, chunki o'shanda qizning boshida bo'lgan kulgili poxol shlapa o'mida hozir eski, bir chekkasi kuygan jun matoli ro'mol o'ralgan edi. Faqat mana shu o'zaro talpinishning kuchi bilan Polya bu notanish yigitga o'zining bolalarcha qo'rquvlaridan so'z ochdi: shunchalik ko'p sanoqsiz tafsilotlar va chehralar ixchamgina kinotasmaga sig'armikan, – mikrofonlarni qo'yib bo'lishga ulgurishganmikan: har qanday vaziyat bo'lganida ham, front, mamlakat va dunyo hozir Qizil maydonning nafasini eshitishi kerak, uning barcha tovushlarini – birorta taqaning qo'qqis chaqillab qolishidan tortib, qo'shinlarni ko'rikdan o'tkazib kelayotgan qo'mondonning salomlashuviga minglab ovozli askarlarning javob hayqiriqlariga qadar.

– Bu esa hammadan ham ko'ra ko'proq bizning leningradlik bolalarga kerak, to'g'ri aytyapmanmi? – Polya bundan sal oldinroq boshlangan Shimoliy Boshkent qamalini nazarda tutmoqda edi. – Shaxsan men uchun bunday eshittirish nondan ham to'yimliroq bo'lardi.

– Hechqisi yo‘q, ular a’lo darajada bardosh berishyapti, – g’urur bilan va katta odamlarday ohangda uni tinchlantirdi yigitcha. – Ishim taqozosi bilan men u yerga ba’zida borib turaman... yaqinroq joyga. Masalan, teatr bilim yurtida *Don Karlosni* qo‘yishayotgani, akademiyada esa Uyg‘onish davri me’morligi bo‘yicha ma’ruzalar o‘qilayotganini xabar qilishdi...

– Haliyam o‘qilayotgan ekanmi? – ishonmaygina so‘radi Polya.

Modomiki oddiy mashg‘ulotlar aholining jasorati sifatida e’tirof etilayotgan ekan, Leningraddagi turmush darajasi qanday ekani qizning ko‘z oldida tezgina namoyon bo‘ldi. Minbarlar aro tarqalgan gulduros qarsaklar uning shivirini bosib ketdi. Maydon bo‘ylab go‘yo shamol esib o‘tganday bo‘ldi, Polya tizzasi bilan panjaraga turib oldi va ayni shu lahzada o‘zi kabi hayajondagi ko‘plab odamlar tepasidan o‘sha davrda mamlakat uchun va uning boshqaruvi-dagi g‘oyalar uchun javobgarlik yukini zimmasiga olganlarning hammalarini jamlikda ko‘rdi. Ular Polyaga shunday buyuk daqiqalarda mavzoleyning ichki zinapoyasidan haddan tashqari sekinlik bilan chiqib kelishayotganday tuyuldi, ular faqat orqa tomonlariдан ko‘rinayotgan bo‘lsalar-da, qiz har birlarini alohida tanib olardi – tonggi osmonda ajralib ko‘ringan gavda tuzilishidan, harbiycha bosh kiyimidan yoki o‘tgan o‘n yillik ko‘nikmalaridan ko‘z o‘rganib qolgan boshqa belgilaridan. Tafsilotlarning bir qismini Polyaga taj-ribaliroq qo‘shnilar so‘zlab berishdi va uning qizlarcha shaxsiy ha-yajoni qolganini bir haftadan keyin kinoxabarnomadan ko‘rib oldi. Buning ortidan Spassk qo‘ng‘iroqlari bir maromda va bo‘g‘iq ura boshladi; so‘nggi zarb bilan minora darvozasidan, keksalarga xos bo‘limgan qop-qora mo‘ylabli otliq chiqib keldi va shu zahoti may-donning boshqa chekkasidan namoyish qo‘mondoni unga peshvoz ot o‘ynatib kela boshladi.

– Budyonniy... – dedi qo‘shnisi Polyaning qulog‘iga, o‘ziga kat-talik majburiyatini qabul qilib olib. – Mana u raport qabul qilyapti, qismlar bilan salomlashishga boryapti... Mingan otiga ahamiyat bergen-a! – shu orada o‘z qo‘shnisini boshlan oyoq ko‘rib olishga ulgurdi. – Eh, qizgina, shu namoyishdan keyin yotib qolmagin deb qo‘rqaman-da. Mana, nienda qog‘oz bor, kech bo‘lmasidan poyabza-ling ichiga solib qo‘y. Oyoqlaring tezda isib qoladi...

Polya o‘zining toptalgan qorbo‘tqaga bo‘kib, balchiqqa ko‘migan, butkul xarob holga kelgan mallavoyiga angrayib tikilib qoldi; yigit taklifini yana takrorlashga majbur bo‘ldi.

– Eh, endi menga baribir!.. Nahotki shuniyam tushuna olmasangiz! – qo‘l siltadi u va zavqning harorati yuzlariga qizillik yogurtirdi. Qo‘shin hayqirig‘ining gumburi maydonga endi qarshi tomondan kiriб keldi. Parad qo‘mondoni mavzoleyga ko‘tarildi. Tig‘lar xira yaltiradi va bir vaqtning o‘zida o‘nlab buyurchi¹lar oldinma-keyin buyruqni qichqirdilar... ehtimol, o‘sha lahzalarda sovet zaminining hamma joyida, qayerdaki bir uchiga membrana o‘rnatilgan sim tortilgan bo‘lsa, hammasi sukut saqlab qolgandi. Radioning aks sadosi Qizil maydondagi birgina shitirlashni ham jimlikda qolgan shahar bo‘ylab ketma-ket tarqatib, darhol tarixning mulkiga aylantiradi. Polya atrofidiagi tiqilinchni ham, oyoqlaridagi bilchillagan qor suviningsovug‘ini ham his etmasdan, bo‘layotgan voqelikni tashnalik bilan shuuriga singdirib olmoqda. Bir payt qulog‘i shu darajada o‘tkirlashdiki, hech qanaqa mayda-chuyda, – qorovullar almashinayotganidagi qorning g‘irchillashidan tortib, maydon tepasida havoni kesib, bir maromda qanot qoqayotgan qushning «tap-tap»igacha – hech narsa uning keng ochilgan xotirasini chetlab o‘tolmadi. Xalqning butun jamligi go‘yo Moskva atrofining kengliklarini g‘arq qilganday tuyulardi, xuddi avvalgi jo‘shqin o‘tgan yillardagi kabi, o‘shanda ham xuddi hozirgiday, xalqning birdamligidan asta-sekinlik bilan buyuk birlikning dastlabki iliq harorati dunyoga kelib va u muqarrar ravishda qaynoq jazirama holatiga o‘tgan ediki, o‘z navbatida, yo‘qotishlar dog‘idan, harbiy mag‘lubiyatning alamlaridan har qanday muzaffariyatning so-diq yo‘ldoshlari bo‘lmish g‘azab va donishmandlik yaralgani kabi. Milliy boqiylik tushunchasini shuurlarga singdirgan mana shu oniy sukunat Polya uchun oktabr namoyishining eng oliy nuqtasi bo‘ldi. Buning ortidan zambaraklar qutlovining gulduraklaridan parchalangan havoga proletariat madhiyasining sadolari yorib kirdi va rostini aytganda, yangi tarixning muqaddimasidan buyon bu madhiya jangga hech qachon hozirgiday qat’iyat bilan chorlagan emasdi.

– Qalay, yurakkinang pitirlab uryaptimi? Ol, eslab qol... bu narsa hayotda bir martagina bo‘ladi, – orqadan qizg‘in shivirlaydi Polya-

¹ Buyurchi – harbiy boshliq, komandir.

ning murabbiysi. – hozir tepangdagi osmonni qancha ko‘zlar, qurollar va qanotlar qo‘riqlab turganini tasavvuringga sig‘dira olasanmi?

– Sen nima deb o‘ylaysan, – ortiga o‘girilmasdan so‘radi Polya, – hozir oramizda u yoqdan, ularning qarorgohidan kimdir bormikan?

Yigit sergaklandi:

– Nega surishtiryapsan?

– Bizlar qancha ekanimizni va qandayligimizni ko‘rib qo‘yishsin. Oh, hozir bittagina ko‘z bilan, kichkina tuynukcha orqali bo‘lsa ham ko‘rolsam edi o‘sha... haligi... eski dunyon!

– Shoshma, hali ko‘p-ko‘p yig‘lab ko‘rasan... – yigitchaning bu istehzosi ayni bashorat ham edi. U Polinaning qo‘lini qattiq qisdi va qiz chidadi, – shu yigit bo‘limganida ko‘p tafsilotlar Polyaning diq-qatini chetlab o‘tib ketgan bo‘lardi. U o‘g‘il bolalarcha bilimdonlik bilan Polyaga mashinalarning rusumlarini, o‘tib borayotgan qismlarning jangovar ixtisosligini birma-bir aytib turdi, biroq tajribasiz toliba o‘zining oldidan maydondagi namoyish qatnashchilari qaysi tartibda o‘tganlari ketma-ketligini shu zahotiyoy chalkashtirib yuboraverdi. Agar to‘g‘ri eslayotgan bo‘lsa, tantanali yurishni to‘la jangovar aslahalangan piyoda askarlar boshlab berishdi, odatdagi namoyishlarda ular belkamarlarida o‘qdonlar va yon tomonlarida harbiy belkuraklar bilan o‘tmagan bo‘lishardi: ular shu yerning o‘zidan to‘g‘ri oldingi marraga jo‘nab ketishmoqda. Batalyonlashib, har safda yigirma kishidan qator olib, dengizchilar va ko‘ngillilar, tig‘li miltiqlarini qiya tutgan ichki qo‘riqlash qo‘sishlari, harbiy o‘quv yurtlarining talabalari, barcha turdagи qurollarning, shu jumladan siyosiy fikr akademiyalari o‘tib bormoqdalar. Va ularning orasida Moskva ishchilarining qurollangan bo‘lmalari ham ashaddiy dushman bilan shu bayroq ostida yuzma-yuz kuch sinashish uchun ko‘p suronli davrlarni ko‘rgan, nam bosgan baxmal matoni ko‘tarib ketishmoqda. Ot o‘ynatib, qilichlarini zarbaga tayyor holda tutib, chavandozlar o‘tishdi, ularning ortidan, xuddi fuqarolar urushining qo‘shiqlaridan otilib chiqqanday, tezotar¹ aravalari yelib o‘tdilar. Kichik tezlikda, mavzoley ustidagi osmonni kuzatgancha projektorlar va ovoztutkichlar sudralib ilgarilaydi, Polyaning qo‘snnisi ularni front tunlarining ko‘z va qulqlari, deya ta‘rif berib qo‘ydi; zenit to‘plari keng-keng rezina odimlar bilan yugurib

¹ Tezotar – pulemyot(rus.)

bormoqda va tankka qarshi o‘ziyurarlar zanjirlarining tirnoqlari bilan qorni sidirib, granit yo‘lni tirnab bormoqda. Daryoga tushish tomonda hali ularning jarangi tinmasidan, Tarix moziygohi oldida bayroq-chalarini ko‘targan xabarchilar vazifalariga shaylanishdi: geologik davrlardagi qazilma mavjudot misoli maydonda anchagina ta’sirli harbiy salohiyatga ega bo‘lgan mexanizmlar paydo bo‘ldi. Moskva ning qadimotlarini titratgancha, ulkan jangovar temir ham minbarlar oldidan o‘sha tarafga, g‘arbgan – yovvoyilikka qarshi so‘nggi, ajalvor zarba berish uchun va o‘shandagi Polyaning soddalarcha ishonchiga ko‘ra sayyoramizdan uni abadiyga yo‘q qilish uchun oqib o‘tdi... Lekin asosiy kuch yuritkichlarning o‘kirigi va qurumi bilan maydonni to‘ldirgan bu dahshatli va itoatli texnikada emas, balki buyurchi-larga ajratilgan mashinalarda, qamal to‘plarining nishonga olish qu-rilmalarida o‘tirgan, yoki zirhlangan qal’alarning tuynuklarida yoxud motopiyodalarining yuk mashinalari ustida turib o‘tmishning bahodirlari bilan ularni tenglashtirib turuvchi qat’iyat bilan Moskva osmonini kuzatib turgan odamlarda edi.

Ular yaxlit bir metin qat’iyat bo‘lib quyilib, vatan uchun o‘z qonlarini tomchi-tomchisigacha baxshida etish uchun, Boshkentlarini chirmab olgan fashist ilonining jonini urib chiqarish uchun to‘g‘ri shu yerdan yo‘lga chiqmoqdalar; ular ketmoqdalar, va ortlarida endi shaxsiy hech narsalari qolmayapti, faqat Moskva. Bu qudratli qu-yunga Polya ham tortilib ketdi. Kiyimi o‘ziga torlik qilib qoldi, tanasi esa harbiy musiqa ohangiga mos harakatga kirishdi. Polyaning nazarida unga nigohini tashlagan tankchiga tashlash uchun qo‘lida qizil guli yo‘qligi sababli, uni hech bo‘lmasa shahar darvozasiga-cha kuzatib qo‘ygisi keldi. Namoyish tugadi va tajribasizligi tufayli u tanklar to‘lqini ortidan daryo bo‘yiga tushib borish maqsadida soqchilar zanjirini yorib o‘tishga behuda urinardi; aksiga olganday, uning murabbiysi ham ayni o‘sha paytda tarqalishayotgan olomon orasida ko‘rinmay ketdi. Faqat shu lahzalardagina aynan o‘sha yigit yarim yil muqaddam uning yukini vokzalda ko‘tarib oglani, suv tomchilari sachragan sallagullarning ifori chorrahalarda havoga yoyilgani, Moskva tepasida osmon qanday moviy jilvalangani uning yodiga tushdi.

Blagoveshshensk torko‘chasining yolg‘izlikdagisovug‘iga, Natalya Sergeyevnaning xonadoniga qaytgisi kelmadi; Taiskaning rah-

mini keltirish uchun yoniga yugurib borish battar uyatli edi. Polya endi hech bir maqsadsiz katta ko'cha bo'ylab, peshtaxtalari yupqa taxta bilan yoki qumli qoplar bilan to'silgan yangi uylar oldidan yuqoriga qarab yurib ketdi. Baxtga qarshi Varyadan va o'rtoq Sapojkovdan boshqa hech kimga shikoyat ham qila olmasdi: mana, meni urushga yuborishmayapti, holbuki men endi hov anavi yoqutrang yulduzlarni, kremlagi novcha Ivanni va oqbo'rondan so'ng plashi oqsuvsar mo'ynasiga o'xshab oqarib qolgan Pushkinni, quvnoq, uvasasi chiqqan masxarabozlar kiyimidagi va boshiga qo'ng'iroqchalar shodasi qadalgan qalpoq kiygan, Spassk darvozalari qarshisidagi *Vaskani*, mana shu muzlagan xonaki daryoni va uning ortidagi Moskva sanoatining tutunlari osmonga o'rlayotgan bepoyon ufqlarni endi himoya qilishga qurbim yetgan bo'lardi. Ko'zlariga ixtiyorsiz ravishda yosh keldi, tunni uyqusiz o'tkazgani uchun shekilli; Mossovet binosi ortidan chapdag'i torko'chaga qayrilib, xabarlar taxtasida bir oy avvalgi, namdan ivib ketgan gazetaga ko'zi tushdi. Boshdan oxirigacha yerni qor qoplagan bu joy odamlarga gavjum bo'limgani boisidan uning hozirgi iztirobli ahvoli uchun juda bopta edi, – boshiga qo'zi terisidan telpak kiygan qariya unga qanday yaqinlashganini qadam tovushlarini yutib yuborgan qor tufayli payqamay qoldi.

Qizning holatiga aralashish uchun qulay fursatni u ancha vaqt tanlaganini taxmin qilish mumkin edi va buni nihoyat xuddi qadimgi doktorlar yosh bolalarning salomatligini so'ragani kabi ohangda takallufsiz, istehzo bilan amalga oshirdi:

– Qani, ko'rib qo'yaylik-chi, qizgina, sizga nima bo'ldiykin? – va uning yengidan ushlab o'ziga qaratdi va yuziga boqdi. – O-o, naq suv toshqinining o'zi-ku... bunaqada ko'zni shamollatib qo'yish ham hech gap emas. Xafa qilishdimi yoki... frontdan yomon xabar keldimi? – u javob kutmoqda, Polya esa shunday bir alam bilan bosh chayqadiki, uni hozirgi ahvolda tashlab ketish endi insofsizlik ham bo'lardi. – Agar noxush xabar kelmagan bo'lsa, siz bu yerda, fuqaro qiz, nima uchun tartibni buzib turibsiz?!

– Tartibni buzayotganim yo'q, shunchaki gazeta o'qish uchun to'xtagan edim... – endi ochiqchasiga hiqillashni boshladi Polya.

Yosh tufayli nuqul ko'zlarini qoplab olayotgan kamalakrang parda orqali, Polya odamlarning g'am-qayg'ularini ko'raverib diydasi qotgan odamning shishinqiragan, charchoqli yuzidagi oqargan qil-

taroq qoshlar va mo'ylablarnigina ko'rdi, xolos. Sal keyinroq, kipriklarining nami ketganidan keyin uning shineline qadamasida, rombning tepasida harbiy kishi uchun g'alati bo'lgan nishonga ko'zi tushdi – bulutsiz baxtli yillarda muzqaymoq solib beriladigan kengaytirilgan namunadagi bokal ustida ilon tasviri.

– Qanaqasiga buzmayotgan bo'larkansiz... – tinch qo'ymadidi jiddiy qariya. – Atrofda urush ketyapti, rostini aytganda, jiddiy urush.. binobarin, sizlarning avlodga, yoshlarga demak, yig'lash mumkin emas. Aks holda bizni *kaput* qilib qo'yaqolishadi, ellik yil g'iq etolmay ham qolamiz. U holda kim jang qiladi, yoki aytaylik, snaryadlar ni kim yo'nib beradi, jarohatlangan askarlarning yarasini kim tikadi? Ochig'ini aytsam, kimingiznidir o'ldirishibdi deb o'ylab turuvdim...

– O'ldirishdiyam, – dedi Polya sal tinchlanib, yelkalari titragan holda. – O'rtoq Sapojkovni o'ldirishdi, men esa, baxtiqaro qiz, haliyam tirik yuribman.

– Albatta, bu achinarli, – hamdardlik bilan e'tirof etdi qariya, – lekin... menda ham o'ldirishdi, lekin men arillayotganim yo'q.

– Bundan battar ho'ngrasayam arziydi, – o'zini oqlashga tushdi Polya. – Butun mamlakat xavf ostida, xalq kuch to'playapti... o'zining ozod etish vazifasini amalga oshirish uchun... yolg'izgina men xalqning qaynoqqina qo'yniga kirvolib o'tiribman. Xonqizi qo'ng'izchasidan farqim qoldimi!

– Inchunin, yig'lash mumkin emas, – asosli e'tiroz bildirdi u. – Bunday davrda sizning ko'z yoshlaringiz yoqilg'ini behuda isrof qiliш bo'ladi, to'g'rimi? Ochig'ini aytsam, maydondan boshlab sizni kuzatib kelyapman, o'sha yerning o'zidayoq vujudingizdan tushkunlik yog'ilib turgandi. Qani, yuring-chi, birga choy ichib, dunyoning dolzarb muammolarini muhokama qilamiz. Hoy, siz mendan cho'chimang... Men xuddi o'sha suvda ivib turgan amakiman, brigada harbiy shifokori Strunnikov, hozirgina men haqimda o'qib turuvdingiz... – va Polyaning qarshisidagi gazetadan o'zining ivib ketgan rasmini ko'rsatdi.

Aslida, shunday namoyishdan so'ng, tarixning eng mas'uliyatli damlarida choyxo'rlik qilib o'tirish axloqqa to'g'ri kelishkelmasligini hal qilib olmasidan, Strunnikov uni otalarcha qo'lidan tutdi va ikkita yondosh ko'chalardan o'tib, besh qavatli chiroyli uyga yetaklab keldi. Gap orasida u Polyani ogohlantirib, nonushta mahali

o‘zini quvnoqroq tutishini va kezi kelib qolmasa, o‘sha o‘ldirilgan Sapojkov to‘g‘risida so‘z ochmaslikni tayinladi. Uning vaysaqilarcha erkalashlari Polyani ko‘nglidagi bør gaplarini ochiq aytishga undadi, va u yo‘lda tugatib ulgurmagan hasratlarini bir soatdan keyin, dahshat mazali, vijdonni qiynaydigan darajada lazzatlri quymoqni yeb turib, shifokorning past bo‘ylikkina, ko‘rinishi ancha yosh, qip-qizil qovoqlari shishinqiragan xotinining huzurida so‘zlab berdi. Qariyalarning kattagina, fayzsiz xonadonlarida yaqindagina bo‘lib o‘tgan qandaydir musibat hukmron edi.

Polya ulardan o‘zining birorta ham sirini yashirmadi, otasi xususidagi yaqindagina o‘zini qiynab turgan ranjlardan tortib, o‘zi munosib bo‘Imagan Rodion bilan baxtli bo‘lishdan bosh tortish niyatining amalga oshmay qolganiga qadar, – hammasini ularga ochiq-chasiga bayon qildi, ivib ketgan oyoqlari bundan mustasno, albatta. Qizning mana shu qissaga asos bo‘lgan bolalarcha iqrirlari kattalar tomonidan tabassumsiz tinglandi, – goh-goh bir-birlariga ko‘z tashlab qo‘yib, yoinki go‘yo har safar ikkovlarining ham tizzalariga qo‘nib olib g‘ashlariga tegayotgan parmomiqni olib tashlash uchun pastga qaraganlaricha yashirin jilmayib olishlarini aytmaganda.

– Mana shu zaylda men butkul hayotdan uzilib qoldim, – tugalladi Polya o‘z hikoyasini.

Shu joyda Polyaga eski dunyoga nisbatan o‘zining maqtovlarga loyiq nafratini qanday vositalar bilan amalga oshirmoqchi ekan haqida savol berildi, ammo endi uni bu savol sarosimaga solib qo‘ya olmasdi. U harbiy komissariatdagi va Sapojkovning huzuridagi o‘zining ilgarigi yo‘l qo‘ygan xatolarini inobatga olgan holda, tanlov ko‘lamini orttirish maqsadida o‘z imkoniyatlari doirasini bir qadar kengaytirib olgandi: u bir qarashdayoq Strunnikovning nufuzli boshliqlardan ekanini payqagandi. O‘zining iqroriga ko‘ra, u endi dushman eshelonlari ostiga portlagichlarni qo‘yishi yoki hayot uchun xavfli bo‘lgan boshqa ishlarni bajarishi mumkin, agar zarur bo‘lsa, odamlardan eshitganlaridan kelib chiqib, qanday faoliyat bilan shug‘ullanishlari haqida o‘zi xulosa chiqarib olgan qiruvchi batylonlardan birida ishlayveradi, – faqatgina, o‘zi e’tirof etganiday, insoniyatning tahqirlangan orzulari uchun qasos olsa, bas.

– Siz mening bo‘yim pastligiga yoki biroz abgor holda ekanimga qaramang, – hayiqib turganidan shoshib gapirardi u. – Bilmagan

narsalarim bo'lsa – o'rganib olaman: ana ayiqlarniyam simdor ustida yurishga o'rgatishyapti! Strunnikov uning bu so'zlariga javoban o'zining jaroh sifatida aytib o'tilgan ixtisosliklardan yiroq ekanini aytganida, avvaliga Polyaning yuragi tovoniga tushib ketdi... ammo doktor aynan shu oyda o'z gospitalini tashkil etib, ishchan, o'rta ma'lumotli qizlarga ehtiyoj sezayotgan ekan. Polya uni hozircha ishonchsiz bir umiddan qiynalib tingladi, balki yugurik oqim girdob-dagi xasni endi sohilga olib chiqar.

- Sizning hamma yaqinlaringiz Moskvadami?..
- Onamdan tashqarisi, front uni o'sha yerda, Yengada mendan uzib qo'ydi. Onam ikkovimiz otamdan alohida yashar edik.
- Qanaqasiga, otangiz sizlarni tashlab ketganmi?
- Yo'q, onam bilan o'zimiz ketib qolganmiz... Oyimning fe'li og'ir bo'lgan deb aytolmayman-u, lekin turgan-bitgani menga o'xshagan, hamma narsadan shubhalanaverar edi... haligi, vijdon borasida! – va qariyaning sinchkov nigohiga dosh berib turishiga to'g'ri keldi.

Polya so'zlab bergen bayonlar o'zining foydasiga ishlay boshladi; shubhasizki, yoz oylarida onasiga ko'maklashib yurib, shifoxona turmushiga qiziqib qolgan, bunday tongda Qizil maydonga kirishga berilgan ijozatnama esa har qanday tavsiyanomadan ko'ra ko'proq manfaat berdi; bundan tashqari, Strunnikov tashhis qo'yishda juda kam xato qiladi va juda ko'p kasalliklarga davo dorilarni biladi.

- Ammo oldindan kelishib olaylik: o'z muassasamda g'amginnlikka va ifloslikka toqat qilolmayman. Menga quvnoq hamda simobdan ham harakatchanroq qizlar kerak... – ogohlantirdi u avvalgisi kabi uzoq davom etgan ikkinchi uchrashuvlarida, – mening dorixonamdag'i eng asosiy darmondori – kulgi.

Polya uni tinglarkan, sabrsizlik bilan boshini silkiyverardi.

- Yo tavba! – qo'llarini bir-biriga urdi u, kutilmaganda o'zi tomonga o'girilgan baxtdan entikib. – Mening qanchalik xushchaqchaq ekanimni siz tasavvur ham etolmaysiz... Agar kerak bo'lsa, raqs-ga ham tushib berishim mumkin, hatto musiqaniyam keragi yo'q... ko'rsataymi?

Qariyalar kulib yuborishdi va buning oqibati o'laroq, bir haftadan keyin Polyaga gimnastorka va ikkala poyi ikki xil o'lchamli kirza etik berishdi, lekin oddiy karton yordamida bu masala osongina hal etildi. O'zi judayam xohlagan shinel o'rniga unga qoida bo'yicha qavi-

ma paxtalik kiyish mumkin ekan, ammo o'sha qavima ham olmaxon yoqali mo'yna po'stindan ko'ra qalbni qaynoqroq isitar ekan.

Gospitalni tashkillashtirish ishlari ancha oxirlab qoldi va oldin-dan aytish mumkinki, agar kelgusida ham shunaqa omadi kelib tursa, maydagina xas tez orada Rodion bilan Varyadan o'zib ketishi ham hech gap emas. Odamlarga kerak ekanini anglash tuyg'usidan Polyaning qiyofasida va yurish-turishida shunday qaddi tiklik va mustaqillik paydo bo'ldiki, endi otasiga ko'rinish berishga ham mutlaqo uyalmasa bo'ladi.

Qiz u yerga o'zining jo'nab ketishi arafasida bordi, bundan maqsadi – hech narsa, shu jumladan Taiskanining ko'z yoshlari ham, qaroring qat'iyligiga ta'sir etmasligi kerak edi.



O'N BIRINCHI BOB

1

O'sha vaqtga yaqinroq bir muddatda Seryoja Vixrov ro'yxatga olingen Deyev aylanma deposida bir g'oya yuzaga kelib, keyinchalik Boshkentning boshqa temiryo'chilari tomonidan ham quvvatlana boshladi. Qizil maydondagi namoyishdan keyin deyevchilar o'zlarining firqa tashkilotlari orqali hukumatga murojaat bilan chiqib, o'zlariga rejadan tashqari qo'shimcha yuklama berilishini so'rashdi. Ularning ish hajmlari tashishlar ko'paygani natijasida yanada ortagini inobatga olib, depochilarga ko'ngillilar uchun tig' ishlab chiqarish vazifasi topshirildi. Vatanparvarlar topshiriqning arzimas ekani dan ranjib qoldilar... ana shundan keyin ularning tashabbuslari bilan xuddi fuqarolar urushi davrida bo'lgani kabi front uchun o'z ishchi jamoasiga ega zirhli poyezd tayyorlash bo'yicha muqobil reja yuzaga keldi. Targ'ibot ishlari bo'yicha tuman kotibining huquqi doirasida Moshixin depo keksalarining ko'ngilli tashabbuslari mas'ul idoralarga yetkazilishiga yordam berdi. Shu voqealar arafasida dushmanning yarim halqasi bir qator hududlarda yanada zichroq yopildi va Moskva, ajdodlar amaliga ergashib, ko'cha janglariga tayyorlik ko'rishni boshladi, sharmandalikdan ko'ra g'alabadan keyingi ulkan mehnatlar bilan qayta tiklashni afzal bilib, eng so'nggi chora sifatida zavodlarni portlatib osmonga uloqtirishga qaror qilindi. Sapyorlar portlagichlarni qayerga qo'yish maqbul ekanini oldindan aniqlab olish uchun sexlarni aylanib chiqqanlaridan keyin depo umumiyligi yig'ilishi o'tkazildi. Ishchilar delegatsiyasi darhol depara qarorgohiga yo'l oldilar, avvaliga ishchilarning rejalarini uyoqda bajarib bo'lmaydigan vazifa bo'lib ko'rindi.

Urush boshlanganidan beri Deyev deposida ko'chma oshxonalar, tezotarlar uchun chang'i-chanalar tayyorlandi, tanklarga qarshi maxsus shakllardagi o'tib bo'lmas g'ovqoziqlar payvandlandi, turli tizimlardagi eski bug'tortarlar ta'mirlandi.

– Buning kerakli qismlarigacha borib bo‘lmaydi-ku, – deydi kasbhunar o‘rinlarini to‘ldirish uchun yuborilgan birorta shogird o‘smir va engagini butun kafti bilan boboylarcha siypalab qo‘yadi, qandaydir «I» turkumidagi bug‘tortarchaning oldida turgan ko‘yi, bunaqa texnikaning yaroqsiz porshenini tashqariga chiqarib olish uchun, butun old maydonini bo‘laklashga to‘g‘ri kelardi. – Voy buviginamning qari qaynonasidaan!

– Sen ishlayver, vazifangni bajar... Urush har qanaqasini hazm qilaveradi. Yangilarida ishlayverib juda erka bo‘lib ketgansanlar! – ularga javraydi o‘n sakkizinch yildagi xudo nasib etgan har qanaqa temir-tersakda amalga oshirilgan qahramonona safarlarni hali-hanuz unutmagan ustozlari. – Sen xo‘jayinlarcha ish tutishni o‘rgan: oddiy kunga bundayrog‘i ham bo‘laveradi, yaxshisini esa bayram uchun asrab qo‘y!

Faqat to‘rt kundan keyingina Deyev deposining ishlab chiqarish imkoniyatlarini aniqlashtirish uchun uzoq kutilgan boshliqlar tashabbus joyiga kelishdi, ikki kishi: himoya rangidagi burmali palto kiygan haybatli, ko‘rinishdan juda bir beozor brigada buyurchisi va uning yonida boshqasi, qandaydir murosasiz, chap mo‘ylovi ikki barmoq bilan hadeb buralib chertilaverganidan salgina qiyalanib yuqoriga ko‘tarilib qolgan odam.

Noyabrning o‘rtalarida qisqa muddatli loygarchilik bo‘lib, ho‘l qor yerga tushishi bilan deponing unumsiz qora tuprog‘i ustida erib turibdi. Suv tortish minorasi yaqinidagi temir izlarda o‘ttiz kishi chamalik odamlar: shu yerning faxriy keksalari, zirhli poyezd tashabbuskorlari, Boshkentning proletarlar gvardiyasi, achchiqso‘z va to‘qson birinchi yilning buzilmas rus miltig‘i kabi ishchonchli faxriylar; bu qiyoslash mehmonlarni kutib olgan Morshixinga tegishli edi.

Brigada buyurchisi bunday havoda va ayniqsa muddatidan ilgarri saflanib olish zarurati mavjudligiga shubha bildirdi, ammo unga bu narsa ishchilarning yuragiga xotirjamlik bag‘ishlashini tushuntirishdi. Shuning ortidan depo boshlig‘i tashrifchilarga ayni paytda poyezdlarda bo‘lgan yoki shu atrofda, shahar ostonalarida dzot qurilishi bilan band bo‘lganlarni hisobga olmaganda, barcha ishchilar shu yerda hozir bo‘lib turganlari haqida hisobot berdi.

– Sizga salomlar, ishchi sinfi! – boshladi haligisi, burma palto kiygani, uning juda muloyim ko‘rinishi, havoning odamni shamollata-

digan ra'yiga va boshqa quvonchsiz vaziyatlarga qaramasdan, uning esda qolarli, qat'iyatli ovozda murojaat etgani barchalarini ruhlanti-rib yubordi; o'z navbatida, ishchilar javobining notejis shovqini ayanan hozir oldingi marraga jo'nab ketayotgan bug'tortarning cho'ziq hayqirig'i bilan hamohang yangragani unga ham zavq bag'ishladi.

Shu yerning boshliqlari kuzatuvida mehmonlar saf bo'lab yura boshlashdi va ularning kattarog'i, haligi burmali palto kiygani dastlabki tanishuvda bo'ladigan shu tarzagi ko'riklar taomili bo'yicha turli savollar berib o'tdi. Chunonchi, qatorning qanotida turgan va safdagi eng hurmatga sazovor bo'lgan nafaqador Grigoryevdan, shunchaki sharafli tashabbusning hurmati yuzasidan, bu oliyjanob g'oya qanday yuzaga kelganini so'radi. U biror so'z demasdan, hozirgi payt uchun noodatiy nihoyatda oqartirib yuvilgan qo'llarini ko'rsatdi – bu bilan vatanparvarning vijdoniga ishora qilgan bo'ldi. Ishchilarning umuman olganda hozirgi davrdagi intilishlari nimalariga qaratilgani va xususan xalqimiz frontdagi muvaffaqiyatsizliklar borasida nimalarni xayoldan o'tkazayotgani haqidagi savolga qariya bajon-u dil tushuntirish berib, ishchi xalqi shundayin qat'iyatli tarza, uzil-kesil g'alabaga intilayotgani va o'sha muzaffariyatdan keyin hech qanday to'siqlarsiz, eng shiddatli tezlikda hozirgi yashab turgan davrimizning eng so'nggi bekatigacha yetib bormoqlikka qaratilgани aytdi; sovet shaharlarini tashlab chiqayotganimiz borasida esa uning aytishicha, tarixiy kitoblar shohidlik berishicha, dushmanni rus o'rmonlarining eng ichkarisiga avrab olib kirim ajoddolarimizning doimiy hiylalari bo'lgan ekan.

Endi muqobil savollar berish taklifiga boshqa eski mashinist Markelich, hurmatli mehmonning o'zi qaysi o'lkalardan kelgani va kimlardan ekani bilan o'z obro'yida turgan holda qiziqdi va unisi bu ishtiyoqli qiziqishga chap berib ketishga jur'at etolmadi.

– Kelib chiqishim Tula qurolozlaridan. Oilamizda yetti nafar kommunist bor, ulardan hozircha faqat men urush ortidaman, – jilmayib qo'ydi boshliq. – Nima deysan, otaxon, javobim seni qoniqtirdimi, yoki unchalik emasmi?

– Bo'ladi, aytganingiz bizga mos, – o'z navbatida ma'qulladi qariya. – Sizning harbiy unvoningizni va sovet hokimiyati uchun qayerlarda jang qilganingiz haqida bilib qo'yishimizga ijozat etasizmi?

– Harbiy Kengash a'zosiman... xizmatimni esa, yigirmanchi yilda Qirq oltinchi diviziyyada boshlaganman.

– Judayam soz, – dedi Grigoryev va safda turganiga qaramasdan, mo'ylovini siypalab qo'ysi. – Demak, shubhasizki, siz bilan Simferopolda uchrashganmiz... Maxnoni o'sha yili birgalikda quolsiz-lantirganmiz, yodingizdami? Men ayni o'n beshinchi Sivash, undan avval Inzen diviziyyasida xizmat qilganimda o'sha yerda turganman. Eskitdan tanishlar ekanimiz hurmatidan, belgilangan shu ishimizga ko'mak berishingizga umid qolmog'imizga ijozat etsangiz!..

Brigada buyurchisi sexlarni aylanish taklifini aytmoqchi bo'lib turuvdi hamki, shu paytda uning ko'zi oradan o'tgan vaqt ichida saflarning oxiriga joylashishga ulgurgan kasb-hunar bilim yurtining g'o'r yoshlarini ilg'ab qoldi. Sovuqdan diydiragan hollarida, xos gimnastorkalarda ular o'zlarining tayyorlikda ekanlarini va harbiycha qadlarini ko'rsatishga judayam intilmoqda edilar, shu bois u Kremlga, bиринчи darajali yig'ilishga shoshayotgan bo'lsa ham, baribir o'z navbatdoshlarini, mamlakatning ertangi kunini olqishlab, ko'ngillarini ko'tarib qo'yish uchun vaqt ajratdi... Mehmonlar, aytib o'tilganiday, frontda vaziyatning murakkablashuviga muvofiq ravishda zirhli poyezdni qurishni tezlashtirishni tayinlab, jo'nab ketishdi.

Tanlov Rjevdagi depodan keltirilgan, asrning boshida qurilgan, ammo bo'yog'ining yangilikiga va g'ildirak to'g'inining kengligiga qaraganda, mukammal ta'mirdan chiqqan «OV» turkumdag'i tarkib tuzish mashinasiga tushdi. Ishchilar tilida *qo'zichoq* deb nom olgan shu soddagina mexanizm yarim ming tonna zirhli tarkibni torta olishiga shubha bildirgan Seryoja qudratliroq mashinani berishlarini so'rab, sotsialistik vatan mudofaasiday muqaddas ish uchun qizg'anchiqlik qilmaslikka da'vat etib majlisda so'zga chiqdi; uning so'zlarini yangi kelgan bolaning juda o'ziga bino qo'yib yuborib, beadablik qilganga yo'yib, mensimasdan kulib qo'yishdi va hatto unga e'tiroz bildirishni ham o'zlariga ep ko'rishmadi. Bu professoring arzandasiga jamoatchilikning e'tiboriga tushish uchun qilingan oliftagarchilik bo'yicha Morshixin bergen kamtarinlik darsidan keyingi ikkinchi sa-boq bo'ldi; baxtidan bo'lib, ertalab Seryoja Leningrad yaqiniga navbatdagi yurishiga jo'nab ketdi. Unga keyinchalik ma'lum bo'lishicha, zirhga o'ralgan boshqa turkumdag'i hech qaysi bug'tortar o'zining o'lchamlari boisidan depo darvozasiga sig'magan bo'larkan. Yo'q,

o'sha mashina o'ylab qo'yilgan maqsadga yaraydigan, har qanday burilishning egri chizig'iga joylashishga qodir, xuddi dehqonlarning ishchi otlari kabi kamtalab va bardoshli yagona bug'tortar ekan va yana shunisi bilan qulayki, u qiyalikdan tushib ketgan taqdirda, juda lozim bo'lsa relsga chiqarib olish osonroq bo'larkan.

Kuni kechagina u xo'jayinlarcha qichqirib, vagonlarni yo'llarga haydab yurgan edi, – endi o'zini yuvish uchun tozalash xonasiga kiritishdi, so'ng darhol, go'ngqarg'alar kabi atrofini qozonchilar, armaturachilar, narvonchilar o'rab olishdi. Bombardimonlar ostida qo'shni bekatga borib, ta'mirlashda turgan, bombardimonda qolgan, ixtisoslashgan korxonada ishlab chiqarilgan zirhli poyezdni ko'rib kelishdi: o'lchovlar olishdi, chizmalarini ko'chirishdi, shoshilinchda chizmalar yetishmay qolgan joylarda ziyrak ishchi mahorati yordanga keldi. Bug'tortar tirkamasiga eski g'ildirak to'g'inidan *qirqbeshlik* deb o'zları nomi qo'yib olgan tankka qarshi to'p uchun burilish sir-pangichlarini yo'ndilar; g'arbdan ko'chirib keltirilgan uskunalar orasida yotgan, qo'l ostilariga tushib qolgan zirhga tayanch mahkamalab, bir tomondan harakat paytida yurishni og'irlashtirmasligi, jang paytida otishmani cheklab qo'ymasligi maqsadida, boshqa tarafdan esa – ulkan sovet sanoatining mashinalari qatorida turganida uyaltirib qo'ymasligi uchun uni o'zları xuddi ishchi korjomasini bichganday chamalab kesib, tegishli holatga keltirdilar. Parchinlash jarayonining gumburlari va elektrpayvand ishlarining g'uvullagan shovqinidan frontdagi muvaffaqiyatsizliklar haqida o'rmalab yurgan ovozalar ham, havo hujumidan ogohlantirish xabarkari ham eshitilmay qoldi. Agar tom orasidan tunukaning taraqlashi va pastlayotgan *yunkers*-ning chinqirig'i yorib o'tgan taqdirda ham, labini tishlab ishlab turgan biror yigitchaning ovozida dahshatli qasos olish va dasi eshtilib qoladi: «Ey, akillashga shoshmay tur, ablak, biz hali ishimizni tugat-ganimiz yo'q!» Noyabr o'rtalaridan boshlab zirhli poezd quruvchilari qo'shni klubda yashab, yopiq ish holatiga o'tishdi. Rahbarlik nazorati va so'zi tobora ko'proq kerak bo'la boshladi, – firqa qo'mitasi kunu tun uzlusiz navbatchilik tartibidagi jangovar qarorgohga aylandi, va binobarin, bo'lg'usi zirhli poyezdning qalbi bo'lmish Morshixin gazdan himoya vositasini bosh tomoniga qo'yanicha, ko'pincha o'sha yerdagi taxta divanda tunab qola boshladi. Xullas, Seryoja navbatdagi safardan qaytib kelganida, ishlar ancha oldinga qarab yurib qolgandi.

Moskvaga kun botmasidan qaytishdi va brigada bug‘tortarda turibiq Boshkentning tanish manzaralariga qarab, o‘tgan bir yarim haftada yuz bergen o‘zgarishlarni izlay boshladi. Abadiy shahar vayronlik-larsiz turibdi, binolar tepasidagi nayzasimon uchlar, korxona quvurlarining va ufqda ko‘rinib turgan boshqa yana nimalarningdir noaniq sharpasi bus-butun ko‘rinadi. Sharq tomonidan o‘rmalab kelayotgan qorong‘ilikdan farq qilmovchi uvada-uvada tutunlar tomlarning ustida past-past suzib o‘tmoqda; hozirgina havo hujumi xatari to‘xtagani xabar qilindi... Leningrad yaqinidan qaytish yo‘lida boshqa yerga ko‘chirilgan korxona uskunalari ortilgan platformani tortib ketishga to‘g‘ri keldi va ularni Shimol yo‘liga o‘tkazish uchun Taqsimlash bekatida topshirgunlaricha, izillama noyabr oqshomi kirib keldi... Shu yerda, kuzatuv joyida Seryoja olislardagi daraxtzor tepasidagi olov yolqinini ko‘rib qoldi, o‘sha tomonlarda uning taxmini bo‘yicha O‘rmon xo‘jaligi instituti joylashgan bo‘lishi kerak.

Bug‘tortarda nosozliklar yo‘q, depo bo‘yicha navbatchi uni darghol yoqilg‘i ko‘mir g‘amlab olishga jo‘natdi. Mashinani navbatdagi brigadaga topshirish uchun suv tortish minorasi yonidagi ko‘ruvdan o‘tkazish xandag‘i tepasida to‘xtashganida, qorong‘i ham tushib bo‘ldi; yolqin tobora kuchaymoqda. Seryoja xizmat vazifasi bo‘yicha majburiy ishlarni bajarmasidan oldin keta olmasdi: yonilg‘i o‘choqni tozaladi, kuzatuv shotisini artib qo‘ydi. Yaqinlari uchun xavotir uni tark etmasdi: bug‘tortardan ko‘ra ko‘proq insoniy musibatga daxldor nim achchiq tutun ora-orada dimoqqa uradi va o‘sha chog‘larda qish shamolining epkinida alamli yig‘i uzilib-uzilib eshitilganday bo‘ladi. Otasini va Taiskani eski joydan topish umidi uzilgan Seryoja uyga yugurmoqchi bo‘ldi, ammo yong‘in ancha berida sodir bo‘lganini eshitib yuragi taskin topdi. Yalanglikda, talabalar yotoqxonasi yaqinida yog‘ochdan qurilgan noturarjoy binosining oxirgi qoldiqlari zaifgina yonib turibdi, izg‘irinli havoda uchqunlar chiroyli raqsni ijro etib uchadi. Shu yerda turib, Seryoja uyi tomon ketayotganida Morshixinning yoniga kirib o‘tmaganiga afsuslandi va albatta, safaridan keyin cho‘milib olmaganiga ham achindi; u kechki osmonning sovuq, asta so‘nib borayotgan hoshiyasiga qarab, eng avval qayoqqa borishni o‘ylab ikkilanib turar ekan, yon ko‘chadan depo tomonga

ketayotgan uch kishi qayrilib, unga yaqinlashdilar. Mashinist Titovni, ya'ni Timofey Stepanovichni va uning yordamchisi Kolka Lavtsovi u ilgaritdan tanirdi; unga notanish bo'lgan uchinchisi esa, bo'yiga nisbatan uzun shinel kiygan kamgapi, o'zini to'pchi Samoxin deb tanshtirdi. Seryoja ular bilan birgalikda ortiga qaytdi.

— Eslaganni esankiratar ekansan! — kului Lavtsov. — Timofey Stepanich bilan endigina sen haqingda gaplashib, bitta yaxshi ulfatga qo'shib turuvdik. Qara, ismchasini aytgan joyimizdayoq qulog'i ko'rinish turibdi-da. Demak, Seryoganing yurakchasiyam biz tomonga talpinib turarkan!.. To'g'ri aftyapmanmi, zambarakboz?

— Agar bizga zarurati bo'lib qolsa, o'shanda ovozga qo'yarmiz... — boshini tepaga ko'tarib javob qildi Samoxin.

Indamay qo'yaqolishga Seryojaning farosati yetdi. O'tgan yilda o'z kasbining xususiyatiga rosa kirishib ketdi, majburiy vazifalarini to'la-to'kis va tanbeh olmasdan bajarib, xo'mraygan deyish o'rinli bo'lmas-u, aniqrog'i — kamgap, o'z ishiga sodiq odamlarning orasida nimasi bilandir ajralib turmaslikka harakat qildi. Amaliy faoliyatda shunga guvoh bo'ldiki, og'ir vaznli tarkiblarni Moskva viloyatining quvvatsiz ko'mirlarida, tag'in qorli kunlarda va yana tik qiyaliklarda tortish, — hamma yukni o'z yelkangda tashigan bilan baravar ekan; hattoki agar e'tiborsiz bo'lsang, chalpakday ezilib o'lish xatariga ham ko'nikib qoldi. Depodagi yoshlarning ba'zilari bilan yarmi hazil, yarmi chin oshna-og'aynigarchilik ham qila boshladi, ammo o'z tirishqoqligini ko'rsatishga qanchalik urinmasin, boshqalardan ko'ra irkitroq bo'lib yurmasin, ular uchun rosmana o'zlariniki bo'lishning, deponing ishchi jamoasiga singib ketishning uhdasini qilolmayapti. Ijtimoiy kelib chiqishi va olgan tarbiyasi taqozosiga ko'ra, tafakkur tarzidagi nozik farqlar shu narsaga xalaqit berib qolyapti. Seryoja ayniqsa, o'zaro muomala qilish qiyin bo'lgan, go'yoki mutlaqo hissiz va aytishlaricha ko'p bolali mashinist Titov hozirligida buni kuchliroq sezib turardi; uning o'ylashicha, Titov Seryojani hech qachon nazaridan chetda qoldirmagan, shu bilan birga Seryojaga ahamiyat ham bermagan, uning depoga ishga kelishini boyonvachchaning vaqtinchalik tentakligi deb hisoblab kelgan. Ayni paytda uning o'zi uchun temiryo'l nafaqat ish haqi manbayi, balki inson faoliyatining quroli hisoblanadi. hatto mavjudlikning ma'nosi bo'lmasa agar...

Morshixin bilan muloqot qilish oson, Kolka Lavtsov bilan munosabatda esa Seryoja o‘zini juda yengil sezadi, vaholanki, birinchi paytlarda aynan Lavtsov unga kō‘p tashvishlar keltirgan edi. Xususan, har safar maosh olganlarida u Seryojani o‘zi bilan kokteylxollga borishga, o‘zining iborasi bilan aytganda, madaniygina sharoitda miriqib *dam olishga* taklif etar, ammo bu taklifning sababi o‘zining nozik ichkililikbozlik g‘aroyibotlari uchun sherikka muhtoj bo‘lganidan emasdi, – Lavtsov ichkililik ichmasdi va o‘sha joyga assida bir yarim yillik oraliq bilan ikki martagina borgandi xolos, maqsadi faqatgina Seryojaning uyalib rad etishini masxaralab kulish, ko‘ngilocharliklarni tanlashdagi injiqligini, professoring kulgili nasihatlarini buzib qo‘yishdan qo‘rqishini mazahlash edi.

– Xo‘sh, nima deysan, muhtaram Sergey Ivanich, sherikchilikka qo‘shiladigan bo‘ldingmi? – Seryojani javob berishga majbur qiladi Kolka Lavtsov.

– Yaxshi narsalarni rad etadiganlardan emasman, – rozilik berdi Seryoja, avvallari bunaqa mayllari borligi sezilmagan Titovning oldida uyalib qolmaslik uchun. – Toliqqanda hordiq chiqarishga qarshiligmim yo‘q... faqat bunaqa kayf-safolar uchun hozirgi vaziyat umuman to‘g‘ri kelmaydi-yov.

– Qiziq, professoring o‘g‘li gapni qayoqqa burib qo‘yyapti? – yana jig‘iga tegdi Lavtsov, Seryojaning bu laqabga nisbatan yoqimsiz munosabatda ekanini bilgani holda. – *Uning nazarida go‘yoki, Timofey Stepanich, biz uni bir yuz ellik grammga qo‘shimchasi borishga taklif etyapmiz!*

Qo‘shimcha degani bu vaziyatda tanaga tezroq ta’sir qilishi uchun zormanda bilan qo‘shib ichiladigan oddiy pivoni anglatardi.

– Bo‘ldi, bas qil... nega buning oldida tumshug‘ingni ko‘taraverasan? O‘zing hali bug‘tortarni tushunmaydigan bug‘tortarchi bo‘lsang, – jiddiylik bilan uning og‘ziga urdi Titov va Seryoja hozir o‘zлari o‘tib borayotgan joyda birdan gurullab ko‘tarilgan oloving pushtiga moyil yog‘dusida mashinistning yuziga minnatdorlik bilan qaradi.

– Ko‘ramiz, hali o‘zingni ishda qanday namoyon etarkansan, – unga yana Seryojaning boshidan balandlarga qarab turib dedi Samoxin.

Biror muddat jimlikda ketishdi; muzday shamol ularga orqadan urib turibdi, qalpoqlarini uchirgundai bo‘ladi.

– Ko‘rinishingdan chamasi safardan qaytdingmi deyman, Vixrov? – gap boshladi mashinist Titov, Lavtsovning o‘rinsiz qilig‘ini yumshatishga intilib. – Odamlarning qanday yashayotganlarini ko‘raverib to‘yib ketgandirsan?

– Xullas, ular judayam och yashashyapti, Timofey Stepanich. To‘g‘ri, biz Ladogadan uyog‘iga o‘tganimiz yo‘q... – hisobot bera boshladi Seryoja hayajonlanib, chunki unisi yigitchani birinchi marta o‘z suhbatiga noil etayotgan edi. – Sohilning noqulay joylashganligi sababli yuqlarni ko‘lgacha otlarda tashishga to‘g‘ri kelyapti... biz ham shu bahona u yoqlarni ko‘rgani bordik. Biz yetib borishimizdan salgina avvalroq bug‘doy ortilgan barja bombardimonda cho‘kib ketgan ekan! Odamlar shu yerning o‘zida, yalanglikda, qorning us-tida yechinishyapti, muzday suvgaga qo‘llarida yog‘ochpaqir bilan sho‘ng‘ishadi. Imkoniyetgunicha paqirni donga botiradi-yu, – yuqoriga intiladi... Ammo Leningradga necha-necha martalab yuk tashil-yapti, agar qopning teshigi bo‘lsayam, birov bir kaft donni olmaydi. – Darvoqe, u oliftachasiga *yirtvorilgan* deb yuborishiga bir baxya qoldi. – To‘g‘ri, bitta o‘g‘ri jonzot baribir bor ekan... – O‘z xayollarini bilan band bo‘lib qolgan Titov gaplarini umuman eshitmayotganini payqagach, dovdirab qoldi.

– Bu yuklar bebafo, – dedi o‘sha-o‘sha yuqoridan to‘pchi Samoxin. – Yo‘lni hali ochishmadimi?

– Kutishyapti... muz hali ancha yupqa. – Gap o‘sha yilning yigirma oltinchi noyabriga boribgina ochilgan, Ladoga ko‘li orqali Leningradga olib boruvchi *Hayot yo‘li* haqida bormoqda edi.

– Yana selektorda bir gap tarqaluvdi, ortga qaytayotganlaringda sizlarni havodan savalashibdimi? – so‘radi Titov.

Bu voqeanning hikoyasi rosa yarim soatga bemalol yetib bergen bo‘lardi-yu, Seryoja o‘zining ko‘pirtirib maqtanish istagini qahramonlarcha tinchlantirishga muvaffaq bo‘ldi. Aytmoqchi bo‘lganlari esa eng kamida bunday bo‘lishi kerak edi: uch kun avval tong mahali ularning quyruq tomonidagi ikkita platformani *yunkers* xuddi avtogen bilan kesganday uzib tashladi, jarlik tepasidagi sekinlashish yo‘lida poyezd turgan joyida o‘likdek qotib qoldi, qattiq silkinishdan ag‘darilguday bo‘lib, endi bosh tarafdan ikkinchi hamlani kutganlari va ularning omadlaridan bo‘lib, uchuvchining o‘q-dorisi tugab, ortiga qaytib ketgani: xullas, omon qolishdi.

Seryoja tilini tiydi.

— Urush urushligini qiladi, Timofey Stepanich, — va tishi orasidan, chapanichasiga qorga tupurdi.

— Qoyil! Askarlik qismatiga ko‘nikyapsanmi? — yana uning jиг‘iga tegib, achchiq tili bilan chaqib oldi Lavtsov. — Demak, jan-govar cho‘qintirilganing bahonasida bo‘ktirib mehmon qilarkansan.

Uni bu safar ham hech kim quvvatlamadi, yarim daqiqagina jim ketishdi.

— Albatta, sovet hukumatida bizlarsiz ham dushman hujumini qaytarish vositalari bor: barcha shu yillar davomida partiya bizni g‘aflatda qolishga qo‘ymadi. Lekin baribir har holda, Sergey Vixrov, biz zirhli poyezd masalasida katta ish qildik, bu bizning ishchilik burchimiz, — qadamini sekinlashtirmasdan, eng asosiy maqsadga o‘ta boshladi Titov. — U bir jihatdan umumjahon ishi hisoblanadi, chunki agar biz fashizm bilan olishuvda dosh berolmasak, boshqa mamlakatlarining ham holiga voy bo‘ladi... Ammo bu ish ayniqla biznikidir! Hech kim, og‘ayni, bu yerga, — qo‘li bilan atrofdagi makonlarga ishora qildi, — hech kim shu yerlarga bizlar, ishchi sinfi kabi shuncha kuchni tashlagan emas. Bir mahal yurib borayotgan bug‘tortarning o‘ng yelka tarafidagi oynadan tashqariga shundoq qaraysan-u, — boshing aylanib ketadi... Axir bu yerdarda har bir qum zarrasini barmoqlarimizning orasidan o‘tkazganmiz, har birida yuragimizning qonidan tomchi qolgan. Biz uchun u hozir ikki baravar qimmatli, bu sovet tuprog‘i. — U to‘xtadi va hammalari o‘zining safar qutisini, depo tili bilan aytganda *sharmankasini* qor ustiga qo‘yan Seryojaning tevaragida davra olishdi. — Bir so‘z bilan aytganda, kelishdik: zirhli poyezdda bosh mashinist bo‘lib men boraman, Titov... Mening yonimda siznikilardan chap qanotda uch kishi yordamchi bo‘ladi. Ikki kishini men tanlab bo‘lganman, kurashchan yigitlardan, manavi Lavsov ham shular qatorida. Uchinchisi masalasida esa, bitta hushtak chalib qo‘ysam, mingtasi yonimga yugurib keladi, ammo lekin... — U og‘ir qo‘lini Seryojaning yelkasiga qo‘ydi. — Gap bunday, o‘g‘lim, sening har doimgi tirishqoqliklaringni ko‘rib, senga o‘z ishonchimizni bildirishga qaror qildik, seni zirhli poyezdga, o‘z guruhimizga mashinist yordamchisi sifatida qabul qilish fikriga keldik... Endi tushungandirsan?

– Yoshlar tashkiloti ham sening nomzodingni ma'qullayapti, – yakun yasadi Lavtsov. – Ura deb qichqiraver, Seryoga, uchligimizga rozilik beraql!

Seryojaning ko'ksiga nafasi sig'may qoldi. Zotan, unga shunchalar yetishmayotgan narsa aynan shu edi: buyuk bag'ishlov, – va uni aynan qattiqqa'l, kamtabassum, Sergeyning ko'z o'ngida butun ishchilar sinfini o'z qiyofasida namoyon etgan odamning qo'lidan olmoqda. Seryoja g'alati sukut saqlab turardi... yo'q, taklifning fav-qulodda nogahoni bo'lganidan emas. Hozir undan talab etilayotgan narsa odatdag'i harbiy xizmatga chaqiruvdan, yoki sovet yoshlari uchun tabiiy holat bo'lgan komsomolga kirishdan ko'ra ancha katta edi: millionlarning bittasi bo'lishdan ko'ra, uchlikning biri bo'lish taqqoslab bo'lmaydigan darajada og'ir. Agar uni hozir nimadir qo'rqtayotgan bo'lsa, bu narsa urushning tasodifotlari emas, balki o'z roziligi bilan ushbu badbaxt, larzaga kelib turgan butun dunyodagi tartib uchun zimmasiga oladigan mas'uliyat ongi edi... Shu orada Samoxin tamaki cheka boshladi va Lavtsov ham undan popiris olish uchun qo'l cho'zdi; Titov umuman chekmas edi. Shunday bo'ldiki, Seryojaning butun o'y-xayollar ular chekib bo'lgunlaricha o'tadigan qisqa fursatga joylashib ulgurishi lozim edi. Uning baxtidan bo'lib, gugurtlarni shamol birma-bir o'chirib qo'yaverdi.

– Albatta, sen bilan biz tajribali jangchilardan emasmiz va lekin shuni ham e'tiborga olginki, hech kim askar bo'lib tug'ilmaydi, – shu orada qo'shib qo'ydi Titov. – Ular, agar ta'bir joiz bo'lsa, o'zaro hayot to'qnashuvlaridan bunyod bo'ladilar... Mana, Samoxin ham bizga o'z maslahatlari bilan ko'mak beradi..

– Bizga ishora berib qo'ysang bas, seni zumda o'zimizning e'tiqodimizga o'tkazib qo'yamiz, – tasdiqladi to'pchi Samoxin, chekayotgan popirisining tutunini uning boshi ustidan puflar ekan. – Agar g'azabing qo'zib, shiddating ortib ketsa, mening so'zimni eslab qo'yarsan, o'shanda seni kuch bilan ham ortingga qaytarib bo'lmaydi...

– Lekin, – davom etdi keksa mashinist, Seryojaning yelkasini o'zining og'ir qo'lidan xalos etar ekan, – sen javob berishga uyalma, Sergey Vixrov. Harbiy ishda har nima bo'lishi mumkin, hatto tan jarohatiyam, busiz iloji yo'q: qarasang, raqs tushadigan a'zoyingdan ayrilib qolibsani!.. Xullas, ertagayoq jo'nab ketayotganimiz yo'q, sendan tilxat ham so'ramayapmiz. O'ylab ko'r, mulohaza qil, yaqinlaring bilan maslahat-mashvaratlash.

Ortiq paysalga solib bo'lmaydi. Seryoja depodagi bug'tortarning oltingugurtli tutunidan zaharlangan, o'pkani kuydirguday achchiq havoni ichiga chuqrur tortdi. Ha, o'z zimmasiga hayotni himoyalash majburiyatini, binobarin, uning sanoqsiz dushmanlariga qarshi nafarat burchini ham olmoqda; ha, son-sanoqsiz ishchi ko'pchiliginining do'stligi va e'tirofi, kelajakning bepoyon kengliklari, har qanday insoniy musibatga vijdon qiyognig'isiz boqa olish huquqi evaziga – u o'zi uchun odatiy va qadrli bo'lgan narsalardan va eng avvalo, o'z xohishiga ko'ra shaxsiy vaqtini hamda tanasini istifoda etish irodasidan voz kechmoqda. U bir lahzalik imillash ham ortga qaytarib bo'lmaydigan oqibatni yuzaga keltiradigan eng so'nggi soniyada o'zining javobini berdi.

– Nimani ham maslahatlashardim... hali aytdim-ku: yaxshi ishdan qaytadiganlardan emasman, – o'zining quvonchini yashirgan ko'yi, qandaydir g'alati shoshilib dedi Seryoja, holbuki, bu narsa juda oddiy tarzda, hatto qizil alvonli miz yonida ham emas, yo'l-yo'lakay, Moskvaning bir chekkasida, projektor nurlari bilan chizib tashlangan qishki osmon ostida sodir bo'ladi deb xayoliga ham keltirmagan edi. – Faqat yo'l oldidan yaxshilab yuvinib, to'yib uxbab olsam bo'ldi, bo'lmasa butun a'zoyi badanim tarashaday qotib qoldi...

– Vaqtin hali bemalol, jo'nashimizdan oldin kokteyl-xollga ham o'tib kelishga ulguramiz, – bu safar zig'ircha ranjitmaydigan ohangda hazil qildi Kolka Lavtsov. – Kiborlar axloqidan saboq olishi uchun Timofey Stepanichni ham o'zimiz bilan olib boramiz.

Seryoja shunday tantanali daqiqada mashinist Titov uni bag'riga bosib qo'ymaganidayam, hech bo'lmasa tuzilgan hayot-mamot shartnomasini mustahkamlash ma'nosida qo'l siqishib qo'yishini behuda kutdi, ammo boshqa tarafdan, bunaqa qutlovlar o'z hayotini ajal ustidan qozoniladigan g'alabaga tikkan odamlar nazdida ortiqcha takalluf hisoblanishini anglatdi.

– Bo'pti, o'zingni bos, jo'jaxo'roz, tag'in bexosdan sho'rvaga tushib qolmagin, – ming'irlab erkalagan ko'yi Lavtsovning gapi ni bo'ldi mashinist. – Yaxshisi, borgin-da, bunga toychog'imizni ko'rsat, bir maqtanib qo'y-chi.

... Pnevmatik bolg'alarning gumburi va tutunqurum quvurlariga o'tirib qolgan po'stqatlamni tozalashdagi g'ijirlashlar qulqoqni qomatga keltiradi. Kechagi yuvoshgina qo'zichoqni endi faqat handasiy

shaklidangina tanib olish mumkin edi; hujrachasi bilan bug'xonasini ham qo'shganda deyarli butkul zirh taxtachalari bilan qoplangan bug'tortar ko'taruv sexining orqa devoridagi xandaqda turardi. Yon tomondan elektrpayvand uchqunlari sochilib, yerdagi moyli xalqobda akslanadi: old tomonda, tutun qutisi tarafida nimanidir payvandlashni yakunlashmoqda. Titrab turgan yashilsimon qorong'ilikda yashirinib turgan qora bug'tortarlar qahramonlik sari aslahalanayotgan birodalarliga go'yoki havas bilan qarab turishibdi...

Lavtsov bilan birgalikda Seryoja mashinani ko'rikdan o'tkazar ekan, har bitta boltni va mixparchinni avaylab, qonuniy haqqi nuqtayi nazaridan bitta-bittadan paypaslab chiqdi, hujrachaning ichini ko'zdan kechirdi: endi bu uning o'z uyiga aylandi, uni otasi bilan Taiska sabrsizlik bilan kutayotgan xonadondan ham ko'ra qadrdomroq.

– Xo'sh, qalay? – shovqin orasidan oshkora g'urur bilan qichqirdi Lavtsov. – Temir palto kiygan mazkur o'rtoq senga yoqdimi?

– Yugurish paytida og'irlik qilmasmikan? – viqorlanib javob qildi Seryoja.

– Nima, nima deding? – xuddi ayovsiz jang paytidagiday, naq qulog'ining tagida baqirib so'radi Lavtsov. – Yur, bu yerdan chiq-qolaylik.

Ular qo'shni, yuvish sexiga chiqishdi, u yer biroz tinchroq bo'-lib, to'rt o'qli maydonchaga tank minorasini chig'ir yordamida bir tekisda tushirishmoqda.

– Bunaqa kiyimning vazniga ressorlarimiz chidash bera olarmikan, deyapman.

– Hammasi joyida! – istehzoli kulib qo'ysi Lavtsov. – Biz ularni o'n yetti qavatgacha qalinlashtirddik. Buyog'iga guldurak bilan yurish qilamiz! Faqat... ochiqchasiga javob ber: yuragingda menga nisbatan gina-kudurat bormi, Sergey?

– Nega bunday bo'lishi kerak? – bunday holatda tabiiy bo'lgan bir ajablanish bilan hayron bo'ldi Seryoja.

– Haligi, jig'ingga tegib yurganlarim uchun... Men yomonlik qilish uchun emas, shunchaki, qiziqishdan... qanaqa mushtlashishingni ko'rish istagidan. Qani, beshni tashla! – Nihoyat birodarlarcha qo'l siqib qo'yish uchun kaftini ochdi.

... Frontga jo'nash uchun qolgan oxirgi sanoqli kunlar Seryojaning nazdida xuddi tuman ichida o'tganday kechdi. Hali tugal-

lanmagan ishlar borligi va ishchi kuchi etishmasligi vajhidan zirhli poyezdning jamoasi deponi mutlaqo tark etmay qo'ydi. Har tongda to'pchi Samoxinning buyrug'i bilan O'rmon xo'jaligi institutining ortidagi qum konlariqa granata otishini o'rganish uchun borishadi yoki tasavvurdagi dushmanni nishonga olib o'q uzish uchun qor ustida o'rmalaydilar. Qarorgohdan shoshirishyapti, noyabrning oxirlariga borib qattiq izg'irin turdi. muzlagan temir barmoqlarga yopishib qiyaydi; Seryoja har qancha qarshilik ko'rsatmasin, tunash uchun uyiga kelgan paytlarida Taiska suyukli bolasining yorilib ketgan qo'llariga taqsimot varag'iga berilgan moydan surtib qo'yadi va ko'ngli nimalarnidir oldindan sezib, chuqur uh tortadi. Seryoja o'sha paytlarda o'z yoshidan kattaroq ko'rinardi, qoshlari orasida va og'iz chekkalarida qaysarona askarlik qat'iyatining ajinlari paydo bo'lди. U Taiskaning g'amxo'rdiklaridan chetlanadi, kun sayin begonalashib bormoqda, har qanday tashqi zirhga qaraganda urush paytida ko'proq zarur bo'lgan ehtiyojga ko'ra, yuragini loqaydlik sovuti bilan oldindan o'rab oldi. Xuddi Polya kabi u ham tobora Taiskadan o't-olov ufurib turgan to-monga qarab olislanib bormoqda – o'sha epkinning chegarasida Taiska uchun tushunarsiz va uning hukmidan tashqari bo'lgan zamon qaror topgan.

Ikkovlon bolalarning – Polya va Seryojaning so'qmoqlari oldinda muqarrar to'qnash kelish uchun shu zaylda tobora o'zaro yaqinlashib kelmoqda. Ikkovlarining ham onglarining tub-tubida yashirin bir sezgi ularni davrning olovli suronlariga tomon tortib bormoqda, ya'nikim shu o't-olov hamlasidan qolgan chandiqlar bir kun kelib istiqboldagi umumbashariy fuqarolikning taniqli belgilariga aylanadi... Polyaning otasi huzuriga tashrifi yarim soatgina avvalroq yuz berganida edi, ular shu oqshom o'zining tankchilar xoskiyimida qariyalarga ko'rinish berish uchun kelgan Seryoja bilan o'zaro tanishib olgan bo'lardilar. Ammo vaqtidan ilgari sodir bo'ladigan bu tanishuv mazkur yoshlarni kurashlarda, uzoq muddatli baxtiyorlik davrlarida, yokigim g'am-qayg'uli damlarda va nihoyat ajalning changalidan hamkorlikda xalos bo'linganidan keyin nishonlanadigan tantanalarda ajralmas metin birlikni hosil qilguvchi oliy darajadagi yuksaklikka ko'tara olmas edi.

Ma'lum bo'lishicha, Polya kelgan vaqtda Ivan Matveich hamda Morshixin muhim ishni muhokama etishayotgan ekan; qiz ularning suhbatlarini uzib qo'yishga jur'at etolmadidi. Kamiga esa, ammasi nonga navbatda turish uchun shoshayotgan ekan, yaqindagina yuragini egallab turgan, hozir tarqalib ketgan bo'lsa-da, o'sha shubha-gumonlaridan keyin Polya otasi bilan betma-bet yolg'iz qolishga hayiqdi. Lekin shu bilan birga o'zining frontga jo'nab ketishi bilan bog'liq, bir qarashda arzimas tuyuladigan, ammo o'zi uchun benihoya muhim bo'lgan iltimosini otasiga aytishni mutlaqo keyinga qoldirib qo'ya olmas ham edi.

U oshxonada o'tirib havo hujumi ogohlantirishi tufayli ushlanib qolgan ammasining qaytishini kutishga qaror qildi. Shu asnoda kutilmagan tasodif Vixrovning hamsuhbatining achchiq ko'rguliklari haqidagi hech qanday maxfiyligi bo'lmagan suhbatga ixtiyorsiz guvoh bo'lib qoldi va u odamga nisbatan Polyada chuqur achinish hissini uyg'otdi.

Gap uning uzoq muddat cho'zilib ketgan, to'g'rirog'i, hozirda Leningrad arxivlaridan olish imkonsiz bo'lib qolgan, ilmiy ishi uchun zarur bo'lgan hujjatlar yetishmayotgan dissertatsiyasi haqida borayotgan edi. Morshixin shu yoz faslida uyoqqa bir haftaga borib kelishga imkon topgani, arxivlarni kovlashtirgani, ammo safarining beshinchı kuni urush uni Moskvaga qaytargani, salgina vaqt o'tib shimoliy Boshkentning qamalga olinishi uning ishini butkul to'xtatib qo'yanini so'zlab berdi; u hattoki o'zi uchun o'sha paytda qandaydir ochilmagan sirning alomatlarini o'zida aks ettirgan ayrim fav-qulodda qiziqarli Peterburg hujjatlaridan qaydlar olishga va nusxa ko'chirishga ham ulgurolmay qolibdi.

Morshixinning ovozida qoniqmagan qiziqishning jozibali ohangi sezilib turardi va Polya yanayam ko'proq darajada unga achina boshladi, agar o'zi ham Gratsianskiyning jumbog'ini oydinlashtirmay turib Moskvani tark etsa xuddi shu ahvolga tushgan bo'lar edi. Vixrovning suhbatdoshi o'sha qo'ldan ketgan hujjatlar allaqayergadir jo'nab ketishi kutilayotgan uzoq muddatli safarida nihoyatda qo'l kelgan bo'lishi mumkinligini ham qo'shib qo'ydi.

– Seryoja frontga siz bilan birga jo'nab ketayotganidan men xur-sandman, – Polya otasining bo'g'iq ovozini tanidi. – Bu juda yaxshi... mening bolam uchun.

– Ha, men zirhli poyezdning komissari etib tayinlandim. O'g'lingizni ayayvermang, Ivan Matveich. Bu safarbarlik men bilan sizdan ko'ra uning uchun zarurroq.

– Sizga bir narsani doim aytmoqchi bo'lib yurardim, Seryoja mening o'z... – izoh berishga chog'landi Ivan Matveich, chama-si o'zining Seryoja bilan tutingan qarindosh ekanini aytmoqchi edi, ammo shu topda zenit to'plarining qarsillashi orasidan qandaydir kattaroq jismning qo'shni daraxtzorga qulab tushgan shovqini eshitildi, javondagi idish tovoqlar, romlardagi oynalar dirillab ketdi va bu holat uzilib qolgan suhabatni boshqa o'zanga solib yubordi.

Yarim daqiqalar chamasi ular zenit to'plarining otishmasi oralab uzoqlashib borayotgan portlashlarga quloq tutib turdilar.

– Bizning deponi bombardimon qilishmayaptimikan degan havotirdaman, – tashvish bilan taxmin qildi Morshixin. – Darvoqe sizga yaqinroq shu atrofda biror yerto'la bormi?

– Hovlida kovak bor... lekin kuzdan beri suvgaga to'lib qolgan. Biz odatda uyda o'tiramiz. Tashqariga chiqasizmi?

– Yo'q, biznikilarga, ya'ni harbiylarga, bunaqa ko'chishlar aslo yarashmaydi. Men sizning xavfsizligingizni nazarda tutgan edim.

– O, u holda suhabatimizni davom ettiraqolaylik... – Ivan Matveich yuzaga kelgan vaziyatga moslashib olish uchun yetarli darajadagi muddat davomida sukut saqlab turdi. – Demak, sizningcha, frontda dissertatsiyangizni yozishingiz uchun bir talay bo'sh vaqt bo'ladi deb o'layapsizmi?

– Hecham bunday o'ylamayapman, – kulib yubordi Morshixin. – Lekin men bu yerda kecha-kunduz tinimsiz band bo'ldim, odatda tong shafag'ida uqlashga yotardim, u yerda har qalay... Hisob-kitoblari-mizga ko'ra urush hali kamida yarim yil davom etadi... biz u yerlarda to'xtovsiz ravishda jang ichida bo'lmasak kerak, axir. Nafas rostlab olishga imkon yaralib qolgan paytlarda men hech bo'lmasa bo'sh vaqtimda bitta jumboqli va nima uchundir tarixchilar tomonidan mut-laqo o'r ganilmagan boshqotirmani hal etishga, uning yechimining o'nlarcha imkoniyatlarini chamlab chiqishga, agar omadim kelib qolsa umumiy tarzda bo'lsa ham qog'ozga qoralab qo'yishga hara-

kat qilib ko'raman. Xatarli lahzalarda tafakkur qanchalik mantiqiy va aniq ishlashiga hech ahamiyat bergenmisiz?

Ivan Matveichning nazarida bu ish Morshixinga qo'shimcha iroda halqasi ediki, xuddi murakkab shatranj masalasi kabi urushdan xoli lahzalarda zerikishga o'rin qoldirmay turardi. Biroz xayolga berilib turgach, u mehmonining mulohazasini tan oldi; institut ko'chirib yuborilganidan keyin havo hujumlari ko'payib borishi asnosida Ivan Matveich o'zining ish mizini deyarli tark etmadi, boz ustiga o'z fikrlarining tiniqligiga, sahfalarning sig'imliligiga, qalamining yengil yurishiga o'zi hayratlanmay turolmasdi. Nazarida orzulari shum tasodif ularni shartta uzib, vayronalar ostiga ko'mib yubormasidan oldin qog'oz varaqlariga tezroq joylashib olishga intilayotganday tuyulardi.

– Men sal angolmay qoldim, shekilli, – tan oldi Ivan Matveich, – sizning dissertatsiyangiz taxminan qaysi davrni qamrab olyapti o'zi?

– Mavzu ko'lamenti haddan tashqari kengaytirib yubormaslik uchun men uni o'quvchilarining inqilobiy harakatlari bilan chekladim – va faqatgina peterburglik yoshlarning orasida. Xullas, bu – fevral to'ntarishiga qadar bo'lgan oxirgi o'n yil, ya'ni Stolipin istibdodi yillari, mamlakat tanazzuli va inqilob to'lqinining kuchayib borish davrlari. Xossatan, men zubatovchilikka mufassalroq to'xtalishni istardim... – Va go'yokim aynan Polya uchun, u o'z navbatini kutib zerikib qolmasligi maqsadida, ishchilarni inqilobiy faoliyatdan chalg'itish niyatida politsiya sotsializmini o'ylab topgan taniqli podshoh qo'riqchisiga mufassal tavsif bera boshladi.

– Axir to'qson beshinchi yildan keyin o'sha nayrang butkul fosh etilgan-ku, – to'xtab-to'xtab, tinchib borayotgan havo hujumi shov-qinlariga hali ham qulqut tutgan ko'yi eslatib o'tdi Ivan Matveich. – Mening nazarimda, podshohlik to'qqizinchi yanvarda zubatovchilikni o'z qo'li bilan yakson qilgandi... Darvoqe, men shuni aniqlashga muvaffaq bo'lganmanki, o'sha o'qqa utilgan mashhur namoyish oldida mening marhum amakim qaysidir muqaddas rohibning kumush qoplamali ikonasini ko'tarib borgan ekan: ikkoviniyam bitta o'q teshib o'tgan ekan. Uning qandayin pahlavon bo'lganiga o'zingiz ishonch hosil qilib olavering... – Keyin qadam tovushlari eshitildi va Polya otasining Morshixinga ish xonasining devorida osig'liq turgan kattagina *O'qchilarining qatl tongi* fotosuratidan aynan kimni ko'rsatayotganini fahmladi.

Morshixin unga javoban o'zi tayyorlayotgan ilmiy ishning siyosiy jihatlarini juda ma'noli qilib tushuntirib berdi. Uning fikricha, zamonaviy yoshlar uchun rus tarixining shu davriga nazar solish foydadan xoli bo'lmaydi. Joriy urushdagi o'zining mag'lubiyatidan so'ng va Morshixin bunga hech qachon shubha qilmaydi, eski dunyo o'ziga yangi qarorgoh tayyorlash bilan bir vaqtning o'zida turli xil liberal aldovli g'oyalari bilan, burjua demokratiyasining to'qima erkinliklari bilan yo'lidan urishning sinalgan uslubiga – qonuniy sinifiy hamkorlikning vasvasalariga, ya'ni yolg'onga, pora berib sotib olishga, sadaqa berib o'ziga og'dirishga va otalarcha-politsiyacha iltifotga, albatta, qaytadi. Birinchi navbatda, Morshixinning bashoratiga ko'ra, bunday hujum harbiy larzalar oqibatida kapitalizmdan biz tarafga og'ib o'tadigan mamlakatlarga xavf soladi. Aynan o'sha yerlarda eski dunyo kasaba uyushmalari, sport yokigim diniy faoliyatning barcha sohalaridagi kaltafahmlar hamda tez povillab yonib, darhol pisillab o'chadigan beqarorlar orasidan xoinlarni yollashga harakat qiladi. Shu tarzda zubatovchilik qaysar odamlarni bo'ysundirishning mumtoz mirshabona uslubi sifatida Morshixinni qiziqtirardi va anglab olish qiyin emaski, morshixin dissertatsiyasiga aynan uni amaliy qo'llash namunalari yetishmayotgan edi.

– Ochig'ini aytganda, men siz bilan bo'ladigan ushbu suhbatni ataylab uyuşhtirgandim, Ivan Matveich, chunki sizga, o'sha davrlardagi peterburglik istiqomatchi sifatida shu kabi ayrim ikir-chikirlvar ma'lum bo'lishi mumkin. Seryojaning hikoyalardan eslashimcha, siz inqilobiy to'planmalarda, may oyi yig'inlarida, xayriya kechalarini tashkil etish tadbirlarida qatnashgan ekansiz. Shu bois sizning ixtiyoringizda...

U jumlasini tugata olmadni: ayni shu payt uzundan uzun, xuddi abadiyat singari muttasil, kuchayib boruvchi akillashsimon chinqiriq va darhol uning ortidan qisqa, xuddi hayvon ehtiyojining qoniqliki kabi g'aqillagannamo zarba eshitildi, ular o'tirgan eski imoratni sal-kam silkitib qo'ydi.

– Men qaytib ketishdi deb o'ylagandim, lekin bittasi baribir surbetlik bilan vidolashib ketish uchun ortiga qaytibdi, hech bo'lmasa bitta bardoqni bo'lsayam ag'darib sindirmoqchi bo'libdi-da... Xuddi shunaqangi! – maydagina shisha jarangidan keyin tishlari orasidan so'z qotdi Ivan Matveich. – Qanday ham sharmandali, g'orning

yovvoyilaricha qilingan bir ifloslik!.. Marhamat, sizni tinglayapman, Pavel Andreich.

– Xullas, sizdan so‘ramoqchi edim, nahotki sizda o‘sha davrga doir qaydlar, yozuylar yoki hech bo‘lma ganda jabr ko‘rgan do‘stlar izingizning maktublari saqlanib qolmagan bo‘lsa?

Ivan Matveich darhol javob qilmadi: tokchadan tushib singan nimaningdir bo‘laklarini yig‘ish bilan andarmon bo‘lib turdi.

– Rostini aytsam, hech qachon kundalik tutgan emasman, – dedi u biroz turib va Polya otasining bu yaxshi odamni hech narsa bilan xursand qila olmasligidan afsuslandi. – Mening tarjimayi holim haddan tashqari beman’ni kechgan, bunaqa esdaliklarni qopga solib orqalab yurishimga arzimaydi. Mening inqilobdagi ishtirokim ham, shuningdek nihoyatda shubhali. Men juda uzoq vaqtlardan beri o‘shalar ning, G‘arbda tarqalgan, o‘zlarining korafatalik majburiyatlarni kam-ko‘stsiz ado etishni vijdon burchi deb biluvchi olimlar sirasida bo‘lganman. Parvardigorning asalarilari misoli ular kim va qaysi huquqqa asosan ularning ilhomlarining mahsuli bo‘lgan asalni olib qo‘yayotgani, ularning uyqusiz tunlarining samarasidan boylik orttirib, ularni bozorlarda narxini oshirib sotayotgani, bashariyatning boshqa a‘zolarining zarariga ishlatalayotgani haqida o‘ylab ham ko‘rmaydilar... Bu ham yetmaganday, vaqt-vaqt bilan mana bunaqa qarsildoqlar vositasida idish-tovoqlarni ham sindirib turibdi!.. Men inqilobga o‘zimning o‘rmonimni oralab kelganman va chinini aytganda, anchayin *changalzor* o‘rmonning uzluksiz kaltaklashlari orqali keldim. Mening surgun qilinishim ham – ochiqdan ochiq va rostini aytganda, mening mutlaqo aybim bo‘lma gan anglashilmovchilik edi: firqa rahbarlaridan bo‘lgan katta lavozimdag‘i odamga yaqin bo‘lganim uchun evaz to‘laganman. Kraynov degan nasabni eshitgan bo‘lsangiz kerak? Sizga aslida o‘sha odam kerak edi: u o‘zining ulkan xotirasi bilan butun bir arxivning o‘rnini bosa olardi... Darvoqe, agar harbiy sir bo‘lmasa, frontga chiqib ketishingiz qachonga tayin qilingan?

– Hozircha noma’lum, lekin tez orada. Ertaga zirhli poyezdning sinov yurishi amalga oshiriladi.

– U holda ulgurishingiz dargumon... Urush boshlanishi arafasida Kraynov menga boshqa yarim kurradan maktub yo‘llab, milod kuni ga yaqin Moskvada mehmon bo‘lib o‘tishini yozgan edi. Ochig‘ini

aytganda, g‘alati tasodif!.. Yodimda, aynan Stolipin qatl etilgan oq-shomda biz u bilan grafbeka Paninaning Xalq uyiga tashrif buyurib edik... Peterburgda shu nomdagi ma‘rifiy-xayriya muassasasi bor edi. Xullas, biz bir oshnamizning ma‘ruzasini tinglash uchun borgandik, ammo ma‘ruzachi kelmay qolgani sababli nutq ham irod etilmadi va kechaning qolgan qismini ikkovimiz sohil bo‘yida sayr etib o‘tkazdik. Tez orada boshlanib ketgan hibslar oldidan bu oxirgi uchrashuvlarimizdan biri bo‘lgandi. Men sizga aytayotgan shu Kraynov menshevizmga zubatovchilikning rang-barang nurchizig‘ining¹ boshlang‘ich tusi sifatida qarar edi... – Birdan Ivan Matveich tilini chaqillatib qo‘ydi va Polya otasining xayoliga qandaydir najotkor fikr kelganini tushunib, yengil tortdi. – Chamasi Pavel Andreich, hozirgi sharoitingizdan chiqish yo‘lini bo‘lmasa-da, har holda o‘sha yo‘lga olib boradigan tuynukni topgandekman. Ayting-chi, sizga hech manavi so‘z uchraganmi – *mimetizm*?

– Eslolmadim. O‘sha paytlardagi qandaydir falsafiy mubham atamalardanmi?

– Unchalikmas. Fransuzchadan tarjima qilinganda bu so‘z mug‘ambirlikni anglatadi, bizning yoshlari davralarida esa qo‘poruvchilik maqsadlaridagi siyosiy munofiqlik aynan shunday atalar edi. O‘sha yillarning Peterburgidagi, hozirda fosh etib bo‘lingan bir fitnachining tashabbusi bilan o‘quvchilar orasida shunday birlashma yuzaga kelgan edi va manfur tuzumni ag‘darish uchun mirshablik idorasiga qadar barcha davlat muassasalariga joylashib olish uning a‘zolariga tavsiya etilgan... ko‘zlangan maqsad esa o‘sha idoralar ning tadbirlarini beburd bema‘nilikka aylantirib yuborish edi. Men O‘rmonchilik instituti bo‘yicha sobiq bir saboqdoshimning manzilini berishim mumkin. Uning o‘zi shu jirkanch pistirmaning qurbaniga aylanib ketishiga bir baxya qolgandi.

– U ham o‘rmonshunosmi?

– Muayyan bir ma‘nodagina uni bir amallab o‘rmonshunos deb atash mumkin... ochig‘i, biz u bilan yaxshi munosabatda emasmiz: o‘sha kimsa rus o‘rmoniga nisbatan o‘taketgan vayronkor qarashlar ni o‘zida ifodalaydi... oxirgi paytlarda men shunday qat’iy xulosaga keldimki – uning faoliyati faqatgina mansabparastlikka qaratilgan. U

¹ Nurchiziq – spektr.

ayrim fitnalarni amalga oshirishga muvaffaq ham bo'lyapti, chunki bizda ko'pchilik odamlar so'lchilikni muayyan xiradmandlik alomatiga yo'yishadi... Nima deysiz, bu fikr sizga ma'qulmi?

– Men uchun bu rosmana xazina, – ovozida umid uchqunlanib dedi Morshixin. – Sizning o'sha tanishingiz... ko'chirish tadbirida jo'nab ketmaganmikan?

– Eng «ezgu niyatlar» bilan Moskvada qoldi. Bundan tashqari, – davom etdi qizg'inlik bilan Ivan Matveich, – yoshlik davrlarimizda uning o'zi ham sizning mavzuungiz bo'yicha nimadir yozmoqchi ham bo'lgandi va rosa bir yil politsiya mahkamasining va *hazrati oliylarining shaxsiy devonxonalarini* deb atalguvchi boshqarmada hujjat titib o'tirdi, keyin hafsalasi pir bo'lib, o'sha ishni yarim yo'lida tashlab ketdi. Ishonchim komilki, o'sha to'plangan yozuvlar uning ixtiyorida bekor turibdi. Agar jo'nab ketishingizdan oldin uning huzuriga borsangiz, ko'chirib olishingiz uchun bir necha kunga bajonidil topshiradi. Ammo lekigin, bizning ayovsiz ziddiyatlarimiz tufayli mening nomimdan borganingizni bildirmang. Shunchaki unga tilyog'lamalik qiling: hozirgi paytda ilvasinning qudrati o'q-dorining kuchidan ham o'tadi! Gap shundaki, tashqi ko'rinishi binoyiday bo'lgani bilan, aslida haddan tashqari izzattalab va shu bois bir qadar beqaror... ochig'ini aytganda odamlar bilan muomalada nihoyatda iltifotsiz shaxs. Aytib o'tishim joizki, ming to'qqiz yuz o'n birinchi yilning birinchi sentabrida, ya'ni Stolipin otilgan kechada o'sha amalga oshmag'an ma'ruzani o'qishi lozim edi. Xuddi Kraynov kabi, men ham o'rtog'imizning ishchilardan iborat, o'sha kuni ayniqsa juda ko'p sonli bo'lgan tinglovchilarni aldaganiidan qattiq xijolat bo'lganman, holbuki, oddiy ishchi xalqi toliblik xoskiyimini kiygan har bir kishini o'ziga do'st deb bilardi.

– Voiz balki betobligi tufayli borolmagandir?

– Ehtimol... – ikki landi Ivan Matveich. – Ertasi kun tongda institutda uning o'zi bosh og'rig'idan shikoyat qilgan edi. Rostini aytganda, men bularning barchasini shuning uchun eslab qoldimki, Kraynov mening yonimda unga tanbeh berdi va aytishim kerakki, men bu sovuqqon odamni bunday qizishgan ahvolda kamdan kam ko'rganman. Xullas, shoshiling Pavel Andreich, bu juda kamyob omad! – uchrashev yakunida Ivan Matveich yondaftarchalarini shunaqangi uzoq titkiladiki, hozircha Gratsianskiyning nomi hali aytilgan bo'lmasa-da,

Polya chala ochiq eshik orqali uning topilmayotgan manzilini ayтиб yuborishiga sal qoldi.

Morshixin havo hujumi ogohlañtirishi bekor qilinishiga qadar o'tirdi va shunday hol yuz berdi: uni kuzatib qo'ygach, Ivan Matveich yo'l-yo'lakay oshxonaga qarab qo'ydi. Polya shosha-pisha gimnastorkasini tortib to'g'rilaganicha, kursidan sakrab turdi. U xitobni, qayg'uli quchoqlashuvlarni, hatto qarindoshlik munosabatlarini unutganlik borasidagi ta'nalarni sog'inch bilan kutgan edi, ammo hammasi bir qadar o'zgacha kechdi.

O'sha arzimas, maxfiy iltimosdan tashqari, Polyaning maqsadi otasidan kechirim so'ragan holda, dushmanona tuhmat-bo'htonlarga qaramasdan u vaziyatning sohibi bo'lib chiqqanidan qoniqish hosil qilganini bildirish – sentabr ma'ruzasini maqtash, uning partiya safiga kirganini ma'qullah, xullas, bebaxt qariyani umrining quyoshi botib borayotgan chog'ida yolg'izlanib qolgan vaziyatlarida quvvatlab turishdan iborat edi.

Ammo yaqindan razm solganida qarshisida ancha yosh ko'rinvchi, nazari tikanday o'tkir odam jilmayib turardiki, u hecham unutilgan, achinishga loyiq mavjudotga o'xshamasdi. Qizning o'yfikrlari chuvalashib ketdi, oldindan tayyorlab qo'ygan nutqlari zumda miyasidan uchib chiqib ketdi; o'zining mustaqil qad tutishini ham yo'qotgan ko'yi, u sarosimada belidagi kamarining to'qasini qo'li bilan qattiq siqdi. Ivan Matveich hali g'ijimlanib ulgurmagan gimnastorkadagi komsomol nishonini, chaynalgan tirnoqlarni, cho'chinqiragan kulrang ko'zlarni kuzatib ulgurdi va bu ko'zlarga qanchalik ko'p boqqisi va ularda boshqa, hozirda xotirasidan ancha o'chib qolgan nigohni topgisi kelmasin, Polyaning anglanib turgan asabiyashuvini kuchaytirmaslik uchun undan ko'zini oldi.

– Men esa nuqul oshxonada g'imirlayotgan narsa nima ekan deb o'ylayveraman degin. Senga boqishga, zavqlanishga imkon tug'ilganidan xursandman. Salom, qizginam... – Va javobini ham kutmasdan, qizining hissiz, xuddi o'shandagi onasiniki kabi sovuq qo'llaridan tutib, xonasiga yetakladi.

– Qo'yvoring, yaxshisi o'zim... – tipirchilab, uning qo'lidan xalos bo'lishga urindi Polya.

U kattagina kuldronni qo'liga oldi – mizning ustiga qo'yish uchun, lekin zumda bu fikridan qaytdi, bezovta ko'zları bilan atrofdan

nimanidir qidira boshladi, topolmadi va bo‘yinbog‘ini jahl bilan tortib qo‘ydi, keyin o‘zining yoshi uchun og‘ir bo‘lgan oromkursini juda oson tarzda xonaning o‘rtasiga shartta olib qo‘ydi, Polya esa bezovta bir ahvolda jim turarkan, otasi o‘zidan kam hayajonlanmayotganini sezdi.

– Mana buyoqqa o‘tir. Xuddi shunaqangi.

– Hechqisi yo‘q, men mana shu yerda, burchakda... – dedi Polya.

– Yo‘q, yo‘q, o‘tir... begona emassan. Bu axir sening uying, men uchun sen shu choqqacha uni bir daqiqaga ham tark etmagansan... faqat barcha shu yillarni sukutda o‘tkazding, xolos! Endi esa hammasini surishtirib bilmasdan qo‘yib yuborish yo‘q. O‘zim yuz martalab yoningga bormoqchi bo‘ldim, opam ijozat bermadi... sening aytganningga binoan. Taiska menga yolg‘on so‘zlamaydi. Bo‘pti, tanishaylik endi: uzoq, seni juda uzoq kutdim. Yoshlar ittifoqining a‘zosisan, yuragingdagilarni ochiqchasiga ayt, sening oldingda qanday ayb ish qilganman?

– Hech qanaqa. Lekin... shunday bo‘lib qoldi. Men kelishim bilanoq siz bilan uchrashmoqchi bo‘lganman, avvaliga har xil ishlarga chalg‘idim, keyin esa... – Va chekinish yoki yordam so‘rash uchun oshxonani olazarak ko‘zdan kechirdi, ammo Taiska non navbatidan hali qaytmagan edi.

– Shoshma, ovozingni men necha yil eshitolmadim?.. nahotki o‘ttiz oltinchi yildan beri? O‘sha yili o‘zimiz tomonlarga borganimda, seni ko‘rish uchun ataylab Loshkaryovga kirib o‘tgandim... eslolmaysan-a? Afsuski o‘shanda o‘zimni tanita olmaganman, iloj bo‘lman. Xizmatdagi ko‘ngilsizliklarim tufayli... – Keyin u yugurik, sinovchan nigoh bilan Polyaga nazar soldi. – Kichikroq ta’tilga chiqib ketishga majbur bo‘lgandim va bilasanmi, har doimgiday katta umidsizliklar yuz berganda bo‘ladigani kabi, to‘satdan yuragim bolaligimning shifobaxsh chashmalari o‘zi tomon tortib qoldi... Shunday qilib Yengaga borib qolganman.

Uning eng yomon taxminlari o‘z tasdig‘ini topdi.

– Men bilaman, dada, hammasi haqida o‘qiganman, – bosh irg‘adi Polya.

– Va sen... ishondingmi? Men haqimda yozilgan narsalarga ishondingmi?

– Bunga inonmaslikka haqqim yo‘q edi, dada.

– Ha, to‘g‘ri, shunday bo‘lishi ham kerak... hayotda har doim shunday yasha: ishonib yasha! – shoshib dedi u o‘zini eng asosiy va mustahkam shiorga qurban qilar ekan. – O‘, biz go‘daklarning ko‘z o‘ngida ularning otalariga nisbatan sodir etiladigan xato va og‘riqli nayranglarni bolalar yodda saqlab qolishlarini ko‘pincha unutib qo‘yamiz. Ammo mazkur vaziyatda menga to‘la ishonishing mumkin, qizginam. Men o‘g‘rilik qilmadim, vatanimni sotmadim, hech kimni aldamadim, faqat... modomiki butun umrim davomida eng oddiy ha-qiqatlarni xalqimga yetkazib bera olmagan ekanman, o‘zimning mut-laqa noshud odam ekanimni tan olishim lozim. – U ko‘zlarini pastga tushirdi. – Onang ham o‘shalarni o‘qiganmi?

– Ancha vaqt undan yashirib yurdim, uning o‘zi yostig‘imning tagidan o‘sha kesmalarni topib olibdi. Bitta pul o‘tkazmasi nima uchun ikki oyga kechikkanini biz o‘shandagina tushunganmiz. Ammo o‘sha pullar bo‘yicha siz bekor uzr so‘ragansiz, biz umuman yomon yashamaganmiz... yomon yashamayapmiz... O‘tgan qishda hatto radio sotib oldik!..

Ivan Matveich o‘zining keng yoyilgan barmoqlariga diqqat bilan tikilib o‘tirardi.

– O‘sha pullarni yuborishimdan maqsadim faqatgina yengil hayot kechirishingiz uchun emas, bir kun kelib keksaygan paytimda sen bilan mana shunday birga o‘tirish, sening qo‘lingdan tutish, hayot ha-qida suhbatlashish huquqiga ega bo‘lish uchun ham edi... xuddi shunaqangi. Vaqti kelib buni o‘zing ham oddiygina ochiq-oydin tarzda tushunib olasan, ammo hech qachon shunday bo‘lmasin ishqilib... sen bu ehtiyojni men his etganimdayin kuchli his etmagin. – Va nimadir quvonganicha, suhbat mavzusini keskin o‘zgartirdi: – Ammosiga olganda, xayriyatki hammasi yaxshilikka bo‘libdi: ulg‘ayibsani, ko‘nsomol a‘zosi... hatto harbiy xizmatdamisan?

– Urushga ketyapman... xayrlashish uchun kiruvdim, – dedi Polya, boshini yuqori ko‘tardi va hayajondan ko‘zlarini to‘ldirgan yoshlarini artib tashlashga ham sabri yetmay, dadasingin ko‘zlariga tik qaraganicha jilmayib qo‘ydi.

Ota yana barmoqlariga tikilib qoldi, to‘g‘rirog‘i, ularning orasi-dan qizining ulkan kirza etiklariga boqdi, uning nazari yo‘nalishini payqagan qiz esa etiklar sal kichikroq ko‘rinsin uchun miz tagida oyoqlarini chalishtirib oldi.

– Tushunarli, bugun hammalari vidolashish uchun kelishyapti, qatorasiga... sen hozir uchinchisisan. Qo'shni uylarda ham xayrlashuvlar bo'lyapti, qo'shni shaharlarda, qo'shni mamlakatlarda: butun dunyoda ulkan ayriliqlar va o'zgarishlar pallasi hukmronlik qilyapti. Uchrashuvlar esa ancha kam bo'ladi, xuddi shunaqangi. – Polya unga hali g'o'rgina o'spirin qizcha bo'lib tuyulganidan, u o'zining xayoliga kelgan va o'smirlar ongi uchun anchayin begona bo'lgan oraliq fikrni tiliga chiqarmay, dilidan o'tkazib yuboraqoldi. – Ammo lekigin bu muqarrar... Sen etiklaring uchun uyalmay qo'yaqol, qizim. Hozir butun jahon uchun sening xoskiyimingdan ko'ra ziynatliroq va pokizaroq libos yo'q. Bu qanaqasi bo'ldi, seni harbiylar safiga chaqirtirishdimi... yoki o'zingmi?

– Ha, o'z ixtiyorim bilan ketyapman.

– Aha, xuddi shunaqangi. Yoshlik o'zini o'zi himoya qiladi. Darvoqe, juda ajoyib holat: ayrim shoirlar xotirjamlik lazzatini urushda deb jar soladilar, buni ming to'qqiz yuz o'n beshinchi yilda guvoh sifatida shaxsan tekshirib ko'rishga muvaffaq bo'lganman, ammo mening tajribamda bu dunyoqarash mutlaqo tasdiqlanmagan. Seni *u yerga* aynan nima jalb etdi? Bu o'sha xotirjamlik lazzatimi, o'z irodangni xatarlarda sinab ko'rish, fuqarolik vijdonimi, g'azabmi, sening tahqirlangan g'ururingdir balki... nihoyat, shon-shuhratga bo'lgan intilishdir ehtimol? – sanab chiqди u, qizining tanlovin yengillashtirish va tushuncha aniqligi uchun. – Yoki butunlay boshqa narsami?

– Bularning birortasi ham emas, – bosh chayqab javob qildi Polya. – Ammo buni tushuntirishga qodir emasman.

– Sen salgina shama qilib qo'ysang, bas, o'zim anglab olaman. Men uchun sening butun borlig'ing qiziqarli.

Polya otasiga shubha bilan olaqarash qilib qo'ydi, ko'rsaki... yo'q, u hozircha qizini bu yo'ldan qaytarmoqchi emas, Polyaning o'zi juda qo'rqqanidek unga achinayotgani ham yo'q va qizi bilan shu darajada bir xil pog'onada turibdiki, hatto o'zining ayrim xulosalarini bevosita uning javoblariga bog'lab ham qo'ydi. Qizni ishonchning iliq harorati qamrab oldi va birozgina muddatga u o'zini otasining yonida yengil sezdi, xuddi Varyaga bo'lgan munosabatidagi kabi.

– Mana bundoq tushuntirishim mumkin... – izohini boshladi u. – Odamlar o'zi zotan nimaga intilishadi? Aytishlaricha, baxtga intilisharmish, menimcha esa bu noto'g'ri: poklikka intilmoqlik lo-

zim. Baxt esa poklikning bosh mukofoti va qo'shimcha imtiyozidir. Yerdagi poklik degani nima o'zi? Bu – urushlarning bo'lmasligi va o'zaro nifoqlarsiz yashash, go'daklañni o'ldirmasliklari, yo'lda zaifning ustidan hech kim bosib o'tmasligi, to'g'rimi? Kechasi uy eshiklari tambalab qo'yilmasin, dushmaning emas, do'sting doimo senga orqama orqa tursin, odamlar dunyodan la'nat qarg'ishlari bilan emas, tabassum bilan ketsinlar...

– Ezgu, ammo amalga oshmaydigan istak, – gap qo'shdi Ivan Matveich. – Sen gapiraver, davom etaver...

– Va hammalari mehnat qilsinlar, chunki odamzot mehnatsiz yashasa, har qanday hayvondan battar bo'lib ketadi, unga butun olamni portlatib yuborish ham hech narsa emas. O'zi nafratga munosib bo'lgan odamchalik, hech kim boshqalarga nafratli bo'lmaydi... Mana, boshqachasiga mumkin emas, aksincha, uyat bo'ladi... shundaymi? Tag'in aytishadiki, *u tomonda* ham odamlar yashashyapti, musiqa tinglashadi, gullar ekishadi.

– *U tomon* deganining qayer?

– Haligi, bor-ku, nimaydi... eski dunyo. U haqda o'zim referatlar o'qiganman... va bir narsani hech tushunolmayapman: necha asrlardan beri chirib yotibdi, ammo hanuzgacha tanazzulga uchrashidan darak ham yo'q. O'sha tarafga bitta tirqish orqali qarasam ham mayli, o'zi bu yashovchan narsa nima edi... nega, nima uchun u odamzotning birgina musibatidan allaqachonlar portlab, parchalanib ketmagan?

– E, yo'q, u portlayapti, faqat sekin-sekin, oz-ozdan, Polya, – kilib yubordi Ivan Matveich.

– Tezlashaqolsayam bo'lardi, axir hayat yugurib o'tib ketyaptiku, – bolalarcha soflik bilan shikoyatlandi Polya. – Men tentakman va kulgiliman... to'g'rimi?

– Yo'q, sen judayam tantakmassan... va unchalik ham kulgli emassan, – tashvishlanib javob qildi Ivan Matveich. – Mana sen o'shani ko'rmoqchisan, aytgin-chi... maktabingizda Gorgona haqidagi afsonani tarix yo adabiyot darsida o'tmaganmisizlar? O'zim ham shunday deb o'ylagandim... afsus!.. Insoniyatning qadim ildizlarini o'rganmay turib, jamiyatning uchidagi barglari haqida ham hech narsa bilolmaysan. Bilasanmi, yunonlarning afsonanomalarida shunaqangi bir jahannamiy qo'rqinchli maxluq bo'lgan... qo'llari temirdan, qanotlari oltin va sochlari o'mida ilonlar o'sadi. Nima bilan ekanli-

gi noma'lum-ku, ammo – kim uning ko'ziga qarashga jur'at etsa –
vahshat bilanmi, rohat bilanmi yokigim kulfat bilanmi, xullas, har bir
odamni o'z nigohi bilan toshga aylantirib qo'yar ekan. Qadimgi shoir
bergan manzilga ko'ra, u g'arbning olisliklarida, ummonning narigi
tomonida yashagan ekanmish.

– Demak, shunaqa mamlakat bo'lgan ekan-da?

– Yo'q, u – mamlakatdan ko'ra tahdidlirolq va kengroq edi, Polya:
Gorgona asosan kechagi bashariyatni boshqarib turgan barcha tuban
jirkanchliklarning yig'indisi bo'lgan... odamlar orasida u bilan oli-
shuvga jur'ati yetgan faqat birgina jasur qahramon chiqqan – Persey.

– Keyin nima bo'lgan: uni yenga olganmi?

– Ha.

– Haqiqiy shovvoz!.. U yog'iga nimalar yuz bergan?

Ivan Matveich javobga shoshilmadi.

– Ochig'i, bu juda murakkab manzarali afsona. Gorgonaning qo-
nidan nazmiyot va yomg'ir buluti dunyoga kelgan va bu issiq iqlim-
li mintaqalarda hosildorlik tushunchasi bilan uyg'unlashib ketgan.
Ko'rib turganingday, g'alaba uchun munosib mukofat, xuddi shuna-
qangi. Lekin Gorgonaning tepasida o'z o'rog'ini selpiganida, Persey
ham ortiga o'girilib turgan, holbuki o'shanda o'z zamonasining
yangi kashfiyotlari bo'lmish sehrli ko'zgu, ko'rinas dubulg'a va
uchar kavushlar bilan to'liq aslahalanib olgan edi. Har holda nimaga
ketayotganini yaxshi tushungan!

Polya bezovtalik bilan otasiga qarab qo'ydi; chamasi, o'zi uchun
yoqimsiz bo'lgan mavzu yaqinlashib kelmoqda edi.

– Sizni tushunmadim, kechirasiz. Siz meni xatarli tadbirdan asrab
qolmoqchimisiz?

– Aksincha... boz ustiga Gorgonaning ham ilgarigi qudrati yo'q,
tishlari to'kilib tushgan, lekin... shu paytgacha sen bilan hech qachon
so'zlashmaganman va men minglab yillik yovuzlikka qarshi sening
o'zingning qalbingda qanday quroling borligini bilgim keldi, Polya.

– Men aytaman, – shartta javob qildi Polya va uning qizlarcha
qaysarlik bilan dahanini yelkasiga bosib turishida Ivan Matveich
o'zining eng sevimli asarini, Napoli Psixeyasini ko'rdi. – Mening
fikrimcha, bizning yoshligimizning o'zi soflikdir.

– Soflik... ortiqcha donolik bilan zararlanmaslik ma'nosidami,
shundaymi? – ehtiyyotlik bilan so'radi Ivan Matveich.

– Qanday hamsovqotardi: o‘tin o‘zimizniki bo‘lsa, Yengada yashaymiz, axir.

Ivan Matveich imkon qadar savolini aniqlashtirishga harakat qilib ko‘rdi:

– Shu ma’noda so‘radimki, xullas... zerikib qolmayaptimi, yolg‘iz o‘zi. Sen axir asosan Loshkaryovda yashagansan-ku. Ko‘ngli entikib qolmayaptimi... yaqinlarsiz?

Polya bu safar ham uning rashkli savolini tushunmadni.

– U kun bo‘yi odamlarning orasida, zerikishga vaqtiyam yo‘q. Lekin hozir faqat... bir oydan beri na xat, na xabar borligi judayam yomon bo‘lyapti. Ayni paytda u nimalar qilyapti, shu daqiqalarda, bilmaymanam, ko‘rolmayapmanam...

– Yonarkukun portlab tursa, tutuni orasidan nimaniyam ko‘ra olarding, – o‘zicha ovutgan bo‘lib gap qo‘shti Taiska.

– Mening oyim shunaqangiki, buncha paytda o‘zining daragini yetkazishning yo‘lini, albatta, topgan bo‘lardi!

Qishning qorong‘isi o‘z odaticha tez tushdi. Polya xayrlashishga tutindi. Nasihatlar, sog‘lig‘ini asrash borasidagi maslahatlar, ketishidan avval albatta kirib o‘tishiga takliflardan so‘ng qariyalar uni kuzatish uchun dahlizga chiqishdi. Polya paxtaligining yoqasidagi yog‘och tugmani otasi qadashiga qo‘yib berdi: dadasi buni eplolmay uringanicha, vidolashuv onlarini cho‘zishga intilardi.

– Bizni unutvorma, Polyajon... Sharointing bo‘lishi bilan xat qorlagin, o‘zimizning himoyachimiz! – dedi Taiska va ketayotgan qizning naq beligacha egilib, jazavasi tutganday kuchli hayajon bilan ta’zim bajo keltirdi.

O‘sha kech u shundayin bir bosiq, hardamxayol ediki, ukasi uni taniyolmay ham qoldi: ularning xonadonlarida urf bo‘lib qolgan rus odatiga binoan yo‘l oldidan bir daqiqagina o‘tirishniyam taklif etmadi, – mehmoni tugun bilan kelib, quruq qo‘l qaytib ketayotganini payqaganiyam yo‘q. Eshik lang ochiq, Polya esa nima uchundir ketishga hecham shoshilmasdi.

– Agar bir nima kerak bo‘lsa, Polya, tortinmay ochig‘ini aytaver, – taklif qildi Ivan Matveich. – To‘g‘ri, askarning eguligi-yu, kiyulguligi doim tayin turadi... Ammo shuni bilib qo‘y: shu xonodon oxirgi mixigacha seniki... Seryoja bilan bab-baravar.

– Ko‘zlaridan ko‘rinib turibdi, nimanidir so‘ramoqchi-yu, aytishga yuragi dov bermovotti, – tasdiqladi Taiska. – Balkigim aqchami yoki issiqroq bir nimadir olging kelyaptimi? Izg‘irinning eng qahrida ketyapsan! Sen uyalaverma, Polyajon, sendan hech nimamizni aymaymiz.

Haqiqatan ham, ularning har qanday qurbanlikka tayyor turganlarni yuz-ko‘zlaridan o‘qib olsa bo‘lardi, shu bois Polya jur’atini ochdi.

– Bilasanmi, dada, – maftunkor ovozda va shuningdek, dadasi ni senlashga o‘tib ketganini o‘zi ham sezmay, muloyimlik bilan so‘z boshladi u, – menda oyimning rasmlari anchagina bor... hatto mahalliy gazetadanam bittasini qirqib olganman, tuman Kengashiga saylovdan keyin. Ammo hammasida u qandaydir bezovta, xuddikim, bir joyga shoshayotgandayin. Uni anavi zarhal romingdagi kabi xushchaqchaq holda hech qachon ko‘rmaganman. Jahling chiqib ketmaydimi, agar... Xullas, menga *o’shani*, *o’zingdagini*, miz ustidagini sovg‘a qilgin. Maylimi?

– Ah, xuddi shunaqangimi? – sarosimalandi Ivan Matveich, – O, men uni bajon-u dil... sen uchun..., lekin... rostini aytaman, iltimosing meni anchayin gangitib qo‘ydi... Yur... bir daqiqaga qaytib qiramizda, biror yo‘lini o‘ylab ko‘ramiz...

– Men uni so‘ramagan ham bo‘lardim, – Polya uning ortidan xo-naga kirib kelarkan, Taiskaning yuzidagi xijolatni sezmadni, – lekin baribir u senda bekor turibdi-ku... menga esa yo‘lda judayam as-qotgan bo‘lardi. To‘g‘ri, men oyimni hech qachon ta‘bi xira holda ko‘rmaganman, ammo shu paytgacha uni biror marta kuldirishgayam muvaffaq bo‘lolgan emasman.

– Sen *o’zingni oqlama*, seni yaxshi tushunib turibman, Polya, – Ivan Matveich bir joyda yer depsinib turganicha sergapgina bo‘lib qizining so‘zlarini tasdiqladi. – Rostini aystsam, bu sharoitdan chiqish yo‘lini birpasda topib ham bo‘ldim. Institutimizda bir fotosuratchi bor, qarib-qartaygan chol, ammo o‘z ishining ajoyib ustasi... o‘rmon turlarini, yog‘ochning kasalliklarini suratga oladi, xuddi shunaqangi. Ammo hozir jinday betoblanib qolgan, lekigin uning qayinsinglisi bor... ochig‘i, hamma ishlarniyam o‘sha bajarib yurardi o‘zi. Baxtga qarshi, ularning telefonlari yo‘q, ammo ertaga erta tongdan bu suratni qayta rasmga olish uchun oboraman va... senga hatto ikkita nusxasi-

ni sovg'a qilaman, zaxirasi bilan! Sen axir uch kunlar chamasi hali Moskvada bo'lasan-ku, a?

Shularni aytaturib Ivan Matveich g'ayritabiiy ravishda harakatchan bo'lib qoldi: qish oldi oqshomining kechki xira qorong'isida tomosha qilish uchun suratni deraza oldiga olib boradi, yo chang bosgan gardishdagi birinj gulmarjonlarni yengi bilan artgan bo'ladi, xullas, suratni yana biroz muddat qo'lidan qo'ymaslik uchun bahona izlash bilan ovora.

— Poyezdimiz bugun soat o'nda jo'nab ketadi, — dedi Polya.

Ivan Matveich butun irodasini safarbar qilganicha jilmayib qo'ydi:

— U holda bundoq qilamiz... men yaxshisi uni romidan sug'urib olmay qo'yaqolaman, oynaning tagida yaxshiroq saqlanadi.

— Sen qo'rqa verma, unga shundog'am hech narsa bo'lmaydi, — shoshib qoldi Polya otasining bu xatti-harakatlarining boisini anglab yetgach va o'zining topqirligidan qo'ngliga taft yugurdi. — Men uni komsomol biletimning orasiga solib qo'yaman va bu eng ishonchli joy bo'ladi. Ammosiga olganda, romi judayam chiroyli ekan, qadimgi bo'lsa kerak, a? Birinjdan ishlangan shekilli, to'g'rimi?

— Arzimagan narsa, bunaqa buyumlar tez-tez uchrab turadi. Romi bilan olib ket, e'tiroz bildirishga urinib ham ko'rma, ammo yodingda bo'lzin, sening maktubing evaziga beryapman buni. Manzilingga yetib borishing bilanoq darhol bizga yozib yubor, eng mayda harflarda eng kami to'rt sahifa yozasan... rozimisan shunga? U kaftida sovg'asining og'irligini askar safarxaltasining vazniga solishtirib ko'rди va hech bir majburlovsiz romning orqa tomonidagi tirkishdan chiqarib oldi. — Olaqol, mayli... bu yerdagi hamma narsa kabi bu ham seniki, Polya.

Fotosurat komsomol biletiga rosa loyiq tushdi, faqat chetidan ozgina bukib qo'yishga to'g'ri keldi. Polya otasining uyini qo'sh quvonch bilan tark etdi: o'ta og'ir majburiyatini nihoyat ado etdi va o'zi juda istagan buyumga yetishdi. Metroning yarim bo'sh vagonida o'zining son-sanoqsiz taassurotlarini tartibga solib oldi va yuragi shundan yengil tortdiki, shunday otasi borligi uchun nomus qilmasdan va undan ham yaxshisi, otasiga nisbatan achinish tuyg'usisiz frontga ketmoqda. Ha, u oxir-oqibat onasidan ko'ra yomon yashamabdi... to'g'ri, onasi tushuntirib bo'lmas bir qaysarlik bilan hali ham

Tegmaxonning sovuq xujrasida yashab yuribdi. Polyaning ko'nglini xira qilgan narsa otasining shunday uchrashuvga munosib bo'lмаган nochor dasturxoni bo'ldi... va o'zi qilgan ishning to'g'riliгini angla-di: oshxonada o'zining suhabatini kutib o'tirganida to'satdan miyasiga kelib qolgan fikr ta'sirida hozirgina taqsimot bo'yicha o'ziga berilgan ikki banka konservani javonning ichkarisiga joy-lab qo'ygandi. Shu kichik sovg'a Polyaga, qilgan amallariga yakun yasalganida, Ivan Matveichning bosh sinovidan salgina kam besh baho bilan o'tgani – o'zining ulg'ayib qolganini ta'kidlab turibdi.

5

U yoritilmagan yo'lak zinapoyasidan o'zining xonasiga ko'tarilayotgan paytida yana havo hujumiga qarshi mudofaa to'plari gumburlab qoldi; frontning yaqin ekani tufayli dushman hamlalari o'sha oyda ko'pincha tun-u kun to'xtovsiz davom etib turdi. Xona-donga kirish eshigi lang ochiq edi, qo'shnisi yana uyda emas ekan. De-raza ortida zenit to'plari otishmasining chaqnashlari yorug'ida Polya yo'l- yo'lakay xuddi elektr tokining chaqnog'ida ko'ringan yashil tus-dagi notabiiy sarishtalik kabi bolalar mizi ustidagi yostiqning qoqib shishirib qo'yilganini ko'rdi. Bu safar harbiy xizmat va oshig'ich ravishda jo'nab ketish Polyanı tomsga shoshilish zaruratidan xalos etdi. U yechinib ham o'tirmasdan, xonasiga shipillab o'tdi-yu, avvaldan yig'nab qo'ygan narsalarini paypaslab topdi. Ammo bu yerdan butunlay jo'nab ketish oldidan Polya ayvonning nam tortib, shishib qolgan eshigini o'ziga tortib ochdi va izg'irinli va qorong'i tashqariga boq-di. Hujum rosa avjiga chiqqan va u xuddi rutubatga o'xshardi – yovuz, qora bulutlarday pastak, qishning namgarchiligi kabi yoqimsiz; pastda, oppoq qorning shu'lasida yarqirab ko'rinish turgan shaharning naq ustigacha tushib olib, u hirqiraganicha uning ichak-chavoqlarini kovlashtirardi. Portlashlarning momaqaldiroqlari zenit to'plarining to'xtovsiz uvullashi bilan aralashib ketgan; projektorlarning u yoqdan bu yoqqa yugurayotgan nurlarida goh u yerda, gohi bu yerda ohan-rabo maydonidagi katta quvvatli elektr simlari yelpig'ichining nurlanishlarini eslatuvchi ulkan, shiddatli tutuntepalar osmonga o'rlaydi, ammo olovning o'zi ko'zga ko'rinnmaydi: u qayerlardadir uylarning ichida, odamlarga yaqin yerlarda ishlamoqda. O'sha daqiqalarda Po-

lya na qo‘rquvni, va na g‘azabni his etdi – faqatgina o‘sha boshi ustida aylanib uchayotgan, shumlik qilayotgan, o‘chirilgan yuritkichlari bilan pastga sho‘ng‘iyotgan, chaqib-chaqib olgach, jazosini olmagan holida qo‘l etmas yuksakliklarga ko‘tarilib qochgan ko‘rinmas ha-sharotga nisbatan sovuq, shafqatsiz qiziqishi bor edi, xolos... Polya avvalgi, bombardimon hamlalarining uvullab ingrashlarini birinchi marta eshitgan o‘ziga hozir shunchalar ham o‘xshamas ediki!..

Keyin pastdagи hamma narsa – uychalarning oldidagi qortepalar, yalang‘och daraxtlar orasidan ko‘rinayotgan kichik butxonaning pesh devori titroq pushti yog‘dudan yorishib ketdi: Blagoveshshensk berk ko‘chasidan chiqaverishdagi sabzavotlar sotiladigan chodirni o‘t olibdi. Shiftdan akslanib titrab turgan yorug‘likda Polya vidolashuv nigohi bilan Varyaning xonasini ko‘zdan kechirib, bebahо tafsilotlarni xotirasiga muhrlab qolishga urindi – buyumlarning joylashishidan boshlab, devordagi gulqog‘ozning rasmlarigacha, – nima uchundir o‘zining xonasini oxirgi marta yig‘ishtirmasdan ketishni istamadi, holbuki ushbu judayam yaxshi, faqatgina qurilishi ozgina bitmay qolgan uyga boshqa qaytmasligini bilardi. Shoshmasdan, har bir mayda-chuyda narsada ham o‘z iroda kuchini sinaganicha, o‘zining vijdonan xizmat qilib bergen, hozirda quruqshab qolgan mallavoy bilan yirtiqvoyini temir katning tagiga avaylab joyladi, Darvinning devordagi og‘ib qolgan rasmini to‘g‘rilab qo‘ydi, Varyaning qutisini ozgina ochdi va eng tepada turgan o‘zi chizgan rasmni ko‘rib, Bobrininni esladi va to‘satdan fahmi ishlab qolib, dugonasining yashirin sirini yechdi va zulmatlararo, olov purkab turgan olisliklar tomon, unga, jonajoniga, hamdardlarcha mungli jilmayib qo‘ydi.

– Hamma narsa, endi alvido! – pichirladi Polya, tizzasidan ko‘tarilar ekan va uni hech kim ko‘rmayotgani uchun, shamolsiz qo‘ltiqdan katta daryoga chiqishi oldidan o‘ziga boshpana bergen Moskvaga derazadan ta’zim qildi.

Pastga yugurib tushganida muyulishdagi yong‘in o‘chib bo‘layozgan edi. Gumburlarini sochib va yolqinlari shu'lalanib, qora bulut g‘arbgan tomon siljib bormoqda. Uyning yo‘lagida istiqomatchilar, xuddi zerikkan qiyofalarda darvoza tagida turib, jalaning tugashini kutayotgan odamlar kabi sabr bilan turishibdi; bombardimonlarga kishilar ko‘nikib qolganlari uchun havo hujumi ogohlantirishida deyarli hech kim yerto‘lalarga tushmay ham qo‘ygandi. Ular-

ning hammalari yaqin orada, tosh yo'l chetidagi kattagina, eng oxirgi termit olovini o'chirayotgan ikki o'spirinning chaqqonligini kuzatib turishibdi; bolalar termitni xuddi jahannamiy bir maxluqchani quv-gan kabi uni yerning tirkishiga haydab, qum va qor aralashmasi bilan o'ldirishmoqda, u esa quturib pishqiradi, irillaydi va bolalarning quvonchiga, qip-qizil olov bayramona bug' pardasi orasida so'nib boradi... Polyaning savoliga javoban o'ninchi xonadonda yashaydigan tanish kampir Natalya Sergeyevna bir daqiqagina oldin ko'chaning narigi betida, yo'lni sal qiyalab kesib o'tishdagi qo'shimcha qurilgan *yog' och imoratga* kimningdir jarohatini bog'lash uchun yugurib ketganini aytdi. Polya *chillik xonim* bilan xayrlashishga shoshar ekan, u odamlardan yashirilgan bir chimdim haqiqatini, albatta, Polyaga ma'lum qilishini g'lati bir tarzda ko'ngli sezib turardi... shu kunning yakuniy hodisasi ayni shu yerda sodir bo'ldi.

Sal naridan yetib kelgan qo'shaloq hushtak tovushi Polyani ortiga o'girilishga majbur etdi. Hozirgina o'zi chiqib kelgan xona dera-zasidagi chidab bo'lmas darajadagi yorqin nur uni orqaga uloqtirib, chalqanchasiga ag'dardi, keyin esa gangib qolgan, orqasi bilan yiqilib yotgan holida uyning bir burchagi avvaliga og'ib qolgani, havoda muallaq turib, so'ng bahorgi suv toshqinida muzlar parchalangani kabi katta-kichik bo'laklarga ajrala boshllaganini ko'rди... va bu manzara harakati shunchalik sekin kechdiki, binoning tepasidagi alebastrdan ishlangan kolxozchi ayol haykali avvaliga erinchoqlik bilan o'zining qo'li bilan birga uzilib tushgan bug'doy bog'لامи ortidan egilib bordi. Shu asnoda uning hajmi tobora kattalashib, toshday qotgan jilmayish bilan yiqilib borar ekan, Polya dahshatdan ko'zlarini yumib oldi va biroz muddatdan so'ng uni ensasining tagida erigan qorning muzday suvi hushiga keltirdi. U o'rnidan amallab ko'tarilib, o'tirib oldi, lablaridagi sho'rta'm kirni yalar ekan, termit va bolalar qayoqqa g'oyib bo'lganlarini tushunishga intiladi... va eng asosiysi, burchak tomondan o'pirilib tushgan ikkita qavatni hisobga olmaganda, uy o'sha-o'sha holicha turibdi, Polyaning o'zi ham bus-butun, hech yeri og'rimayaptiyam, faqat ko'zining oldidan sariq barglar chapga va orqaga, chapga va orqaga – beli tomonga yuzib o'taverdi. Shu paytda nimanidir zambilda ko'tarib, yo'lak tarafga o'tib ketishdi va notanish, bo'g'iq bir ovoz Natalya Sergeyevnani o'ldirishganini qichqirib qoldi, demak, bolalarning jasadlarini keyinroq shag'al uyumlari ostidan

topishadi, hozir zambilda olib ketilayotgan ayolga esa Varyaning xonasining kalitini topshirib qo‘ymoqchi edi, yo‘qolib qolmasligi uchun.

Shunda Polya hech qanday zo‘riqishsiz o‘rnidan turdi va gandi-raklaganicha hamon tutab turgan uyumlarni aylanib o‘tib, zambilga yetib oldi, – unda ayol kishining yarim oqargan, turmagi buzilmagan sochlari toj kabi joylashgan, orqaga tashlangan boshi zambilni ko‘tarib ketayotganlarning qadamlari maromida silkinib bormoqda, tanasining o‘zi esa belidan pastroqda va uning kiyimlari ustidan erkaklar paltosi bilan yopib qo‘yilibdi, paltoning mo‘ynali yoqasi yon tomonidan qorda sudralib bormoqda. Va bu ahvolni hanuz olovlanib turgan termitning yorug‘ida ko‘rgan Polya qichqirib yubordi, Natalya Sergeyevna esa unga katta-katta, lekin o‘zinikiga o‘xshamagan, dahshatli darajada qorayib ketgan ko‘zлari bilan qaradi-yu, lekin qizni tanimadi.

– Iltimos, tartibga rioya eting... eng avvalo xotirjamlik. Juda soz. Tashakkur, sizdan nihoyatda minnatdorman. Hozir o‘rnimdan tura-man. Yo‘q, yo‘q, hech yerim og‘rimayapti, tashakkur... – Shu tarzda to‘xtovsiz ravishda go‘yo vaziyatni boshqarayotgan bo‘ladi, o‘ziga berilmagan savollarga javob beradi, va birdan qattiq siqilgan tishlari orasidan odamnikiga o‘xshamagan ovozda nido qilib qoldi: – Nega axir, nima uchun ularni hech kim to‘xtatmayapti?.. Ah, xudoyim, qandayin ablahlar-a!

Chamasi, asab jazavasi uning og‘rig‘ini bo‘g‘ib turibdi, zambilda ko‘tarib borayotganlarida u biror marta ingragani ham yo‘q, faqat o‘zini har tomonga uring turar, ketishni xohlamas, chunki uni go‘yoki qaytib kelib bo‘lmaydigan allaqayoqqa pastga, tublikka zinapoyalar-dan olib tushishayotganday tuyulmoqda edi va Polya undan ko‘zini uzmagani ko‘yi ortidan bormoqda, xuddi tushdagisi kabi qadamlari tagidagi yerni sezmay odimlaydi. So‘ng zambilni yerto‘laning o‘rtasiga qo‘yib, xuddi cho‘ldagi kabi hammalari har tomonga tarqalib yugurishdi telefongami, yokigim, balki bolalarni kovlab olishgami, yoxud shunchaki... ko‘rmaslik uchunmi. Natalya Sergeyevnaning oldida boshqa hech kim qolmadi, basharasi g‘ijim qog‘ozdan yasalgan va g‘alati yo‘l-yo‘l pidjak kiygan janob bundan mustasno, uning pastga osilib o‘sigan sochlari va tikendor oltin ko‘zoynagida miyani qiyinab o‘ylashga majburayotgan nimadir juda tanish narsa bor edi. Ammo-

sigal olganda, yo'q, bu bolalik xotiralaridagi shifokor emas, kimdir boshqa nusxa, aksiga olganday, Polya uning nasabini hecham eslolmayapti. Va qayoqdandir paydo bo'lib qolgan yovuz qiyofali kampir, qalbi ham turqiga o'xshagan chirkin ekani shubhasiz, qat'iy shivirlab o'sha janobni zambilning ustidan paltoni olib tashlashga undash bilan ovora – janob sovuq yeb qolmasligi uchunmi, yoki paltoning o'zi bir balolarni shimib olib ifloslanmasligi uchunmi; o'g'li esa lablari ni ochmasdan qarshilik qilmoqda, kampirni xuddi o'ziday ko'p yillik nafratning vishillagan ohangida, yomonlarga shafqatsiz,adolatl yaratgan parvardigor haqqi, umrida bir martagina yolg'iz qoldirishi ni o'tinyapti... va to'satdan kampir xuddi tushlarda yuz beradigani kabi tushunarsiz asnoda g'oyib bo'lib qoldi va lekigin bu dahshatli, o'nglab-o'zgartirib bo'lmas manzaralar o'zining yarim quvvati bilan shiftda yonib turgan, atrofni arang chala yoritayotgan chiroq yorug'i-da chaplashib, xira tortib ko'rinishayotgan bo'lsa-da, odamning nigo-hini shu qadar kuchli tarzda o'ziga jalb etardiki, Polya dahshatdan o'zining kunjagida g'ujanak bo'lib oldi, ketay desa oyoqlari mutlaqo ishlamayapti.

– ... Yo, tavba, qandog'am vahshiylar-a! Insoniyatning donishmand arboblari qayoqlarda qolishgan o'zi? Yo'q, bu yovuzlikni shundoq qoldirib bo'lmaydi... ularning hammasini, yaxshi-yomoniga ajratib o'tirmasdanoq bурдалаб ташлаш керак, табар билан. Улarning nimasi kapitalistlar ekan, shunchaki ablahlar, ularni o'ldirmoq lozim!.. – yana va yana, tutaqib va buni xuddi qo'qqisidan kashf etgan ohangda gapiraverdi yarador ayol. – Biron tangiz qarab qo'yinglar axir, oyoqlarimga nima bo'ldiykin. O'rnimdan turgim kelyapti, yordamlashvoring. Men navbatchilikka borishim kerak, kech qol-yapman... – Va yana eng og'ir azobning alamida: – Holbuki hech kim, hech kim undan qat'iy, erkakchasiga so'ray olmaydi, nima uchun unga dunyoda shunday palidlar kerak ekanini.

– Bas qiling... tinch yoting, Natashenka. Hozir... Tez yordam... va keyin uzun-uzun hordiq chiqarish vaqt keladi, – pijama kiygan odam tizzalab o'tirib olib, uning tepasida ming'irlaydi. – Kuchingiz boricha dadil bo'ling, nabiramiz haqqi bardam bo'ling. Siz axir irodalisiz-ku! Yostiq jildining ichida menga portlagich olib kelganiningiz yodingiz-dami?.. jasurligingiz uchun qo'lingizni o'pib qo'ygandim o'shanda...

va keyin *ular* ikkivimizniyam aldashgandi, bizni mazahlab rosa kulisgandi, eslaysizmi?

– Men sizni ko‘rmayapman, kimsiz? – o‘zini chetga olishga urinib, so‘raydi Natalya Sergeyevna. – Ustimni yopib qo‘ysangiz-chi, axir... shamol qattiq uryapti! Ha, aytgancha: nazarimda tanamning yarmi yo‘q bo‘lib qolganga o‘xshayapti... Rostakam chillik xonim bo‘ldim! Yo‘q, og‘rimayapti, lekin... bu dahshat, Zoyaginam kelganida sutga ham borolmayman...

– Buni o‘ylamang... unga o‘zim g‘amxo‘rlik qilaman, qidirib topaman, o‘zim bilan olib ketaman, – chollarcha nafasi qisgan ko‘yi ayoldan o‘ziga kechirim so‘rab olish uchun uning tubsiz qorachig‘i orqali ongiga kirib olishga, yugurib borib, tiz cho‘kishga ulgurish uchun behuda intilib shoshadi. – Bu men, Sasha... Sergiyevskiydagি oqshom yodingizdam, keyin sizga muz ustida temir toychada sirpanishni o‘rgatuvdim... eslaysizmi?

Nihoyat u uhdaladi, ayol jimib qoldi, vaziyatni tushuna boshladи.

– A-a, bu yana sizmi... hafsalasi pir bo‘lib, og‘riqli azobda so‘zlarini cho‘ziii-ib gapiradi Natalya Sergeyevna. – Sizni qandoq ham kuchli sevgan edim, Gratsianskiy... Hatto siz o‘shanda anavi fohisha bilan qo‘ltiqlashib *Daryaldan* chiqib kelganingizda ham, o‘shanda ham baribir sevaverganman! Keyin qanday ham sizdan umrim bo‘yi qochib yurdim, taqdir esa meni har qadamimda sizga yo‘liqtiraverardi... hatto hozir ham, shunday paytda ham! Siz har doim hayotga shunaqa osilib olaverar edingiz... tobutda yotgan qizingni ko‘rishga ham kelmading, bunday qilish mumkinmas axir, mumkinmas... buni ham uhdalash kerak, Gratsianskiy...

– Axir men o‘shanda betob edim, jonginam!.. – o‘zicha ingrab qo‘ygan bo‘ldi u, o‘sha qog‘ozbashara, Polya esa uning hatto shu safar ham kazzoblik qilganini fahmladi.

– ...hatto nabirangni kuzatgani kelmading, chunki buning uchun pul xarajat qilishingga to‘g‘ri kelardi-da, Gratsianskiy... bittagina shokolad ham tekin turmaydi-da, a?... Xullas, sizni qancha sevib, qancha kechirganman?.. Lekin bilib qo‘ying, Zoyaginamni u yerdan olishingizni taqiqlayman, izn bermayman. Shu oxirgi xasga ham yopishib olmang, odamlarga boshqa yovuzlik qila ko‘rmang. Ana u, kelyapti... o, u ana shunaqa ekan-da! Oh, keting endi, men hozir o‘laman.

... Tuyqus jimlik cho'kib qolganidan xavotirlangan Polya beton qubbaning ortidan yana qaragan paytida Natalya Sergeyevna hali tirik edi; uning barmoqlari palto ustida zo'rg'a qimirlab turar, pijama kiygan erkak o'zining ham, uning ham yo'lga tushishlari oldidan o'zini oqlab olish uchun nimalarnidir tinmay shivirlardi; oqarinqiran, siyrak, to'zg'igan, uzun o'sgan sochlari aftigacha tushib turibdi. Polyaning vijdoni ham, fursati ham bu yerda ortiq qololmasligini ta-qozo etib turardi. U sezdirmasdangina yerto'lani tark etdi va avvaliga yuzidagi loy-qumni qor bilan yaxshilab ishqab tozaladi, keyin zina-poya tagidagi kamgakdan yukxaltasini paypaslab topdi.

... Ko'chada qor qalin yog'ib turibdi. Havo hujumi ogohlantirishi to'xtatilganidan so'ng, tramvaylar yaqindagina o'z harakatini boshladi. Polyaning omadidan bo'lib, sanitar poyezd to'rt daqiqa kechikib yo'lga tushdi. Yangi dugonalari uni issiq vagonga qo'lidan tortib olishdi. Sal narida tirkalgan bug'tortar pishillarydi. Qorga burkangan gospital boshlig'i bilan komendant eshelon jo'nashidan oldin uni ko'rikdan o'tkazishni yakunlashayotgan ekan.

– Qalay, qattiq qo'rqedinglarmi, qizlar? – sinovchan so'radi Strunnikov vagon yonida to'xtab, qo'lchiroq bilan uning ichkarisini yoritar ekan: u hozirgina gumburlab o'tgan hujumning jazavasini nazarda tutayotgan edi. – Hechqisi yo'q, toblanaveringlar, go'zallarim!

– Ha, ozgina toblanib oldik... – Polinaning ortidan javob berishdi qizlarga xos besh-o'nta jarangsizroq ovozlar.

– Undoq bo'lsa nega jimb qoldinglar? Urushda qo'shiqsiz yashab bo'lmaydi: ashulalarni doim sanitар sumkangizga solib yuringlar, qo'l ostingizda bo'lsin... xuddi izg'irindagi gulxan kabi uni so'nib qolishga qo'y manglar, ana shunaqa. Bo'pti, hozircha dam olaqolinglar...

Polya shundoqqina eshik oldida turgan edi, ammo kun davomidagi voqealardan garangsib qolgani bois, birorta ham so'zni eshitmadi, hatto jo'nashga berilgan xabar qichqirig'ini ham sezgani yo'q. Miyasida na bir fikr bor, na g'am-g'ussa, na yiqilgandagi tanasining og'rig'i, nuqul o'ziga o'zi qarib qolganday tuyulaveradi. Chakkasi bilan eshikning kesakisiga suyanib turar ekan, qiyalab yog'ayotgan qorning uchib yurgan yopishqoq parchalaridan ko'zini uzmashdi. Shutun qorning shunaqangi saxiyligi tutib ketdiki, har qanday kechikkan va keraksiz sovg'a shunaqangi ortiqcha bo'ladi.



O'N IKKINCHI BOB

1

Oldindan aytib qo‘yaqolay: o‘ziga bog‘liq bo‘lмаган vaziyatlar tufayli Morshixin dissertatsiyasini baribir yozib tugata olmadi. Ammo aynan shu ilmiy ishining mavzusi sabab bo‘lib, u ikki soat davomida birinchi darajali kashfiyotga bevosita yaqin bo‘la oldi, buning ustiga bu kashfiyotning matbuotda chop etilishi muallifning mashaqqatli mehnatini kam bo‘lмаган darajada taqdirlash uchun asos bo‘la olardi... Ivan Matveich Morshixinga professor Gratsianskiy yordamida omadini sinab ko‘rishni maslahat bergenida, dissertantga o‘sha kimsaning nasabi allaqachonlar tanish edi va o‘rmonchilik bo‘yicha maqolalar boisidan emas, balki o‘zini qiziqtirgan *aynan o‘sha* jihat munosabati bilan ma’lum edi. U o‘sha safar Gratsianskiy bilan sirtdan tanish ekani borasida indamay qo‘yaqoldi, ammo o‘ziga ma’lum bo‘lganidan ortig‘ini so‘rab bilib olish istagidan emas, balki Ivan Matveichning qilgan xizmati shu narsa bilan kamsitilib qolmasligi uchun. Aslini olganda Morshixinning Leningrad arxivlariga urushdan oldindi safari juda unchalik ham samarasiz bo‘lgani yo‘q edi: u darrovgina g‘aroyib bir sirli, ammo juda qisqa vaqt davomida faoliyat yuritgan o‘smirlar tashkilotiga duch keldi, o‘sha yillarda ular matbuotga *Yosh Rossiya* nomi bilan tanish bo‘lgan ekan. Politsiya mahkamasining maxsus hujjatlarida Gratsianskiy nasabi bor-yo‘g‘i uch martagina qayd etilgan va bir qadar mujmal matniga qaraganda, jandarmlarning ayyorona bir nayrangida jabrlanuvchi sifatida qatnashgan ekan. Morshixinda bu sehrli qulfchani qachonlardir ochishga hech qandoq umid qolmagan edi, va ayblov muddatlari allaqachon o‘tib ketganligi tufayli u Gratsianskiyni allaqachonlar o‘lib ketgan deb o‘ylagandi. Mahfiyatning bosh qahramoni mavjud ekani, va nafaqat sog‘-salomat yurgani, balki o‘rmonchilik sohasida taniqli ekanini bilish kutilmagan darajada hayratlanarli edi. Ayniqsa uning

qo'shni mayzeda, avtobusda qirq tiyinlik masofada yashashini-ku aytmay qo'yaqoling. Agar istak bo'lsa, o'sha davrlarda o'tmishning jonli guvohlarini, surgun faxriylarini yoki masalan, Presnyadagi g'ov janglari qatnashchilarini izlab topish qiyin ish emasdi, ammo manavi kabi arbob mustabid podshohlikning va inqilob tasodiflarining baxtsizligidan hech qanday ziyon-zahmat chekmasdan o'tib olishi haqiqatan ham mo'jizavor topilma hisoblanishi tabiiy edi. Tez orada jo'nab ketishi lozimligi tufayli, shaxsiy uchrashuvni iltimos qilib maktub yo'llab qo'yishga Morshixinning mutlaqo fursati yo'q; ertasi kun tongda u tavakkal qilib o'sha ko'rsatilgan manzilga xonodon sohibini ogohlantirmasdan, shunday olivjanob hamkasbining ko'magiga ehtiyoj sezishday baxtga musharraf bo'lgan ilmiy xodim sifatida boraverishga azm etdi. Va shundoqqina Blagoveshshensk berk ko'chasiga qayrilgan ham ediki, Gratsianskiy bilan telefon orqali ulanishga bo'lgan urinishlari besamar ketganining sababi ma'lum bo'ldi-qo'ydi. Bu yerda hamma narsa tunda qirg'inbarot bo'lGANI haqida biri olib-biri qo'yib so'zlab turardi:

2

Keyingi safar qizlar teatrda qaytishlari bilanoq xabarlagichlar chinchirib qoldi. Oy yorug'idan nurlanib turgan tun shiddatli hujum bo'lishidan ayon berib turibdi. Tomga Polya o'zi chiqdi va Varya charm kurtkadagi hamda gazdan himoya vositasidagi dugonasi chordoqning tuynugidan chiqishi bilanoq uni darhol tanidi. Pedagoglik tuyg'usi uni hayratdan va maqtovdan to'xtatib qoldi. U Polyani eng yaqin mo'rining yoniga boshlab keldi va ulkan uchar mashinalar uy-joyga hujum qilganida balog'at yoshidan o'tgan, qurollanmagan odam nimalar qilishi lozimligini qisqacha so'zlab berdi.

– Bilasanmi, Polyajon, sening g'ururing ongingda pishib-yetili shini shunchalik sabr bilan kutgandimki... – Ochig'ini aytganda, Polya yana bir marta Gratsianskiy bilan yonma-yon bo'lishdan va himaga tushgani bunda qanchalik ahamiyatga ega bo'lganini Varya xayoliga ham keltirgan emasdi. -- Qurollan: mana senga kurakcha va qisqich... qani bo'l, olaqol, u osmondan sening yoningga kelib tushganida, uni pastga qo'llaring bilan uloqtirmaysan-ku. Qolgan ishni boshqalar bajarishadi. Sen balandlikdan qo'rqmaysanmi?

– Bir tomchigina qo‘rqaman... – tan oldi Polya va o‘zini tutib turolmadi, – agar u to‘g‘ri ustimga tushsa-chi?

– Demak, u holda... xuddi aytganimday: qolgan ishni boshqalar bajarishadi! – kulib yubordi Varya va birorta ham so‘z bilan uning ko‘nglini ko‘tarmasdan, o‘zining marrasiga ketdi.

Yengilgina, yorug‘lik bilan aralashib ketgan qorong‘ilik Boshkentning ustida muallaq turibdi. Bulut ko‘piklari orasida oy-moma ularga chap berib yugurib yuribdi, Moskva tomlarida navbatchilik qilayotgan har bir kishining xayolida yovuzlikka nishonni ko‘rsatib berayotgan sotqin shu’la sifatida unga qarab o‘q uzish istagi beixtiyor yuzaga keladi... oymomaning qilayotgan ishi palidlik kabi namoyon bo‘ladi, chunki ko‘rinishidan u yoshgina va aybsiz qiyofada patlari sap-sariq beg‘ubor jo‘jachani eslatadi. U bulutlarning orasiga ko‘milib olgan paytlarida, pastdagi shahar ibridoiy qoyalar uyumini va ko‘chalar tog‘ daralarini, maydonlar esa ulkan qorong‘i o‘ralarni eslatadi... ammo sharpalar qochib ketishi bilan u yana g‘ayrioddiy darajada go‘zallahib ketadi – xuddi qahramonlik tomosha asarining ishtirok etuvchi bosh ijrolari chiqishiga bir daqiqa fursat qolganida-gi manzarasi kabi. Havoni judayam sovuq deb bo‘lmaydi-yu, ammo begonaning og‘riqli teginishini kutgan kabi etlar uvushib turibdi. Polya hali ishlab o‘rganmaganidan tashqi antennaning simiga tegib ketdi; u qattiq g‘ijirlash bilan tunuka bo‘ylab sirpanib, pastga tushib ketdi va shunchalik uzoq uchdiki, Polya bu vaqt ichida peshanasidagi terni artib bo‘lganidan keyingina uning yerga urilib, bo‘g‘iq jaranglagani eshitildi. Sukunatdagi shu yagona ovoz go‘yoki hujum boshlash uchun xabarnoma bo‘ldi.

Oymoma yana qora bulut orasiga sho‘ng‘ib ketdi va shu zahotiyoq Moskva usqining butun janubiy hoshiyasi bo‘ylab to‘suvchi o‘tlarning qisqa vaqtli nurlari yoyildi; bir daqiqa o‘tib, yorilayotgan portlagichlarning qarsillashlari eshitildi. Tez orada ular yaqinlashib keldi va atrofdagi jimjitlikka qaramasdan, Polya tevarakdagi ulkan qoyalar dushmanning havo hujumiga o‘z tanalarini g‘ov sifatida tutib berishga tayyor odamlarga to‘la ekanini tushundi. Keyin shunday bo‘ldiki, go‘yo yorug‘lik va gumburlashning darvozalari to‘satdan ochilib ketganday bo‘ldi; portlash to‘lqini Polyani orqasidan yengilgina turtib o‘tdi, uning uzun, siniq soyasi esa mo‘rkonlar va chordoq ustqurmalarining sharpalari bilan birgalikda qo‘shni imoratlarda

akslandi. Shu bilan bir vaqtida, xuddi qora bulutlarning bag‘rini momagulduraklar va yashinlar yorib o‘tgani kabi qorong‘ilik pardasidan goh binolarning o‘limtik-oqish peshlarini sug‘urib olayotganday, gohi esa noma’lum navli daraxtlarning uchlarini yoritgan kabi qo‘sni binoning tomidan zenit to‘plari shu’lali javob qaytardilar; osmonda esa projektorlarning nurlari yiqilib va o‘zaro chalkashib titraydi. Ular xuddi o‘sha og‘ir, xuddi tunuka idish ichida sharaqlayotgan toshlar shovqini kabi hamma tomondan eshitilayotgan ovozni izlayotganday, shoshilmas barmoqlari bilan osmonning burmalarini titkilaydilar. Ularga faqat keraksiz narsalar uchrayverdi – bir quchoq paxta, suzgichlari harakatsiz baliq tanasi... va birdan Polinaning boshi tepasidagi nurli gardishda xuddi keskin pastga sho‘ng‘igan qushga o‘xhash kumush rangli nimadir, paydo bo‘ldi: dushman uchog‘i ko‘zi qamashib bir joyda aylanaverdi.

Polya tasavvur kuchi bilan uning ichida o‘tirgan, himoya ko‘zognagini xuddi Polyaning peshanasi kabi terlab suv bo‘lib ketgan peshanasiga ko‘tarib olgan, basharasi g‘azabli kichkina mavjudotni ko‘rdi. U hov anavi, pastdagi, g‘ishtdan terilgan mo‘riga qapishib olgan qurolsiz moskvalik qizni nishonga olishga urinadi va ehtimol umumyevropa olishuvining yagona ma’nosи ham aynan shu maqsadda mujassam bo‘lgan edi. Allaqachon portlashlar uchuvchining atrofidagi osmonni shudgorlab tashlayapti, u esa o‘z fyureriga o‘rmonchilik muassasasiga qarashli qurilishi tugallanmagan uyni, va unga qo‘sib Polya Vixrovani va shaxsan unga tegishli qutini qopqog‘i tagidagi onasining suratiga, yangi markizet ko‘ylakka va Rodionning quti tubidagi she‘rlariga qo‘sib maydalaň tashlashga bergen qasamli va’dasini bajarishdan voz kechmayotgan edi. Lahzaning bir bo‘lagi ichida Polya qalbning har qanday olivjanob islohiga yo‘ldosh bo‘ladigan, odamning toqatidan tashqari qo‘rqmaslik qaltirog‘ini his etdi. Navbatdagi zenit portlashlari chog‘idagi Polyani Varya xuddi shunday eslab qoldi – vaqtি kelganida orani ochiq qilib olish tahdidida mushtlari ko‘tarilgan holda.

Qolgan ishni boshqalar bajarishdi. Uchoqcha tutashni boshladи, yorug‘lik nuridan egilib-bukilib o‘zinikilar tomonga, g‘arbg‘a jo‘nab qoldi. Fashistning basharasi tasavvurdan g‘oyib bo‘ldi. Uning qanday o‘lganini ko‘rish unga nasib etmadи. Qorong‘ilashtirilgan shaharga yana bir marta o‘t yomg‘iri yog‘dirildi, Polya ko‘zlarini ochganida

esa yaqin atrofda singan shisha jarangi eshitildi va qandaydir ko'p sonli mash'alalar atrofda shu'lalanayotgan edi, birlari – tomlarning o'yqlari ichida, boshqalari tashqarida, qayta-qayta uchqun sochib turibdi. Eng yaqindagisi shundoqqina oyoqlari ostidagi nov ichida yonib turibdi va shu temir asolariga tayanib olgan edi; Polya ushbu kichik yovuz o'choqni zulmatga, tom tashqarisiga shunday osonlik bilan uloqtirib yuborishga qanday muvaffaq bo'lganiga o'zi ham hayratda edi... o'sha tun shaharga ularning minglagani tashlandi, hujumlar deyarli tonggacha davom etdi, Polya hozircha to'xtovsiz harakatlardan – yugurish, sirpanib yiqilish va katta yong'in boshlanmasidan avval ularni mag'lub etishdan jismonan charchagani yo'q.

... Kun yorisha boshladи va bulutlarning ko'kish pardasi ostida sharq tomonda qizil chiziq cho'zilib ketgan. Hammasi xuddi yomon tush kabi bostirib keldi. Tonggi Moskva sokin va bokiraning badani kabi yoqimli edi. Moskva daryosi ortidagi katta yong'indan boshqa hech narsa tungi olishuv haqida eslatmayotgan edi. Bo'm-bo'sh va kimsasiz tomlarda xuddi boshdan kechgan tashvishlardan keyin vujudni qoplaydigan ter tomchilari kabi engil shudring sochilib ketgan edi.

– Ko'rib turibmanki, ahvoling yaxshi va bu juda ham soz, – maqtab qo'ydi Varya, yondiruvchi bombalarни o'chirish bo'yicha taniqli qobiliyat egasi. – Bunday to's-to'polonda o'zimizning zenit portlagichlarimizning parchalaridan ko'proq qo'rqish kerak. Senga tegmadimi?

– Ularni payqaganim ham yo'q... ammo rostini aytganda, Varyajon, bular hammasi tezroq tugab qo'yaqolishini shunaqangi xohladimki! Nima deb o'ylaysan, yana qancha qoldi ekan?.. Bir yilmi, ikki yilmi?

Varya uning savolini darrov tushundi:

– Har holda Yangi yilgacha tugamasa kerak. Urushni atyapsanmi?

– Yo'q, shunchaki umuman so'radim...

Varya o'ylanib qoldi, dugonasi haqiqatni bilish uchun yetarli darajada ulg'ayganiga hali ishonchi komil emas edi.

– Bilasanmi, Polyajon, fashistlar – katta tarixiy musobaqada fagat bitta kechmish, xolos. – U javob berishga shoshilmadi, keyin bir qarorga keldi. – O'zing esla: Qizil va Oq atirgul o'rtasidagi may-

da meros kelishmovchiliklari hal etilishi uchun naq o'ttiz yil vaqt ketganida, yarmi qizillarga va yarmi oqlarga bo'lingan odamzot va killari o'rtaсидаги buyuk bahslar yechimini topishi uchun yuzlab yillar ham kamlik qiladi. Umuman olganda, yigirma foiz ish amalga oshirib bo'lindi deb hisoblayverishing mumkin...

Tunda bo'lib o'tgan hodisalardan qizishib ketgan Polya agar butun shu muddatni yerto'lada Gratsianskiy bilan o'tkazganida va xavf yakuniga yetgach, hayotdan nafratlanish uchun o'z umrini saqlab qolgan kampir bilan birga ostobli yuzaga emaklab chiqqani taqdirda o'zi kimga aylanib qolgan bo'lishi mumkinligini osongina tasavvur qilib oldi.

– Meni *u yerdan* tortib olganing uchun sendan shunchalik ham minnatdormanki, Varyajon.

– Avvalo, seni hech kim sug'urib olgani yo'q, sen o'zing tomga sudralib chiqding. Shunday bo'lishi kerak ham edi. Buning qanday amal topganini so'zlab bergin. Dastlab senga faqat yolg'iz o'zingni nishonga olishayotganday tug'ilди, shundaymi? Keyin o'z atrofingda o'zingga o'xshagan millionlarni ko'rning, to'g'rimi? – U Polyani o'zining yoniga o'tqizib qo'ydi. – Sen uyalma, tentak qiz, qorong'i dan qilinadigan hamladan qo'rqish odamzotga xos tabiatdir.

– Judayam unchalik emas... – dedi Polya tong qorong'isida Kremlni izlay turib. – Bilasanmi, avvaliga xuddi muzday suv ichida qolganday yarim hushsiz holatda edim, keyin esa tepamdag'i dushmanni ko'rdim va shuurimdag'i qo'rquv xuddi terim bilan qo'shib shilib olinganday to'kilib tushdi va ichinda nimadir alangalanganday bo'ldi, buni qanday aniqroq tushuntirsam ekan... butun ruhim yondi! – Uning qo'liga yaqindagi hayajonning qaltirog'i yana qaytib keldi. – Sen ko'rningimi, ko'rningmi *uning* biqinidagi teshik bilan qanday qochib qolganini? O'zini ustimizga tashlab portlatishga yuragi betlamadi. O'rgildim bu-naqa Ikardan... bizning Gastelloga teng kelishiga yo'l bo'lsin!

Varya qoniqish bilan bosh silkidi, u xuddi o'ziga vazifa qilib topshirilgan darsni tinglayotganday edi; keyin u dugonasining ilk muvaffaqiyatini mustahkamlash uchun «hech qanday ulkan g'alaba o'z ustingdan kichkina g'alaba qozonmaguningcha amalga oshmaydi», yoki «urushda o'zingga nisbatan qattiqqo'l bo'lish yoyga bo'lgan nafrating kabi muhiimdir», yokigim «qahramonlik xuddi qobiliyat

kabi maqsad tomon yo‘lni qisqartiradi» kabi o‘zi kashf etgan ayrim umumma’lum haqiqatlarni talaffuz etdi. Uning so‘zlariga ko‘ra o‘zini saqlab qolishday qo‘pol tuyg‘uni yengish uchun, ibtidoiy odamlar mamontga, zilzilaga yoki momaguldurakka va yashinga ro‘baro‘ kelganida bo‘lgani kabi, insonning irodasini bukib qo‘yadigan mavhumlik oldida tushib qolinadigan dastlabki o‘sallik holati kabi urush afsonasini yengib o‘tish lozim.

– Biz shundan kelib chiqib, qimmatli xulosa qilishimiz mumkinki, – saboq tarzida so‘zlaydi Varya va Loshkaryovdagi o‘n yillik maktab muallimasi Marfa Yegorovnaga to‘liq o‘xshashi uchun unga faqat ko‘zoynak yetishmayotgandi, xolos, – kurashlarda eng muhim jihat – dushmanni bor bo‘yi bilan ko‘rish, uning ham o‘ladigan mavjudot ekanini anglash. Shu bois ham frontda, albatta, urush ortidagidan ko‘ra yuz karra xatarliroq, ammo mening o‘ylashimcha, Blagoveshshenskdagi yerto‘ladagidan kamroq qo‘rqinchli... Xuddi shu tarzda odamlar vabo va o‘latni zarrabinning bo‘rtma oynasi orqa-li ko‘rib, ularni shisha idishga qamab qo‘ymaslaridan, ya’ni qo‘rquv nazariyasidan amaliy harakatlarga o‘tmaslaridan oldin, qarg‘ish qurolı deb tasavvur etardilar. Kapitalizm o‘latdan ko‘ra qo‘rqinchliroq emas, Polya, u ayyorroq, yashovchanroq, chunki u tanada emas, qalbda uya quradi... ammo unga ilm-fan ko‘zi bilan qarasang, uning kuchi qanchalik zaif ekanini ko‘rasan, u hatto sendan, kichkina, qurolsiz qizdan ham qo‘rqadi... sening konlaring yoki korxonalarining emas, eng avvalo ko‘zlariningdagi yoshlik shu’lasidan cho‘chiydi! Yoshlik hech qachon yovuzlik bilan murosa qilmaydi: u suvgaga ham, o‘tga ham o‘zini uraveradi... Mana nima uchun bu odamlar bolaslarni o‘ldirishyapti... va shu jumladan sengayam hamla qilishyapti, Polya. – U so‘zini tugatdi Polya bu so‘zlarni takrorlashni buyurishi ham hech gap emasdi.

– Varvara, sen buyuk ayolsan! – yarim daqiqalar o‘tib tilga kirdi Polya ko‘zları namli holatda va burnini kulgili tarzda burishtirib. – Modomiki yigirma ikki yoshingda miyangga shunday ajoyib fikrlar kelayotgan ekan, ellikka yetganingda nima bo‘larkin?

– Bilasanmi, jonginam... – yuzlari qizarib, uning so‘zini bo‘ldi Varya, – bu ahvolingda yaxshisi gapirmaganing ma’qul.

Ular tomda jarqaldirg‘ochlarning chirildoq hushtaklarini tinglab quyosh chiqqunicha o‘tirishdi. Tonggi nurlarning yetovidagi to‘siq

akrostatlar shahar atrofi sanoatining siyrak tutuniga burkandilar. Oltin shafaq nurlari tekkan binolarning nayzaday uchlari, minoralar, gumbazlarga asta-sekinlik bilan qizil rang ina boshladi. Hayot daryosi yana shovullab oqyapti va go'yoki yaqin atrofdagi yangi qurilishga o'rnatilgan ko'tarma kran mana-mana hozir harakat boshlaydiganday tuyuladi... Ammo Polyaning shodligi so'nib borgani sayin qaynoq uchqunlarning to's-to' polonda sezilmagan kuyuklar harorati bilaklarda kuchaya boshladi.

— Seni rosa qattiq hurmat qilaman, Varyajon, — Polya o'zining fikrlariga yana va yana qaytaverdi. — Dunyoda sen bilmaydigan hech narsa yo'q... To'rg'ay dashtiga qancha yog'in yog'adi, Amazonka ning irmoqlariga qanday jilg'alar kelib quyiladi: hammasini bilsan! Qani, o'zing tan ol-chi, biz judayam yaxshimiz, to'g'rimi? Bu o'zini maqtash emas, umuman undaymas, men yoki sen — yaxshimiz demayapman, hamma bilan birgalikda yaxshimiz, sen va men... eng oxirgi navbatda bo'lsayam mayli! Biz axir hech kim eplay olmagan ishni uhda etmoqchimiz, dunyoda hamma narsa oqilona va vijdonan bo'lishi kerak... buning uchun dunyoni qum zarrasiga qadar maydalab, elakdan o'tkazishga to'g'ri kelsa ham. Hech kim jur'at etolmadidi — emakladi, yig'ladi, tuproq chaynadi, lekin jur'at etmadidi, — biz esa bunga qaror qildik.

— Umuman olganda, azizam, biz faqat imkonni bo'lgan ishga qo'l uramiz. Odam... faqatgina qishda qalpoq kiygani yoki yakshanba kunlari kinoga qatnagani uchungina inson deb atalmaydi.

Polya to'xtovsiz gapivardi: birinchi g'alabaning mast qiluvchi nashidasi unga ta'sir etmoqda edi. U rostini tan olib qo'yaqoldi, kecha yer yuzidagi hamma gullarni yulib tashlagisi kelganini, hech kim, hech narsa quvonmasligini, yashnamasligini istaganini, chunki eng ajoyib insonlar halok bo'layotgan paytda bu ularga nisbatan haqorat bo'lishini o'yabdi.

Demak, bu uning bolalarcha zaifligi bo'lgan ekan: gullarni halok etish emas, aksincha, ularni tanklardan, begona etiklardan, o'tpurkarlardan tanang bilan himoya qilishing kerak ekan — hayotning nozik gulbargchalarini... U gapini yarmiga yetmay to'xtatdi, uning burnini kutilmagan xushbo'ylik shabadasi qitiqladi. Birdan u yana yo'qoldi va Polya tashna burni bilan uni tark etilgan baxtsizlikning sovuq, totli havosida iskab izladi.

– Bu qanday yaxshi hid?
– Bu jo‘ka daraxti... Oxirgi gullari ko‘z ochyapti, – tushuntirdi Varya. – O‘zing gullarni gapirasan-u, ammo ularni ko‘rmaysan. Urushda hamma narsa yashashdan to‘xtaydi deb o‘ylaysanmi? Aksincha, hayot davom etyapti, Polya. Bo‘pti, yur, uxlaymiz!

– Shoshma, Varyajon, u bilan salomlashib olay...

Ular boshlarini baland ko‘tarib, qo‘llarini tushirganlaricha, ko‘tarilib kelayotgan nihoyatda xotirjam, tunning qora motam pardasi orasidan chiqib kelayotgan quyoshga minnatdorlik bilan boqdilar.

3

Bularning barchasi yaqinlashib kelayotgan sog‘lomlashishning aldamchi alomatlari edi, xolos. Erta tongda Polyani sezilarli darajada shishib qolgan qo‘lining kuydirib achishishi uyg‘otib yubordi; u bilakni suyak-suyagigacha og‘ritadi, yelkalarini zirqiratadi, ammo o‘sha, asosiy azobni bo‘g‘ish uchun bu qiynoqlar kifoya qilmaydi. Polyaga yo‘lakdagি Natalya Sergeyevnaning ovozi eshitildi va birma-bir uza tilgan bo‘g‘inlar halqasi orqali otasi haqidagi unutila boshlagan xayollar yana uning ongiga kengaygan hajmda qaytib keldi. Zehn ochilishining azobli ravshanligi yuzaga chiqdi va uni kechagina tinchlantirgan tafsilotlar Polyaning oldida endi yangi talqinda namoyon bo‘ldi: Vixrov xonadonining nochor sharoiti va uzoq yillik ayriliqlardan so‘ng anavi... ismi nimaydi o‘zi? – Ha-ya, Taiskaning mehribonliklari. Yovuzlik bizlarning hozirgi kunimizda niqobsiz yurmaydi... va modomiki bu odam har oyda beriladigan yigirma besh so‘mga qachonlardir vijdonini sotishga qodir bo‘lgan ekan, hozir xalqning e‘tibori boshqa narsalarga qaratilgan urushning to‘s-to‘polonida u qanday tubanliklarga qadam qo‘ydi ekan?

Vaqt hali erta bo‘lishiga qaramasdan, Varya uuda yo‘q edi. Gaz deyarli yonmayapti, tamaddi qilgisi kelmadi, kirish imtihonlari bo‘yicha mashg‘ulotlar kallasiga kirmadi. Qo‘lini ro‘mol bilan o‘rab, Polya tavakkaliga Blagoveshshensk berk ko‘chasidan chiqdi. Biror aniq maqsadi yo‘q, belkurakda hozircha ishlay olmaydi; dori sifatida o‘zi kelgan birinchi kundagi yo‘ldan yurdi, ammo sevimli ko‘chasi bo‘ylab sayr ruhiga yengillik bag‘ishlamadi. U yerda endi xushchaqchaq odamlar ham, noyob tovarlar ham yo‘q. Bir joyda tishlaridagi zirillagan qaqshash uni karaxtlikdan chiqardi, – do‘kon oynasidan

nikellangan jarrohlik asboblarini tomosha qilib turgan ekan. Rodion haqidagi o'ylardan uning butun vujudi junjikdi. U yog'iga boshi egilgan holda ketdi va butun yo'l bo'yi esida qolgani – kelayotganida yo'lka chetida turgan portlash o'mnidagi o'rani qaytgunicha ko'mib qo'yishibdi.

Moskva odadagiday tonggi kun jadvali asosida yashamoqda. Do'konga iliq non tushirishyapti, farrosh ayollar ko'chalarni supurishyapti... va ayni paytda tunda urib tushirilgan uchoqni yuk mashinga ortib olib ketishyapti va go'zal qomatli qizlar ko'p oyoqli hasharotga o'xshagan uzun yashil balloonni ko'tarib borishyapti. Polya o'zini biror yumush bilan band qilish uchun hovlilarga natijasiz kirib chiqyapti: birida suv o'tkazish qudug'iga tushgan bombani chiqarib olishyapti, boshqa hovlida esa ko'ngilli bir cholni o'tqazib qo'yib, jarohatlarni bog'lashni uning yelkasida mashq qilishyapti, qariya qalpog'ini qiyalatib kiyib olgan, qitig'i kelib tipirchilaydi. Polya ba'zan eski e'londari olib tashlanmagan ko'cha peshtaxtalari oldida to'xtab qoladi, e'londardan birini o'qiy turib, yaqindagina Volga bo'ylab o'n bir kunlik sayohatga chiqish imkoniyati bo'lganini ko'rib hayratlandi, endi esa Vixrov fosh etilganidan keyingi ma'naviy hayot kechirish usullari haqida o'ylashga majbur bo'lyapti: shu bilan birga har safar *qarindosh* degan so'z *sheriklik* degan tushunchaga ma'nodosh bo'lib qoldi. Yo'q, u falokatlardan va jazodan emas, balki nomusdan va yolg'izlikdan qo'rqtyapti. To'satdan uning tasavvurida Rodion qiyofasidagi askar shundoq yonginasida turgani namoyon bo'ldi. U istehzoli kulgi bilan Polyaning qo'liga qaraydi va ataylab kuydirilmagan, og'rib turgan jarohatni o'z jinoyatini xaspo'shlash uchun uyushirilgan niqob deb hisoblaydi.

«Sen ham menga ishonmayapsanmi?» – so'radi u Rodiondan ayanchli iljayish bilan.

«Men hech narsani bilmayman. Men olisdaman, buni tekshirishga vaqtim yo'q. Biz o't ochish marrasiga emaklab chiqyapmiz. Ular ko'rina boshlashdi, bittasi men tomonga yugurib kelyapti. Men hozir sendan ko'ra unga yaqinroqman. Hozir ikkimizdan birimiz o'lamiz».

Rostdan ham u tashvishli ko'rinati, quyoshda toblanib chayirlashgan, ozib ketgan. Uning yonidan kulrang daryo oqimlari shoshib o'tmoqda.

Bir militisioner Polyaning yoniga kelib, ko‘prik ustida uzoq vaqt turib qolish mumkin emasligini aytdi. O‘zini qizning pasport daftarchasini ko‘zdan kechirayotgan qilib ko‘rsatardi-yu, aslida esa Polyaning yuziga sinchkov tikilardi. Xayriyatki, u Vixrovning faoliyatlarini haqida hozircha hech narsa eshitmagan ekan!.. Ongsiz bir intilish bilan Polya osiyocha to‘qqiz qalpoqli Vasiliy tomonga ko‘tarildi va kreml devorlari bo‘ylab yurib ketdi. Mavzoley yopiq ekan. Polya uning yonidan ikki marta o‘tib ketdi, chunki sayqallangan marmar devor ortida yotgan odamga o‘zi haqidagi hamma narsani bir martada so‘zlab berishga ulgurmadi. Polyaning butun tazarrunomasi tarjimayi holini va maktab shahodatnomasidagi hamma baholari ro‘yxatini ham qo‘shganda bir yarim o‘tish vaqtiga sig‘di. Lenin qo‘shinlarimiz Smolenskni va Kiyevni tashlab chiqqan shunday qaltis paytda vaqtini shaxsiy tashvishlarga sarflash yaxshi emasligini aytdi. U shuningdek aytdiki, sovet kishisining kayfiyati unga nisbatan odamlarning, hatto ular mashhur kishilar bo‘lsalar ham, munosabatlaridangina emas, balki sotsializmning o‘lmas ishiga sen qo‘sghan shaxsiy mehnating hajmini anglashdan ham iborat bo‘lishi kerak. Qiz daryo bo‘yiga tushib borayotganida esa, ortidan qo‘shimcha qilib, unga ishonishini aytdi, agar noto‘g‘ri eshitmagan bo‘lsa, Polyani *qizim* dedi, shekilli. Lekin Polya bilan so‘zlashayotganida butun tiriklik daryosi to‘xtab qoldi – qizning yuragi ham, qo‘lidagi olov azobi ham. Bu suhbat kun bo‘yi davom etdi. Blagoveshshensk berk ko‘chasiga sudralib yetib kelgunicha ko‘m-ko‘k bulutlar shaharga oqib keldi. Yomg‘ir oldidan zog‘chalarining chirqillashidan ko‘ra bolalarning o‘z *barkashnonlari* aytishlari balandroq eshitiladi. Sakkizta qavat Polyaga o‘n sak-kiz qavatday bo‘lib tuyuldi: liftchi ayol yaqindagina vatanparvarlik tuyg‘usi amri bilan korxonada ishlashga ketibdi... Osmon qoraydi, ikki kunlik issiqlik yengillashish hissi bilan almashindi. Varya yomg‘ir boshlanishidan bir daqiqagini avvalroq yetib keldi.

Varyanining dashmanga bergen qaytimi uning front oldi marralariiga jo‘nash muddatini ikki kunga tezlashtirgani ma’lum bo‘ldi. «Agar senga shunchalik muhim bo‘lsa, Polyajon, biz bilan borishing mumkin... Menimcha uzoq muddatga emas. Imtihonlaringga tayyorlanishingga naq bir hafta vaqting ham bo‘ladi». Ufqda momagulduraksiz chaqmoq chaqnadi va shahar ustida jimatlikning ko‘kish sovuqligi muallaq qotdi. Yuguraverib terlab ketganidan biroz taftini qayta-

rish uchun ayvonga chiqqan Varyaning ko‘ylagini shamol hilpirata boshladi. O, qaniydi u hozir Yengada bo‘lib qolsa, qo‘liga eshkakni olib, oppoq ko‘piklarning o‘rkachlari shiddatlanayotgan sunda qayiq sursa! Umuman olganda, Varyaning salomatligi va shaharda yanada mustahkamlangan iroda kuchi faollahganida havoning ra’yi aynib turgan damlarda u biroz chiroyliroq va qomatliroq bo‘lib qolganday tuyuladi kishiga, Polya esa alam bilan, mana shu xunukkina qiz uning o‘zidan ko‘ra qanchalar aqlliroy, sofroq va odamlarga kerakliroy ekanini o‘ylab qoldi.

Hujum hali boshlanmadı. Qayerlardadir qorong‘ilashgan osmonda momaguldurak nolish bilan bo‘g‘iq gumburladi. Bolalar yana qichqiriqlar bilan yomg‘irni chaqira boshlashdi.

— Yoqimtoylar, jon kuydirib harakat qilishyapti!.. — dedi Varya, pastdagi bolalarning baqiriqlariga xuddi musiqa tinglayotganday qu-loq tutib. — Bamisoli urushni haydab yuborishga intilishayotganday. Xudoyim, odamlar qanchalik yaxshi yashashlari mumkin edi-ya! — va alam bilan bosh chayqadi.

Polya qo‘llari qaltiragan holda dasturxon yozyapti, Varyaning sevimli dastali piyolasi bexosdan uning bog‘langan kaftidan tushib ketdi. Bu uning oilaviy qadriyati edi, Pavel Arefyichga fuqarolar urushida birgalikda jang qilgani uchun dulevlik ustalarining esdalik sovg‘asi. Uning alohida bir chiroyi yo‘q edi — oppoq chinniga bitilgan qat‘iy bir yozuv: kulbalarga tinchlik, saroylarga urush. Jaranglagan ovozga o‘girilgan Varya, yerda ko‘zni qamashtiruvchi oppoq siniqlarni ko‘rdi, Polinaning yuzlari vahimadan qizargan yuzlafi deyarli qora tus olgan. Shu kunlarda to‘plangan barcha zaxira tashqariga otildi. Butun Moskva bo‘ylab bir vaqtning o‘zida jala boshlandi. U tomlar bo‘ylab shovullab yuguradi, tuman va sachrama bo‘lib o‘zini xonaga uradi, hatto Polinaning yostig‘i ham namiqib ketdi. Varya dugonasi ni tinchlantirishga behuda urinardi. Qora bulut Blagoveshshensk tor ko‘chasi ustida turib qoldi. Shu kichkina vujudda shuncha umidsizlik qanday joylasha olganiga aql bovar qilmaydi. Jala dimiqqan havoni ikkita qudratli hamla bilan yuvib ketgach, Moskva bo‘ylab tog‘lardagi kabi musaffolik yoyildi.

Ko‘zlaridagi yoshlari hali to‘xtamagan Polya, qadam-baqadam o‘zining sirini so‘zlab berdi, Varya esa bosh silkib, uning yarasini bog‘layapti: bu ikki jarohatdan qay biri hayot uchun xavfiroq eka-

ni noma'lum. Polya qanday qilib asta-sekinlik bilan otasidan ayrilib borgani haqidagi qayg'uli qissa yuzaga chiqdi. – Pashutindagi xujrada ilk bor qo'lida Gratsianskiyning maqolasi bilan o'z musibati uchun ko'z yosh to'kkan kechadan boshlab, toki, hatto maktab daf'tarlarida otasining nasabini tushunarsiz dastxatda yozish va undagi urg'uni birinchi bo'g'inga o'tkazish odatiga aylanib qolgan himoyalanish ko'nikmasi yuzaga kelganiga qadar. Gratsianskiyning frontdan ko'ngilsiz ma'lumotlar kelib turgan paytda ayniqsa yovuzlashib ketgan shilimshiq, mavhumlikka qorishtirilgan siyosiy ayblovlaridan ko'ra, otasining butkul qobiliyatsiz kimsa ekaniga, hatto o'zining etimligiga ko'nikishi osonroq kechgan bo'lardi.

– Menga bir odamning aytishicha, tergovchilikka loyiq ekanmishman. To'g'ri aytdi: men endi hammasini bilaman. Meni eshitsang-chi axir, Varya!

Yerto'ladiagi suhbat Polyaning shubha-gumonlari tizimidagi ko'plab yetishmayotgan bo'g'inlarni oydinlashtirib berdi. Shubha yo'qliki, Gratsianskiy Vixrov haqida o'sha safar notanish qizning oldida o'zining bilganlari bilan maqtanish va uning hurmatini qozonishga bo'lgan keksalarcha ehtiyojini qondirish uchun valaqlab qo'yganlaridan ko'ra ancha ko'proq narsani biladi. Shubhasiz, uning onasiga, Yelena Ivanovnaga, modomiki qizini ehtimoldagi fosh etuvchi janjaldan oldinroq Yengaga olib ketgan ekan, demak erining o'tmishi ma'lum bo'lgan.

U jamoat bilan munosabatda doim qaysarlarcha rostgo'y bo'lib kelgani holda chamasi ancha fikr-mulohazalardan keyin tasodifan aniqlangan ayrim dalillarni yashirishga qaror qildi. Modomiki, Gratsianskiy shaxsan o'zining sha'niga soya tushirib qo'ymaslik uchun sobiq oshnasini ozgina bo'lsa-da oqlashga har doim harakat qilib yurar ekan, o'z farzandining najotkor xabarsizligini ta'minlashga intilayotgan ayolning zaif mantiqini tushunish qiyin emas. Har daqiqada sirlilik ortib borardi, va mana, girdob o'rasiga tortilganday, bu narsaga onasi ham aralashib turibdi!..

O'rmonchilik ishlarida bilimi bo'lmagani bois Polya otasining ayblarini mustaqil tahlil qilishga qobil emasdi; albatta, u shaxsan o'zi qarag'ay o'rmonlariga o't qo'ymagan sovet yog'ochsozlik korxonalarini portlatmagan, aks holda buning oqibatida sodir bo'ladigan hayratlanarli o'zgarishlar darhol ko'zga tashlangan bo'lardi, lekin

shu asnoda, modomiki ko‘p yillik zararli faoliyatiga qaramasdan, professorlik maqomida qolishga muvaffaq bo‘lgan ekan, demak bu sohada benazir artist ekan. Polyaning fikriga ko‘ra, bu ish jamoatchilikning tezkor aralashuvini talab etadi.

– Tushun, Varya, men yaqinda tublikka cho‘kaman... bo‘ynimga tosh bog‘langan holimda, – ming‘irladi u hiqillay turib. – Chora bitta: men tuman qo‘mitasiga borishim kerak, ammo qo‘limda otamga qarshi hech qanday dalil-isbot yo‘q va u yerda hech kimni tanimayman ham. Ikkovimiz birgalikda boraylik, hoziroq, biz shundoq ham ancha kunlarni o‘tkazib yubordik, to‘g‘rimi?

– Sening isitmang bor, Polya, bu kuyishning oqibati, shekilli. Yarangni shifokorga ko‘rsatish kerak. Yoshlar tashkilotiga ertaga borish ham mumkin.

Polya ifodali harakat bilan Varyaning gapni boshqa yoqqa aylan-tirib yuborishga urinishiga munosabatini namoyish qildi.

– Senga yaxshi: sen Chernetsovasan!.. sen o‘zingni mening o‘rnimga qo‘yib ko‘r, Vixrovaning o‘rniga. Mana biz o‘tiribmiz va tasavvur qil, o‘q teshib o‘tgan shineldagi askar kirib keladi va menga hech narsa qilmaydi – yomonlik ham, azob ham, faqatgina ko‘zi qisilib, sening emas, mening ko‘zimga tikiladi... unda nima bo‘ladi, a? – va olovli nigoh bilan xijolatdagi, shubhaga tushgan Varyaga qaradi.

– Axir men faqatgina, *u yoqqa* ertaga borsang ham bo‘ladi, dedim, xolos, – javob qildi Varya va hech qachon uning yuzi bunchalik tashvishli ko‘rinmagandi. – Lekin sen u yerda nimani aytmoqchisan? Senda hech qanday aniq ma‘lumot yo‘q, hayot esa har qanday taxminlardan ko‘ra murakkabroq tuzum topadi. Masalan, men bu yerga qaytishimda, uyda qanday sharoitga duch kelishimni oldindan aniq bilganim holda... mana bu dastali piyolamning sinishini xayolimga ham keltirmagan edim. Men o‘sha yerto‘lada orttirgan tanishingni mutlaqo ayblamoqchi emasman... agar u yovuzligi boisidan yoki hasad tufayli Vixrovga ataylab tuhmat qilgan bo‘lsa va xavfsizlik nuqtayi nazaridan bu holatga tashvishlangan do‘sning achinishi xususiyatini bergen bo‘lsa-chi, unda nima bo‘ladi? Tuhmatning xuddi farishtalarcha aybsiz qiyofada talaffuz etiladigan, ko‘zga unchalik tashlanmaydigan shunday bir turi bor, – go‘yoki bu juda imchribon va uyatchan o‘rtoq, ammo o‘quvchilarni turli iflosliklarga o‘rgatish odati bor. Keyin bu nusxa uyiga qaytib keladi, kolbasasini g‘ajiydi

va xuddi birovning qabri tepasiga daraxt ekib kelganday yoqimli bir xayol bilan uqlashga yotadi... bu ko'chat tobora o'sib boradi, rivojlanadi, to'kin-mo'l hosil beradi.. Sening ota-onang ajrashib ketganlari masalasida esa buning boshqa sabablari ham bo'lishi mumkin. Agar to'g'ri eslab qolgan bo'lsam, sening dadang dehqonlardan chiqqan, onang esa... chamasi aslzodalardan, shundaymi?

– Uzoq qarindosh... – o'zi uchun hech bo'lmasa onasini saqlab qolishga intilib, o'zini o'zi chuqurlikka itarganicha o'rinsiz javob qildi Polya.

– Bunisi muhim emas! Ular har xil sharoitlarda tarbiya topganlari boisidan bizning davrimizning ayrim hodisalariga nisbatan turlicha qarashlari tufayli ajrashgan bo'lishlari mumkin. Mana, sening ikkinchi inshooting ham qumdan qurilgan bo'lib chiqdi, o'rtoq me'mor! Sening yerto'lalik suhbatdoshingning tanqidi qanchalik asosli ekanini aniqlash qoldi, xolos... Uning nasabini nuqul unutib qo'yaveraman. Boshqa tarafdan, bizning har qanday amalimiz jamoaning fikri bilan sinaladi, chunki uning evaziga biz boshqalar tomonidan tayyorlangan non yoki poyabzalni olamiz. Shu vajhdan ham jamoatchilik beradigan bahoning keskinligi bajargan ishimizning kamchiliklariga mutanosib bo'ladi. Buni tahlil qilib olish kerak... dadangning ijod mahsullarini sen o'zing o'qiganmisan?

– Harakat qilib ko'rdim... lekin buning uhdasidan chiqolmayapman. – Polyaning ko'zlarida kutilmagan umid uchquni chaqnadi. – Varyajon, sen geografsan-ku, axir, u esa o'rmon haqida yozadi: sen buni hal etishing osonroq bo'ladi. Bundan tashqari, sen dunyoda hammadan ko'ra sabrliroqsan... Iltimos, uning yozganlarini o'qib ko'rgin, so'ng menga yagona muhim haqiqatni aytasan, bo'ptimi? – Shu zahotiyog komsomol qasamini ichib, umrining oxirgi kunigacha undan hech qachon, hech narsani boshqa iltimos qilmaslikka va'da berdi.

– Nimayam derdim, men tayyorman, – Varyanining rozi bo'lishi biroz cho'zildi. – Ammo o'sha kitoblarni endi qayoqdan topamiz?

– O, men seni kutubxonalarga yugurishga majbur qilarmidim! Menda hammasi bor... deyarli hammasi!

Dugonasining o'ylab olishiga imkon bermasdan, katning tagidan jomadonini oldi: uning yuki nima uchun juda og'ir ekani shu tarzda o'zining izohini topdi. Kitoblar kundalik buyumlarning orasiga joylangan edi: o'n ikkitadan kam emas, mato muqovali hamda vahimali

dara jada hajmdor. To‘g‘ri, ularning orasida risolalar ham uchrab qol-yapti, hatto jurnallarda chop etilgan maqolalarning devorqog‘ozdan muqova qilib jildlangan qirqmalari ham. Zalvorli yukdan qutulish uchun Polya ko‘p kilogramli bu o‘rmon donishmandligi mahsullarini yerga, dugonasining oyoqlari tagiga tashlab qo‘ydi va tinmay uning yuz ifodasini kuzatib turdi.

– Ha, nimaga jimib qolding? – u tizzalab o‘tirganicha aybdorlik ohangida so‘radi.

– Yo‘q, senga va’da bergenimday bularni, albatta, o‘qib chiqaman... mavridi bilan, – Varyaning ovozida endi ishonchsizlik asari bor edi. – Ammo ijodkoring rosayla sermahsul ekan... Hammasi nechta o‘zi?

– Faqatgina ikkitasi etishmayapti. Bilasanmi, sen yaxshisi hozirdanoq bularni o‘qishga kirishaver, men tez orada yetishmayotganlarini ham yetkazib beraman. Sen yupqalaridan boshlayver, bir kirishib ketganingdan keyin uyog‘i ancha oson bo‘ladi, mening o‘zimdan qiyos.

Xullas, hammasi ko‘ngildagiday yechim topdi: Polyaning chehrasida samimi quvonch balqiydi, uning umidlari hakamningadolatda sobit ekaniga shubhasiz bir ishonch bilan mustahkamlandi. Vixrovning butun hayoti ularning oyoqlari ostida sochilib yotibdi, uning orzulari va adashuvlari, mehri va g‘azabining dalolatlari va eng avvalo – Kalinaga bergan o‘g‘il bolalarcha va’dasining ijrosi sifatida hech qanday haq olmasdan bajarilgan qora mehnati. Bu yerda o‘rmonchilik fanlariga kirish so‘zları, shuningdek, o‘rmonni geografik hodisa, tovar, tirik mavjudot, iqlim qaror topishining omili, xalq xo‘jaligining xomashyo negizi sifatida anglash asoslari bayon etilgan; ammo o‘zining asosiy ishlarini Vixrov hali oldinda deb bilar edi. Eng yuqorida turgan eng og‘ir vaznli asari – *Rus o‘rmonining qismati*. Varya uni qo‘liga olib, oxirgi sahifasiga qaradi – yetti yuz nechadir betdan iborat ekan. Kitobning deyarli butun hajmi *petit o‘lchamli* mayda harflarda terilgan o‘nlik kasrlar ustunlari, jadvallar, Rossiyaning salkam Oleg davriga borib taqaladigan xaritalaridan tarkib topgandi. Bunaqangi ilmiy ishni o‘qib chiqish uchun nafaqat maxsus bilimlar hamda sabr ila toqat, bunga qo‘shimcha ravishda muhabbat yoki nafrat shiddati ham talab qilinardi.

Varya ikkilanib qoldi: to'satdan uning kallasiga kelib qolgan fikr shu bo'ldiki, Vixrovning raqiblarining vajlari bilan tanishmasdan turib mukammal xulosaga kelish mumkin emas, shu bilan barobar Rossiyaning turli tarixiy davrlaridagi davlat o'rmonchilik amaliyotini o'rganishga to'g'ri keladi, bunga esa kamida yarim yil vaqt kerak.

– Bilasanmi, men bularni jonim bilan o'qib chiqqan bo'lardim, Polyajon, ammo bunga shubham bor... jo'nab ketgunimcha ulgurarmikanman? – U o'zini o'rmonshunoslik ishlari bo'yicha hakam si-fatida tasavvur qilib, to'satdan kulib yubordi. – Yaxshisi bularning hammasini o'z joyiga qaytar... ertaga haqiqatni boshqa yo'l bilan aniqlashga urinib ko'raman.

– Lekin urush boryapti, axir, balki hozir ayni daqiqalarda... – umidsizlik bilan so'zida turib oldi Polya.

– Hammasini o'z zimmamga olaman. Sen ertalabdan shifokorga borasan. Keyin vaqtingni bekor o'tkazmasdan algebra bilan shug'ullan. ertaga tushlikka meni kutma. – U ma'yuslanib qolgan dugonasining dahanini yuqoriga ko'tardi va jilmayishga majbur etdi.

Shahar manzarasi yomg'irdan keyingi yengil tumanda chapashib ko'rinadi; xuddi shu singari Polyaning qayg'usi ham Varyaning onalarcha erkalashlaridan erib bormoqda. Tun havo hujumi xabarisiz o'tdi, xayriyatki, tong ham bulutli boshlandi. Shifokor ayol Polyani yondiruvchi bomba bilan ehtiyoitsiz munosabatda bo'lgani uchun ko'yib berdi. Chala davoning yoqimli bo'shlig'i kun bo'yi davom etdi. Varya rosa tushlik paytiga yetib keldi – quvnoq, sirli, och-nahor.

– Menga shunaqangi tikilib qarayapsanki, sendan ozgina qo'rqa boshladim, – o'zini majburlab hazil qilgan bo'ldi Polya.

– Bu bekorga emas, ehtiyingning qil. Seni bir yamlashda yutib yuborishim mumkin. Biror narsa pishirdingmi, manglayi sho'r qiz?

– Har ehtimolga qarshi ikki kishilik tushlik tayyorladim. – Varyaning *tinchiligi* natijalari haqida so'rashga jur'at etolmadi. – Uyalsang bo'lardi: men seni shunchalik sevsam-da, sen esa meni yemoqchi bo'lyapsan...

– Biri ikkinchisiga xalaqit bermaydi. Bir kuni mening yonimda, Natalya Sergeyevna nabirasini uxlatishga yotqizaturib, unga bolalarini sevadigan yalmog'iz haqida so'zlab bergenini eshitgandim, o'sha devxotin har tun ikkita go'dakni jig'ildoniga joylamasdan uxlamas ekan...

– Menimcha bu ishi tarbiyaga to‘g‘ri kelmaydi – bolalarning ongiga shunday cho‘pchaklarni singdirish... – Polya yana to‘g‘ridan to‘g‘ri savol berishga botinmadi. – Olamda nima gaplar?

Varya sumkasidan ikkita pushtirang chipta oldi.

– Ushla, bugun bizning bayramimiz. Tarqalgan qat’iy ovozalariga qaraganda, Berlinda qandaydir zonderfyurer o‘z efreytoriga qarshi isyon ko‘targan mish... Bular kinoga chipta, to‘g‘ri juda unchalik yaxshi emas, evaziga yoshlarimizning taniqli vakillari bilan yonmayon o‘tirasan va cho‘p qoshiqda ajoyib muzqaymoq yeysan... Qani, ko‘ray-chi, bu axir rosmana so‘k bo‘tqa-ku? Polya, juda nozik ta’bli pazanda bo‘lib boryapsan...

– Faqat kechirasan, yog‘imiz tugabdi.

– Tugallangan pazandalik ma’lumotiga ega emasliging shundan ham ko‘rinib turibdi. Kim tariqnini moy bilan yeydi!

U taqsimchadagi qaynoq bug‘ni rohatlanib hidladi va eng asosiy narsani surishtirishdan o‘zini tiyib turgan Polyaning sabr-toqatiga ich-ichidan maqtov yog‘dirdi.

Tushlikdan so‘ng uning o‘zi Vixrov haqidagi haqiqatni izlash bo‘yicha qo‘llagan tadbirlarini so‘zlab berdi. Kasallikka to‘g‘ri tashhis qo‘yish uchun birinchi navbatda bemorni tinglash lozim degan fikr kechayoq xayoliga kelib qoldi. Shu maqsadda u O‘rmon xo‘jaligi institutiga yo‘l oldi va qahramonlarcha, ikki soat sabr qilib Polyaning dadasini qizil burchakda o‘tirib kutdi. Bino atrofida jonlanish hukmron edi, odatga ko‘ra yilning shu pallasida talabalarning qurultoyi bo‘lib o‘tadi. Farrosh ayol Varyaga xabar qilishicha, yuqoridagi katta mashg‘ulotlar xonasida umumiyligi partiya majlisi o‘ryapti, unda professor Vixrovni firqaga qabul qilishyapti; bulavrni aytarkan kampir uni o‘ziga yaqin olib Matveich deb atadi. «Xullas, Polya, muvafqaqiyatli yakun bilan tabriklayman, sendan gul qarzdorman... birinchi stipendiyamdan!» Tez orada Varya uning o‘zi bilan ham tanishdi: Vixrov zinapoyadan oqsoqlanib, xuddi pog‘onalarni sanayotganday qo‘lini silkitib tushib kelardi. Suhbatni bog‘lab olish uchun Varya o‘zining tutingan singlisi ularning institutlariga o‘qishga kirmoqchi ekanini, ammo u avval o‘rmonshunoslik fani bilan tanishmoqchi bo‘lganini, to‘g‘rirog‘i, o‘zi hovliqib qolib aytganiday, soha havosidan nafas olish niyatida ekanini aytди.

– Men me'morlikka kiryapman-ku, axir... Varyajon, uni aldabsan, shunchalik ham uyatsiz bo'lasanmi!

– Birinchidan, sening yoshingda mutaxassislikni tanlashni yaku-niy qaror deb bo'lmaydi va bundan tashqari... sen endi tutingan sing-lim emasmisan?

– Bo'pti... u nima dedi?

Bo'lg'usi tolibaning o'zi kelishga eringani uchun achchiqlanga-nini namoyon qilibdi. «Bizning ixtisosimizdagi o'rmonchi, – debdi u, – hisob amalini miyada bajarish, yodda saqlab qolish, taqqos-lash... va eng avvalo yurish, oyoqlarni ayamasdan tinimsiz odim-lash». U istehzo bilan gap orasida Varyadan uning homiyligidagi oyimqizni o'rmonning aynan nimasi qiziqtirishini so'rabdi – gullar, qo'ziqorinlar, marvaridgul yoki o'tinning o'zi xolosmi; oxirgi so'zni u ochiq-oydin g'ijinish ohangi bilan aytibdi. Varya singlisining tanlo-vini vorislik qiziqishi bilan izohlabdi, chunki uning otasi eski o'rmon xizmatchilaridan hisoblanarkan.

– Ko'rib turganingday, men haqiqat chegaralaridan chiqmaslikka harakat qildim.

– Keyin-chi... uning javobi qanday bo'ldi?

– Keyin u mutlaqo adolatli tarzda fikr bildirib, modomiki, o'rmon xizmatchisi o'z qizining ongiga o'zining kasbiga nisbatan olivjanob tasavvurni singdira olmagan ekan, demak u odam daholardan emas ekan, dedi.

– Qoyilmaqom, o'zini o'zi boplab qo'yibdi... Sen nima deding?

– Men, qiz o'z otasining xatolarini to'g'rilib ketishiga umid bilsirdim.

– Voy, Varyajon, hatto boshim aylanib ketyapti-yey... U nima dedi?

– Kulib yubordi va uch haftalardan keyin bo'ladigan kirish ma'ruzasiga taklif qildi... Seni bolalar aravachasiga solib bo'lsa ham olib borishimni tayinladi, so'zma-so'z shunaqa dedi... O'sha payt-gacha esa biz mudofaa lahimchalarini kovlashdan qaytib kelgan bo'lamiz. – Idorada Varya shuni aniqlabdiki, Vixrov o'zining tur-kum ma'ruzalarini faqat uchinchi o'quv bosqichidan boshlab o'tar ekan, ammo kirish nutqini, ko'p yillik an'anaga binoan, unga top-shirisharkan va emishki, hatto turdosh kafedralarning professorlari ham o'rmonlarning ushbu himoyachisining shohona ijrosini tinglash

uchun to‘planar ekanlar. – Taxmin qilish mumkinki, g‘o‘r yoshlar bilan birinchi suhbatida ularning tillarida so‘zlaydi, mayda harflarda yozilgan olti ming sahifani o‘zing o‘zlashtirganidan ko‘ra, bir-ikki soat vaqtingni o‘shanga sarflaganing foydaliroq.

Polya shunday ham chaynab tashlangan tirnoqlarini asabiy tarzda yana g‘ajiy boshladi, shunda Varya uning qo‘lini pastga tushirib qo‘ydi.

– Aytgin-chi, Varyajon... u odam hech bo‘lmasa muomalada yoqimliroqmi?

– Odamlarni shu jihatiga ko‘ra navlarga ajratmasligingni maslahat beraman, jonim. Bu narsa katta xatolarga olib kelishi mumkin.

– U hech bo‘lmasa qattiq hayajonlangandir... shunday vaqtda uni firqaga qabul qilishgani uchun?

– Yo‘q, bunaqa narsani sezganim yo‘q.

Varyaning xotirasiga muhrlangani uning bir tutam qora qoshlarri, yuzining sarg‘ish rangi, yoqimsiz so‘zлarni talaffuz etishga moslashib olgan katta og‘zining tepasidagi tatarcha urfda qaychilangan mo‘ylovi, – oqsoqlik, harakatlarining beso‘naqayligi, peshanasiga tushib turgan sochlari unga odamovi hamda muhtojlik changalida qolib ketgan hunarmand qiyofasini berardi. Afsuski, Varyaga bularning hammasi niqob bo‘lib tuyuldi...

– Nima? Hozirgina nima deding? – tipirchilab qoldi Polya.

– Aytyapmanki, o‘sha niqobning ostida samimiy oqko‘ngillik va hatto haddan ortiq yumshoqlik yashiringan.

– U holda nima uchun «afsuski» deding?

– Yovuz odamlarni sevganimdan emas... yuvoshlarni yoqtirmaganidan. Har qanday mehribonlik va royishlik o‘zaro kechirimlilikni yuzaga keltiradi, bizga esa boshqalarning qattiqqo‘lligiga munosib javob qaytara oladigan talabchanlar va g‘ururlilar kerak. Shu bois u menga xayrlashayotgan paytimizdagidan ko‘ra tanishgan paytimizda ko‘proq yoqqandi. Har holda, sen o‘z shubha-gumonlarining shosh-qaloqlik qilganing uchun qay darajada aybdor ekaningni o‘sha va‘da qilingan ma’ruza ko‘rsatadi. – U tez orada hujum boshlanishidan xabar berib turgan ochiq osmonga birrov ko‘z tashlab qo‘ydi. – Obbo, havo ayniyapti, chiptalarimiz bekor ketmasa edi...

Xuddi shunday bo‘lib chiqdi ham, kinoga borish nasib qilmadi... Havo hujumini ancha erta e’lon qilishdi va urush harakatlari bosh-

langanidan beri hech qachon shaharga hali bunchalik ko‘p dushman uchoqlari yorib kirmagan edi. Osmondan shunchalik ko‘p olov tashlandiki, yovning rejasiga ko‘ra. Moskva allaqachon bir hovuch kulga aylanishi lozim edi, ammo bu safar ham el qarshiligining yupqa pardasini kuydirib o‘tishga bular kamlik qildi. Ammo qizlarning o‘sha kech ancha ko‘p ishlashlariga to‘g‘ri keldi va Polya jasoratning takroriy sinoviga a‘lo darajada bardosh berdi.

Shu safar ularning yonma-yon turishlariga to‘g‘ri kelib qoldi.

– Dunyoda yashash qanday yaxshi, Varyaginam!.. – qichqiradi Polya qisqa tanaffuslarda, tutab turgan yenglaridagi uchqunlarni urib tushirar ekan, u Moskvaga endi kirib kelgan paytida trolleybusda bo‘lgani kabi, hozirgi hayajoni ham ko‘ngilli navbatchilarining tabassumlariga sabab bo‘ldi. – Men baxtiqarogina esa, hatto yorug‘ dunyoga kelganim uchun ham tavba-tazaru qilib o‘tribman-a.

Varya esa o‘z ishini jimgina bajarmoqda, Polya uzil-kesil sog‘ayganining quvonchini qanchalik kuchliroq namoyon etsa, Varya aybdorlik hissidan dugonasining oldida shunchalik ko‘p xijolatga tushmoqda edi. Albatta, o‘sha buyuk xavf-xatar va har doim-giday – siyosiy birdamlik kunlarida ko‘plab sofdil insonlar mehnat va mudofaa mas‘uliyatini birgalikda baham ko‘rish uchun komunistlar firqasiga a‘zo bo‘ldilar... ammo kechagina Polya vosita sifatida o‘zining shubhalarini kuchaytirgan ayni o‘sha jo‘shqin ta’sirlanuvchanlik bugun uni Vixrovning qilmishiga nomutanosib ahamiyat qaratishga majbur qilayotgan edi. Varya shoshilganidan institutdagi ayni o‘sha firqa yig‘ilishida professor Gratsianskiy ham a’zolikka qabul qilganini aytishni unutgandi.



Adabiy-badiiy nashr

LEONID MAKSIMOVICH LEONOV

RUS O'RMONI

Romandan parchalar

Rus tilidan *Alisher Sa'dullayev* tarjimasi

Nashr uchun mas'ul *A. Boboniyozov*

Nashrga tayyorlovchi *Sh. Beknazarova*

Muharrir *Sh. Beknazarova*

Rassom-dizayner *B. Zufarov*

Texnik muharrir *L. Xijova, Y. Stepanova*

Kichik mihaarir *M. Salimova*

Kompyuterda tayyorlovchi *N. Ahmedova*

Nashriyot litsenziyası AI № 158, 14.08.2009.

Bosishga 2021-yil 29-oktabrda ruxsat etildi.

Bichimi 60×90^{1/16}. Ofset qog'ozisi. «New Roman» garniturasida
ofset usulida bosildi. Sharqli bosma tabog'i 33,0.

Nash tabog'i 32,90. Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 21-416.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz.

www.iptd-uzbekistan.uz

Leonov, Leonid Maksimovich

L 42

Rus o'rmoni [Matn]: romandan parchalar / L.M. Leonov. –
Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. – 528 b.

ISBN 978-9943-7605-6-1

UO'K 821.161.1-31

KBK 84 (2Ros-Rus)

36739,05

14



L.M. Leonov

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-7605-6-1

A standard linear barcode is positioned vertically on the right side of the page, corresponding to the ISBN number above it.

9 789943 760561